Том был привлекательным, беспринципным и обаятельным, поэтому ему было легко заводить друзей и занимать деньги: «забавный компаньон, и хотя вы знали, что он совершенно ничего не стоит, вы не могли не наслаждаться его обществом. Он обладал приподнятым настроением, неизменной веселостью и невероятным обаянием». Когда у Тома были какие-то проблемы, Джордж всегда помогал своему брату Тому деньгами, и он тоже был прав, потому что это был его долг старшего брата. Нравственное понятие долга умело раскрывается автором в данном случае - «смысл сбережения трети своего дохода и его план состоял в том, чтобы удалиться в пятьдесят пять лет в домик в деревне, где он предполагал возделывать свой сад и играть в гольф". Однако эта часть иллюстрирует главное отличие произведений в том, что в басне Эзопа Муравей отказывается от помощи, в отличие от Георгия. Сомерсет Моэм создал развязку шокирующим и совершенно противоположным образом:

George grew red in the face.

- A few weeks ago he became engaged to a woman old enough to be his mother. And now she's died and left him everything she had. Half a million pounds, a yacht, a house in London, and a house in the country.⁸

⁷ W.S.Maugham. The Ant and the Grasshopper.; short story. pp.3; 2011

⁸ W.S.Maugham. The ant and the grasshopper.; short story. Pp.5; 2011

Джордж покраснел.

- Несколько недель назад он обручился с женщиной, годящейся ему в матери. А теперь она умерла и оставила ему все, что у нее было. Полмиллиона фунтов, яхта, дом в Лондоне и загородный дом.

Буквально говоря, Муравей (Джордж) много работал, а Кузнечик (Том) просто наслаждался, однако, в конце концов, Кузнечику удалось выжить зимой (жизнь) даже с лучшими возможностями, чем у Муравей с новым творением Моэма. Основная идея рассказа, совершенно отличная от заключительной идеи басни, состоит в том, чтобы показать, что то, как человек проводит свою жизнь, является лишь его решением. Вы не должны вмешиваться в жизнь других людей или обвинять их. Некоторые критики утверждают, что его история о том, какой несправедливой может быть жизнь. Эта точка зрения может быть правильной, если принять слова Джорджа и жизненные препятствия, которые испытал Сомерсет Моэм.

George could hardly bring himself to speak.

- You're not going to deny that all my life I've been hardworking, decent, respectable, and straightforward. After a life of industry and thrift I can look forward to retiring on a small income in gilt-edged securities. I've always done my duty in that state of life in which it has pleased Providence to place me.

- True.

- And you can't deny that Tom has been an idle, worthless, dissolute, and dishonorable rogue. If there were any justice he'd be in the workhouse... It's not fair, I tell you, it's not fair. Damn it, it's not fair.⁹

Джордж с трудом заставил себя заговорить.

- Вы же не будете отрицать, что я всю жизнь был трудолюбивым, порядочным, уважаемым и прямолинейным. После трудолюбивой и бережливой жизни я могу с нетерпением ждать выхода на пенсию с небольшим доходом от ценных бумаг с золотым обрезом. Я всегда выполнял свой долг в том состоянии жизни, в которое было угодно провидению поставить меня.

Жизнь Сомерсета Моэма была довольно сложной. Он потерял мать в возрасте 8 лет, а затем, через два года, умер его отец. Парни его возраста не любили его, и он не был близок со своими старшими братьями. Поэтому, наверное, он показал в этой истории, что жизнь иногда действительно несправедлива, но мы всегда должны радоваться всему, что у нас есть.

Вывод. Подводя итог, можно сказать, что в двух блестящих художественных произведениях есть как сходства, так и различия. Основные различия можно увидеть в жанре, стиле и части развязки, тогда как название, характерные черты и восходящая и нисходящая части, а также выражение нравственных понятий, таких как трудолюбие и долг, почти одинаковы. Более того, из двух литературных

⁹ W.S.Maugham. The Ant and the Grasshopper.; short story. pp.7; 2011

произведений мы можем получить два разных вывода. Первый утверждает, что нужно заботиться о своем завтрашнем дне, упорно трудясь и полагаясь на себя, второй изображает идею поэзии *carpe diem* «лови день» — наслаждайся каждым моментом своей жизни. Как однажды сказал знаменитый Далай-лама: «Цель нашей жизни — быть счастливыми». В любом случае, читатель получает важную моральную ценность от обоих произведений, так как понятия трудолюбия и долга умело отражены в нормах, требуемых временем, когда эти произведения были созданы, и, конечно, умный читатель выберет то, что правильно, а что не так сам по себе, потому что литература есть поле глубокого наблюдения за жизнью.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Эзоп. (2007). В Д.Л. Эшлиман (ред.), Басни Эзопа (стр. 91). Нью-Йорк: Группа пингвинов.
2. Басни Эзопа. Греция; 1867 г.; стр.8
3. Б. Э. Перри. Текстовая традиция греческого жития Эзопа; труды и труды Американской филологической ассоциации 64 (1933), стр. 198.
4. Каплингер В. Путеводитель по жанрам и поиску книг. 2017 стр. 15
5. Фаэрно, Габриэлло (1743 г.). Басня LXXXIII, доступна в Интернете. Проверено 4 апреля 2012 г. .
6. «Басня 188». Mythfolklore.net. Проверено 4 апреля 2012 г. .
7. Францкини И. Статья, произведение искусства; 03.09.2020
9. Мейерс Дж. Журнал New York Times. 14.03.2004
10. Пулатова С., Вохидова М. Сомерсет Моемнинг «Ой ва сарик чака» асарида санъат йолида цилинган курбомликлар. Талим тарбия джарайонида инновации йондашувлар, муаммо ва ечимлар мавзусидаги илмий амалий конференцииси, декабр, 2021. В-79-84.
11. Пулатова С., Вохидова М. «Патриотизм как одно из важнейших понятий нравственности». Международный журнал перспективных исследований в области управления и социальных наук. 16.02.2022

ЎСМИРЛАРНИНГ ҲУЛҚ-АТВОРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

Раҳмонов Абдумалик Ўлмас ўғли

Магистр Жиззах давлат педагогика университетиди

Аннотация: Мақолада ўсмирлик ёшига хос бўлган психологик хусусиятларни ўрганилиши, ўсмирлар шахсининг шаклланиши, ривожланиши, камолатга эришиш йўллари ва унга таъсир этадиган биологик ва ижтимоий омилларнинг бевосита таъсирини ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: Ўсмирлик ёши, психологик хусусиятлар, ўсмирлар шахси, камолатга эришиш йўллари, биологик ва ижтимоий омиллар.

Бола жамиятнинг аъзоси, мукамал шахс сифатида муайян ижтимоий муҳитда камол топар экан, унинг бугун билиш жараёнлари, ўзига хос хусусиятлари ва руҳий ҳолатлари, онги ривожланади. Ана шу ривожланиш натижасида унинг психикаси, онги гўдакнинг дастлабки оддий акс эттириш (инъикс) тарзидаги содда онгидаи балоғатга етган инсонларга хос теварак-атрофни, борлиқни, одамларни аниқ, яққол, тўла ва англаб акс эттириш даражасигача тараққий этади.

Инсон зотининг турли жиҳатларини ўрганиш билан болалар анатомияси ва физиологияси, олий нерв фаолияти физиологияси, гигиена, педагогика, этнография каби фанлар шуғуллангани каби унинг камол топишидаги қонуниятларни, субъект психикасини, онгининг мантиқий механизмларини, умуман, одам зотининг туғилганидан то вояга етгунича психик ривожланишини психология фанлари системасининг алоҳида соҳаси — болалар психологияси фани ўрганади ва тадқиқ қилади. Боланинг психик ривожланишини кузатган психологлар (Л.С.Виготский, П.П.Блонский, А.Валлон, Ж.Пиаже ва бошқалар)-нинг аниқлашича, мазкур камол топишнинг ўзига хос хусусиятларига асосланган (сензитив — қулай) 6 даврлари мавжуд бўлиб, улар индивиднинг ўзи яшаб тўрган муҳитда (боғча, оилада) тутган ўрни, билиш жараёнлари, ўзига хос хусусиятлари, ҳолатлари, шахси ва онгининг ўсиши даражаси билан бевосита боғлиқдир.

Ўсмирлик даври 10–11 ёшдан 14–15 ёшгача бўлган даврни ташкил этади. Кўпчилик ўқувчиларда ўсмирлик ёшига ўтиш асосан 5–синфдан бошланади. «Энди у бола эмас–у, ҳали катта ҳам эмас» - бу формула ўсмирлик даври характерини билдиради. Бу ёшда ўсмир ривожда кескин ўзгаришлар рўй бера бошлайди. Бу ўзгаришлар физиологик, ҳамда психологик ўзгаришлардир. Физиологик ўзгариш жинсий етилишнинг бошланиши ва бу билан боғлиқ равишда танадаги барча аозоларнинг мукамал ривожланиши ва ўсиши, хужайра ва организм тузилмаларининг қайтадан шакллана бошлашидир. Организмдаги ўзгаришлар бевосита ўсмир эндокрин системасининг ўзгаришлари билан боғлиқдир. Бу даврда

ички секреция безларидан бири гипофез безининг функцияси фаоллашади. Унинг фаолияти организм тўқималарининг ўсиши ва муҳим ички секреция безларининг (қалқонсимон без, буйрак ўсиши ва жинсий безлар) ишлашини кучайтиради. Натижада бўй ўсиши тезлашиди, жинсий балоғатга етиш (жинсий органларнинг ривожланиши, икқиламчи жинсий безларнинг пайдо бўлиши) амалга ошади.

Ўсмирлар ўзларини катталардек тутишга ҳаракат қиладилар. Улар ўзларининг лаёқат, қобилият ва имкониятларини маълум даражада ўртоқлари ва ўқитувчиларга кўрсатишга интиладилар. Бу ҳолатни оддий кўзатиш йўли билан ҳам осонгина кўриш мумкин. Ўсмирлик ёшига хос бўлган психологик хусусиятларни ўргана туриб, ўсмирлар шахсининг шаклланиб, ривожланиб, камолатга эришиш йўллари ва унга таъсир этадиган биологик ва ижтимоий омилларнинг бевосита таъсирини тушуниш мумкин. Бу даврда ўсмир бахтли болалик билан хайрлашган, лекин катталар ҳаётида ҳали ўз ўрнини топа олмаган ҳолатда бўлади.

Ўсмирлик даври «Ўтиш даври», «Кризис давр», «Қийин давр» каби номларни олган психологик кўринишлари билан характерланади. Чунки бу ёшдаги ўсмирлар хатти-харакатида ноадекватлик, янги шароитларда ўз ўрнини топа олмаганлигидан психик портлаш ҳоллари ҳам кузатилади. Ўз даврида Л.С.Выготский бундай ҳолатни психик ривожланишдаги кризис деб номлаган. Ўсмирлик ёшида уларнинг ҳулқ-атвориға хос бўлган алоҳида хусусияларни асосан жинсий етилишнинг бошланиши билан изоҳлаб бўлмайди. Жинсий етилиш ўсмир ҳулқ-атвориға асосий биологик омил сифатида таъсир кўрсатиб, бу таъсир бевосита эмас, балки кўпроқ билвоситадир.

Ўсмирлик даврига кўпинча сўзга кирмаслик, ўжарлик, тажанглик, ўз камчиликларини тан олмаслик, урушқоқлик каби хусусиятлар хос. Катталарга нисбатан агрессив муносабатнинг пайдо бўлиши, негативизм сингари ноҳуш ҳулқ-атвор аломатлари ўз-ўзидан келиб чиқадиган бевосита жинсий етилиш туфайли пайдо бўладиган белгилар бўлмай, балки улар билвосита таъсир кўрсатадиган ўсмир яшайдиган ижтимоий шарт-шароитлар воситаси орқали: унинг тенгдошлари, турли жамоалардаги мавқеи туфайли, катталар билан муносабати, мактаб ва оиласидаги ўрни муносабатлари сабабли юзага келадиган характер белгиларидир. Мана шу ижтимоий шароитларни ўзгартириш йўли билан ўсмирларнинг ҳулқ-атвориға тўғридан-тўғри таъсир кўрсатиш мумкин.

Ўсмирлар ниҳоятда тақлидчан бўлиб, уларда ҳали аниқ бир фикр, дунёқараш шаклланмаган бўлади. Улар ташқи таъсирларга ва ҳиссиётларга жуда берилувчан бўладилар. Шунингдек, уларга мардлик, жасурлик, тантиқлик ҳам хосдир. Ташқи таъсирларга берилувчанлик ўсмирда шахсий фикрни юзага келишига сабаб бўлади, лекин бу шахсий фикр аксарият ҳолларда асосланмаган бўлади. Шунинг учун ҳам улар ота-оналарнинг, атрофдаги катталарнинг шунингдек, устозларнинг туғри йўлни кўрсатишларига қарамай ўз фикрларини ўтказишга ҳаракат қиладилар. Жуда кўп ўсмирлар бу даврда чекиш ҳамда спиртли ичимликларга қизиқиб қоладилар. Катта

одам, шунингдек чекувчи, ичувчи сингари янги ролда ўзини нормал, қулай ҳис қилади. Бундай ҳолатларга тушган ўсмир жуда ташвишга тушади ва унда кризис ҳолати юзага келади. Бу кризис ўсмирнинг маънавий ўсиши, шунингдек, психикасидаги ўзгаришлар билан ҳам боғлиқдир. Бу даврда боланинг ижтимоий мавқеи ўзгаради, ўзининг яқинлари, дўстлари, тенгдошлари билан янги муносабатлар юзага келади. Лекин энг катта ўзгариш унинг ички дунёсида юзага келади.

Кўпгина ўсмирларда ўзидан қониқмаслик ҳолати кузатилади. Шунингдек, ўзи ҳақидаги мавжуд фикрларининг бугун унда содир бўлаётган ўзгаришларга тўғри келмаётганлиги ўсмирни асабийлашишига олиб келади. Бу эса ўсмирда ўзи ҳақида салбий фикр ва қўрқувни юзага келтириши мумкин. Баъзи ўсмирларни нима учун атрофдагилар, катталар, шунингдек, ота–онасига қарши чиқаётганлигини англай олмаётганлиги ташвишга солади. Бу ҳолат уларнинг ичдан асабийлашишларига сабаб бўлади ва ўсмирлик даври кризиси дейилади.

Ўсмирлик даврида етакчи фаолият–бу ўқиш, мулоқот ҳамда меҳнат фаолиятидир. Ўсмирлик даври мулоқотининг асосий вазифаси бу дўстлик, ўртоқликдаги элементар нормаларини аниқлаш ва эгаллашдир. Ўсмирлар мулоқотининг асосий хусусияти шундан иборатки, у тўла ўртоқлик кодексига бўйсинади. Ўсмирларнинг ота–онаси, катталар билан қиладиган мулоқоти асосан уларнинг катта бўлганлик ҳисси асосида тузилган бўлади. Улар катталар томонидан қилинадиган ҳақ–ҳуқуқларини чеклашларига, қаршилик ва эотирозларига қаттиқ қайғурадилар. Лекин шунга қарамасдан у мулоқотда катталарнинг қўллаб–қувватлашларига эҳтиёж сезадилар. Биргаликдаги фаолият ўсмирга катталарни яхшироқ тушинишлари учун ёрдам беради.

Ўсмир ўзида бўлаётган ўзгаришлар, уни ташвишга солаётган муамолар ҳақида катталар билан бўлишишга катта эҳтиёж сезади, лекин буни ҳеч қачон биринчи бўлиб ўзи бошламайди. Ўсмир ўзига нисбатан ёш болалардек қилинадиган муомила – муносабатига қаттиқ норозилик билдиради. Ўсмирлар мулоқоти ниҳоясида ўзгарувчанлиги билан характерланади. Ўсмирлик даврига кимнингдир ҳатти – ҳаракатини имитация қилиш хосдир. Кўпинча улар ўзларига таниш ва ёқадиган катталарнинг ҳатти–ҳаракатларини имитация тақлид қиладилар. Қайд этиб ўтилган йўналганлик албатта катталарнинг ҳам мулоқот ва муносабатда мавжуд, лекин улар катталарникидан ўз эмоционаллиги билан фарқланади. Тенгдошлари, шунингдек синфдошлари гуруҳида ўсмир ўзининг келишувчанлик хусусияти билан намоён бўлади.

Ўсмир ўз гуруҳига боғлиқ ва қарам бўлгани ҳолда шу гуруҳнинг умумий фикрига қўшилишга ва унинг қарорини доимо бажаришга тайёр бўлади. Гуруҳ кўпинча ўсмирда «Биз» ҳиссининг шаклланишига ёрдам беради ва унинг ички ҳолатини мустаҳкамлайди. Ўсмир ёшдаги бола учун дўст танлаш жуда катта ахамиятга эга. Ўсмирлик даврида дўст жуда қадрли ҳисобланади. Дўстлар доимий равишда руҳан, қалбан яқин бўлишга эҳтиёж сезадилар. Бу эҳтиёж ўсмир дўстларнинг сўрашиши ва

кўришишларида (қўл бериб, қучағлаб кўришиш) бирга ўтириш ва бирга юришга харакат қилишларида кўринади. Кўпгина ана шундай жуда яқин муносабатлар, ўсмирларнинг шахс бўлиб шаклланишдаги, биргаликдаги харакатларини изи инсон қалбида ва хотирасида бир умрга сақланиб қолади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Qarshiboyeva, G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
2. Каршибаева, Г. А., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Факторы суицидального поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.
3. Qarshiboyeva, G. ҲАЁТНИ СЕВИБ ЯШАНГ!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.
4. Qarshiboyeva, G. ЯЗЫК И ФОРМИРОВАНИЕ ВЫСШИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Qarshiboyeva, G. OILADA BOLALARNI XALQ OG 'ZAKI IJODI NA'MUNALARI ASOSIDA TARBIYALASH. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Qarshiboyeva, G. ПСИХОЛОГИК МАСЛАҲАТ. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Qarshiboyeva, G., & Abdurasulov, R. Oquvchi sportchilarning intilish darajasi. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Каршибаева, Г. А. Особенности суицидального поведения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (7), 663-665.
9. Каршибаева, Г. А. Суицидальное поведение-сложное социально-психологическое явление. In Психологические науки: теория и практика (pp. 37-39).
10. Каршибаева, Г. А., Абдукадырова, Н. Х. Психологические особенности педагогических конфликтов. In Психология: традиции и инновации (pp. 65-68).
11. Каршибаева, Г. А. Психопрофилактические меры по предотвращению самоубийств у подростков. Молодой ученый, (49), 233-235.
12. Каршибаева, Г. А. Теоретическая основа проблемы психологических особенностей подростков с суицидальным поведением. Молодой ученый, (49), 230-233.
13. Каршибаева, Г. А., Норбекова, Б. Ш., & Туракулов, Л. Т. Суицид-это не просто способ обратить на себя внимание. European journal of education and applied psychology, (2).
14. Каршибаева, Г. А. Самоубийство в ряду других социальных явлений. Молодой ученый, (5), 581-584.
15. Каршибаева, Г. А., Абдукадырова, Н. Х., & Абдукаримова, Э. И. Педагогические конфликты-неизбежные спутники школьной жизни. In Аспекты и тенденции педагогической науки (pp. 115-117).
16. Каршибаева, Г. А. Некоторые факторы преодоления суицидальных действий среди подростков. In Психология: традиции и инновации (pp. 68-71).

17. Karshiboeva, G. ХАРАКТЕРИСТИКИ МОТИВАЦИОННЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ С СУИЦИДАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 48-49.
18. Karshibayeva, G. Diagnostics and Preventive Measures against the Suicidal Behavior of Teenagers. YOUNG SCIENTIST USA., 117.
19. Каршибаева, Г. А., & Шарофиддинов, А. (2018). Роль пословиц в воспитании детей. Молодой ученый, (49), 275-277.
20. Каршибоева, Г. А. СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛИЗ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ (Doctoral dissertation).
21. Каршибаева, Г. А., Б. У. Расулов, Д. Р. Расулова, О. Э. Эшмуратов. Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка : непосредственный // Образование и воспитание. — 2018. — № 2 (17).
22. Qarshiboyeva, G. (2020). ХАРАКТЕРИСТИКИ МОТИВАЦИОННЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ С СУИЦИДАЛЬНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ. Архив Научных Публикаций JSPI.
23. Каршибаева, Г.А. Аспекты социально-психологического исследования суицидального поведения подростков. Мир образования— образование в мире научно-методический журнал 2021 г. 1 (81) 50-56 ст
24. Каршибаева, Г.А. Эмоциональные аспекты при суицидальном поведении подростка. Scientific Collection «InterConf», (40): with the Proceedings of the 2nd International Scientific and Practical Conference «Scientific Community: Interdisciplinary Research» (January 26-28, 2021). Hamburg, Germany: Busse Verlag GmbH. 304-309 с
25. Каршибаева, Г.А. Причины суицида и факторы риска. Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе сборник статей II международной научно-практической конференции 23 апреля 2021 года. г. Саратов
26. Karshibayeva, G. Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal. // Vol 10 Issue 03, March 2021 501-505 p
27. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
28. Qarshiboyeva, G. Суицидал хулқ муаммосини ўрганилишининг тарихий шарт-шароитлари. Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax (2021 yil 17 may)
28. Qarshiboyeva, G. Ўсмирларда суицидал хулқнинг психологик ҳолатлари. Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Jizzax (2021 yil 17 may)
29. Karshibayeva, G. Диагностика суицидального поведения у подростков. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2021 Выпуск 22. 84-89

30. Qarshiboyeva, G. Ногиронлиги бўлган аёлларга психологик хизматнинг ижтимоий омиллари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2019 йил. РОР-356/7-119

31. Qarshiboyeva, G. Ногиронлиги бўлган аёлларнинг ички руҳиятида пайдо бўладиган ижтимоий психологик муаммолар. Journal of Pedagogy and psychology in modern education Vol. 2, October - 2021

32. Karshibayeva, G. The Problems that Appear in the Internal Psychological Services in the Mental Mode of Women with Disabilities. International Journal of Discoveries and

33. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

34. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and

35. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

**PAXTA TOLASINI ARRALI JINLARDA AJRATISH. ARRALI JINLARDA BO'LIHI MUMKIN
BO'LGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING BARTARAF ETISH USULLARI**

Xidirova Durdona Olim qizi

Guliston Davlat Universiteti

Abdushukurova Ma'mura Abdulla qizi

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: *Paxta tolasini arrali va valikli jinlarda chigitidan ajratiladi, ushbu maqola arrali jinlarda bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari haqida*

Kalit so'zlar: *paxtani jinlash, jin, arrali jin, jin unumdorligi, xavo sarfi, aylanish chostatasi, o'rnatilgan quvvat, texnologik tirqishlar, hom ashyo g'o'las.*

Paxtani tolasidan ajratish, bu- jinlarda tolani chigitida ajratish jarayoni hisoblanadi. Jinlarda ishchi organning konstruksiyasiga ko'ra, arrali va g'o'lalilarga bo'linadi. Tola ajratishdan maqsad talab etilgan unumdorlikda maqbul sifatli va eng ko'p tola chiqarishga erishishdir.

Arrali jinlar ПД rusumli ta'minlagichlar bilan jihozlangan bo'lib, ular paxtaning jinga bir maromda va muvofiqlashgan xolda uzatilishini, shuningdek, uning qo'shimcha titilishini hamda mayda iflosliklardan tozalanishini ta'minlashi lozim.

Paxta iflosliklardan tozalashtirishda oqim tizimi va agregatlardan foydalanganda tozalangan paxtani jinga oxirgi tozalagichdan uzatish mumkin. O'rat tolali paxtaning barcha sanoat navlari УМПД kamerali ЗХДДМ rusumli arrali jinlarda va ДП-130, 4ДП va 5ДП arrali jinlarga qayta ishlanadi.

ЗХДДМ rusumli arrali jin mustahkam konstruksiyaga ega bo'lib shnek, kamera, arrali silindr, korpus, havo kamerasi, o'lik konveyeri, chigit uchun tarnov va elektr uskunalaridan iborat. Ana shu yon devorlarining ustiga arra silindri va quyma boshmoqlar yordamida havo kamerasiga o'rnatilgan.

Korpusning oldingi kerkiga ikkita osgichli ustun o'rnatilgan bo'lib, ularga sharnir usulida ishchi kamerasi mahkamlanadi.

ЗХДДМ jini ДП-130 jini detallari bilan unifikatsiyalanishi uchun modernizatsiya qilingan bo'lib, УМПД kamerasi bilan ta'minlangan. ДП-130 arrali jini ЗХДДМ jinidan farqli yuqori ish unumdorligiga ega bo'lib, ishchi kamerasini ko'tarish va tushirish mexanizmi bilan ta'minlangan. 4ДП-130 jini ДП-130 jinidan farqli takomillashtirilgan ishchi kamerasiga ega.

5ДП-130 jinida arradan tolani ajratish uchun havo kamerasining konstruksiyasi o'zgartirilgan, tovoni kengaytirilgan konsol tipidagi kolosniklar, jinni avtomatik usulda paxta bilan ta'minlash moslamasi hamda toladan iflosliklarni ajratish uchun o'lik ajratish kolosniklari o'rnatilgan.

Paxta taqsimlash shnekidan ПД ta'minlagichiga uzatilib, unda titiladi va mayda iflosliklardan tozalanadi. Jinning unumdorligi, uning ta'minlash valiklarining aylanish tezligini o'zgartirish bilan sozlanadi.

Ta'minlagichlardan paxta tarnovlar orqali ishchi kamerasiga tushurilib, unda arra silindri tishlari ta'siriga uchraydi va hom ashyo valigini hosil qiladi.

Arra silindri tishlari hom ashyo valigidagi paxta tolalarini ilib, kolosniklar orasiga olib kiradi va chigit sirtidan yulib oladi. Arra tishlaridagi tolalar soplodan 55-65 m/daqqa tezlikda chiqayotgan havo oqimi bilan ajratilib, umumiy tola quvuri orqali tola tozalash dastgohiga uzatiladi. Kolosniklarning ishchi qismida tirqishlar kengligi 3,2 mm.dan katta bo'magani uchun chigit o'tib keta olmaydi, aylanib turgan chigitpaxta valigiga qo'shilib ketadi va hamma tolalari ajralmaguncha aylanishda davom etadi.

Jami tolalardan ajratilgan chigitlar o'zining ishlash qobiliyatini yo'qotadi, chigitli tola valigidan ajralib, kolosnik sirtiga va u orqali pastga tushadi. Jindan chiqayotgan chiqayotgan chigitlarning tuklilik darajasi taroq bilan o'zgartirilib turiladi.

Arra tishlari ishchi kamerasidan kolosniklar orqali chiqqandan keyin, tolani tishlardan ajratish bilan birga o'lik va mayda iflosliklardan tozalash jarayoni bajariladi.

O'lik va mayda iflosliklar tolalar arra tishidan ajralmasdan oldin markazdan qochma kuch ta'sirida toladan ajraladi va o'lik koziryogi orqasiga o'tib ketadi. Ajratilgan iflosliklar va o'lik mashinadan vintli konveyer yordamida chiqariladi.

Jinning ta'minlagichi ostidagi iflosliklar mexanik uzatgichlar yordamida ishlab chiqarish chiqindilarini pnevmatik usulda yig'ish tizimiga uzatilib, sexdan tashqariga chiqariladi.

Jindan ajratilgan iflosliklar va o'lik pnevmatik uzatish sistemasi yordamida jinlash sexi chiqindilarini regeneratsiyalash mashinasiga uzatiladi. Arrali jinlar batereyasining ishlash samaradorligi mashinalarning texnik holati va qayta ishlayotgan paxtaning sifatiga bog'liqdir.

Arrali jinlarda bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklar va ularning bartaraf etish usullari

Nosozliklar	Sabablari	Bartaraf etish usullari
1	2	3
Tolada ko'p miqdorda eshilgan tolalar va tugunlar bo'lishi Chigitning me'yordan ko'p zararlanishi va o'likka chigit tushishi Chigitning note-	Paxta ortiqcha namlikka ega yoki tozalagichlarda ezilib qolgan Arralar o'tmas, singan tishlar bor Arra tishlari ninasimon shaklda Arralarning tishlari qayrilgan va singan Ishchi zonada kolosniklar smirilgan va tirqishlari kattalashgan Ishchi kamerada uzunasi bo'yicha notekis	Namlikni me'yorga yetkazish, tozalagichlarni sozlash kerak Arralarni almashtiring Arralarga qum vannada ishlov berilsin Arralarni almashtiring Kolosniklarni almashtiring Ta'minlashni sozlang Arralar va kolosniklarni almashtiring

kis tukliligi Hom ashyo g'o'- Lasining to'xtashi Tolaning chigitga qo'shilib ketishi Tolaga o't ketishi	ta'minlangan Ayrim joylarda arralar va kolosniklarning jarohatlanishi Chigit tarog'ida bir yoki bir nechta qoziqlarning sinishi yoki yo'qligi Hom ashyo g'o'lasini sust Paxtaning namligi ortiqcha Kolosnik panjaraning ustki yoki quyi qismida tiqilish Havo kamerasida havo bosimi- ning yetishmasligi Turli diametrli arralar Havo kamerasining tirqishi tiqilgan Tolani tola tozalagichga o'tkazish quvuri tiqilgan Tola tozalagich tiqilgan Tola tozalagichga o'tkazish quvuridan havo o'tmaydi Kolosniklar orasiga tola tiqilgan, oqibatda tolaning arralarga kuchli ishqalanish yuzaga keladi	Ishdan chiqqan joyini tuzating Oziqlanishni ko'paytiring Namlikni me'yoriga yetqa- qazing Tiqilishni bartarf eting Bosimni sozlang Bir diametrdagi arralarni qo'ying Havo tirqishini tozalang Quvurni tozalang Tiqilishni bartarf eting Qarshilikni bartarf eting Hom ashyo g'o'lasining o'z vaqtida almashtirish va kolosniklarni tozalash, uskuna ishlashining texnologik tartibga rioya qilish kerak
--	--	---

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Paxtani dastlabki qayta ishlash bo'yicha ma'lumotnoma. 1-jild, T., "Mehnat", 1994
2. A. I. Uldiyakov. Sushka xlopka-sirtsas. M., "Legkaya industriya", 1975
3. Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PGQI 02-97). T., "Mehnat", 1997

SO'FIZODA - YO'LCHI YULDUZ

Gulnavoz Mamadaliyeva

magistrant (NamDU)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buyuk O'zbek shoirlaridan biri, ma'rifat jarchisi, haqiqat tarafdori bo'lgan, Muhammadsharif So'fizodaning ijod yo'nalishi, yoshlarni ma'rifat egasi bo'lishi uchun qo'lidan kelgancha harakat qilganligi, ijtimoiy dard kuychisi ekanligi yoritilgan. Bundan tashqari uning ijod namunalari xalqona ruhda ekanligi va tarbiyaviy ahamiyatga egaligi alohida o'rinda keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Muhammadsharif So'fizoda, haqiqatgo'y, ma'rifatparvar, yangi usul maktab, qushlar, xotin-qizlar, ilm-fan,*

Yuksak ma'rifat egasi, o'z davrida achchiq, kinoyali qalam tebratishdan cho'chimagan, maslak-e'tiqoddan hech qachon qaytmaydigan adiblarimizdan biri Muhammadsharif So'fizodadir. U 20- yillardagi she'rlari bilan yangi o'zbek poeziyasini yaratishda samarali xizmat qilgan shoirlarimizdandir. So'fizoda ijodi, shuningdek, aynan kimga qaratilgani aniqligi bilan ham ajralib turadi. U o'z asarini sodda, o'sha davr adabiy til me'yoriga to'la rioya qilgan holda yozgan. Davridagi vaziyatdan cho'chimay, ochiq oydin ijodini cheklamagan, nohaqliklarga ko'z yumib ketmagan. Qayerda bo'lishidan qat'iy nazar she'rlarini aytib yuboravergan, yoki eshik, devorlarga yozib ketgan. Masalan:

Ishchi davlat sinfidan bir dasta vijdoni kasal,
Yig'ladi yolvordi, „yo'qsulman“, dedi, oldi amal...
Yig'la yetmay suvchi meshidek shishib bo'ldi tarang,
Men agar yolg'on desam insof ko'zi bilan qarang.

She'r amaldorlardan biri, Sho'rolar idorasida ishlaydigan Qayum maxsumga atab yozilganligi bilinib turardi, hatto So'fizoda she'rni uning idorasi eshigiga yozib, Maxsumning sifatini aynan keltirgan edi.

Muhammadsharif So'fizodaning taxsinga sazavor amalga oshirgan ishlari ko'p. Ulardan biri yangi usul maktabi ochganligidir, yana uning e'tiborga loyiq islohoti o'z davri ayol, qizlarni ma'rifatparvarlikka chorlaganligidadir.

Bu haqida shoirning zamondoshi O'g'iljon Xolboyeva yoshligini xotirlab: „Otam rahmatli mullo kishi edilar. Shuning uchun bo'lsa kerak hamma farzandlari o'qimishli, jumladan men ham eski maktabda o'qiyotgan qizcha edim. Mahallamizdagi Zubayraxon otinda saboq olib, biroz savodim chiqqan edi. Kunlarning birida firqa aktivlari kelib: „Yangi maktabda o'qiysanmi?“- deb so'radi. Men rizo bo'lsam-da, onam bir daqiqa ko'z yosh qilib oldilar, so'ngra rozilik berdilar.

Biz Kamsadada ochilgan „Uchtilxona“ ga yetib keldik. Xonaga hammadan keyin kirib bordim, xonada chiroyligina, qoraqosh, qomatli kishi kutib oldilar. Bu ustoz So'fizoda edilar. Bir ozdan so'ng men tomonga yuzlanib, savolga tutdilar:

- Qayerda o'qigansiz?
- Zubayraxon otinda.
- I – e, bizning qarindoshda o'qigan ekansizda, - deb menga nazar tashladilar.
- Qaysi kitoblardan saboq oldingiz?

- Ko'p kitoblarni o'qidim, hozir „Amriy“ni o'qiyapman, - deb javob berdim. Xontaxta ustidagi kitoblarni olib o'qib berishimni aytdilar. O'qiganimdan so'ng, qanoat hosil qildilar shekilli, suhbatni davom ettirib:

- Endi bizda o'qiysizmi?
- Ha, - deb rozilik bildirdim.
- Har kuni ertalab o'qishga kelib, peshinda uyga qaytasiz.

O'sha kundan boshlab yangi usul maktabida ta'lim ola boshladim. Darslar davomida ustoz: „Bu yerlar ziyoratgoh joylar, pokiza bo'lib yuringlar“, - der edilar. Olti oy deganda yangicha o'qish va yozishni o'rganib oldim. Yil oxirida hamma qatori o'qish va yozishni o'rganib oldim. Yil oxirida hamma qatori menga kech o'qiganligimdan shahodat beruvchi qog'oz topirdilar.“ – deb aytgan.

Dunyoda o'qituvchilik ishidan ham og'irroq va sharafliroq, undan ham buyukroq ish bo'lmasa kerak. Chunki o'qituvchi inson farzandini haqiqiy kamolot sari yetaklaydi. Har qanday jamiyatning inqirozi-yu tanazzuli, ravnaqi-yu istiqboli uning maktabga, ta'lim-tarbiyaga va ayniqsa, o'qituvchiga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi.

Davr mutaassiblari So'fizodaning maktablari tarqalishiga g'ov bo'lib, maktablarini berkitib, o'zini quvg'in qiladi. Ammo baribir ziyo tarqatishdan qaytmaydi.

Ilg'or ma'orifchi Muhammadsharif So'fizoda „ona bo'lg'uvchi qobila qizlar“ning ahvoliga achinadi, ularning ilm-fan egalari bo'lishlarini orzu qiladi:

- Bechora ona bo'lg'uchi qobila qizlar,
- Nozik qo'liga olmay, o'tar xoma va daftar.
- Ibrat ko'zimiz ko'r, haqiqat qulog'imiz kar,
- So'z to'g'risi shul, bizda bor avra va na astar

Shoir o'z davri qiz va ayollarini ma'rifat egasi qilish uchun bor kuchi bilan harakat qilgan. U o'z asarlarida ayollarning erk-ozozdliki, ilm-ma'rifatga qiziqishi, ota-onasining ra'yidan chiqolmay taqdir hukmiga bo'yin egishini asarlarida yoritib bergan. Masalan: „O'qing, onalar“ deb nomlangan she'rida ma'rifatdan uzoqda savodsiz, omi bo'lib qolayotgan ayollarning huquqini himoya qilgan holda ilm o'rganishga chaqiradi.

- Muncha yomon sho'rladi, peshonalar,
- Qizlarimiz joriyayi xonalar,
- Siz edingiz jonlara jononalar,
- Qadringizni bilmadi debonalar.
- Qumri bilan bulbulu bedonalar,
- Yaxshi o'qir, siz ham o'qing, onalar.

She'r boshlanishidan, davr ayolining holiga achinishdan boshlangan. Baxti qaroligidan peshonasi sho'r bo'lgan ayollarning xonlarning cho'risiga aylangani, qadrsizlangani ko'rsatilgan.

Qushlar jahon xalqlar mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo'luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o'zgartiruvchi unsur sifatida e'tirof etiladi. Ular, asosan, ilohiyot bilan odamlarning o'rtasidagi ko'prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan.

Qushlar timsoli boshqa ko'pgina xalqlardagi singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan. Tasavvuf adabiyotida qush timsoli Tangrisini izlayotgan solik(ning ko'ngli yoki ruhi) shaklida qabul qilinadi.

Qumri ham mumtoz adabiyotimizda sayroqi qush sifatida tasvirlanadi. Bulbul esa Sharq adabiyotida „oshiq“ ramzida kelishi nafaqat adabiyotshunoslarga, balki barcha she'riyat muxlislariga ma'lum. Bedana ham insonlarga zavq beruvchi, ovozi yoqimli qushdir.

So'fizodaning ushbu she'rida qumri, bulbul, bedanalarni ovozi jarangdorligi, sayroqiligi bilan ajralib turishi nazarda tutilyapdi. Onalarni ham nutqingiz shu qushlar kabi jarangdor bo'lsin deb onalarni undayapdi. Shuning uchun har to'rt misradan so'ng takror qo'llagan.

Millati islomiyaning bonusi,
O'zbek elening qorako'z ohusi,
Kar qilur bir kun jahl og'usi,
Ilmu amal ushbu kasal dorusi.
Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o'qur, siz ham o'qing, onalar.

Quyidagi misrada esa, ayollarni islom dunyosining bonulari, o'zbek xalqining qorako'zlari deya go'zal ta'riflar orqali ifodalayapdi. Ushbu tuzmdan norozilik g'azabi bir kuni quloqlarni kar qilish darajasigacha yetadi va faqat buning davosi ilm-ma'rifat ekanligi uqtirilgan.

So'fizoda nega aynan onalarga o'qing deb undayapdi? Hozirgi zamon tibbiyoti bola tarbiyasini ona qornidan boshlash kerakligini uqtiradi. Zero, ziyoli onadan, ziyoli farzand dunyoga keladi. Uzoqni ko'ra olgan So'fizoda esa buni oldindan bilib onalarga qarata aytgan. Ma'rifat egalari qancha ko'p bo'lsa, davlat ham gullab yashnaydi.

So'fizoda jaholat va nodonlik bosh ko'tarib, ayollarni o'qishga tashviq qilganiga „Xonimlar isminda“ she'ridan bilishimiz mumkin.

Na yerda qizlar uchun maktab etdingiz ta'sis,
Na yerdadir u kitoblarki, biz o'qib yozolim.

Misrada: qayerda qizlar uchun maktab tashkil etdingiz, o'sha kitoblar qayerda biz o'qib,yozamiz. She'r xonimlar nomidan aytilgan bo'lib, ilm o'rganishga ishtiyoqi bayon etilgan.

Deyursizlar uquyung vera eskilarda deyor,
Usuli savtiya maktablarin yiqib yoqolim.

Ma'nosi, o'qing dersizlar eski maktablarda, usuli savtiya (harf-tovush maktablarini) yo'qotib.

Ajab shoshiradi bizi turli-turli tashviqot,

Omon sho'roilarning hangi birisin soyolim.

Ma'nosi, bizni shoshiradi turli-tuman tashviqot, sho'roilarga qanaqa nom beraylik.

Darhaqiqat So'fizoda adabiyotga ijtimoiy dard bilan yonib kirgan shoirlardan edi.U safdoshlari kabi ma'rifatparvar shoir sifatida tanildi.

Uning yana boshqa bir she'rida quyidagi misralar uchraydi:

Xonim, suyukli soching vor, na sud shonasi yo'q,

Ochib desam so'zimi ma'rifat nishonasi yo'q.

Ma'nosi: xonim sevikli soching bor,lekin g'unchasi yo'q, so'z aytaman desam, ma'rifatning belgisi yo'q.

Shoir tutqun va turg'un o'lkada she'riyatning o'tkir g'oyaviy qurol bo'la olishini chuqur his etadi va o'z qalamida ma'rifatni tarannum etadi.

Shoir fikrini band etgan muammolar uning huzur-halovatini yo'qotib, unga tinchlik bermagan va umrining so'ngigacha fikrida sobit qolgan. Buni esa haqiqiy ma'rifat jarchisi deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirvaliyev.S O'zbek adiblari,-T.:O'zbekiston Fanlar Akademiyasi „Fan“,1993.
- 2.Qosimov.B, Ahmedov.S, Dolimov.U. Tanlangan asarlar.-T.: Ma'naviyat.1999.
- 3.Husaynxon.O.Muhammadsharif So'fizoda. Namangan. 2007.

УДК: 622/276(075)

ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ВЯЗКОСТНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ МОТОРНЫХ МАСЕЛ НА РАБОТУ ДЕТАЛЕЙ ДВИГАТЕЛЯ

Алимова Зебо Хамидуллаевна
(к.т.н., профессор)

Собирова Дилором Кобуловна
(к.т.н., доцент) Ташкентский государственный
транспортный университет, Узбекистан

Шамансуров Бахтиёр
(подполковник, доцент) Академия Вооружённых сил
Республики Узбекистан, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье рассмотрен вопрос влияние изменение вязкостных свойств моторных масел на работу деталей двигателя. Качество моторных масел, особенно вязкостные показатели значительно влияют на надежность работы двигателя, на расход топлива и на другие параметры. От вязкости зависит коэффициент трения, а следовательно, надежность и экономичность работы машины, агрегатов и узлов трения. Поэтому очень важен качественный подбор и применение моторных масел.

Ключевые слова: моторные масла, вязкость, трение, двигатель, износ, эксплуатационные свойства.

Без применения высококачественных смазочных материалов различного назначения невозможно добиться надежной и длительной работы транспортных средств. Коэффициент полезного действия двигателя внутреннего сгорания находится в пределах от 25 до 30%. Теоретически без изменения принципиальной конструкции двигателя внутреннего сгорания можно повысить коэффициент полезного действия до 40%.

Увеличение коэффициента полезного действия на 1% приводит к увеличению мощности двигателя примерно на 4%, так как 25% КПД соответствует 100% мощности двигателя. Специалистами подсчитано, что на трение и утечки приходится 25—50% всех механических потерь в двигателе автомобиля, а потери в паре трения поршневое кольцо-стенки цилиндра составляют 9—15% мощности двигателя. Другой возможностью уменьшить трение является применение улучшенных смазочных материалов.

Эксплуатационные факторы, такие как быстрота запуска двигателя, прокачивание масла по системе смазки, охлаждение трущихся деталей и их очистка от загрязнений в наибольшей степени зависят от вязкости масла. От вязкости зависит коэффициент трения, надежность и экономичность работы машины, агрегатов и узлов трения.

Вязкость масла в процессе работы двигателя может увеличиваться или уменьшаться. Увеличивается вязкость в результате испарения легких фракций и накопления в масле продуктов неполного сгорания топлива в виде сажи и окисления углеводородов. Также увеличение вязкости обычного, незагущенного минерального масла происходит и при нормальной работе двигателя, когда в нем накапливаются продукты окисления, полимеризации, износа и сгорания.

При неполном сгорании топлива или вследствие его утечек из системы питания оно может попадать в масло. В результате вязкость масла заметно уменьшится (Таблица 1), окисление его произойдет быстрее, смазывающая способность ухудшится, возрастут отложения и нарушится режим жидкостного трения.

Таблица 1.

Изменение вязкости масла, разбавленного бензином
при работе двигателя

Наименование пробы	Содержание бензина в масле, %	Вязкость масла при 50 °С, сСт
Свежее масло	0,0	41,0
Масло, разбавленное бензином	10,0	17,5
через 5 мин работы	7,5	19,0
через 10 мин работы	6,4	20,6
через 30 мин работы	3,5	25,9
через 60 мин работы	1,9	32,0
через сутки работы	0,8	35,7

Чем меньше изменяется вязкость при изменении температуры, тем лучше его пусковые качества. При нормальной работе двигателя из-за накопления продуктов окисления, сгорания и износа вязкость масла увеличивается. При этом происходит ухудшение поступления масла к парам трения, снижается работоспособность системы фильтрации масла и ухудшаются пусковые свойства двигателя. Из-за неполного сгорания топлива или вследствие утечек его из системы питания оно может попадать в масло работающего двигателя, в результате чего снижается вязкость масла и оно разжижается. Это приводит к износу подшипников скольжения коленчатого вала.

Для обеспечения минимального износа деталей двигателя лучше использовать масла большей вязкости. Однако такое увеличение, особенно для двигателей, не прогретых до рабочей температуры, кроме износа, вызывает ухудшение топливно-экономических показателей. Снижается прокачиваемость масел, а чем ниже прокачиваемость, тем выше износ и ниже надёжность работы двигателя. Загущенные моторные масла имеют достаточный уровень вязкости при рабочих температурах и низкую вязкость при отрицательных температурах пуска.

Повышение экономических характеристик двигателя достигается облегчённым пуском, быстрым прогревом, снижением механических потерь и повышением мощности до 7%. В рисунке 1 показано зависимость износа поршневых колец автомобильного двигателя от вязкости масла.




Рис. 1. Зависимость износа поршневых колец автомобильного двигателя от вязкости масла

Значительное увеличение вязкости масла нежелательно, так как при этом уменьшается его поступление к парам трения, ухудшаются пусковые свойства двигателя и увеличивается износ поршневых колец автомобильного двигателя.

Для улучшения вязкостно-температурных характеристик применяют вязкостные присадки. Вязкостными присадками называются такие вещества, которые при смешении с маловязкими маслами значительно увеличивают их вязкость при положительных температурах и не оказывают существенного влияния при отрицательных. Их действие основано на подавлении гелеобразования при низкой температуре в результате кристаллизации парафина. Они повышают текучесть масел при низкой температуре и стабилизируют вязкость при высокой.

Это достигается введением полимерных загустителей. В качестве вязкостных присадок используются разнообразные полимеры, обладающие весьма большой вязкостью. Наибольшее распространение получили полимеры, имеющие молекулярную массу от 15 000 до 25 000. Молекулы полимера такой молекулярной массы имеют лучшую растворимость в маслах и большую термическую стабильность, чем более высокомолекулярные образцы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Смирнов А. В. Автомобильные эксплуатационные материалы: Учеб. пособие / НовГУ им. Ярослава Мудрого. – Великий Новгород, 2004. – 348 с.
2. Кириченко Н.Б. Автомобильные эксплуатационные материалы: Учебное пособие.–М.: Издательский центр «Академия» 2012.–208стр.

3. Джерихов В.Б. Автомобильные эксплуатационные материалы: учеб. пособие. гос. архит.-строит. ун-т. – СПб., 2009. – 256 с.

4. Алимova, З. Х., Шамансуров, Б. Р., Холикова, Н. А., & Аликулов, С. (2021). Влияние антиокислительных свойств смазочных материалов на износ деталей сельскохозяйственных машин. Thematic Journal of Applied Sciences, 1(1).

5. Alimova Zebo Kh, Abdurazzoqov Abduaziz A, & Yuldasheva Gulnora B. (2022). Improving the Anticorrosive Properties of Motor Oils by Adding Additives. Texas Journal of Engineering and Technology, 8, 16–19. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/1717>

6. Alimova Zebo Xamidullayevna, & Niyazova Gulhayo Parpiyevna. (2022). Research of the mechanism of action of the protective properties of inhibited compositions. The American Journal of Engineering and Technology, 4(02), 19–22. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/tajet/article/view/6247>

7. Alimova Zebo Khamidullaevna. (2022). Investigation of changes in the quality of motor oils when operating engines. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(06), 119–122. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/4P2GD>

8. Khamidullaevna, A. Z., & Miraziz, I. (2022). Regularities of the mechanism of varnish formation on the surface of parts of internal combustion engines. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(6), 1-5.

YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVIYATLI, MUSTAHKAM E'TIQODLI, YUQORI MALAKALI MUTAXASSIS DARAJASIGA YETKAZISHDA ONA TILIMIZNING O'RNI

Sadoqat Homidjonova

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tyutori

Yer yuzida mavjud har bir davlatning merosi uning tiliga bog'liq. Bugungi kunda ingliz tili xalqaro muloqot tili hisoblanadi, u hayotimizning har bir jabhasiga kirib borgan va siyosiy hamda iqtisodiy masalalarni hal etishni osonlashtiradi. Biroq har bir mamlakat o'z tilini saqlab qolishga harakat qilishi kerak, deb hisoblayman, chunki aynan til uni o'ziga xos qiladi, uni boshqa davlatlardan ajratib turadi. Ko'p tillarni egallash yaxshi, albatta, til bilgan ko'p bilimlarni egallaydi, biroq til o'rganishni o'z ona tilidan boshlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda imlo xatolarisiz, fikrini go'zal tarzda ifoda eta oladiganlar kamayib bormoqda. O'zbek tilining bor bo'y-bastini, mukammalligini va boyligini ko'rsatib bersak, dunyodagi eng go'zal tillardan biri ekanini isbotlay olardik. Nima bo'lganda ham, ona tilimizga e'tiborli bo'lishimiz kerak, shu bilan birga chet tillarini ham o'rganishimiz kerak, shundagina yuksak marralarni egallashimiz mumkin. O'z tilimizni bilmay, unga hurmatsizlik bilan qarab, chet tilini o'rgansak, hech qanday yutuqlarga erisha olmaymiz, chunki har bir xalq, Yevropami, Osiyomi, avvalo, o'z ona tilini biladi va hurmat qiladi, shu sabab rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining 30 yilligi keng nishonlangach, tilimizga bo'lgan e'tibor bir necha marta oshdi. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida birlashtiradi, ya'ni xalqni – xalq, millatni – millat qiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan "Davlat tili haqida"gi Qonunni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida Qaror chiqarib, tilimizga bo'lgan e'tiborning isbotini amalda ko'rsatib berdilar.

Davlat rahbarining bunday e'tiboridan so'ng tilimizga bo'lgan munosabat o'zgaradi deb umid qilamiz, chunki davlat tilining ahamiyati biroz susaygandek tuyuladi, chunki kadrlarning salohiyati o'zbek tilini bilish-bilmasligi emas, aksincha horijiy tilni mukammal egallagani bilan o'lchanmoqda, vaholanki, o'z tilini bilmay turib, o'zga tilni o'rganib bo'lmaydi.

O'zbek tili oddiy tillardan emas, u agglyunativ tillardan biri bo'lib, xushmuomalalikning turli shakllariga egadir. Bu til boshqa tillarda mavjud bo'lmagan grammatik elementlarga egadir. Bu tilni o'rganish bilan birga inson o'zbek tarixini, boy adabiy merosini o'rganish imkonini egallaydi, zero, Gyote shunday degan: "Inson nechta tilni bilsa, u shuncha marta odamdir". Inson, eng avvalo, muloqot qiluvchi zotdir, shu bois, fikrimcha, millatning tilini unutmaslik zarur, biroq rivojlanishimiz va komil bo'lishimiz uchun bir-birimizni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishimiz shart.

Hozirgi yoshlar juda ko'p yutuqlarga erishmoqdalar, bu esa bizni quvontirmoqda. Biroq yutuqlarga erishayotgan yoshlar ichida zo'r mutaxassis, zo'r sportchi, zo'r diplomatlar ham yo'q emaski, ular o'z tillarini bilmay ko'p qoqilmoqdalar. Yoshlar o'z tilini bilmasliklariga biz kattalar ham sababchi bo'lmoqdamiz, chunki yoshlar bizdan o'rnak oladi. Oddiy misol, kinolardagi yoshlarning sevimli qahramonlari sof Toshkent shevasida so'zlashadi, yomon tomoni shundaki, rejissyorlarimiz adabiy til me'yorlari o'rniga Toshkent shahri shevasining me'yorlarini qo'yib kino ishlagandek, go'yo. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarimiz tiliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarga go'yo Toshkent shevasida gapirish faxr va g'urur tuyg'usini bergandek. Bu ham ona tilimiz qoidalarini buzganga kiradi, fikrimcha. Adabiy til bu tilning eng maqbul va sof ko'rinishi hisoblanadi. Adabiy tilda aholining asosiy qismi gaplashmaydi, biroq adabiy tilning ustunligi shundaki, u hujjatlashtiradi, boshqacha aytganda, sheva bir avlod tomonidan qo'llanilib, boshqa avlod tarafidan unutilganda, adabiy til saqlanib qoladi.

Xalq ta'limida yoshlarni yuksak ma'naviyatli, mustahkam e'tiqodli, yuqori malakali mutaxassis darajasiga yetkazishda ona tilimizning o'rni beqiyosdir, chunki komillikning eng birinchi belgilaridan biri – tildir, zero, tilimizda bizning qiyofamiz, ma'naviyatimiz aks etadi, til millat vakilining ma'naviyatini namoyon qiladi. Shunday ekan, aziz yoshlarimiz komillikka intilishni o'z ona tillarini mukammal egallashdan boshlasalar jahon hamjamiyatida yanada yuksak marralarni egallashar edi.

NASILSIZLIKDA QO'LLANILADIGAN VOSITALAR

Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi kunning dolzarb momolaridan biri bo'lgan nasilsizlikning asosiy omillari talqin etildi. Bu borada buyuk shifokorlarning tafsiyalari keltirilgan. Nasilsizlikning obyektiv va sbyektiv omillari tushuntirilgan. O'zbekistonda aholi o'rtasida nasilsizlikga qarshi olib borilayotgan ishlar haqida malumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Idiyopatik bepushlik, Varikasele, Endokirin, Yuqumli kasaliklar, Kriptorxizm, Ereksiya funksiyasini buzilishi, Immunolik omil, Tizimli kasaliklar, Siydik yo'li abstruksiyasi, Mayaklar saratoni, bepushlik, nasilsizlik, kontratsptsiya, bachadon, Reprudaktiv, tak-tak, chumchuq miyasi, kabutar tuxumi.*

Butun dunyo turmush o'rtoqlarining 8 -12 % bepushlik momosini boshdan kechirmoqda. Bepushlik o'zi nima, bachadonni tabiiy ravishda chaqaloqqa o'xshamaslik deb tariflash mumkin. Aniqroq qilib aytganda bepustlik 12 oylik muntazam kontratsptsiya usuli bilan homlador bo'lmagan holadga aytiladi. Tibbiyotda bepushlik momosini aniqlash uchun, 35 yoshgacha bo'lgan eri xotinlar kamida 1 yil davomida birga bo'lishlari kerak.

Ayollar bepushligi – ko'plab muoyan omillar bilan bog'liq. Har doim ham sabablar aniq bo'lmaydi, bazi xollarda ular tashhislanmaydi. Agar nasilsizlikni malum omillarni umumlashtirsak nasilsizlik sabablarini ajratsak bo'ladi.

Reprudaktiv organlarning tug'ma anomalyalari. Reprudaktiv organlarda kelib chiqqan anatomik va marfalogik o'zgarishlar, funksiyanal buzilishlar va moddalar almashuvini buzilishi.

Yuqorida keltirilgan malumotlar ayollar bepushligini o'ziga xos sabablari aks ettirildi. Karonavirusni xotin qizlarda nasilsizlikni keltirish ehtimoli bor. Pandimiya paytida yurtimizda kasalik yuqtirayotganlarni 3 dan 2 qismi erkaklar, 3 dan bir qismi ayollar hisoblanadi. Ushbu kasalik organizmdagi xiramasomalar tuzilishiga tasir ko'rsatadi. Bu esa umum tizimiga tasir ko'rsatadi.

Erkaklarda bepushlik omillari va davolash usullari. Hazirgi kunda erkaklarda nasilsizlik, nasilsiz oylalar holatining 50% to'g'ri keladi. Shuni aytish kerakki chorak asr avval 40% ni tashkil etgan yani erkaklarni nasilsizligi ko'paymoqda.

Erkaklarda nasilsizlik omillari:

Idiyopatik bepushlik 31.1% ni

Varikasele 15.6% ni

Endokirin 8.9% ni

Yuqumli kasaliklar 8 %

Kriptorxizm 7.8%

Ereksiya funksiyasini buzilishi 5.9%

Immunolik omil 4.5%

Tizimli kasaliklar 3.1%

Siydik yo'li abstruksiyasi 1.7%

Mayaklar saratoni 0.3%

Erkaklarda nasilsizlik diagnostikasi : Erkaklarda nasilsizlik tekshiruvini sperma tahlilidan bo'shlash kerak, yani laboratoriya diagnostikasi zarur. Odamlarda speremaning o'zgaruvchanligi spermatogenez sklini 72 - 74 da sodir bo'lishi va ushbu davirda spermatineza salbiy tasir ko'rsatadigan ko'lab hodisalarni yuz berishi

Masalan yuqori istima , intoksikatsiya va dori darmonlar qabil qilish bilan yallig'lanish kasalliklari. Jismoniy ortiqcha yuk , chekish , sipirtli ichimliklar istemol qilishi va ko'plab salbiy omillar tasir ko'rsatishi mumkin.

Bepushsizlikni tabiiy yo'llar bilan davolash usullari:

Yuqorida aytib o'tilganidek, faqat xronologik yoshni hisobga olish yetarli emas. Samarali individuallashtirish uchun bolaning rivojlanish darajasini ham hisobga olishimiz kerak. Bolalarning rivojlanishi ko'pincha notekis bo'lib, madaniy omillar qaysidir sohada rivojlanishga ta'sir etadi. Agar guruhda qobiliyatli bolalar yoki rivojlanishida orqada qolgan bolalar bo'lsa, rivojlanish darajalari oralig'i katta bo'ladi, bu esa pedagogdan kun davomida individuallashtirishni turli usullar bilan rejalashtirishni talab qiladi.

Shaxsiyat va temperamentShaxsiyat va temperamentning ko'pgina xususiyatlari mavjud va ularning har biridakontinuumlarni mavjud bo'lib, har bir bolani ularga joylashtirish mumkin. Biz shuni bilishimiz kerakki, o'z shaxsiyatimiz va temperamentimiz bolalarning shaxsiyati bilan mos tushishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Ushbu farqlarni tushungan va qabul qilgan holda biz bolalarning yashash hayotini yaxshi tomonga o'zgartira olamiz, ularning shaxsiyati va temperamentiga mos holda mashg'ulotlar rejalashtiramiz.

Gender va gender tenglik

Bolalarga, odatda, gender asosida o'zlariga do'stlar va turli xil mashg'ulotlarini tanlash imkoniyati berilgan bo'lsa-da, u qachon sodir bo'lishini bilmoq kerak va barcha bolalarda turli xil material, o'yinlar orqali kompetentligini uyg'otish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagoglar gender stereotiplariga qarshi turishlari, o'g'il bola va qizlarni turli tadbirlarda birga o'ynashga undashlari lozim.

O'quv uslubi

Barchada bilim va ko'nikmalarni egallashda o'z tanlovlari mavjud. Oramizda kimdir audialdir (biz eshitish orqali yaxshiroq o'rganamiz); yana kimdir vizualdir (biz qanday bajarilishini ko'rishimiz, qanday bajarish kerakligini o'qishimiz yoki rasmlar orqali ko'rishimiz kerak); boshqalar kinestetiklardir (biz nimadir qilishimiz kerak). Yosh bolalarning ilk davrlarida ushbu ko'rsatkichlar o'zini namoyon qilishi yoki aksincha sezilmasligi mumkin. Pedagoglar turli xil (eshitish, ko'rish va bajarish) usullar yordamida yangi bilim va ko'nikmalar orqali barcha bolalar bilim olishlarini tashkil qilishlari lozim. Barcha bolalar yutuqlarga erishishi uchun pedagoglar turli xil ta'lim uslublarini inobatga olishlari kerak.

Aql-idrok turi

AQShlik psixolog Howard Gardner (1983) sakkiz xil turdagi aql-idrokni ajratib ko'rsatdi. Bularni kuchli aql-idrok sohibi bo'lgan bolalarda aniqlab olish mumkin:

- lingvistik – so'z va tilning tovushlarini, strukturasi, vazifasining ma'nolarini tushunadi va ishlatadi;

- mantiqiy-matematika – mantiqiy yoki sonli sxemalarni farqlaydi; mantiq asosida fikrlaydi va xulosalar chiqaradi;

- fazoviy – vizual / fazoviy dunyoni idrok qiladi va aniq ifodalaydi;

- tana-kinestetik – tana harakatlarini nazorat qiladi va ob’ektni ustalik bilan boshqaradi;
 - musiqiy – ritm, ohang, maydon va tembrni qayta ishlab chiqadi va musiqiy ifoda shakllarini qadrlaydi;
 - shaxslararo – boshqa odamlarning temperamentini, motivatsiyasi va istaklarini tan oladi hamda kayfiyatga mos javob beradi;
 - ichki shaxsiyat – o’z tuyg’ularini biladi va shu asosda harakat qiladi;
- naturalistik – hayvonlar, o’simliklar, geologiya dunyosini yaxshi tushunadi va o’zaro hamkorlikda bo’ladi.

Bu nazariyaning asosiy ma’nosi shundaki, ko’pgina aql-idrok mavjuddir va ularning har biri jamiyat uchun bir xilda qiymatga ega. Ta’lim berishda esa pedagoglar, asosan, faqat ikki yoki uchtagina e’tibor qaratadilar. Pedagoglar bolalarda alohida boshqa kuchli tomonlarni ko’rsalar, ularni e’tiborga olish va baholash, ulardan foydalanishlari lozim.

Qiziqishlar

Ko’pchilik bolalarda kamida bitta bo’lsa ham qiziqish bor. Yosh bolalar uchun bu yuk mashinalari va avtomobillar, ma’lum sport turi, musiqa va qo’shiqlar, ayrimlari hayvonlar va boshqalar uchun sevimli mashg’ulot bo’lishi mumkin. Pedagoglar bu qiziqishlarni turli tadbirlarga, faoliyat turlariga jalb qilishlari yoki ular bo’yicha loyihalar ishlab chiqishlari mumkin. Ba’zan bolalar o’z qiziqishlarini faqat uyda ifodalaydilar va uni guruh ichida namoyish etishga iymandilar. Shuning uchun oilalarga borib, ota-onalardan ular haqida so’rash kerak.

Kuchli taraflar va ehtiyojlar

Barcha bolalarning kuchli tomonlari (ayniqsa, ular nimani yaxshi bajaradi) va ehtiyojlari (yaxshi bajarishlari uchun ularga qanday yordam kerak) mavjud. Ba’zan kuchli xarakterlar va ehtiyojlar bir-biri bilan uzviy bog’liqdir. Pedagoglar o’z ehtiyojlarini qondirishga yordam berish uchun bolalarning kuchli tomonlaridan foydalanishlari lozim. Misol uchun, guruhingizdagi ikki nafar qiz taom tayyorlash jarayoniga qiziqishi va bu uchun ko’p vaqt sarflashi mumkin, ammo ular kitob o’qishni umuman yoqtirmaydilar. Demak, siz ularni oziq-ovqat yoki taom tayyorlash haqidagi hikoyalar o’qib berib, shu haqdagi kitoblar berib qiziqitirsangiz, ularning yana bir xarakterini kashf etasiz. O’ziga ishonch

O’ziga ishonch ko’rsatkichlari quyidagi vazifalarni o’z ichiga oladi: bolalar o’zini qanday qabul qiladi, o’zlarining asl kuchli tomonlarini va ehtiyojlarini qanchalik biladilar; qanday qilib ular ma’lum bir vazifani bajarishda o’z qobiliyatlarini baholaydilar, shuningdek, biror ishni bajarish uchun kattalardan ruxsat olishi, kattalarga yordam berishi kabilar. Bolalar guruhga har xil ishonch bilan yoki o’z-o’zini yaxshi his qilib keladilar. Ba’zilar o’zlarini o’z hisoblaydilar, boshqalar esa o’zlarini o’ta qobiliyatli hisoblaydilar. Ba’zilari bu ikki toifa o’rtasida bo’ladilar. O’z-o’ziga juda ishonish yoki vazifani bajarishda o’ziga yuksak baho berish ishonch yo’qligi kabi muammoli vaziyatlarga olib keladi. Pedagoglar bolalarga

o'zo'zini haqiqiy hissiy rivojlantirishga, ular muayyan vazifalarni o'zlari bajarishlari uchun juda qiyin ekanligini aniqlash mumkin bo'lsa, ularning muammolarini (o'z samaradorligining muhim qismi) hal qilishda, resurslarni topishga yordam berishi mumkin. Iшонchni oshirish bolalarning izzat-nafsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan faoliyatini rejalashtirish ularga o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga yordam berishning bir usulidir.

Alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishi

Yuqorida sanab o'tilgan individual xususiyatlarga qo'shimcha ravishda, bizning guruhimizda pedagoglarning maxsus qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan alohida ehtiyojli bolalar bo'lishi mumkin, ularni atrof-muhitda muayyan o'zgarishlarni, resurslarni, alternativ aloqa usullarini va zarur moslashuv hamda o'zgartirishlarni ta'minlash orqali guruh hayotiga to'liq kiritish mumkin. Bolaning individual xususiyatlarini rivojlantirish uning qaerda, qanday sharoitda, kim tomonidan va qachon tarbiyalanishiga bog'liq. Demak, bolaning rivojlanishi kattalar va tengdoshlariga aloqador. Har bir bola o'z shaxsiyatiga xos va noyobdir. Ta'lim va tarbiya jarayonida, eng avvalo, har bir bolaning individualligi va o'ziga xosligini hisobga olishimiz kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoni har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishi kerak. Individuallashtirish har bir bolaning individual rivojlanish darajasini hisobga olish va tegishli faoliyatni rejalashtirish orqali erishiladi. Bu har bir bolaga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini beradi. Guruhning faol faoliyat jadvalida ham, dam olish vaqtida ham har bir bolaning ehtiyojlari hisobga olinadi. Guruhdagi barcha materiallar va jihozlar, o'quv muhiti bolalarning har birining rivojlanishiga, ta'limni individuallashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi –ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablaridan kelib chiqqan holda va davlat o'quv dasturiga muvofiq bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Maktabgacha ta'lim dasturi bolaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, uning shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochish, kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikka asoslangan tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashtirishining shartidir. Ma'lumki, bolalar xulq-atvori bilan bir-biridan farq qiladi. Har kimning o'z qiziqishi va qobiliyati bor. Shaxsni tarbiyalash va yaxshi bolalar jamoasini yaratishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun pedagog tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishi va tushunishi kerak. Bu esa pedagog oldida turgan barcha pedagogik vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini belgilaydi. Individuallashtirish ikki qismga o'zaro bog'liq – bolaning individual xususiyatlarini o'rganish va tushunish hamda pedagogik individual yondashuvni topish yoki yaratishdan iborat. Bolani har tomonlama tarbiyalashning majburiy va zaruriy sharti uning individual sifatlarini rivojlantirishdir. Birinchidan, individual yondashuv bolaning ijobiy sifatlarini mustahkamlaydi va

kamchiliklarni bartaraf etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida bola sifatining faqat kuchli tomonlariga tayanish lozim. Individual xususiyatlarni o'rganishda bolaning ota-onasi bilan, uning oilasi bilan tanishish, oiladagi turmush tarzi va munosabatlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, shuningdek, pedagog bolaning psixologiyasini bilmasdan turib individual yondashishi mumkin emas. Psixologiya bola tushunchasini shaxs sifatida belgilaydi. Shaxsning shakllanishi uchun oliy nerv faoliyatining xususiyatlari kata ahamiyatga ega: temperament faoliyatga, samaradorlikka, xulq-atvor muvozanatiga va turli tashqi sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Xarakter insonning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xarakter – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari majmui, u o'zingiz va boshqa odamlarga nisbatan harakatlarda, mehnat qilishda namoyon bo'ladi. Xarakter tug'ma emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadi.

Uni doimiy ravishda rivojlantirish kerak. Eng muhimi, xulq madaniyatini rivojlantirish: uyda, kattalar, tengdoshlar bilan muloqotda, o'yinda, guruhda, boshqacha aytganda, bolalarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashdir. Uchinchidan, individual yondashuv bola faoliyatini hisobga olmasdan va uning atrof-olamga munosabatini, bola manfaatlarini hisobga olmasdan iloji yo'q. Faol faoliyatda shaxsiy sifatlar va xarakter rivojlanadi. Faoliyat maqsadga muvofiq va ongli bo'lishi kerak. Bolalar bilan olib boriladigan barcha ta'limtarbiya va pedagogik ishlarda individual yondashuvni kuzatish lozim. Individual yondashuv pedagogdan ko'p sabr-toqat, turli murakkab vaziyatlar va xatti-harakatlarni tushunish qobiliyatini talab qiladi. Barcha hollarda sababni topish kerak, u salomatlik, temperament, ekologik sharoitning ta'siri bo'lishi mumkin. Har kuni bolalar harakatlarini har tomonlama va chuqur tahlil qilish talab etiladi. Bolaning nima uchun salbiy harakat qilishini tushunish kerak, shunda, harakatning sababini o'rganish va unga ta'sir qilish yo'llarini topish, unga yondashish usulini to'g'ri aniqlash mumkin.

Turtinchidan, bolalarning individual qobiliyatlarini o'rganish bolani tizimli kuzatish, u bilan pedagog o'rtasida aloqa o'rnatishni talab etadi. Faqat bola bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish orqali siz uning xarakterining xususiyatlarini tushunishingiz mumkin. Kattalarning unga bo'lgan qiziqishi, iliq munosabati va bolaga bo'lgan hurmat bolada azaldan mavjud bo'lgan barcha yaxshiliklarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar bilan individual ishlash uchun quyidagilarga e'tibor qilish kerak bo'ladi:

- ertalabki qabul paytida ota-onalar bilan bolaning salomatligi haqida suhbatlashish;
- har bir bolaga ularni qiziqtiradigan narsalarni bajarish imkoniyatini berish, tinch, ijobiy muhit yaratish va uni saqlash;
- nonushtaga tayyorlanganda va taomlanish vaqtida e'tiborli bo'lib, madaniy-gigienik ko'nikmalarga to'liq ega bo'lmagan bolalarga, ishtahasi yo'q

bolalarga yordam berish, sekin ovqat yeydigan bolalarni tabiat burchagida ishlashga jalb etish;

- uyatchan, tortinchoq yoki mashg'ulotlarda qatnashmagan bolalar bilan umumiy guruh mashg'ulotlarda ishtirok etish uchun ularni tayyorlash;

- sayrga chiqish uchun kiyinish ko'nikmasini tarbiyalash, bemor va zaiflashgan

bolalarga alohida e'tibor berish, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni bir-biriga yordam berishga undash;

- sayr davomida turli maqsadlarga erishiladi: uyatchanlikni bartaraf etish, yangi bolani jamoaga jalb etish, kuzatishni rivojlantirish, mashg'ulotlarga qatnashishga tayyorgarlik ko'rish, mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash;

- har qanday faoliyatda alohida o'rnak bo'ladigan bolalarga imtiyoz berish;

- gapirishda qiynalayotgan bolalar bilan she'rlar, tez aytishlar yod olish;

- kechqurun ota-onalar bilan muloqot qilish, kun davomida bolaning faoliyati haqida gapirib berish, savollariga javob berish, o'zlari qiziqqan mavzu bo'yicha tavsiyalar berish.

Inklyuziv ta'limga jalb etilgan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan amalga oshiriladigan ish usullari sirasiga birlamchi tashxis, yakka va guruhli mashg'ulotlarni o'tkazish kiradi.

Birlamchi tashxis orqali korreksion-pedagogik hamda reabilitaqaia tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqishga doir dastlabki tavsiyalar beriladi, korreksion ish yo'nalishlari hamda yordamning xususiy shakllari belgilanadi.

Bolaning individual yo'nalishiga muvofiq rivojlanishidagi kamchiliklarini e'tiborga olgan holda kundalik ravishda bola bilan yakka tartibda mashg'ulotlar olib boriladi. Mazkur mashg'ulot davomida, bolalardagi asosiy nuqson turidan tashqari, kuzatiladigan ikkilamchi nuqsonlar korrekqiyalanadi. Frontal mashg'ulot jarayonida defektolog ta'limiy-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda korreksion ish usullaridan foydalangan holda mashg'ulotni tashkil etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi asosan bolalarning yashash joyiga yaqin bo'lgan qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarda tashkil etilishi, bunday tashkilotlar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o'qitish usullari va ta'lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlab, ularning imkoniyatlari, o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, individuallashtirish ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limtizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

4. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-"Uzinkomsentr"-2002 yil.

5. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobimi nujdami v doshkolnykh i shkolnix uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTSO Resursno'y sentr YuNESKO Tashkent 2002

6. "Dakarskiye ramki deystviy"- YUNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsekh»(osnovniye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opita) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004

7. «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

8. Imkoniyati chyeklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T.,19 sentabr, 2005.

9. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995

SIMSIZ KENG POLOSALI ALOQA TIZIMLARINING RIVOJLANISHI

Eshonqulov Almurod Axmad o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

II- bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola simsiz keng polosali aloqa tarmoqlarining asosiy zamonaviy texnologiyalarini samaradorligi rivojlanish bosqichlariga bag'ishlangan bo'lib, aloqa sohasida o'rni va ishlash faoiylati bilan tanishib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Wifi, WiMax, Internet, Wlan, radio, aloqa chastota diapazoni.*

Simsiz keng polosali ulanish (SKPU) texnologiyalari infokommunikatsion texnologiyalarning nimsinfi hisoblanadi va bir biridan olisdagi ikki va undan ortiq ob'ektlar oralig'ida simli ulanishsiz axborot uzatish uchun ishlatiladi. Simsiz aloqa uchun radioto'lqinlar, infraqizil, optik yoki lazerli nurlanishlar ishlatilishi mumkin. Hozirgi vaqtda foydalanuvchilarga Wi-Fi, WiMAX, Bluetooth, RFID, ZigBee kabi "tijorat" nomlari bilan ma'lum bo'lgan ko'plab simsiz texnologiyalar mavjud.

Simsiz texnologiyalarning rivojlanishida uy foydalanuvchilari ham katta rol o'ynashadi. Uy tarmog'ida qancha ko'p qurilmalar bo'lsa, ularni bog'laydigan simlar ham uyni shunchalik kuchli o'rab oladi. Va bu simsiz texnologiyalarga o'tishga sabab bo'ladi. Zamonaviy uying qulaylik darajasini oshirish, ya'ni uning barcha tuzilmalari va ob'ektlarini (kompyuterlar, televizor, raqamli fotokamera, uy musiqiy markazi, qo'riqlash tizimi, iqlim tizimi, maishiy texnika va boshqalar) bir tizimga birlashtirish – bu "aqlli uy" g'oyasining asosidir va bunda simsiz texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Simsiz keng polosali ulanish texnologiyalari simsiz va tarmoq texnologiyalari sinergiyasi namunasi hisoblanadi va juda katta rivojlanish istiqboliga ega. Shu sabab simsiz keng polosali texnologiyalar tarixining boshlanishi deb, qaysidur ma'noda, ilk radioaloqa paydo bo'lishini hisoblash mumkin. Ma'lumki, radioaloqaning birinchi omadli sinovlari 1893 yilda serb olimi Nikola Tesla, keyinchalik 1895 yilda A.S.Popov va Italiyalik Guglielmo Markoni (Guglielmo Marconi) tomonlaridan bir-birlaridan mustaqil ravishda amalga oshirildi. Bu kashfiyotlar birinchi marta simsiz axborot uzatish imkoniyatini ko'rsatdi va bu bilan aloqa rivojlanishi tarixida yangi erani boshladi. Keyin esa insoniyat qadamma–qadam simsiz aloqa va axborot uzatish tizimlarida yanada katta yutuqlarga erishdi, xususan:

- XX asrning 20 yillarida amplitudaviy modulyatsiyaning birinchi tijorat radiobloklari paydo bo'ldi;
- 1933 yilda chastotaviy modulyatsiyali radio kashf qilindi va televidenie paydo bo'ldi;
- 1946 yilda AT&T va Bell Systems (AQSh) kompaniyalari bo'lajak sotali tizimlarning timsoli bo'lgan harakatdagi telefon aloqa tajriba tizimini (ingl. MTS) ishga tushirishdi;
- 70 yillarning oxirlarida sotali aloqaning birinchi avlod - 1G tizimlari ishga tushirildi;
- 1973 yilda lokal kompyuter tarmoqlarining birinchi protokoli -

Ethernet ishlab chiqildi (keyinchalik u IEEE 802.3 maqomini oldi); – 80 yillarda ma'lumot uzatish bo'yicha harbiy tizim - ARPANET dastlab milliy, keyin esa xalqaro miqyosdagi umumiy foydalanish tarmog'i - INTERNET ga aylandi.

Bu yerda shuni ta'kidlab ketish zarurki, simsiz keng polosali texnologiyalarning rivojlanishi axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarini yanada dolzarb qiladi. Simsiz tarmoqlar ishlatilganda asosiy tahdidlar xabarlarini, parollarni, kredit kartochkalar nomerlarini ilib olish, to'langan ulanish vaqtini o'g'irlash, kommunikatsion markazlar ishiga aralashish va boshqalar hisoblanadi. Bu muammolar aloqa standartlarini takomillashtirish jarayonida hal qilinadi.

Simsiz texnologiyalar nazariyasida ularni tasniflashda turli yondashishlar mavjud. Jumladan, raqamli va analog, tor va keng polosali texnologiyalar ajratiladi. Raqamli texnologiyalar xaqida gap ketganda ko'pincha signal ham raqamli (diskret) shaklga ega bo'lishi tushuniladi. Bu tushuncha ko'proq simli tarmoqlar uchun to'g'ri bo'ladi. Simsiz tarmoqlarda esa "raqamli" belgisi radiokanal orqali uzatiladigan axborotlarga tegishli, ammo radiosignalni o'zi esa hali ham garmonika shaklidagi modulyatsiyalangan analog signali bo'ladi.

Tor va keng polosali tizimlar orasidagi farqni ham oson aniqlab bo'lmaydi (ular orasidagi chegara ham texnologiyalar rivojlangan sari yuqoriga siljimoqda). Shuningdek, bu belgiga nisbatan ham simli va simsiz texnologiyalarda qabul qilingan tushunchalar orasida farq kuzatiladi.

Simsiz tarmoqlarda nazariy qabul qilinishicha, ishchi polosasining keligi F bu polosaning markaziy chastotasi f_c dan ancha kam (ya'ni, $F/f_c \ll 1$) bo'lgan tizim tor polosali hisoblanadi. Aks holda, tizim keng polosali hisoblanadi. Amalda esa hozirgi vaqtda 1,25 MGsdan 40M Gsgacha kenglikdagi kanallarni ishlatadigan texnologiyalar keng polosali tizimlar turkumiga kiritiladi. Shuningdek, keng polosali texnologiyalar yuqori ma'lumot uzatish tezligini (1 Mbit/sekundan dan past emas) ta'minlaydi.

Mazkur qo'llanmada keng polosali simsiz raqamli tizimlar sinfiga kiradigan texnologiyalar yoritiladi va ularni sinflarga bo'lishda ko'pincha quyidagi yondashuvlar ishlatiladi:

1. Aloqaning uzoqligi bo'yicha tarmoqlar quyidagi sinflarga ajratiladi:

– Bir necha detsimetrlardan bir necha dekametrlargacha radioqamrovga ega simsiz personal tarmoqlar (ingl. Wireless Personal Area Networks - WPAN). Periferiya qurilmalari, turli hisoblagichlar, xabarchilar va boshqalar bilan aloqa uchun mo'ljallangan. Bu texnologiyalarga misollar Bluetooth, RFID, ZigBee texnologiyalar hisoblanadi.

– Bir necha yuzlab metrlargacha ta'sir etish radiusili simsiz lokal tarmoqlar (ingl. Wireless Local Area Networks - WLAN). Ular

ofis (tashkilot) ichidagi (ba'zan ofislararo) aloqani tashkil etish uchun mo'ljallangan. Ular qatoriga Wi-Fi, DECT, Femto-sota kabi texnologiyalarni qo'shish mumkin.

– Bir necha, hatto o'nlab kilometrlargacha qamrov radiusiga ega shahar (hudud) ko'lamidagi simsiz tarmoqlar (ingl. Wireless Metropolitan Area Networks - WMAN). Yirik

shahar atrofida yoki tumanlarda xizmat ko'rsatadigan tarmoqlarni yaratish uchun mo'ljallangan tizimlar. Ular sifatida WiMAX va WiBro texnologiyalari, sotali va tranking, shuningdek radio va teleuzatish tizimlari misol bo'lishi mumkin. WiMAX texnologiyasidan shahar miqyosida keng polosali ulanish tarmoqlarini (ingl. Metropolitan Area Networks, MAN) yaratish, simsiz ulanish nuqtalarini tashkil qilish ("nuqta - ko'p nuqta" rejimi), bir-biridan olis ob'ektlar orasida yuqori sifatli aloqa tashkil etish ("nuqta - nuqta" rejimi) va shunga o'xshash masalalarni yechish uchun foydalanish mumkin.

Umuman olganda, IEEE 802.16 standartining bazaviy xarakteristikalari 50 kilometrgacha bo'lgan ta'sirning uzoqligi darajasini, to'g'ri ko'rinish zonasidan tashqarida ishlash imkoniyatini, BS ning bir sektorida (jami BS 6 tagacha sektorga ega bo'lishi mumkin) ma'lumot almashuv tezligini maksimal (pik) holatda 70Mbit/sek. gacha ko'tarilishini ko'zda tutadi. WiMAX tarmoqlarining jihozlari 2 - 11GGs diapazonida 10-20MGs kenglikdagi bir necha kanallarda ishlashi mumkin. Chastota diapazonlarning bunchalik keng tanlanishi dunyoning ko'plab mamlakatlari spetsifikatsiya(tavsifnoma)larini hisobga olish uchun qilingan.

Shunday qilib, WiMAX ma'lumot uzatish tezligi bo'yicha simli tarmoqlar bilan taqqoslana oladigan va unumdorlik hamda qoplash bo'yicha zamonaviy Wi-Fi tarmoqlaridan yuqoriroq bo'lgan ,

Internetga tezkor ulanish uchun yaratilgan texnologiya hisoblanadi.

Simsiz aloqadan foydalanishda ma'lumot olishda (yoki qabul qilishda) simli aloqaga nisbatan qulayligi va yuqori darajadagi samaraligiga erishiladi. Wi-Fi tarmog'i asosan kichik hududdagi shu jumladan, bitta yoki ikkita lokal tarmoq (yoki 2 ta masofasi yuz metrdan oshmagan korporativ tarmoqlarni simsiz aloqa orqali ulash)ni simsiz aloqa orqali birlashtirish maqsadida ishlatiladi.



Lekin bu texnologiya bir qancha noqulayliklarga ega:

- simsiz aloqa (harakat) radiusining kichikligi
- global tarmoqqa ulanishda bir qator to'siqlarga duch kelishi va boshqalar.

Tarmoq ulanishi imkoniyatlari qanchalik yuqori bo'lishiga qaramasdan, quyidagi 3 ta asosiy tarmoqqa qo'yiladigan talablarni bajarish qiyin, bular: yuqori o'tkazuvchanlik qobiliyati, ishonchligi va mobilligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<<Simsiz aloqa tizimlari va dasturlari >> R.R. Ibraimov D.A. Davronbekov M.O.Sultonova. E.B.Tashmanov.
2. [https:// androidas.ru/uz/wireless-data-networks/](https://androidas.ru/uz/wireless-data-networks/).
3. [https:// fayllar.org/ simsiz-wi-fi-tarmoqlarida –qo'llanuvchi-antennalar-reja.html](https:// fayllar.org/ simsiz-wi-fi-tarmoqlarida -qo'llanuvchi-antennalar-reja.html)
5. Thomas Mauer, WLAN: A Practical Guide for Administrators and Professional Users. - KUDITs-Obraz. —2005. –354 c.
6. Wireless Ethernet Internet Security. [Electronic source] Internet Security. — Mode of access: www.wirelessethernet.org.
7. Lukin M.A. Wireless communication standards / M.A. Lukin // Modern electronics. - 2005. - No. 1. - P.10-12.

KOMPYUTER DASTURLARINING RIVOJLANISHI

Xudayqo'lova Madina
Karimova Inobat
Abduhalilov Abdumutal
Muxammadov Tuyg'un

"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2- bosqich talabalari

Annatsiya. Kompyuter dasturlarining ilk davrdan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan davrda barcha sohalarda qo'llanishi.

Kalit so'zlar. geometrik shakllar, kompyuter sxema, chiziqlar, nuqtalar, belgilar, alohida belgilar, aylana, mobil telefon, video o'yinlar.

РАЗРАБОТКА КОМПЬЮТЕРНИХ ПРОГРАММ

Аннотация: *Применение компьютерных программ во всех областях от начала до наших дней.*

Ключевые слова: *геометрические фигуры; компьютерная схема; линии; точки; персонажи; специальные символы; круг; мобильный телефон; видеоигры.*
Development of computer programs

Abstract: *Application of computer programs in all areas from the earliest times to the present day.*

Keywords: *geometric shapes, kopyuter circuit, lines, points, signs, special characters, circle, mobile phone, video games.*

Ilk tasvirlar er.avv. II- III asrlarga borib taqaladi. Ayni shu davrdan boshlab ovchilik qilib kun ko'rishdan edi. Vaqtlar o'tishi bilan olov chiqarishni o'rganib olishdi. Yildan yilga tosh va boltalar bilan ovga bora boshladi. Shundan so'ng g'orlarga turli xil ko'rinishdagi tasvirlar baliqlar qayerda ko'p bo'lishi ilk sxemalari chizib boshlashdi. Oltin ko'p bo'lgan konlar joylashgan o'rnini chizib boshlashdi. Atrof-muhit dunyosi haqidagi axborotni g'orlarda yashagan davrlaridan beri bilishgan.

O'sha vaqtdan ming yil o'tib yozish va kitoblarni bosib chiqarish paydo bo'ldi. Birinchi bo'lib papirus va pergamentlarga yozishgan. Vaqtlar o'tishi bilan papirus va pegmentlar o'rnini yuqori sifatli qog'ozlar egalladi. O'tkir ishlangan grafik bo'laklar o'rnini esa qalam va kistlar egalladi.

So'ngi o'n yilliklardan beri kompyuter dasturlari shiddat bilan rivojlandi. Dastlab kompyuterlar matematikadan hisoblash uchun yaratilgan edi. Kartografiyada elektron-hisoblash mashinalardan murakkab proeksiyalarni hisoblash uchun ishlatiladi. Lekin vaqt

o'tishi bilan kompyuter sohasi barcha sohalarda ishlatiladigan bo'ldi. Kompyutersiz hech qanday sohasi ta'savvur qilib bo'lmaydi.

Texnika va inson faoliyati bilan birgalikda fan-ta'lim sanoat sohalarida keng miqyosda takomillashib bormoqda. Bundan tashqari yangidan yangi turlari rivojlanmoqda. Endilikda esa hisoblash mashinalari kompyuter sxema, chizma fotosuratlariga qarab ishlay olish va tanish uchun qo'llanila boshladi. Bularning barchasi avtomatik tasvirlash uchun kerak. Yani grafik axborotni kiritish va chiqarish mumkin. Hozirgi kunga kelib yangidan yangi yo'nalishlar yuzaga kelmoqda. Bu yo'nalish esa zamonga mos ravishda ilmiy-texnik adabiyotlarda kompyuter grafikasi yaratildi. Ma'lumotlarimizga asoslangan holda ko'rishimiz mumkinki yer tuzish planidan foydalanganimizda ko'plab grafik hujjatlardan foydalanamiz yani ko'pchilik ma'lum chiziqli o'lchashlar, shakllari joylashuv joyiga ega shartli belgilarni ma'lum tizimda uzatiladi. Bundan tashqari kompyuterda grafiklar sodda ko'rinishda bo'ladi. Misol uchun: alohida belgilar, chiziqlar, nuqtalar, ramzlarning kesmalari, xohlagan yo'nalish ko'rinishda qog'oz varog'ining yuza qismi va xohlagan nuqtalar, ramzlarning kesmalari, xohlagan yo'nalish ko'rinishda qog'oz varog'ining yuza qismi va xohlagan nuqta o'chamlarida belgilarni tasvirlashimiz mumkin. Agarda raqamli, matematik shaklda keltirsa, bu vaziyatda kompyuterda ishlov berish, tasvirlarni esa aloqa kanallari bo'yicha uzatishimiz mumkin. Ularni qidirish va saqlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Eng sodda chizma va sxemalar grafik mahsulotning xususiy ko'rinishda bo'ladi. Loyihalash ishlarida foydalaniladigan planli kartografik materiallarni avtomatik ravishda amalga oshirishimiz mumkin juda murakkab hisoblanadi. Har qanday planlar umumgeografik yoki mavzuga doir bo'ladi. Oddiygina bir misol yer tuzishda plandan foydalanilganida ko'plab grafik hujjatlardan foydalanamiz. Ko'pchilik kompyuterning grafik sodda tasvirlarni o'z xotirasiga saqlaydi. Xohlagan nuqta o'lchamlarida bo'ladi. Qog'oz varog'ining yuza qismida bu belgilarning tasvirlarini olishimiz mumkin.

Kompyuterning sodda grafik tasvirlarga: ramzlarning kesmalari, geometrik shakllar, alohida belgilar, nuqtalar, aylanalar va chiziqlar kiradi. Eng sodda chizma va sxemalarimiz faqatgina grafik mahsulotlarning xususiy ko'rinishda bo'ladi. Planli kartografik hujjatlarimiz yer tuzishning loyihalashtirgan holatimizda hujjatlarni umumiy ko'rinishini turli majmualari avtomatlashtirgan holatda katta yutuqlarga erishamiz. Loyihalash ishlarida to'g'ri va qing'ir chiziqlarini belgi va ramzlarni turli xil bosqichlarda bo'ladi. Bu yerda eng asosiy rolni insonning kasbi bo'yicha bilim asosiy hisoblanadi. Aholi yashash joylari, yo'llar meliarativ tizimlar, dalalar, o'rmonni himoya qilish yo'lagi kabi loyiha ishlari mavjud.

XX asrning 90-yillaridan boshlab hisoblash texnikasi rivojlandi. Bu rivojlanish tasodifiy emas, texnik qurilmalar insonni kompyuter bilan be'vosita balki o'zaro aloqadorlikka bog'lamoqda. Boshqacha qilib aytganda takomillashgan mashina grafikasi inson bilan o'zaro bog'liq bo'lib qoldi. Texnik qurilma va takomillashtirilgan mashina grafikasi bo'yicha inson talabini qondirmoqda. Ya'ni aniq va tez bajaradi. Texnik qurilmalar yordamida tushirilgan har qanday tasvirlarimizni turli burchaklar orqali burishi yoki mashtabini, proeksiyasini o'zgartirishi alohida qismlarini esa aniqroq tasvirlashini ko'ramiz.

Qo'shimcha zaruriy elementlarini esa kiritiladi. Bugungi kunda grafik bilan ishlash jarayonida bir necha ko'plab dasturlarni hisoblashimiz , tasvirlarga ishlav berishimiz dasturiy ta'minot hisoblanadi.

Bugungi kunda kelib esa kompyuter grafikasi video o'yinlar, mobil telefon, kino, kompyuter displeylari va ko'plab ixtisoslashgan dasturlarning asosiy elementlari texnologiyasi bo'lib qolmoqda. Ko'pgina qurilmalar boshqariladigan va ixtisoslashgan dasturlar ishlab chiqilgan kompyuter grafikasi bo'lmoqda. Kompyuter grafikasi yaqinda rivojlangan sohalardan biri desak mubalag'a bo'lmaydi. Bu ibora esa 1960-yilda kompyuter grafikasi tatqiqotchilaridan biri Vern Xadson va Boing vakillari Uilyam Fetter tomonidan kiritiladi. Ko'proq CG ko'rinishda qisqartiriladi yoki bo'lmasam filmlarda kompyuter tomonidan yaratilgan tasvir hisoblanadi. (CGI) Asosan kompyuter grafikasi bir qancha mavzularni o'z ichiga oladi. Bularga GPU dizayn, vektorli grafikalar, nurni kuzatish , sprite grafikasi , kompyuter animatsiyasi, foydalanuvchi interveysi dizayni, geometriyani qayta ishlash, yashirin sirt vizualizatsiya, ko'rsatish, tasvirlarni qayta ishlash , hisoblash fotosurati , 3D modellashtirish , hisoblash geometriyasi va so'ngisi kompyuterni ko'rishimiz yoki tadbiq etishimiz mumkin. Metodologiya sohasi eng asosiy bo'lgan fanlar bilan bog'liqdir. Bularga idrok, optika, fizika va geometriya fanlariga asoslanadi. Kompyuter grafikasi barcha iste'molchi bo'lgan shaxslarga badiiy va tasviriy ma'lumotlarni unumli va mazmunli aks ettirishda javobgar hisoblanadi. U fizik olamdan olingan suratlarni foto va videoda qayta ishlash uchun ishlatiladi. Kompyuter grafikasi rivojlanish darajasi ko'plab ommaviy axborot vositalarida sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasdan iloji yo'q. Bu esa ko'pgina inqiloblarga sabab bo'lmoqda. Video o'yinlar, filmlar , anitatsiyalar va grafik dezaynlar inqilobni yuzaga keltirmoqda. Umumiy nuqtai nazardan qaraganimizda kompyuter grafikasi matnlar yoki tovush bo'lmagan barcha narsalarni ta'riflab berish uchun ishlatiladi. Odatiy holatda ko'radigan bo'lsak kopyuter grafikasi turli xil narsalarga ishora qilinadi. Bularga:

- barcha tasvir ma'lumotlarini kompyuter tomonidan boshqarishimiz yoki namoyish qilishimiz mumkin.

- turli xil ko'rinishdagi texnologik tasvirlarni yaratishda va boshqarish vositasi hisoblanadi.

- visual tartibni esa raqamli ko'rinishda sintez qilish va manipulyatsiya qilish usullari orqali namoyish etilmoqda.

Hozorgi kunda kompyuter grafikasi barcha sohalarni qamrab olgan. Bular qatorida turli xil tibbiy tekshiruvlarda, jarrohlikda, ob-havo ma'lumotlarida, gazeta va jurnallarda kompyuter vositalardan foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Yer tuzishda kompyuter grafikasi.

- 2.Xabar.uz

O'ZBEK TILI VA UNING TARAQQIYOTI

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ahmadaliyeva Fazlatxon

Anontatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining paydo bo'lishi, shuningdek taraqqiyot bosqichlari rivojlangan davri ya'ni bu tilda buyuk asarlar yaratilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: o'zbek tili, turkiy til, ma'naviyat, jamiyat millat.

Annotation: This article talks about the emergence of the Uzbek language, as well as the period of its development, that is, the creation of great works in this language.

Keywords: Uzbek language, Turkish language, spirituality, society, nation.

Bizga ma'lumki o'zbek tili aynan shu mukammal holatdagi o'zbek tiliga aylanishi uchun minglab chig'iriqlardan o'tgan. O'zbek tilining shakllanishi, ya'ni qadimiy ildizlari uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Tilimizning hozirgi fonetik, leksik, morfologik, grammatik jihatdan yuksak holatga kelishi uchun bizga ming yillar kerak bo'lgan. Bizning bebaho adibimiz Cho'lpon aytgandek "Til yashasa millat yashaydi". Tilimiz rivojlanganiga qadar ushbu bosqichlardan o'tgan.

Birinchi bosqichda, miloddan avvalgi davrlardan X asrgacha bo'lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Albatta bu davrda ham tilimiz bir qadar rivojlangan bunga dalil tariqasida esa o'sha paytda yaratilgan asarlarni ko'rsatishimiz mumkin. Masalan qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalaridan, O'rxun-Enasoy yodgorliklari (VII-VIII) shu tilda yaratilgan. Hozirgi o'zbek tilining rivojlanishi uchun asos bo'lgan til turkiy til, ya'ni bobo til hisoblanadi. Demak, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi. Ushbu oilaga o'zbek tilidan tashqari qirg'iz, qozoq, turk, turkman, tatar, uyg'ur, chuvash, boshqird, qoraqalpoq, yoqut, tuva tillari kiradi. Bu tillarning hammasi qaysidir davlatning milliy tili hisoblanadi. N. Uluqov "Tilshunoslik nazaryasi" kitobida shunday ma'lumot keltirilgan: "Turkiy tillar oilasi olti yirik guruhga bo'linadi. Ushbu tillar MDH hududidagi Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Sharqiy Turkiston, Yevropa kabi hududlarda tarqalgan. O'zbek tili o'ziga eng yaqin bo'lgan uyg'ur tili bilan bu oilaning qarluq guruhini tashkil etadi. Ammo hozirgi o'zbek tilida qarluq lahjasidan tashqari, qipchoq lahjasi va o'g'uz lahjasi xususiyatlari ham mujassamlashgan, chunki hozirgi o'zbeklar tarkibida qipchoq va o'g'uz guruhlarining ham vakillari bor. Turkiy xalqlar ichida o'zbeklar eng ko'p sonni tashkil etadi". Ikkinchi bosqich ya'ni qadimgi turkiy tilning davomchisi XI-XIV asrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda yaratilgan asarlar Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" (Turkiy tillar devoni), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim), Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul Haqoyiq" (Haqiqatlar armug'oni), Xaydar Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" kabi buyuk asarlar yaratilgani tilimizni yorqin o'tmishidan dalolat beradi.

Uchinchi bosqich: XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo'llangan til eski o'zbek tili deb nomlangan. Bu davrda ham o'ziga xos ijodkorlar tomonidan o'ziga xos asarlar

yaratilgan. Xususan, bu davrda yashab ijod qilgan ijodkorlar Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi Farog'iy, Zavqiy, Nodira, Anbar Otin, Uvaysiy, Gulxaniy, Muqimiy kabilar. Ushbu davrni o'zbek tilini oltin davri deb atash mumkin. Chunki bu davrda hazrat Navoiyning "Xamsa" asari yaratilgan. U o'sha davrda turkiy tilni boshqa tillardan kam emasligini isbotlab bergan. Uning bu xususda "Muhokamat ul lug'atayin" nomli asari mavjud. Bu asarda Navoiy fors tili va turkiy til o'rtasidagi tafovutlarni tasniflab bergan. Hattoki turkiy tilning ustunligini isbotlash maqsadida ba'zi fors tilida yo'q so'zlarni turkiy tilda ifodalab bergan. Masalan: "yig'lamoq" fe'lining o'kurmak shakli faqat turkiy tilda uchraydi. Bu ham o'zbek tilining yuksakligidan dalolat beradi.

To'rtinchi bosqich: XX asrning 20-30-yillarida shakllana bordi va shu asrning oxiriga kelib o'zining yuqori cho'qqisiga erishdi. Bu davrda o'zbek tilining ichki qurilishi zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida ishlab chiqildi va o'zbek tilshunoligi zamonaviy jahon tilshunosligining bir bo'lagi sifatida shakllandi. Imlo qoidalari yaratilib, o'rta va o'rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan me'yoriy darslik qo'llanma hamda ilmiy grammatikalar yaratildi. Lug'atshunoslik bo'yicha olib borilgan ishlar nihoyatda samarali bo'lgan. Bir tilli, ko'p tilli va turli sohaviy lug'atlar yaratilib, leksikografiya tilshunoslikning alohida soha sifatida namoyon bo'ldi. O'zbek tilshunosligi zamonaviy fan sifatida to'liq sifatida shakllandi. O'zbek tilini o'rganish bo'yicha qilinayotgan barcha ishlar bir asosiy maqsadga - hozirgi o'zbek tilining taraqqiyot qonunlarini va shu asosdagi barcha tarmoqlari bo'yicha me'yorlarni belgilashga qaratildi, chunki til ma'naviyatimizni belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Adabiy til esa ya'ni adabiy nutq umumxalq tilining ishlov berilgan, sayqallangan va ma'lum bir shaklga solingan shakli hisoblanadi. Endi biz adabiy til o'zi nega kerak degan savolni o'rtaga tashlaymiz. Tilning ushbu shakli barcha xalqlar tilida mavjud bo'lib u barchaga birdek tushunarli tarzda mavjud bo'ladi. Shuning uchun tilning bunday ko'rinish shakliga tilshunos Mustaqim Mirzayev "Adabiy til umumxalq tilidan yasalgan guldasta", -deb baho bergan edi. Demak, o'zbek adabiy tili sheva va lahjalar bir butunjahonligidan iborat bo'lgan o'zbek milliy tilidan farqlanadi. O'zbek adabiy tili o'zbek millatiga tegishli bo'lgan milliy tilining tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy til bilan adabiy til orasidagi aloqa butun-qism, umumiylik-xususiylik munosabatidek bo'ladi. Adabiy nutq me'yorlashgan. U xalq shevalaridan ustun turadi va uning me'yorlariga qat'iy rioya qilish, shu tilda so'zlovchilar, turli sheva va lahja vakillari orasida rasmiy muloqot bo'lishi shart. Adabiy til umumxalq madaniyati saviyasining bir ko'zgusidir. Yozma va og'zaki nutqda adabiy me'yorga rioya qilish so'zlovchi nutqining madaniy saviyasini belgilaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'zaki va yozma shakllari mavjud. Aynan shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi.

1. Adabiy tilning og'zaki shakli to'g'ri talaffuz me'yorlariga, eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Bu shaklning moddiy-material asosini fizik-akustik birliklar (nutq tovushlari, urg'u, ohang, melodika, pauza, tembr, ritm, temp) tashkil etadi, uning tarixiy ildizlari xalq og'zaki ijodi namunalarida - dostonlar, qo'shiqlar, maqollar, hikmatli so'zlar,

topishmoqlar, ertaklar negizida shakllanib ,og`izdan og`izga o`tib kelgan, shu jarayonda uning hozirgi milliy adabiy tilga xos yagona talaffuz me`yorlari shakllangan.

Hozirgi o`zbek adabiy tilining og`zaki shakli ko`proq adabiy so`zlashuv jarayonida namoyon bo`ladi, uning faoliyatida imo-ishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham muhim rol o`ynaydi.

2. Hozirgi o`zbek adabiy tilining yozma shakli, avvalo ,yozuv sistemasiga hamda shu sistema birliklarini (grafemalarni, orfogrammalarni) ko`rish va o`qishga asoslanadi.Yozuv sistemasi, ma`lumki, grafika, orfografiya va punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topadi, demak, uning moddiy-material asosini optik-grafik vositalar tashkil etadi. Adabiy tilning yozma shakli faoliyatida ilmiy uslub, rasmiy uslub, ommabop (publisistik) uslub qoliplariga xoslanish xususiyatlari borligi ham ko`zga tashlanadi.

Hozirgi o`zbek adabiy tili taraqqiyotini asosan ikki omil belgilaydi bular: lingvistik va ekstralingvistik omillardir.

1.Lingvistik omillar. Bularga muayyan tilning sistemaviy va strukturaviy xususiyatlari-fonemalar tizimi, lug`at boyligi, morfema tiplari, so`z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik,grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o`rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, ana shularga tayanadi.

2.Ekstralingvistik omillar. Bularga tildan tashqari mavjud bo`lgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqalar va millatlar o`rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma`rifiy aloqalar, ilm -fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his- tuyg`ulari aynan shular jumlasidandir. Masalan, O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach unga ekstralingvistik omillar jiddiy ta`sir o`tkazdi deb aytish mumkin.Negaki mamlakat mustaqillikka erishgach uning ijtimoiy hayotida, bozor iqtisodiyotida, ma`rifat va madaniyat sohalarida tub o`zgarishlar yuz berdi. Bu esa o`z-o`zidan yangi so`zlarga bo`lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ayrim so`zlar esa iste`moldan chiqa boshladi, bularga misol tariqasida quyidagi so`zlarni keltirish mumkin (partkom, raykom, obgom, sovxoz, oblast) so`zlari o`zbek tilining tarixiy qatlamiga o`ta boshladi.Endi esa tabiiyki, yangi so`zlar jamiyatimizga kirib kela boshladi.Ularga misol tariqasida quyidagi so`zlarni keltirish mumkin (biznes, investitsya, litsey, gimnaziya, menejer, menejment, brifing, marketing), shuningdek, hokim, hokimyat, viloyat, tuman kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so`zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o`tdi. Bundan shunday xulosa anglashiladiki, milliy tilning shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar qatnashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Nosirjon Uluqovning “Tilshunoslik nazaryasi” kitobi 49-bet
- 2.Sayfullayeva R.”Hozirgi o`zbek adabiy tili” 14-bet
- 3.Jamolxonov H. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” 78 -bet
- 4.Mengaliyev B. “Hozirgi o`zbek adabiy tili” 5-6-7 betlar.

ҚОЗИҚ ПОЙДЕВОРНИНГ КҮНДАЛАНГ КЕСИМИНИ МАТЕРИАЛЛАР КАРШИЛИГИ БҮЙИЧА ҲИСОБИЙ ЗҶРИКИШЛАРНИНГ БИРГАЛИҚДАГИ ТАЪСИРИГА ТЕКШИРИШ

Исматова Д.М
Хайдарова К
(СамДАҚИ)

Қозик пойдеворнинг кўндаланг кесимини материаллар каршилиги бўйича ҳисобий зўрикишлар эғувчи момент, кўнгдаланг ва бўйлама кучларнинг биргалиқдаги таъсирига текшираимиз. Табиийки, қозик пойдевор кўнгдаланг кесимининг қаршилигини баҳолаш учун эғувчи момент, кўнгдаланг ва бўйлама кучларнинг биргалиқдаги таъсиридан, қозик пойдеворларнинг марказий бўлмаган сиқилиши ёки чўзилишини қараш керак. Қозик пойдеворларни эғувчи момент, кўнгдаланг ва бўйлама кучларнинг биргалиқдаги таъсирига ҳисоблашда ҚМҚ 2.02.03.-98 тавсияларига биноан қозикларнинг ростверка қандай бириктирилишига қараб қозикдаги зўрикишларга вертикал куч эксцентриситетини ҳисоб олиш керак.

а) паст ростверкларга маҳкамланган қозик пойдеворларнинг конструкциялари қозик бошмоғини бурилишини чеклагани учун, ҳисобий эғувчи момент ва кўнгдаланг куч қийматлари қуйидаги η_{nj} коэффициентга кўпайтирилади

$$\eta_{nj} = \frac{1}{1 - \frac{a_{n,j}N}{\alpha_\varepsilon^2 EJ}}, \quad (1)$$

$$\text{бу ерда } a_{n,j} = \frac{A_0 C_0}{B_0} - B_0$$

б) юқори ростверкларга маҳкамланган қозик пойдеворларнинг конструкциялари қозик бошмоғини бурилишини чеклагани учун, ҳисобий эғувчи момент ва кўнгдаланг куч қийматлари қуйидаги η_{bj} коэффициентга кўпайтирилади.

$$\eta_{b,j} = \frac{1}{1 - \frac{a_1 N}{a_2 EJ}} \quad (2)$$

$$\text{бу ерда } a_1 = a_3 - a_2 a_4; \quad a_2 = \frac{a_4}{\frac{C_0}{\alpha_D} + l_0}; \quad a_3 = \frac{A_0}{\alpha_D^3} + \frac{2B_0 l_0}{\alpha_D^2} + \frac{C_0 l_0^2}{\alpha_D} + \frac{l_0^3}{3};$$

$$a_4 = \frac{B_0}{\alpha_D^2} + \frac{C_0 l_0}{\alpha_1} + \frac{l_0^2}{2};$$

в) паст ростверкларга маҳкамланган қозик пойдеворларнинг конструкциялари қозик бошмоғини бурилишига йўл қўйганлиги учун, z чуқурликдаги қозик пойдеворларнинг кўндаланг кесимидаги ҳисобий эғувчи момент ва кўнгдаланг куч қийматлари қуйидаги формулалардан аниқланади:

$$M'_z = M_z + \eta_{n.c} N \left(y_0 - \frac{\alpha_D \sigma_z}{k_z} \right); \quad (3)$$

$$Q'_z = Q_z + \alpha_D \eta_{n.c} N (A_4 B_0 - B_4 C_0 + C_4); \quad (4)$$

$$\text{бу ерда} \quad \eta_{n.c} = \frac{1}{1 - \frac{B_0 N}{\alpha_D^2 EJ}} \quad (5)$$

г) юқори ростверкларга маҳкамланган қозик пойдеворларнинг конструкциялари қозик бошмоғини бурилишини бурилишига йўл қўйганлиги учун, грунт текислиги пасти чуқурлигидаги қозик пойдеворларнинг кўндаланг кесимидаги ҳисобий эғувчи момент ва кўндаланг куч қийматлари (3) ва (4) формулалардан аниқланади, ундаги ташқи M_0 ва H_0 таъсирларни грунт текислигидаги қозик кесими ички зўриқишлари M_0^1 ва H_0^1 га тенг деб, қуйидаги формулалардан аниқланади:

$$M'_0 = M + H H_0 + N \left[\eta_{b.c} \Delta_{\bar{A}} \left(1 - \frac{B_0 N}{\alpha^2 EJ} - y_0 \right) \right]; \quad (6)$$

$$H'_0 = H; \quad (7)$$

$$\text{бу ерда} \quad \eta_{b.c} = \frac{1}{1 - \frac{\alpha_4 N}{EJ}} \quad (8)$$

Сейсмик туманларда энг кўп қўлланиладиган қозик пойдевор конструкцияларига, паст ростверкларга маҳкамланган қозик пойдевор конструкциялари киради. Улар қозик бошмоғини бурилишини умуман чеклаганлиги сабабли, қозик товони тагидаги грунт текислигидаги қозик кесими максимал эғувчи моменти $M_{\text{макс}}^{\text{уз}}$ ва максимал кўндаланг куч $Q_{\text{макс}}$ қийматлари қуйидаги формулалардан аниқланади:

$$M_{\text{макс}}^{\text{уз}} = \frac{\alpha_m H}{\alpha} \cdot \frac{1}{1 - \frac{a_{n.3} N}{\alpha_D^2 EJ}}; \quad (9)$$

$$Q_{\text{макс}} = \frac{H}{1 - \frac{a_{n.3} N}{\alpha_D^2 EJ}}; \quad (10)$$

$$\text{бу ерда} \quad a_m = A_0 A_3(0) - B_0 C_3(0) + D_3(0); \quad (11)$$

(1) – (11) формулалардаги барча белгилашлар ҚМҚ 2.02.03.-98 мувофиқ келади.

Қоқиладиган призматик қозик пойдеворлар саноат ва фуқаро қурилишда энг кўп қўлланилади. Ушбу қозик пойдеворлар учун (9) - (11) формулалардаги α_m ва $\alpha_{n.3}$ коэффицентларнинг қийматлари қозикнинг қоқилиш чуқурлигига қараб, қуйидагича бўлади: агар $\ell = 2$ бўлса, $\alpha_m = 1,06$; $\alpha_{n.3} = 1,04$; агар $\ell = 4$ бўлса, $\alpha_m = 0,93$; $\alpha_{n.3} = 1,01$;

“MEKETEPKE SHEKEMGI JASTAĞI BALALARĞA SHET-TILIN ÚYRETIW METODIKASI”

Aytmuratova Gózzalxan Jańabaevna

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti Mektepke shekemgi tálim fakulteti 3-basqış talabası

Tayanış túsinikler: *shet til, kommunikativ, videorolik, audio ertekler, qosıqlar, oyın, metodika, usıl, úyretiw;*

Ключ слова: *иностраннй язык, коммуникативные, видео-, аудиорассказы, ложки, игра, методика, метод, обучение;*

Key words: *foreign language, communicative, video, audio stories, spoons, game, methodology, method, learning;*

Házirgi rawajlanıp atırǵan dáwirde shet tilin úyreniw júdá áhmiyetli máselelerdiń birine aylanbaqta. Shet tilin úyreniw tek ǵana insan ózin rawajlandiriw ushın emes, búgingi kúnde bul úlken bir zárúriyat bolıp qalmaqta. Jámiyetimizde shet tiline bolǵan talap kúnnen-kúнге artıp barmaqta. Shet tilin úyreniw tek ǵana mektepler hám universitet, institutlarda emes bálkim kóplegen bilim jurtlarında sonıń menen birge, mektepke shekemgi tálim orınlarında tálimniń májbúriy bólegine aylanbaqta. Sol sebepten, mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa shet tillerin úyretiw áhmiyetli máselelerdiń biri bolıp tabıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa shet tilin úyretiwdiń tiykarǵı maqsetleri:

- balalarda shet tiline bolǵan baslanǵısh sóylesiw qábiletlerin rawajlandırıw;
- óz maqsetlerine erisiw, turmısta óz pikirlerin hám sezimlerin bayan etiw ushın shet tilinen paydalanıw qábiletin rawajlandırıw;
- shet tillerin úyreniwge jáne de jaqsı sharayatlar jaratıw;
- basqa mámleketler turmısı hám mádeniyatına qızıǵıwıshılıǵın oyatıw;

Mektepke shekemgi jasta ásirese, shet tilin úyreniwdi baslaw ushın qolaylı bolıp esaplanadı. Bul jastaǵı balalar tildi úyreniwge bolǵan sezgirliǵi menen ajıralıp turadı. Olar ózleriniń sóylew tájriybeleri, tildiń «sırların» túsiniwge qızıǵadı.

Mektepke shekemgi jasta, shet tilin úyretiwde, balalar áste-aqırın kommunikativ kompetenciya tiykarların rawajlandıradı, bul shet tilin úyretiwdiń tiykarǵı basqışında tómenдеги táreplerdi óz ishine aladı:

- fonetikalıq jaqtan durıs tákirarlaw qábiletin inglizshe sózlerdi tárbiyashi, yaki oqıtıwshı arqasında, yaǵniy esitiw dıqqatın, fonetikalıq esitiw hám durıs aytıwdı basqışpa-basqış rawajlandırıw;
- inglizshe sóz baylıǵın ózlestiriw;
- belgili muǵdardaǵı ápiwayı grammatikalıq sistemalardı ózlestiriw;

Metodika - tuwrıdan-tuwrı tálim jıyınların ótkeriw balalardıń shet tilin úyreniw qábiletleriniń dúzilisi jası hám individual qásiyetlerin esapqa alǵan halda, olardıń rawajlanıwına qaratılǵan bolıwı kerek. Shet tilinde sáwbet motivaciyaǵa jóneltirilgen bolıwı kerek. Balalarda shet tiline qarata joqarı psixologiyalıq múnásebetlerdi jaratıw kerek, bunday múnásebetlerdi jaratıw usılı oyın bolıp esaplanadı. Oyın – bul shólkemlestiriw forması hám de balalarda belgili muǵdarda sabaqlardı ótleriw usılı ingilizshe sóz baylıǵı, kóplegen taqmaqlar, qosıqlar, sanaw hám basqalardı úyretiw bolıp tabıladı.

Sabaqlardı ótkeriwdiń usı forması til úyreniw kónlikpelerin hám sóylew qábiletlerin ózlestiriw ushın qolaylı sharayat jaratadı. Oyın iskerliginde isenim qábileti shet tilinde sóylew ushın túrtki beriwge, hátte eń ápiwayı sózlerdi de qızıqlı hám mazmunlı etiwge imkaniyat beredi. Shet tilin úyretiwde oyın iskerligi zıyan keltirmeydi, bálkim onı bekkemlewge hám jaqsı ózlestiriwge járdem beredi.

Shet tilin úyretiwdiń eń tiykarǵı usıllarınan biri bul innovaciya-kommunikaciya usıllarınan paydalanıw. Kompyuter texnikası, multimedia, audio hám basqalar. Tuwrıdan-tuwrı tálim iskerliginde audio, video, ertekler, kognitiv materiallardan paydalanıw tálimdi individualizaciya etiwde hám mektepke shekemgi balalar sóylew iskerligin rawajlandırıw ushın járdem beredi.

Oqıw dástúrinen kóre, ertek, gúrriń yaki oqıw filmlerin tırlaw yaki kóriw anagurlım qızıqlı bolıp tabıladı. Balalar júdá tez shet tildiń sematikalıq tiykarların túsinedi hám ózleri sóylep baslaydı. Balalarǵa shet tilin úyretiw ushın arnawlı videoroliklerdi tańlap alıw kerek, eń jaqsısı balaǵa 2-3 jasqa móljerlengen animacion qosıqlar yaki multfilmler (misalı, Maisy tıshqan haqqındaǵı videolar) . Balalarǵa bunday multfilmlerdi túsiniw júdá ańsat boladı.

Balalar ushın oyın

Bog bilberry [bag bilbari] Голубика	Cherry [tferi] Вишня	Blackberry [blakbari] Ежевика
Strawberry [strawbari] Клубника	Bleuberry [bleubari] Черника	Gooseberry [gosbari] Крыжовик
Apple [] Яблока	Ananas [] Ананас	Mandarin

Balalarǵa shet tilin úyretiwdiń eń qolaylı klassikalıq usıllarınan biri – bul sóz kartoshkaları bolıp esaplanadı. (aǵniy taza sóz + awdarma + súwret). Bunda balalar sol zattı kózleri menen kóredi hám atın aytadı, onıń ingilizshe awdarması menen ataydı. Bul balalarǵa shet tilin úyretiwdiń eń qolaylı usılı bolıp tabıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa shet tillerin úyretiw ushın eń qolaylı jas dáwiri bolıp esaplanadı, bul dáwirde balalardıń dúnyaǵa degen qızıǵıwshılıqları basımıraq boladı yaǵniy, balalar turmıstaǵı barlıq zatlardı, hádiyselerdi biliwge urınadı sonlıqtanda balalarǵa

bul dáwirde shet tilindiń baslangısh bólegin úyrete alsaq, keyingi mektep dáwirinde hámde kelesheginde zárúrli áhmiyetke iye bolǵan bilimdi úyretken bolamız.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. M.V.Ivanova «Balalar ushın ingliz tili», Astrel-2009 – jil;
2. T.M.Zemchenkova « Mektepke shekemgi jastaǵı Balalar ushın ingliz tili», Vako-2008 – jil;
3. N.D.Galskova, Z.N.Nikitenko, «Shet tillerin oqıtıw teoriyasi hám ámeliyatı» oqıw qollanba, Airis-press, 2004 – jil;
4. www.algoritm-centr.ru
5. www.monster.ru

HOZIRGI ZAMON O'QITUVCHISI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Xudoyorova Ozoda Baxtiyarovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani
XTB ga qarashli 5- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori*

Annotasiya: *O'qituvchilar ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslari, mamlakatning iqtisodi va siyosati, mutaxassislik fanlari, ularni o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar asoslari majmuyidan tashkil topadigan professional bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi. Shuning bilan birgalikda, O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li mohiyati, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini teran anglashi, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilishi, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlarini, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarni chuqur egallagan bo'lishlari lozim.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy bilimlar negizida pedagogning xatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi, pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga va egallagan bilimlariga tayangan holda yaratadi va ularni doimiy ravishda takomillashtirib boradi.*

Pedagogik qobiliyatlar

Layoqat- Psixologiyada tug'malik alomatlar bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: 1) tabiiy (tug'ma) layoqat- odamdagi oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miya yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan tashkil topadi. Ijtimoiy layoqat– bola tug'ilishi bilan uni o'rab turgan atrof muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati kabi ko'plab omillar ta'sirida tug'ma layoqat tarbiyalanib qobiliyatga aylanib va rivojlanib boradi. Demak, layoqat tug'ma bo'lib, qobiliyat tarbiya mahsulidir.

Shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual- psixologik xususiyatiga qobiliyat deyiladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda pedagogik qobiliyatlarning qo'yidagi 10 ta turi ko'rsatilgan:

1. Didaktik qobiliyat.
2. Akademik qobiliyat.
3. Perseptiv qobiliyat.

4. Nutqiy qobiliyat.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Obro'ga egalik qobiliyatlari.
7. Komunikativ qobiliyat.
8. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.
9. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati.
10. Konstruktiv qobiliyat.

1. Didaktik qobiliyat - bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushuntira olishdir. Bunda ta'lim beruvchining o'quv materialini tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, tarbiyalanuvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. Ta'lim beruvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan ta'lim beruvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi. Tarbiyalanuvchilarda ma'lum fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va h.k) bilan bog'lay oladi.

3. Perseptiv qobiliyat - qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday ta'lim beruvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida tarbiyalanuvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat –ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, ta'lim beruvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli ta'lim beruvchining nutqi mashg'ulotda hamisha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim beruvchi yangi materialni tushuntirayotgan, tarbiyalanuvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi tarbiyalanuvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati- o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik tarbiyalanuvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan, tarbiyalanuvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z faoliyatini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati- o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo'lish ta'lim beruvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilliligi, chidamliligi, qat'iyiligi, talabchanligi va h.k), shuningdek, tarbiyalanuvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, bu ishonchni tarbiyalanuvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyat –muomala va muloqot o'rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Diqqatni taqsimlash qobiliyati –bir necha obyektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Ta'lim beruvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali ta'lim beruvchi o'z fikrini (yoki tarbiyalanuvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, aynivaqtda barcha tarbiyalanuvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishni) ham kuzatib boradi.

9. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati –insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, tarbiyalanuvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

10.Konstruktiv qobiliyat –o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyalanuvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi. Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarning namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi olimlar, yuqorida bayon qilingan qobiliyatlar qatoriga, zamonaviy pedagogning qobiliyatini ham kiritishmoqda.

Zamonaviy pedagogning qobiliyati – zamonaviy ta'lim beruvchi, shogirdlarini aql-u donishlikka, iymon-etiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga, tashabbuskorlikka, tadbirkorlikka, ijodga yo'naltirish kabi qator qobiliyatlarga ega bo'lishi zarurligi ko'zda tutilmoqda. Ushbu qobiliyat turi, ta'lim oluvchilarning kelajak faoliyatlariga yo'naltirilganligi uchun, uni biz strategik qobiliyat atadik.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari

Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchning o'quvchilarga ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi. Pedagogik texnikani yetarli

darajada egallagan o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotga kirishish mahorati yuqori bo'ladi. Zarur so'z va gapni kerakli paytda, talab etiladigan ohangda ishlatish, qanday qarash, imo-ishoralardan tez va aniq foydalanish, eng keskin va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda ham osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi.

Pedagogik texnika quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

nutq malakalari;

pedagogning mimikasi va pantomimikasi;

o'z psixologik(ruhiy) holatini boshqara olishi;

aktyorlik va rejissorlik mahorati.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin. Olimlarning hisoblashlariga ko'ra o'quv uchun ajratilgan vaqtning taxminan 1/4 - 1/2 qismi o'quvchilarning o'qituvchi nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun sarflanadi. Demak, o'quv materialining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi o'qituvchi nutqining kamoloti va yorqinligiga bog'liq ekan.

Haqiqatan ham, A.Avloniy ta'kidlaganidek "So'z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlni ulug'lab ko'rsatadurg'on tarozisidir. Aql sohiblari kishilarning fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilur". Ayniqsa, o'quvchilar o'qituvchi talaffuzi, nutq texnikasiga katta e'tibor berishadi.

Duduq, kirish, tovushga taqlid kabi so'zlarning, masalan "aytaylik", "xo'sh", "anaqa", "o'tga-bo'tga", "demak" yoki bitta so'zni ketma-ket uch martagacha takrorlash kabi so'zlarning o'rinsiz ravishda ko'p takrorlanishi o'quvchilarning ensasini qotiradi. Bunday hol faqat o'rta maktab o'qituvchilari va o'quvchilari orasidagina emas, balki oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari orasida ham uchrashi achinarli hol.

Hozirgi kunda nutq texnikasiga doir mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim teatr pedagogikasi tajribalariga tayanadi hamda nutq paytida to'g'ri nafas olish, tanaffus va diksiyani so'zlash kabi ko'nikmalar o'quv-metodik majmuasidan tashkil topgan. Mazkur tizimni o'zlashtirish uchun o'z ustida muntazam ishlagan har qanday inson, jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi va murabbiylar o'z nutqini to'g'rilay oladi.

Kishining ovozi, tabiati o'zgarmas degan fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Hozirgi zamon fiziologiya fanining dalolat berishicha, ovoz sifatini mutlaqo o'zgartirish mumkin. Bu tarixiy faktlar bilan ham isbotlangan. Masalan, buyuk notiq Demosfen o'z dudug'ligini mashq qilish tufayli yengib, qadimgi Rimning buyuk notig'iga aylangan.

Pedagogik faoliyatda mimika va pantomimikaning o'z o'rni va ahamiyati bor.

Pantomimika. Gavda, qo'l va oyoqlarning harakatiga - pantomimikadeyiladi. Pantomimika harakatlaridan mohir pedagoglar o'z fikrlarini bildirishda, obrazlar yaratish kabilarda foydalanadilar. O'qituvchilar dars jarayonida gavda harakatlariga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Jumladan, salomlashishda gavdani tik tutib, ikki qo'lni har bir o'quvchini

bag'riga bosmoqchidek tutishi, bunda o'ng oyoq, chap oyoqqa nisbatan 15-20 sm oldinga tashlangan bo'lishi, ya'ni o'quvchlarini yugurib borib bag'riga bosmoqchidek ma'no anglatilishi, tavoze bilan o'quvchilarni o'tirishga taklif etishi, o'rganilayotgan mavzuning muhim joylarini ta'kidlashda, o'quvchlar tomon ildam, jasoratli qadamlar tashlab oldinga yurishi, aytgan fikrlarini asoslashda orqaga, ya'ni sinf doskasi tomon yurishi kerak. Yon tomonga yurish taklif etilmaydi. O'qituvchi qollari kaftlarini o'quvchlarga qarata silkitib o'tiringlar, deyish mumkin emas. Qo'llarning bunday harakati yuzing qursin, ma'nosini anglatadi. Umuman, o'qituvchning barcha harakatlari nazokatli, oddiy va tabiiyligi bilan ajralib turishi lozim. Gavdani tutish estetikasiga rioya qilish, salbiy odatlar (orqa-oldga tomon chayqalish, bir oyoqdan ikkinchisiga og'irlikni tashlash, stul suyanchg'ini tutib turish, stol yoki o'quvchi partasiga qo'llari kaftlarini qo'yib enkayib turish, qo'lda darsga aloqasiz buyumlarni ko'tarib yurish, bosh qashish, burun qoqish, quloq kavlash va h.k.z)dan xoli bo'lishlari talab etiladi

Mimika. Insonning yuzidagi muskullari, qoshi, ko'zi, lablari vositasida o'z fikri, hissiyoti, ruhiy holatini ifodalash san'atiga - mimika deyiladi. Ba'zan, o'qituvchining yuz ifodasi uning gapidan ko'ra kuchliroq ta'sirga ega bo'ladi. Imo-ishora va mimika axborotning emotsional ta'sir kuchini oshirib, uni tarbiyalanuvchining yaxshi qabul qilishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'qituvchining fikrini uning yuz ifodasidan bilib oladi. Shuning uchun o'qituvchi o'zining ichki kechinmalarini yashira olishi ham lozim. Mimik harakatlari asosan o'quv tarbiya maqsadlarida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagogik faoliyat jarayonida, pedagogning o'z psixologik (ruhiy) holatini boshqaraolishi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining o'ziga eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik, o'quvchilariga va atrofidagi boshqa odamlarga nisbatan doimo insonparvarlik, umidbaxshlik, xayrixohlik, xursandchilik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi, juda muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat, pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishlarini ta'minlaydi, ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini tiyishga va asrashga yordam beradi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun, pedagog aktyorlik va rejissorlik mahoratlarini egallagan bo'lishi zarur.

Aktyor (fr. acteur, lot. actor) ijro etuvchi, rejissor (fr. regisseur, lot. rego) boshqaruvchi ma'nolarini anglatadi. Bu borada sharq mamlakatlarida ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" (Arastudan keying "Ikkinch muallim"), "Sharq Arastusi" deb, shuhrat qozongan, bobokolonimiz Abu Nasr Forobiy (873-950) ma'rifat-tarbiyalanuvchining xohishi va irodasini kerakli yo'nalishda boshqarish san'atidir,-degan edi. Shunday ekan, mahoratli o'qituvchi aktyorlik va rejissorlik sirlarini o'rganib, bolalar bilan muomala qilishda nafaqat ularning aql-idrokiga, shuning bilan birgalikda his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish malakalarini egallab, professional faoliyatini san'at darajasiga olib chiqishi talab etiladi.

Pedagogik texnika shunday yig'indiki, u pedagogning har qanday pedagogik

vaziyatlarda, tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishiga yordam beradi.

Talim beruvchilarning pedagogik mahoratga doir bilimlarga ega bo'lishi dastlabki qadam hisoblanadi, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatga mohirlik, ustalik va epchillik bilan san'atkorona qo'llash asosiy maqsad hisoblanadi. Masalan, ayrim o'qituvchilarda "bu o'quvchidan kelajakda yaxshi inson chiqmaydi" degan kelajakni ko'ra bilish, bashorat qilish qobiliyati ko'ramiz. Aslida bu o'qituvchi o'sha o'quvchisining "yomon" inson bo'lishi sabablarini o'z vaqtida bartaraf etish ustida ishlashi lozim. Chunki, o'sha bitta bola ham ma'lum yoshga yetgach ota-onasini, oilasini boqishi, mamlakatning uning zimmasiga tushadigan yukini ko'tarishi talab etiladi. Shunday ekan, biz o'qituvchilarning biror o'quvchimizni e'tibordan chetda qoldirishimiz Alloh oldida gunoh, jamiyat oldida jinoyat hisoblanadi, uning javobi bor. Xuddi shuningdek, konstruktiv qobiliyatni olaylik. Darsning loyihasini ishlab chiqdik. Shu loyiha asosida dars o'tsak, qaysi o'quvchilarimizning mavzuni o'zlashtirmasligini oldindan bilamiz. Demak, tuzulgan bu dars loyihasi yaroqsiz, boshqa mukammal loyiha ustida ishlashimiz kerak. Chunki biz o'qituvchilar har bir o'quvchimizni uning eng yaqin intellektual rivojlanish darajasidagi kafolatlangan bilimlar bilan qurollantirishga mas'ulmiz.

Pedagog xodimning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgandir. mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiyo, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim subyekti bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatiga ega. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo "Nima uchun o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarga javob topishi zarur. Bu javoblar pedagogika fanining asosiy qoidalari va qonuniyatlariga mos holda talqin qilinishi, shuningdek, ta'lim xususiyatlari

e'tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo'lishi lozim. Pedagogikaning muhim muammolaridan biri, o'qituvchining mutaxassisligi va faoliyatining asosini tashkil etish shart bo'lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir. Pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham pedagoglarning malakasini oshirishda: - o'qitish jarayoninig samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish; - ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish; - o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash; - o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash masalalari asosiy, deb belgilanadi.

Zamonaviy o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar. O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir. O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, usul, metod va texnologiya tushunchalarining farqlay olishlari, "Aqliy hujum", "Tarmoqlar"(Klaster) "Assesment" metodlari, "Bumerang", "Skarabey", "Charxpalak", "Rezume" "Keys-stadi" va shu kabi texnologiyalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun o'qituvchi bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Buning uchun u darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Hozirgi zamon ta'lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishi, shuningdek, ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilova N.G.(2021). Formative assessment of student knowledge-as a means of improving the of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5,pp.144-155.
2. Dilova H.G. (2018) Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3, 63-68 b.
3. WWW. Ziyonet.uz Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya .-T. " Fan va texnologiyalar", 2016.-77-b

ҚОВОҚ (CUCURBITA) ВА АЧЧИҚ ТАРВУЗ (CITRULLUS COLOCYNTHIS) ЛАРДАН БИОЛОГИК ФАОЛ ОЗИҚ ОВҚАТГА ҚЎШИМЧА ЯРАТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Мадаминова Мафтунабегим Нодирбек қизи

*Андижон қишлоқ хўжалиги ва
агротехнологиялар институти магистри*

Баратова Моҳидил Раҳимовна

*Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар
институти доценти*

4.1. Қовоқ (Cucurbita) уруғидан мой ажратиш олиш

Тажрибаларимизни 1 – ва 2 – бобда келтирилган маълумотларга таяниб давом эттирамиз. Биринчи навбатда Қовоқ (Cucurbita) уруғидан мой олиш технологиясини кўриб чиқамиз. Бунинг учун тажрибаларга етарли миқдорда Қовоқни (24,720 кг 5 дона) тарозида (Defender 3000 D32XW30VR) тортиб оламиз. Уруғини мевасидан ажратамиз ва ҳар бирини алоҳида алоҳида тортиб оламиз. Натижалар 4.1- жадвалда келтирилган.

4.1-жадвал

	Қовоқ (лат) оғирлиги, грамм	Меваси оғирлиги, грамм	Уруғи оғирлиги, грамм
1	4300	4100	145
2	6430	6210	190
3	4580	4320	165
4	3850	3630	120
5	5560	5340	175
	Жами	23600	795

Юқоридаги 4.1 –жадвал натижаларига кўра Қовоқ уруғлари умумий оғирликни 3,2% ини ташкил қилди. Қовоқ меваларини эса улардан биофаол моддаларни экстракция қилиб олиш учун экстракция жараёнига (Е1- 4.3-расм) йўналтирамиз.


Кейинги босқичда Қовоқ уруғларидан мой олишни “Совуқ усули”да сиқиб олиш усули танланди Сабаби, “Совуқ усул” да мой таркибидаги биофаол моддалар кимёвий таркиби ўзгариб кетмасдан табиий лиги бирмунча сақланган холда олинади. Бунинг учун Туркияда ишлаб чиқарилган GM-5000 маркали совуқ усулда сиқиб олиш ускунасидан фойдаланилди. 4.1- расмда кўрсатилганидек технологик жараён учун керак бўладиган ёрдамчи материаллар ва моддалар тайёрла олинди. “Совуқ усулда” мой олиш жараёнида йўқотишлар 3% ни ташкил қилди. Олинган табиий мой улардан озиқ овқатга қўшимча учун Биофаол қўшимчалар яратиш технологиясига (B1) йўналтирилди. Натижалар 4.1.2-жадвалда келтирилган.


4.1.2- жадвал

№	Уруф миқдори, грамм	Олинган миқдори, грамм	мой	Мой унуми, %	чиқиш
1	795	254,4		32	

4.2. Қовоқ (*Cucurbita*) мевасидан биологик фаол бирикмаларни ажратиб олиш

Юқорида E1 экстракция жараёнига йўналтирилган қовоқ меваларини (23600 грамм) АМ-120БД-К маркали майдалаш ускунасида 5-6 мм майдаликкача майдалаб олиб, уни Хитойда ишлаб чиқарилган Chinz SJN2 маркали экстракторига солинди.





ЮЛДАШЕВА ЗУХРА ФАХРИДДИНОВНА

Ўзбекистан, Ташкент, район Юнус-Абад, среднеобразовательная школа № 302

Урок технологии подчинен общим дидактическим закономерностям, принципам и правилам. При этом нужно признаться, что это крайне специфичный урок, который позволяет говорить о его особенностях и некоторых коренных отличиях от других уроков [1]. В данной статье раскрываются основные особенности урока технологии в школе.

Ключевые слова: урок технологии, труд, учебная деятельность, трудовой процесс

Кратко представим основные отличия урока технологии от других занятий.

1. На уроке технологии учащиеся включены одновременно в два вида деятельности: в трудовую и учебную. Каждая из этих видов деятельности имеет свою мотивацию и цель, свои закономерности, специфическую структуру и организацию. На уроке данные виды деятельности взаимосвязаны и образуют систему учебных и



трудовых действий и операций, взаимно влияющих друг на друга. На различных этапах урока технологии виды деятельности могут меняться доминирующей ролью

Наиболее значительной для учащегося является подготовка места работы к предстоящей деятельности: комфортное и безопасное расположение инструментов, грамотный выбор материалов и прочее; главное внимание и силы учащийся нацеливает на исследование свойств материала, который будет подвергаться обработке, или на рассказ педагога о технологических процессах, или на исполнение необходимых расчетов. Все время, меняя виды деятельности, учащемуся нельзя потерять общую нить своей деятельности на уроке, ее логику, последовательно двигаясь к цели.

2. Двуединство цели урока — главная отличительная черта урока технологии. Труд учащихся на уроке — это не тот труд, которым заняты взрослые. Дети благодаря педагогу включаются в трудовой процесс на уроке, то есть это учебно-трудовой процесс. Любой вид деятельности в данном процессе направлен на свой окончательный результат, это и есть конечная цель трудовой деятельности.



Для трудовых занятий — это определенный продукт труда: то изделие, изготовлением которого учащиеся заняты, или какая-либо услуга. Изготовление данного продукта итоговая цель их трудовой деятельности на конкретном уроке. Учебная деятельность имеет другую цель — усвоение определенного объема знаний, как политехнического, так и общего характера, непосредственно связанных с содержанием труда учащихся; освоение сложных и простых трудовых умений; закрепление некоторых умений и навыков.


3. На уроке технологии педагог осуществляет две главные функции: организаторскую и конструктивную. Организуя процесс труда учащихся на уроке, он, в первую очередь, следит за его четкостью, логичностью, слаженностью, ритмичностью, безопасностью, завершенностью. Педагогу



необходимо хорошо знать общую структуру трудового процесса, его главные компоненты, специфику технологии изготовления определенного изделия из определенных материалов и на этой базе грамотно строить деятельность учащихся. В этом случае его деятельность в большей мере похожа на деятельность технолога.

С другой стороны, педагог обучает учащихся не только правильно трудиться, но и получать в ходе трудовой деятельности нужные знания, умения и навыки; расширяет их кругозор; побуждает к рассуждению, умению доказывать, исследовать; повышает их творческую и познавательную активность, самостоятельность и ответственность. В трудовом процессе педагог формирует у учащихся постоянную привычку к умственному труду, трудолюбие, ответственность, целеустремленность, аккуратность, чувство товарищества и взаимопомощь, то есть воспитывает общественно значимые черты характера и качества личности.

4. Для педагога трудность проведения урока технологии проявляется также в многообразии педагогических задач, которые ему необходимо разрешать, организуя учебно-трудовую деятельность учащихся. В практической деятельности это происходит в особой группировке и формулировке учебных задач урока технологии. Происходит деление комплекса учебных задач урока на группы в зависимости от ведущих знаний и умений, которые формируются на занятии.



5. Структура урока технологии также специфична, так как много таких этапов, которых нет в структуре других уроков. В ней нашли отражение такие виды деятельности как трудовая и учебная. В связи с этим названия, последовательность, содержание этапов урока технологии особенны. Именно в построении урока технологии наиболее значимо обозначено взаимное влияние трудовой и учебной деятельности. Это демонстрируется в том, что этап трудовой деятельности наполнен ярко выраженным дидактическим содержанием. Этап учебной деятельности имеет практическую направленность, его содержание напрямую зависит от содержания трудового процесса.

6. Современный урок технологии должен включать интеллектуальные компоненты, активизирующие мыслительную деятельность учащихся. Нужно отказаться от подхода к нему как к уроку узкопрактической направленности. Учащимся нужно усвоить основной принцип любого труда — прежде чем что-либо сделать руками, необходимо хорошо подумать. Вместе с этим, основной на уроке является предметно-практическая деятельность учеников. Это дает возможность решать одну из задач развития учащихся — обогащение их сенсорного опыта.

7. Предположение о том, что урок технологии должен носить политехнический характер, в последние годы подвергается критике. Говорится о том, что гуманный подход к учащемуся и культурологическая направленность общего образования несовместимы с понятием политехнизма, так как политехническое образование связано с подготовкой рабочих для производственной сферы, с ремесленно-технологическим обучением и профориентацией. Но необходимо обозначить, что истинный политехнизм достаточно далек от ремесленной. Он предполагает сообщение учащимся информации не только о производственной сфере, но и о роли науки и техники в обычной жизни и трудовой деятельности людей, о дальнейших перспективах их совершенствования на базе современного научного знания, возможностях личностного развития и самореализации в трудовой деятельности.



Помимо этого, политехническая подготовка предполагает овладение учениками обширным набором умений, не профессионального (узко-ремесленного), а общего характера, которые позволяют им реализовывать свою деятельность в любой сфере материального и нематериального производства, быстро совершенствоваться и переучиваться, если это необходимо.

Важным является и освоение обще-трудовых умений (планировать, анализировать условия деятельности, осуществлять контроль, регулировать деятельность и другие), которые близки к политехническим умениям и являются сложными и обобщенными. Именно поэтому, такие сложные гибкие умения, которые основаны на широком политехническом кругозоре, дают возможность человеку включаться в творческую деятельность по преобразованию окружающего мира, быть более свободным при избрании путей и средств решения, стоящих перед ним трудовых задач [2]. Понимание особенностей урока технологии в школе помогает педагогам при конструировании уроков разных типов более осознанно подходить к выбору методического содержания каждого конкретного урока.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Голубева Л.В. Анализ урока: типология, методики, диагностика. — Волгоград: Учитель, 2022
2. Моргунова И.Г. Особенности урока технологии в начальной школе: дидактический аспект // Учебник — 2021.

**НАЗВАНИЕ ПУБЛИКАЦИИ: БАЛОҒАТ ИЛМИНИНГ РИВОЖИДА ЖАЛОЛИДДИН
ҚАЗВИНИЙНИНГ ЎРНИ**

Мамасолиева Муштарийбегим Қобулжон қизи

Тошкент Давлат Шарқшунослик Университети магистранти

Бегматова Б.М.

Илмий раҳбар: дотцент

Аннотация: Мақолада аломма Қазвинийнинг ҳаёти ва ижоди шунингдек у кишинг балоғат фани борасида олиб борган ишлари ва бу фанга қўшган улкан ҳиссалари ҳақида сўз боради. Бундан ташқари мақолада Қазвинийнинг балоғатга доир бўлган масалаларда ўзига хос услублари ва киритган янгиликлари батасил ёритилади.

Калит сўзлар: Қазвиний, Саккокий, хатиб, каломий балоғат, араб тили, балоғат илми, баён, маъоний, бадийъ,

Балоғат илмининг ривожиди Жалолиддин Қазвинийнинг ўрни.

Саъдуддин Абу Мухаммад ибн Абдуррахмон ибн Умар Абул Маъолий Жалолиддин Хатиб Казвиний Шофеъий ҳижрий 666, мелодий 1268 йил тугилиб, ҳижрий 739, мелодий 1338 йил вафот этган.

Мухаммад ибн Абдурахмон ибн Умар ибн Аҳмад ал-Казвиний Мосулда асли Қазвинлик оилада туғилган. Шу сабабдан Қазвиний нисбати билан шуҳрат қозонди. Унинг насл-насаби Аббосий халифалари Маъмун ва Мўътасимнинг қўмондони, айти пайта шоир ва ёзувчи Абу Дулаф ал-Ижлийга бориб тақалади. У узоқ вақт Дамашқда Умавий масжидида нотиқлик вазифасини бажаради шу сабабли ҳам “Хатибуд Димашқ” яъни “Дамашқ Нотиғи” унвони билан танилган.

Ҳижрий 656 (1258) йилда мўғуллар Бағдодга бостириб кириб, Аббосийлар халифалигини тугатгандан сўнг унинг оиласи Мосулга кўчиб келган. Муъаллифнинг умри Мосул, Анадолу, Сурия ва Миср ҳудудларида ўтган. У бошланғич таълимни бош қози бўлган отасидан олади ва хусусан Шофеъий фикҳини ўрганади.

Мўғуллар Сурия ва Мосулни ишғол қилганидан сўнг отаси Анадолуга жўнаб кетади ва Токат вилоятига жойлашди. Қазвиний таълимни шу ерда давом еттиради. Йигирма ёшга кирганида Токатнинг Никсар туманига қози етиб тайинланади.

Отаси вафот етгач, у акаси Имадуддин билан 689 (1290) йили Мамлук Султон ал-Маликул-Ашроф ҳукмронлиги остида бўлган Дамашққа боради. У йерда Казвиний Иззуддин ал-Форусийдан ҳадис, ош қози Шаҳобиддин ал Арбилдан фикҳ, ҳадис, араб тили ва балоғати, Бош қози Сулаймон ибн Ҳамза ал-Макдисийдан фикҳ ва ҳадис, Аламуддин ал-Бирзолийдан ҳадис, Шамсуддин ал-Айкийдан фикҳ илмларини мукаммал ўрганади.

690 (1291) дан 706 (1307) йилларигача турли мадрасаларда мударрислик билан бир қаторда қози, ноиб сифатида ҳам фаолият юритган Казвиний 706 йилда Дамашқ Умавий масжидига нотиқ етиб тайинланди. 724 (1324) йилда Мамлук султон ал-Маликун-Носир Муҳаммад ибн Қалавун уни Мисрга чақиради ва шахсан унга Дамашқ бош қозилиги тўғрисидаги мактубни топширади. Кейинги йилларда У Султон Муҳаммад ибн Қалавуннинг яқин дўстларидан бирига айланди.

727 (1327) йилда Адилыйя ва Газзалия мадрасаларида нотиқлик, қозилик ва мударрислик вазифаларини ҳам давом еттирган Казвинийга 727 (1327) йили Миср раҳбарлиги топширилади. Мисрдаги Носирийя, Солиҳийя ва Комилийя мадрасаларида дарс беради. Фарзандларининг хулқ-атвори туфайли Муҳаммад ибн Калавунга қайта-қайта шикоят қилинган Казвиний 738 (1337-38) йилда Миср бош қозилиги лавозимидан четлаштирилиб, яна Дамашқ қозиси етиб тайинланди. Шу тариқа Қазвиний фаолиятининг сўнгги даврида Дамашққа қайтади, аммо бу вазифа узок давом етмайди. Чунки муаллиф Дамашқ сафаридан кўп вақт ўтмай фалаж бўлиб вафот этади.

Хатиб Қазвиний 739 (29 ноябр 1338) йилда вафот етган. Унинг мақбараси Умавийлар масжиди олдидаги Мақобирус-суфийяда жойлашган.

Дамашқда ўтказган узок йиллари ва Мисрда қолган ўн бир йил давомида фикҳ, усулул фикҳ, усулуд-дин, ҳадис, тафсир, араб тили, балоғат каби соҳаларда кўплаб шогирдлар тайёрлади. Селахаддин Ас-Сафади, Баҳоуддин ибн Ақил, Баҳауддин Ас-Субки, Нозирулжайш Муҳибуддин Ал-Ҳалабий ва Умар ибн Рослан ал-Булкини кабиларни қайд етиш мумкин. Қолаверса, адибнинг ўғиллари Жамолиддин Абдуллоҳ, Тожиддин Абдураҳим, Бадриддин ва Садриддин ҳам қози ва қози ноиби бўлганлар.

Дарҳақиқат, муаллиф фикҳ, усулул фикҳ ва калом каби фанлар, хусусан, араб тили ва балоғати каби фанларда ўз даврининг фахри сифатида кўрилган. Қолаверса, муаллиф араб тилидан ташқари турк ва форс тилларини ҳам билишини таъкидлаш лозим. Бироқ муаллиф алоҳида ажралиб турадиган соҳа диний илмлар емас, балки араб тили балоғатидир.

Қазвинийнинг балоғат тарихидаги аҳамияти каломий балоғат мактабининг кучайиши ва унинг бутун ислом оламида фаоллашишида ўзини намоён қилади. Шунга кўра айтиш мумкинки, Фаҳриддин ар-Розийнинг "Ниҳаятул-ижаз" ва Саккокийнинг "Мифтаҳул-ўлум" номли асарлари билан биргаликда, қонун қоида ва мантиқий тушунтиришга асосланган каломий балоғат мактаби, араб балоғатида завқи салимни асос қилиб олган анъанавий адабий мактабга қарши вужудга келди, бу икки мактаб орасидаги рақобат мувозанатли тарзда давом этар экан, Казвинийнинг асарлари хусусан "Талхийсул-Мифтаҳ" туфайли каломий балоғат мактаби ўзининг устун еканлигини юқори даражада исботлади. Эндиликда балоғат илми дейилганда, каломий балоғат мактаби асарлари назарда тутила бошлади.

Аллома калом мактабига ўзининг сўнги шаклини берди ва натижада нотиклик адабий завқ ва руҳдан узоқ, қуруқ фалсафий ва мантиқий атама ва қоидалар мажмуасига айланди. Шу тариқа балоғат ақл ва мантиққа асосланган таъриф ва қоидалар билан илмий шакилланар экан, иккинчи томондан ҳис-ҳаяжон ва таъсирчанликка асосланган адабий руҳдан узоқлашди. Қазвиний балоғатни фақат бошдан кечириладиган, ҳис килинадиган, тушунтириб бўлмайдиган бир сезгигина бўлиб қолмай, маълум таърифлар, тамойиллар ва қоидаларга ега бўлган ва бошқаларга, айниқса она тили араб тили бўлмаганларга осон тушунтириб бўладиган илмий бир фанга айлантирди.

Қазвинийнинг асарлари ичида енг машҳур ва самаралиси “Талхисул-мифтаҳ” дир. Мусанниф ўзининг бу асарига “ал-Идах” номи билан биринчи шарҳини ёзиб, шориҳларга бошчилик қилди. Балоғат фани тадқиқотлари йетти аср давомида унинг шу икки асарига шарҳ, ҳошия, таълик, ихтисор ва байтлар йозиш билан аҳаммият қаратиб келмоқда.

Қазвинийнинг бу асарлари асрлар давомида Усмонли мадрасаларида дарслик сифатида қўлланилган. Шунингдек бугунги кунда ҳам академик даражада ўқитилиб келинмоқда ва улар устида тафсир, таълик ва таҳлил тарзида тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Қазвиний балоғатга оид тадқиқотларини Саккокийнинг "Ал-Мифтаҳ" асарининг учинчи яъни балоғат кисмига мухтасар шаклда ёзган “Талхисул-Мифтаҳ” асарида жамлаган. Бироқ муаллиф бировнинг ижодини умумлаштирувчи ёки тушунтирувчи олим бўлибгина қолмай, балки балоғатга оид ўзига хос бўлган тушунчаларни ҳам шакллантирган. Қолаверса аллома кўп масалаларда Саккокийга еътироз билдирган. Бундан ташқари, у матннинг таснифини қайта кўриб чиқиб баъзи қўшимчалар киритган.

Қазвиний Саккокийнинг кўпгина балоғатга оид масалалари бўйича қарашларини рад етиб, ўзига хос қарашларни илгари сурган. Шу жумладан мусанниф Саккокийнинг баён илмининг сўнгида киритган фасоҳат ва балоғат масалаларини Бадриддин Ибн Моликка ергашган ҳолда кўриб чиқиб балоғат билан фасоҳатни бир-биридан кескин ажратади. У бу борада Ибн Синон ал-Ҳафозийнинг “Сиррул-фасоҳа” асаридан таъсирларгани айтилади.

Шунга кўра, фасоҳат калима (сўз), калом (жумла) ва мутакаллим (сўзловчи) нинг; балоғат еса фақат калом ва мутакаллимнинг сифати ўлароқ ишлатилади. Қазвиний зикр этилган унсурларнинг фасоҳат ва балоғат сифатларига эга бўлишлари учун зарур шартларни атрофлича муҳокама қилган. Муаллиф бу жойда балоғат тушунчасини кейинги даврда кенг эътироф этилган “сўзнинг вазият тақозосига мувофиқлиги” деб таърифлайди. Шунга кўра, сўз сўзловчининг нияти ва ҳозирги ҳолатга мос келиши натижасида балоғат сифатини олади. Бу таъриф асосан балоғат, сўзнинг грамматик/асосий далолати билан емас, балки унинг тарихий шарт шароитларда фойдаланиш натижасида намоён бўлишини, шу сабабдан ҳам балоғат мана шу

савиядаги маънони ўрганадиган илм эканлигини назарда тутди. Саккокий ҳам балоғат тушунчасини “сўзнинг айтилиши керак бўлган нарсага мос келиши” деб тасаввур қилганини ҳисобга олсак, муаллиф умумий балоғат нуқтаи назаридан Саккокий яратган назарий асосга амал қилган, дейиш мумкин.

Саккокийнинг баён илмига берган таърифни йетарли ҳисобламай, у айтиб ўтган унсурлардан фойдаланиб, бу фанга қайта таъриф берган.

Яна шунингдек Қазвиний маъоний илмини мантиқий ёндашув асаосида саккизта асосий мавзуга ажратган ва бу таснифни кейинги аср балоғат олимлари шундайлигича қабул қилганлар.

Бадиъ илмини балоғатдан мустақил фан сифатида ўрганиш Қазвинийдан бошланган ва бу илмнинг кейинчалик қабул қилинган таърифи ҳам у томонидан берилган. Қазвиний Саккокийнинг бадиъ илмига киритган ижоз, итноб, эътироз ва илтифотларни, маъоний илми мавзуларига киритган ва Секкакийнинг ўн олти маъно ва тўртта лафз санъатига ўн беш маъно ва яна учта сўз санъати қўшиб бадиъ навларни ўттиз саккизга кўпайтирган.

Баъзи бир замондош адиблар томонидан балоғатни адабий завқдан узоқда бўлган руҳсиз қоидалар тўпламига айлантиргани учун танқид қилинганига қарамай, Қазвиний бадий санъатларда сўз – маъно бирлиги ва сўзнинг маънога тобеъ бўлишини илгари сурган. Бадий санъатни сўз ўйини деб биладиган, лафзий санъатларда маънога соя соладиган даражада муболаға қиладиган шоирларни эса танқид қилган.

Балоғат илмларининг учга бўлиниши, асосан, Мифтоҳул-улумга таянади. Чунки Саккокий маъоний ва баён илмларини аввал наҳв илмида, сўнгра уларни бир-биридан аниқ ажратиб, таърифлаган биринчи муаллифдир. Саккокий лафзий ва маънавий санъатларни сўзни гўзаллаштирувчи унсурлар сифатида кўрган, лекин уларни фан сифатида кўрмагани учун алоҳида таърифлашга еҳтиёж сезмаган. Қазвиний Саккокийдан мерос бўлиб қолган балоғатнинг дастлабки икки йўналишини давом еттирган, сўз санъатларини эса -Бадриддин ибн Моликнинг изидан бориб-бадиъ илми деб таърифлаб балоғат илми доирасидан ташқарида бироқ унинг давомида йоритган.

Шундай қилиб, кейинги асрларда давом этадиган бу учлик таснифни енг аниқ белгилаб берган ва барқарорлигига ҳисса қўшган муаллиф Қазвиний бўлган.

Маъоний сўзнинг сўзловчидан ташқаридаги контекстга мувофиқлигини текширади. Қазвиний маъоний илмини мантиқий бўлиниш билан саккизта асосий сарлавҳага ажратган. Булар иснод, муснад илайҳ, муснад, феълнинг мутааллиқлари, каср, иншо, фасл-васл ва ижоз-итноб-мусавот мавзуларидир. Бу ерда аниқланган саккизта кичик сарлавҳалар асосан Саккокий томонидан ҳам кўриб чиқилган масалалардир. Орадги фарқ унвонлар таснифидадир.

Жумладан, Саккокий маъоний тадқиқини хабар ва талаб деб икки асосий қисмга бўлиб, иснод, муснад, муснад илайҳ каби бутун мавзуларни хабар; истефҳом, буйруқ ва шу каби бошқа мавзуларни талаб сарлавҳаси остида йоритган.

Казвиний эса бундай асосий бўлимларга айирмасдан, белгиланган саккизта мавзунинг барчасини тенг мақомда маъоний илмининг сарлавҳалари сифатида кўриб чиққан. Казвиний эса -Саккокийнинг акси ўлароқ- фасл-васл ва ижоз-итноб-мусавот масалаларини бир-биридан ажратган, бошқа томондан эса қаср масаласини улардан олдин кўриб чиққан.

Казвинийнинг масалаларни тартибга солиш ва текшириш услуби мантиқий изчиллик ва ички яхлитлик жиҳатидан кучлироқ еканлиги аниқланган. Дарҳақиқат, кейинги даврларда таълиф этилган матнларда ҳам бу тартиб сақланиб қолганлиги кўринади.

Балоғат илмининг учинчи сарлавҳаси лафзий ва маънавий сўз санъатлари билан боғлиқ бўлган бадиъ илмидир.

Казвиний бадиъ санъатларни балоғат илмининг давоми сифатида тасаввур қилишда Саккокий билан айна фикрдадир. Шу билан бир қаторда муаллиф “Мифтоҳ” даги бўлимга баъзи қўшимчалар киритиб, охир-оқибат бадиъ илмининг тадқиқини ўттиз саккиз турга йетказган.

Алломанинг балоғатни чуқур ўрганиш борасида тутган йўллари ҳозирги асримизгача балоғат илмларида илмий асос бўлиб келмоқда. Шу сабали ҳам у кишининг асарлари асрлар давомида уламолар чуқур ўрганишга ва дарс қилиб ўқишга киришиб кўплаб шарҳлар ва ҳошиялар ёзилганлиги, унинг тадқиқотчилар наздида юксак илмий шухратга эга эканлигига ва албатта, балоғат фани борасида чуқур из қолдирганига далолат килади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Шарифов Зокиржон. Балоғат фанидан ўқув қўлланма. Илми баён ва бадеъ қисмлари. –Тошкент: “Мовароуннахр” 2014.

2.Аҳмад Мустафо ал-Мароғий. Улумул-Балоға ал-маоний вал-баён вал-бадиъ. “Ал-мактаба аш-шомила” 2008.

3.Ал-Хатиб Абу Бакр Аҳмад ибн Алий Бағдодий. Тарихи Бағдод. Байрут: “Дорул-кутуб ал-илмийя”

4.Хайбуллин И.Н. Стилистика арабского языка. – Москва: ООО “САД”, 2008

5.Ҳомид Авний. Минҳож ал-возиҳ. Ал-Азхар. 1991.

6.Абу Усмон Амр ибн Баҳр ал-Жоҳиз. Ал-баён ват-табйин. Бағдод: Мактабул-масно.

7.Абул-Фараж Исбаҳоний. Китобул-Ағоний. Миср: Доруш-шаъб.

8.Малика Носирова. Араб тили стилистикаси. Тошкент. 2018

ИНТЕРНЕТ МАНБАЛАРИ :

1. islamansiklopedisi.org.tr
2. www.islom.uz
3. www.buxoriy.uz
4. www.wikipediya.com

LEXICOLOGY

Iqbola Turgunova

a student of the 1st stage of foreign language and literature at the Faculty of Foreign Philology of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek

Annotation: *To study the scientific analysis of the term lexicology. Lexicology is a branch of linguistics that studies words and their meanings.*

Key words: *Lexicology, features, lexicography, phraseology, semasiology, etymology.*

The word is considered the main and unit of the language and makes up the total lexicon (vocabulary composition) of the words in the language. The branch of linguistics that studies language lexis is called lexicology (Greek lexis-"word" and logos-"teaching").

All units related to the vocabulary of the language are called lexical units. Lexical units are divided into certain thematic types based on the general characteristics of the meanings they represent. In this, the main task is performed by the dictionary meaning of the units. The lexical meaning, as mentioned above, has a generalization feature.

In lexicology, words are studied according to the following characteristics:

1. Semantic construction of the word.
2. Form and meaning relations of words.
3. Whether the words in the lexicon are their own or borrowed words.
4. The general or limited nature of words according to their use.
5. Historically, the lexicon of the Uzbek language.
6. Relationship of words to emotional-expressive color or style.

In other words, the study of the lexicology of the language is a very broad field, which includes the formation of words, the enrichment of the vocabulary and speech, its use, changes in meaning, narrowing and expanding, and the use of various terms. covers a number of issues. Because of this, there are separate fields that study different aspects of the lexicon.

Lexicology is closely related to such branches of linguistics as lexicography, phraseology, semasiology or semantics, etymology, stylistics, and the study of word formation.

Semasiology studies language units in terms of meaning. The field that studies the semantic construction of language units, primarily lexical units, and related issues is called semasiology. That is, he studies all meaningful units of the language.

Lexicography is a branch of linguistics that deals with dictionary creation and its theoretical issues.

Onomasiology is a branch of lexicology that studies the principles and laws of naming lexical units and the meaning of concepts, and covers the process of naming things and events.

Etymology deals with the origin of words. YAsama is also interested in compound words and meanings borrowed from foreign languages. etymology takes into account both sides of the word, i.e. form and meaning. The field that studies the "biography" of words, the history of their origin is called etymology.

"Nukus" va "Zarafshon" hududlari shamol energetikasining kelajakdagi rivojlanishi uchun salmoqli salohiyatga egadir. Shuni hisobga olib yurtimizda shamol energiyasidan elektr energiyasi olishni yanada rivojlantirish mumkin va bu bilan kelesh avlod uchun tabiiy gazni ma'lum bir miqdorda tejashga erishiladi. Bundan tashqari shamol turbinalarining ikkita asosiy turlari mavjud: vertikal va gorizontaal aylanish o'qli. Vertikal o'qli turbinalar kichik tezlikdagi shamollarda ishlaydi, shuning uchun ular past samarali hisoblanadi. Shuning uchun vertikal o'qli turbinalar juda kam qo'llaniladi. Asosan ular uy uchun o'rnatiladi. Uy uchun kuriladigan shamol qurilmalarini qo'llash tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.



Odatda uncha katta bo'lmagan uy uchun 1 kVt atrofidagi elektroenergiyani 9 m/s tezlikda esayotgan shamol energiyasidan olish mumkin. Yurtimizning adirlik, tog' va tog' oldi hududlarida vertikal o'qli turbinalardan xonadonlar uchun shamol generatorlari sonini ko'paytirish shamol energiyasidan foydalanish istiqbolining rivojiga salmoqli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Majidov T.Sh. "Noana'naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari" Toshkent – 2014.
2. Elektr energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash. Gayibov T.Sh., Shamsutdinov H.F., Pulatov B.M. Toshkent-2015.
3. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlanish istiqbollari, YUNDP, Toshkent 2007

OILA PSIXOLOGIYASIDA GENDER PSIXOLOGIYASINING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF GENDER PSYCHOLOGY IN FAMILY PSYCHOLOGY.

ЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ПСИХОЛОГИИ В СЕМЕЙНОЙ ПСИХОЛОГИИ.

Amanbaeva Gulistan Kuwanishbay qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy psixologiya 3-kurs talabasi.

Annotaciya: *Ushbu maqolada oila psixologiyasi va gender psixologiyasi haqida, ularning o'z-aro bog'ligi va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Abstract: *This article talks about family psychology and gender psychology, their interdependence and importance.*

Аннотация: *В данной статье говорится о семейной психологии и гендерной психологии, их взаимозависимости и важности.*

Kalit so'zlar: *oila psixologiyasi, gender psixologiyasi, oila, nikoh, ta'lim-tarbiya, stereotiplar, gender ustanovkalar.*

Key words: *family psychology, gender psychology, family, marriage, education, stereotypes, gender installations.*

Ключевые слова: *семейная психология, гендерная психология, семья, брак, воспитание, стереотипы, гендерные установки.*

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliги bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruhni oila

deyladi. Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

Birinchi: oila ko'p muddatga, ya'ni bir necha o'n yillar va ko'p yillarga mavjud bo'ladi;

Ikkinchi: oilada shaxslararo munosabatlarning bir necha turlari amalga oshadi, ya'ni milliy mafkuramizga oid ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi va bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrat, ona mehri orqali amalga oshadi. Bunda oilaviy munosabatlarda tarbiyaviy, psixologik, hissiy, moliyaviy, jinsiy va boshqa vazifalarning amalga oshirilishi kuzatiladi;

Uchinchi: oiladagi barcha munosabatlar zaminida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila a'zolaridan kimningdir kimgadir ta'siri oqibatida shaxs yoki yaxshi shakllanishi va komil inson darajasiga yetishi yoki tarbiyasi og'ir, xulqi buzuk odam bo'lib tarbiyalanishi mumkin.

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon

Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida e'tibor berilgan, shuning uchun biz yuqoridagi buyuk mutafakkirlarning ayrim pedagogik va psixologik qarashlari yoritilgan asarlarini tahlil etish orqali talabalarga mazkur muammolarning naqadar dolzarb ekanligini bayon etamiz.

Agar xalq eposi va diniy risolalar odamlarda og'izdan og'izga, avloddan avlodga ko'chib saqlanib kelgan bo'lsa, xalqning eng donishmandlari va olimlari o'z qimmatli fikrlarini xalq an'analari tayangan holda o'z asarlarida yoritib, ularni kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar, shunday faylasuf-olimlar-dan biri Abu Nasr Forobiydir. Uning inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o'git bo'lib, axloq nazariyasini boyitdi. Uning ta'limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirliigi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehr-u oqibatlari esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish

ta'siriga ega ekanligi to'g'risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi kunlar uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Davr talabidan kelib chiqayotgan hozirgi yoshlarda to'g'ri tasavvur va bilimlarni shakllantirish vazifasi o'zbek psixologlarining oldiga qo'yish bilan birganlikda ulardan gender muommalari, jinsiy tafavutlar maslasiga ilimiy jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, og'il va qizlarning ijtimoiy tasavvurlarida jinsiy tafavurlarga oid tushuncha, bilim va konikmalar, stereotiplar eng avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oila psixologiyasi doirasida aynan jinsiy tafavutlar va gender muommalari o'rganilishi va amaliyotda qanday ekanligi tadqiq etilishi kerak.

Mishel Paludining yozishicha, bugungi kunda gender psixologiyasi sohasida asosan androcentrik qarashlar ustuvorligi kuzatilmoqda. Yani, ikkala jins vakilida ham bir-biridan tamoman farq qilmaydigan, ikkalasida ham kuzatish mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlar kuzatilmoqtaki, bu ularning eng avvalo oila va nikoh maslalaridagi qarashlar uyg'inligidan kelib chiqadi. Lekin metodologik jihatdan olimning ta'kidlashicha baribir, aynan ayolga xos sifatlar normasi haqida gap ketganda, baribir ular erkak sifatlarining standarti asosida taxlil etiladi.¹

Rossi va Rossi (1990) tadqiqotlari oilaga nisbatan gender ustanovkalariga bag'ishlangan bo'lib, ayollar, onalar, opalar, qizlar va buvilar tasavvurida oila bu muayyan yaxlitlik, birlik ramzi ekanligi va shuning uchun ham asosan vaqtlarini farzantlariga, ayniqsa, ular maktabgacha yoshda bo'lgan vaqtlarda hamda keksaygan insonlarga bag'ishlashi mumkinligi o'rganilgan. Bayramlarda ham ayollar erlariga nisbatan ko'proq sovg'a-salom va tabriknomalar xarid qilishi, bu ishlarga bemalol pul sarflayverishi mumkin. Fotosuratlariga qarab, o'zini-o'zi baxolash vazifasi berilganda, aynan ayollar o'zlarini oila a'zolari davrasida aks etgan fotosuratlarda alohida mehr va jiddiylik bilan tavsiflay olganlar. Yani oilaga nisbatan ustanovka xotin-qizlarda hamisha ijobiy obrazga ega.

O'zbekistonda ham gender masalasi ko'pincha oila muommalari doirasida o'rganilishi an'anaga aylangan. Qator tadqiqotlarda (E.G'oziev, G'.Shoumarov, V.Karimova, I.Yoqubov, B.Qodirov, S.Mirxosilov, E.Usmonov, N.Sog'inov, F.Akramova, L.Karimova, N.Salaeva, O.Shamieva, O.Abdusattarova va boshqalar) oilaviy hamda shaxslar aro o'zaro munosabatlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan gender tafavutlar o'rganilgan.

Hozirgi kunda yuqorida sanab o'tilgan olimlarning ilimiy ishlarida, desertaciylarida tadqiqot o'tkazgan ilimiy ishlarini ko'rib Respublikamizda bu ikki fanning yani, oila va gender psixologiyasining bog'liqligi ayniqsa ularning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — Toshkent: «O'zbekiston».1998.
2. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'l. / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog'inov va boshq.; G'. B. Shoumarovning tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus,kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «Sharq», 2010.
3. Оила психологияси Васи́ла Каримо́ва. Тошкент-2007.

SAMARQAND SHAHRI ZAMONAVIY TURAR-JOY MUHITINI LANDSHAFT ARXITEKTURSINI SHAKLLANTIRISH

Xudoyarova Zilola Ismatovna

101- "Shaharsozlik va landshaft" magistranti
(Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhiti landshaft arxitektursini shakllantirish va sifatli qurilishda katta e'tibor berish dolzarb muammolardan biri ekanligi. Ma'lumki, bugungi kunda shaharsozlikda ekologik muvozanatni ta'minlovchi landshaft dizayni arxitekturasini yanada rivojlantirish, asrlar davomida to'plangan boy merosdan keng foydalanib, zamonaviy usullarni tadbqiq etish, shahar me'morchiligi, landshaft arxitekturasini va dizaynini o'zaro uyg'unlashtirish orqali hududlarni samarali landshaft tashkillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish dolzarb ahamiyat kasb etish to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *turar-joy, muhit, qurilish, shaharsozlik, ekologik muvozanat, dizayn, asrlar, boy meros, zamonaviy usull, shahar me'morchiligi, hudud.*

Аннотация: *В данной статье отмечается, что одной из актуальных проблем является формирование ландшафтной архитектуры современной жилой среды в Самарканде и уделение большого внимания качественному строительству. Как известно, на сегодняшний день в градостроительстве актуальна информация о дальнейшем развитии архитектуры ландшафтного дизайна, обеспечивающей экологический баланс, широкое использовании богатого многовекового наследия, внедрении современных методов, демонстрации путей эффективной ландшафтной организации территорий путем гармонизации городской архитектуры, ландшафтной архитектуры и дизайна.*

Ключевые слова: *жилье, окружающая среда, строительство, градостроительство, экологическое равновесие, дизайн, века, богатое наследие, современный сезон, городская архитектура, территория.*

Annotation: *The fact that in this article the formation of Landscape Architecture of modern residential environment in Samarkand and paying great attention to quality construction is one of the pressing problems. It is known that today it is given information about the development of landscape design architecture that provides ecological balance in urban planning, the implementation of modern methods using a wide range of rich heritage accumulated over the centuries, showing the ways of effective landscape Organization of regions by means of City Architecture, Landscape Architecture and design harmonization.*

Keywords: *residential, environment, construction, urban planning, environmental balance, design, centuries, rich heritage, modern method, urban architecture, territory.*

Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhiti landshaft arxitekturasini shakllantirish va sifatli qurilishda katta e'tibor berish dolzarb muammolardan biri ekanligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Ma'lumki, bugungi kunda shaharsozlikda ekologik muvozanatni ta'minlovchi landshaft dizayni arxitekturasini yanada rivojlantirish, asrlar davomida to'plangan boy merosdan keng foydalanib, zamonaviy usullarni tadbqiq etish, shahar me'morchiligi, landshaft arxitekturasini va dizaynini o'zaro uyg'unlashtirish orqali hududlarni samarali landshaft tashkillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dolzarb mavzuga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot qiziqish va muhokamalarga sabab bo'ldi.

Har bir sohaning rivoji hamda shakl va mazmun jihatdan boyisi, ushbu sohaning qanchalik keng tadqiq etilishiga ham bog'liq ekanligini, bugungi kunda Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhiti va landshaft arxitekturasini shakllantirish va rivojiga qaratilayotgan e'tibor natijasida sohada bo'layotgan o'zgarishlarni nafaqat e'tirof etish, shuningdek, bu o'zgarishlarni ilmiy jihatdan tahlil etish ham muhim ekanligi, bu tadqiqotlar sohaning keyingi rivojlanish yo'nalishini aniqlash va yangiliklar joriy etish uchun xizmat qilishi lozimligini ta'kidlab o'tish.

Samarqand shahrida kelgusi uch yil ichida zamonaviy turar-joy binolarini landshaft arxitekturasiga innovatsion loyihalar asosida qurilmoqda.



Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhiti landshaft arxitekturasini shakllantirish . Turar joy majmuasi mazmunli hayot uchun energiya tejankor uylar va zamonaviy landshaftini loyihasi yaratish.

Qutilish kompaniyasi energiya tejaydigan zamonaviy uy-joylar qurilishida innovatsion yondashuvlarni samarali tatbiq etmoqda.

Zamonaviy qurilish sohasidagi ustuvor jihatlardan biri energiya va resurslarni tejaydigan uylarni bunyod etishdir. Energiya tejash sohasidagi innovatsion texnologiyalar kelajakda aholining issiqlik va elektr energiyasini iste'mol xarajatlarini kamaytirishni ta'minlaydi. Energiya tejaydigan uy isitish va issiq suv xarajatlarini pasaytiradi. Shuningdek, tabiiy resurslar iste'molini kamaytirish orqali ekologiya sifati va darajasini oshishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda shaharsozlikda ekologik muvozanatni ta'minlovchi landshaft dizayni arxitekturasini yanada rivojlantirish, asrlar davomida to'plangan boy merosdan keng foydalanib, zamonaviy usullarni tadbqiq etish, shahar me'morchiligi, landshaft

arxitekturasi va dizaynini o'zaro uyg'unlashtirish orqali hududlarni samarali landshaft tashkillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur dolzarb mavzuga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot qiziqish va muhokamalarga sabab bo'ldi.

Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhiti landshaft arxitektursini shakllantirish va rivojlantirish hamda shakl va mazmun jihatdan boyishi, ushbu sohaning qanchalik keng tadqiq etilishiga ham bog'liq ekanligini, bugungi kunda badiiy ta'lim rivojiga qaratilayotgan e'tibor natijasida sohada bo'layotgan o'zgarishlarni nafaqat e'tirof etish, shuningdek, bu o'zgarishlarni ilmiy jihatdan tahlil etish ham muhim ekanligi, bu tadqiqotlar sohaning keyingi rivojlanish yo'nalishini aniqlash va yangiliklar joriy etish uchun xizmat qilishi lozimligini ta'kidlab, tadqiqotchiga va mutaxassislarga katta mas'uliyat talab etadi.



Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhiti landshaft arxitektursini shakllantirish keng ko'lamli turar joy majmuasi qurilish jarayonida energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqilgan. SHu maqsadda qurilish vaqtida yuqori darajadagi shovqin va issiqlik izolyasiyasi xususiyatlariga ega bo'lgan bazalt tolasidan foydalaniladi. Ishonchli izolyasiya qatlami sabab binolarida optimal harorat rejimiga erishiladi. Bu jarayon qishda ichki issiqlikni saqlab turishga xizmat qiladi, yozda esa yuqori haroratdan himoya qiladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda zamonaviy turar-joy muhiti landshaft arxitektursini shakllantirish va qurilishda Olmazor Business City turar joy majmuasi panorama oynalar, zamonaviy arxitekturaning urfga aylangan elementlaridan foydalanilmoqda. U nafaqat yuqori estetik parametrlarga javob berishi kerak, balki energiyani samarali tejashni ta'minlaydi. Energiyani tejaydigan maxsus ikki qavatli oynalardan foydalanish energiya yo'qotilishi darajasini 10% gacha kamaytirishi mumkin. Olmazor Business City turar joy majmuasi qurilishida ishlatiladigan ikki qavatli oynalar xonaga ko'proq quyosh nuri tushish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, issiq harorat uzoq vaqt xonani tark etmaydi.

Puxta o'ylangan isitish tizimi energiya tejamkor uyning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Turar joy majmuasi avtonom isitish tizimi yuqori funkcionallikka ega. Har bir xonadonga o'rnatilgan isitish qozoni uskunalari va yashash maydonining butun perimetri bo'ylab qo'yilgan radiatorli kommunikatsiyalar xonadon ichidagi energiyani saqlab turishga xizmat qiladi.

Oynalar : uchli AKFA kamerali ikki oynali oynalardan foydalanish mumkin. Fasad: havo qatlami bilan izolyasiya qilingan, siqilgan bazalt tolasi bilan o'ralgan va tashqi devorlari namlikka chidamli jabhada suv emulsiyasi bilan bo'yalgan uy hududini

obodonlashtirish uchun bolalar maydonchasi, park maydonchasi lanshaft arxitekturasiga kata e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy turar-joy kvartiralarida siz ko'cha shovqinini, avtomobil signallarini eshitmaysiz, hatto yomg'ir tovushlari ham mavjud bo'lmaydi. Chunki bizning devorlarimiz shovqindan ko'p qatlamli zamonaviy materiallar bilan himoyalangan. Green Park har doim tinch va osoyishta. Ning bizning devorlari qilingan nima qaraylik: 1-beton devor 2-yopishqoq ohak 3-izolyasiya kengashi 4-shponka soyabon 5-mash mustahkamlash 6-Primer 7 - macun 8-yillik gipsdan foydalanilgan. Atrium Savatga markazi va Aviator savat supermarket yurish masofasidan iborat.



Green Park turar-joy majmuasi turli xil rejalashtirish echimlari bilan yoqimli rangdagi zamonaviy 9 qavatli uylardan iborat. Qo'shimcha sport maydonchalari, fitness markazi, maktab, bolalar bog'chasi, do'konlar va yana – streetmaxtumkuli birga yo'lda majmuasining birinchi qavatlarida. Hududda butun oila bilan yurish uchun piyoda yurish, velosiped va skeyt yo'llari bo'lgan istirohat bog'i ishlab chiqilgan. Farzandlaringiz qulay xavfsiz o'yin maydonchalarida vaqt o'tkazishdan xursand bo'lishadi.

Yangi uyda mulk sotib olish, siz olasiz:

yaxshilangan tartib;

yuqori sifatli ekologik toza materiallardan qurilgan uy-joy;

zamonaviy muhandislik tizimlari va kommunikatsiyalari;

uy hududini obodonlashtirish.

rivojlangan infratuzilmasi va yaxshi transport imkoniyati bo'lgan hududda turar joy.

Xonalar chrome armatura va ichki eshiklar, laminat, devorlar bo'yash uchun shuvalgan, kirish eshigi, santexnika o'rnatilgan va hammom ulangan, elektr simlari o'rnatilgan, ikki konturli isitish tizimi va issiq suv ta'minotini yaratilgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Samarqand shahrida zamonaviy turar-joy muhitida landshaft arxitektursini shakllantirish, uy-joylardagi energiyani tejashda yuqori ekologik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega ishonchli va uzoq muddatli tizimli yondashuvni tatbiq etgan turar joy majmuasida barcha shart-sharoitlarni yaratish. Bunday innovatsion majmua undagi har bir xonadonda yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbe-kiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Qayimov A.Q., Turok Dj. "Aholi yashash joyla-rini ko'kalamzorlashtirish". Toshkent – 2012
3. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. O'quv qo'llanma.-T., 2000.
4. Vergunov A.P., Denisov M.F., Ojegov S.S. Landshaftnoe proektirovanie.-M.1991.
5. Uralov A.S. Me'moriy shakllarni uyg'un-lashtirish va bezash. – Sa-marqand, 2003.
6. Uralov A.S., Raximov A, Saidova B. A. Arxi-tekturaviy kompozitsiya va loyihalash asoslari.- Sa-marqand, 2005.
7. Isamuxammedova D., Adilova L. «Landshaft arxitekturasi». «Fan va texnologiya» nashriyoti. Toshkent – 2010

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING MUHIM PRINSPLARI

Shukurova Go'zal Rahmatullayevna

Surxondaryo viloyati Denov tumani 51-umumta'lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada ta'lim tizimiga integratsiya jarayonining kirib kelishi hamda ona tili va adabiyot darslarini o'qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darsliklarida berilgan mavzularni bir-biriga bog'lagan holda tushuntirish usullari va metodlarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi texnologiyalar.*

Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'limning birlamchi ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchilarga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o'qituvchisi har sohada yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning – fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhimdir. Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish – o'quvchilarning fanga doir bilimlarini puxta o'zlashtirishida yetakchi samara beradi.

Ma'lumki, o'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o'z ta'lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta'lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – “butun” degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi. Ta'lim tizimida ona tili darslarini olib borishda bu fanni bevosita adabiyot bilan bog'lab o'qitish yaxshi natija beradi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligini olaylik.

Ushbu darslikda “Leksikologiya” bo'limini o'rganish uchun 39 soat ajratilgan. Bu bo'lim va undagi mavzularni adabiyot faniga bog'lagan holda badiiy asarlar, hikmatli so'z va maqollar, she'rlar orqali tahlil etilsa, bu ham ta'limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi.

Quyidagi 6-sinf adabiyot darsligidan olingan parcha O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidan olingan bo'lib, o'quvchilar parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tahlil qilish orqali, har bir so'zning lug'aviy ma'nosini, salbiy va ijobiylik xususiyatini farqlab, badiiy asarni yanada teranroq anglab yetadi. "Ziqna bo'lmay, o'! – deb o'yladi xotinini so'kib, – azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi". Umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida, mavzular oddiydan murakkabga tomon o'sib boradi. Masalan, 9-sinfda o'quvchilar ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini bilishlari, shu orqali o'z nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, nutq uslublarini bir-biridan farqlay olishlari kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchidan nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo'llay olish uchun o'quvchilarda yetarli ko'nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi. Bunda dastlab o'qituvchi nutq uslublari haqida umumiy ma'lumot beradi va o'quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o'tadi.

Yangi mavzu bayonidan so'ng o'qituvchi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'liga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materillarni tarqatadi. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, quyidagi materiallardan foydalanishimiz mumkin: 1 - Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, dedi Gulchehra xo'rsinib, – bilishganda, bittasi emas, bittasi aytib qo'yardi. - Ha, rozi bo'ldi Abdulla, rosa to'polon bo'lardi. - Men amakidan qo'rqaman.

Ko'zi yomon. Gulchehra Dadavoy amakining ko'zlarini ko'rsatmoqchi bo'lib olaydi, o'xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi. (O'.Umarbekov. "Odam bo'lish qiyin" asaridan) 2 Qalandarovning hovlisi kattagina ekan. Bir tomonda uncha did bilan solinmagan bo'lsa ham, kattagina imorat, sirkor ayvon: uning ro'parasida hovuz, chog'roq shiypon, sim tortib ko'tarilgan tok, bog'cha, poliz... lekin bularning hammasi hovli egasining havasi zo'ru, hafsala va didi yo'qligini ko'rsatib turar edi: tokning bir necha novdasi simga o'z holicha tirmashibdi-yu, qolgani yerda yotibdi; meva daraxtlarining ostini, polizini sho'ra va g'unay bosib ketibdi. (Abdulla Qahhor. "Sinchalak") 3 Vatan, istiqlol, ma'naviyat... bu so'zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalashda purhikmat so'zlardir. Agar insonda shu so'zlarning birortasi yo'q bo'lsa, hayotning qayeridir kemtik bo'lib turaveradi. (Gazetadan) 4 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850- sonli farmon O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda 2021-yil 1-yanvardan boshlab markaziy telekanallarda "Tilga e'tibor", "Ona tilida so'zlashamiz", "Notiqlik mahorati", "Til – millat ko'zgusi", "Kitob bilim manbai", "Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori" kabi turkum ko'rsatuv va eshittirishlarni tashkil qilib, muntazam ravishda efirga uzatib borilishini ta'minlasin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 Yomg'ir – suyuq tomchi holidayi atmosfera yog'ini. Tomchining diametri 0,5-0,6mm bo'ladi.

Yomg'ir bulutlardagi mayda suv zarralarining qo'shilib yiriklashuvidan hosil bo'ladi. Yomg'ir ikki xildir: jala yomg'ir, shivalama yomg'ir. Jala yomg'ir to'p-to'p bulutlardan yog'adi, ko'p vaqt o'tmay to'xtaydi, tomchilari yirik bo'ladi. (Darslikdan) Matnlardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi har bir uslubni o'quvchiga tushuntirishda integrativ yondashadi. O'quvchilar qo'lidagi matnlar jamlanmasini o'qituvchi bilan birgalikda kuzatib boradi va bu uning ko'z o'ngida qolishiga yordam beradi. O'qituvchi tushuntirishni boshlaydi: birinchi matn badiiy asardan olingan bo'lib, u so'zlashuv uslubiga xosligini va shu uslubga xos belgilarni ko'rsatib o'tadi. Ikkinchi matnda badiiy uslub ishtirok etganini va bu uslubni yoritish uchun badiiy asarga yuzlanganini aytadi. Uchinchi matnda publisistik uslubning yozma shaklini aytib, bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir etish bo'lib, soddalik, tushunarlilik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish zarurligi aytiladi.

To'rtinchi matn rasmiy uslubida yozilganligini tushuntirish bilan bir qatorda rasmiy uslub turlariga yana bir marotaba to'xtab, quyida berilgan matn rasmiy uslubning sof qonunchilik uslubida yozilganligini sharhlab o'tadi. Va nihoyat, beshinchi matnda o'qituvchi ilmiy uslubni o'rganish uchun fizika faniga murojaat etganligini aytib o'tadi va ilmiy uslubni yana bir bor takrorlab o'tadi. O'qituvchini bu usul, yani uslubiyat mavzusini boshqa predmetlarga murojaat etish yo'li bilan tushuntirishi o'quvchilarning yangi mavzuni tez va oson o'rganishini ta'minlaydi. XULOSA Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini yanada boyitadi. Ona tilida darslarida yangi mavzuni tushuntirishda adabiyot darsligida berilgan hikoya, she'r, maqol, hikmatli so'zlar va badiiy asarlardan misollar keltirib, darsni integrativ tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, oliy ta'limda tahlil yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lib, til bo'yicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavlonova, K. (2016). Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rganish metodikasi. Mashhur-press.
2. Musayev, U. (2002). Integratsiya darajalari. Xalq ta'limi - №6
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. (1981). M.: Русский язык.
4. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).
5. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI century.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA TAYORLASH

Ibragimova Gulchehra Anvarovna

Guliston davlat universiteti maktabgacha ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga ruxiy va fiziologik tayyorgarligi, maktabga tayyorgarlik ko'rishga imkon beradigan ko'plab usullar va tayyorgarliklar haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha yosh, davr, bolalar, tayyorlov, ko'nikma, talim.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается психическая и физиологическая подготовка детей дошкольного возраста к школьному обучению, многие методы и препараты, позволяющие подготовить их к школе.*

Ключевые слова: *Дошкольный возраст, период, дети, подготовка, умение, воспитание.*

Annotation: *This article discusses the mental and physiological preparation of preschool children for schooling, many methods and preparations to prepare them for school.*

Key words: *Preschool age, period, children, preparation, skill, upbringing.*

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti ahloqi qiziqish va munosabatlarida anchayin jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani bog'chada yoki uyt dayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni unchab bo'lmagan bilim, yushuncha, kunikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Etakchi mutaxassislarining fikriga ko'ra "maktabga tayyorgarlik"

tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning qo'yidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi: jismoniy, shaxsiy(ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati qo'l mushaklari va ko'rish - motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

"Rivojlanganlik"ning asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko'rinadi. Masalan – suyak tuzilishida, past bo'yli bolalarda o'z yoshiga ko'ra tana bo'yi va og'irligidagi nomutanosiblik, tanadaga muvozanat buzilishlari, yo'rak- qon tomir tizimidagi fiziologik etishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yo'klamalarni bajarishdagi imkoniyatlari pastligi shular jumlasiga kiradi.

Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka urgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dasturi materiallarini etarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu urinda bir narsani takidlash lozimki, bolaga o'qishni, uning ustiga tez o'qishni va yozishni o'rgatish unchalik muhim emas. Asosiysi bolaning lug'at boyligini oshirish, undanongli va faol foydalana olishini, tovushni tiniq eshitishini,

aniq talaffuz qilishini, ularni so'zlardan ajrata bilishni ta'min etish va «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi" gakiritilgan savodxonlik bo'yicha oddiy bilimlarni, matematik tasavvurlarni egallashiga erishishdir. Agar bolada qo'l mushakchalari etarli darajada rivojlangan bo'lsa u maktabda 1- sinf ta'lim jarayonida 2-3 davomida o'qish va yozish texnikasini qiyinchiliksiz egallab oladi. Maxsus tayyorgarlikning asosiy ko'rsatkichlari, bu – faoliyatning tushinib etilishi va erkinligi, ijodiy tasavurning rivojlanganligi hisoblanadi. Bu sifatlar bolada maktabgacha yosh davrining so'ngida savodxonlik, matematik, o'ziga xos faoliyatning, ya'ni o'yin, konstruksiyalash(qurish-yasash), chizish kunikma-malakalarini egallash asosida paydo bo'ladi.

Maktablarning 1- sinflari o'qituvchilari maktabgacha yoshdagi bolani qabul qilishda shuni unutmaslik lozimki, 6, hatto, 7 yoshli bola 1-sinfga kirishda uning oiladami bog'chadami maktabgacha ta'limni to'liq olganligidan qat'iy nazar, o'quv faoliyatining ma'lum bir ko'nikmalariga ega bo'lsa-da, baribir ma'lum muddatgacha bolamaktabgacha yoshdagi davrning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab turadi. U hali o'quv faoliuyati uchun kerakli bo'lgan sifatlar va uddaburonlikka ega emas. U bu hislatlarni o'quv jarayoni davomida egallashni davom ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o'qitish bosqichida bog'chada ham, maktabda ham ularga o'qishda birdan qat'iy belgilangan talablarni qo'yish mumkin emas, faqat maktab-dars tizimidagi ta'limni qo'llash kerak. Namuna uchun bolalar bog'chasida va maktabda ta'lim shakli mutanosibliqi taqsimotini keltiramiz.

- bolalar bog'chalarining katta va tayyorlov guruhida – 80 foyiz o'yin –20 foiz mashg'ulot;
- birinchi sinflarda (1-yarim yillikda) – 60 foiz o'yin – 40foyiz dars;
- birinchi sinflarda (2-yarim yollikda) – 30 foyiz o'yin – 70 foyiz dars ;

Katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari va 1- sinf o'quvchilari-ning asosiy vazifasi – ta'limning birinchi bosqichida bola hayoti va metodlarini ta'min etish. O'yin faoliyati bolalar uchun malum muddat etkchi bo'lib qolishi va metodlarini ta'min etish. O'yin faoliyati bolalar uchun ma'lum muddat etakchi bo'lib qolishi va bundan birdan voz kechmaslik, balki u sekin-asta tabiiy holda o'z o'rnini boshqa, yani o'quv faoliyatiga bo'shatib berishini nazarda tutish kerak.

Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligini ko'p jixatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik – maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talabalarining o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi ijtimoiy psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim.

Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavurning, [odamiylikning](#), bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, xamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutkni qanchalik rivojlanganligiga ko'prok bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuqlarida erkin foydalana olishi, xikoya qilish, muloxaza yuritish, o'z tasavvurini izoxlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy aqliy rivoji ya'ni, uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshirikni bajarishi xam muxim sanaladi. Va nixoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1 sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan maktabgacha ta'limda tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya [yoshidagi bolalarni umumiy](#), xar tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntayeva va boshkalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro boglangan jixatlarda: «Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida ko'rib chiqiladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik MTMsining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni xar tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Bolaning maktabda o'qishga aqliy tayyorligi. Maktabga aqliy tayyorlikning muxim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi o'qituvchi o'z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchalar mazmuni va xajmining to'la qo'ligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llana olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha tarbiya yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bolani maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayan darajada rivojlangan bo'lishidir. Bu o'rinda

Birinchi dan bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma'no jixatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar;

Ikkinchidan bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi;

Uchinchidan bolada atrof dunyoga bilish munosabatlari, [bilimlarni](#) egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchini tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasasining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning xap tomonlama taxlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda xodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va xodisalaridagi asosiy aloqa, bog'liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farklanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bolajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarini egallab olinishini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga

kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, hulq-atvori, topshiriklarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

Nutkni kanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolani maktabga aqliy tayyorgarligining muxim tarkibiy qismi xisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug'atning boyligi, o'z fikrini mantiqiy grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi-bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti xisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Bikbayeva N.U., Ibroximova 3.I., Qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik [tasavvurlarni shakllantirish](#), T., 1995.
- 2.X. Axmedova va boshqa... «Bolangiz maktabga tayyormi?» T., 2000y.
3. M.Jumayev "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi" T., 2007 y.
4. S.X.Jalilova, S.M.Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.. 2013y.
- 5.Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ko'yiladigan davlat talablari. 2013y.
- 6.. "Bolajon" dasturi 2010y.

INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARINING AHAMIYATI

Karimova Maftuna Shukur qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kompyuter, multimediali elektron qo'llanmalar, internet, elektron ma'lumotlar bazasi.*

Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlanmoqda. So'nggi vaqtlarda ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko'proq degan xulosaga kelmoqdalar. Axborot jamiyatiga o'tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o'tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, «global axborot afzalliklarini» teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi.. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o'qitish platformalari ko'paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta'lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo'llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo'ladi. Bu tendensiyaga bo'lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi. Ko'pgina tadqiqotlar onlayn ta'lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo'lishini ko'rsatgan, ya'ni talabalarning mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo'ladi. Elektron ta'limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o'zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo'llashasosida an'anaviy ta'limning hohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

Ma'lumki, birgina shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi va ular-dan barcha sohalarda keng foydalanish ta'lim tizimi imkoniyatlari tubdan o'zgartirdi, shu bilan birga Internet tarmog'i ta'lim tizimiga yangi peda-gogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada katta imkoniyat-lar yaratmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimini takomillashtirish eng avvalo, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya tizimiga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lib kompyuterli ta'limning shakllanishiga imkon beradi. Ta'lim tizimida ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan kompyuter larni deyarli barcha didaktik masalalarni, shu jumladan axborotni yig'ish, saqlash va uzatish, o'quv-tarbiyaviy jarayonini

boshqarish, talabalar bilimini nazorat va tahlil qilish, mashqlarni bajarish, o'quv jarayoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash kabi boshqa masalalarni hal etishda tatbiq etish mumkin.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim tizimining quyidagi asosiy yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi:

– ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha o'zlashtirish daraja-sini oshirishni ta'minlash;

– ta'lim tizimida o'quvchilarning qobiliyati, iqtidori, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni shakllantirish, fanlar bo'yicha bilim egallashni rivojlantirish, malak va ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

– talabalar bilimini nazorat qilish uchun pedagogik va axborot texnologiyalaridan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalanish, ya'ni pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish.

Pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim tizimining sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi¹⁰:

– ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalarining sifati;

– axborot texnologiyalari vositalarining zamonaviy dasturiy vositalarining sifati.

Ta'lim muassasida ET muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimiga ETni joriy etish, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishiga bog'liq. Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida ETdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday muhim vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini ET asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. AKTni ta'lim jarayonida qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti, bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir.

Pedagogik va axborot texnologiyalari vositalaridan ta'lim tizimida foydalanishning samaradorligi o'qituvchilarning o'quv jarayoniga shu texnologiyalarni qo'llashga oid bilim

hamda malakalarining darajasi va tajribasiga ham bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, ta'lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e'tibor, eng avvalo, o'qituvchiga va o'quvchiga zarur bo'lgan sharoitni yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy elektron axborot va uslubiy resurlaridan samarali foydalanishgaqaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24 aprel 2017 yil, Toshkent.
2. Abduqodirov A.A., Paradaev A.X. O'qitish nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: Fan, 2019 . – 145 b.
3. Bolotov V.A. O distantsionnom obrazovani// Informatika i obrazovanie, №1, 2018 g.
4. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2017.
5. Hamidov Y.Y. Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslarining o'rni // Молодой ученый. - 2019. -№ 21 (259). -b. 611-612.

SPORT – JISMONIY MADANIYATNING TARKIBIY QISMI

Mamurov Asadbek Elyorjon o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda Sport asosan uch ko'rinishda - o'quv predmeti, ommaviy-ko'ngilli sport, «katta sport», “Oliy tartibdagi harakat mahorati sporti” tarzidagi yo'nalishlarda o'zining nazariyasi va amaliyotini rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Sport, jismoniy rivojlanish, inson, rivojlanish darajasi, ommaviy sport, baza, jismoniy tarbiya, tarkibiy qism, yuqori kayfiyat, muvaffaqiyat, jismoniy madaniyat,*

Sport jismoniy rivojlanishni va insonning u bilan bog'langan boshqa sifatlari rivojlanish darajasini ta'minlaydi. Ommaviy sport bazasi jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Yuqori muvaffaqiyatlarga erishishda sport jismoniy madaniyatning maxsus sohasini ifodalaydi.

Sport - jismoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. Sport, xususan, ahamiyatli 54 darajada jismoniy va unga bog'liq bo'lgan qobiliyatlarning rivojlanishini va o'sishini ta'minlaydi. Jamiyat jismoniy madaniyatining tarkibiy qismi xisoblangan sport tushunchasi yunoncha so'z bo'lib, boshlang'ich ma'noda «kuch sinashaman», «musobaqalashaman» degan ma'noni beradi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarigacha sportga dam olish, ko'ngil ochish, so'ng, jismonan yuqori sport ko'rsatkichga erishish vositasi, musobaqalarda g'alaba qozonish tarzidagi faoliyat deb qaralgan. Sport asosan uch ko'rinishda - o'quv predmeti, ommaviy-ko'ngilli sport, «katta sport», “Oliy tartibdagi harakat mahorati sporti” tarzidagi yo'nalishlarda o'zining nazariyasi va amaliyotini rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi. O'quv predmeti sifatida davlat ta'lim muassasalari va qurolli kuchlar tizimi jismoniy tarbiya jarayonining vositasi tarzida.

UJT hamda sport tayyorgarligini nazariy asoslari fani tarzida majburiy o'qitiladi. Ommaviy-ko'ngilli sport jamiyatimiz a'zolarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati soxibining jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarining vositasi tarzida foydalanishda, bolalar, o'quvchi, talaba-yoshlarning darsdan tashqari vaqtini foydali o'tkazish uchun har bir individning tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Sport mahoratini oshirish maqsadida ham ommaviy ko'ngilli sportdan maqsadli foydalanish ham yo'lga qo'yilishi mumkin.

Ommaviy-ko'ngilli sport atamasi o'z mazmuniga ko'ra ko'pchilik shug'ullanishi mumkin bo'lgan yoki shug'ullanishni yoktiradigan sportning - minifutbol, futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, yengil atletikaning yurish, yugurish mashqlari, suzish, shaxmat, shashka va boshqa qator turlarni o'z ichiga oladi. Turli xildagi harakatli o'yinlar, o'z qoidasi,

o'yin maydoniga ega bo'lgan xalq milliy o'yinlari va milliy sport turlari ham bundan mustasno emas.

Katta sport boshqachasiga - "oliy maqomdagi sporti mahorati" soxiblari bajaradigan harakatlar tarzidagi sport boshqachasiga aytganda "harakatning oliy maqomi" (yuqori maqomda bajariladigan) jismoniy mashqlar tushuniladi. "Katta sport" sportning tanlangan turi bo'yicha "oliy maqomdagi harakat malakasini egallash"ni maqsad qilib shug'ullanuvchilarning maxsus tayyorgarligini o'z ichiga oladigan jarayon ko'lamiga ko'ra keng tushuncha. Bunday maxsus tayyorgarlik tanlangan sport turiga qarab 8,12,15 va undan ortiq yillar davomida muntazam va tizimli amalga oshiriladigan jarayondir. Shug'ullanuvchilarning ko'pchiligi sportchi sifatida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishni faqat yuqori sport natijalarga erishishni maqsad qilib qo'yadilar.

Hozirgi kunda esa bu kasb ham xisoblanadi. Shu kunlarda «sportchi» deganda yoki shu so'z talaffuz etilganda, tasavvurimizga kuchli, chidamli va chaqqon, qaddi-qomati kelishgan alpqomat 55 yigit yoki qiz obrazi, shu bilan birga, irodali, to'g'ri so'zli, hayotga doimo yaxshi umid bilan qaraydigan optimizim ruxi soxibi, har qanday qiyinchiliklarni oson yenguvchi, kamtarin va o'zining sportdagi mahorati va yutuqlariga nisbatan xotirjam insonni ko'z oldimizga keltiramiz. Shunday ekan, sport jamiyat manfaati uchun xizmat qiladigan faoliyat, tarbiyaviy va kommunikativlik funktsiyalarini ham bajaradi.

Katta sport shug'ullanuvchidan (sportchidan) o'ziga nisbatan o'ta talabchan, uyushgan, belgilangan qoidalarga rioya qiladigan, tashkilotchi, kirishuvchan (begonasiramaydigan), tez muloqotga kirishuvchan bo'lishni, talab qilinsa, fidoiylik, o'zini ayamaslikdek, qator insoniy sifatlarning talablarini qoidaga aylantira oladigan, unga rioya qilaoladigan, oriyatli, shon-shuxratga nisbatan bosiqlikdek xislatlar hamda boshqa qator qadriyatlar talablariga bo'ysinuvchan bo'lishga o'rgatadi. Sport doimiy kasb emas. Sport hayoti 8-20 yil davom etadigan, moddiy ne'mat (boylik) yaratish bilan bog'lanmagan va o'quv tarbiya jarayoni qonuniyatlariga bo'ysundirilgan inson tarbiyasi jarayoni vositalaridan biri.

Bolalar sporti. Bolalar sport faoliyati darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladi. O'quv fani sifatida umumta'lim maktablari o'quv rejalari va dasturlariga qisman kiritilgan va maktabda sinfdan tashqari ishlar, maktabdan tashqari muassasalardagi mashg'ulotlar shaklida alohida ahamiyat kasb etadi, ko'ngilli tarzda yo'lga qo'yiladi.

Sportning xarakterli alomatlarining barchasi bir butun bo'lib, bolalar sportida o'z aksini topgan. Uni bolaning darsdan tashqari faoliyatining turli ko'rinishi deb belgilash ham, maxsus tayyorgarlik, musobaqalarda qatnashish yoki o'zidagi mavjud imkoniyatlarini xisobga olgan holda, oldindan belgilangan optimal harakat qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni, deb qarash ham mumkin.

JISMONIY TARBIYA TIZIMI RIVOJLANISHINING TARIXAN QONUNIYLIGI

Mamurov Asadbek Elyorjon o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Afsonalar, rivoyatlar, og'zaki naqlar, madaniy ashyolar va turmush predmetlari, rasmlar, qoyaga o'yilgan tasvirlar, ilmiy ekspeditsiyalar paytida topilgan haykalchalar qadimgi odamning madaniyati, shu jumladan, jismoniy tarbiyasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, afsonalar, rivoyatlar, og'zaki naqlar, madaniy ashyolar, turmush predmetlari, rasmlar, qoyaga o'yilgan tasvirlar, ilmiy ekspeditsiya, haykalchalar, qadimgi madaniyati.*

Afsonalar, rivoyatlar, og'zaki naqlar, madaniy ashyolar va turmush predmetlari, rasmlar, qoyaga o'yilgan tasvirlar, ilmiy ekspeditsiyalar paytida topilgan haykalchalar qadimgi odamning madaniyati, shu jumladan, jismoniy tarbiyasi haqida ham mulohaza yuritishga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya masalasini tatbiq qilgan olimlar bu kuzatish va tekshirishlar natijasida mashq qilish qadimgi dunyo odamlariga ham xos bo'lgan degan fikrni bildirmoqdalar. Jismoniy mashqlar mehnat va harbiy faoliyat asosida vujudga kelgan. Jismoniy tarbiya esa jangchi va ovchining tayyorgarlik zaruriyati bilan uzviy bog'langan. Tarbiyani, shu jumladan, jismoniy tarbiyani mustaqil faoliyat sohasiga ajratish faqat ijtimoiy mehnat tufayligina mumkin bo'lib qoldi. Jismoniy tarbiya tizimining vujudga kelishi uchun jamiyatning ma'naviy-madaniyati va yuqori darajada moddiy ta'minoti zarur.

Ibtidoiy jamoa tuzumida jismoniy tarbiya tizimining faqatgina kurtagi vujudga keldi. O'sha davrda har bir insonning jismoniy tayyorgarligiga talab juda katta bo'lgan edi, og'ir turmush sharoiti esa jismoniy tayyorgarlikka ehtiyojni talab qilardi. Ammo o'sha davrlarda tizimni yaratish uchun turmushning past moddiy darajasi imkon bermasdi. Quldorlik tuzumi jismoniy tarbiyaning g'alati tizimini tug'dirdi va bugun insoniyat odamning uyg'un jismoniy rivojlanishiga qaratilgan qadimgi allomalar tizimi bilan mag'rurlanishga haqlidir. Biroq bu tizim mutlaqo o'z sinfiga - quldorga xizmat qilgan edi.

Ajoyib o'yingohlar, gimnaziyalarda faqat ular uchun mumkin bo'lgan barcha o'yinlar o'tkazilardi. Katta miqdordagi qullarni bo'ysundirishlari, ushlab turishlari uchun quldorlar har tomonlama kuchli bo'lishlari kerak edi. Feodalizm tuzumi jismoniy tarbiyaning o'z tizimini yaratdi. Jismoniy tarbiyaning eng aniq maqsad bilan ifodalangan harbiy hayotga tayyorlovchi ritsarlar va dvoryanlar tabaqasi vujudga keldi. Jismoniy tarbiya sohasidagi ziddiyat shundan iborat bo'ldiki, mehnatkashlar salomatligi va jismoniy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish hokimiyatni sira ham qiziqitirmadi. Ammo ularga epchil, kuchli, mohir soldatlar kerak edi. Sanoat korxonalariga ham unumli ishlaydigan layoqatli odamlar zarur edi.

Kapitalistlar jismoniy tarbiya va, ayniqsa, sportdan o'zlarining g'oyalarini targ'ib qilish uchun, ya'ni yoshlarni siyosiy kurashdan chalg'itish maqsadida foydalanishdi. Bu davrda jismoniy tarbiyaning o'ziga xos xalq uslublari va amaliyoti mavjud edi. Garchi, qonuniy uyg'un tizim tarkib topgan bo'lmasa-da, burjua jamiyati tipida tenglik, ozodlik, birodarlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy qayta tuzish g'oyasi pishib yetildi.

Buyuk gumanistlar, sotsial-utopistlar g'oyasi jismoniy tarbiyaga ham tarqaldi. Xususan, rus revolyusion-demokratlari g'oyasi P.F.Lesgaftning jismoniy ta'lim nazariyasida juda katta rol o'ynadi. Biroq 60 kapitalistik jamiyatda ilg'or insonparvar g'oyalar faqat nazariya darajasida bo'lishi mumkin edi. Chunki har qanday tarbiya tizimini amalga oshirishda (shu jumladan, jismoniy tarbiyada ham) moddiy asos, mablag'lar, harakat hukumatning qo'llab-quvvatlashini talab qiladi.

Chor Rossiyasida jismoniy tarbiya tizimi qoloqligi, o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya bo'yicha Davlat dasturining, mutaxassislarining yo'qligi bilan farq qiladi. Jismoniy tarbiyani rivojlantirish maqsadida tasodifan chet el tizimining unsurlaridan foydalanildi va o'z xalqining jismoniy tarbiyasiga ahamiyat berilmadi. Bu halq jahonga taniqli atletlar – Ivan Poddubniy, Ivan Zaykin, Nikolay Panin-Kolomenkin, Nikolay Strunnikov va boshqalarni “sovg'a” qildi.

Jismoniy tarbiya tizimining vujudga kelishi turli xarakterdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq.

1. Insoniyat jamiyati tarixida birinchi marta jismoniy tarbiya tizimi oldiga ko'lami bo'yicha shunday ulkan maqsad – ilg'or mutafakkirlarning jamiyadagi barcha a'zolarini uyg'un rivojlantirish orzularini hayotga har tomonlama tatbiq etish vazifasi qo'yildi.

2. So'nggi asr o'rtalarida rivojlanish yo'lini tanlashda jismoniy tarbiya ishlarini yoshlarga taqdim etilishi, burjua turidagi klublar tashkil qilinishi bilan bog'liq bo'ldi.

3. Mamlakatda og'ir iqtisodiy holat va moddiy bazaning yo'qligi qiyinchilik bilan bog'langan. Jahon amaliyotida bo'lmagan yangi jismoniy tarbiya tizimini yaratish talab qilinardi.

Jismoniy tarbiyaning yangi tizimini nazariy asoslash ishida yirik mutaxassis P.F.Lesgaftning jismoniy ma'lumot to'g'risidagi ilg'or ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiya tizimi O'zbekiston Respublikasida tinch qurilish ishi bilan band bo'lgan kishilarning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini uyg'un ravishda rivojlantirishdek olijanob maqsadga xizmat qiladi. Jismoniy madaniyat bilan muloqotda bo'lish, undan foydalanish, uning vositalarini o'zlashtirish, jamiyatga uning qimmatbaho boyliklarini berish va ko'paytirish ko'pqirrali ishdir. Bularni amalga oshirishda birinchi darajali rolni “jismoniy tarbiya tizimi” o'ynaydi.

MAMLAKATDA JISMONIY TARBIYA TIZIMINING RIVOJLANISHI.

Mamurov Asadbek Elyorjon o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Maqolada jismoniy tarbiya tizimi haqida, guruh zvenolari bo'yicha jismoniy tarbiya vazifalarini, vositalarini, ish shakllarini, hamda oiladagi jismoniy tarbiyani, kadrlar tayyorlashni va sport inshootlari qurilishi haqidagi barcha ma'lumotlarni bilishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, tizim, guruh, zveno, jismoniy tarbiya vazifalari, vositalar, ish shakllari, oila, sport, sog'lik, , kadrlar tayyorlash, sport inshootlari.*

O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimini bayon etish uchun biz umumiy inqilobgacha bo'lgan davrdan so'ng inqilobining g'alabasi bilan sobiq Sovet Ittifoqida Davlat tizimini rivojlanishi haqida gapirishimiz lozim.

Jismoniy tarbiya tizimi deganda biz jismoniy tarbiyaning ilmiy metodik va ideologik asoslarini tushunamiz. Bizning mamlakatda yagona jismoniy tarbiya tizimi yaratilgan, bu tizimning yaratilishi xalqimizning jismoniy tarbiya sohasida olib borgan ishlarning samarasidir.

Nazariya orqali erishilgan va amaliyotda tasdiqlangan hamma qimmatbaho ma'lumotlar jismoniy tarbiyaning tizimi orqali amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya tizimi deganda biz zvenolari bo'yicha jismoniy tarbiya vazifalarini, vositalarini, ish shakllarini, hamda oiladagi jismoniy tarbiyani, kadrlar tayyorlashni va sport inshootlari qurilishini tushunamiz.

Jismoniy tarbiyaning zvenolariga:

- 1.Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar jismoniy tarbiyasi.
- 2.Maktab yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya.
- 3.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlardagi jismoniy tarbiya.
- 4.Oliy o'quv yurtlardagi (VUZ) jismoniy tarbiya.
- 5.Uzbekiston armiyasi (va harbiy flot) jismoniy tarbiyasi.
- 6.Ko'ngilli jismoniy tarbiya va sport jamiyatlaridagi jismoniy tarbiya kiradi.

Mazkur tizimda g'oyaviy va ilmiy metodika asoslari, shuningdek mamlakatda fuqoralarning jismoniy tarbiyasini amalga oshiruvchi va nazorat qilishga qaratilgan tashkilotlar va muassasalar mujassallashgandir. Inqilobgacha Rossiyada yagona jismoniy tarbiya davlat tizimi bo'lgan. Chor hukumati P.F.Lesgaft tomonidan yaratilgan jismoniy ta'limotga uncha e'tibor bermasdan hukumdor sinflarning jismoniy tarbiyasi uchun turli chet el tizimidan foydalanganlar.

Ayrim olimlar jismoniy tarbiya sohasidagi ish mazmunini qisqa 69 biologik vazifalar bilan cheklanishga urindilar. Bu bilan ular kishini psixik va jismoniy tomonlarini birligini, shaxsni tarbiyalashda ijtimoiy xayot sharoitini yetakchi rol o'ynashini, jismoniy mashq

mashg'uloti jarayonida shaxsni birligini inkor etmoqchi bo'ldilar. Sobiq Sovet jismoniy tarbiya madaniyatigacha yaratilgan hamma jismoniy tarbiya vositalarini yo'qotib, o'rniga yangi mashqlarni va sport asboblarini yaratish kerakligini isbotlamoqchi bo'ldilar. Ularning fikricha futbol o'yinini o'ynash mumkin emas, chunki u burjuaziya tomonidan yaratilgan va h.k. Boshqalari bo'lsa g'arb oldida bo'yin egib, sovet jismoniy tarbiya tizimini shakllanish jarayonini, har xil g'arb tizimiga mostlashtirishni taklif etdilar. Kommunistik tarbiya rahbarligida bu hato va yo'nalishlar yo'qola bordi.

Mamlakatda xalqni jismoniy tarbiyalash tizimi ilmiy asoslangan holda vujudga keldi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning masalalarini asoslashda va mutaxassislar tayyorlashda P.F.Lesgaft, V.V.Gorinevskiy, Ye.A.Arkin kabi buyuk olimlarning xissasi katta.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimining kelajakdagi ravnaligiga, pedagogika fanlar akademiyasining ilmiy xodimlari A.N.Bikova, L.Gorinevskaya, D.V.Xuxlayeva (1950-60y.y) sobiq sovet akademiyasining xodimlari M.Yu.Kistyakovskiy, N.T.Terexova, T.N.Osokina, Ye.L.Timofeeva, B.Ch.Vavilova, A.A.Udyalova va boshqalarni (1960y.), pediatriya ITI hodimi Z.S.Uvarova, bolalar va o'smirlar gigienasi ITI hodimi G.P.Yurko va boshqalar, jismoniy tarbiya institutlari, maktabgacha pedagogik kafedralarning o'qituvchilari o'z xissalarini qo'shganlar.

Sobiq sovet davrida jismoniy madaniyatning rivojlanishiga O'zbekiston jismoniy tarbiya sport ko'mitasi xodimlari va ustozlari R.I.Ismailov rahbarligida, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining yetakchi professor-o'qituvchilari O.A.Rixsieva, A.I.Yarotskiy, X.T.Rafieva, O.M.Jigallo va boshqa ko'pchilik olimlar o'z xissalarini qo'shganlar. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo'lgandan keyin jismoniy tarbiya masalalariga, qadriyatlarini tiklashga va uni rivojlanishiga katta e'tibor beriladi.

Jamiyat yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom, baquvvat, xushchaqchaq bo'lib, mehnatga, hayotga va Vatanni himoya qilishga tayyor bo'lib o'stirishdan juda manfaatdordir. Ushbu hujjatda jismoniy tarbiya uchun sharoit yaratish vazifasi ham qo'yilgan: sport zallari, maydonchalarni qurish, ularni uskunalar, anjomlar bilan jihozlash va boshqalar. 70 Olimlar va amaliyotchilarning birgalikdagi g'ayrat-shijoat natijasida jismoniy tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari /maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari hamda akademik litseylar, kollejlari va o'quv yurtlari/ uchun ilmiy asoslangan yagona dasturlar yaratildi. Kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi pedagogik kollejlari, Jismoniy tarbiya instituti, pedagogika institutlarining jismoniy tarbiya fakultetlari uchun maxsus dasturlar va qo'llanmalar, darsliklar ishlab chiqilayapti. Ilmiy tekshirish institutlarida jismoniy tarbiyani takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

JISMONIY MASHQLARNING MAZMUNI VA SHAKLLARI

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda jismoniy mashqni bajarishda sodir bo'ladigan mexanik, biologik, psixologik jarayonlarning mazmunining majmuyi to'plami jismoniy mashqlarning mazmunini yuzaga keltiradi, ularning o'zaro muvofiqligi esa harakat faoliyatiga zid qobiliyatni namoyon bo'lishi haqida bilib olasiz.*

Kalit so'zlari: *Jismoniy tarbiya, mashg'ulot, xodisa, jarayon, mazmun, shakl, mexanik, biologik, psixologik, energiya sarflanishi, yurak-tomir, nafas olish.*

Barcha xodisa va jarayonlarga o'xshash jismoniy mashqlar o'zining mazmuni va shakliga ega. Jismoniy mashqni bajarishda sodir bo'ladigan mexanik, biologik, psixologik jarayonlarning mazmunining majmuyi to'plami jismoniy mashqlarning mazmunini yuzaga keltiradi, ularning o'zaro muvofiqligi esa harakat faoliyatiga zid qobiliyatni namoyon bo'lishi orqali ko'zga tashlanadi. Shuningdek, mashq mazmuniga harakat bo'laklarining to'plami, masalan, uzunlikka sakrashda tanaga tezlik berish (yugurish), sakrash chuqurligi oldiga o'rnatilgan taxta ustidan depsinish, fazoda uchish, yerga tushish shu mashqning tarkibidagi harakat bo'laklari va ularga qo'shimcha mashqni bajarish jarayonidagi hal qilinadigan umumiy va xususiy vazifalar, mashqni bajarishda organizmda sodir bo'ladigan funktsional o'zgarishlar haqidagi nazariy bilim va amaliy harakat malakalari kiradi. Bu elementlar (bir butunning mayda chuydalari)ning barchasi jismoniy mashqning umumiy mazmunini vujudga keltiradi. Jismoniy mashqning shakli ularning ichki va tashqi tuzilishlarining muvofiqligida namoyon bo'ladi.

Mashqning ichki tuzilishiga shu faoliyatni bajarishda ishtirok etadigan skelet mushaklari, ularning tarangligi, qisqarishi, cho'zilishi, buralishi, eshinishi va h.k.lar, hamda biomexanik, bioximik bog'lanishlari - energiya sarflanishi, yurak-tomir, nafas olish, nerv boshqaruvi va boshqa organlardagi jarayonlar, ularning o'zaro bog'likligini o'z ichiga oladi. Biologik, mexanik, ruxiy va boshqa jarayonlarning mashq bajarishda birining biri bilan aloqasi, o'zaro kelishilganligi, yugurish mashqlarida boshqacha bo'lsa, shtanga ko'tarishda boshqachaligi bilan, mashqning ichki tuzilishini turlicha bo'lishini namoyon qiladi.

Mashqning tashqi shaklining mazmuni esa o'sha mashqning tashqi ko'rinishi, harakatni bajarish uchun ketgan vaqt yoki kuch sarflashning me'yori va harakat intensivligi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Jismoniy mashqlar shakli va mazmuni o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi. Mazmun shaklga nisbatan asosiy rol o'ynaydi.

Masalan, sakrash sektorida tanaga tezlik berish uchun yugurish texnikasi (qadamning kattaligi, chastotasi, tananing holati va h.k. lar) har xil masofada turlicha - tezlikning sifati, uning namoyon bo'lishi oddiy yugurish masofalaridagi yugurish texnikasidan farqlanadi.

Shakl mazmunga ta'sir ko'rsatadi. Aniq ma'lum bir harakat uchun namoyon qilinadigan jismoniy sifatlar shu jismoniy mashqni bajarish malakasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun suzuvchi kuchi bilan gimnastikachi kuchi, shtanga ko'tarish bilan shug'ullanuvchining kuchi biri-biridan farqlanadi. Jismoniy mashqning shakli va mazmunining ratsional muvofiqligiga erishish jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyotining asosiy muammolaridandir. Bu muammo qisman harakat malakasi va ko'nikmasiga, shuningdek, jismoniy sifatlariga ham taalluqlidir.

Jismoniy mashq, texnikasi Akademik darslarda, sport trenirovkasi sog'lomlashtirish va boshqa 120 mashg'ulotlarda har bir mashq yoki ixtiyoriy harakat ijro texnikasiga ko'ra turli uslubda bajariladi. Masalan, balandlikka sakrashda sakrash ustunlari orasiga qo'yiladigan balandlikni o'lchamiga o'rnatilgan "planka" ustidan sakrab o'tish uchun, plankaga nisbatan uning yoki chap yelka bilan yoki uning to'g'risidan yugurib kelib, depsinish bilan sakrash mumkin.

Aslida shu mashqni yuqorida qayd qilinganidan boshqacharoq - oson, oz energiya sarflab, belgilangan harakatni (vazifani) samarali ijro etish uslubiyatlari mavjud. Buni harakat yoki jismoniy mashq "texnika"si atamasi orqali mazmuni tavsiflanadi.

Texnika - grekcha so'z bo'lib, "bajarish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Harakat vazifasini oson, samarali hal qilish uchun tanlangan harakat akti (faoliyat)ni - jismoniy mashq texnikasi deb atash qabul qilingan.

Jismoniy mashq texnikasi yoki uning tarkibidagi harakat akti (harakat faoliyatining bir qismi bo'lagi), harakat faoliyati tarkibidan ikki narsani:

- a) bajarilayotgan harakat, uni bajarishdan kelib chiqadigan maqsad;
- b) harakat vazifasini hal qilishning usulini farqlash, ajrata bilishni taqazo etadi.

Harakat texnikasi doimiy ravishda takomillashib boradi, ohir oqibat yuqori natijalarga olib kelishi mumkin. Lekin bunga sportchilarning tinimsiz mehnati, ter to'kishi orqali erishiladi. Sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasining yaxshilanishi yoki uning tana tuzilishi (anatomiyasi)dan boshqacha aytganda, jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining turlicha o'zgarishlarga (son suyagini kaltaligi yoki uzunligi, yelka suyagi o'lchamining turli xilligi va h.k.) yuz tutishi sport turi - jismoniy mashqlarni bajarish texnikasining asosini, uning zvenolari yoki detallarining o'zgarishiga, almashishiga sabab bo'lishi mumkinligi jismoniy tarbiya, sport amaliyotida isbotlangan holatligini bilishimiz lozim bo'ladi. Harakat yoki jismoniy mashq texnikasi o'zining asosi, zvenolari va detallaridan iborat tarkibga ega bo'ladi va bu uning mazmuni deb qismlarga ajratiladi.

Harakat texnikasining asosi deganda, harakatni bajarish uchun qo'yilgan vazifani hal qilishda ijroni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, qo'llanilgan harakatlar yoki harakat faoliyati tizimidagi o'zak qism tushuniladi. Harakatni bajarish (ijro etish)da qo'llanilgan usullar harakat akti tizimining ketma-ketligini, tanamiz qismlari (a'zolarimiz) o'zaro kelishgan holda faoliyat ko'rsatishini buzmay, jismoniy sifatlarimiz (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, mushaklar egaluvchanligi va bo'g'inlar harakatchanligi)ni zarur bo'lgan darajada, keragicha namoyon qiladi. Usul samarali bo'lsa, amaliyotda unumli qo'llanishi

mumkin va uzoq vaqt o'zining hayotiy - amaliyligini saqlab qoladi. Masalan, balandlikka sakrashning "Fosberi-flop" usuli samarali bo'lsa ham, hozirgacha sportchilarning ko'pchiligi "perekidnoy" usulidan foydalanadilar.

Yangi o'rganuvchilar uchun esa hozirgi kungacha "kadamlab sakrab o'tish" usulidan foydalanilishi sakrash texnikasini o'zlashtirishni osonlashtiradi. Harakat texnikasining zvenosi deganda harakatning asosiy mexanizmini bajarishni osonlashtiradigan, unga yordam beradigan, mashq harakat tarkibidagi 121 harakat bo'laklari tushuniladi. Masalan, sakrashlarda depsinish, uloqtirishlarda final kuch sarflashni bajarish uchun yordam beradigan harakat faoliyati tarkibidagi bo'laklar tushuniladi. Pedagogik jarayonda mashqning asosiy zvenosi mexanizmini o'zlashtirish o'qitishning, ta'lim jarayonining vazifasini samarali hal qilish, harakat texnikasining negizini puxta egallashga zamin, deb qaraladi. Harakat texnikasi zvenolarining o'zlashtirilishi mashq texnikasining asosini o'rganilganligi, o'zlashtirilganligi demakdir.

Mashq texnikasining mazmuni tarkibida harakat texnikasining detallari (bir butunning mayda – chuydalari) tushunchasiga duch kelamiz. Jismoniy mashq (harakat) texnikasi tarkibidagi bunday detallar bir hil texnik usul bilan mashq bajarayotgan har bir shug'ullanuvchida turlicha shaklda, ko'rinishda bo'ladi. Chunki shug'ullanuvchilarning tana a'zolarining biomexanikasi ularning a'zolarini o'lchami bilan bog'liq. Mashqning ijrosi harakatning texnik elementlari uning texnikasining asosi, zvenolariga ziyon yetkazmaydigan qo'shimcha harakatlardir.

JISMONIY TARBIYA TIZIMINING ASOSLARI

Mamurov Asadbek Elyorjon o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolam jismoniy tarbiya tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari iqtisod, siyosat, fan, madaniyat bilan bog'liq. Bu tizimlar o'zaro. bir-biriga ta'sir etib rivojlanadi. Jismoniy tarbiya tizimi jamiyat ishlab chiqarish uchun kirib kelishi ob'ektiv asos bo'lishi haqida batafsil bilimlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, tizim, jamiyat, ijtimoiy, iqtisodiy, tizim, iqtisod, siyosat, fan, madaniyat, g'oyaviy asosi, iqtisodiy asoslari, uslubiy asoslar.*

Jismoniy tarbiya tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari iqtisod, siyosat, fan, madaniyat bilan bog'liq. Bu tizimlar o'zaro. bir-biriga ta'sir etib rivojlanadi. Jismoniy tarbiya tizimi jamiyat ishlab chiqarish uchun kirib kelishi ob'ektiv asos bo'lib xisoblanadi. Jismoniy tarbiya o'zining turli shakllari bilan insonni asosiy ijtimoiy 110 faoliyatiga kirgan. U faqat insonni harakatdagi biologik ehtiyojini emas balki ijtimoiy ehtiyojini insonni kamol topishi, ijtimoiy aloqalarni takomillashishini amalga oshiradi.

G'oyaviy asosi:

Milliy mafkurani asosiy g'oyalarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi jismoniy tarbiya va sport insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishda ham ulkan omildir. Yurt irodasini toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Vatan, xalq shuxratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni xarbiy vatanparvarlik ruxda tarbiyalashda sportning o'рни beqiyosdir. Sog'lom bilimli va fidoiy farzandlari bulgan xalq albatga o'zining biron kelajagini barpo etadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muxim shartidir, (milliy istiqlol g'oyasi; asosiy tushuncha va tamoillar).

Iqtisodiy asoslari.

Iqtisodiy munosabatlarda jismoniy tarbiya tizimi rivojlangan soxa xisoblanadi. Uzining tashkiliy tuzilishiga ko'ra moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti turli xil manbalardan kelib chiqadi. Davlat byudjeti jamoatchilik fondi, korxonalar mablag'i, kasaba uyushma shirkat xo'jaliklar va xomiy tashkilotlar yordamida mablag' bilan qoplanadi. Iqtisodiy reja xalq xo'jaligining bir tarmog'i bo'lib xisoblanadi. Ishlab chiqarishda moddiy va nomoddiy rivojlangan tarmoq bo'lib xisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish tarmog'ida xodimlar mehnati, moddiy-mulk shaklida sport inshootlari, asbob anjomlar, kiyim kechaklarga ega. Xuquqiy asoslari Jismoniy tarbiya tizimini boshqarish bir qancha me'yoriy xujjatlarga tayanadi. Bu me'yoriy xujjatlar turli xil yuridik kuchga ega.

Uslubiy asoslar

Uslubiy asoslari jismoniy tarbiya qonuniyatlarini o'rgatish va tarbiyalashni amalga oshirish unga mos tavsiyalarda ochib beriladi, axolini turli ijtimoiy guruxlari bilan mashg'ulotlar tashkil etishda vosita va uslublardan foydalaniladi.

Uslubiy asoslari dastlabki nazariy xolatlar va uni amalga joriy qilish usullari va tavsiyalar fundamental fanlarga filologiya, sotsiologiya, pedagogika psixologiya, biologiya kompleks ixtisoslashgan nazariy va sport-pedagogik fanlarga tayanib ishlab chiqiladi.

Dasturiy-me'yoriy asoslari.

Dasturiy me'yoriy asoslari uch bosqichli tizimda o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy talablarda axolining jismoniy rivojlanishi va jismoniy ta'lim darajasi ifodalanadi: - Jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturi- Jismoniy tarbiyaning majburiy 111 minumumi. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta kasb xunar ta'limi, oliy o'quv yurtlarda, xarbki va ichkm xizmatda amalga oshiriladigan davlat xujjati dasturii- me'yoriy asos xisoblanadi. Bu dastur o'quv yurti tipiga, kishilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy ma'lumotm, yoshi, jinsini xisobga olgan holda jismoniy tarbiyappng asosiy vositalari, me'yoriy talablar ishlab chiqilgan.

Demak mamlakatimizning jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik tizimlari o'zining azaliy tarixiga ega. Mualliflarning ta'kidlashicha, qayd qilingan usulni egallagan askarning yuz nafari dushmanning o'n ming askariga bas kelgan. Bunday jang qilish tizimini egallagan, doimiy maosh olib ishlaydigan, horijdan taklif qilingan malakali 67 mutaxassislar jangchilarga harbiy tayyorgarlik davrida, urushdan bo'sh paytlarida muntazam mashg'ulotlar o'tkazganlar. Bunday mashq ko'rgan soxibqironning yengilmas sara askarlari g'animlariga doimo daxshat solgan.

Mamlakatimiz jismoniy madaniyat tizimlari mashxur sarkardalar, shoxu sultonlar tojini kiygan ajdodlarimiz merosi sifatida saqlanganligi, ularning ilmiy jihatdan o'rganilishi, tadqiqotlar o'z navbatini kutayotganligiga aminmiz. Hozirgi kunga kelib, amalda foydalanilayotgan mamlakatimiz va rivojlangan mamlakatlarning jismoniy madaniyat tizimlari o'zining rivojlanish tarixi, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va hal qiladigan vazifalari bilan farqlanishini e'tirof etib, xorijiy mamlakatlarning nisbatan progressiv xisoblangan jismoniy tarbiya tazimlarining ayrimlarini soha mutaxassislarining e'tiboriga havola qildik. P.F.Lesgaft (1837-1909) biolog, anatom, pedagog va katta jamoatchi sifatida inson shaxsining intellektual rivojlanishi uchun, uning yashagan ijtimoiy muxiti va tarbiyasi muhim rol o'ynashini ilmiy asoslagan ulug' rus olimi. Sobiq ittifoq davrida uning chor rusiyasi davridagi ilmiy tadqiqotlari natijasiga ko'ra jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining "otasi" deb e'lon qilingan. P.F.Lesgaft tomonidan ishlangan "Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy bilimlari" haqidagi nazariy fikrlari o'z ahamiyatini hozirgi kungacha ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmaganligi xisobga olinib, mamlakatimiz jismoniy tarbiya tizimida foydalanilmoqda.

JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Mamurov Asadbek Elyorjon o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi ham muayyan tushunarli apparatdan foydalanadi, uni tushunish va o'zlashtirish shu soha mutaxassislarining barchasi uchun majburiydir. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasida atama va tushunchalardan keng ravishda foydalaniladi. Biz faqat eng muhim atamalarni ko'rib chiqamiz, ularni tushunmasdan turib jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanini o'rganish mumkinligi haqida tushunchalarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy, madaniyat, nazariya, metodika, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanganlik, jismoniy yetuklik, jismoniy kamolot, jismoniy sifatlar, jismoniy harakat, jismoniy mashq, jismoniy tiklanish (rekreatsiya), jismoniy rehabilitatsiya.*

U yoki bu sohada ishlovchi odamlar o'rtasida bir-birini tushunish va aloqa qilish uchun muvofiq tushunarli apparat zarur. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi ham muayyan tushunarli apparatdan foydalanadi, uni tushunish va o'zlashtirish shu soha mutaxassislarining barchasi uchun majburiydir.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasida atama va tushunchalardan keng ravishda foydalaniladi. Biz faqat eng muhim atamalarni ko'rib chiqamiz, ularni tushunmasdan turib jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanini o'rganish mumkin emas. Jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya tamoyillari to'g'risidagi tushunchalar muvofiq boblarda ko'rib chiqiladi.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining tushunchalarini ko'pchiligi "Jismoniy" so'zi bilan boshlanadi. Odatda amalga oshiriladigan har qanday harakat faoliyati, bajariladigan ish, jismimiz, vujudimizning ma'lum a'zolari, tanimiz bo'laklarining makon (fazo)dagi joyi, o'rnini almashinuvi orqali sodir bo'ladi va bu "jismoniy" so'zi bilan ifodalanadi.

Jismoniy so'zi asosan tana skeleta mushaklari, bo'g'inlarning bog'lovchilarining ishtirokida bajariladigan faoliyatlar - barcha mushaklarning, ularning faqat ayrimlarini yoki bir bo'lagini, birnecha qismlarini birgalashib namayon qiladigan faoliyatlari namayon bo'ladi. Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanganlik, jismoniy yetuklik, jismoniy kamolot, jismoniy sifatlar, jismoniy tayyorlanganlik, jismoniy harakat, jismoniy mashq, jismoniy tiklanish (rekreatsiya), jismoniy rehabilitatsiya va boshqa shunga o'xshash qator tushunchalardagi "jismoniy" so'zi jismimiz, vujudimizning a'zolarini bajargan, namoyon qilayotgan jismoniy faoliyatini ifodalaydi.

Qator adabiyotlarda jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport tushunchalarini "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" hamda "Jismoniy tarbiya nazariyasi va

metodikasi” fanining yetakchi tushunchalari deb xisoblaydilar (A.D.Novikov, L.P.Matveev, B.A.Ashmarin va boshqalar). Qayd qilingan asosiy tushunchalar tarkibidagi “umumiy jismoniy 41 tayyorgarlik”, “kasbiy-jismoniy tayyorgarlik”, “sport tayyorgarligi”, “sport trenirovkasi” va boshqa qator tushunchalar ham jismoniy madaniyat hamda jismoniy tarbiya nazariyasi fanlarining yetakchi tushunchalari tarzida qabul qilingan, qolaversa, ularning tarkibida “umumiy jismoniy rivojlanganlik” va “jismoniy tayyorgarlik”, “maxsus jismoniy rivojlanganlik” va “maxsus jismoniy tayyorgarlik”, “shug’ullanganlik”, “jismoniy kamolot”, “jismoniy yetuklik”dek boshqa qator tushunchalar mavjud bo’lib ular o’zlarining ilmiy, nazariy asoslariga ega. Nima uchun yuqorida sanab o’tilgan tushunchalar asosiy tushunchalar deyiladi-yu, boshqalari, masalan, jismoniy mashq, jismoniy sifatlar, jismoniy bilimlar, jismoniy tarbiya vositalari, jismoniy tarbiya tizimi va yana boshqa tushunchalar asosiy tushuncha deb xisoblanmaydi? Tegishli faoliyatni to’g’ri aks ettiradigan barcha tushunchalar o’z ahamiyati jihatidan birdek muhim.

Jismoniy rivojlanish – bu sog’lomlashtiruvchi jarayon bo’lib, inson organizmining vazifalari va shakllari o’zgarishining asta-sekin qaror topishidir. Rivojlanishning o’sib borishida uchta fazani ajratish mumkin: - rivojlanish darajasining ko’tarilishi, - nisbatan barqarorligi va - inson jismoniy imkoniyatlarining asta-sekin pasayishi. Eng jo’shqin rivojlanish maktabgacha va kichik maktab yoshiga to’g’ri keladi hamda maktabda ta’lim olishning barcha davrlari mobaynida davom etadi. Jismoniy rivojlanish ob’ektiv biologik qonunlarga bo’ysunadi. Bu qonunlardan eng muhimi muhit va organizm rivojlanishining birligi qonunidir.

O’quvchi bolalarning dam olishini tashkillashtirishi, mustaqil ishlar va mehnatni, o’qish sharoitini hisobga olishi kerak. Bularning hammasi bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadigan omillardir. Jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish iste’dodli bolalarni tanlab olishga imkoniyat yaratadi. Chunki iste’dod nasldan-naslga o’tadi. Shuning uchun yuqori sport natijalariga har qanday o’quvchi ham erisha olmaydi. Biroq har bir shug’ullanuvchi maqsadga yo’naltirilgan mashg’ulotlarga muntazam, vijdonan ishtirok etish sharoitida o’zining jismonan yaxshi rivojlanishini ta’minlashi mumkin, biroq organizm himoyasi va mehnatda munosib muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratish zarur. Bunday rivojlanishga erishish uchun “Jismoniy tarbiya” nomini olgan maxsus yo’naltirilgan va tashkillashtirilgan faoliyatdan foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya - bu insonni irodaviy, ahloqiy, funksional, morfologik takomillashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon bo’lib, uning maqsadi 42 o’quvchilarni mehnatda va Vatan himoyasida eng yaxshi natijalarga erishishi uchun ko’nikma, malaka va maxsus bilimlar bilan qurollantirishdir. Jismoniy tarbiyaga tegishli o’ziga xos vazifalardan kelib chiqib, uning jismoniy ta’lim berish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash kabi ikki tomonini qarab chiqish mumkin. Jismoniy tarbiya - mazmuniga kura keng ma’nodagi “tarbiya” deb nomlanadigan umumiy pedagogik tushuncha tarkibiga kiradi va tarbiya jarayonidagi tarbiyaviy, bilim (ta’lim) berish, vazifalarini mutaxassis pedagogning yo’naltiruvchi xizmati asosida ta’lim taomillariga muvofiq yoki o’zini-o’zi tarbiyalash tartibida amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya - inson organizmini morfologiyasi va xizmati jihatidan takomillashtirish, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy hayotiy - zaruriy harakat malakalari, ko'nikmalari, ular bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilim va amaliy malakalarni shakllantirish hamda harakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'p yillik pedagogik jarayondir. Bu ta'rifda jismoniy tarbiyani inson tarbiyasining mustaqil turi sifatidagi o'ziga xosligi ta'kidlangan. Jismoniy tarbiyaga oid bunday o'ziga xoslikning tarkibida ikki ma'nodagi «jismoniy bilim» berish va «jismoniy sifatlarni rivojlantirish» tushunchalari yotadi.

Tarbiyaning boshqa hillaridan farqli xususiyati shundaki jismoniy tarbiya jarayonida harakat malakalari yoki ko'nikmalari shakllantiriladi va ular orqali inson jismining harakat sifatlari tarbiyalanadi. Jismoniy tarbiyaning ikki xususiy tomoni yoki qismi mavjud bo'lib ular - harakat (harakat faoliyati)ga o'rgatish va jismoniy (harakat) sifatlarni tarbiyalash deb farqlanadi.

Harakatga o'rgatish (o'qitish) - o'zining asosiy mazmuniga ko'ra jismoniy bilim (ta'lim) berishni, ya'ni insonni o'z harakatlarini ratsional boshqarishni bilishini, tahlil qilishiga oid nazariy bilimlarga ega qilishni va shu yo'l bilan egallangan bilimlariga asoslanib, hayotiy-zaruriy harakat malakalari va ko'nikmalari zahirasi boyitishni hamda ularga oid nazariy bilimlarga ega qilishni nazarda tutadi (P.F.Lesgaft). O'z jismi tarbiyasiga oid bilimlarga ega bo'lish inson uchun o'zining hayoti davomida egallagan, to'plagan harakat zahirasi va imkoniyatlaridan ratsional foydalana olishi uchun kerak bo'ladi. Jismoniy tarbiyaning mohiyatiga ko'ra yana boshqa ahamiyatli tomoni organizmning jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirishga yo'naltirilib, uning tabiiy xususiyatlariga kompleksli ta'sir o'tkazish, me'yoriy jismoniy funksional yuklamalar bilan jismoniy mashqlar harakat faoliyatlarini bajaritirish, shuningdek, individ hayotiy rejimi (turmush tartibi)ni optimallashtirish yo'li bilan va tabiatning 43 tashqi muhit sharoitidan ratsional foydalanishni stimullash va boshqarish uchun zarurligidir. Jismoniy tarbiyaning yuqorida qayd qilingan jihatlarini jismoniy sifatlarni rivojlantirish yoki tarbiyalash boshqachasiga qisqa ma'nodagi jismoniy tarbiya deb ham qaraladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy harakatlar (mashqlar)ni tizimli bajarish, shug'ullanish orqali organizmni tashqi ko'rinishi shakli o'zgaradi. Bunday o'zgarishlar organlar faoliyati va xizmatida ham sodir bo'ladi. Hozirgi kunga kelib insonning mehnat faoliyati yoki ongli ravishda o'zi ixtiyoriy ravishda bajaradigan harakatlari (mushaklari faoliyati)dan biologik "quvvat" yuzaga kelishi va bu quvvat faqat mushaklar ishi, faoliyati uchungina sarflanmay (oldin faqat mushaklar faoliyati uchun ishlatiladi degan nazariya mavjud bo'lgan), ichki a'zolarimizning faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi M.R.Magendovichning "motor vistserial reflekslari" nazariyasi orqali isbotlandi.

Harakatlanish, jismoniy mashqlar bajarish orqali xosil bo'lgan energiya mushaklardagi, bo'g'imlar va paylardagi mikroskopik nerv tolalari orqali markaziy asab tizimi (MAT) tomonidan boshqarilib ichki organlarimiz - ichki a'zolarimizni faoliyatini yaxshilash, quvvatlash uchun uzatilishi isbotlandi. Yaxshi rivojlangan mushaklar faoliyatidan yuqori

chastotadagi impulslar, zaif rivojlangan mushaklardan esa chastotasi pas energiya yuzaga kelishi, ularning ayrimlaridan esa umuman “quvvat” ajralmasligi tadqiqotlar orqali aniqlandi. Bu bilan jismoniy tayyorgarligi past, mushaklari me’yorida rivojlanmaganlarning ko’pchiligini turli xil kasalliklarga tez berilishi, hayotdan nohib, tushkunlik ruhiyat bilan hayot kechirishlarining sababi ham shunda.

Jamiyatda jismoniy tarbiyaning rivojlanish darajasi quyidagi ko’rsatkichlar bilan baholanadi:

- jamiyat a'zolari turmushiga jismoniy tarbiyaning tatbiq etilishi;
- jamiyat a'zolarining jismoniy tayyorlik va sog'liq darajasi;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining moddiy-texnika ta'minoti sifati va borligi;
- jismoniy tarbiya harakatiga rahbarlikni amalga oshiruvchilar, jamoa faollari va shtatdagi xodimlar malakasi;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga ilmiy-texnika taraqqiyoti so'nggi yutuqlarining tatbiq etilishi darajasi;
- jamiyat a'zolarining sportda erishgan yutuqlari.

«Jismoniy bilim»lar tushunchasi dastlab yuzaga kelgan “tarixiy tizimlar”deb nomlanadigan jismoniy tarbiya tizimlarida uchraydi, masalan, Fit «o’z vujudini tarbiya» qilish maqsadida jismoniy mashqlar zarurligi haqida gapirib, undan qanday foydalanish haqidagi nazariy bilimlar zarurligini e’tirof etib, inson jismi 44 tarbiyasi jarayonining nazariyasini yaratish lozimligini ta’kidlagan. Jismoniy bilim - jismoniy mashqlarni, mexnat harakatlarini bajarish, undan foydalanish, lozim bo’lganda hayotiy sharoitda qo’llash mahorati va ko’nikmalariga oid nazariy tushunchalarni o’z ichiga oladi. Pestalotsiy bolalarning “vujudini tarbiyalash”dagi nazariy bilimlarini ishlashni astoydil yoqlab chiqqan. P.F.Lesgaft jismoniy bilimlar nazaryasining asoschisi. Uning jismoniy harakatlarga oid nazariy bilim berish, jismoniy tarbiya ta’limi bilimlar haqidagi ta’limotining asosiy g’oyasi tom ma’nodagi jismoniy ta’lim bo’lib, u har bir bola o’zining harakatlarini tahlil qilishni, ularning o’z harakatlarini biridan birini farqlashga o’rganishi lozimligini yoqlab chiqqan.

JISMONIY TARBIYADAGI YO'NALISHLAR: SPORT MASHG'ULOTLARI VA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNING YETAKCHI VAZIFALARI

Mamurov Asadbek Elyorjon o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mamlakatda aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishning asosiy maqsadi insonlarning doimo sog'lom bo'lishi, bolalikdan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga odatlantirish, yoshlarni sportga safarbar etish, sportchilarning jahon sport maydonlarida ishtirok etishi hamda yutuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston shuhratini jahonda yoyishiga qaratilganligi hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Umumiylik, jismoniy, tayyorgarlik, shug'ullanish jismonan barkamollik, tez harakat qilish, turli xil mehnatlarni yengil bajara olish, yengil, chaqqon, kuchli.*

Umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi ijtimoiy mehnat va sog'liqni saqlash tizimidagi barcha tadbirlar aholining sog'lom turmush tarzini yaratish, ularning mehnat qobiliyatini oshirish hamda sog'lom yashashga qaratilgan. Inson salomatligi tufayli uzoq yillar sog'lom bo'lib, ish faoliyatini saqlab qola bilishi muhim. Shu sababdan, kishilarning sog'lig'ini mustahkamlash, mehnat qobiliyatlarini takomillashtirish va mehnat samaradorligini oshirish yo'lida jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor berilmoqda.

Aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini ta'minlash, mehnatkash ishchi-xizmatchi va ziyolilarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish ham muhimdir.

Mamlakatda aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishning asosiy maqsadi insonlarning doimo sog'lom bo'lishi, bolalikdan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga odatlantirish, yoshlarni sportga safar-bar etish, sportchilarning jahon sport maydonlarida ishtirok etishi hamda yu-tuqlarni qo'lga kiritib, O'zbekiston shuhratini jahonda yoyishiga qaratilgan.

Ikkinchi tomondan esa, hozirgi davr texnika taraqqiyoti natijasida ko'pchilikning o'tirib ishlashi, ijod qilishi kam harakat qilishiga olib kel-moqda. Bu, o'z navbatida, qon aylanish tizimining o'ta susayishi, ya'ni podinamiya kasalligiga chalinishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan esa, tamaki chekish, turli giyohlar va spirtli ichimliklarni "totib ko'rish", turli xil yuqumli kasalliklar (gripp turlari) hamda shunga o'xshash turli salbiy holat orqali kasalga chalinish ko'paymoqda.

To'rtinchidan, maktabgacha tarbiya muassasalari, barcha turdagi o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslarining saviyasi pastligi, ommaviy sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya – sport tadbirlariga yoshlarni ommaviy ravishda jalb etishining qoniqarsizligi, 60-70 foiz o'quvchi - yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya dasturi talablari hamda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari normativlarini o'z vaqtida bajara olmasligi ma'lum bo'lmoqda.

Yuqorida ta’kidlangan eng muhim muammolar negiziga jismoniy tarbiya, 112 jismoniy rivojlanish hamda jismoniy tayyorgarlik kabi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlarning chuqur singib ketmaganligi namoyon bo’lmoqda. Jismoniy tayyorgarlik tushunchasi shundan iboratki, bu har bir inson, ayniqsa aqliy va jismoniy soha ishchi - xizmatchilari va o’quvchi - yoshlarning har qanday mehnatga yaroqliligi (qobiliyati), jismonan baquvvat, chiniqqan, bo’lishidagi faol harakatlardir.

Bunda jismoniy tayyorgarlik eng ustuvor tadbir bo’lmog’i zarur. Jismoniy tayyorgarlikda shug’ullanuvchilarning (tarbiyalanuvchilar) eng avvalo yoshi, jinsi va jismoniy holati (kasal yoki sog’) e’tiborga olinadi. Shu asosda beriladigan (bajariladigan) mashqlarning turkumi, miqdori va bajarish usullari belgilanadi. Ta’kidlanganidek, shug’ullanuvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy holatlariga qarab o’tkaziladigan mashg’ulotlarning ko’lami g’oyat keng. Ularning har biri alohida mavzudir. Shu sababdan jismoniy tayyorgarlikning umumiy xususiyatlarigagina to’xtalamiz.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik deganda, har bir shug’ullanuvchining jismonan barkamolligi tushuniladi, ya’ni tez harakat qilish, turli xil mehnatlarni yengil bajara olish, yengil, chaqqon, kuchli va boshqa jismoniy sifatlarga ega bo’lishlik. Bunday fazilatlar va jismoniy sifatlarga ega bo’lish uchun esa har doim jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish lozim bo’ladi. Bunda kundalik rejimga (ertalab, kechki bo’sh payt, dam olish kuni va h.k.) jismoniy tarbiya mashg’ulotlarini kiritish shart. Umumta’lim o’rta maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o’quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya darslari umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini to’la bera olmaydi. Chunki haftada 1-2 soatlik darslar mushak va bo’g’inlarga to’la kuch berib, ularning hara-katchanligini butun hafta davomida saqlashini ta’minlay olmaydi.

Jismoniy tayyorgarlikka ega bo’lish uchun esa har kuni ertalab va kechki payt-da jismoniy tarbiya va sportning u yoki bu turi bilan astoydil shug’ullanish zarur. Buning o’rnini sport to’garaklari va sport musobaqalarigina bosishi mumkin. Ya’ni jismoniy tayyorgarlikning asosiy yo’li har kungi jismoniy tarbiya yoki sport to’garaklari mashg’ulotlari (haftada 2-3 marta) hisoblanadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida umumiy jismoniy tayyorgarlikning asosiy manbalari sifatida gimnastika, yengil atletika, suvda suzish, futbol, sport o’yinlari, xalq milliy harakatli o’yinlari, sayohatlar (turizm) va boshqa vositalarni tan olinadi.

O’quvchi-yoshlar va talabalar yuqorida bayon etilgan jismoniy tarbiya vositalarini (sport turlari) darslar, mashg’ulotlar va musobaqalar orqali yaxshi 113 tasavvur etishadi. Qolaversa, sport turlari bo’yicha davlat tilida nashr etilayotgan o’quv-uslubiy qo’llanmalar ko’paymoqda. Shu sababdan, ularning umumiy jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalashdagi mohiyatlari haqida batafsil to’xtalishga hojat yo’q.

Xulosa qilib aytganda, umumiy jismoniy tayyorgarlikning belgisi va natijalari quyidagi yo’nalishlarda ma’lum bo’ladi, ya’ni:

1. Jismoniy mehnat qilishda tezda toliqmaslik, charchamaslik.
2. Ob-havoning issiq-sovug’iga chiday olish.

3. Turli xil kasalliklarga chalinmaslik.
4. Jismoniy mashqlarni (qo'lda tortilish, tirsaklarni yotgan holda bukibyoziq, tosh ko'tarish, tez yugurish) erkin bajara olish.
5. Futbol, basketbol, voleybol, tennis kabi sport o'yinlarida ishtirok etish.
6. O'zi sevgan sport turi bilan doimiy shug'ullanish.
7. O'rta va uzoq masofalarga yugurishda charchamaslik, chidash, suvda ko'p suzish va h.k.

JISMONIY MADANIYATNING MAXSUS VOSITALARI VA METODLARI

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annatsiya: *Ushbu maqolamda jismoniy madaniyat - jamiyat a'zolarining jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, metodlar va jismoniy tarbiya bu insonni irodaviy, ahloqiy, funksional, morfologik takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, xizmat qilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy madaniyat, jamiyat, jismoniy kamolot, maqsadgaerishish, muvofiqlik, maxsus, vositalar, metodlar, jismoniy tarbiya, ahloqiy, funksional, morfologik, takomillashtirish, pedagogik jarayon.*

Xar bir ijtimoiy, iqtisodiy tuzimida jamiyat a'zolari jismining madaniyati o'z davri uchun xarakterli bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muayyan davridagi butun bir xalq boyligi, mulki tarzida shaxsning xar taraflama barkamolligini ta'minlovchi vosita yoki uning majburiy sharti bo'lib qolaveradi.

Jismoniy madaniyat - jamiyat a'zolarining jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, metodlar va Jismoniy tarbiya bu insonni irodaviy, ahloqiy, funksional, morfologik takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni mehnatda va Vatan himoyasida eng yaxshi natijalarga erishishi uchun ko'nikma, malaka va maxsus bilimlar bilan qurollantirishdir 46 sharoitlarni yaratish va ulardan ratsional foydalanish bo'yicha erishilgan yutuqlarning majmuidir.

Jismoniy madaniyat nazariyasining asosiy tushunchalari ichida jismoniy madaniyat keng, jamlovchi tushuncha. Jismoniy tarbiya, sport tushunchalari esa jismoniy madaniyat tushunchasining tarkibiy qismi sifatida o'zining yo'nalishlariga ega bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'z ichiga mujassamlashtiradi. Ularning jismoniy madaniyat va pedagogika institutlarining jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun yozilgan darsliklarida bu tushunchaning ta'rifini quyidagicha ifodalaydi: "Jismoniy madaniyat - jamiyat a'zolarini jismonan tayyorlash uchun kishilik jamiyati yaratgan va foydalanayotgan moddiy, ma'naviy boyliklar majmuidir".

Moddiy boyliklar - mavjud jamiyatning xilma-xil sport inshootlari, maxsus anjomlar, uskunalar, mablag'lar, jamiyat a'zolarining jismoniy kamoloti darajasn (sport yutuqlari) demakdir.

Ma'naviy boyliklar - tarbiya tizimi yaratgan, shakllantirgan, g'oyaviy, ilmiynazariy, uslubiy, tashkiliy, amaliy sohada erishilgan maxsus ilmiy yutuqlar majmui bo'lib, u doimiy ravishda boyib, o'zgarib turadi.

Jismoniy tarbiya orqali har qanday inson o'ziga munosib jismoniy madaniyat mazmunini o'zlashtiradi, shu soha yutug'i uning shaxsiy mulkiga (boyligiga) aylanadi. Maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyati ta'rifi jamiyat jismoniy madaniyati ta'rifidan kelib chiqadi. Tadbqiqiy (amaldagi) jismoniy madaniyat – kasbiy tadbqiqiy va yutuq-tadbqiqiy jismoniy madaniyatlarga bo'linadi.

Ular bevosita kasb-hunar faoliyati sohasi soxibining hamda ma'lum kasbiy tayyorgarlik talablaridan kelib chiqadigan va mehnat sharoitiga bog'liq maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonidagi jismoniy madaniyat bilimlaridir.

Jismoniy madaniyatining tadbqiqiy turlarini organik bog'liqligi, kasbga oid amaliy tayyorgarlik va harbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik umumiy jismoniy tayyorgarlikning bazasida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, jismoniy madaniyatning amaliy turlari mazmuniga jismoniy tarbiya va sport zaminida kuch sinashuv, musobaqalashuv va boshqa turli xildagi jismoniy mashqlar ham kiritilgan.

Jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan jismoniy tarbiya ko'pchilik aloqalarning boshqa qismlari bilan birlashgan, chunonchi jismoniy tarbiya va ommaviy tayyorlangan tomosha tutashgan joyda jismoniy tarbiya paradlari va namunali chiqishlar vujudga keldi. Jismoniy tarbiya turlarining tasnifi katta amaliy ahamiyatga ega, u jamiyatda jismoniy tarbiyadan maqsadga muvofiq foydalanish yo'nalishini ko'rsatadi.

Chunonchi, agar maktabda bazali jismoniy tarbiya vazifalari yechilayotgan bo'lsa, 47 u holda jismoniy ma'lumot va umumiy jismoniy tayyorgarlik amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning barcha boshqa turlari bu vazifalarni yechishga ko'maklashishi mumkin, ammo bazali jismoniy tarbiya o'rnini bosishga qodir emas. Jismoniy madaniyat mavjud jamiyatning rivojlanishida ma'lum xizmatlarni bajaradi: - inson harakat faoliyatining muvofiq me'yoriy normalarini belgilab beradi ("Alpomish" va "Barchinoy" salomatlik testi normalari); - jismoniy madaniyatga oid ma'lumotlar va axborotlarni tuplash (axboriylik) xizmati va uni avloddan avlodga uzatish va tarkatishga vositachilik kiladi; -shaxslararo mulokot, uzaro aloka (kommunikativlik) munosabatlarini shakllantiradi; -shaxsning harakat estetikasi talabini kondirish bilan bog'liq estetik didni tarbiyalash xizmati; - insonning doimiy harakat kilishga bo'lgan tabiiy extiyojini kondirish bilan bog'liq bo'lgan va uning kundalik turmushi uchun lozim darajadagi jisman yarokdilik xolatini ta'minlashdek (biologik) xizmati; - jismoniy madaniyatni baza sifatidagi xizmati - sport, jismoniy madaniyati deb atalmish madaniyat tasnifining asosida yotadi.

Jamiyat a'zosining jismoniy bilimi, jisman rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligi evaziga aktiv hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy kamolotga erishishga zamin yoki jismoniy madaniyatning poydevori yaratiladi. Shug'ullanuvchilarning yoshiga qarab jisman rivojlanganlik, tayyorgarlikning o'zgaruvchanligi va o'ziga xoslik xususiyatlari orqali jismoniy madaniyatga egalik, jismoniy madaniyat soxibiligidek jihati yuzaga keladi. Bunda turli xildagi jismoniy-madaniy, ma'naviy va ommaviy-teatrlashtirilgan tomoshalarning, ochiq havoga-tabiat qo'yniga ommaviy chiqishlar, sayohatlarning o'rne beqiyos. Ularni bir-biri bilan muvofiqlashtirish orqali ko'rgazmali, tashviqot tarzidagi namoyish etib chiqishlar bilan -

ommaviy krosslar, yugurishlar, velosipedda sayohatlar, ochiq havoga ommaviy va oila a'zolari bilan chiqishlarning yo'lga qo'yilishi xalq millatning jismoniy madaniyatidan dalolatdir. Bashariyat madaniyatning boshqa barcha turlari orqali qayd qilingan vazifalarni xal qilishning imkoni bo'lsada, ular inson jismi madaniyatining o'rnini bosa olmaydi.

Jismoniy madaniyat bazasi maxsus ma'lumot va jismoniy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Jismoniy madaniyatning boshlang'ich tagzamani shartli ravishda «maktabgacha va maktab jismoniy madaniyati» orqali yaratiladi. Bu bilan maktabgacha yoshdagi bolalar, umumiy ta'lim maktablari va boshqa o'quv tarbiya 48 muassasalarida jismoniy madaniyat o'quv predmeti sifatida majburiy mashg'ulotlar tarzida tashkillanadi. O'z navbatida bu mashg'ulotlar umumiy jismoniy ma'lumotga ega bo'lishi uchun asos yaratadi. Jismoniy qobiliyatlarining har tomonlama rivojlanishi, mustaxkam sog'liq bazasining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Bu bilan xar tomonlama jismoniy rivojlangan shaxs uchun zarur bo'lgan jismoniy salohiyat darajasining asosini yaratishga kafolat vujudga keladi.

Maktab jismoniy madaniyati esa o'quvchi jismining tarbiyasi uchun zaminni shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi jismoniy tarbiya shu jihatdan qaraganda bazali jismoniy tarbiyaning fundamental qismidir. Bazali jismoniy tarbiya maktabgacha va maktabdagi jismoniy tarbiya shakllari bilan chegaralanmaydi. U jismoniy tayyorgarlik darajasini maktabdan ko'ra yuqori ta'minlaydi, shuningdek, kelajakdagi jismoniy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Madaniyat tushunchasining tarkibiy mazmunini xqilib shuni aytish lozimki, jismoniy madaniyat bashariyat madaniyatining bir qismi bo'lib, kamroviga ko'ra o'zining keng mazmunida fanning yetakchi tushunchalarini, jismoniy madaniyatning turlarini tatbiquy (amalda foydalanilayoggan) ish, sog'lomlashtirish hamda sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatini, uning jamiyat va jamiyat a'zolari uchun xizmatlarini, jamiyat a'zolarining jismoniy madaniyatligi darajasini o'zida mujassamlashtiradi, uning tag zamini esa shartli ravishda «maktabgacha va maktab jismoniy 49 madaniyati» orqali qo'yiladi.

Jismoniy madaniyatning vazifalari quyidagilardir:

- faoliyatni oqilona me'yoriy mustahkamlash;
- madaniy axborotni jamlash, aks ettirish va uni avloddan avlodga yetkazish;
- shaxslararo kommunikativ munosabat o'rnatish, aloqa qilishga ko'maklashish;
- insonning biologik, sog'lomlashtiruvchi ehtiyojini qondirish, uning jismoniy holatini yaxshilash va jamiyat a'zosi sifatida Vatan oldidagi majburiyatini bajarish uchun, kundalik hayot uchun zarur layoqat darajasini ta'minlash;

SPORTCHILARNI MUSOBAQALARGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qo'l jangi bo'yicha sportchilarni musobaqalarga psixologik jihatdan tayyorlashning ijobiy jihatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, qo'l jangi bo'yicha sportchilarda musobaqaga tayyorgarlikning psixologik ahamiyati tajribada isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *Sport, qo'l jangi, psixologiya, ruhiy namuna, tezlik, g'alaba, musobaqa.*

Qo'l jangi yurtimizda rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri bo'lib, jahon yakkakurash sport turlari orasida o'ziga xos nufuzga egadir. Tuman, shaxar, viloyat, mamlakat, Osiyo, jahon birinchiliklari va xalqaro turnirlar miqiyosida qo'l jangi musobaqalarini tashkillashtirib borilish natijasida mamlakatimizning barcha hududlarida bu jang turi keng targ'ib qilindi. Hozirgi paytda qo'l jangi dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida tan olinib, sevimli sport turi sifatida rivojlanib kelayotganligi barcha qo'l jangi ixlosmandlarini quvontiradi.

Qo'l jangi sportchilarini bellashuvlarga tayyorgarlik qilishlari oldindan ishlab chiqilgan turili taktik uslublar jumladan tezlik, chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, g'alabaga bo'lgan iroda, temperament va uyushqoqlik sifatlarini ularning ustozmurabbiylari har tomonlama mukammallik bilan o'rgatib, sportchi-shogirtlarida kuchli ko'nikma hosil qilishlarida, o'zlarida mavjud barcha mahorat sir asrorlarini singdiradilar. Qo'l jangi bo'yicha mavjud mahorat va ko'nikmalarni rivojlantirishga oid uslublar o'ziga xos rang-barangdir.

Ular to'g'risida qanchadan-qancha monografiyalar, nomzodlik dissertasiyada uslubiy qo'llanmalarda yoritilgan. Lekin qo'l jangi sportchilarining g'alabaga bo'lgan irodasini ilxomchisi bo'lmish ruxiy tayyorgarlikni ayrim mutaxasis murabbiylarimiz nazarlariga olmaydilar. Baholanki, ruxiyat murabbiyning pedagogik faoliyatidagi asosiy qismlaridan sanaladi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, Universitet qo'l jangi sportchilar o'rtasida tadqiqot olib borishda ulardagi ruxiy jarayonlarni: sezgi, idrok, diqqatning qo'l jangi turiga xos hususiyatlari, tafakkur, tezlik-reaksiya, harakat xotirasi, xayol, irodaviy jarayonlarga xos bo'lgan xislatlar o'rganiladi. Joriy yilning 2021 yil 19-21 oktyabr kunlari Toshkent shaxar, Yunisobod tumanida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ommaviy-sport va uslubiy tadbirlar kalendar rejasiga asosan "Qo'l jangi" sport turi bo'yicha Milliy gvardiya "Qo'mondoni kubogi" birinchilik musobaqasi bo'lib o'tdi.

Musobaqa oldidan Universitet qo'l jangi terma jamoasi sportchilarini ruxiy tayyorgarliklarini umumiy va 116 xususiy qismlarga ajratgan holda olib bordik. Umumiy ruhiy tayyorgarlik ya'ni bu iroda, o'z-o'zini boshqarish, qat'iyat, sabot, diqqat-etibor, bir maqsadga yo'naltirilgan fazilatlar tarbiyasi xisoblansa, ruhiy tayyorgarlikning xususiy jihati

shundan iboratki, sportchi musobaqaga tayyorlandi. Mahorati, sabr matonati unchalik yuqori bo'lmagan jangchi "Qo'mondoni kubogi" musobaqasida tashvishmand bo'lib qoldi, musobaqa boshlanganda ruhan tushkun holatda bo'ldi, g'alaba qozonishga bo'lgan ishonchini yo'qotdi. Jangchilarga bir xil qolibda yondoshib bo'lmaydi. Bittasini xotijam qilib qo'yish lozim, boshqasini chalg'itish kerak, uchinchisini kuldirish kerak, to'rtinchisini esa jangga umuman aloqasi yoq mavzuga jalb qildik. "Qo'mondoni kubogi" musobaqasi boshlanishidan oldin Elyor Yakubovdan "ruhiy na'muna" olish maqsadida uni savolga tutamiz.

U o'z navbatida bergan savollarimizga tezlik bilan javob berishi lozim edi. Unga bergan savollarimizga tezlik javob ola boshladik.: "Quyosh?"- "Osmon!", "Kayfiyat?"- "A'lo!", "Qo'l jangi mashg'ulotlari?"- "Kombinatsiyalarga boy va tezkor!", "G'alaba?"- "Sof g'alabaga erishish!", "Mag'lubiyat?"- "Faqat g'alaba!", "Musobaqa?"- "Qo'l jangi!". Olingan "ruhiy na'muna" negzida shunga ishonch hosil qildikki Elyor Yakubovda musobaqada g'alaba qozonish uchun uning shashti o'ta baland. 65 kg vaznda turnir oldi tayyorgarlikda o'z navbatini sabrsizlik bilan kutayotgan Niyozqulov Farux ham bergan savollarimizga burro-burro javob berdi. Lekin qo'l jangi gilamiga tushishga tayyorgarlik ko'rayotgan 100 kg vazn toifasida Usmonqulov Xayriddin hamda 55 kg vazn toifasidagi jangchi Nurmonov Sanjarda o'zlarini his hayajonlarini bildirib qo'rganlarini qiyin emas edi. Ulardan ham "ruhiy na'muna" olish maqsadida savollarga tutamiz. O'z navbatida bergan savollarimizga Usmonqulov Xayriddin va Nurmonov Sanjar istar-istamas javob bera boshladilar. Javoblari sust va mayus edi: "Daryo?"- "Loyqa", "Quyosh?"- "Qora bulut", "Kayfiyat?"- "Tushkun", "G'alaba?"- "Mushkul". Bu ikki jangchilarimizga qo'yilgan tashxisdan aniq hulosalari olindi. Elyor Yakubov (80 kg) va Niyozqulov Farux (65 kg)lardan olingan "ruhiy na'munalari" ijobiyliги natijasida "Qo'mondoni kubogi" musobaqasining o'z vaznlari bo'yicha g'oliblari va oltin medallar sohiblari bo'ldilar. Olingan "ruhiy na'munalari" salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan Usmonqulov Xayriddin (100 kg) va Nurmonov Sanjar (55 kg) "Qo'mondoni kubogi" bellashuvining dastlabkilarida mag'lubiyatga uchrashib musobaqani barvaqt tark etishlariga majbur bo'ldilar.

1. Sport murabbiyining o'g'itlari, qo'l jangi sportchilarining shaxsiy mulohazalari uning yoqimsiz hayollaridan o'zini chalg'itishi, diqqat e'tiborining yo'nalishi inobatga olinishi lozim.

2. Murabbiyning ruxlantiruvchi so'zlari qo'l jangi sportchilarining butun organizmiga va markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatish vositalari taklif etilishi: nafas olish mashqlari kishini xotirjam qilishi, ruhan tushgan bo'lsa, tetiklashtirish lozim. Ruxshunosning asosiy vazifasi va barcha qo'l jangi sportchilarda o'zlariga xos ishonch uyg'otishdan iborat. Murabbiylarning eng yaqin ko'makchisi sifatida ruxshunoslarning ro'li beqiyos bo'lishligi katta ahamiyat kasb etishi lozim.

SPORT TURLARINING TURKUMLANISHI

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolamda sport turlari olimpiada dasturiga kiritilgan sport turlari, milliy sport turlari, sharq yakka kurashlari, turizm va ekskursiyalarni tashkillash markaziy kengashi raxbarligida uyushtiriladigan sport turlari, kasaba uyushmalari markaziy kengashi tomonidan tavsiya qilingan sport turlari, harbiy –tadbikiy sport turlari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Olimpiada, dastur, sport turlari, milliy sport turlari, sharq yakka kurashlari, turizm, ekskursiya, tashkillash, markaz, kengash, uyushma turlari, kasaba uyushmalari, harbiy, tadbikiy sport turlari, kamolot, ijtimoiy harakati, musobaqalar,*

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda sport turlari - Olimpiada dasturiga kiritilgan sport turlari, milliy sport turlari, sharq yakka kurashlari, turizm va ekskursiyalarni tashkillash markaziy kengashi raxbarligida uyushtiriladigan sport turlari, kasaba uyushmalari markaziy kengashi tomonidan tavsiya qilingan sport turlari, harbiy -tadbikiy sport turlari, kamolot ijtimoiy harakati musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlari, ichki ishlar, davlat xavfsizligi organlari xodimlari uchun belgilangan sport turlari, mamlakatimizning “Mudofaaga ko'maklashuvchi” Vatanparvar markaziy kengashi tomonidan ommalashtirilayotgan sport turlari tarzida klassifikatsiya qilinadi. Jismonan barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirishda yuqori sport natijalariga erishgan mahoratli sportchilar, ayniqsa o'quvchi talaba - yoshlarga sport turlari bo'yicha sport razryadlari va unvonlar beriladi. Ularning talab normalari “O'zbekiston Respublikasining sport turlari klassifikatsiyasi” deb nomlanadigan nizom asosida yo'lga qo'yiladi va mazmuniga har to'rt yilda o'zgartirishlar kiritilib boriladi.

Nizomni har to'rt yilda o'zgartirib turilishi mamlakat aholisi, o'quvchi talabayoshlarning jismoniy rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligi darajasining ortishi, ijtimoiy sharoitni yaxshilanishidan kelib chiqadigan o'zgarishlar oqibati deb qaraladi. Turmush sharoiti, ovqatlanish, uning sifatini dam olish va boshqa faktorlar jismoniy imkoniyatlarni (rivojlanganlik va tayyorgarlikni) ham yaxshilanishi sport razryadlari, unvonlarni normalarini har to'rt yilda ko'tarishni taqazo etishi ham shunda. Nizomda sportning vazifalari, sport turlari, sport razryadlari va sport unvonlari beriladigan sport turlari, sport razryadi va unvonlarni berishning talab va normalari, sportchilarni tayyorlashni takomillashtirish, razryad nishonlari va sport unvonlarini olish uchun zaruriy xujjatlarni tayyorlash, taqdirlash, razryadli va unvon egalarining xuquqi va majburiyatlari, sportchining sinov daftarlari hamda mamlakatimizda ommaviyligi oshgan sport turlari haqida ma'lumotlar beriladi, lozim bo'lgan o'zgartirishlar qilinadi.

Sport turlarining turkumlanishi (klassifikatsiyasi) nizomi mazmunida O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi raxbarligi hamda shu vazirlikning viloyat

bo'limlari raxbarligida uyushtirilgan, ommaviy tadbirlar, musobaqalarning eng ustivorlariga tasniflar berilgan hamda ulardagi ishtiroki natijalariga ko'ra unvonlar, sport razryadlari, shug'ullanish tavsiya qilingan sport turlari sanab o'tilgan. 57 Mustaqilligimiz sharofati bilan jamiyatimiz a'zolarini sog'lomlashtirish maqsadida tashkillangan davlat va xususiy sport muassasalari va tashkilotlari tomonidan ommaviy sport turlari, yakka kurashlar va boshqa noan'anaviy sport turlarining ayrimlari uchun ham ommaviy razryadlar, unvonlarning talablari va normalari kiritilgan. Sport tayyorgarligi jismoniy tayyorgarlikning maxsus yo'nalish bo'lib, bu jarayonning vazifasi insonni tanlab olingan sport turida yuqori sport natijalarga erishishni ta'minlashdan iboratdir.

Sport tayyorgarligi tushunchasi jismoniy tarbiya jarayonida o'zining mazmuni va mohiyatiga ega bo'lgan, keng ma'noli, vazifasiga ko'ra, insonni tanlab olingan sport turida yuqori natijalarga erishishini ta'minlovchi maxsus yo'nalishdir. Umumiy sport tayyorgarligi va maxsus sport tayyorgarligi, deb alohida mazmundagi ko'p qirrali jarayon tarzida harakat sifatlarining barchasini teng va tanlab olingan sport turi uchun zarurlarini rivojlantirishdek mohiyatiga ko'ra farqlanadigan tayyorgarlik mashg'ulotlari turkumidan iborat (5-6 semestrlarda sport trenirovkasiga batafsil to'xtalamiz). Jismoniy tarbiyada sport tayyorgarligi, organizmning funktsional imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq, yuqori sport natijasi kishilarning jismoniy tayyorgarligini baholash mezoniga aylanadi va jismoniy tarbiyaga mo'ljal sifatida juda keng ko'lamda qo'llaniladi.

Umumiy sport tayyorgarligi va maxsus sport tayyorgarligi harakat sifatlarini barchasini teng, kerak bo'lsa tanlab olingan sport turi uchun zarur harakat sifatini rivojlantirish jarayonidir. Jismoniy tayyorgarlik tarkibida amalga oshiriladigan sport tayyorgarligi, organizmning funktsional imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq. Yuqori sport natijasi kishilarning jismoniy tayyorgarligini baholash mezoniga aylangan va jismoniy tarbiyaning darajasiga mo'ljal sifatida juda keng ko'lamda foydalaniladi. Hozirgi zamon sport o'yinlari bilan shug'ullanadigan sportchilar yuqori darajadagi funktsional tayyorgarlikka, har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun ularning harakat sifatlarini rivojlantirish (jismoniy tayyorgarligini yo'lga qo'yish)da, oranizmni xizmati faoliyatiga zaruriy zamin yaratish, trenirovka mashg'ulotlari yoki o'quv trenirovka mashg'ulotlarining, akademik darslarning asosiy vazifasiga aylantirilishi lozimligini L.R.Ayrapetyants, F.M.Pavlovlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari orqali isbotlangan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, jismoniy tayyorgarlik jarayonida, jismoniy va funktsional tayyorgarlikning boshqa sohalaridagidek, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat orqali rejalashtirilgan natijaga har doim ham erishib bo'lmaydi. Bu jarayonida erishiladigan natija yosh sportchi yoki jismoniy madaniyat soxibining trenirovkasi jarayoni uchun rejalashtirilgan jismoniy mashqlar va ularni 58 shug'ullanuvchi organizmiga ta'siri natijasi bilan uzviy bog'liqligini ham nazariy ham amaliy bilishning ahamiyati katta.

Qisqa, yo'nalishiga ko'ra tor sport trenirovkalarining natijapari fikrimizning dalilidir. Yuqori natijalarga erishish faqat ma'lum davr ichidagina sodir bo'lishligi faqat mamlakatimizning emas boshqa mamlakatlar jismoniy tarbiya tizimlarining jismoniy

tayyorgarlik mashg'ulotlari orqali ham isbotlangan. Oldingi mashg'ulotlardagi yuklamalar mashq qilinmasa, qaytadan takrorlanmasa, unitilsa, bunday trenirovka mashg'ulotlari keyinchalik o'zining mohiyatini yo'qotib, har tomonlama jismonan garmonik rivojlanishga, tarbiyalanishiga halal beradi, sport yutuqlarini esa kechiktiradi yoki yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun soha mutaxasisi oldindan uzoqni ko'ra biluvchi, bashorat qila oluvchi, vazifani aniq belgilash va hal qilishga oid puxta bilimlarga ega, o'qimishli, o'z ishini biladigan, sevadigan, ta'limning innovatsion texnologiyalaridan xabardor, qadriyatlarimizni shug'ullanuvchi ongiga singdira oladigan bo'lishi va ularni tayyorlash talabi qo'yilmoqda. Albatta, bu soha mutaxassisini tayyorlaydigan takomillashgan jismoniy tarbiya tizimi faoliyatiga bog'liq. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya.

Jismoniy tarbiya tarkibiga davolovchi jismoniy tarbiya ham kiradi. U organizmning vaqtinchalik yo'qotilgan funksional imkoniyatlarini tiklashga ko'maklashadi. Sog'lomlashtirish jismoniy madaniyati davolash maqsadida ham keng ko'lamda foydalaniladi. Shu tur jismoniy madaniyati o'z oldiga organizmning vaqtinchalik yo'qolgan funksional imkoniyatlarini tiklash (reabilitatsiya) maqsadini ham qo'yadi. Jismoniy madaniyat gigienasi ish kuni davomida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatga zamin bo'lib xizmat qiladi.

JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI VA TARBIYASI JARAYONIDA O'YIN VA MUSOBAQA METODLARI

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolam bilan tanishib chiqar ekansiz unda jisminit madaniyat dasrlarida o'yin va musobaqa metodlarning mazmuni va tasnifining boyligiga ko'ra o'yin metodi harakat malakalari va harakat sifatlarini kompleksli rivojlantirish, harakat koordinatsiyasini takomillashtirish uchun, birdaniga, yo'l-yo'lakay paydo bo'lgan vazifalarni yecha olish metodlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy madaniyat, ta'lim, tarbiya, o'yin, musobaqa, metod, o'qitish metodikasi, musobaqa metodikasi, jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar,, pedagogika, klassifikatsiyasi, vosita.*

Mazmuni va tasnifining boyligiga ko'ra o'yin metodi harakat malakalari va harakat sifatlarini kompleksli rivojlantirish, harakat koordinatsiyasini takomillashtirish uchun, birdaniga, yo'l-yo'lakay paydo bo'lgan vazifalarni yecha olish, qisqa fursatda lozim bo'lgan ish sura'tiga moslasha olishdek imkoniyatlarini vujudga keltira olishini ahamiyati katta. Bu uslub orqali ta'limning samaradorligini aniqlash va umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun vosita sifatida foydalanish ham mumkin.

O'yindan foydalanib o'qitish metodikasi O'yindan foydalanib uktstnsh metodikasi jismoniy tarbiya jarayonida foydalaniladigan o'yinlarning ko'pchilik belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Darslikning "Jismoniy mashqlarning pedagogik klassifikatsiyasi" bo'limida o'yin jismoniy mashq xarakteridagi tizim tarzida, ya'ni jismoniy tarbiya vositasi ko'rinishida berilgan. Lekin, jismoniy tarbiya jarayonida o'yinlar ta'lim va tarbiya jarayonining samarali metodlari sifatida amaliyotda keng ko'lamda foydalaniladi. Shu sababli o'yin metodining tabiatini o'yinning mohiyatini ochish orqaligina tushunish mumkin xolos. "O'yinning mohiyatini o'rganishning nisbatan perespektiv yo'nalishi uslublashtirish nazariyasi xisoblanib, insonning oldindan belgilangan xayotiy sharoitda o'zining yurish-turishi, xulqi chegarasida ishlab chiqarilgan o'ziga xos elementlarning modelidir" - deb tavsif beradi Rossiya federatsiyasining professori Yu. I. Yevseev (2008). O'yinda shartli ravishda butun bir hayotiy sharoit o'z ifodasini topishi mumkin (masalan, taqlid qilish, jang qilish, ov qilish sharoiti va boshqalar).

Ya'ni inson harakat faoliyatining ayrimlari - turmush, mehnat, mudofaa faoliyati xarakteridagi harakatlar bo'lib, ularda asosan odamlar orasidagi o'zaro munosabat modelining mavjudligi yotadi. O'yin tarixan vujudga kelgan jamiyat xodisasi bo'lib, odamlarning harbiy va mehnat faoliyati asosida paydo bo'lgan va u inson hayotining moddiy va ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. O'yin xayotiy reallikni aks ettiradi va bir vaqtning o'zida o'zining sof shartli konunlariga bo'ysunadi. U bizni o'rab olgan borliqni

o'zgartirishni nazarda tutmaydi, lekin, insonni ijodiy mehnatga tayyorlovchi shart sifatida inson madaniyatining muhim manbai rolini o'ynaydi. SHunga bog'liq, holda o'yin quyidagi xizmatlarni bajaradi: -insonni jismoniy va ruhiy kuchlarini takomillashtiradi, ijtimoiy faollik va ijodkorlikni tarbiyalaydi, ko'ngil ochish, o'zaro munosabatlarni, shuningdek, ularni o'rab olgan muhit orasidagi munosabatlarni shakllantiradi.

Qayd qilinganlar o'yinlarning yo'nalishi va mazmunini belgilaydi. Jismoniy tarbiya jarayonidagi 191 barcha o'yinlarning asosiy mazmunini insonni jismoniy kamolotga erishtirishga imkoniyat yaratuvchi harakat faoliyatlarini o'z ichiga oladi. O'yinlar hamda gimnastika, sport, turizmdagi farqni ko'p holda shartli, deb tan olishimiz lozim, bu shartlar tarbiya vositalarining turlarini rivojlanishi meъyoriga ko'ra yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

O'yinlarga konkret harakat faoliyatlari tizimi deb qarash zarur. Ular belgilangan qoidalar chegarasida bajariladi va uslubiyot sifatida jismoniy mashq xarakteriga qaramay, turlicha pedagogik vazifalarni hal etishi uchun qo'llaniladi. O'yinlar uslubiyot tarzida faqat umumiy qabul qilinganlaridek amalga oshirilmaydi. O'yin metodining vositalari va ularning shakllari rasmiy o'yinlarga nisbatan ko'lamiga ko'ra keng tushuncha hisoblanadi. Masalan, o'yin metodikasi asosida darsning hamma qismlarini o'yinlarsiz o'tkazish mumkin (toqqa sayohat o'yini).

Muvozanat saqlash mashqini bajarayotib to'siqlardan oshishi yoki chuqurliklar ustidan o'tish tarzidagi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin uslublarining xarakterli belgilari:

1. O'yin holati raqiblik va emotsionallik elementlarini aniq ifodalaydi. O'yin metodi shug'ullanuvchilar orasidagi eng qiyin munosabatlarni yuzaga chiqarishi imkonini beradi. Eng oddiy yugurish musobaqalari sharoitida qatnashuvchilar orasida tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra shunchalar ko'p qirrali holatlar vujudga keladiki, lekin, u ikki o'yinchi o'rtasidagi yuzaga keladigan holatlardan ancha farqlanadi. Qayd kiligan holatlardan kat'iy nazar o'yin metodi shug'ullanuvchilar orasidagi munosabatlarni kat'iyon reglamentlashtirishni talab kiladi.

2. Harakat faoliyatini bajarish davomida sharoitning o'zgaruvchanligi. Paydo bo'ladigan harakat vazifalarni hal qilishda o'yinchilarni turli-tuman imkoniyatlarga ega bo'lishi; shakllangan malakalar esa o'zgaruvchan sharoitda moslanuvchanligi va egiluvchanligi bilan farqlanadilar.

3. Harakat faoliyatidagi ijodiy tashabbuslarga yuqori talablar qo'yish. O'yin holatining o'zgaruvchanligi jismoniy mashqlarning natija beradiganlarini tanlashni va mustaqillikni faolroq namoyon qilish talabini qo'yadi.

4. Harakat faoliyatining chegaralanmaganligi va jismoniy yuklamaning xarakteriga ko'ra qat'iy reglamentlashtirishning yo'qligi. O'quvchilar maxsus yoki shartli (soddalashtirilgan, murakkablashtirilgan) qoidalar chegarasida paydo bo'lgan harakat faoliyati vazifalarini hal qilish uchun samarali xisoblagan harakat faoliyatlaridan o'zlari foydalanishlari mumkin. O'quvchiga tushayotgan jismoniy nagruzka to'laligicha uning o'yinda bajarayotgan funktsiyasi, faoliyat, bajara olish darajasi, o'yinchilar soni, o'yin

mazmuni va oldindan belgilangan sharoiti (o'yindan foydalanish uslubiyoti)ning davomiyligi boshqalar bilan bog'liq. Yangi harakat faoliyatlarini o'rganish uchun o'yin metodidan foydalanilsa, reglamentlashtirishning darajasi oshadi. Masalan, o'yin metodi bilan arqonga uch usul bilan tirmashib chiqishning biror-bir bo'lagi o'rganilayotgan bo'lsa, ya'ni, osilib to'rgan holatda oyoklarni tizzadan bukib oldinga yig'ish orqali arqonga tiranish (ko'tarish)ni o'rgatishni, o'yin tarzida "chuqurlik ustidan osilib turgan 192 kanatda uchib o'tish" o'yinini qo'llashdan foydalanish mumkin.

5. O'yin faoliyati vazifalari bilan muvofiq harakat faoliyatlari va sifatlarining kompleks namoyon qilinishi. Jismoniy tarbiya jarayonida o'yinlar qandaydir maxsus harakatlar yig'indisidan iborat emas. Qoidadagi kabi ularda o'z shaklining tabiiyligi bilan ajralib turadigan harakat faoliyatlari uchraydi (yugurish, sakrash va xk.). Aytarli ko'pchilik o'yinlarda o'yinchilar g'alabaga erishish uchun bir keng kulamli harakat faoliyatlaridan, qolaversa, turlicha aralash shakldagi faoliyatlardan foydalanadilar. Bularing barchasi o'yinchilar organizmiga kompleksli ta'sirni ta'minlaydi.

6. O'yinchilarning o'zaro munosabatlarini biror predmet (masalan, to'p, bayroqlar va boshqalar) orqali amalga oshirish. O'yindan to'g'ri foydalanish asosida kollektivizm ruhi, faollik, tashabbuskorlik, qo'rqmaslik (botirlik), katiyyatlilik va ongli intizomni tarbiyalash puxtalik bilan amalga oshiriladi va uning natijasi ta'lim jarayonida yaqqol namoyon bo'lishi amaliyotda isbotlangan. O'yin metodining salbiy tomoni ham mavjud. Ta'lim jarayonida undan yangi, ayniqca, qiyin harakat texnikasiga ega bo'lgan faoliyat malakasini shakllantirishda foydalanishning samaradorligi aytarli darajada past bo'ladi.

Musobaqa metodi

Musobaqa metodi musobaqalashish, kuch sinashishning xarakterli belgilarini o'zida aks ettirgan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning o'quvchilarga stimuly beruvchi alohida shakllaridan biridir. SHuning uchun xarqanday jismoniy mashqni musobaqa predmeti qilib, mashg'ulotlarda keng foydalanish mumkin. Masalan, jismoniy tarbiya darsini boshlanishidagi o'quvchilarni saflanishdan tortib to o'quvchilarni zaldan chiqib ketgunlaricha, musobaqa metodini qo'llash va undan foydalanish jismoniy tarbiya ta'limi amaliyotida ko'p uchraydi.

Musobaqa metodining xarakterli belgilari:

1. U yoki bu harakat faoliyatida faoliyatni vazifaga bo'ysundirishni oldindan belgilanganligi, o'rnatilgan qoidalar bilan muvofiqligi. Bunday vazifalar o'quvchilar ijodiy aktivligini stimullovchi faktorlardan bo'lib, ularning tayyorgarligini baholash va taqqoslash uchun o'lchov bo'lishi;

2. Yuqori sport natijasi uchun jismoniy va psixologik quvvatni maksimal namoyon qilish. Musobaqalashish metodikasi orqali organizmning funktsional imkoniyatlarini to'la ochish sharoitining yaratilishi.

3. O'quvchilar uchun belgilangan jismoniy yuklamalarni boshqarish imkoniyatlarining chegaralanganligi. Bu uslubiyot o'quvchilardan harakat faoliyatini bajarish davomida vujudga kelgan vazifalarni hal qilishda, o'ziga xos mustaqillikni talab qiladi. Shuningdek,

musobaqa metodi harakat faoliyatini takomillashtirishda nisbatan samaraliroqdir, lekin, ular o'zlashtirishning birlamchi etapida kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, musobaqa metodi harakat sifatlarini eng yuqori darajada rivojlanganligini talab qiladi, ayniqsa, ularni kompleksli namoyon qilishda bu uslubni qo'llashga extiyoj katta. Ayniqsa, pedagogika nuqtai nazaridan bu metodni o'quvchilarda o'zlarining g'alabasi va mag'lubiyatlariga turg'un 193 psixologik tayyorgarlikni tarbiyalashga yo'naltirilishi bilan o'zini oqlaydi, bu bir tomondan, boshqa tomondan esa individni turli sharoitda har tomonlama jismonan tayyorgarligini to'la namoyish qilish imkonini beradi hamda jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining rivojlanganligi darajasini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

SPORT MASHG'ULOTLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda sport mashg'ulotlari, sport turida yuqori sport natijalariga erishishga yo'naltirilgan pedagogik ixtisoslashtirilgan sport takomillashuvi, Mashg'ulot jarayonida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish masalalari haqida ma'lumotlarolingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Sport turi, texnika, taktika, o'zlashtirish, jismoniy qobiliyat, daraja, sportchilar, organism, funktsionallik, imkoniyat, kuch, sog'lik, mashg'ulot, musobaqa, ruhiy, axloqiylik, irodaviy, tarbiya.*

Sport mashg'uloti – bu tanlangan sport turida yuqori sport natijalariga erishishga yo'naltirilgan pedagogik ixtisoslashtirilgan sport takomillashuvi jarayonidir. Sport mashg'ulotlarining maqsadi mazkur sportchi uchun mumkin bo'lgan eng yuqori tayyorgarlik darajasiga erishish hamda musobaqa faoliyatida yuksak natijalarni namoyish etishdan iboratdir.

Mashg'ulot jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:

- 1) tanlangan sport turining texnika va taktikasi chuqur o'z-lashtiriladi;
- 2) jismoniy qobiliyatlar rivojining zarur darajasi tasdaqlanadi;
- 3) sportchilar organizdaqing funktsional imkoniyatlari kuchayadi va sog'ligi mustahkamlanadi;
- 4) mashg'ulot va musobaqalar vaqtida sportchi harakatlarining yuqori darajada jamlanishi va safarbar etilishini ta'daq-lovchi ruhiy, axloqiy - irodaviy sifatlar maqsadli ravishda tarbiyalab boriladi;
- 5) sportchi tayyorgarligining erishilgan darajasini yuzaga chiqarish qobiliyatini majmualii tarzda takomillashtirish va uni musobaqa faoliyatida namoyish etish amalga oshiriladi;
- 6) mashq va musobaqa faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish uchun zarur nazariy bilimlar hamda amaliy tajriba egallanadi.

Mashg'ulotning sanab o'tilgan vazifalari muvoziy (parallel) ravishda bajariladi. Biron mashg'ulotning asosiy vazifalari tayyorgarlikning davr va bosqichlari, sportchilarning mashqlanganlik darajasi, alohida xususiyatlari, mahorati, sport turi xususiyatlari va qator boshqa omillarga qarab batafsil tekshiriladi. Mashg'ulot vazifalarining har biri izchil tarzda, ya'ni sportchilarga qo'yiladigan va tobora ortib boradigan talablar sharoitida hal etiladi.

Mazkur vazifalarni hal etish natijasida sportchi tayyorgarligining muvofiq darajasi ta'daqlanadiki, bu uning yuqori sport natijalariga tayyorligini ko'rsatadi. 114 Sport mashg'ulotlarining ayrim xususiyatlari mavjud:

- ◆ tanlangan sport turi bo'yicha muayyan sportchining eng yuqori natijaga erishishga

yo'naltirilganligi;

◆ mashg'ulotlarning qa'tiy chegaralangan muddati va munta-zamligi;

◆ ma'lum qonuniyatlarga muvofiq ko'p yillik rejalashtirish;

◆ mashg'ulot yuklamalarining izchil ravishda oshirib borilishi;

◆ sportchining yetarlicha mustaqilligi hamda mashg'ulot jara-yoniga ijodiy yondashuvi sharoitida trenerning rahbarlik roli;

◆ sportchining butun hayot yo'lga faol ta'sir ko'rsatish (kun tartibi; shaxsiy hayotga, kasb tanlanishiga ta'sir)

Bolalar sporti ularning yoshi bilan chegaralangan, maxsus tayyorgarlikka kirishishga ruxsat berilgan muddatdan to umumta'lim maktabini bitirgungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Yoshlar sporti. Bu tushunchada aytarli qisqa mazmun ifodalangan. Uning chegarasi yoshga qarab o'smirlar, yoshlar sporti deb chegaralanadi. Yoshlar sporti o'z ichiga asosan katta maktab yoshidagi o'quvchilar, studentlarning birinchi kurslaridagilarni qamrab oladi. Bu ibora shartli xisoblanib, qizlarning ham ishtiroki nazarda tutiladi. Bu yoshdagilar sporti mamlakat katta sportining zaxirasidir. Maktab sporti shug'ullanuvchilarning yoshi va boshqa belgilariga qarab bolalar sportiga o'xshash. Farqi shundaki, bolalar sporti maktablar va maktabdan tashqari muassasalar orqali, maktab sporti esa faqat maktab o'quvchilari bilan maktab sport seksiyalarida yo'lga qo'yiladi. Sport jamiyatimiz jismoniy madaniyati uchun ko'rsatayotgan xizmatidan 56 tashqari jismoniy tarbiyalash xizmatini xam o'zida mujassamlashtirgan. Sportda jismoniy tarbiyaning xususiy tomoni mujassamlashtiriladiki va jismoniy kamolotga erishishning pedagogax tizimi mutaxassislashtiriladi va sportchining tayyorgarligi deb nomlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ushbu mavzuda fanning asosiy (etakchi) tushunchalari, ularning mazmuni, keng qamrovli "jismoniy madaniyat" tushunchasi, "jismoniy tarbiya" jarayonida amalga oshiriladigan, "umumiy jismoniy tayyorgarlik", "kasbiy jismoniy tayyorgarlik", sport, uning klassifikatsiyasi, "shug'ullanganlik", "jismoniy kamolot", "jismoniy barkamollik", "jismoniy (harakat) sifatlari", "jismoniy bilimlar" va yana boshqa qator tushunchalar haqida jismoniy madaniyat bakalavrining maxsus bilimlari berildi. Zamondoshlarimizning jismoniy madaniyati, ularning nazariy bilimlarining talab darajasida emasligi asoslandi. Jismoniy tarbiya jarayonining ijtimoiy mohiyati, jismoniy madaniyat va sportga oid moddiy va ma'naviy boyliklar, sportning ijtimoiy mohiyati, uning 68 turkumlanishi, sharq mutafakirlarining inson jismoniy madaniyatiga oid fikrlari, mamlakat jismoniy madaniyat tizimining shakllanishi, xorijiy mamlakatlar jismoniy madaniyati tizimidan farqiga oid maxsus bilimlarni berdik.

JISMONIY MADANIYAT VA RATSIONAL SPORT TEXNIKASI.

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqlamda jismoniy mashlar jarayonida ratsional harakat texnikasi shug'ullanuvchining jismoniy sifatlaridan to'liq foydalanishga imkon yaratadi. Ratsional deb xisoblangan harakat texnikasi barchaga mos-xos bo'lmasligi jismoniy tarbiya ta'limi amaliyotida isbotlanganligi haqida bilib olasiz.*

Kalit so'zlar: *Mashq, jismoniy madaniyat, sog'lik, faoliyat, nerv, mushak, tizimi, qo'zg'atuvchi, tormozlovchi, ratsion, kuchaytiruvchi, susaytiruvchi, samaradorlik, kuch, harakat, texnika.*

Jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchilar uchun tanlangan ratsional sport texnikasining asosiy qoidasi faoliyatni bajarishda aktiv va passiv harakatlantiruvchi kuchlardan to'laqonli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishga imkon yaratish.

Mashqni, faoliyatni bajarish vaqtidagi nerv - mushak tizimida qo'zg'atuvchi, tormozlovchi, (ijroni kuchaytiruvchi, susaytiruvchi, samaradorlikni pasaytiruvchi, oshiruvchi) kuchlarni kamaytirishdir. Ratsional harakat texnikasi shug'ullanuvchining jismoniy sifatlaridan to'liq foydalanishga imkon yaratadi. Ratsional deb xisoblangan harakat texnikasi barchaga mos-xos bo'lmasligi jismoniy tarbiya ta'limi amaliyotida isbotlangan.

Lekin inson harakatlari haqida gap ketganda jismoniy mashqlarning ratsional texnikasi haqida xulosaga kelish uchun mexanikaning bu qoidalariga tayanib bo'lmaydi. Nimaga? Masalan, fizika qonuniga ko'ra, imkoni boricha balandga sakrash uchun nazariy jixatdan, sakrashni depsinish oyog'iga rossa chuqur o'tirish bilan bajarish lozim. Lekin amaliy tajribalar insonning sakrash imkoniyati chegarasi aytarli yuqoriligini ko'rsatmoqda. Sakrovchi depsinish oyog'iga iloji boricha chuqur o'tirish qilmay 122 ham (depsinish oyog'ining tizza bo'g'inidan aytarli darajadagi qisqa bukish qilish bilan) sakrashda yuqori natijaga erishish mumkinligini isbotlamoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir shug'ullanuvchi harakatning o'zi uchun mos bo'lgan ratsional texnikasini axtarishi, topishi va uni egallashida faqat mexanika qonunlariga tayanish bilan cheklanmay, harakatning materiyaning eng yuqori shakllariga, ulardan biri bo'lmish biologik qonuniyatlarga tayanishiga to'g'ri keladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish davomida harakat koordinatsiyasi (yangi, ilk bor bajariladigan harakatlarga tez moslasha olish qobiliyati, harakatlarini tez moslashtira olish - chaqqonlikka yaqin) degan tushunchaga ham duch kelamiz. Bu jismoniy sifatning shakllanishi, rivojlanishi, ulardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Qo'zg'alish bilan tormozlanishning muvofiqligi, nerv-mushaklar tizimi, yurak-tomir va boshqa tuzilmalarimizning faoliyatidagi moslashuvchanlik harakatlarimiz koordinatsiyalarini darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Harakat sifatlaridan birining shakllanishi yoki

rivojlanishning me'yorini buzilishi harakat koordinatsiyasiga albatta salbiy ta'sir etishi isbotlangan.

Sportchini ratsional sport texnikasini egallanganligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri jismoniy mashqni bajarishdagi muskul zo'riqishini to'g'ri va o'z vaqtida navbatlashuviga erishganligidir. Harakatning aktsent (urg'u, e'tibor) berilgan qismiga eng kuchli zo'riqish qilinadi. Bunday zo'riqishdan yuzaga kelgan harakat, ma'lum vaqt passiv davom etadi. Harakat tarkibidagi aktsent berilgan davrning intensivligi qanchalik kuchli bo'lsa, ish samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu bilan harakatning passiv fazasidan to'laqonli foydalanish mumkin.

Harakatlarning tavsifi

Jismoniy madaniyat nazariyasi, jismoniy tarbiya fanining o'qituvchilari, mutaxassis trenerlar, jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining faollarigina emas, balki jamiyat a'zolarining barchasi o'zining harakat akti yoki harakat faoliyatlarini tahlil qilibgina qolmay, kasbdoshi, tengdoshi, farzandi va boshqalarning harakatlarini ham tahlil eta olish malakasiga ega bo'lishi davrimizning talabidir. P.F.Lesgaftning qayd qilingan fikri o'zining mohiyatini hozirgacha ham yo'qotgani yo'q.

Harakatlar tananing fazodagi (bo'shliqdagi) holatiga qarab, uni bajarishdagi traektoriyasiga (yo'li), harakatning yo'nalishiga, harakat amplitudasi (og'ishi)ga qarab; bajarish uchun sarflangan vaqti, harakatning tezligi, harakatning davomiyligi (uzunliligi), tempi, ritmi, kuchiga qarab tavsiflanadi. Yuqorida qayd qilingan harakat holatlarini tahlil qilish malakasiga ega bo'lsak, harakatlarni tavsiflay olishimiz mumkin. Tananing holati (pozasi) – bo'g'inlar, tananing qismlari (bo'laklari)ning harakati uni fazoda harakatlanishning ma'lum elementlarini yuzaga keltiradi. Gavda qismlarini fazoda bir tomonga og'gan, enkaygan, bukraygan, ayrim a'zolarimizni esa yig'ishtirilganligi yoki cho'zilganligi va boshqalar holatida kuzatamiz.

Har qanday harakatlar davomida bu pozalar, turish holatlari uzluksiz o'zgarib turishi va o'z navbatida bu organizmga yoki ayrim a'zolarimizga jismoniy 123 yuklamalar tushishishi bilan kuzatiladi. Bu holatlar organizmga o'z navbatida jismoniy yukning hajmini ortishi yoki pasayishi bilan kechadi. Tananing vertikal (tik) holati - osilish va tayanishlar, gorizontal (yotiq) holatlari, yotiq holatdagi muvozanat saqlashlar, aralash osilishlar, tayanishlar va boshqalar. Tanani engashtirilgan, buklangan holatlari: tayanib yotishlar, enkaygan holda oyoqlar bilan oldinga, orqaga, yon tomonlarga "katta qadamlar".

Tananing ayrim bo'g'inlari harakatlari - inson jismining ajratib olingan qismidagi ikki biologik zvenoni fazoda turish joyining o'zgarishi bo'lib, bukish va to'g'rilashdek sodda harakat vazifalarini hal qilishga yo'nalish berishi mumkin. Individning harakat faoliyati, uning jismi bo'g'inlaridagi harakatlar, bir vaqtning o'zida bajariladigan, ketma-ket, qatorasiga, ohista navbatma-navbat, yoki davomiyligi qisqa, uzun bo'lgan harakatlarga birlashishi mumkin. SHuni xisobigagina harakatlarning eng soddasidan o'ta qiyin bo'lgan harakat vazifalarini hal qilish imkoni yaratiladi.

Harakat koordinatlari - to'g'ri chiziq va burchak o'lchovlarida aniqlanadigan, tananing boshqa qismiga nisbatan fazoviy chegarasi, xisoblash boshlangungacha gavdaning bo'laklarini nisbatan turishi holati, shakli (start chizig'i, gimnastika jihozi, uni o'qi va boshqalar)ga nisbat berib baholanadi yoki aniqlanadi. Tananing holatlari ichida mashq bajarishni boshlashdan oldingi holat - «dastlabki holati» (DX) deb ataladigan qismi, mashq texnikasini o'zlashtirish yoki bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oldiniga u anatomo-fiziologik vazifani hal etishi e'tiborga olinsa, boshqa tomondan, shu harakatning bajarilishiga ijobiy yordam beradi.

Dastlabki holat harakatni bajarishni boshlash uchun eng optimal holat bo'lib, harakat boshlangandan keyin bajariladigan harakatlarning ketma-ketliligiga qulaylik yaratadi. Sprinter (qisqa masofaga yuguruvchi) uchun "past start", darvozabon uchun "to'pni kutish holati" va h.k.lar. Bu holatlarni akademik Uxtomskiy optimal holat deb atadi. Ko'rinishidan dastlabki holat osoyishta turgandek ko'rinsa ham, aslida, organizm bo'lajak harakatga energiya sarflayotgan, qator mushaklar guruhi esa muskul ishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rayotgan, nafas olish, nerv, yurak-tomir tizimi, modda almashinuvidek keng fiziologik jarayon avjida bo'ladi. Dastlabki holatni jismoniy mashq bajarishdagina ahamiyati katta bo'lmay, mashq davomida tanani qanday holda (holatda-pozada) turishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Sprinter, stayer (inglizcha so'zlar - qisqa va o'rta masofaga yuguruvchilar), marafonchi, chang'ida, konьkida yuguruvchilarning gavdalarining vertikaligini ma'lum gradusga pasaytirilgan yoki ko'tarilgan holda ushlashi mashqni samaradorligiga ma'lum darajada (uzunlikka, balandlikka, sakrovchining depsinishdan keyingi holati) ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi..

JISMONIY TARBIYANI SOG'LOMLASHTIRISHGA YO'NALTIRISH PRINSIPI

Halimov Izzatullo Rahmatali o'g'li

QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda, jismoniy madaniyat tashkilotchilari, trenerlar, davlat, xalq oldida shuullanuvchilarning soligiga javob beribgina qolmay, uni mustahkamlashga va takomillashtirishga xam javob beradilar. Jismoniy mashqlar bilan vrach va pedagog nazorati ostida shug'ullanilsagina, u ijobiy effekt beradi.*

Kalit so'zlar: *Biologik xususiyatlar, yosh, jins, sog'lik, sistemalik. vrach, pedagog, nazorat, tarbiya, jismoniy madaniyat, tashkilotchilak, trenerlar, davlat, uslubiyatlar, mashqlar, meoyor.*

Jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirishga yo'naltirilganligi prinsipi shug'ullanuvchilarning jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishida ularni sog'ligiga javob berish ma'suliyatini o'rta tashlaydi. Jismoniy madaniyat tashkilotchilari, trenerlar, davlat, xalq oldida shug'ullanuvchilarning sog'ligiga javob beribgina qolmay, uni mustahkamlashga va takomillashtirishga ham javob beradilar. Jismoniy mashqlar bilan vrach va pedagog nazorati ostida shuullanilsagina, u ijobiy effekt beradi. Noto'g'ri foydalanish esa shug'ullanuvchi soligiga salbiy taosir etishi mumkin. Shuning uchun biologik xususiyatlari - yoshi, jinsi, soligini xisobga olish, sistemali vrach va pedagog nazorati tarbiya jarayonida yetakchi omildir. Amalda rejasiz ishlash o'ta salbiy oqibatlariga olib keladi. Tanlangan uslubiyatlar, mashqlarning meoyori, bajarish intensivligi, yuklamaning umumiy miqdorini tanlashdagi pedagogning arziyas xatosi shuullanuvchi uchun o'ta qimmatga tushishi mumkin. Shunday hollarga duch kelish mumkinki, sport natijalarini vaqtinchalik o'sishi, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkich-larining ortishi, organizmda vaqtinchalik sportchi uchun sezilmaydigan patologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Kelib chiqadigan yomon oqibatlar jismoniy madaniyat va sportning obro'siga salbiy 109 ta etadi. Shu sababli vrach nazorati dalillarini e'tirof etish bilangina cheklanmay, asosiy eotibor ularning taxliliga qaratilishi lozim. Nazoratni tizimli emasligi salbiy oqibatlariga olib kelishi muqarrardir. Jismoniy tarbiyani solomlashtirish bilan bolab olib borish prinsipi vrach, pedagog va shuulanuvchining kunlik muntazam muloqotini talab qiladi. Jismoniy tarbiya prinsiplari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqlikni taqazo etadi. Shundagina ular ahamiyatini saqlab qoladi. Jismoniy tarbiyaning mehnat va xarbiy amaliyot bilan bog'liqligi uning yetakchi prinsipidir. Shu prinsipgina mamlakatimizda jismoniy tarbiyaning asosiy qonuniyatini ifodalaydi, uning ahamiyati jamiyatimiz a'zolarini ijodiy mehnatga va Vatan mudofasiga tayyorlashdadir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirish prinsipi ijtimoiy hayotga - ishlab chiqarish va xarbiy ishini amalga oshiradigan xar tomonlama rivojlangan shaxsga talabni oshiradi, xar tomonlama jismoniy, maonaviy rivojlangan-larni tarbiyalash mamlakat iqtisodiyoti va mudofaasini taxminlashda muhim rol o'ynaydi. Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino

«Jismoniy mashqlar haqida qisqacha soʻz»ida salomatlikni saqlash rejimining asosiy omillaridan biri jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish ekanligini taʼkidlaydi. Ovqatlanish, uyqu, dam olish rejimining kun tartibidagi sistemali jismoniy mashqlar bilan shuullanish mashulotlardan keyingi oʻringa qoʻyadi. Maromli, meoyoridagi erkin xarakatlar – yaʼni jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish kasallikni yoʻqotish uchun xech qanday davolanishga zaruriyatning vujudga keltirmasligini aytib oʻtadi. Erkin, meoyoridagi maromli xarakat uzluksiz chuqur nafas olishni yoʻlga qoʻyadi. Bu bilan, organizm muskullarining toʻqimalari kislorod bilan yetarli darajadagi kislorod bilan taminlanadi. Mashq qilgan, mashq koʻrgan organizm oʻzidagi “keraksiz”ni vujudga kelishiga, uning chiqarib tashlanishiga keragidan ortiqcha energiya sarflamaydi. Taʼlim jarayonida mashq qilishning meoyorini topish va uning salomatlik uchun taʼsirini aniqlay olish, tarbiya jarayonining muhim koʻrsatmasiga, kerak boʻlsa, nizomiga aylanishi lozim.

Jismoniy tarbiyaning yuqorida qayd qilingan prinsiplari qatori jismoniy tarbiyani solomlashtirishga yoʻnaltirishning amaliy samarasi kattadir. Shuning uchun jismoniy tarbiya tizimining umumiy prinsiplariga rioya qilish jismoniy tarbiyani amalga oshirayotgan mutaxassisdan tortib shugʻullanuvchilargacha ularni sogʻligiga eʼtibor berishni muhimligini takidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik jarayon davomida umumiy prinsiplarga oʻz vaqtida rioya qilinsa, qoʻyilgan talablar mukammal bajarilsa, jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligi yuqori boʻladi.

ПРЕТЕНЗИИ К НЕМУ ПРИ СТРОИТЕЛЬСТВЕ ЭЙФЕЛЕВОЙ БАШНИ

Yo'ldosheva Dilnura Ergash qizi

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 22-son maktab 11-sinf o'quvchisi.

Аннотация: *Наиболее грандиозное, знаменитое, эпатажное сооружение Парижа, конечно же – Эйфелева башня. С момента ее появления в 1889 году в качестве арки для Всемирной выставки, посвященной взятию Бастилии, и по сегодняшний день она находится в центре внимания. Ее также признали важным звеном французской экономики и ценным достоянием Европы.*

Ключевые слова: *грандиозный, знаменитый, Париж, Эйфелева башня, арки, всемирной выставка, центр внимания экономика Европа.*

Эйфелева башня (фр. tour Eiffel) – металлическая башня в центре Парижа, самая узнаваемая его архитектурная достопримечательность. Эйфелеву башню, считающуюся символом Парижа, начали строить в январе 1887 года и завершили 30 марта 1889 года. Многие французы выступили против строительства башни. Они считали, что 300-метровый «железный забор» испортит внешний вид города. Согласно информации, 300 писателей и художников написали возражения муниципалитету, назвав сооружение «бесполезным и неприглядным».

Общезападный конкурс архитектурных и инженерных проектов, которые должны были определить архитектурный облик будущей Всемирной выставки, стартовал 1 мая 1886 года. В конкурсе приняли участие 107 претендентов, большинство из которых в той или иной степени повторяли проект башни, предложенный Эйфелем. На рассмотрении были также различные экстравагантные идеи, среди которых, например, гигантская гильотина, которая должна была напоминать о Великой французской революции. Другим предложением была каменная башня, но расчёты и опыт прошлого показали, что очень тяжело было бы соорудить каменную постройку, которая была бы ещё выше 169-метрового Вашингтонского монумента, сооружение которого стоило огромных усилий США за несколько лет до этого.

Проект Эйфеля становится одним из четырёх победителей, и тогда инженер вносит в него окончательные изменения, находя компромисс между первоначальной чисто инженерной схемой конструкции и декоративным вариантом. В конце концов комитет останавливается на плане Эйфеля. Завоевав первую премию конкурса, Эйфель с энтузиазмом воскликнул: «Франция будет единственной страной, располагающей 300-метровым флагштоком!»

Изначальный проект Нугье и Кёшлена был слишком «сухим» в эстетическом плане и не отвечал требованиям, выдвигаемым к сооружениям Всемирной Парижской выставки, архитектура которых должна была быть более изысканной.

Чтобы башня более отвечала вкусам требовательной парижской публики, архитектору Стефану Свестру было поручено поработать над её художественным обликом. Он предложил обшить цокольные опоры башни камнем, связать её опоры и площадку первого этажа с помощью величественных арок, которые стали бы одновременно главным входом на выставку, разместить на этажах башни просторные застеклённые залы, придать верхушке башни округлую форму и использовать разнообразные декоративные элементы для её украшения.

Названа в честь главного конструктора Гюстава Эйфеля сам Эйфель называл её просто «300-метровой башней» (tour de 300 mètres). Башня, впоследствии ставшая символом Парижа, была построена в 1889 году и первоначально задумывалась как временное сооружение, служившее входной аркой парижской Всемирной выставки 1889 года. Эйфелеву башню называют самой посещаемой платной и самой фотографируемой достопримечательностью мира. Башня воздвигнута на Марсовом поле напротив Йенского моста через реку Сену, набережная Бранли. На схеме Парижского метрополитена станция: Bir - Nakeim Первоначально Эйфелева башня возвышалась на 300,65 м над уровнем земли. Высота вместе с новой антенной составляет 330 метров (2022 год).

На протяжении более 40 лет Эйфелева башня была высочайшим сооружением в мире, почти в 2 раза выше самых высоких зданий мира того времени — пирамиды Хеопса (146,6 м), Кёльнского (157 м) и Ульмского собора (161 м), — пока в 1930 году её не превзошёл Крайслер Билдинг в Нью-Йорке. На протяжении своей истории башня неоднократно меняла цвет своей покраски — от жёлтого до красно – коричневого. Последние десятилетия Эйфелева башня неизменно красится в так называемый «коричневый – эйфелевый» — официально запатентованный цвет, близкий к естественному оттенку бронзы.

«Железная дама» противостоит разрушающему действию времени благодаря 57 тоннам краски, которые необходимо обновлять каждые 7 лет.

Всемирная выставка 1889 года проходила в Париже и была приурочена к столетнему юбилею Великой французской революции. Парижская городская администрация обратилась к известным французским инженерам с предложением принять участие в архитектурном конкурсе. На таком конкурсе следовало создать сооружение, зримо демонстрирующее инженерные и технологические достижения страны.

Общезападный конкурс архитектурных и инженерных проектов, которые должны были определить архитектурный облик будущей Всемирной выставки, стартовал 1 мая 1886 года. В конкурсе приняли участие 107 претендентов, большинство из которых в той или иной степени повторяли проект башни, предложенный Эйфелем. На рассмотрении были также различные экстравагантные идеи, среди которых, например, гигантская гильотина, которая должна была напоминать о Великой французской революции. Другим предложением была

каменная башня, но расчёты и опыт прошлого показали, что очень тяжело было бы соорудить каменную постройку, которая была бы ещё выше 169-метрового Вашингтонского монумента, сооружение которого стоило огромных усилий США за несколько лет до этого.

В январе 1887 года Эйфель, государство и муниципалитет Парижа подписали договор, согласно которому Эйфелю предоставлялась в личное пользование эксплуатационная аренда башни сроком на 25 лет, а также предусматривалась выплата денежной субсидии в размере 1,5 млн золотых франков, составившую 25 % всех расходов на строительство башни. 31 декабря 1888 года с целью привлечения недостающих средств, создаётся акционерное общество с уставным фондом 5 млн франков. Половина этой суммы — средства, внесённые тремя банками, вторая половина — личные средства самого Эйфеля.

Итоговый бюджет строительства составил 7,8 млн франков. Башня окупилась за период работы выставки, а её последующая эксплуатация оказалась весьма доходным бизнесом.

Строительные работы в течение двух лет, двух месяцев и пяти дней (с 28 января 1887 года по 31 марта 1889 года) выполняли 300 рабочих. Рекордным срокам возведения способствовали чертежи чрезвычайно высокого качества с указанием точных размеров 18.038 металлических деталей, для сборки которых использовали 2,5 млн заклёпок.

Чтобы закончить башню в назначенный срок, Эйфель применял, большей частью, заранее изготовленные части. Отверстия для заклёпок были просверлены в намеченных местах уже заранее, и две трети от 2,5 млн заклёпок были заранее установлены. Ни одна из заготовленных балок не весила больше 3 тонн, что очень облегчало поднятие металлических частей на предусмотренные места. В начале применялись высокие краны, а когда конструкция переросла их по высоте, работу подхватили специально сконструированные Эйфелем мобильные краны. Они двигались по рельсам, проложенным для будущих лифтов. Сложность состояла и в том, что подъёмное устройство должно было двигаться вдоль мачт башни по изогнутой траектории с меняющимся радиусом кривизны. Первые лифты на башне приводились в действие гидравлическими насосами. Вплоть до нашего времени используются два исторических лифта фирмы «Fives-Lille», установленные в 1899 году в восточной и западной опорах башни. С 1983 года их функционирование обеспечивается электродвигателем, а гидравлические насосы сохранены и доступны для осмотра.

В настоящее время башня доступна для посещений каждый день. Для доступа публики наверх имеются четыре пункта продажи билетов и пропуска внутрь сооружения: северный, южный, западный и восточный. Существует две категории экскурсий: на второй ярус за 16 евро и на самый верх за 25 евро. Детям и инвалидам предоставляются скидки на входные билеты.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

- 1.Эйфель, Александр-Густав//Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.) - СПб., 1890 - 1907.
- 2.Тиссандье Г.Эйфелева башня (La tour Eiffel): Проект. Работы по постройке. Подъемы. Назначение башни: С 34 рисунками, портретом и автографом Г. Эйфеля. - СПб.: Издание Ф. Павленкова, 1890. 83с.
- 3.Большая российская энциклопедия. Том 25.-М., 2014. - С. 324 - 334.
- 4.История Парижа. - М.: Весь мир, 2002. - 176с.
- 5.<https://ik-ptz.ru/physics/stroitelstvo-eifelevoi-bashni-eifeleva-bashnya-zheleznaya-ledi.html>
- 6.<https://ru.wikipedia.org/wiki>

OILADA VA BOLALAR BOG'CHASIDA MUSIQA SAVODINING AHAMIYATI

Usmanova Aziza Pardayevna

Jizzax viloyati Jizzax Shahar Jizzax Shahar 32-DMTT musiqa rahbari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa mashg'ulotlarining bolalar uchun foydali tomonlari, ularni to'g'ri tashkil etish, musiqa savodini o'rgatishda musiqa rahbari, tarbiyachi, ota-ona hamkorligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Musiqa, musiqa rahbari, tarbiyachi, ota-ona, musiqa mashg'uloti, o'rgatish, qo'shiq, raqs, harakat, alla.*

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi: 1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish. 2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobiliyatlarini tarbiyalash. 3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofdagi qo'shimcha, obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullantirishning sababi bola musiqa bilan shug'ullanmasdan, qo'shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi mumkin

Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor:

1. Ko'rgazmali metod
2. So'zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

Ko'rgazmali metod

1. Eshitishga asoslangan ko'rgazmali metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi. 2. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shiq olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalarni ko'rsatiladi.

So'zlab berish metodi

Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tasavvurini jonlantiradi. So'zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. Tushuntirish – yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida foydalaniladi.

2. Izohlash – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. Ko'rsatma berish – bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o'ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho'zish kabi.

Amaliy faoliyat metodi

Bu faoliyatda bolalarga qo'shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish bosqichlari

1-bosqich: Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish; Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarda chaldirib, kuyni o'zaro taqqoslaydi va shu yo'l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalarini bo'lishni shakllantirish. 3-bosqich: Ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq, o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Oilada va bog'chada bolalarni ashula aytishga o'rgatish

Qo'shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Avvalambor tarbiyachi biror bir she'rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o'rganadi. Har bir tanlangan she'r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlari hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi. Qo'shiq bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi. Qo'shiq inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Biz qo'shiqni bolalarga o'rgatayotganda avval qo'shiq kuyini, keyin she'rini misrama-misra o'rgatamiz. Qo'shiq kuyini o'rgatganda to'rt xil musiqa asboblari orqali chalib yoki bo'lmasa, biror-bir jonivorning ovozlarini berib, o'rgatishimiz mumkin. She'rni esa bo'g'inlarga ajratib yoki chapaklar orqali yod oldiradi. Bolalar she'rlarni tezroq yod olishlari uchun she'r matnlarini takror aytishimiz kerak. Agar bolaning xayoli bir joyda bo'lmasa, musiqa tovushlarini va she'rni tez yod olishlari murakkab bo'ladi. MTT yoshidagi bolalarning ongi, hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular kuyni sekin va uzoq muddatda yod olishadi. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o'rgatish zarur. Bolalar tarbiyasida qo'shiqning roli katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi turlaridan bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha modeli she'rdir. Qo'shiqlar kuy va ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib

ketgan janrlaridan biridir. Qo'shiqlar xalq turmushi va mehnatning ijodiy mahsuli bo'lib, unda xalqning orzu-tilaklari qalb sadolari turlituman hayotiy tuyg'ulari ifodalangan. Qo'shiqlar o'quvchilarning nafosatini o'rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalshga yordam beradi. Qo'shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakllarda tuziladi. Masalan: bolalar bog'chalarida tarixiy qo'shiqlardan foydalansak bo'ladi. «Xon zulmi», «Ming la'nat», «Xondan dod» va shunga o'xshash musiqalardan foydalanish mumkin. Yana o'zimizning milliy musiqalarimizni aytishni ham bolalarga o'rgatishimiz mumkin ekan. Masalan: «Chitti gul», «Boychechak», «Laylak keldi» va hokazolar. Bu musiqalar mavzu jihatdan mehnat, ishqiy, lirik qahramonlik qo'shiqlariga va shu kabi boshqa turlarga bo'lishimiz mumkin. Hayot tajribalariga asoslanmagan rang-barang qo'shiqlar orqali xalqning g'am-hasrat, dushmanga nisbatan ga'zab va nafrati kabi histuyg'ulari izhor etiladi. Qo'shiq bolani erkalatadi, o'yinga boshlaydi, uni his qilish qobilyatini o'stiradi, fikrlashga o'rgatadi. Bola tug'ilgan kunidanoq onaning mehr to'la allasini tinglaydi. Bunda onaning bolaga bo'lgan samimiy chuqur muhabbati bilan birga, farzandning jamiyatga mos, yaxshi farzandlar egasi bo'lib tarbiyalanishini ta'sirli, ohangdor qo'shiq orqali ifodalaydi: va ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biridir. Qo'shiqlar xalq turmushi va mehnatning ijodiy mahsuli bo'lib, unda xalqning orzu-tilaklari qalb sadolari turlituman hayotiy tuyg'ulari ifodalangan. Qo'shiqlar o'quvchilarning nafosatini o'rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalshga yordam beradi. Qo'shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakllarda tuziladi. Masalan: bolalar bog'chalarida tarixiy qo'shiqlardan foydalansak bo'ladi. «Xon zulmi», «Ming la'nat», «Xondan dod» va shunga o'xshash musiqalardan foydalanish mumkin. Yana o'zimizning milliy musiqalarimizni aytishni ham bolalarga o'rgatishimiz mumkin ekan. Masalan: «Chitti gul», «Boychechak», «Laylak keldi» va hokazolar. Bu musiqalar mavzu jihatdan mehnat, ishqiy, lirik qahramonlik qo'shiqlariga va shu kabi boshqa turlarga bo'lishimiz mumkin. Hayot tajribalariga asoslanmagan rang-barang qo'shiqlar orqali xalqning g'am-hasrat, dushmanga nisbatan ga'zab va nafrati kabi histuyg'ulari izhor etiladi. Qo'shiq bolani erkalatadi, o'yinga boshlaydi, uni his qilish qobilyatini o'stiradi, fikrlashga o'rgatadi. Bola tug'ilgan kunidanoq onaning mehr to'la allasini tinglaydi. Bunda onaning bolaga bo'lgan samimiy chuqur muhabbati bilan birga, farzandning jamiyatga mos, yaxshi farzandlar egasi bo'lib tarbiyalanishini ta'sirli, ohangdor qo'shiq orqali ifodalaydi:

Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.
Ikki ko'zim, alla,
Shirin so'zim, alla.

Alla bolam, baxti bor,
Har narsaning vaqti bor.
Jonim bolam, alla,
Shirin so'zim, alla.
Ikki ko'zim, alla,
Jonim bolam, alla,

Allada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoa o'rtasida, to'y tomoshalarda, ota-onaning obro'si uning shuhrati sifatida ta'riflanadi. Alla bolani chaqaloqlik davridanoq ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi.

Onalar bolalarga ilk kunlaridanoq alla aytishlari muhim. Bu bilan onalar bolalariga bo'lgan mehrlarini izhor etadilar. Ya'ni har bir bolaning musiqaga bo'lgan qiziqishini o'yg'otgan va ularga birinchi musiqa bo'yicha ustoz bo'ladilar. Alla tinglab ulg'aygan bola ota-onaga, Vatanga, el-yurtiga muhabbatli bo'ladilar.

Musiqa ajralmas qism sifatida va turli faoliyat turlariga kiritilishi mumkin. Tabiatni estetik idrok etish bolalarda Vatanga muhabbatni uyg'otadi. Musiqa ularga tabiat obrazlarini, uning alohida hodisalarini yanada chuqurroq hissiy idrok etishga ham yordam beradi. Shu bilan birga tabiatni kuzatish musiqa idrokini chuqurlashtiradi. Bu yanada tushunarli va qulayroq bo'ladi. Masalan, agar bolalar bog'da yoki o'rmonda sayr qilish uchun chiroyli nozik qayinga e'tibor berishsa, o'qituvchi bolalarni uni diqqat bilan ko'rib chiqishga, bu haqda she'rni eslab qolishga va undan ham yaxshisi, qo'shiq yoki qo'shiq kuylashga taklif qilishi kerak. raqsga tushish. Shunday qilib, tarbiyachi bolalarning tabiatni bevosita kuzatishdan olgan taassurotlarini musiqa asari yordamida mustahkamlaydi. Bundan tashqari, o'qituvchi yozgi sayrlarda qo'shiq aytish bilan o'yin o'ynashi mumkin. Bu yurish uchun qiymat qo'shadi. Musiqa darslarida oldindan o'rganilgan tabiat mavzusiga oid musiqiy material bolalarni kuzatishda diqqatli bo'lishga imkon beradi. Bolalar har bir tabiat hodisasi, har bir fasl o'ziga xos go'zal ekanligini anglay boshlaydilar. Musiqa tarbiyachi tomonidan qo'yilgan vazifalarga qarab yo kuzatishdan oldin bo'ladi yoki bolalar taassurotlarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz bolalar bog'chasida bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida tegishli funktsiyalar va yo'nalishlarning butun majmuasi mavjud bo'lib, ularni amalga oshirishga yordam beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin¹. Bolalarni tarbiyalashda oila va bog'chani o'zaro hamkorligi sifatini oshirish². Jamoa ichidagi norasmiy aloqalarni mustahkamlash.

3. Ayrim bolalar va butun jamoaning intellektual qobiliyatlarini ochib berish.
4. Bolalarning umumiy dunyoqarashini va bilish faolligini oshirish.
5. Ijodiy imkoniyatlarni rag'batlantirish, bolalarda doimiy ijodiy izlanish muhitini yaratish, shaxsiy mustaqillikni rivojlantirish.

Demak, musiqiy faoliyatni tashkil etishda nafaqat musiqa rahbari, balki tarbiyachilar, katta tarbiyachi, ota-onalar, qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari, rahbar va ba'zan boshqa xodimlar ham ishtirok etadilar. Bolaning bo'sh vaqtini o'ylangan holda tashkil etish estetik tarbiya va umumiy rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega. Demak, pedagog musiqiy

faoliyatni umumiy sahnalashtirish uchun javobgardir. Har bir bola bilan kundalik ishlash, uning qiziqishlari, qobiliyatlarini bilish tarbiyachiga musiqa rahbari bilan birgalikda barcha bolalarning badiiy rivojlanishini amalga oshirishga imkon beradi. Musiqa rahbari o'qituvchilarga maslahat beradi, maslahatlar beradi, amaliy yordam beradi. "Erta yosh guruhlarida musiqa darslarida tarbiyachining roli" Bolalar ijodiy faolligini rivojlantirishda musiqaning ta'siri juda katta. Musiqa bolalarda san'atning boshqa turlaridan oldin hissiy munosabatni uyg'otadi. Musiqiy ta'lim nutqni, his-tuyg'ularni, harakatlarni rivojlantirishga yordam beradi, bolalarga quvonch baxsh etadi, faollikni rag'batlantiradi, yorqin badiiy taassurotlar bilan boyitadi. Musiqa hatto 3-4 oylik chaqaloqqa ham zavq bag'ishlaydi: qo'shiq aytish, metallofon tovushlari chaqaloqni birinchi navbatda diqqatini jamlaydi, keyin esa tabassum qiladi. Bolalar qanchalik katta bo'lsa, musiqa tufayli yuzaga keladigan ijobiy his-tuyg'ular shunchalik yorqinroq va boy bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalik - bolani go'zallik dunyosi bilan tanishtirish uchun eng yaxshi vaqt. Bu borada pedagogning shaxsiyati katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashning yakuniy natijasi uning axloqiy xarakteriga, bilim darajasiga, kasbiy mahoratiga va tajribasiga bog'liq. O'qituvchi-pedagogning nafaqat musiqani tushunishi va sevishi, ifodali kuylay olishi, ritmik harakatlanishi, cholg'u asboblarda o'z imkoniyatlari darajasida chala olishi muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, bolalarni tarbiyalashda musiqiy tajribangizni qo'llay olishdir. Musiqa vositasida bolani tarbiyalashda o'qituvchi uning shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunishi va bolalar hayotida uning faol yo'l boshchisi bo'lishi kerak. Bolalar bo'sh vaqtlarida raqsga tushishlari va qo'shiqlar kuylashlari juda yaxshi. Musiqa bola hayotining ko'p jabhalariga kirib borishi kerak. Bu ularning nafaqat hissiyotlarini tarbiyalaydi, balki baxtli bolalikni his etib katta bo'lishlarini ta'minlaydi. Chunki bolalik baxtli o'tgan bolalarni kelajagi ham porloq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Yusupova. "Musiqa savodi metodikasi va ritmika" Musiqa nashriyoti T. 2017
2. S. I. Bekina, T. P. Lomova, E. N. Sokovkina «Musiqa va harakat»
3. "Musiqa direktori qo'llanmasi" jurnali
4. M. B. Zatsepina "Bolalar bog'chasida musiqiy ta'lim"
5. M. B. Zatsepina "Bolalar bog'chasida madaniy va dam olish faoliyati"

IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA KLASSIK RAQSNI O'QITISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Aziza Usmanova Pardayevna

Jizzax viloyati Jizzax shahri 32-DMTT musiqa rahbari.

Normurodova Dilnoza Pardayevna

Jizzax viloyati Jizzax shahar Iqtisoslashtirilgan san'at maktabi

Xalq raqsi yo'nalishi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida klassik raqslarni o'qitishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning raqsga bo'lgan qiziqishlarini pedagogik mahorat bilan yondoshib qiziqtirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *raqs san'ati, klassik raqs, pedagogika, psixologiya, o'quvchilar.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgach barcha soxalarda tub isloxotlar boshlandi. Bu isloxotlarning barchasi inson omilini xar qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, yoshlarning idroki, salohiyati, ma'naviy barkamolligini rivojlanishida asos bo'ladi. Respublikamizda inson shahsini uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ustuvor vazifasi hisoblanadi. Yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat e'tibor, mustaqil vatanimizga mehr-muxabbat ruhida tarbiyalash hozirgi kun talabidir.

Bugungi kunda o'sib kelayotgn yosh avlodning ma'naviy olamini boyitish uning qalbida kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda.

Jamiyat ijtimoiy-madaniy xayotida insonning ijod maxsuli, ichki kechinmalarining nozik namunasi bo'lgan raqs san'ati barcha davralarda ham yuksak mavqega ega bo'lgan. Ayniqsa, klassik raqs hamisha inson ma'naviy olamining ajralmas qismi, shu bilan birga klassik raqsning paydo bo'lishi, rivojlanishida inson ma'naviy ongining muxim ko'rinishi fikr-muloxazasi, ta'rifi va e'tirofi muhim ahamiyat kasb etgan. Raqs san'ati insoniyat tarixining dastlabki davrlarida mehnat jarayonlarida, maishiy ko'rinishlarda paydo bo'lgan. Xalqning maishiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan, maishiy mazmun-mohiyatga ega bo'lgan raqs, keynichalik tomoshaviylikka aylanib borgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida maishiy raqs darajasiga ko'tarilgan.

Dastlab Italiya balet maktabi, keyin Fransiya balet maktabi ulardan ikki asr o'tib rus balet maktabi vujudga keldi. Bunda Leningrad xoreografiya bilim yurti (endi uning nomida) pedagogi, professor, xalq artisti Agrippinya Yakovlevna Vaganova xizmatlari beqiyos. U 1934 yilda "Klassik raqs asoslari" kitobini chop etib, klassik raqslarni tizimga solib, rus balet maktabiga asos soladi. Kitobda bayon etilgan klassik raqsdan dars berish uslubi balet san'ati, xoreografiya pedagogikasi nazariyasi va amaliyotiga qo'shilgan ulkan xissadir. Vaganova tizimi-rus balet maktabi an'alarining qonuniy davomiyligi va rivojlanishidir. Aksariyat xoreografiyalar raqqoslarning ijodi klassik raqs jozibasi va texnikasini

takomillashtirishga qaratilgan edi. Ular tomonidan berilayotgan ko'nikma va bilimlar ijrochilar tomonidan o'zlashtirilar va saxna tajribasida ham o'zlashtirilar edi. Rus balet maktabining ulkan tajribasi raqs pedagoglarining faoliyatida asos bo'ldi. Ushbu "Klassik raqs asoslari" kitobini butun xoreografiya dunyosi biladi va qadrlaydi. Kitob bir necha tillarga (ingliz, nemis, ispanposha, chex, venger va boshqa) tarjima qilingan va shu bois balet san'ati mavjud barcha davlatlarga etib borgan. Shu boisdan Vaganovaning tajribasiga zamonaviy chet el mualliflari ham klassik raqs darsliklarini yaratishda asoslanganlar.

Istiqlol tufayli rivojlanib borayotgan respublikamiz xoreografiya soxasi oldida ham qilinishi lozim bo'lgan bir qancha muhim vazifa va muammolar paydo bo'ldi. Ana shulardan biri o'sib borayotgan yosh avlodni faol ijtimoiy shaxslar qilib tarbiyalash, ta'lim va madaniyatning barcha soxalari uchun etuk, ma'naviy jixatdan barkamol mutaxassislar tayyorlash, boshqaruv, xalq millat taqdiri hamda istiqbolini belgilash kabi muammolarni yechishning amaliy yo'llari va ilmiy asoslarini yaratishda buyuk ajdodalarimiz, pedagog va psixologlarning ijodiy faoliyatlarini chuqur o'rganib, ular ilgari surgan pedagogik-psixologik ijtimoiy turmushga tadbiiq etish vazifasini kiritish mumkin.

Mamlakatimizning klassik raqsni o'rgatilishini izchil yo'lga tushib olish, jaxon intellektual salohiyatida to'la raqobat bardosh bo'la olishi inson faoliyatining hamma soxalarida zamonaviy psixologik bilimlarni qo'llay olishi darajasiga bog'liq. Bu esa ta'lim-tarbiyaning barcha soxalarida samaradorlikka erishishni shahs psixologiyasini bilmaslik va psixologik bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyati bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muxim axamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida O'zbekistonda qilingan o'ziga xos isloxotlar modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligi ta'kidlangan.¹

Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tarbiyalashni taqozo etadi. Bu muxim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri bo'lajak mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullanadigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammoni yechimini ham birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga etkazishi ta'lim-tarbiya soxasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydi.²

Muxtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev 2020 yil 4 fevral № PQ-4585 "Raqs san'ati soxasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga asoslanib, toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta'lim

muassasasi shaklida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasini tashkil etish:

Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tizimidagi Respublika xoreografiya ixtisoslashtirilgan maktabini Akademiya tizimidagi yuridik

shaxs maqomiga ega bo'lgan Respublika xoreografiya ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga aylantirish;

2021-2022 o'quv yilidan boshlab Buxorro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida Akademiya xuzurida ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berdilar.

Klassik raqs bo'yicha uchinchi sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilar shahsini va psixologik qonuniyatlarini hamda ta'lim tarbiya jarayonida ularni rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalar hamda tasavvurlarini shakllantirish ushbu mavzuni dolzarbligini yanada oshiradi. O'quvchilarni xoreografik san'ati maktabdagi ta'limga tayyorlash, pedagogik ta'sirlarga emotsional ta'sirlanishning xarakteri, xis-tuyg'ularini rivojlanishi, axloqiy, estetik xis-tuyg'ularni chuqurligi va o'quvchining emotsional qo'zg'aluvchanlik darajasini bilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Bugungi kunda maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ijtimoiy psixologiyani o'rganish, ularning psixologik xolatlarini xisobga olish va o'quvchilar emotsiyalarini to'g'ri tarbiyalash ta'lim faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish kafolatini keltirib chiqaradi. SHu sababdan o'quvchilarning bilim jarayonlarini faoliyatdagi axamiyatini ta'kidlagan xolda ta'lim jarayonida ularning psixik xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. CHunki psixologik xolatda voqea xodisalarini analiz, sintez qilish va o'quvchilardagi xissiy xolatlar bilim jarayonidagi faoliyatni amalga oshirishda, o'quvchilarni ta'limga tayyorlashda katta ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarni ta'limga tayyorlash, o'quvchilarning ayni vaqtdagi bilimlarini o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Maktab yoshidagi bolalarning psixik aqliy rivojlantirish, shahsini shakllantirish, o'quvchilar shahsining individual xususiyatlari va ularga ijtimoiy psixologik iqlimni diagnostika qilish yo'llarini maqsad, vazifalarini o'rganish bo'lib, quyidagi fikrlarni o'z ichiga oladi.

- Maktab yoshidagi o'quvchilar shahsining individual xususiyatlari va ularning diagnostika qilish yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Pedagogika jarayonining maxsuldorligi pedagogning o'z tarbiyachilarini yaxshi bilishga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashga bog'liq.

-O'quvchilarni psixik xususiyatlarini o'rganish, ularni xoreografiya maktabidagi ta'limga tayyorlash psixologik xususiyatlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunlari

I.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T. “O‘zbekiston” 2010

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari.

II.1. PQ-4585 “Raqs san‘ati soxasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini ko‘pdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivjlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2020 yil 4 fevral

II.2. SH.M.Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shmajlisidagi qo‘shma nutqi 13-148.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

III.1. I.A.Karimov. “YUksak ma’naviyat - engilmas kuch” T. 2008

III.2. R.Karimova “O‘zbek raqslari”, T. “CHO‘lpon” nashriyoti, 2003

IV. Asosiy adabiyotlar

IV.1. X.Xamidov, D.Sayfullaeva, S.Zokirova “Merosiy raqs durdonalari”, T. “CHO‘lpon” 2003

IV.2. D.Sayfullaeva, Z.Kazakbaeva. o‘zbek raqs san‘ati tarixi va raqs saxnalashtirish sirlari. T. “Voriz” MCHJ 2006.

IV.3. R.karimova, D.Sayfullaeva O‘zbek yakka ayollar raqsi. T. “CHO‘lpon” 2007

IV.4. L.Avdieva. Balet Uzbekistana izdetelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama. T. 1973 y.

IV.5. L.Avdieva. Tansevalnoe iskusstva Uzbekistana. Adabiyot va san‘at nashriyoti T. 1960 y.

IV.6. L.Avdieva. O‘zbek milliy raqs tarixidan. T. 2001

IV.7. Z.T.Nishonova “Psixologik xizmat” o‘quv qo‘llanma yangi yo‘l 2007

IV.8. V.Karimova, F.Akromova, Psixologiya. T. 2000 y.

IV.9. V.S.Kostravitskaya “100 urokov klassicheskogo tansa”

IV.10. N.I.Tarasov “Klassicheskiy tanets”(dlya mujeskogo klassa)

IV.11. A.YA.Vaganova “Osnovi klassicheskogo tansa”.

V. Internet saytlari

V.1. www.ziyonet.uz

V.2. KUN.UZ

OQOVA SUVLARINI 2- UMRI

Атаходжаев Абдубоситхожа.Абдулахатхожа ўғли

ТошДТУ, Мухандислик технологиялари факультети

Э ва АММ йўналиши 4-босқич талабаси,

Жовлиев Мухриддин Норбой ўғли

ТошДТУ, Мухандислик технологиялари факультети

Э ва АММ йўналиши 4-босқич талабаси,

Bugun sayoramiz ekologik inqiroz yo'qasiga kelib chuchuk suvlarni soatlari sayin kamayib boryotgan vaqtda oka suvlarni tozalab, tabiatga zarar yetkazmaslik, ularning qishloq xojaligida ishlatish dolzarb masaladir.

Chiqindilarni tozalash - maishiy va sanoat oqava suvlari tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarni suv havzalariga yuborishdan oldin olib tashlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui. Oqava suvlarni tozalash maxsus tozalash inshootlarida amalga oshiriladi.

Tozalash jarayoni 4 bosqichga bo'linadi:

Mexanik

Biologik

Fizik va kimyoviy

Oqava suvlarni zararsizlantirish.

Tozalash inshootlariga kiradigan oqava suvlarni dastlabki biologik tozalashga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladi. Mexanik bosqichda qo'pol va mayda aralashmalar saqlanib qoladi

Biologik tozalash oqava suvlarni tozalashning asosiy bosqichidir. Bu oqava suv ifloslanishining erigan qismini (organik ifloslanish - KOD, BOD; biogen moddalar - azot va fosfor) faollashtirilgan loy yoki bioplyonka deb ataladigan maxsus biotsenoz (bakteriyalar, oddiy va ko'p hujayrali organizmlar) bilan tozalashni o'z ichiga oladi. [1]

Ushbu usullar erigan aralashmalardan, ba'zi hollarda esa to'xtatilgan qattiq moddalardan keyingi ishlov berish uchun ishlatiladi. Jismoniy va kimyoviy tozalashning ko'plab usullari oqava suvdan to'xtatilgan qattiq moddalarni oldindan chuqur ajratishni talab qiladi, buning uchun koagulyatsiya jarayoni keng qo'llaniladi.

Erga yoki suv omboriga oqizish uchun mo'ljallangan oqava suvlarni yakuniy dezinfeksiya qilish uchun ultrabinafsha nurlanish moslamalari qo'llaniladi.

Biologik tozalangan oqava suvlarni zararsizlantirish uchun odatda yirik shaharlardagi oqava suvlarni tozalash inshootlarida qo'llaniladigan ultrabinafsha nurlanish bilan bir qatorda 30 daqiqa davomida xlor bilan ishlov berish ham qo'llaniladi.[2] "Salar" aeratsiya stansiyasi Toshkent shahrining olti tumanidan kuniga 750 ming kub metr oqova suvlarni tozalaydi. U million kubometrni va hatto kuchli yomg'ir paytida 1200 000 kubometrni tozalashi mumkin.[3]

Har bir aholi punkti samarali tozalash inshotlariga muxtoj. Ushbu komplekslarning atrof-muhitga qanday suv tushishini va kelachakda ekotizimga kanday ta'sir qilishini aniqlaidi. Suyuqliklar o'rtacha tozalanmasa, tabiiyat va hayvonot nobud boladi, tuproqatlami zaharlanadi, zararli bakteriya inson tanasiga kirib, o'gir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR ROYXATI:

1 Экология: электронный учебник. Учебник для ВУЗов Передельский Л.В., Коробкин В.И., Приходченко О.Е.2009 32 bet

2 Дунёда муқобили бўлмаган ягона ресурс. Марказий Осиёдаги сув тақчиллиги муаммоси www.kun.uz

3Саларская станция аэрации www.mytashkent.uz

MODELING OF INTANGIBLE ASSETS OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS ENGAGED IN LOGISTICS ACTIVITIES

Qurbonov Xurshid Azamatovich

Termez injinering and technology institute

Abstract: *The article presents the results of It will be relevant to fill this gap, presumably arising from insufficient elaboration of approaches to the assessment of scientific knowledge, which, along with managerial knowledge and practical competencies of management in the field of logistics, generates intangible assets. In other words, it is required to show that the "science intensity" of the logistics business is a capitalized asset.*

Key words: *logistics, modeling, asset, consulting, base, technology, Relationships, Purpose.*

LOGISTIKA FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONA VA TASHKILOTLARNING NOMODDIY AKTIVLARINI MODELLASHTIRISH

Qurbonov Xurshid Azamatovich

Termiz muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: *Maqolada ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun uning natijalari tegishli bo'ladi, ehtimol ilmiy bilimlarni baholashga yondashuvlarning etarli darajada ishlab chiqilmasligidan kelib chiqadi, bu esa boshqaruv bilimlari va logistika sohasidagi boshqaruvning amaliy vakolatlari bilan birga nomoddiy aktivlarni keltirib chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, logistika biznesining "fan intensivligi" kapitallashtirilgan aktiv ekanligini ko'rsatish talab etiladi.*

Kalit so'zlar: *logistika, modellashtirish, aktiv, konsalting, baza, texnologiya, munosabatlar, maqsad.*

Avtomobillarda yuk tashish faoliyatida amalga oshirilayotgan rivojlanishlar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi xususiy korxonalar va tashkilotlarga faqatgina ichki emas balki, tashqi bozorda ham raqobatbardoshlikni ta'minlashlari kerakligini ko'rsatib qo'yimoqda. [1]


2008 yilning ikkinchi yarmidan boshlab logistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning taxminiy qiymati iqtisodiyotdagi inqiroz tufayli pasayishi, shuningdek tashkilotlarning moddiy oqimlari (MO) rentabelligining pasayishi kuzatildi. Shu sababli o'sishning yangi manbalarini izlash dolzarb masalaga aylanib qolgani kuzatildi. Bunday manba nomoddiy oqimlar deb ataladigan yashirin, hujjatsiz bozor resurslari bo'lishi mumkinligi taxmin qilindi. Biroq, ularni aniqlash, baholash va modellashtirishga nomoddiy oqimlarga bag'ishlangan logistika bo'limlarini yetarli darajada nazariy va uslubiy o'rganishda bir qancha qiyinchiliklar tug'ilayotgani ko'rinib qolmoqda. [2,3].

Muammoni ishlab chiqish darajasida o'rganish, so'nggi yillardagi nomoddiy oqimlarni aniqlash, baholash va modellashtirish muammolarini aniqlash logistika sohasida olimlar va amaliyotchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilib keldi. Shunday qilib, xorijiy mualliflar orasida G.G.Azgaldov, P.Boer, S.V.Valdaitseva, A.N.Kozyrev, V.L.Novoseltseva, R.L.Parr, R.Razgaitis, R.Reilly, S.A.Smirnov, G.V.Smit, M.A.Fedotova, D.Fridman, G.Xarrisonlar, nomoddiy oqimlarni baholash borasida oqimlarni har tomonlama ilmiy tadqiq qilganlar. Biroq, logistika sohasida nomoddiy oqimlarni aniqlash, baholash va modellashtirishga qaratilgan e'tibor hali hamon yetarli darajada emas. Logistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishda nomoddiy oqimlarning rolini baholash sohasida ilmiy, o'quv-uslubiy va ilmiy-amaliy ishlar eng maqbul yo'l hisoblanadi. Shuningdek, logistika biznesini o'rganish va tadbiriq etish amaliyoti tomonidan ko'rilayotgan logistika tashkilotlarining nomoddiy oqimlarini aniqlash, baholash va modellashtirish masalalarini har tomonlama qamrab oladigan ilmiy ishlar rivojlanayotgan logistika sohasi darajasida yetarli bo'lmay qolmoqda. [6]

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi logistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning nomoddiy aktivlarini aniqlash, baholash va modellashtirish bo'yicha nazariy va uslubiy qoidalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ish natijalari bo'yicha logistika tashkilotlarining nomoddiy oqimlarini ahamiyatini baholash va qo'shimcha raqobatbardosh muhitini yaratish, investitsiya strategiyasini tanlash va investor vakili bo'lgan logistika tashkilotining investitsion jozibadorligini aniqlash uchun ularning samarali tuzilishini modellashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Ish natijalari "Logistika" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, universitetlarning iqtisodiy mutaxassisliklari, ombor ishchilari, transport boshqaruvchilari, bo'xona xodimlari, malaka oshirish va o'quv kurslarida tayyorlash uchun foydalanishga tavsiya etish mumkin.

Ushbu maqolada "Logistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotning nomoddiy oqimlarini identifikatsiyalashning nazariy asoslari" nomoddiy oqimlar logistikada daromad manbai sifatida ko'rib chiqiladi va aniqlanadigan va aniqlanmaydigan nomoddiy oqimlarning turlari va ahamiyati tavsiflanadi. An'anaviy ravishda nomoddiy oqim deb tan olingan axborot texnologiyalari moddiy oqimlar bilan bir qatorda taxminiy qiymatga ega bo'lishi va tashkilotga qo'shimcha qiymat keltirishi mumkinligi ko'rsatilgan (shakl. 1).



Shakl: 1. Logistika tashkilotining nomoddiy oqimlari manbai sifatida yangi axborot texnologiyalari asosidagi ilmiy bilimlar.

Shuningdek, logistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotning qiymat potensialiga ega bo'lgan boshqa nomoddiy oqimlari mavjud deb taxmin qilinadi. Logistika tashkilotining biznes jarayoni moddiy va nomoddiy oqimlar bilan shakllantirilganligi ko'rsatilgan.


Nomoddiy oqimlar biznes jarayonining asosiy elementi hisoblanadi, chunki:

- Ish jarayoni natijasida hosil bo'lgan moliyaviy oqim moddiy oqimlarga kirishni shakllantiradi, nomoddiy oqimlarning mavjudligi, moliyaviy oqim mavjudligidan qat'iy nazar jarayon to'xtab qolmasligini ta'minlaydi.

(Shakl. 2)

- Moddiy boyliklarning biznes jarayoniga kiritilishi ulardan foydalanish to'g'risidagi bilimlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, logistika tashkilotida moddiy oqimlarning yaratilgan qiymati bilim va boshqa aniqlanmagan nomoddiy oqimlar qiymati bilan bog'liq.

- Logistika tashkilotida raqobatbardosh ustunliklarni shakllantiradigan ishlab chiqarish omillari nomoddiy xarakterga ega: bunda mehnat resurslilik, tadbirkorlik, axborot va boshqalar haqida noyob bilimga ega bo'lishdir.



Shakl: 2. Moddiy va nomoddiy oqimlarning biznes jarayoni va moliyaviy oqimi bilan aloqasi.

Shunday qilib, logistikada aniqlanmagan nomoddiy aktivlarning aksariyati shartli ravishda quyidagilarga ega bo'lishi mumkin: tashkiliy tuzilmalar, nou-xau to'plangan bilim va imkoniyatlar (ma'lum manbalarga, bozorlarga kirish imtiyozlari va boshqalar.).

“Nomoddiy oqimlarni logistika tashkiloti samaradorligini oshirish vositasi sifatida modellashtirish” nomoddiy oqimlarni modellashtirishning amaliy muammosini hal qilishni ko’rsatadi, shuningdek logistika tashkilotining nomoddiy aktivlarini baholash metodologiyasini ishlab chiqdi va logistika tashkilotining nomoddiy aktivlarini modellashtirish jarayonini taqdim etadi.

Logistikani tashkil qilish jarayonini loyihalashda omborxonalar, transport, aloqa tugunlari, sheriklik va boshqalarga tegishli har xil turdagi xarajatlar qiymatiga alohida e’tibor qaratiladi.

An’anaga ko’ra, etkazib beruvchidan iste’molchiga tovarlarni ilgari surish maqsadiga erishish uchun tovar birligiga minimal umumiy xarajatlar hisoblab chiqiladi (maqsad jarayondan foydani oshirish hisoblanadi). [5]

Misol tariqasida: bozor segmentini qamrab olish uchun ombor tizimi orqali transport yo’nalishlarini yaratish asosida taqsimlash tizimini tashkil etish mumkin. Qoida tariqasida, ushbu muammoni hal qilish transport vositalarining optimal tarkibi va yuklanishiga asoslangan transport oqimlarini yo’naltirish hisoblanadi. Ushbu yondashuv mazkur ishda kengaytirilgan shaklda ko’rsatilmogda. Muammoning echimi nomoddiy oqimlarni yaratish va amalga oshirish hamda uning muqobil nomoddiy oqimlar bilan mosligi nuqtai nazaridan ko’rib chiqildi. Amaliy muammo misolidan foydalanib, transport vositalari harakati uchun maqbul marshrutlarni hisoblash natijasi nomoddiy aktivlarni yaratish (va amalga oshirish), ya’ni marshrutlashtirishni bilish ekanligi ko’rsatildi. Bitta nomoddiy oqimning o’zaro almashinuvchanligi, shuningdek, muqobil nomoddiy oqim tomonidan marshrutlash haqidagi bilimlar shaklida hududiy lokalizatsiya haqidagi bilimlar shaklida namoyish etildi.

Ushbu ishda amaliy misolda logistika faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxonalar va tashkilotning nomoddiy oqimlarini baholash va nomoddiy oqimlarning umumiy qiymatini maksimal darajada oshirish uchun ob’ektiv funksiyani yaratish metodologiyasi asosida nomoddiy oqimlarni modellashtirish jarayoni tasvirlangan.

Nomoddiy oqimlarni baholash metodikasi.

Sifat va miqdoriy tahlil bosqichlari.

1-jadval.

Tahlil	Bosqich
Sifat	Dastlabki nomoddiy aktivlarni aniqlash
	Iste’molchi uchun etishmayotgan nomoddiy oqimlarni ajratish
Miqdoriy	Etishmayotgan nomoddiy oqimlarning “shartli likvidligi” ni hisoblash, asl va etishmayotgan nomoddiy aktivlarni birlashtirish orqali “umumiy likvidlik” ning maksimal qiymatini topish asosida investitsiya tahlilini o’tkazish
Sifat	Qayta tuzilgandan so’ng nomoddiy oqimlarning “shartli likvidligi” ni kuzatish (ushbu nomoddiy aktivdan biznes jarayonida foydalanishga tayyorligini namoyish etish)

Miqdoriy	Nomoddiy oqimlarning “xususiy likvidligi” tarifi (biznes jarayonidagi o’zgarishlarni sertifikatlash va individual nomoddiy oqimning qiymatini yaratish)
	Nomoddiy aktivlarning “umumiy likvidligi” ni aniqlash (yangi nomoddiy oqimlarning logistika tashkilotining umumiy kapitallashuviga ta’siri xususiyatini tahlil qilish uchun jami nomoddiy oqimlar qiymatining o’zgarishini hisoblash)

Ob’ektiv funktsiya nomoddiy oqimlarning turli kombinatsiyalarini “umumiy likvidligi” ni hisoblashga asoslangan. Bunda maqsad funksiyasini umumiy likvidlik ko’rsatkichini maksimal darajaga ko’tarish hisoblanadi. Maqsad funktsiyasining umumiy cheklovlari quyidagilardir:

- a) modellashtirilgan nomoddiy oqimlarning “xususiy likvidligi” ning ijobiy qiymatlari;
- b) joriy etilayotgan nomoddiy oqimlar yordamida yaratilgan qo’shimcha xizmatlar qismiga tashkilot uchun belgilangan narxda talabning mavjudligi.
- v) nomoddiy aktivlarni kiritish uchun kapitalning mavjudligi.

Xulosa qilib aytilganda ishlab chiqilgan nomoddiy aktivlarni baholash metodologiyasidan foydalanish ombor xizmatlari ro’yxatini kengaytirish bilan bog’liq tashkilotning raqobatbardosh afzalliklarini oshirish zarurligini asoslashga imkon berdi, bu esa o’zaro ishlab chiqarish korxonalari orasidagi bog’liqlik qismida yuklarni qayta yuklash hajmini oshirishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Qurbonov X.A. “The role of transport enterprises in the implementation of international cargo transportation” “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING” 2022/1 123-126 bet
2. X.A.Qurbonov The use of geoinformation systems in the registration of road traffic accidents on highways, ACTA TTPU 2019, 120-124 bet
3. Курбанов Хуршид Азаматович “Повышение эффективности автомобильных перевозок в логистике” «Актуальные научные исследования в современном мире» Выпуск 11(55) ч. 1 137-139 bet
4. Фазлиддин Исматович Баракаев “ Ўзбекистон республикасининг халқаро аҳамиятдаги транспорт йўлаклари бўйлаб жойлашган йўл бўйи хизмат кўрсатиш инфратузилмаси ” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 1845-1850 bet
5. А.Қўзиёв, С.Тўлашев Транспорт тармоғини ривожлантириш юк оқимларини самарали ўзлаштириш масаласининг модели// Журнал ТАҲИ ХАВАРНОМАСИ-Тошкент, 2016.
6. Бўтаев Ш.А., Сидиқназаров Қ.М., Муродов А.С., Қўзиёв А.Ў. Логистика (етказиб бериш занжирида оқимларни бошқариш).-Тошкент: ExtremumPress, 2012.

“BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI”

Pirmetova Faroxat

Xorazm viloyati Xonqa tumani

27-son umumta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi. Ushbu maqolada BMT haqida fikr mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy iqtisodiy, sessiya, BMT assambleyasi, xalqaro hamkorlik. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) — Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash*

Va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa SanFransisko konferensiyasida 1945-yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular soni 189 taga yetdi. BMTning doimiy ish o'rne (shtab kvartirasi) — New York. BMTning rasmiy tillari — ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari bo'lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi. 2000-yil 6—8-sentabrda BMTning 55-sessiyasi doirasida „Mingyillik sammiti“ bo'lib o'tdi. Unda 155 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat boshliqlari ishtirok etdi. Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doir muammolar muhokama qilinib, yangi yuzyillikning dastlabki-yillarida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan qabul qilgan deklaratsiyada 2015-yilgacha ta'minlashda, Bosh Assambleya va BMT boshqa organlari qarorlari amalga bajarilishida yordam beradi. Kotibiyat quyidagi departamentlar va boshqarmalarga bo'linadi: Siyosiy masalalar va Xavfsizlik Kengashi ishlari departamenti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Vasiylik va o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar departamenti, Nazorat boshqarmasi, Xodimlar boshqarmasi, Bosh kotibning ma'muriy idorasi, Ijtimoiy axborot boshqarmasi, Konferensiyalarga xizmat qilish boshqarmasi, Umumiy xizmat boshqarmasi, BMTning Jeneva bo'limi. BMT sessiyasi yilda bir marta chaqiriladi. Xavfsizlik Kengashining yoki BMT a'zolari ko'pchiligining talabi bilan har qanday masala yuzasidan maxsus sessiyalar chaqirilishi mumkin. O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin ko'p o'tmay—1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'ldi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi (1993.24.8). BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan

shug'ullanuvchi tashkiloti — YUNESKOga ham a'zo bo'ldi. O'zbekiston o'z ovozi va mavqeiga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'yyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida (1993-yil sentabr), BMT tashkil etilganining 50-yilligiga bag'ishlangan sessiyada (1995-yil okt.), BMT Bosh Assambleyasining „Mingyillik sammiti“ (2000-yil sentabr) da so'zlagan nutqlari dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi. Xususan, ushbu xalqaro tashkilotning 20-asr so'nggidagi eng yirik anjumanida O'zbekiston rahbari xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi. O'zbekiston Respublikasi BMTning teng huquqli a'zosi sifatida bu eng nufuzli xalqaro tashkilotning maqsad va qoidalariga qat'iy amal qilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yil 24-oktabrda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yalpi xavfsizlikni mustahkamlash tufayli tinchlikni barqaror etish jur'ati bilan to'lib-toshgan 51 mamlakat tomonidan tashkil etildi. Bugungi kunda 185 mamlakat, ya'ni dunyoning qariyb barcha mamlakatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zolaridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi bo'lgan davlat xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari aks etgan, xalqaro shartnomalardan iborat bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida bayon etilgan majburiyatlarni qabul etadi. Nizomga binoan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti to'rtta asosiy maqsadga amal qiladi: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashish, millatlar o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirish, xalqaro muammolarni hal etishda va inson huquqlarini hurmatlashni rag'batlantirishda, xalqaro hamkorlikni barqaror etish hamda ushbu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar sa'y-harakatlari, kelishuvlari uchun markaziy rolni o'ynash.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zolari — mustaqil davlatlardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti butunjahon hukumati emas va u qonunlar qabul qilmaydi. Biroq xalqaro mojarolarni bartaraf etishga va bizning barchamizga daxldor bo'lgan masalalarni hal etish siyosatini ishlab chiqishga yordam bera oladigan mablag'larga ega bo'ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga barcha katta-kichik, boy va kambag'al, turli siyosiy qarashlar va ijtimoiy tizimdagi davlatlar a'zo bo'lib, ular ovoz berish va ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida oltita bosh organ mavjud. Ulardan beshtasi — Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi va Kotibiyat — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi Markaziy qarorgohida, oltinchi organ — Xalqaro Sud esa Niderlandiyaning Gaaga shahrida faoliyat ko'rsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni barqaror etish borasida Xavfsizlik Kengashi bosh javobgarlikni zimmasiga oladi va u tinchlik xavf ostida qolgan kecha yoki kunduzning har qanday daqiqasida chaqirilishi mumkin. Kengash 15 a'zodan tashkil topgan. Ularning beshtasi — Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Birlashgan Qirollik, Amerika Qo'shma Shtatlari va Fransiya — doimiy a'zolar hisoblanadi. Kengashning qolgan

o'n a'zosi Bosh Assambleya tomonidan ikki-yil muddatga saylanadilar. Keyingi-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida Kengashning a'zolar tarkibini o'zgartirish, bu tadbir zamonaviy va iqtisodiy voqelikni yanada yorqinroq aks ettirishi masalasi muhokama qilinayapti. Kengashning qarorlari, uning uchun to'qqiz a'zo ovoz bergan taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi. Kun tartibidagi masalaga Kengashning doimiy a'zolaridan birortasi qarshi ovoz bersa, shuningdek, veto huquqidan foydalansa qaror qabul qilinmaydi. Xalqaro tinchlikka xavf solinganligi haqida kengashga xabar berilganda bu mojaro avvalo tinchlik yo'li bilan bartaraf etish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Kengash, balki bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqadi yoki hakam vazifasini o'taydi. Harbiy harakatlar boshlanib ketgan taqdirda Kengash o't ochishni to'xtatish choralari ko'radi. Shuningdek, u tomonlarni yarashtirish yoki bir-birlari bilan janjallashayotganlarni ajratishga yordam beradigan, tinchlikni barqaror etuvchi missiya yuborishi mumkin. Kengash o'zi qabul etgan qarorlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar qabul qilishi mumkin. U iqtisodiy jazo choralari qo'llashi yoki qurollarni yetkazib berishga embargo qo'yishi mumkin. Juda kamdan-kam hollarda Kengash o'zi qabul qilgan qarorni bajarish uchun a'zo-mamlakatga birgalikdagi harbiy harakatlarga qadar bo'lgan „barcha zarur vositalarni“ qo'llashga vakolat beradi. Shuningdek, Kengash Bosh kotib lavozimiga muayyan nomzodni va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yangi a'zolarini tavsiya etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2014 UN Participation Report. Available at <http://www.state.gov/p/io/rls/rpt/2014/participation/249006.htm> (accessed 22.01.2016).
2. UN Transparency and Accountability Initiative. Available at:
3. <http://usun.state.gov/about/2196/6657> (accessed 22.01.2016).
4. Чуркин: Великобритания, США и Франция узурпировали ключевые посты в
5. ООН [Churkin: UK, USA and France had usurped key positions in the UN (In
6. Russ.)] Available at: <http://tass.ru/politika/2363856> (accessed 15.01. 2016).
7. Statement on Behalf of the Group of 77 and China by H.E. Dr. John W. Ashe, Ambassador and Permanent Representative of Antigua and Barbuda to the United Nations, at the Informal Thematic Debate of the General Assembly on the Theme "Toward a Common Understanding on Management Reform". Available
8. at: <http://www.g77.org/statement/getstatement.php?id=080408> (accessed 15.01.2016).

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISH

Bag'bekova Nilufar Egamberganovna

Xorazm viloyati Xonqa tuman

27-son umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida o'quvchilarning nutqini o'stirish, savod o'rgatish darslari mazmuni, o'quvchilarni nutqini o'stirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Savod o'rgatish metodikasi, o'quvchilarni nutqini o'stirish, og'zaki va yozma nutq, unli, undosh harflar, tovushlar.*

Savod o'rgatish darslari dasturida ko'rsatilgandek haftada 8 soat bo'lib, 4 soat o'qish va 4 soat yozuvga ajratiladi. Savod o'rgatish 2-sentabrdan dekabrning oxirigacha davon etadi. U 2 davrga bo'linadi:

tayyorgarlik davri.

asosiy davr.

Tayyorgarlik davri o'z navbatida 2 bosqichga bo'linadi:

harf o'rganilmaydigan bosqich.

unli tovushlar va undosh tovushlar, harflar o'rganiladigan bosqich. 1-bosqich uchun 10 soat dars ajratiladi. Bu bosqichning vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib intizom qoidalari bilan tanishtirish. Ularga og'zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tuzilishini; tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarda daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi. 2-bosqichga 14 soat dars ajratiladi. Bu bosqichda unli va undosh tovushlar o'rgatiladi. Tovushni ifodalovchi harflar ko'rsatilgach hatf ustida ishlanadi. Tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz, harflarni esa yozamiz, ko'ramiz, o'qiyamiz. Asosiy davr uchun 90 soat dars ajratiladi. Bu davrning asosiy vazifasi bolalarni o'qishga, o'qilgan bo'g'in, so'z va gaplarni yozish va tekshirishga o'rgatadigan davr.

Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra:

tayyorgarlik davri Alifbegacha.

asosiy (Alifbo) davr

Tayyorgarlik davridagi darslar 2 bosqichga ajratiadi.

Birinchi bosqich darslarida o'quvchilar tovush va harfni o'rganishga tayyorlanadi. 1-bosqich darslari "Nutqning fonetik bo'laklarini o'rganish darslari" deb nomlanadi. 2-bosqich darslari "Unli tovush va harflar o'rganiladigan darslar" deb ataladi. Savod o'rgatish

jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra 2 turga ajratiladi. 1. Alifbe darsligi asosidagi o'qish darslari. 2. Yozuv daftari asosidagi yozuv darslari.

Asosiy davr o'qish darslari yangi bilim berish bermasligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi.

Yangi tovush va harf bilan tanishtiriladigan o'qish darsi.

Urganilgan tovush va harflarni mustaxkamlovchi o'qish darsi.

Bilimlarni takrorlash, umulashtirish darsi.

Asosiy davr yozuv darslari esa quyidagi turlarga ajratiladi.

Kichik harf va bosh harf yoziladigan yozuv darsi.

Kichik harflar yoziladigan yozuv darsi.

Bosh harflar yoziladigan yozuv darsi.[1]

O'rganilgan bo'g'un, so'z gaplarni yozishni mashq qilish darslari. Xat savod o'rgatish jarayonida hafta oxiridagi o'qish darslarining 15-20 daqiqasi sinfdan tashqari o'qishga ajratiladi. Savod o'rgatish darslari taqmillashgan analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. Analitik-sintetik tovush metodi nutq haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan, so'zlarning bo'g'inlardan, bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishini o'rgatishda, so'zdan o'rganiladigan tovushni ajratib olish, uni o'rganilgan harflarga qo'shib o'qishga o'rgatishda amal qiladi. Bunday tahlil ishlari savol-javob usulida olib boriladi. Shuning uchun ham bu davrda qo'llaniladigan asosiy usul suhbat, savol-javob usuli sanaladi. Suhbat metodi o'quvchilarni faollashtiradi, nutqiy faziyatga soladi. Savol-javob usulida darsni o'qituvchi har bir material rejasidan beriladigan savollarini tuzib olishi lozim, beriladigan savollar kelgusi bilimlar uchun zamin hozirlashiga ham e'tibor qaratilmog'i zarur. Rasmlar yuzasidan tug'ilgan savollar 4-5 tadan oshmasligi, 3-4 so'zli bo'lishi lozim. Suhbat usuli darsning hamma bosqichida o'tilganlarni so'rash, Yangi bilim berish, yangi mavzuni mustahkamlash, tekshirish, yakunlash jarayonida qo'llaniladi. Ko'rgazmalik metodi. Bu usul chex pedagogi Komenskiy ta'limning asosiy qoidasi deb biladi. «Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi. Ta'lim jarayonida mavhum tafakkuri yaxshi rivojlanmagan boshlangich maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha sezgi organlari ishtirok etishi kerak: ko'rish, eshitish, xatto ta'm bilish sezgisi ham, chunki ular aniq narsa, predmet-xodisaga qarab fikrlaydi. Ta'limda o'quvchilarning bu xususiyatlarini hisobga olish zarur. Alifbe darsligida mazmunli va predmet rasmlar, gap, bo'g'in, so'zga oid nusxalar tabiat qo'ynida dars o'tish, muzeylarga sayohat o'tkazish darslarini ko'rgazmali usullarda o'tkazilgan dars sanaladi. Savod o'rgatishda tushuntirish va bayon qilish usullari ham qo'llaniladi. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tibor berishi, sodda ravon ifodali qilib so'zlashi, materialni izchil qat'iy reja asosida bayon qilish lozim. Shuning uchun o'quvchilarning tinglab uo'tirish imkoniyatlarini xisobga olish zarur. Tushuntirish va bayon qilish usuli Yangi mavzuni yoki mavzuning tushunmay qolgan urinlarini qayta o'rgatishda qo'llaniladi. Bulardan tashqari reprodaktiv metoddan ham foydalaniladi. O'quvchilar uchun tayyor gap so'z bo'g'in tovush nusxalari beriladi. O'quvchilar nusxaga qarab shuncha so'zli gap tuzadilar, uning birinchi so'zi qanday harf bilan yozilishi, oxiriga qanday tinish belgi qo'yilishini izoxlaydi. Bo'g'inlar

soniga qarab So'z o'ylab topadilar, uni bo'g'inga bo'ladilar, bo'g'inlar sonini nusxadagiga taqqoslaydilar. Bu bilan so'zlarni bo'g'inlab o'qishga tayyorlanadilar. Tovush nusxali so'zlar ham o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga da'vat etadi. Yozuv darslarida asosan reproduktiv metodda ish olib boriladi. O'quvchilar daftar va doskadagi ko'rgazmali qurollardagi namunaga qarab nusxa ko'chiradilar. Reproaktiv metod o'qituvchining tushuntirishlari asosida amal qiladi. Chunki o'qituvchi har bir harfni qaerdan boshlanishi, qanday davom ettirilishi, uning boshqa harfga ulanishi haqida tushuntirish beradi. Biroq nusxa ko'chirish avtomatik nusxa ko'chirishga aylanib qolmasligi lozim. O'quvchiga yozadigan bo'g'in, so'z va gapi oldin o'qitilishi kerak. O'quvchi harflarning ulanishini kuzatib uzlashtirishi zarur. Savod o'rgatish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri ongli ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgarlar nutqini eshitish diqqatni to'plash til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish ularining vazifalarini aniqlash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarining o'qishni muvoffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O'qishga o'rgatish uchun avvalo o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: Rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, tahlil qilinadi. So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Ot. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi o'quvchilar uning nomini-so'zni aytadi. O tovushini cho'zib aytadi va o'quvchilardan qaysi tovushni cho'zib aytayotgani so'raladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. O harfi ko'rsatiladi. O'rganilgan harflar ichida bo'g'in o'rganiladigan harf aralashtirilib qo'yiladi, bolalar uning ichidan tanish harfni ajratadilar so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan rasmlil alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush harf bilan tanishtirilgach o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi. O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi kerak. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi. Bo'g'in o'qish xar bir darsda izchil olib boriladi. Bunday jadvallardan foydalanish mumkin.[2]

Alifbe sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan sung xor bilan o'qish, yakka o'qishdan shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtiradi. Matndagi so'zlarni sinf doskasida bo'g'inlarga bo'lib yozish o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi. Alifbe sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan: 3 tovushdan tuzilgan, 4 tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda olam, Mannon tipidagi bo'g'inlarda –o-la:m, ma:n-no:n tarzidagi qo'shimcha

chiziqdan, bod-ring, do'st tipidagi bo'g'inga ring, do'st tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bo'lib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi. Har bir o'qish darsida bo'g'in tuzilishi murakkab so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashtiruviga yordam beradi. O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, gap mazmuniga mos yoki, mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib o'qituvchining rag'batiga sazovor bo'lishiga intiladi. Alifbe darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. Ular shularga mos ohang tanlashni, to'xtash, pauza qilish o'rinlarini belgilab olishni taqozo etadi. O'qituvchining tushuntirishi ifodali o'qish namunasini ko'rsatishi katta ahamiyatga ega. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli bo'ladi. O'qish darslarida o'qilgan matnning ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. O'quvchi matnda fikr nima haqida borayotganini aniqlasagina uzida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo'lishi uchun o'qishning zarurligini anglaydi. Ongli o'qishni ta'minlashda matn bilan unga ishlangan rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratishi lozim. She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, hotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim. Demak; o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish suratini oshirish, ufodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari xisoblanadi. Bilish jarayonini faollashtirish hozirgi kunda faqat psixologik muammo bo'lmay, metodik muammo hamdir. Boshlang'ich sinfnig o'ziga hos xususiyati shundaki, bilim berish, uni mustahkamlash, amaliyotga tadbiiq qilish bevosita dars vaqtida amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi o'rganilayotgan materialni o'quvchilar tmonidan ongli, puxta, mustahkam o'zlashtirilishini istaydi. O'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va rivojlantirish ko'p jihatdan ko'rgazmali vositalardan foydalanishga bog'liq. Savod o'rgatish darslarini muvoffaqiyatli uyushtirish uchun "Harf kassasi", "Harf terish kartoni", "Sirli mato" kesma bo'g'in, so'z kartochkalar, til hodisalariga oid nusxalar, mazmunli rasmlar, predmet rasmlari, texnik vositalardan foydalaniladi. Sinfdan jamoa bo'lib ishlash, o'rganilgan harflar ishtirokida bo'g'in, so'z, ba'zan gap tuzish va o'qishni mashq qilish uchun "Harf kassasi" bo'lishi shart. Kesma harflar yordamida bo'g'in, bir bo'g'inli so'zlar, ba'zan ikki bo'g'inli so'zlar tuziladi. Kesma harflar yordamida tuzilgan bo'g'in va so'zlarning ustida turli xil ishlar o'tkaziladi, bir harfni boshqasi bilan almashtirib yoki harf, ba'zan bo'g'inning o'rnini almashtirib yahgi bo'g'in yoki so'z hosil qilinadi va o'qitiladi, so'zning ma'nosi ustida ishlanadi. Sirli mato o'rnida "Magnit xattaxta"dan foydalanish mumkin.[3]

Bunda harf karton orqasiga magnit yopishtiriladi. O'quvchilarni yangi tovush va harf bilan tanishtirishda kartondan quyidagicha maket tayyorlanadi. Rasimli alifbo ham o'quvchilarda tovush tanishtirishda juda qilay. Buning uchun albom varag'i olinadi. Uning yuqori qismiga predmetning rangli rasmi yopishtiriladi. Uning tagiga nomi o'rganilayotgan

tovush o'rniga nuqta qo'yib yoziladi. Harakatli ko'rgazmaning asosan predmitlarni guruhlash mantiqiy mashqlarni qiziqarli uyushtirishda ahamiyati katta. U ikki buklangan kartondan tayyorlanadi. Masalan kartonning ichiga o'rmon qiyofasini tasvirlovchi rasmlar yopishtiriladi. O'rmonda yashovchi hayvonlar orqasiga ip yelimlanib kartonning birinchi betiga yopishtiriladi va uchinchi betiga ip o'tkaziladi. Hayvonlar tilga kirganda ip tortilsa hayvonlar harakatga keladi. Predmet rasmlaridan to'g'ri talaffuzga o'rgatishda ham, tovush va harf bilan tanishtirishda ham foydalaniladi. Texnik vositalarga magnitafon, radio, televizor, epidiaskop kiradi. Masalan: epidiaskop orqali harf, bo'g'in, so'z, gap va rasmlar kattalashtirilib ko'rsatiladi. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish, nutqni ravon, ifodali bo'lishi uchun magnitofondan foydalaniladi. Xattaxta, kesma bo'g'inning o'zi ham eng qulay ko'rgazma sanaladi, Alifbe uchun yozilgan tarqatma materiallar ham o'quvchini o'qishga o'rgatishda qulay ta'limiy vosita hisoblanadi. [4]

XULOSA:

Demak, ko'rgazmali vositalarning o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, bo'g'inlab o'qishga, ifodali o'qishga, fikrlashga o'rgatishda, nutq o'stirishda ahamiyati katta. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning DTS o'quv dasturi. [1]
2. Q. Abdullayeva va boshqalar. "Savod o'rgatish metodikasi". "O'qituvchi" 1996. [2]
3. T. Jabborova. X. G'ulomova. G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari. [3]
4. Birinchi sinf uchun dasturlar. "O'qituvchi" 1996 [4]

**“BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHDA O`QITUVCHINING ROLI”**

Abdullayeva Saida Ismailovna

Xorazm viloyati Xonqa tuman

27-son umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va ota-onalar o'zilar uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.*

Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. “create

” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yo'qlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan

noto`g`ri fikrning tug`ilishiga asos bo`la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo`ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta`lim jarayonida o`quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o`zlashtirishga oid mexanizmgina bo`lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o`quv vaziyati ta`lim jarayonini tashkil qiluvchi o`zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o`qituvchi bilan o`quvchilar hamkorligi;
- o`quvchilarning o`zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O`qituvchi bilan o`quvchilarning hamkorligi o`qituvchining o`quvchilarga ko`rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o`quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o`qituvchi bilan o`quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o`sib o`tadi. Materiallar tahlilining ko`rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o`zlashtirish mahsuldor bo`ladi. Ilmiy manbalarda ta`limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko`ra hamkorlikdagi mahsuldor o`quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko`rsatib o`tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta`limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko`ra shaxs o`z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko`zga tashlanadi.

2. O`qituvchi-o`quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog`liqligi tamoyili. O`quv jarayonida o`quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O`quvchilarning ta`limga qay darajada ixlos qo`yishi o`qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog`liq. O`qituvchi bilan o`quvchilarning o`quv faoliyatidagi muhitning to`g`ri uyushtirilishi o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g`ayratini sarflashga undaydi. Bu o`zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o`quvchi o`zini pedagogik ta`lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O`qituvchining o`rganilayotgan fan bo`yicha qaysidir bir ma`lumotga aniqlik kiritish paytida o`quvchilarga yordam so`rayotganday murojaat qilishi hamkorlik

faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O`quvchilarni o`rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o`qish-o`qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishningagina sharti bo`lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O`quvchi o`qitish va tarbiyalash jarayonining o`zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta`lim jarayonida o`quvchi bilan hamkorlik munosabatini o`rnatish lozimligini ta`kidlab, shunday deydi: «O`quvchining o`quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o`quv materiali va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta`lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko`ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo`lgan muhitda o`quvchi o`quv topshiriqlarini oson

o`zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi».

Boshlang'ich ta'lim - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbqiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Hato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O,,zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O,,zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O,,zbekiston", 2016 yil, 56 bet.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 bet

4. Davletshin M.G., Do„stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To„ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O„quv metodik qo„llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.

5. Innovatsion ta„lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016

6. Jo„rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta„lim aasoslangan o„quv-metodik qo„llanma. –T.: Fan, 2005, 66 b.

7. Adizov B. Boshlang„ich ta„limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan. dok. ... dis. –Toshkent, 2003. – 276 b.

8. Aliyev A. O„quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi,1991.40bet.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI

Kabulova L.B

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti t.f.d., dotsent

Kazaxbayeva Umida Ziuatdin qizi

Xabiyeva Gulbaxor Mengliboy qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

2-bosqich magistrantlari

Izbasarova Guljayna Baxtibay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va o'qitish metodikasi talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Mazkur maqolada kimyoviy texnologiya darslarida o'qitish metodikasi mavzusida bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *ilmiy fikrlash, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya jihozlari, pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodikasi, kimyoviy jarayon.*

KIRISH

Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, texnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa kimyoviy texnologiya fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya jihozlari o'rni beqiyos bo'lib, shu darslarni olib borishda yangi metodlar o'qituvchiga qo'l keladi.

Yangi pedagogik texnologiyalar bilan o'tkazilgan darslar talabani mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o'zaro bir-biri bilan muloqatga va xattoki o'zi xulosa chiqarishga o'rgatadi. Maqolada keltirilgan o'qitish metodikasi kimyoviy texnologiya darslarini yanada qiziqarli o'kazishga va barcha talabalarni dars davomida faol qatnashishiga undaydi.

ASOSIY QISM

"Metod" so'zi yunoncha bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "tadqiqot, nazariya, o'qitish yo'li" degan ma'noni anglatadi. O'quv jarayonida metod muayyan ta'lim maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi va talabalarning o'zaro bog'langan faoliyatining tartibli usuli sifatida ishlaydi.

O'qitish metodi, eng avvalo, o'qituvchining maqsadini va uning mavjud vositalar yordamida faoliyatini nazarda tutadi. Natijada o'quvchining maqsadi va uning mavjud vositalar bilan amalga oshiriladigan faoliyati paydo bo'ladi. Ushbu faoliyatning ta'siri ostida o'rganilayotgan mazmuni talaba tomonidan o'zlashtirish jarayoni paydo bo'ladi,

ko'zlangan maqsad yoki o'rganish natijasiga erishiladi. Bu natija metodning maqsadga muvofiqligi mezonini bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, har qanday o'qitish metodi o'qituvchining maqsadli harakatlari tizimi bo'lib, o'quvchining bilim va amaliy faoliyatini tashkil qiladi, ta'lim mazmunini o'zlashtirishni ta'minlaydi va shu bilan o'quv maqsadlariga erishadi.

Ma'lumki, fanning mazmunining komponenti - dunyo, shu jumladan materiallar, kimyoviy texnologiyalar va kimyoviy jarayonlar dunyosi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, birinchi navbatda, faol idrok etishni talab qiladi, u dastlab hissiy idrok sifatida davom etadi: ingl. teginish, eshitish, ta'm, teginish. Talaba nafaqat voqelikni, balki uni kimyoviy tushunchalar, texnologiyalar, nazariyalar, formulalar, kimyoviy reaksiyalar tenglamalari va boshqalar shaklida ifodalovchi belgilar, belgilarni ham idrok etib, ularni real ob'ektlar bilan bog'laydi, ularni o'z tajribasiga mos keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Kimyoviy texnologiya asosiy o'qitish metodikasi talabalarni o'qitish va tarbiyalash metodikasidir. Kimyoviy texnologiya metodikasi, boshqa o'quv predmetlari o'qitish metodikasi kabi, asl mohiyati bilan olganda, uchta asosiy masalani:

- 1) ta'lim-tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalarini;
- 2) bu ishning mazmuni;
- 3) talabalarni ma'lumotli qilish va tarbiyalash protsessining xarakterini hal qilib beradi.

O'qituvchi o'z faoliyatida rejissyor, aktyor, muxarir, tashkilotchi vazifasini bajarishga majburdir, ulardan bittasi bo'lmasa bu o'qish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Kimyoviy texnologiya o'qitish metodikasi darslarida Universitet ziyolilari yangi bilim bermay, o'zini bilimni talabaga yetqazish uslublarining metodlarini o'rgatadilar. Kimyo uslublari umumiy pedagogik yo'nalishlardan farqlanishi mumkin, shu sababli kimyo o'qitish metodikasi quyidagi uch vazifani bajarishga harakat qiladi:

- 1) Universitet kimyoviy texnologiya darsligi uchun kerakli hajmda dalillarni tanlash;
- 2) Kimyoviy texnologiya dars berish usullarini tanlash;
- 3) Talabalarning bilimini oshirishda o'qituvchi faoliyati orqali kitob va kimyo texnologik vositalardan foydalanishni talabalarga o'rgatish.

Kimyoviy texnologiya fanining xulosalari hayot bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishini va falsafali talqin qilishini talab qiladi. Kimyoviy texnologiya darsini o'qitish talabalarda asta-sekin kimyoviy dunyoqarash hosil qilishi kerak.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, Kimyoviy texnologiya o'qitish metodikasi pedagogika fani bilan chambarchas bog'liq. Chunki uning ta'limiy funksiyasi pedagogika qonuniyatlariga asoslanadi. Uning metodologik asosi esa milliy istiqloq g'oyasidir. Kimyoviy texnologiya metodikasining ta'sir etish obyekti har xil saviyadagi, turli xarakter va qiziqish xususiyatlari turlicha bo'lgan har xil yoshdagi o'quvchilardir. Universitet uchun yoziladigan kimyoviy

texnologiya fanlari darsliklari talabalarning aqlliy faoliyatlari va bilim darajalariga asoslanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.N.Borisov. Kimyo o'qitish metodikasi. T. 1966 y.
2. Yosh ximik ensiklopedik lug'at. T. 1990 y.
3. Yu.V.Pletner, V.S.Polosin. "Ximiya o'qitish metodikasidan praktikum. T.: 1981 y, 207b
4. <https://www.conferences.uz/>

NEVROZLAR NAZARYASI VA REAKTIV PSIXOZLAR

Akmal Gaybiyev Aminjonovich

Sammi 1 klinikasi nevrologiya va nevraxirurgiya kafedrasida pjd dotsenti

Meyliyev Elbek Elmurod o'gli

Samarqand davlat tibbiyot universiteti xalqaro davolash fakulteti 304 gruppada talabasi

Annotatsiya : *Ma'lumki ko'pincha nevroz belgilari asta-sekin, kamroq hollarda to'satdan paydo bo'ladi. Bemorlar o'z kasalliklariga to'g'ri va tanqidiy qaray oladilar, ongi saqlanib qoladi va o'z-o'zini boshqara oladilar. Nevrozlarning quyidagi turlari farqlanadi: nevrasteniya, isterik nevrozlar va miyadan ketmaydigan holatlar (obsessiv) nevrozlar.*

Kalit so'zlar: *Nevroz, omillar, irsiy, ko'nikma, esterik nevroz, miya, psixogin;*

"Nevroz" tushunchasi tibbiyotga 1776 yilda shotland vrachi V.Kollen tomonidan kiritilgan. U bu xastalikni funksional xususiyatga ega ekanligini ta'kidlab, bosh miya tuzilishida organik o'zgarishlar bo'lmasligini bayon qildi. Nevrozlar funksional-qaytish xususiyatiga ega bo'lgan xastalik bo'lib, ruhiyatga shikastlovchi omillar (ko'pincha turmushning bo'lmasligi va kamroq hollarda og'ir ruhiy ta'sirotlar)ga shaxsning reaksiyasidir. Nevrozlar kelib chiqishiga turli omillar sabab bo'ladi. Bu omillar qatoriga irsiy omillar, stress, ruhiy jarohatlar, tarbiyadagi kamchiliklar, mehnat faoliyatining o'zgarishi natijasida bemorning yangi sharoitga ko'nikishi qiyin bo'lishi kabilari kiritiladi.

Nevrasteniya (astenik nevroz) - asabiy va ruhiy zaiflik holati bo'lib, hayot yoki ish faoliyati sharoitlariga moslasha olmaslik natijasida kelib chiqadi. Bu kasallik mutlaqo sog'lom kishilarda qattiq charchash, zo'riqish oqibatida kelib chiqishi mumkin. Nevrasteniyaning klinik ko'rinishida quyidagi belgilar kuzatiladi: qo'zg'aluvchanlik, bezovtalik, ortiqcha ta'sirchanlik, kayfiyatni o'zgaruvchanligi, uyqu va ishtahaning yo'qolishi, bosh og'rishi, bosh aylanishi, yurak sohasida nohush og'riqlar va sezgilar, oshqozon sohasidagi og'riqlar, ko'ngil aynashi, qusish kabi belgilari kuzatiladi. Bemor mehnat qobiliyatining pasayishiga, xotiraning susayishiga, tez-tez toliqib, ishga yaroqsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Bemor o'z diqqat-e'tiborini jamlay olmaydi, uyqusi buziladi, tez qizib ketadi, asabiylashadi yoki umuman hamma narsaga befarq bo'lib qoladi. Tashqi ta'sirlarga ovoz, yorug'lik, shovqindan qattiq ta'sirlanib, ichki a'zolarida nohush og'riq his qiladi. Doimo kayfiyati tushkun bo'ladi. Kunduzi bemorlarni mudroq bosadi, kechalari esa chuqur toliqib uxlay olmaydi va tez-tez uyg'onib turadi. Nevrasteniyaning davomiyligi turlichadir, u bir necha oydan bir necha yilgacha davom etadi. Nevrasteniya giperstenik va gipostenik turlariga bo'linadi. Giperstenik turi uchun betoqat bo'lish, asabiylashish, arzimagan narsadan qattiq ta'sirlanish, diqqatni buzilishi kabi belgilariga xosdir. Gipostenik turi uchun mehnat qobiliyatining pasayishi, jismoniy va ruhiy faollikning susayishi, toliqish, apatiya, uyquchanlik belgilari xos bo'ladi.

Isterik nevroz - psixogen va funksional tabiatdagi kasallikdir. Isterik nevrozda harakat, sezuvchanlik va somato-vegetativ sohaning funksional o'zgarishlari kuzatiladi. Bu kasallik alomatlarini paydo bo'lishi ruhiy omillar bilan bog'liq, ammo shularga mos holda organik o'zgarishlar yo'qligi aniqlanadi. Shuningdek, isterik nevroz bemorlar o'z xohishini amalga oshira olmaganida boshlanib qoladi. Isterik nevrozning klinik ko'rinishidagi ruhiy buzilishlarning yorqinligi, tomoshago'yligini ko'satish uchun qilayotganligi ko'rinib turadi, bemor qaysi kasallikni bilsa, o'shanga o'xshash alomatlar namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Klinicheskie razbori v psixiatricheskoy praktike. / Pod red. Prof. A.G.Gofmanana - M.: medpress - inform, 2006. – 704 p.
- 2.Morozov B.M. Izbrannie trudi. – M.: Media medika, 2007. – 292 p.
- 3.Psichiatriya: nacionalnoe rukovodstvo / pod red. T.B. Dmitrievoy, B.H. Krasnova, H.G. Neznanova, B.Ya. Semke, A.C. Tiganova. – M.: GEOTAR – MeDIA, 2009. – 1000p
- 4.Racionalnaya farmakoterapiya v psixiatricheskoy praktike: rukovodstvo dlya praktikuyuwih vrachey / Pod obwey red. Yu A. Aleksandrovskogo, N.G. Neznaova. — Moskva: Litterra, 2014. — 1080 p.
- 5.Snejnevskiy A.V. Obshaya psihopatologiya: Kurs lekciy : ME Dpress informm, 2008. – 208p.

UCHQUDUQ TIPIDAGI KONLARNI O'ZLASHTIRISHDA YER OSTIDA QUDUQ ORQALI ERITMAGA O'TKAZISH USULIDAN FOYDALANISHNING GEOTEXNOLOGIK SHARTLARI

Abdug'aniyev Firdavs Sherzod o'g'li

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Konchilik fakulteti,
23^a-20 NRM guruhi talabasi*

Rashidova Ra'no Kayimovna

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Konchilik fakulteti, "Noyob va
radioaktiv metal rudalarini qazib olish va qayta ishlash" kafedrasida dotsent v.b. t.f.f.d PhD*

Annotatsiya: *Uchquduq tipidagi uran konlarining geotexnologik sharoitlari deganda uranni yer ostida eritmaga o'tkazish usulini (YOQEO') qo'llash imkoniyati, kinetikasi va natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy omillar majmui tushuniladi. Bunday sharoitlarni o'rganish ba'zi xususiyatlarga ega bo'lib, (YOQEO') texnologiyalarini tanlash konlarni xarakterli belgilarga ko'ra rayonlashtirish bilan qulay va noqulay omillarni aniqlashga asoslanadi. Ushbu xususiyatlar tadqiqot jarayonida aniqlanadi: Jinslarning litologik turlari, rudali (mahsuldor) gorizontlarning geokimyoviy va gidrogeokimyoviy sharoitlari; (YOQEO') jarayoniga ta'sir qiluvchi tabiiy omillar (o'tkazuvchanlik, karbonat miqdori, rudali gorizontlarning sulfid miqdori va boshqalar); (YOQEO') dan foydalanish shartlarida farq qiluvchi tabiiy va texnologik zonalar. Tabiiy omillarning xarakteristikalaridagi keng ko'lamlil o'zgarishlar konlarni (YOQEO') usuli bo'yicha o'zlashtirishga yaroqliligini har tomonlama baholash uchun ularni tiplashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi.*

Kalit so'zlar: *geotexnologiya, eritmaga o'tkazish, YOQEO', jinslarning litologik turlari, karbonat miqdori, sulfid miqdori, geokimyoyo, gidrogeokimyoyo, mahsuldor gorizont.*

Аннотация: *Под геотехнологическими условиями урановых месторождений учкудукского типа понимается комплекс природных факторов, существенным образом влияющих на возможность применения, кинетику и результаты способа подземного выщелачивания (СПВ) урана. Изучение таких условий имеет некоторые особенности, а выбор технологий СПВ базируется на выделении благоприятных и неблагоприятных факторов с районированием месторождений по характерным признакам. Указанные особенности выявляются в процессе исследований: литологических типов пород, геохимической и гидрогеохимической обстановки рудовмещающих (продуктивных) горизонтов; природных факторов, влияющих на процесс СПВ (проницаемости, карбонатности, сульфидности рудовмещающих горизонтов и т.п.); природно-технологических зон, отличающихся по условиям применения СПВ. Широкий диапазон изменения характеристик природных факторов предопределяет необходимость их типизации для комплексной оценки пригодности месторождений к разработке способом СПВ.*

Ключевые слова: *геотехнология, выщелачивания, СПВ, литологический тип пород, карбонатности, сульфидности, геохимия, гидрогеохимия, продуктивный горизонт.*

(YOQEO') usuli bilan konlarni o'zlashtirishning fundamental imkoniyatlarini belgilovchi hal qiluvchi omillarga rudalarning mahsuldorligi va unumdor gorizontlarning jinslarining o'tkazuvchanligi kiradi. Infiltratsiya tipidagi konlarni ushbu usul bilan o'zlashtirish tavsiya etiladi, agar unumdor gorizont o'tkazuvchan jinlar bilan ifodalangan va suv bosgan bo'lsa, rudadagi foydali komponentlar mineral shakllar bilan ifodalanadi, kislotalarning zaif suvli eritmalari yoki gidroksidi metall tuzlari bilan osongina ochiladi.

(YOQEO') usulining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

unumdor gorizontdagi jinlar va rudalarning o'tkazuvchanligi nisbati;

ruda tanasining paydo bo'lish chuqurligi, yer osti suvlarining pyezometrik darajasi va bosimi (eritmalarini ko'tarish narxiga ta'sir qiladi);

ruda tarkibining chiziqli koeffitsienti (ruda qalinligining gorizont qalinligiga nisbati), eritmalarining suyultirish darajasiga ta'sir qiladi;

ishonchli suvli qatlamlarning mavjudligi.

Qizilqum hududi sharoitida ikkinchi darajali omilga qatlam suvlarining harorati misol bo'la oladi.

Haqiqiy sharoitda asosiy omillar hal qiluvchi bo'lishi mumkin.

Xarakterlash omillari o'zlashtirilgan konlardagi omillarning minimal qiymatlaridan bir necha marta (> 2) yuqori bo'lgan depozitlar juda qulaydir, hozirgi bosqichda (YOQEO') dan foydalanishning chegaraviy shartlariga to'g'ri keladi va qulay deb hisoblanadi va agar ular maxsus tadqiqotlardan foydalanishni talab qilsa, u holda yer osti quduq orqali eritmaga o'tkazish usulidan foydalanish shartlari bo'yicha ular noqulay hisoblanadi.

Ruda qatlamining unumdorligi (rejadagi konning birlik maydoniga foydali komponentning zaxirasi) (YOQEO') eritmalarining sifatini belgilaydi. Uran uchun rudalar unumdorligi bilan ajralib turadi: juda kam (1 kg/m^2 dan kam), past mahsuldor ($1-3 \text{ kg/m}^2$), oddiy ($3-5 \text{ kg/m}^2$) va yuqori mahsuldor (5 kg/m^2 dan) ortiq. Qizilqum hududi konlarida 2 va 3 turdagi ruda konlari ustunlik qiladi.

O'tkazuvchanlik darajasiga ko'ra, yer osti quduq orqali eritmaga o'tkazish usuli uchun eng mos bo'lganlar filtrlash koeffitsienti sutkada 1,0 m dan ortiq bo'lgan jinlar bilan ifodalangan suvli qatlamlardir. Sutkada 1,0 m dan kam filtrlash koeffitsienti bilan eritmalarining kerakli tezligini yaratish uchun sezilarli bosim gradienti talab qilinadi, bu noqulay omil hisoblanadi, chunki bu bo'g'ilish hodisalariga va jinslarning mexanik kolmatatsiyaga olib kelishi mumkin. Yaxshi o'tkazuvchan jinlarda kanallar hosil bo'lishi mumkin, bu esa yer osti qatlamlarida eritmaga otkazish jarayoni uchun sharoitlarni yomonlashtiradi.

Mahsuldor gorizontlar jinslarining filtratsiya xossalariidagi farq filtrlashning xilma-xillik koeffitsienti $K_{\phi H}$ bilan tavsiflanadi, bu uning qaysi qismi bir xil filtrlash koeffitsientli konlar bilan ifodalanganligini ko'rsatadi. Shu asosda konlar juda bir jinsli ($K_{\phi H} > 0,75$), bir jinsli ($K_{\phi H} = 0,75 \dots 0,50$), xilma-xil ($K_{\phi H} = 0,50 \dots 0,25$) va juda xilma-xil ($K_{\phi H} < 0,25$) ga bo'linadi. Qizilqum hududida, asosan, 1-, 2- va kamroq tez-tez 3-turli mahsuldor gorizontlar rivojlangan.

Minerallanish yaxshi o'tkazuvchan bo'lmagan qumlar bilan o'ralgan past o'tkazuvchan jinslar bilan chegaralangan konlar yer osti eritmaga o'tkazishdan foydalanish uchun noqulay hisoblanadi. Bunda ishchi eritmalar asosan ruda jismlarini chetlab o'tib chiqindi jinslar orqali filtrlanadi.

Jarayonga mahsuldor gorizontlarning asosiy jinslarining ishtiroki tufayli mahsuldor eritmalarning suyultirilishini baholash uchun nisbiy suv o'tkazuvchanligidan foydalanish taklif etiladi (ruda qatlamining filtratsiya koeffitsienti mahsulotining uning qalinligiga nisbati mahsuldor gorizont jinslarining filtrlash koeffitsienti va uning samarali qalinligi). Samarali qalinlik deganda yer osti eritmaga o'tkazish jarayonida ishtirok etuvchi mahsuldor gorizont jinslarining qalinligi tushuniladi. Qalinligi 10 m gacha bo'lgan holda, samarali qalinlik hosildor gorizontning qalinligiga to'g'ri keladi (juda qulay sharoitlar), 20 m (qulay sharoitlar) unumdor gorizont qalinligida 15 m dan oshmaydi va ko'p jihatdan 20 m mahsuldor gorizont qalinligi (noqulay sharoitlar) bo'lgan texnologik quduqlar tarmog'iga bog'liq.

Dala hududida bir nechta suvli qatlamlar bo'lishi mumkin, ulardan unumdor gorizontlar akvlyuzlar bilan ishonchli himoyalangan bo'lishi kerak. Suvli qatlamlar orasidagi "gidravlik oynalar" mavjudligi eritmalarning suyultirilishiga yoki tarqalishiga yordam beradi.

Rudali gorizontning paydo bo'lish chuqurligi quduqlarni loyihalash, ularni qurish va ishlatish xarajatlariga ta'sir qiladi. Qizilqum viloyatida chuqurligi 100 m dan ortiq bo'lgan konlar (Beshkak, Lyavlyakan, Ketmenchi, Shimoliy va Janubiy Bukinay, Uchquduqning Aytim uchastkasi va boshqalar) ustunlik qiladi. Hozirgi vaqtda mahsuldor gorizontlarning chuqurligi 700 m gacha bo'lgan konlarni (YOQEO') usuli yordamida texnik jihatdan o'zlashtirish mumkin.

Rudali gorizontning qalinligi foydali komponentni (S:Q nisbati) ajratib olishning ma'lum darajasida oksidlangan tosh massasi (Q) birligi uchun ishchi eritma miqdorini (S) aniqlaydi, mahsuldor eritmalar sifatini va reaktivlarning narxi. Shu asosda qalinligi ruda tanasining qalinligidan 10 baravar ko'p bo'lmagan rudali gorizontlarga ega konlar eng qulay hisoblanadi.

Yer osti suvlarining chuqurligi va bosimi eritma ko'tarilishi va eritma bilan ta'minlash shartlarini belgilaydi. Yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin bo'lganda, eritmani suv omboriga quyish talab qilinadi, bu esa uni quduqlar orasida teng ravishda taqsimlashni qiyinlashtiradi. O'z navbatida, yer osti suvlarining chuqur joylashishi nasos quduqlaridan (Shimoliy Qanimex, Shimoliy Mayzak) kerakli oqim tezligini olishni qiyinlashtiradi. Qizilqum hududida qatlam suvlari chuqurligi 100 m gacha bo'lgan hosildor gorizontlar ustunlik qiladi.

Ikkinchi xususiyatga ko'ra, suvli qatlamlar bosimsiz, ozgina bosimli (100 m gacha), o'rtacha bosimli (100 dan 300 m gacha), yuqori bosimli (300 m dan ortiq) ga bo'linadi. Qizilqum mintaqasi konlarida oxirgi ikki turdagi suvli qatlamlar ustunlik qiladi. Yer osti suvlarining bosim xususiyati (50 m dan ortiq tomdagi bosim) YOQEO' uchun qulay omil hisoblanadi.

Infiltratsion konlarni YOQEO' usuli bo'yicha o'zlashtirish uchun ruda va asosiy jinslarning moddiy tarkibi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu birinchi navbatda, eritma eritmalarining unga nisbati bilan baholanadi. Shu asosda ruda va asosiy jinslar quyidagilarga bo'linadi:

kam karbonat, kam sulfid (CO_2 yoki $S_{\text{пир}}$ miqdori 2% dan kam);

karbonat, sulfid (CO_2 yoki $S_{\text{пир}}$ miqdori 2 dan 5% gacha);

kuchli karbonatli, kuchli sulfidli (CO_2 yoki $S_{\text{пир}}$ miqdori 5% dan ortiq).

Agar konda zararli aralashmalar tarkibi turlicha bo'lgan rudalar mavjud bo'lsa, ular ham shu xususiyati bilan ajralib turadi. Kislota usuli uchun karbonatlar salbiy rol o'ynaydi, karbonat usuli uchun - sulfidlar, oksidlovchi vositani qo'llashda barcha usullar uchun - uglerodli moddalar va sulfidlar. Bir konda (masalan, karbonatsiz, kuchsiz karbonatli va karbonatli rudalar o'zlashtirilgan Shimoliy Konimex koni) har xil turdagi rudalar uchraydi, bu esa ularni o'zlashtirish uchun yer osti quduq orqali eritmaga o'tkazishning turli usullarini qo'llash zarurligini belgilaydi.

Zararli aralashmalarining past miqdori va kislotalar yoki gidroksidi metall tuzlarining zaif suvli eritmaları bilan oson ochiladigan mineral shakllardagi foydali tarkibiy qismlarning ustunligi bo'lgan rudali jinslarning asosan kvarts tarkibi (YOQEO')dan foydalanish uchun qulaydir.

Rudali jinslardagi zararli oson eriydigan birikmalarning ko'payishi oksidlash jarayonini sezilarli darajada murakkablashtirishi, reagentlar narxini oshirishi va ba'zi hollarda qazib olish usullaridan birini (kislota yoki karbonat) butunlay chiqarib tashlashi mumkin.

Uchquduq tipidagi konlar rudalari tarkibiga polivalent (U, Re, Mo, Se, Y qism) va bir valentli (Se, Y, V qism, ko'pchilik TR) elementlar kirishi mumkin, bu esa eritmani tanlashga, uning konsentratsiyasiga ta'sir qiladi va oksidlovchi vositadan foydalanish zarurati tug'iladi.

Yer osti suvlarining yuqori harorati qulay omil hisoblanadi, chunki ko'p hollarda u yer osti qatlamlarida geterogen eritmaga o'tkazish reaksiyasini tezlashtiradi, shuningdek, ishchi eritmalarga nisbatan qatlamning o'tkazuvchanligini yaxshilaydi.

YOQEO' usuli bo'yicha bo'limdagi ruda konlarining tuzilishi va o'zgaruvchanligi haqidagi tafsilotlar an'anaviy qazib olish usullari kabi muhim emas, chunki eritmalar doimo ruda mineralizatsiyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri egallagandan ko'ra sezilarli darajada kattaroq hajmdagi yer osti qatlamlari bilan aloqa qiladi. Shu bilan birga, ruda konlarining murakkab ko'p bosqichli tuzilishi eritmalarıni suyultirishga va reaktivlar sarfini oshirishga yordam beradi. YOQEO' jarayoni uchun rejadagi ruda konlarining konfiguratsiyasi va o'lchamlari va birinchi navbatda ularning kengligi muhimroqdir. Bu ko'rsatkich bo'yicha tor konlar (100 m

gacha), o'rtacha keng (100 dan 300 m gacha) va keng (300 m dan ortiq) yotqiziladi. Boshqa sharoitlar teng bo'lsa, keng konlar qulayroqdir.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, "rudaning geotexnologik darajasi" tushunchasi YOQEO' va an'anaviy kon usullari uchun bir xil ma'noga ega. Biroq, YOQEO' jarayoni muqarrar ravishda rudadan bir qator xossalari bilan farq qilishi mumkin bo'lgan asosiy jinslarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun yer osti quduq orqali eritmaga o'tkazish usuli uchun geotexnologik xaritalashda ruda navlaridan tashqari rudali gorizont jinslarining geotexnologik turlarini ham aniqlash zarur. Bunday holda, rudaning o'tkazuvchanligi bo'lishi mumkin: jinslarning o'tkazuvchanligidan katta yoki teng, jinslarning o'tkazuvchanligidan kamroq.

Qizilqum hududi konlarida ustun bo'lgan birinchi geotexnologik turdagi ruda konlari qulay, ikkinchisi YOQEO' usulida qazib olish uchun noqulay. Ko'pincha aralash turdagi mahsuldor gorizontlar ham mavjud.

2-расм. ТТЗ-100К.11 тракторининг қўшимча охирги узатмаси мойидаги ейилиш маҳсулотлари концентрациясининг агрегатни синаш давомийлигига боғлиқлиги: $P=0,5$ МН, $d_{cp}=0,000012$ м, $n_1=(500$ айн/мин) 30 айн/мин., $m=0,010$ м.

Буни синов бошида мойга қўшилган абразив зарралар, шестернялар тишларининг контакт зоналарида ва думалаш подшипникларида майдаланиб кетиб, пассив ҳолатга ўтиб қолиши билан изоҳлаш мумкин. Кейинги қўшилмалар сабабли майдаланмай қолган абразив зарралар улуши бир мунча кўпаяди. Абразив зарралар қўшиш сони кўпайгач, ушбу улуш ҳам ортади [2].

Шестернялар тишлари ва шлицали бирикмаларнинг ейилиш миқдори микрометраж усули [3, 4] билан, синовдан олдин ва ундан кейин, тишларнинг геометрик параметрларини ўлчаб топилди, натижалар 1 ва 2-жадвалларда келтирилди.

1-жадвал.

Қўшимча охири узатма шестернялари тишларининг ейилганлигини ўлчаш натижалари.

Синов давомийлиги, с		Абразив улуши		Тишнинг ейилиши, мм			Мойдаги ейилиш маҳсулотлари массаси, г	Мойдаги ейилиш маҳсулотлари концентрацияси, %
				Каллаг и	Қутб и	Пойи		
Стендда	Эксплуатацияда	Рақами	Миқдори, г					

Етакловчи шестерня

0	0		0	0	0	0	0	0
12	200	1	3	0,01	0,001	0,01	0,81	0,007
24	400	2	30	0,02	0,003	0,02	1,64	0,014
36	600	3	30	0,04	0,005	0,04	3,28	0,028
48	800	4	30	0,07	0,010	0,07	6,12	0,053
60	1000	5	30	0,13	0,017	0,12	10,94	0,094

Етакланувчи шестерня

0	0		0	0	0	0	0	0
12	200	1	30	0,008	0,001	0,01	0,84	0,007
24	400	2	30	0,015	0,002	0,01	1,67	0,014
36	600	3	30	0,029	0,004	0,03	3,34	0,028
48	800	4	30	0,055	0,007	0,05	6,32	0,052
60	1000	5	30	0,098	0,013	0,09	11,13	0,093

2-жадвал.

Қўшимча охири узатма шлицалари тишларининг ейилишини ўлчаш натижалари

Синаш двомийлиги, с		Абразив порцияси		Шлицанинг қалинлиги ейилиши	Мойдаги ейилиш маҳсулотлар и массаси, г	Мойдаги ейилиш маҳсулот ари концентра цияси, %
Стендда	Эксплуата- цияда	Рақа- ми	Миқ- дори , г			

Етакловчи вал шлицалари саккизта

(шестерня остидаги шлица узунлиги 65 мм, баландлиги 4 мм)

0	0		0	0	0	0
12	200	1	30	0,052	0,91	0,08
24	400	2	30	0,089	1,49	0,013
36	600	3	30	0,126	2,08	0,018
48	800	4	30	0,163	2,66	0,023
60	1000	5	30	0,200	3,25	0,028

Етакловчи шестерня шлицалари саккизта (шестерня остидаги шлица узунлиги 65 мм, баландлиги, 4 мм)

0	0		0	0	0	0
12	200	1	30	0,037	0,61	0,006
24	400	2	30	0,060	0,98	0,009
36	600	3	30	0,083	1,35	0,012
48	800	4	30	0,106	1,72	0,015
60	1000	5	30	0,129	2,09	0,018

Етакланувчи вал шлицалари саккизта

(шестерня остидаги шлица узунлиги 65 мм, баландлиги 4 мм)

0	0		0	0	0	0
12	200	1	30	0,55	0,64	0,006
24	400	2	30	0,077	1,06	0,010
36	600	3	30	0,099	1,48	0,013
48	800	4	30	0,121	1,90	0,017
60	1000	5	30	0,143	2,32	0,020

Етакланувчи шестерня шлицалари саккизта

(шестерня орасидаги шлица узунлиги 65 мм, баландлиги 4 мм)

0	0		0	0	0	0
12	200	1	30	0,028	0,46	0,004
24	400	2	30	0,046	0,75	0,006

36	600	3	30	0,064	1,04	0,009
48	800	4	30	0,082	1,33	0,011
60	1000	5	30	0,100	1,62	0,04

Шундай қилиб ўтказилган микрометраж натижалари шунини кўрсатадики шестерня тишларидаги энг катта ейилиш, тишнинг каллагиди 0,13 мм ва оёқ қисмида 0,12 мм содир бўлиб, унинг қутбиди энг кичик ейилиш 0,017 мм кузатилди. Етакловчи вал шлицалари ейилиши 0,2 мм етакланувчи вал шлицалари ейилишига кўра 0,143 мм кўпроқ, ва етакловчи шестерня шлицалари ейилиши 0,129 мм етакланувчи шестерня шлицаларидан 0,1 мм кўпроқлиги аниқланди. Шлицалик бирикмаларда, шлицанинг каллагиди унинг оёқ қисмига қараганда каттароқ ейилишга эга бўлиши аниқланди. Шестернялар тишлари ва шлицали бирикмаларнинг ейилиш миқдори микрометраж усули билан, синовдан олдин ва ундан кейин, тишларнинг геометрик параметрларини ўлчаб топилган натижалар жадвалларда келтирилди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Крагельский И.В. и др. Основы расчетов на трение, износ. - М.: Машиностроение, 1977. - 526 с.
2. Чернавский.С.А, Боков.К.Н, Курсовое проектирование деталей машин. –М.: Машиностроение, 1987. - 416 с.
3. Иргашев А. Оценка износостойкости узлов трения качения, работающих в абразивной среде. –Т. ТашГТУ, 1996. – 131 с.
4. Иргашев А. Методологические основы повышения износостойкости шестерен тихоходных тяжело нагруженных зубчатых передач агрегатов машин / Автореф. докт. Дисс. – Т., 2005. - 40 с.

A GOURSE PROBLEM FOR A FOURTH-ORDER EQUATION WITH TWO SINGULAR COEFFICIENTS

Shahobiddin Karimov

Fargona State University

candidate of physics, mathematics, associate professor

Botyrova Khilola Ilhomjon's daughter

Master's student of Fardu

Abstract: *In the article, I showed the method of solving the fourth-order hyperbolic equation using the substitution operator. Nowadays, this method is a developing method and is important in mathematical physics. As a result of the calculations in the article, the solution of the equation is significant.*

Key words: *Bessel operator, Gursa problem, classical solution, singular coefficient,*

1. Introduction. The problem of finding a classical solution of a fourth-order hyperbolic equation with a singular coefficient using the modern method of mathematical physics - the substitution operator is solved in this article. First, we put the problem, for this we enter it like the field for which the solution is sought. The field consists of a rectangle, and the values of the function are given at the boundaries of the field. During the solution of the problem, we take a fixed point from the inside of the field, using it to find the solution in a transparent way. we will have

2. Main part

$\Omega\{(x, y) : 0 < x < b, 0 < y < h\}$ in this field

$$\begin{aligned} I_0^{\alpha, \beta} B_{x, \alpha - \frac{1}{2}} B_{y, \beta - \frac{1}{2}} U(x, y) &= \left(\frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{2\alpha}{x} \frac{\partial}{\partial x} \right) \left(\frac{\partial^2}{\partial y^2} + \frac{2\beta}{y} \frac{\partial}{\partial y} \right) U = \\ &= \frac{\partial^4 U}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{2\alpha}{x} \frac{\partial^3 U}{\partial x \partial y^2} + \frac{2\beta}{y} \frac{\partial^3 U}{\partial y \partial x^2} + \frac{4\alpha\beta}{xy} \frac{\partial^2 U}{\partial x \partial y} = 0, \end{aligned} \quad (1)$$

let's look at the equation here

$$B_{x, p} \equiv \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{2p+1}{x} \frac{\partial}{\partial x} \quad \alpha, \beta, p \in R, 0 < \alpha, \beta < \frac{1}{2} \quad \text{-- Bessel differential operator}$$

The general solution of equation (1) has the following form

$$\begin{aligned} U(x, y) &= \frac{y^{1-2\beta}}{1-2\beta} g_1(x) + g_2(x) + \frac{x^{1-2\alpha}}{(1-2\alpha)(1-2\beta)} \int_0^y [y^{1-2\beta} - t^{1-2\beta}] t^{2\beta} f_1(t) dt \\ &\quad + \frac{1}{1-2\beta} \int_0^y [y^{1-2\beta} - t^{1-2\beta}] t^{2\beta} f_2(t) dt \end{aligned} \quad (2_1)$$

or

$$U(x, y) = \frac{x^{1-2\alpha}}{1-2\alpha} f_1(y) + f_2(y) + \frac{y^{1-2p}}{(1-2\alpha)(1-2p)} \int_0^x [x^{1-2\alpha} - s^{1-2\beta}] s^{2\alpha} g_1(s) ds + \frac{1}{1-2\alpha} \int_0^x [x^{1-2\alpha} - s^{1-2\beta}] s^{2\alpha} g_2(s) ds \quad (2_2)$$

here $f_k(y), g_k(x), (k = 1, 2)$ arbitrary continuously differentiable functions.

For equation (1), Ω we study the analogue of Gursa's problem in the field.

Gursa issue. Ω in the area (1) of this equation

$$U(0, y) = \varphi_1(y), \quad \lim_{x \rightarrow +0} x^{2\alpha} U_x(x, y) = \varphi_2(y), \quad 0 \leq y \leq h, \quad (3)$$

$$U(x, 0) = \psi_1(x), \quad \lim_{y \rightarrow +0} y^{2\beta} U_y(x, y) = \psi_2(x), \quad 0 \leq x \leq l; \quad (4)$$

find a classical solution satisfying the conditions here $\varphi_k(y), \psi_k(x) (k = 1, 2)$ given functions.

To solve this problem, the general solution (21) is optional by putting conditions (3) and (4) $f_k(y), g_k(x), (k = 1, 2)$ we find functions.

$$f_1(y) = y^{-2p} [y^{2p} \varphi_2'(y)]', \quad f_2(y) = y^{-2\beta} [y^{2\beta} \varphi_1'(y)]',$$

$$g_2(x) = \psi_1(x) \quad g_1(x) = \psi_2(x)$$

Found $f_k(y), g_k(x), (k = 1, 2)$ putting (2₁) into the general solution,

$$U(x, y) = \psi_1(x) + \frac{y^{1-2\beta}}{1-2\beta} \psi_2(x) + \frac{x^{1-2\alpha}}{(1-2\alpha)(1-2\beta)} \int_0^y [y^{1-2p} - t^{1-2\beta}] t^{2\beta} t^{-2\beta} [t^{2p} \varphi_2'(t)]' dt + \frac{1}{1-2\beta} \int_0^y [y^{1-2\beta} - t^{1-2p}] t^{2p} t^{-2p} [t^{2p} \varphi_1'(t)]' dt$$

we create a solution.. $\varphi_1(y)$ and $\varphi_2(y)$ xosilalari qatnashgan integrallarini hisoblaymiz.

We calculate the integrals involving derivatives

$$U(x, y) = \varphi_1(y) + \psi_1(x) + \frac{y^{1-2\beta}}{1-2\beta} \psi_2(x) + \frac{x^{1-2\alpha}}{(1-2\alpha)} [\varphi_2(y) - \varphi_2(0)] - \varphi_1(0)$$

Teorema. If $0 < \alpha, \beta < \frac{1}{2}$, $\varphi_k(y) \in C[0, h] \cap C^2(0, h)$, $\psi_k(x) \in C[0, l] \cap C^2(0, l)$, be

$\varphi_k(y)$ function $y \rightarrow +0$ in 2β from small and $\psi_k(x)$ function $x \rightarrow +0$ in 2α from may have a small specialty.

Then this

$$U(x, y) = \varphi_1(y) + \psi_1(x) + \frac{y^{1-2\beta}}{1-2\beta} \psi_2(x) + \frac{x^{1-2\alpha}}{(1-2\alpha)} [\varphi_2(y) - \varphi_2(0)] - \varphi_1(0) \quad (5)$$

function is the only solution to the Gursa problem.

To prove the theorem, it is necessary to show that function (5) satisfies equation (1) and conditions (3), (4).

For this, we check that function (5) satisfies conditions (3) and (4). $\varphi_2(0) = 0$ from equality $U(0, y) = \varphi_1(y)$, $\lim_{x \rightarrow 0} x^{2\alpha} U_x = \varphi_2(y) - \varphi_2(0) = \varphi_2(y)$, it follows that the conditions are

appropriate. $\varphi_2(0) = 0, \psi_2(0) = 0$

tengliklardan

foydalanib

$$U(x, 0) = \varphi_1(0) + \psi_1(x) + \frac{x^{1-2\alpha}}{1-2\alpha} [\varphi_2(0) - \varphi_2(0)] - \varphi_1(0), \quad U(x, 0) = \psi_1(x) \quad \lim_{y \rightarrow 0} y^{2\beta} U_y = \psi_2(x)$$

We show that the conditions are appropriate. We take the necessary derivatives from the function (5) and check that it satisfies the equation (1).

$$U_x(x, y) = \psi_1'(x) + x^{-2\alpha} \varphi_2(y) + \frac{y^{1-2\beta}}{1-2\beta} \psi_2'(x)$$

$$U_{xy}(x, y) = -2\alpha x^{-2\alpha-1} \varphi_2'(y) + y^{-2\beta} \psi_2''(x)$$

$$U_{xyy}(x, y) = -2\alpha x^{-2\alpha-1} \varphi_2''(y) - 2\beta y^{-2\beta-1} \psi_2''(x)$$

$$U_y(x, y) = \varphi_1'(y) + \frac{x^{1-2\alpha}}{1-2\alpha} \varphi_2'(y) + y^{-2\beta} \psi_2(x)$$

$$U_{yy}(x, y) = \varphi_1''(y) + \frac{x^{1-2\alpha}}{1-2\alpha} \varphi_2''(y) - 2\beta y^{-2\beta-1} \psi_2(x)$$

$$U_{yyx}(x, y) = x^{-2\alpha} \varphi_2''(y) - 2\beta y^{-2\beta-1} \psi_2'(x)$$

$$U_{xy}(x, y) = x^{-2\alpha} \varphi_2'(y) - 2\beta y^{-2\beta-1} \psi_2'(x)$$

$$U_{xyy} + \frac{2\alpha}{x} U_{xy} + \frac{2\beta}{y} U_{yyx} + \frac{4\alpha\beta}{xy} = -2\alpha x^{-2\alpha-1} \varphi_2''(y) - 2\beta y^{-2\beta-1} \psi_2''(x) +$$

$$+ 2\alpha x^{-2\alpha-1} \varphi_2''(y) - 4\beta x^{-1} y^{-2\beta-1} \psi_2'(x) - 4\alpha\beta y^{-1} x^{-2\alpha-1} \varphi_2''(y) + 2\beta y^{-2\beta} \psi_2''(x) +$$

$$+ 4\alpha\beta x^{-2\alpha-1} y^{-1} \varphi_2'(y) + 4\alpha\beta x^{-1} y^{-2\beta-1} \psi_2'(x) = 0$$

the theorem is proved

V. Summary

An analogue of the Gursa problem was studied for this third-order pseudohyperbolic equation with singular coefficients. It is shown that the solution of the Gursa problem is equivalent to the Volterra integral equation of the second kind. In the second paragraph, the solution to the Gursa issue is clearly found. The property of the fractional Erdely-Kober operator being a substitution operator was used to find the solution. In this case, the solution of the auxiliary problem to the Gursa problem was brought to the studied Gursa problem using the property of the Erdely-Kober operator, and the solution of the problem was found using this solution. After that, the solution of the main problem was found using the solution of the auxiliary problem.

LIST OF REFERENCES:

1. Операторы Эрдейи-Кобера и их приложения к дифференциальным уравнениям в частных производных: монография; научное издание; на русском языке; /А.К Уринов, Ш.Т. Каримовю – Фергана: изд «Фаргона»,2021. -202 стр.

2. Sobolev S.L. Ob odnoy kraevoy zadachi matematicheskoy fiziki. Izv. AN SSSR, Ser. Matem.–1954. –t. 18, No 2, –s. 3–50.

3. Sveshnikov A.G., Alshin A.B., Korpusov M.Yu., Pletner Yu.D. Lineynye i nelineynye uravneniya Sobolevskogo tipa. –M.: Fizmatlit, 2007.

COVID-19 DAN KEYINGI BURUNNING HID SEZISH FUNKSIYASIDAGI BUZILISHLARI

O.M.Umarov

PhD: Ilmiy rahbar: FJSTI Stomatologiya va Otorinolarologiya Kafedrası mudiri

Mirzaqandov Elyor Erkinjon o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi kunda ko'p uchrayotgan kasalliklardan biri Covid-19 dan so'ngi hid bilish sezgisidagi o'zgarishlar, bu buzilishlarni hozirgi zamonaviy davolash usullari, kasalliklarini diagnostikasi va bu bilan kasalangan bemorlarni davolashni takomillashtirish haqida bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *kokosmiya, giposmiya, anosmiya, parosmiya.*

KIRISH

Koronavirusga chalingan ko'plab bemorlar hid bilan bog'liq muammolardan shikoyat qilishmoqda. Kimdir hid sezish qobiliyatini butunlay yo'qotgan (bu vaziyat anosmiya deb ataladi), boshqa birov uni yomonroq seza boshlagan (giposmiya), kimningdir esa bu sezgisida nosozlik kuzatilib, hamma narsa ko'ngilni ozdiruvchi hid taratayotgandek (parosmiya). Ba'zida bu kabi holat kovidning yagona alomati bo'lsa, ba'zan boshlang'ich, ba'zan esa eng so'nggi belgisidir.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda koronavirusga chalingan bemorlarda hid bilishdagi muammolar ko'plab uchramoqda shulardan yevropaliklar orasida har ikkinchi odamda, Osiyo mamlakatlaridagi bemorlarning esa 17 foizida kuzatilmoqda.

Koronavirusga chalingan bemorlarda hid bilishdagi buzilishlar 1-2 haftadan 6 oygacha bo'lgan muddatgacha cho'zilishi mumkin. Hid bilish maydoni (regio olfactoria) burun bo'shlig'ining yuqori qismida joylashgan. U burun tomidan boshlab o'rta burun chig'anog'ining medial chetigacha bo'lgan maydonni hamda shu sathga to'g'ri kelgan burun to'sig'i shilliq pardasini egallaydi. Hid bilish maydoninigi shilliq pardasi hid bilish epiteliysi bilan qoplangan, yuzasi 24 sm²ni tashkil qiladi. Hid bilish epiteliysi orasida tozalash vazifasini bajaruvchi hilpillovchi epiteliy maydonchalari ham uchraydi. Hid bilish epiteliysi bazal, tayanch va sensonevral hujayralardan tuzilgan. Tayanch hujayralar sarg'ish pigmentga ega, shuning uchun rinoskopiyada hid bilish maydoni sarg'ish bo'lib ko'rinadi. Hid bilish hujayralari ipsimon shaklda bo'lib, periferik tolalarining (dendritlar) uchi kengayish hosil qiladi. Bu hujayralarning markaziy tolalari esa (aksonlar) hid bilish iplari (fila olfactoria) tarkibida yuqoriga ko'tariladi va elaksimon plastinka tirqishlaridan o'tib, kalla suyagi bo'shlig'iga kiradi. Bu erda hid bilish yo'lining I-neyroni hid bilish asab tolasining piyozchasida (bulbus olfactoria) tugaydi. II-neyron tractus olfactoria tarkibida trigonum olfactorium, substantia perforata, septum pellucidum sohasiga etib borib, o'sha joyda tugaydi. Bu erdan boshlangan III-neyron bosh miya po'stloqining hid bilish markaziga boradi. Hid bilish maydonining shilliq pardasida serozli suyuqlik ishlab chiqaruvchi oddiy

va shoxli naysimon Boumen bezlari mavjud. Ular ishlab chiqargan suyuqlik hidli moddalarni eritish qobiliyatiga ega. Tayanch hujayralar ishlab chiqaruvchi pigment ham ushbu jarayonda ishtirok etadi.

Hid sezish normal (normosmiya), pasayishi (giposmiya), yo'qolishi (anosmiya) va yo'q narsalar hidi (kokosmiya). Hid bilishni Brenshteyn shkalasi bo'yicha tekshiriladi va (I.II.III.IV darajalari) aniqlanadi. Buzilish darajasi va muddatiga qarab davolash usulari tanlanadi. Hid sezish retseptorlarini tasirlantrish usuli bunga misol qilib olsak bo'ladi. Yani aromaterapiya, bunda turli xildagi xushboy efir moylardan foydalangan xolda hid sezish retseptorlarini tasirlantrish. Efir moyini paxtaga shimdirgan xolada kuniga 3-4 mahal 5-6 minutdan xar bir burun kataklari orqali hidlash tavsiya etiladi. Bemor turgan xonani tez-tez iforli chiroqlar va shamlar yoki yoqimli hidga ega tayoqchalar yordamida xushbo'ylantrish mumkin. Bundan tashqari koronavirusga chalingan bemorni ruxiy xolatidan kelib chiqib pisixolog muolajalari bilan birga davolash hid bilish sezgisini yanada tezroq tiklanishiga yordam beradi.

XULOSA

Hozirgi kunda butun dunyo axolisi aziyat chekayotgan koronavirus kasalligi tufayli yuzaga chiqadigan hid sezishdagi buzilishlarda aromaterapiyaning axamiyat va o'rni yuqori deb xisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Болезни уха, горла и носа. В.Т. Пальчун 2010й.
2. Эфирные масла-аромат здоровья. Солдатченко С.С. 2003й.
3. Amaliy Otorinolaringologiya. Qunduz Xo'jayeva 2006й.
4. Koppen S., de Groot R., Neijens H. J., Nagelkerke N., van Eden W., Rümke H.
5. C. No epidemiological evidence for infant vaccinations to cause allergic disease // Vaccine. — 2004; 22(25-26): 3375-85.
6. Cullinan P., Harris J., Mills P., Moffat S., White C., Figg J., Moon A., Newman Taylor A. J. Early prescriptions of antibiotics and the risk of allergic disease in adults: a cohort study // Thorax. — 2004; 59(1): 11-16
7. Suyarkulova Madhiya Erkinovna, & Abdullaeva Muazzam Rustamjon kizi. (2022, April 25). PREPARATION OF WOMEN WITH GLOMERULONEFTITIS FOR PREGNANCY. "INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM", USA washington. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6481795>
8. Suyarkulova Madhiya Erkinovna, & Abdullaeva Muazzam Rustamjon kizi. (2022). Prevention of Early Birth in Pregnant People with Kidney Disease. Texas Journal of Medical Science, 7, 101–102. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/1387>

**REAL SEISMOGRAMMA YOZUVLARI TA'SIRIDA UZLUKSIZ MONOLIT KO'PRIK
KONSTRUKSIYALARINING DINAMIK TAHLILI**

Shermuxamedov Ulugbek Zabixullayevich

t.f.d., professor,

Karimova Anora Baxtiyeroyna,

assistent,

Hakimova Yakutxon Tulyaganovna

, katta o'qituvchi

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada seysmik ta'sirlarni hisobga olgan holda uzluksiz temirbeton ko'prik va yo'l o'tkazgichlarga real seysmogramma yozuvlari ta'sirida konstruksiyalarining dinamik tahlil natijalari keltirilgan.*

Annotation: *This article presents the results of dynamic analysis of continuous reinforced concrete bridges and overpasses under the influence of real seismogram records, taking into account seismic effects.*

Kalit so'zlar: *monolit ko'prik, arxitekturaviy ko'rinish, oraliq qurilma, seysmohimoyaviy tayanch qismlar, deformatsion chok qurilmalari*

Keywords: *monolithic bridge, architectural appearance, spanstructure, seismic protective bearings, deformation joints*

2017 yilning 10 oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3309 sonli "Avtomobil yo'llari ko'priklarini, yo'l o'tkazgichlar va boshqa sun'iy inshootlarni qurish hamda foydalanishni tashkil etish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi. Bugungi kunga kelib esa "Harakatlar strategiyasi"ning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma sessiyasida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz" mavzusida so'zlagan ma'ruzasida yangi "Taraqqiyot strategiyasi" asosida qurilish industriyasiga temir va avtomobil yo'llarida transport inshootlar qurilishini yanada jadal rivojlantirish uchun iqtisodiyotning drayver yo'nalishi sifatida alohida o'rin berildi [1-2].

Yuqoridagi qarorlar ijrosi va belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi samarasi o'laroq, hozirgi kunda o'zbek ko'priksozligida, andozaviy loyihalash va qurish prinsiplaridan sekin-asta voz kechib, yangi zamonaviy loyihalash va qurish uslublari o'rganilmoqda hamda yangi texnika va texnologiyalar qo'llanilmoqda. Noan'anaviy usullardan biri – qurilishning monolit usulidir. Dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida monolit ko'priksozlik yaxshi rivojlangan. Monolit qurilish – bu bino va transport inshootlarini barpo etish usuli bo'lib, unda inshootlarning asosiy materiali monolit temirbeton hisoblanadi. Temirbeton konstruksiya mustahkam va uzoqqa bardoshli, shuningdek yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Monolit qurilishning asosiy xususiyati shundaki, monolit ko'priklar va boshqa muhandislik inshootlari uchun material ishlab chiqarish uchun joy bevosita qurilish maydonchasidir. Monolit temirbetondan foydalanish turli xil me'morchilik shakllarini amalga oshirishga imkon beradi, shuningdek po'lat sarfini 7-20% ga, beton sarfini esa 12% gacha kamaytirish mumkin [3]. Bundan tashqari, ushbu usulning bir qator afzalliklari mavjud:

- qurilish tezkorligi. Bu usul tayanchlarni tezkor ravishda o'rnatish va qurilish ishlarini keyingi bosqichga o'tishini soddalashtirish imkonini beradi;

- ishonchlilik. Aniq texnologiyaga muvofiq amalga oshirilgan monolit temirbeton konstruksiya, hisobiy yuklarga nisbatan yuqori mustahkamlik va ustuvorlikka ega bo'ladi;

- narx. Monolit qurilish texnologik jarayoni yetarlicha tez va resurs-tejamkorligi tufayli, bu texnologiya bo'yicha ish qiymati mavjud an'anaviy usullardan ko'ra ancha arzon bo'ladi;

- Arxitekturaviy ko'rinish. Oldindan zo'riqtirilgan monolit temirbetondan tayyorlangan oraliq qurilmalarni murakkab geometrik shakllarda yaratish imkoniyati mavjudligi. Buning natijasida, uning arxitekturaviy go'zalligi shaharsozlik qurilishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi ko'priksizlik sohasining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, shaharlarda monolit ko'prik va yo'l o'tkazgichlarni loyihalash va qurilishning imkoniyati o'ziga xos tadqiqot va ratsional yechim ishlab chiqishni talab qiladi. Shu jumladan, monolit ko'prik va yo'l o'tkazgichlarni texnik yechimlarini (loyihalash va hisobi) ishlab chiqilishi aktual masala hisoblanadi. Bu o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi ko'priksizlik sohasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi [7].

Statik va seysmik ta'sirlar bo'yicha hisob-kitoblarni bajarishda ko'prik konstruktsiyalari odatda kesim-to'sin, uzluksiz-to'sin va konsolli-to'sin sxemalar ko'rinishida modellashtiriladi. Ko'prik konstruktsiyalari ko'plab elementlardan iborat bo'lib, ulardan eng muhimi tayanchlar va tayanch qismlardir. Tayanch qismlari ko'prik strukturasi uchun eng zaif elementlari hisoblanadi, shuning uchun seysmik izolyatsiyalash moslamalari, xususan, kauchuk-metall ishlatiladi. Tayanch qismlari seysmik izolyatsiya qurilmasi bo'lib, past kesish qat'iyligi tufayli ishlatiladigan modellarga qarab, oraliqning 0,1 m dan 0,35 m gacha bo'lgan oraliqda harakatlanishiga imkon beradi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun qulay usul - bu chekli elementlar usulidir. Cheklangan element ko'priknining bo'ylama o'qiga perpendikulyar o'qlar atrofida egilish va bo'ylama o'q atrofida buralishni modellashtiradi. Shu munosabat bilan hisob-kitoblar ko'prik konstruktsiyalari uchun chekli elementlar usuli bilan amalga oshiriladi.

Ta'sir turli ball uchun amplitudani to'g'rilash bilan uchta komponentli seysmogrammalarning bir qator yozuvlari shaklida o'rnatiladi. Cheklangan elementlar usuli bilan diskretizatsiyani qo'llashdan keyin strukturaning harakat tenglamasi shaklga keltiriladi.

$$[M]\{\ddot{u}\} + \eta[C]\{\dot{u}\} + [K]\{u\} = \{P\}, \quad (1)$$


masalaning statik yechimidan dastlabki shartlar bilan

$$\{u(t)\}_{t=0} = \{u(0)\}, \quad \{\dot{u}(t)\}_{t=0} = \{\dot{u}(0)\}, \quad (2)$$

Bu yerda $\{u(t)\}$ - konstruksiyaning chekli elementlar modelining tugun nuqtalarining mutlaq siljishlar vektori, nochiziqli masalalar uchun $[M]$, $[C]$, $[K]$ matritsalarini mutlaq siljish vektoriga, $\{P(t)\}$ belgilangan harakat grunt va kuchlarni o'z ichiga oladi. Yer harakati seysmogramma yozuvlari shaklida ko'rsatilgan [5].

Samarqand shahridagi M-39 avtomobil yo'lining 1083-kilometridan o'tuvchi uzluksiz temirbeton ko'priki, har biri bir yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan ikkita alohida ko'priki shaklida bajarilganligini ko'rib chiqamiz. Ko'priknining oraliq qurilmasi uzluksiz monolit temirbeton bo'lib, hisobiy sxemasi 33m + 42m + 33m individual loyihada bajarilgan, uzunligi 110 m va kengligi 10,5 m. Oraliq qurilma fasad bo'yicha o'zgaruvchan (переменной) balandlikdagi plita ko'rinishida amalga oshiriladi, ya'ni tayanchlarda 2,3 m, oraliqlarda 1,3 m (1-rasm). Tayanch qismning vertikal qattiqligi 5,908 x 10⁹ H/m, gorizontaal qattiqligi 4,72x10⁶ H/m. Tayanch qism ikki yo'nalishda kesish va buralishda ishlaydigan chekli element sifatida modellashtirilgan. Oraliq tayanchlarning o'lchamlari: balandligi 5,85 m, fasad bo'ylab kengligi - 2 m, lateral yo'nalishda esa balandligi 5 m dan 8,4 m gacha bo'lgan o'zgaruvchan o'lchamga ega. Ushbu hisob-kitobda biz ularning harakatini harakatga teng deb hisoblaymiz. Barcha konstruksiyalarning materiali mustahkamligi bo'yicha B35 sinfidagi beton bo'lib, solishtirma og'irligi $g = 25000 \text{ N/m}^3$, elastik moduli $E = 35200 \text{ MPa}$, Puasson nisbati $n = 0,2$.

Samarqand hududining seysmikligi 1980 yilda Seysmologiya instituti tomonidan tuzilgan seysmik mikrorayonlashtirish xartiasiga ko'ra 9 va 8 ballga baholangan. Loyihalashtirilgan qurilish uchastkasi 8 ball zonasida joylashgan. Monolit ko'priknining sxemasi shakli 1-rasmda ko'rsatilgan [4-6].




1-rasm. Monolit ko'priknining sxemasi

Seysmik ta'sir tayanchlar va tayanch yuzasining teng siljishi ko'rinishida tayanchlar orqali to'rt nuqtada strukturaga uzatiladi. Ko'priknining boshi - oraliqning chap uchi tayanchga qattiq bog'langan va ko'priknining oxiri - o'ng uchi harakatlanuvchi podshipnik qismlari bilan tayanchga ulangan.


20.06.1990 yildagi Manjil (Eron) zilzilasi, MSK-64 shkalasi bo'yicha 8 ball, seysmik to'lqinlarning tarqalish yo'nalishi bo'yicha maksimal tezlanish, tezlik va siljish: 1,93 m/s²; 0,21 m/s; 0,064 m (2,3-rasm).

Diskretlashtirish uchun ko'priki har bir chekli element turining ishlashini hisobga olgan holda 240 ta chekli elementga bo'lingan. Hisob-kitoblar vaqt qadami 0,005s bo'lgan yashirin sxema yordamida amalga oshirildi. Zilzila qaydlari Yevropa kuchli zilzilalar ma'lumotlar bazasidan olingan [5].

Konstruksiyalarni hisoblari zilzilaning mavjud yozuvlari asosida ishlovchi SHARK dasturi yordamida amalga oshirildi [8].



2-rasm. Ko'prik va tayanch qismi



3-rasm. Zilzila vaqtida 37sekund
vertikal kochishlarning vaqt bo'yicha oraliq'i yuqori va pastki qismlaridagi
o'zgarishi kuchlanishlari

Xulosa. Transport qurilishida mamlakatimiz loyiha institutlari seysmik chidamlilikka ko'priklarni hisoblashda haqiqiy zilzilalar qaydlaridan foydalanmaydi va O'zbekiston hududining situatsion seysmikligi to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi sababli chiziqli-spektral hisob-kitoblar bilan cheklanadi. Shu munosabat bilan bo'ylama va vertikal siljishlarni, shuningdek, ko'prik uzunligi bo'ylab normal kuchlanishni hisoblash natijalari tahlil qilinadi. Raqamli hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, ko'prikning o'ng uchining podshipnik qismi rezina-metall podshipnik qismining maksimal siljishi oraliqning tayanchdan tushishiga yo'l qo'ymaydi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, MSK-64 bo'yicha oraliq konstruktsiya va ko'prik tayanchlari 8 magnitudali zilzila uchun haddan tashqari oshirilgan xavfsizlik chegarasiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 noyabrdagi "Avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanishda ishlarni tashkil etishning ilg'or xorijiy usullarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4035-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrdagi qarori "O'zbekiston Respublikasining avtomobil yo'l tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 5890-son qarori.

3. Mark Bresler, У.З. Шермухамедов. Долговечность и работоспособность элементов системы защиты искусственных сооружений. Деформационные швы, опорные части и сейсмозащитное оборудование мостовых сооружений // Научные труды республиканской научно-технической конференции с участием зарубежных ученых «Ресурсоберегающие технологии на железнодорожном транспорте» 18-19 декабря 2018 г. – с.168-173.

4. Mirzaev I., Anvar Yuvmitov, Malikjon Turdiev and Jakhongir Shomurodov. Influence of the Vertical Earthquake Component on the Shear Vibration of Buildings on Sliding Foundations. E3S Web of Conferences 264, 02022 (2021) CONMECHYDRO – 2021.

5. Ambraseys, N.N., Smit, P., Douglas, J., Margaris, B., Sigbjörnsson, R., Ólafsson, S., Suhadolc, P., Costa, G. Internet site for European strong-motion data. Bollettino di Geofisica Teorica ed Applicata. 2004.

6. Shermuxamedov U., Shaumarov S. Impact of configuration errors on the dynamic oscillation absorbers effectiveness of different masses on the seismic resistance of bridges // XXII International Scientific Conference on Advanced in Civil Engineering. Construction the formation of living environment 2019. April 18-21, Tashkent, Uzbekistan.

7. Shermuxamedov U.Z., Karimova A.B., Abdullayev A.R. Shahar yo'l transporti infrastrukturasi rivojlantirishda zamonaviy monolit ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni loyihalash va qurishning o'ziga xos xususiyatlari // Xorijiy olimlari ishtirokidagi respublika ilmiy - texnika anjumani maqolalari to'plami, Uzbekiston, Toshkent, 18-19 dekabr 2021 yil. - 210-215b.

8. Рашидов Т.Р., Кузнецов С.В., Мардонов Б.М., Мирзаев И. 2019. Прикладные задачи сейсродинамики сооружений. Книга 1. Навруз. Ташкент. 268.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE MANAGER IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Ashurov Jahongir Ergash o'g'li.

*Surkhandarya Region Administration Entrepreneurship and
development of the business environment,
export promotion and support chief specialist of the group.*

Abstract: *In the article, the results of the opinions and analytical research on the role and importance of the manager in the development of small business and private entrepreneurship are concisely described in scientific language, and the relevance of the management system in these processes is specially recognized. Indeed, in the activity of small business and private entrepreneurship, organizational work and its management are important, because managing all work and controlling the activities of an enterprise or firm is the key to its success.*

Key words: *small business, private entrepreneurship, management, market economy, management process, managerial activity.*

INTRODUCTION

Market economy is one of the methods of economic management that has been tested in world practice and has its place and great experience. This experience, in turn, has a century-long history of development and a science that has become a formed system.¹¹

Today, the basis of the achievements of a number of developed countries in the economy is estimated by the market economy, improvement of property forms, sharp structural changes in the economy, and the increase of the share of small business and private entrepreneurship in the gross domestic product.

The transition to a market economy in our republic meets the requirements of human interests. The main purpose of this is to strengthen the social direction of the economy, to organize production based on consumer requirements, and to open a wide path to the freedom of citizens, to make full use of their existing opportunities, to promote entrepreneurial activities based on high productivity, initiative and organization. is to provide.

Our entrepreneurs face a number of problems in achieving their lofty goals, which is especially manifested in the lack of full understanding of the newly formed activity at the level of market laws, lack of rich experience in business organization, planning and management.

¹¹ S. G'ulomov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshkarish" darslik Toshkent - "FAN VA TEXNOLOGIYA" – 2005 3-b.

METHODOLOGY AND EMPIRICAL ANALYSIS

The practical experience accumulated in developed market economy countries shows that one of the main factors of long-term and successful operation of small business and private entrepreneurship and domestic economy is related to the activity of management and managers.

The managerial function of any business is determined by the organizational-private form of the enterprise (firm) and its production stages. For example: in the initial stages of entrepreneurial activity, all tasks are assigned to the entrepreneur, and in the last stages, there is an opportunity to invite (engage) special managers, and therefore, they are basically entrusted with the responsibility of organizing the management of enterprises.¹²

Management is:

- foresight;
- organization;
- allow;
- agreement;
- includes concepts such as control.

Working with people is fundamental in any business form and relationship. In the management system, a person is the main factor in all processes of the company's activity. Everything starts with finding the right people to do the job. This is usually done by the human resources or HR department. If the company does not have such a department, this work will be done by the hiring manager. The manager is not only responsible for finding the right person, but also for the employee's well-being. A worker who performs work that he does not like, is not suitable for, and is not satisfied with the payment of wages, will be unproductive.

Managers are important persons who bring funds to companies and business entities and establish direct contact with customers. Therefore, in the process of organizing the sale, it is necessary to control that they do not turn into filling out forms and preparing data extracts. For this, it is advisable to have assistant managers. Of course, a manager is required to have deep economic knowledge, but at the same time, he should also have a number of qualities.

RESULTS AND DISCUSSIONS

From the analytical practical work, it became clear that management in the field of small business and private entrepreneurship is inextricably linked with economic theory. It is known that the subject of economic theory is socio-economic relations. As small business and private entrepreneurship develops, human activity increases. That is probably why management is connected with the sciences of sociology and psychology. Management is inextricably linked with planning, statistics, accounting, finance and credit,

¹² A.Murodov, L.K.Ko'paysinova, N.U.Arabov "Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari" Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent "ILM-ZIYO" 2016 229-b

labor economics, macro and micro economics and other disciplines. Here are the qualities of a successful salesperson (manager):

1. Orientation to achieve results.
2. Defined by strong interest.
3. Self-confidence.
4. He has an appearance suitable for his work.
5. Honest.
6. Reliable.
7. He knows the product being sold well.
8. Able to listen carefully.
9. Initiative.
10. It is hot.
11. Has high permeability.
12. Talkative.
13. Soft.

CONCLUSION

In conclusion, the function of manager is important in small business and private entrepreneurship. Because an entrepreneur alone cannot create a constructive mechanism of big business, and he is first of all embodied as the founder and provider of resources and investment.

In private and small business, first of all, the managerial task is important in the work process of personnel management, where work with employees is carried out.

Managing employees means ensuring that all employees are working at their best.

REFERENCES:

1. Mirziyoev Sh.M. "Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rules of every leader's activity." - Т.: "Uzbekistan", 2017.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 No. PF-5847 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030".
3. S. Gulomov "Small business and private entrepreneurship: organization, planning, management" textbook Tashkent - "SCIENCE AND TECHNOLOGY" - 2005 p. 3.
4. A. Nizamov, Sh Rahmatov "Development of innovative entrepreneurship in higher educational institutions" Training manual. 2020
5. Ладанов И.Д. Практический менеджмент. Часть I. Менеджер и менеджмент. М.: КПФ «Ника», 1992.
6. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. М.: Контроллинг, 1991.
7. A.Murodov, L.K.Kopaysinova, N.U.Arabov "Fundamentals of entrepreneurship and employment technology" Study guide for vocational colleges Tashkent "ILM-Zlyo" 2016 p. 229.

IKKI ASAR MUTOLAASI

Xolida Musurmonova

O'zJOKU 3-bosqich talabasi

Shahnoza Abduolimova

JDFU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Oybekning “Navoiy” va Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanlari o‘zaro solishtirilgan. Farqli tomonlari ko‘rsatib berilgan, shuningdek mushtarak g‘oyalar ham tahlil qilingan. Ikki asardagi obrazlar, ularning asardagi o‘rni o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, roman, Vosifiy, Xuroson va Movaraunnahr tarixi, Isajon Sulton, xarakter xususiyati, Oybek, Majididdin, peyzaj*

Ikki asar mutolaasi. Ularni birga o‘qigan o‘qirman egizaklarni adashtirib qo‘ygani kabi shoshib qolishi, o‘xshash voqealarni ikki asardan bitta ipga terib, qo‘shib-chatib aytishi bor gap!.. Lekin egizaklar qanchalik o‘xshash, bir ota-ona, bir oila farzandi bo‘lmasin ularning xarakter xususiyati, dunyoqarashi, hatto qisman bo‘lsa-da tashqi ko‘rinishi ham turlicha bo‘ladi. Buni ziyrak kitobxon tez anglashi tabiiy. Biroq inkor etib bo‘lmas yana bir haqiqatimiz borki, bu ikki asar ezgulik yo‘lida birlashgan musht kabi biri-birini to‘ldiradi, biri-biridan kuch oladi.

Bundan bir necha yil oldin Oybekning “Navoiy” romanini ilk marotaba o‘qiganimda “turkiy tilda ko‘p va xo‘b ijod qilgan” bobomizga mehr qo‘ygandim, Oybek mahoratiga tasannolar aytgandim. Har safar bu asar haqida eshitsam, undan iqtiboslar o‘qisam yoxud syujetiga o‘xshash voqealarga duch kelsam ilm ahli Sultonmurodga qo‘l bergan, sarkardalardan ham ortiq mardlik ko‘rsatib qilichini hassa kabi suyab tepalikka shahd ila chiqib ketayotgan, chodiridagi musicha tuxumlarini asrab qolgan, “Gar turo dar bihisht jo boshad, Digaron do‘zax ixtiyor kunand”(Sen jannatga tushadigan bo‘lsang, boshqalar do‘zaxni afzal qiladilar (Oybek, “Navoiy”, Yangi asr avlod-2019, 312-bet) deya vijdonsiz amaldor Majididdinga xayolan hujum qilayotgan, Chashmayi Mohiyon bilan Mashhad o‘rtasidagi taqir yerlarga suv chiqarish g‘amida yurgan kezlarida Astrobodga surgun qilingan xalqparvar, haqiqatpesha, mehribon Navoiy bobom shuurimda gavdalanardi. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanini mutolaa qilib, ma‘lumotlar va tuyg‘u “omborim”ga shoirning bolalik damlari, Mashhad-u Samarqandda chekkan rutubatlari, ota-ona ruhlari uchun Ansoriy maqbarasini supurib topgan quvonchlarini(Isajon Sulton, “Alisher Navoiy”, Adabiyot, 2021, 392-bet) ham qo‘shishim mumkin. Shubhasiz, ikki asar ham kitobxonga Navoiy siymosini yaqinlashtiradi.

“Har kimning qalbida o‘z xalqining jajji qiyofasi yashaydi”, deydi nemis yozuv chisi Gustav Freytag(“She‘r – borliq va yo‘qlik orasi”, Ulug‘bek Hamdam, maqola, “Badiiy publitsistika”, to‘plam, 2017). Ana shunday milliy qiyofani aks ettirish, XV asr Xuroson va

Movaraunnahr tarixi, xarakter, urf-odat, xulq-atvor, turmush-tarzini yoritish, haqqoniy va tarixiy haqiqatlarga muvofiq gavdalantirish ikki adib uchun qanchalik mushkul yoki aksincha bo'lgan, deb o'ylaysiz?

Oybek "Navoiy" romanini yozmoqchi bo'lgan davrda bobomiz qiyofasi quyuq tumanlar ichida chirog'i o'chgan uy kabi zulmatda edi. Lekin Oybek unga pok niyat va ixlos bilan qadam qo'yaverdi, ruhan kurashdi, mafkura va turli davrlar xiralashtirib qo'ygan chiroq oynagini tozalab, qalblarga yorug'lik olib keldi. Oybek Navoiy haqida dastlab eski maktabda eshitadi. Shu davrdan qalban Navoiy navosiga ilhaq bo'lib yashaydi. U yurak talpingan kuylar sari intildi, o'qib-o'rgandi: "Zafarnoma", Koshifiy, Qazviniiy, "Rashoxad-ayn ul-hayot", "Matlab ut-tolibin", Klavixo, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxond, Bobur, Xondamir...

"Bu ishga shu qadar g'arq bo'lgan edimki, romanning ish plani qog'ozda yo'q edi. U mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgan edi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor aqlli ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl, pok ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim. Uning teran, nozik, falsafiy fikrlarini to'la tushunishga urinardim. Roman personajlari haqida, ularning xarakterlari, bir-birlaridan farqi, bir-biriga munosabatini ravshan, yaqqol berish ustida xayol yuritib, obrazlarni tarashlardim. Nihoyat, yurakka yiqqan, yurakda saqlangan bu materialni yoza boshladim. Shuning uchun asar yaratish kabi mushkul, og'ir ish dunyoda yo'qdir, — deyman... chuqur his etish, qalbning zo'r hayajoni, o'tkir fikr, fahm, ajoyib ilhom... bilmadim, yana va na xislatlar kerak", - deb yozgan edi Oybek o'zining "Navoiy" romanini qanday yozdim maqolasida".

Mana shunday samarali mehnatlar tufayli bugungi kitobxon u yaratgan Navoiy obrazini tanidi. Oybek tarixning murakkab davrida yashadi, kommunistlar partiyasi o'shanda jamiyatni harakatlantiruvchi asosiy kuchga aylanib talaygina xayrli ishlarni amalga oshirdi. Xususan, yoppasiga elni ma'rifatlashtirish siyosatini olg'a surdi. Partiya va hukumat bular uchun sarmoya va mablag'larni ayamadi. Lekin shu bilan birga xalqning aql-zakosi, or-nomusi bo'lgan kishilarni qirib tashladi. Qatag'on degan "jazo mashinasi"ni o'ylab topdi, sovet tuzumini yoritish masalalarini yozuvchi va shoirlar oldiga vazifa qilib qo'ydi. 1937–1952-yillarda tikilgan dordlardan arang omon qolgam Oybek mustabid tuzum bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Ana shunday vaziyatda Oybek Navoiy obrazidan kuch va madad oldi. 1937-yil "Navoiy" romani uchun xamirturush vazifasini o'tagan "Navoiy" nomli poema yozdi. Roman ustida ishni 1940-yillarda boshladi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin chinakam dohiylar, sarkardalar, turli sohalarning sardorlariga ehtiyoj kuchayotgan davrda xalqqa bilimli, uzoqni ko'ra oladigan Navoiy obrazi bosh bo'lishi mumkin degan o'ylari xato emasligini angladi. Ana shunday zarurat tufayli romanni tugatish uchun katta ilhom, kuch-g'ayrat bilan ishladi.

U Navoiy bilan yashadi, uning siyratini anglash uchun uyidan hujra ham qurdirdi, sham yorug'ida qalam tebratib, XV asrni his qildi. Shu tariqa bu asar dunyo yuzini ko'rdi. 1941-yil nishonlanishi rejalashtirilgan Navoiy tavalludining 500 yilligi Ikkinchi jahon urushi

tufayli yetti yilga kechiktirildi. 1948-yil bu qutlug' sana o'zbek xalqining milliy bayrami sifatida ilk bor nishonlangandi. O'sha tantanaga ham Oybek Navoiy ruhiga muhabbat bilan bosh-qosh bo'ldi, mas'uliyat bilan tadbirni tashkillashtirdi. Mana shunday mehnatlar samarasi tufayli Oybek Navoiy dek inson qatorida tilga olinish darajotiga erishdi.

Xo'sh, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani uchun qanchalik mehnat qildi, asarning zamonamizga daxldorligi qay darajada?

Isajon Sulton bu romanni 2016–2020-yillarda tamomlaganligi ko'rsatilgan. Roman 2021-yilgacha qayta ishlanib, nashrga tayyorlandi. Bu romanga tarixiy, badiiy, xotira asarlari bilan bir qatorda "Qur'oni Karim" ham asos qilib olindi, asardan Navoiy bitiklari kabi hamdlar o'rin oldi: "Bu ma'voda hech kim o'zining ne ekanini bilmaydi. Biroq o'z tirikligidan, tevaragidagi hayot jo'shqinligidan hayron-hayron turadi. Barchasi o'zlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ajablanib, Olamlar Parvardigoriga shu tiriklik uchun so'ngsiz shukronalar aytishadi"¹. Oybekning "Navoiy" romanidagi voqealarni yanada mufassal o'rgandi, tarixiy haqiqatlarni tikladi, ularni yanada boyitdi. Xususan, Oybek asarida Navoiyning bolalik va yigitlik chog'larini tasvirlashni joiz deb topmasdan, uni Zayniddin va Sultonmurod sog'inib yod olgan yetuk shoirlik davridan asar voqealariga kiritadi va to'qima obrazlar tufayli Navoiyning ideallashtirilgan qiyofasiga kitobxon nigohini qadaydi. Isajon Sulton esa salafлари ijodini to'ldirib bizga Navoiyning bolalik va o'smirlik yillarini ham tuhfa etdi.

Kitob mutolaasi kamayib, ichimizdagi nafs viruslari uchrib yotgan bir davrda bu asar qanchalik ahamiyatli? Bahodir Qobul bugunimiz va Navoiy bobomiz haqida shunday yozadi: "Amir Alisher Navoiyning har satri nafaqat turkiylarning balki insoniyatning yo'l ko'rsatar chirog'i ekanligi allaqachon tan olingan bo'lsa-da, Hazratning yoziqlarini sharillatib o'qib, parillatib aytib berish ajdodlar-avlodlar orzusi bo'lib qolavergan. Hazratning biron bir asarini boshqa kitoblarni o'qigandek erkin va maza qilib o'qishning imkoni yo'q. Sabab, savodsizlik va Navoiyning mangulikka tegishli o'lmas tilidan bebahralik". Bu fikrlarni o'qib, xayolimda savollar aylana boshladi: Biz ilmdan uzoqlashib, ijtimoiy tarmoqlardagi "yurakchalar"ni sanash bilan ovvora, o'zi uyida o'zligiga begona kimsalarga aylanib bormayapmizmi? Hammomdan nopok chiqib ketmayapmizmi? Yaxshilik va yomonlik doim hamroh bo'ladi. To'g'ri, bilim uchun kurashib, ziyo taratayotgan vakillar ham bor, ammo ilm quyoshi faqat kungaylarga to'kilyapti hozir, ammo terskayga ham kun kerak axir. Terskaylarda qolgan qor-u muzchalarning oyoq bossa botadigan balchiqqa aylanib qolmasligi uchun ham ilm ziyolari kerakdek, nazarimda. Tarixda hamma davrlar murakkab bo'lgan va hozir ham yengil davrni boshdan kechirmayapmiz. Albatta, bularning barchasi inson tafakkurida evrilishlar yasaydi. Tarixning murakkab davrida yaratilgan "Alisher Navoiy" romani bizni ilm sari chorlashiga umid qilamiz.

"Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar " uchun otildi;

Oybek "Navoiy" romani uchun nohaq zulmga uchrab, oqibatda tildan ayrildi;

Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin" va "Mirzo Ulug'bek" uchun yigirma besh yilga "kesildi";

Mirkarim Osim tarixiy asarlari uchun o'n yilga qamaldi;

Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" uchun qanday og'ir iztiroblarni boshidan kechirib, umrining oxirida bedavo xastalikka giriftor bo'ldi.

Bu ma'shum ro'yxatni, afsuski, yana davom ettirish mumkin"(Xayriddin Sulton, "Maktub"; "Alisher Navoiy", Adabiyot, 2021, 508-bet). Shu o'rinda tarixiy adolatni yoritib ketishimiz ham kerakki, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi yuksak unvoni bilan mukofotlandi. Navoiy, Oybekning yorqin siymolari yoniga Isajon Sulton ham qo'shildi.

Ikki asarda bir tarixiy shaxsga bag'ishlangani uchun ham o'xshash nuqtalar, ikki xil rakursdan qaralgani uchun farqli tomonlar uchrab turadi. Masalan, Navoiy adabiyotga ixlos qo'yib, g'azali tufayli Lutfiy ehtromiga sazovor bo'lishi bu asarlarda ikki xil tasvirlangan. Oybekning "Navoiy" romanida yosh Alisher shoir Lutfiy yoniga yolg'iz borganligi ko'rsatilgan: "Mana u ko'pdan buyon qilgan kuchli orzuning kutilmagan vaqtda bir qistovi bilan o'rnidan turdi-da, ko'chaga otili. ... O'z tengi bolalar ko'chalarda, tomlarda gala-gala o'ynab yurishadi; kimi yong'oq o'ynaydi, kimi yoydan o'q uzadi. ALISHER – bola esa shaharning Bog'ishamol tarafiga(Isajon Sultonda Lutfiy Hiriyan yarim kunlik masofadagi Dehi Kanorda edi, deya ko'rsatilgan) ildam yurib, serhasham bir eshik oldida to'xtaydi. ...Katta, daraxtzor hovlida hassaga suyalib, asta-asta yurgan mo'ysafidga - zamonning ulug' shoiri mavlono Lutfiyga ko'zi tushishi bilan uzoqdan salom beradi va yugurib, o'zini bir onda cholning yonida ko'radi va unga bolalik ko'zlarining toza samimiyati bilan tikiladi"(320-bet).

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy"sida esa bola Alisherni Lutfiy hazratlarining o'zi chorlaganligi, uning qoshiga tog'alari Mirsaid va Muhammad Ali bilan birga borganligi qayd etilgan: "Oradan bir oyga yaqin vaqt o'tib, boshdan-oyoq changga botgan tog'oyilar kirib kelishdi. Horigan bo'lishsa-da, kayfiyati chog', bir muddat istirohatga ruxsat berilganini, Alisherni mavloni Lutfiy o'z huzuriga chorlaganini aytib, shu sababli to'ppa-to'g'ri shu yoqqa kelaverishganini aytishardi" (73-bet).

Oybek tasviri orqali biz yosh Alisherning ilmga, adabiyotga ishtiyoqi, qiziqishi, iste'dodi nihoyatda kuchli ekanligi, Isajon Sulton tasviri orqali esa yosh jiyanining qobiliyatiga befarq bo'lmagan tog'alari obrazi, ularning ulug' adib hayotida tutgan o'rnini, bu orqali yaxshi shoirni zamona tarbiya qilishini ko'rishimiz mumkin. Albatta, tug'ma iste'dod ham muhim o'rin tutadi, lekin yaqinlar, zamondoshlar e'tirofi Navoiyni kashf qiladi.

Oybekning "Navoiy" romanida shoir atrofidagi oddiy shaxslarni va ularning hayotida adibning darajasi ulug' ekanligini ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton asarida esa voqealar rivoji Navoiy obrazi atrofida aylangan, to'qima obrazlar ham "Navoiy" asarichalik ko'p emas, endi u tarixiy shaxslar, dalil va isbotlar hamda qimmatli maktublar bilan boyigan.

Bir xil voqealar ikki asarda qanday yoritilgan? Keling, bularni, baholi qudrat, ko'rib chiqqamiz?

Husayn Boyqaroda Navoiyni Astrobodga hokim qilish g'oyasi qanday paydo bo'ldi?

Oybekning “Navoiy” romanida kayf-safoga berilib, xazinani ko’kka sovurayotgan podshoga ikki tuman oqcha kerak bo’ladi. Ammo xazinada pul yo’q, uni topib berish va’dasini qilgan Majididdin uni bosh vazir qilishini so’raydi, ayonki, bunda faqatgina Navoiy zulmga to’siq edi. Shu tariqa asarda Navoiy Astrobodga “surgun qilingan”: “- Men sizni Astrobodga yubormoqni munosib ko’rdim, - dedi podshoh ovozini balandroq qo’yib. - Har qanday bahona topsangiz ham qarorimdan voz kechmasmen”(“Navoiy” romani, 310-bet).

“Alsher Navoiy” asarida esa podsho u darajada maishatparast emas, soliqni ham xazina bo’shagani uchunmas, aksincha uni ko’paytirish uchun solish niyatini Majididdindan qabul qiladi, hatto Oybek asaridan farqli unda amaldorlarga ham soliq solinadi: “Mulklar o’lchanib baholanar, hosil chamalanib nisob chiqarilar, to’lov uchun muddat belgilanib, xat imzolatib ketilardi. Avval qora xalq yelkasidagi soliq mashaqqati endi o’rtahollar va yuksak martabali kishilar zimmasiga tushib, hammani esankiratib qo’ydi”(257-bet). Navoiyning Astrobodga hokim qilinishi ham xazina yoki adalatsizlik tufayli emas, zaruriyat jihatidan bo’ladi: “Astrobod bilan Hisor notinch bo’lib, shu ikki navohiyda goh-goh g’alayon olovlari yolqinlanib turardi”(256-bet); “Sulton Husayn a’yonlar bilan kengashib, saxovat-u xulqda benazir Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib tayinlashdan boshqa chora qolmaganini, yo’qsa, sovutlar kiyilib, qilichlar qinidan chiqib, qon to’kilishini tushunib yetdi”(296-bet).

Balki, Oybek davr taqozasi bilan o’sha muhitdagi feodal tuzumni qora bo’yoqlarda berish tufayli “ishchi sinf”, “mehnatkash sinf” degan g’oyalarni olib kirish uchun shunday yo’l tutganmikan?!

“Navoiy” romanida Majididdin soliq yig’ishda To’g’onbekka, “Alisher Navoiy”da Qora Mo’g’ulga suyanishi ko’rsatilgan.

Haydar Sabuhiy va Navoiyning zaharlanish voqeasi

Haydar Sabuhiy ikki asarda ham beqaror, uzoqni ko’rolmaydigan, sayoz kishi deb ko’rsatilgan. Uning achchiq, kinoyali tili tufayli zindonband etilishi Oybekning “Navoiy” romanida kuzatamiz. Bunga sabab, Navoiyning joniga Astrabodda suiqasd qilishlariga qarshi Haydarning tom ma’noda bosh ko’tarishi edi. Ammo Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida zaharlanish voqeasi ig’vo ekanligi yoritilgan: “Men buni demadim. Ayrim kishilar Sulton Husayn Mirzo Alisher Navoiyni Astrobodga atay surgun qildi, hatto zaharlab o’ldirmoqchi degan gap tarqatibdi. Shunday gap-so’zlar uning qulog’iga yetib borgan bo’lsa ajabmas.

- Kim tarqatibdi?

- Amirning o’z jiyani Haydar Sabuhiy. Bu gapni Astroboddan Hirotga kelganida ayrim kishilardan eshitgan emish”(308-bet).

Haydar “qilmishlari” uchun “Navoiy” romanida zindonga tashlangan, keyinchalik darveshlikni tanlagan bo’lsa, “Alisher Navoiy” asarida u bir umrga saltanat ishlaridan chetlashtirilgan.

Navoiyning ukasi Darveshali nega isyon ko’tardi?

“Navoiy” hokimiyatdagi nohaqlig-u adalatsizliklar, Husayn Boyqaroning tartibsiz siyosati Darveshlani to’ydirib yuborganligi uchun qo’zg’olon ko’targaniga ishora qilinadi.

“Alisher Navoiy” romanida buning sabablarini donolik, fahm-u farosatda tengsiz kishi Hoja G’iyosiddin Dehdor tilidan quyidagicha bayon qiladi:

“ - Darveshali bir kitobdor bo’lsa, unda isyon qilmoqqa ne had. Qoldiki, kimlardir bir nimalarni qulog’iga shivirlagan chiqar? Yoki yoshligiga borib, Amir Alisherning Astrobodga yo’nalishidan norizo bo’lsa ajabmas”(307-bet).

Majididdinning porloq quyoshi qanday so’ndi?

Har ikki romanda ham bu obraz poraxo’r, qo’ltiqdan tushganini qo’njiga uradigan, boylik va mansab izidan nomatlub ishlardan ham tap tortmaydigan qilib tasvirlangan. Aynan shu obraz orqali biz boylik, mol-mulk insonga hech qachon vafo qilmasligini bilib olishimiz, xiyla-nayranglarimiz o’z oyog’imizga bolta bo’lishini bilib olishimiz mumkin.

“Navoiy” romanida Majididdinning vazirlik darajasidan tushishiga adolatsizlikka qarshi ko’tarilgan Darveshali isyoni sabab edi. Husayn Boyqaroning nazaridan qolgach esa ayyor Nizomulmulk tufayli boridan, chumoli kabi yig’gan hamma oltin-u kumushlaridan mahrum bo’ladi. So’ng haj safafini o’ziga ma’qul ko’rib To’g’onbek bilan xayrlashib, roman voqealaridan uzoqlashadi. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida bu hol ham, Majididdinning tole yulduzi so’nishi ham bu asardan farqli tasvirlanga va uning hokimyat tepasidan ketishi romanda quyidagicha ochib berilgan: “Haydar Sabubiy” zaharlanish bilan bo’liq gap-so’zni mastlik chog’i Abdulloh Noiy degan kishidan eshitganiga iqror bo’ldi. Bu bemulohaza yigitga had urish jazosi belgilandi va bir umrga saltanat ishlaridan chetlashtirildi. Abdulloh Noiyning istab borganlar esa uni kimlardir ikki kun avval uyida o’ldirib ketishganidan xabar topishdi. U Majididdin eshigida xizmatchi bo’lgan ekan. Shu tariqa, ip uchlari Majididdinga borib taqaldi”(309-bet). Ikkala asarda ham ochko’z vazir boyligi Amir Muhammad Ali Atka tomonidan musodara qilinadi. Ammo Isajon Sulton Majididdinga ayblarni bo’yniga qo’yishda olib kirgan tasviri, mening nazarimda, tabiiylikdan yiroq. Negaki, shunday chor-nochor Majididdinning ruhiy holati yaxshi ochib berilmagan, kitobxonga g’alizlik tug’dirgan. Asarda Majididdinni “qulatish” uchun maydonga o’zi ishdan bo’shatgan Muhammad Amruobodiy kirib keladi va Majididdinga uning bir og’iz kamsitish so’zi yetib borgach, u hamma aybini shunchaki tan oladi, boridan ayrilgach vazirni hajga yuborish qaroriga keladilar, so’ng vazir Makkaga ketyotganda yo’lda noma’lum qotillar tomonidan o’ldirib ketiladi. Bular shunchaki voqeanavislikdek tuyildi menga. Balki, uning qo’rqoqligini bo’rttirish uchun shunday qilingandir, yana o’ylab ko’rsa arziydi, bu bir kitobxon nigohim xolos.

Oshpaz Abdusamad va xizmatchi Abdulloh Noiy -- taqdirlari o’xshash ikki personaj.

Ikki asarda ham zulm qo’lida o’yinchoq bo’lgan nafs bandalari bor va ularning taqdirlari ham o’xshash – o’lim bilan tugaydi. Ular “Navoiy” romanidagi shoirni zaharlamochi bo’lgan oshpaz Abdusamad va “Alisher Navoiy” romanidagi ig’vochi Abdulloh Noiy. Ular uchi topilmasin deya uzilgan kalava iplari, xolos. Navoiyning asardagi so’zlari har ikkalasiga ham tegishli og’riqli ingroq: “Abdusamad kim? Ojiz, gumroh bir banda, aqldan mahrum bir olat! Haqiqiy jallodlar, qotillar, eng qabih jinoyatkorlar Hirotdadirlar (“Navoiy”, 376-bet).

Oybek ham, Isajon Sulton ham asarlarida o'sha davr muhitini, milliy koloritni yaxshi yoritgan. Xususan, buni qahramonlar nutqi, portreti, ularning kiyinish uslublari, taomlari, peyzajni yoritishida ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romanida personajlar kiyimini Oybekdan-da mufassal yoritgan:

" Darvozayi Qipchoq"dan o'tilib, bozor oralab shahar ichkarisi tomon yurildi. Bozor g'ala-g'ovuri avjida edi. Hirot bozori Shohrux Mirzo davrida kengayib, nafaqat tegra qishloqlardan, balki boshqa kent-u shaharlardan ham dehqon-u tujjor keladigan katta bozorga aylangan edi. Bu yerda tuyalarini karvonsaroyga bog'lab, yayov kezib yurgan baland bo'yli, oq-sariq Shom savdogarlari, boshiga g'utra(boshga o'raladigan mato parchasi) o'rab, dishdash(arab erkaklarining uzun ust kiyimi) kiygan olako'z damashqliklarni, uzun etakli, ko'ksi chok-chok naqshin pirohanli(Xuroson ust kiyimi) Mashhad tujjorlarini, kufiya(iroqliklarning bosh yopinchig'i) yopingan Iroq savdogarlarini-yu Sindning narigi tarafidan kelgan qizil sallali, pataksoqol hindularni, ko'k sallali nasroniylarni-yu boshiga sariq mato tashlab olgan yahudiylarni ko'rsa bo'lardi"("Alisher Navoiy", 8-bet)

Bunday solishtirmalarni juda ko'p keltirishimiz mumkin. Ammo qolganini o'zingizga ishonдик.

Shunisi ravshanki, har ikkala tarixiy asardan ham bugunning gapini topishimiz mumkin. Navoiy bejizga Badiuzzamonni tarixni o'rganishga da'vat etmagan. Bu da'vatlar bizga ham tegishli. Masalan, bu asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, yuritilayotgan davlat siyosati, yuz bergan parokandalik sabablari bizni hushyorlikka chaqiradi, Navoiyning Badiuzzamonga (aslida, Husayn Boyqaroga) yuborgan maktubidagi mummolar ham ko'zimizni ochishga chorlaydi. Zero, Navoiy aytib o'tgan o'sha illatlar hozir ham davom etib kelmoqda. Navoiyning turkiy til uchun mardona kurashi yuragingizni achishtiradi, hozir ham bu muammo boshqa ko'rinishda bo'lsa-da ichimizda turqi sovuq bo'riday kezib yuribdi. O'zbek tilimiz yana bir Navoiyga muhtoj. Davr har birimizdan Navoiy bo'lishni talab etmoqda. Ulug'bek Hamdam aytganidek: "Binoyidek bo'lish oson, eplay olsangiz Navoiydek bo'ling".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Isajon Sulton, "Alisher Navoiy", Adabiyot, 2021;
2. Xayriddin Sulton, "Maktub"; "Alisher Navoiy", Adabiyot, 2021, 508-bet;
3. "She'r – borliq va yo'qlik orasi", Ulug'bek Hamdam, maqola, "Badiiy publitsistika", to'plam, 2017;
4. Oybek, "Navoiy", Yangi asr avlod-2019.

ПРАВОСОЗНАНИЕ

Эргашев Искандар

Термезский инженерно-технологический институт, студент 2 ступени

Роль правовой культуры и правового образования в развитии правосознания. Правосознание – это представления людей о праве в обществе, ведь правовые нормы играют важную роль в регулировании различных общественных отношений между людьми в экономической, политической и культурной жизни общества. В регулировании общественных отношений правовыми нормами большое значение имеет правосознание, то есть знание людьми права, соблюдение правовых норм. Правосознание отличает общественное сознание в обществе от других форм сознания: философии, политики, религии, этики.

Правосознание представляет собой особую форму общественного сознания в обществе, поскольку правосознание представляет собой широкое понятие, включающее в себя сложные социальные задачи принятия правовых норм в обществе, применения их в браке, познания права, то есть правовой культуры и правового воспитания.

Правосознание неразрывно связано с правом. Взаимосвязь правосознания и права проявляется в следующих ее особенностях.

- в обществе правовое сознание играет важную роль в развитии различных представлений о принятии законов и иных правовых норм, их принятии.

- правосознание в обществе имеет важное значение в регулировании различных общественных отношений со всеми гражданами, государственными органами, особенно правоохранительными органами, судами, прокуратурой, органами внутренних дел, национальной безопасности, органами юстиции, должностными лицами в целях применения права в правильная жизнь.

— в обществе правосознание играет важную роль в регламентации и кодификации действующих правовых норм государства.

— в обществе правосознание отличается от других социальных форм правами, обязанностями, правонарушениями и применяемыми наказаниями.

Правосознание имеет большое значение в принятии правовых норм государства, в реализации правовых инициатив, в применении правовых норм в браке и в регулировании различных общественных отношений между людьми. Потому что любой закон и другие правовые нормы на государственном уровне перед принятием изучаются правоведами. Поэтому чем больше юристы знают политику и практику, тем сильнее будут приняты правовые нормы.

После обретения Республикой Узбекистан независимости в результате правосознания граждан, в результате работы специалистов-правоведов было принято множество законов, создающих экономико-правовую основу рыночной

экономики. В частности, на основе Конституции Республики Узбекистан были приняты несколько гражданских, уголовных, гражданских, административных и других кодексов Республики Узбекистан.

Поскольку правосознание учит взглядам людей на право, оно имеет свою структуру, то есть состоит из идеологии и правовой психологии.

Правовая идеология относится к правовым воззрениям различных классов, каст, наций и народов в обществе. Основным законом государства, принятым в обществе, является Конституция и другие законы, правовые нормы принимаются с точки зрения интересов правящего класса, нации и народа в обществе. Правовая идеология в каждой стране включает в себя и юриспруденцию.

Юридическая психология относится к взглядам и знаниям всех членов общества. В возникновении и развитии психологии участвуют все социальные группы и люди в обществе. Именно поэтому правовая идеология и юридическая психология взаимосвязаны. Правовая идеология и юридическая психология раскрывают сущность очень сложной формы социальных явлений.

Правовая идеология играет ключевую роль в развитии правосознания в обществе и принятии норм. Потому что правовая идеология во многом способствует укреплению и развитию правовой инфраструктуры в обществе, ее реагированию на спрос, регулированию различных социальных отношений между людьми.

Юридическая психология является основным источником правовой идеологии. Потому что юридическая психология состоит из умов отдельных лиц и общественности. Правосознание общественности состоит из правосознания граждан.

2. Роль правовой культуры и правового образования в развитии правосознания. Правовая культура относится к знанию людьми закона, уважению к закону, соблюдению норм и надлежащему наказанию за совершенные нарушения при их несоблюдении.

Формирование демократического правового государства в Узбекистане требует повышения культуры общества, чиновников и граждан. Поэтому важным признаком правового государства является правовая культура. Переход к рыночной экономике в Узбекистане требует проведения различных демократических реформ. Для этого необходимо развитие сознания граждан и правовой культуры, которая считается частью общечеловеческой культуры.

Чем более культурны люди в правовой культуре, чем больше они знают законы, чем больше они знают юридическую литературу и следуют им, тем меньше правонарушений. Поэтому в Республике Узбекистан большое внимание уделяется повышению правовой культуры населения. В частности, IX сессия Парламента Республики Узбекистан – Олий Мажлис приняла национальную программу по повышению правовой культуры в обществе.

Кроме вышеперечисленного, в целях развития правосознания большое значение придается правовому воспитанию в стране. В период перехода к

современной рыночной экономике Республики Узбекистан, в построении демократического государства правовое просвещение населения и развитие правовой культуры играют важную роль в целях проведения различных социально-экономических и политических реформ по укреплению законодательство. Поэтому наше правительство приняло специальные постановления о совершенствовании юридического образования, обучении юридических кадров и совершенствовании изучения общественного мнения. В этих постановлениях одним из основных направлений государственной политики было определено правовое просвещение и культура населения в республиканском масштабе. На основании этого указа при ТошДЮИ был создан Центр правового просвещения для осуществления правовой пропаганды на республиканском уровне. Отделы этого центра были созданы при Министерстве юстиции Республики Каракалпакстан, а его отделы при управлениях юстиции областей и хокимиятов г.Ташкента. Определены задачи центра, уделив внимание правовому просвещению, воспитанию и правовой культуре в стране, поставлены вопросы развития самосознания населения.

В заключение можно сказать, что сознание населения - правовая психология отстает от правовой идеологии. Для этого необходимо уделять внимание правовому просвещению и воспитанию населения, развитию правосознания.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Конституция Республики Узбекистан. Т., «Узбекистан», 2003 г.
2. Каримов И.А. Мы строим наше будущее своими руками. Т., «Узбекистан», 1999.
3. Каримов И.А. Новое мышление и работа – это требование времени. Т., Ташкент, 1997.
4. Холмоминов К.В. Теория государства и права, учеб. Ташкент, 2000.
5. Бобоев Х.Б., Одиловкориев Х.Т. Теория государства и права. Учебник, Ташкент, 2000 г.

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF LANGUAGE AND COMMUNICATION

Mukhtorova Dilovar

English teacher at Akademik Lyceum of the Navoi State Pedagogical Institute (NSPI)

Taniyev Tulqin Abdurazzoqovich

*is an English teacher at Akademik Lyceum by the Navoi State Pedagogical Institute
(NSPI)*

Philosophical understanding and explanation of the essence of language is one of the most complex problems in science. Therefore, the study of the theory of language and the philosophy of language in terms of the past period is philosophy and science remains one of the fundamental areas. After all, the scientific-theoretical study of the philosophical-methodological aspects of the language, reference to the language is determined by the universal component of any ontology and theory of knowledge. Linguistic, linguistic, linguistic, semiotic, cultural and theoretical aspects of the language problem today are one of the main directions of language and communication balance.

It should be noted that the philosophical analysis of language in modern science represents the study of the hermeneutic aspects of the philosophy of language. This allows you to study language analysis in two ways. Firstly, the study of language analytics is of great importance as a philosophical problem, and secondly, from a hermeneutic point of view, the language expresses the unique understanding and explanatory features of the communication system. Also, the classical understanding and explanation of the philosophy of language is important. In some scientific studies, language is applied to the ontological and linguistic aspects of the creative thinking of a person.

In philosophical studies, the problem of language, its genesis, is expressed in approaches to defining the essence of language in different historical periods. For example, the philosophical principles of language and its evolutionary development were reflected in the studies of G. Hegel, W. Humboldt, R. Descartes, I. Kant, W. Leibniz, D. Locke and other such philosophers who thought in the historical philosophical direction.

1. These studies show that a new approach to language problems requires profound changes in social consciousness. However, imagining language as a product of psychophysiological activity led to understanding it from a socio-psychological point of view. This situation is very clearly manifested in the course of the development of human history, especially language.

In the works of scientists such as G.G.Shpet, K.E.Stein, who conducted research in the socio-psychological direction, issues of ethnic and psychological context were reflected in the interaction between language and consciousness, language and thinking². After all, characterizing language as a social phenomenon means finding its different signs, functions and features. That's why "They," writes A.A. Potebnya, "must very clearly show that language belongs to social phenomena."

In our opinion, the dependence of the language on social and cultural factors is clearly demonstrated in the study of its sociological specification. The social nature of language, its role in society and socialization were studied by scientists such as E. Benveniste, J. Vandries, F. De Saussure. In the views of these scientists, language is recognized as a factor of understanding and communication.

Social knowledge of communication processes, language and communication through language, thinking express social factors such as their social status and ethnicity. It was reflected in the works of A. Yu. Antonovsky, N. D. Artyunova, T. A. Van Dyck and R. Demers, who studied language in social relations from a communicative point of view. In our opinion, these scientists analyze the practical activity of the language. In this case, there was a need to expand the scope of learning the language not as an abstract sign system, but in interaction with the social environment. Therefore, it is important to understand the language as an information-communicative system, to determine the social essence of the language, the influence of social and cultural factors on the communication mechanism of the language, the role of the language and the human factor in the process of human communicative activity.

Today, approaches to language analysis are constantly updated with the needs of scientific and philosophical methodology. In particular, analytical and philosophical aspects of language, mathematical and semantic logic, scientific research methodology developed according to philosophical-historical methods. Later, philosophical analysis of language on the basis of dialectical principles became a scientific problem. In this sense, the understanding of language as a linguistic reality requires the application of information on the dichotomous method of relations between analytical and synthetic processes. After all, it is said that "Philosophy of language is a system of knowledge that reflects the general scientific ideas of language history and linguistics."

In fact, the diversity of the basis of Western philosophical trends is reflected in the uniqueness of their research scope and approach. That is, one philosopher studies philosophy as a scientific system, that is, another as a set of aesthetic or moral-practical knowledge. In this case, the creative model of the language is based on the verbal communication of descriptive ideas. So, language and

the balance of communications applies in all spheres of social life and serves to determine the dynamics of the direction of social development.

The proportionality of language and communication processes, not specific issues of language, not language and forms of languages, but the most general laws of language and man, language and nation, language and society, language and power, language and politics and their interaction and communication. learns In this regard, K. Khanazarov, "Philosophy of language does not deal with partial issues related to language, not specific languages and language forms, but language and nation, language and power, language and man, language and politics, language and society, politics and language. "studies,

analyzes, expresses and defines the most general laws and rules of interdependence, interaction and communication".

Therefore, these universal values are not applied in terms of socio-political, but in terms of the development of world culture. After all, the philosophy of language is related to the general theory of language, sociology, political science, ethics, philosophical anthropology. In particular, the philosophy of language is interpreted as a field that essentially studies the role and function of language in the cultural development of society. In general, the philosophy of language is a system of philosophical knowledge formed based on the achievements of logical, psychological, linguistic sociology in the study of language development. In this regard, Q. Khanazarov writes, "The analysis of linguistic reality from the ontological, epistemological, axiological, praxeological point of view is called philosophy of language."

In our opinion, there is no doubt that the philosophy of language is a science between philosophy and linguistics. The philosophy of language studies the "roots" of language, its foundations, all events and phenomena related to language. The philosophy of language is the foundation of knowledge of the world and leads to the environment of problems and concepts.

So, any doctrine does not appear by itself at the level of science. They are created by the older generation and passed on to the next generation. This generation will develop and improve and lead to the future. In this way, succession is ensured, and every science develops, perfects, and rises. Philosophy of language

develops in the same way and creates different conceptual approaches.

In particular, the philosophical analysis of socio-communicative aspects of the language determines the specific importance of scientific and socio-cultural problems. Communicative mechanisms of language are applied. A certain social culture lies in linguistic phenomena. The political image of the world reflects the socio-cultural image of the world. In the real use of colloquial language, it is necessary to know the nature of non-linguistic factors, what is expressed in the language. In the issue of linguoculturalology, the main focus is on defining the concepts included in its terminology, their research methods, and sources.

The main sign of culture is the ability of a person to be spiritually and spiritually rich. A person dives into the "world of culture" in the process of mastering the language that belongs to material and spiritual culture. The national character of the culture requires the enrichment of the "fundamental foundations" of the world culture, formed in the development of humanity, in various international language and cultural relations. Culture is a product of the nation and is a national (special, private) and general (international) unit.

The problem of interdependence of language and culture and their relationship has attracted the attention of a number of famous scientists for many centuries. However, this issue remains controversial: in the eyes of some, language is considered as a part of

culture, while the second group views language as a form of expression of culture, but according to this group, language is neither a form of expression of culture, nor an element of culture. 1 As an example, we can cite the words of three great scientists, the founders of the American and Russian schools of ethnolinguistics. According to E. Suprun, "Culture is defined as what a certain society is doing and thinking about, and language is how they think."

2. N.I. Tolstoy writes, "The relationship between culture and language can be considered as a relationship between a whole object and its part. Language can be considered as an organizational part of culture or a tool of culture (it should be said that these two concepts do not have the same meaning), especially if we are talking about literary language or folk language. But at the same time, language is considered autonomous (free, independent) in relation to culture in general, and it can be viewed separately from culture, or language is evaluated as a miracle with equal value and equal rights along with culture.

YANGI O'ZBEKISTONDA ZIYO MASKANLARINING IJTIMOY O'RNI VA AHAMIYATI

Abdug'affarova Maftuna Jahongir qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola insonlarning bilimini, dunyoqarashini oshirish hamda rivojlantirish uchun xizmat qiladigan ziyo maskanlarining o'rni va ahamiyati, yoshlarga ilm olish uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va ijtimoiy muhit to'g'risidagi fikr va mulohazalar haqida.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy muhit, kommunikatsiya, agentlik, media zallar, gigant, strategiya.*

Avvalari insonlar imo-ishora orqali muloqot qilishgan bo'lsa, keyinchalik esa ular so'zlashish yo'li orqali bir-birlari bilan ma'lumot almashishgan. Yillar o'tgani sayin inson rivojlana bordi va belgilar tuzilmasidan iborat yozuvni ixtiro qilishdi. Bu esa ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish, bir kishidan-ikkinchi kishiga yetkazish imkonini kengaytirdi. Avval og'zaki shakldagi, keyinchalik yozma shakldagi ma'lumotlar paydo bo'lishi natijasida turli xil mazmundagi kitob va kutubxonalar vujudga keldi. Bu esa insonlarni yanada ko'proq va tezroq bilim olishlarini qulay sharoit edi.

Har qaysi davrda insonlar bilim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratilib kelingan, xususan hozirgi kunda ham. Insonlarning bilim olishlari uchun deyarli hamma davlatda turli xildagi kutubxonalar o'z ish faoliyatini olib bormoqda. Bu kutubxonalar orasida o'zining antiqa ko'rinishi, jozibasi, tarixiyligi va kitoblar sonining ko'pligi bilan ajralib turadigan mashhur kutubxonalar ham mavjud. Bulardan kattaligi va o'zining boy fondiga egaligi bilan mashhur bo'lgan kutubxonalardan birinchilikni AQSHdagi Kongres kutubxonasi, ikkinchi o'rinni Londondagi Britaniya kutubxonasi, uchinchi o'rinni esa Nyu-Yorkdagi jamoat kutubxonasi egallaydi. Shu jumladan, yurtimizda ham jahon kutubxonalari qatoriga kirgan kutubxona ham faoliyat yuritadi. Bu kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Kutubxonaga 1870-yilda asos solingan. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi PF-3029-son "Ilmiy- tadqiqot faoliyatini takomillashritish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi bilan birgalikda qo'shilib Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona deb qayta tashkil etildi. Uning fondi 250 mingdan ziyod nashrdan iborat bo'lib, ular orasida Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur, At-Termiziy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy kabi buyuk ajdodlarimizning qimmatbaho kitoblari ham kutubxona fondida ko'z qorachig'iday saqlanmoqda. Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli 10 mln nusxaga yetgan va ko'plab kitobxonlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda." [2] Hamda Namangan viloyatida ham qator ma'rifat markazi bo'lgan kutubxonalar xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bular Nodirabegim nomidagi Namangan viloyat universal ilmiy kutubxonasi, Namangan viloyat bolalar kutubxonasi, Davlatobod tumanidagi Yangi

O'zbekiston – yoshlar ziyo maskani axborot – kutubxonasi, universitet va institutlardagi, kollejdagi va boshqa o'quv joylaridagi kutubxonalardir.

Yoshlarni bilimli va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularda o'qish ma'daniyatini shakllantirishda kutubxonalarning o'рни va ahamiyati katta hisoblanadi. Bunday kutubxonalar sirasiga Yangi O'zbekiston-yoshlar ziyo maskani axborot-kutubxonasi ham kiradi. Ushbu zamonaviy kutubxona Namangan viloyat Davlatobod tumanida joylashgan bo'lib, 2020-yilning 19-mart kunidn beri o'zining kitobxonlariga xizmat qilib kelmoqda. Bu kutubxonada barcha jihozlar eng so'nggi, zamonaviy ko'rinishda jihozlangan bo'lib, vaqtni mazmunli va samarali o'tkazish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. "Yangi kutubxona 30 mingdan ziyod turli badiiy-ilmiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlangan. Bir vaqtning o'zida 1200 kishiga xizmat ko'rsatadi. Mazkur kutubxona Namangandagi eng katta va birinchi raqamli kutubxona hisoblanadi. Raqamli kutubxona - Namangandagi barcha xohlochilar foydalanishi mumkin bo'lgan onlayn kutubxona hisoblanadi. Ayni damda foydalanuvchilar nafaqat axborot texnologiyalari to'g'risada, balki jahon adabiyot durdonalari, badiiy-ilmiy asarlarni hamda boshqa mavzuga oid kitoblarni topishlari mumkin. Raqamli kutubxonada 100 mingga yaqin bosma kitob mavjud. Ushbu kutubxonaning yana bir ustunligi shundaki, u eng gigant kutubxonaga kirish imkoniyatiga ega va 6 000 000 nafar elektron kitoblar hamda 250 000 ta audiokitob mavjud. Ta'kidlash joizki, kutubxonada har bir kishi O'zbekiston madaniyatini o'rganishi hamda o'zbek xonandalari tomonidan ijro etilgan maqomlarni tinglashi uchun maxsus maydoncha ham tashkil etilgan." [3]

Yuqoridagi kutubxonalar hamda jahondagi har qaysi kutubxona, har qanday kitob, barchasi bir vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Ular insonning ma'naviyatini, dunyoqarashini, bilim saviyasini, fikrlashini shakllantiradi. Insonlarga ruhan va ma'nan ko'mak beradi. Ma'naviyat so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, Prezidentimiz "Ma'naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy - ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalqimiz ham, davlatimiz ham shuncha kuchli bo'ladi" [4] – degan so'zlarni aytib o'tgan edilar. Chindan ham ma'naviyat inson hayotining zarur bo'lagi hisoblanadi. Ma'naviyatli inson ijtimoiy hayotda qanday yashash kerakligi biladi va uni jamiyatda o'z o'рни bo'ladi. Insonlarning ma'naviyati oshgani sayin, ularni kitobga bo'lgan ehtiyojlari oshib boraveradi. Endilikda ular o'zlari mutolaa qilishni xohlagan va yoqtirgan kitoblarini kutubxonalardan va kitob do'konlaridan hamda, internetdan elektron shaklini ham topishlari mumkin. Ayni vaqtga kelib, kitobxonlar bir-birlariga kitob hadya qilishyapti. Bu esa o'z navbatida kishilarning kitobga bo'lgan qiziqishini va bir-birlariga bo'lgan mehrni oshishiga yordom beryapti. Lekin, shunday bo'lishiga qaramay, jamiyatimizda shunday insonlar borki, ular kitob nimaligini, uni inson hayotida qanday ahamiyat kasb etishini bilishmaydi. Kitobga oddiy bir buyumday qarashadi. Bu ularning ilmni pasayishiga olib keladi va ma'naviyatini pastligini bildiradi. Bunday holatni kamaytirish maqsadida yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda aholi yashaydigan joylarga, ya'ni, har bir mahalla markazlariga

kutubxonalar qurish ishlari boshlab yuborildi. Hamda aholining ma'naviyatini va bilimni oshirish maqsadida viloyatlar va Respublika miqyosida ko'plab kitobxonlik tadbirlari va tanlovlari amalga oshirilib kelmoqda. Bunga Respublika "Yosh kitobxon" tanlovi, "Yosh kitobxon oila" tanlovi va boshqa ko'plab tanlovlarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Bundan tashqari "Besh tashabbus", "Taraqqiyot strategiyasi" kabi bir qator ustuvor yo'nalishlar va loyihalar ishlab chiqildi. Tarixdan ma'lumki, buyuk babolarimizning har birlarining uylarida kutubxona bo'lgan va unda o'zlarining kitoblari va buyuk allomalarning asarlarini saqlashgan hamda oddiy xalq uchun kam kutubxonalar bunyod etib berishgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy bobomiz o'zlarining ma'naviyatlari va boy bilimga egaliklari, o'zlari yashab turgan hududda va boshqa joylarda ko'plab kutubxona va madrasalar qurdirganliklari bilan boshlardan ajralib turadilar. Hozirgi davrga kelib esa O'zbekistondagi 90% kutubxonalarni davlat o'zi moliyalashtirmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, insonning ma'naviyatini, dunyoqarashini shakllantirishda kitob va kutubxonalarning o'rni beqiyos. Chunki, kitob bilimlar manbai bo'lsa, kutubxona esa ilm, ziyo, ma'rifat va jamiki bilimlarning maskani hisoblanadi. Kitob inson kashfiyotlarining eng qimmatlisidir. U odamlarni ruhan va ma'nan yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishi uchun hizmat qiladi. Shunday ekan, biz yoshlar kitob va kutubxonalarni qadrlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak. Ulardan oqilona foydalanishimiz, kitob bilan do'st tutinishimiz, kutubxonalarning va kitoblarning ijtimoiy ahamiyatini teran anglab yetishimiz, hamda ularni o'zimizdan keyingi avlodga yetkazishimiz bizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://president.uz/uz>
2. <https://shosh.uz/uz/alisher-navoiy-nomidagi-o-zbekiston-milliy-kutubxonasi/>
3. <https://shosh.uz/uz/kutubxonalar-nodira-nomidagi-namangan-viloyat-universal-ilmiy-kutubxonasi/>
4. www.namangan.natlib.uz
5. <https://shosh.uz/uz/kutubxona-namangan-viloyati-bolalar-kutubxonasi/>

TURK VA ARAB DAVRIYLIK LARI TO'G'RISIDAGI MALUMOT

Usmonova Maxfirat Murodulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Qadimgi arab kalendari deyarli o'zgarishlarsiz bizgacha saqlangan. Qadimgi arab Oy yili o'n rkki oydan iborat bo'lgan. Bir qancha xalqlarda, ayniqsa, musulmon Sharqidagi mamlakatlarda qadimgi arab oy sistemasi hisoblashlari milliy va diniy ruh olgan.*

Kalit so'z: *Islom , Yaqin Sharq , «Qonuni Mas'udiy» , Muharram , Safar, Rajab , Turk , Oy , Quyosh .*

Arab kalendari. Qadimgi arab kalendari klassik Oy kalendari hisoblanadi. Arabiston yarimorolida Oy taqvimiga asos solingan va takomillashtirgan paytdan qadimgi arab kalendarining tarixi boshlanadi. Bu milodimizgacha bodgan I ming yillikka to'g'ri keladi. Milodimizning I ming yilligi o'rtaiarida (V asrlar atrofida) Oy kalendaridan Oy-quyosh kalendariga o'tish boshlanadi. Oy kalendarini Quyosh yili bilan moslashtirish uchun vaqt ohishi bilan qo'shimcha o'n uchinchi oy «nasi» va bazan yilning oxirida besh yoki olti kundan iborat qo'shimcha kunlar qo'shilgan. Lekin aniq embolistik oy tizimi kiritilmagan. Arab kalendarining keyingi rivojlanishida Oy-quyosh sistemasini rasmiylashtirish islom dini paydo bo'lishi bilan to'xtab qoldi. Arablar 200 yilga yaqin vaqt davomida Oyquyosh kalendaridan foydalandilar. Islom dinida Oy taqvimi asosini buzish taqiqlandi. VII asrning o'rtalariga kelib arablar yana o'zlarining klassik Oy kalendariga qaytdilar. Qadimgi arab kalendari deyarli o'zgarishlarsiz bizgacha saqlangan. Qadimgi arab Oy yili o'n rkki oydan iborat bo'lgan. Bir qancha xalqlarda, ayniqsa, musulmon Sharqidagi mamlakatlarda qadimgi arab oy sistemasi hisoblashlari milliy va diniy ruh olgan. Bu tizim natijasida tuzilgan kalendarlar bir qancha Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hozirgi vaqtgacha qo'llanilib kelmoqda. Oy kalendari uzoq vaqt O'rta [Osiyo va Kavkazda](#), shuningdek, tatar va boshqirdlarda keng tarqalgan. 54 Bugungi kungacha arab kalendarida oy nomlari ikki marta o'zgargan. Abu Rayhon Beruniy «Qonuni Mas'udiy» asarida qadimgi arab kalendiridagi oy nomlarini keltirib o'tadi. [1]

Bugungi kungacha ishlatilib kelinayotgan arab kalendari oy nomlari: 1. Muharram. 2. Safar. 3. Rabi ul-avval. 4. Rabi ul-soniy. 5. Jumodu-l-avval. 6. Jumodu-s-soniy. 7. Rajab. 8. Sha'bon. 9. Ramazon. 10. Shavvol. 11. Zulqa'da. 12. Zulhijja. Oylar navbat bilan «to'liq» (30 kun - toq son) va «todiq bodmagan» (29 kun - juft son) oylarga bodinadi. Yillar oddiy yil (354 kunlik) va kabisa yili (355 kunlik) joriy qilingan. Kabisa yilida qo'shimcha [kun yil oxiriga](#), ya'ni 12 oyga «zu-l-hijja»ga qo'shilgan. Islom dini qo'shimcha kunlarni joriy qilishni taqiqlagan. Arab kalendarida oyning o'n [beshinchi kunigacha masalan](#), Muharramning o'ninchi kuni, Rajabning o'n to'rtinchi kiini, keyin esa Rajabgacha o'n to'rt kun, Rajabgacha besh [kun tarzida liisoblanib keladi](#), ya'ni oyning birinchi o'n [besh kuni oyning boshidan](#),

keyingi o'n besh kuni esa lining oxiridan hisoblanadi. Beruniy qadimgi arab haftalari nomlarini ham keltirib o'tadi: 1234 1. Yakshanba - Yaum al-ahad. 5. Payshanba - Yaum al-xamis. 2. Dushanba - Yaumal-isnayn. 6. Juma - Yaum al-juma. 3. Seshanba - Yaum as-salasa. 7. Shanba - Yaum as-sabt. 4. Chorshanba - Yaumal-rabaa. [2]

12. Burak. Bugungi kungacha ishlatilib kelinayotgan arab kalendari oy nomlari: 1. Muharram. 2. Safar. 3. Rabi ul-avval. 4. Rabi ul-soniy. 5. Jumodu-l-avval. 6. Jumodu-s-soniy. 7. Rajab. 8. Sha'bon. 9. Ramazon. 10. Shavvol. 11. Zulqa'da. 12. Zulhijja. Oylar navbat bilan «to'liq» (30 kun - toq son) va «todiq bodmagan» (29 kun - juft son) oylarga bodinadi. Yillar oddiy yil (354 kunlik) va kabisa yili (355 kunlik) joriy qilingan. Kabisa yilida qo'shimcha kun yil oxiriga, ya'ni 12 oyga «zu-l-hijja»ga qo'shilgan. Islom dini qo'shimcha kunlarni joriy qilishni taqiqlagan. Arab kalendarida oyning o'n beshinchi kunigacha masalan, Muharramning o'ninchi kuni, Rajabning o'n to'rtinchi kiini, keyin esa Rajabgacha o'n to'rt kun, Rajabgacha besh kun tarzida liisoblanib keladi, ya'ni oyning birinchi o'n besh kuni oyning boshidan, keyingi o'n besh kuni esa lining oxiridan hisoblanadi. Beruniy qadimgi arab haftalari nomlarini ham keltirib o'tadi: 1234 1. Yakshanba - Yaum al-ahad. 5. Payshanba - Yaum al-xamis. 2. Dushanba - Yaumal-isnayn. 6. Juma - Yaum al-juma. 3. Seshanba - Yaum as-salasa. 7. Shanba - Yaum as-sabt. 4. Chorshanba - Yaumal-rabaa. Yakshanbadan payshanbagacha bo'lgan hafta nomlari birinchi, [ikkinchi](#), uchinchi, to'rtinchi, beshinchi kun degan ma'nolarni bildirgan. Oy kalendarida har bir oyning birinchi kuni oy boshiga, ya'ni yangi Oyning ko'rinish paytiga to'g'ri kelishi kerak. Buning natijasida sinodik oyning o'rtacha uzunligi 29,53059 kunni (aniqrog'i, 29,53058812 kunni) tashkil qiladi. Ammo kalendarida oylar faqat butun sonli kunlardan tashkil topadi, ya'ni 29 yoki 30 kundan iborat boiadi. Oy kalendaridagi hamma yillarni 354 kundan iborat, deb qabul qilinsa, har yili 0,3671 kunga teng xatoga yoi qo'yiladi. Shuning uchun bundav kalendarida, yangi Oy 10 yil o'tgandan key in 4 kun oldin ko'rina boshlaydi (oxirgi oyning boshlanishidan)1. Shu sababli har uch yildan so'ng 354 kun o'rniga 355 kunlik kabisa yili kiritiladi. Shunday qilib, bu yerda ko'rinayotgan masala kabisa yillar tizimini aniqlashdan iborat. O 'ttiz yil ichida necha kabisa yili borligini aniqlash uchun $354,3671 \cdot 30 = 10631,013$ ni olamiz. Lekin $350 \cdot 30 = 10620$. Shunday ekan, 30 yil ichida 11 kabisa yili bo'lar ekan, chunki $354 \cdot 19 + 355 \cdot 11 = 10631$ (xato:0,013 kun). Agar bir yil 354 kundan iborat deyilsa. xato 0,367 kunga to'g'ri keladi, 355 kun hisoblansa. xato 0,633 kunga teng boiadi. Shunday qilib, birinchi holda Oy boshi birinchi yil boshidagiga qaraganda 0.367 kun oldinga suriladi, ikkinchi holda esa 0,633 kun orqaga siljiydi. Buni e'tiborga olib (shuningdek, davriylik boshida xato nolga teng deb qabul qilinish), 30 yillik davriylikdagi kabisa yillarining oi-nini Mirzo Ulug'bek aniqlab chiqadi. Bular: 2, 5, 7, 10, 13, 15, 18, 21, 24, 26, 29-yillardir. Qabul qilingan kabisalar sistemasida 15 yil oxirida xato 0,495 kunga etadi. Agar bu kasrni nol deb olinsa, ilavriylikning o'n beshinchi yili, albatta oddiy bo'ladi, bir deb olinsa, Mirzo Ulug'bekning yozishicha, o'n oltinchi yili kabisa yili boiadi. Iekshirilayotgan sistemada davrning aniqligi katta: davriylik oxiriga kelib. Oy boshi faqat 0,01 kunga siljiydi. 100 davriylikda, ya'ni 3000 yil oxiriga kelib, xato faqat bir kunga yetadi, xolos. [3]

Turk davriyligi. Sakkiz yillik astronomik oy sikli salkam 2835 kunning tashkil qiladi. Lekin sakkiz oy kalendari yili esa (354 kundan) 2832 kundan iborat. Agarda sakkiz yilning uch yilini kabisa yili qilib belgilasak, mazkur davriylik 2835 kunning (354 • 5 + 355 • 3 = 2835) tashkil qiladi. Turk davriyligida ikkinchi, beshinchi, yettinchi yillar kabisa yillari bo'lardi. Shuni ta'kidlash lozimki, 2835 kun haftaning soniga to'liq mos ($2835:7 = 405$). Davriylik oxirida hilolning ko'rinishi haftaning har doim bir xil kuniga to'g'ri keladi. Oy kalendarlarining hammasi «turk» yoki «arab» davriyliklariga asoslangan. Agar arab va turk davriyliklaridagi kabisa yillariga qarasaq, ularda kabisa yillari bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Oy kalendarining o'ziga xos jihati uning juda aniqligidir. Lekin Oy kalendarining «kamchiligi» I asi larga mos tushmaydi. Oy kalendarida yangi oyning qaysi kuni chiqishini aniqlash katta ahamiyatga ega. Buni quyidagicha aniqlash mumkin. Masalan, 1985-yil martda qaysi kuni yangi oy ko'ringanini imiqlaymiz (1- jadval). Buning uchun:

1) jadvalning chap tomonida yuzlik sonlar. bu holatda yuzlik son 19 dir. Chunki 1985-yil berilgan. lining koeffitsiyenti 6.8 ga teng;

2) jadvalning o'rta qismidan o'nlik va birlik qismlaridagi, 8 ni o'nlik (vertikaliga) va 5 ni birlikdan (gorizontaliga) topamiz. Ularning kesishgan joyida 20,2 sonini olamiz;

3) jadvalning o'ng tomonidan martning koeffitsiyentini topamiz. U 24.1 ga teng;

4) yuqoridagi uchta sonni qo'shamiz.

$$6.8 + 20.2 + 24.1 = 51,1.$$

Agar chiqqan natija bir oydan katta bo'lsa, uni 29,5 dan kviramiz'.

$$51,1 - 29,5 = 21,6.$$

Agar chiqqan natija bir oydan vana katta bo'lsa. undan yana 29.5 ni ayiramiz. Demak, 1985-yil mart oyida yangi Oy 21-mart kuni Grinvich vaqti bilan soat $0,6 \times 24 = 14$ da ko'ringan.

Dehqonchilik xo'jaligining rivojlanishi natijasida ekish, hosilni yig'ishtirib olish uchun aniq vaqt hisobi zarur ediki, bu narsa Oy fazalarining o'zgarishi va Quyoshning harakati bilan bog'liq edi. Shuning uchun ham oy-quyosh kalendarlari tuzila boshlandi. Oy-quyosh kalendarining tuzilishi Oy va Quyosh kalendarlariga qaraganda anchagina murakkabdir. Ularda eng muhim bo'lgan ikki shartga amal qilinadi: 1) har bir kalendar oyining boshlanishi yangi oy (hilol) chiqishiga yaqin vaqtda boshlanishi kerak; 2) Oy oylari tropik yilning uzunligiga ham mos tushishi kerak. [4]

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. - T.: «Fan», 1968.

2. Raxmonqulova Z. Xronologiya. 2013.

3. Qodirov A. Vaqt va kalendar. — T.: « O'zbekiston». 1977.

4. Ahmedov A. Ahmad Al-Farg'oniy. - T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1998.

BOLALARNI PREDMETLAR SHAKLI BILAN TANISHTIRISHNI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

Xoliqova Yoqutxon Mirzakarim qizi

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani MTB tassarufidagi 33-DMTT Uslubchisi.

Anontatsiya: *Bolalarning predmetlar shakli va geometrik figuralarni idrok qilishidagi o'ziga xos xususiyatlari va ularni boshqa figuralar bilan solishtirib o'rganish va ularni o'yinlar mustahkamlash.*

Kalit so'zlar : *geometrik figuralar, geometrik etalonlar, oval, konus, to'g'ri to'tburchak, doira, uchburchak didaktik va ta'limiy o'yinlar.*

Bolalar elementar matematika faoliyatlarida eng sodda geometrik figuralar bilan, ularning ba'zi xossalari bilan tanishadilar, buyumlarni geometrik etalonlar bilan taqqoslash asosida ularning, ya'ni buyumlarning shaklini tahlil qilish va baholashni o'rganadilar. Bolalarda asta-sekin shakl haqidagi umumiy tasavvur shakllanadi, va yuqori guruhlarda mustahkamlanib boradi. Bunday tasavvur maktabda matematika, geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o'zlashtirish uchun asos bo'ladi. Bolalar tug'ilgandan boshlab geometrik figuralarni his eta boshlaydilar. Masalan, bir nechta turli idishlarni bolaning oldiga terib qo'ysak, bola ovqat yeydigan yoki sut ichadigan idishini darrov tanib oladi. Bola biroz ulg'aygandan so'ng o'yinchoqlarini geometrik figuralar bilan solishtira boshlaydi. Masalan: Mana bu tayoq stolbaga o'xshaydi, mana bu koptok tarvuzga o'xshaydi, ya'ni hamma narsalarni bir-biriga o'xshatish. Predmetlarning shaklini aniqlashda geometrik figuralar etalon bo'lib xizmat qiladi. Shakl xuddi o'lchamga o'xshab bir predmetni ikkinchi predmetdan farqlashga yordam beradi. Bolalarda shakl haqidagi tasavvurlarini shakllantirish sensor tarbiyaning bir muammosi deb hisoblanadi. Kam tanish bo'lgan predmetlar shaklini hech narsa bilan o'xshata olmaydi, shuning uchun shaklning belgisiga ko'ra ularni umumlashtira olmaydilar. Predmet shaklini aniqlashda geometrik figuralarning roli katta. 2-3 yoshli bolalar geometrik figuralarni oddiy o'yinchoq deb his etadilar. Masalan: silindr – stakan, stolba; konus – minora. Shuning uchun geometrik figuralar bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega (doira, kvadrat, uchburchak). Bolalar maishiy xizmat qiluvchi predmetlarni etalon (ko'rgazma deb hisoblangan geometrik figuralarni his eta boshlashadi. Shaklni ko'rish va his qilish orqali, harakat tuyg'ulari orqali idrok etishni tashkil etish, uning xossalarini namoyon qiluvchi xilma xil ishlardan foydalanish, figuralar nomini, ularning xossalarini, harakat usullari nomini aytish bolalarning figuralar haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi. Kichik yoshdagi bolalarga predmetlar berilsa ular faqat ko'z bilan ko'rib qolmasdan, balki qo'lga oladi va og'ziga solib ko'radi. Keyinchalik esa so'zlashga harakat qiladilar. Katta yoshdagi bolalar predmatlarni qanday shakl va xususiyatga ega ekanligini idrok qiladi. Bolalarga shakllar haqidagi bilimlarni ertak tarzida yoki qisqa hikoyalar o'qish orqali berish mumkin. Billimlarni mustahkamlash uchun akt

multimedia vositalaridan foydalanib slayd yoki multfilmlar tomosha qilish ham ijobiy natija beradi, yoki bolalar ishtirokida o'ynaladigan o'yinlar, Masalan: bolalarga uchburchak, doira va kvadrat shakllari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi va quyidagicha topshiriq beriladi: Rasmdagi uchburchak shakllarini birlashtirib chiqing. Bolalar uchburchak shakllarini qalam yordamida birlashtirib chiqadilar. Tarbiyachi bilan bolalar gilam ustida doira qurib o'tiradilar. Gilamda katta klyonka ustida plakat va geometrik shakllar (doira, uchburchak, kvadrat) to'plami. Tarbiyachi boshchiligida geometrik shakllardan turli narsalarni applikatsiya usulida yopishtiradilar. Buning uchun g'oyani bolalardan so'rash mumkin. Masalan:

«Bolajonlar, mana shu geometrik shakllardan turli narsalarni yasash mumkin, hozir nimalar yasashni xohlashingizni aytasizlar. Men yozib olaman va birgalikda shakl tanlab yasaymiz. Shakl haqidagi tasavvurlarni idrok qilish va shakllantirishda bilimlarni mustahkamlash uchun o'yin:

“Ovalni top”.

Bolalar doira shaklida turadilar. Kartondan qirqilgan yoki tayyor figuralardan: doira, kvadrat, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak va oval shakllaridan 8 tasi aralashtirib qo'yiladi. 4ta bola doira ichiga chaqirilib, ko'zlari ro'mol bilan bog'lanadi. Bolalar ko'zlari bog'liq holatda shakllar ichidan oval shaklini topib olishlari kerak. Qaysi bola ko'proq oval shaklini to'plasa, unga yulduzcha shaklidagi medalon mukofot sifatida beriladi. Bolalar navbat bilan 4 tadan bo'lib almashib o'yinni davom ettiradilar.

O'yin: “Shakl yasa”.

Tarbiyachi bolalarni 4 guruhga bo'lib 4 joyga joylashtiradi. 1-guruhga 10 ta tayoqcha, 2-guruhga 8 ta tayoqcha, 3-guruhga 6 ta tayoqcha, 4-guruhga 4ta tayoqcha beradi. Har bir guruh tarbiyachining topshirig'idan so'ng oldidagi tayoqchalardan kvadrat shaklini yasaydi. Natijada to'rt xil katta-kichik shakllar paydo bo'ladi. Bolalarni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarganliklari tekshirib chiqiladi. Guruhlar o'rni o'zgartirilib o'yin yana shu shart bilan davom etadi.

“Postlar qo'yish” o'yini

Maqsad: O'yin bolalarni dam olish daqiqasi uchun mos keladi va bolalarning geometrik shakllar to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlaydi. O'yinning borishi: Bolalar ketma-ket turib marsh qilib yuradi. Boshlovchi oldinga boradi. Boshlovchi qarsak chalib signal berganda oxirida ketayotgan bola to'xtab qimirlamay postda turadi, qolganlari yurishda davom etadi. Mana shunday qilib boshlovchi hamma bolalarni o'zi belgilangan tartibga postga qo'yib chiqadi, natijada biror geometrik shakl hosil bo'ladi (katta va kichik kvadrat, uchburchak, doira va hakoza), so'ng bolalardan ular qanday shakl yasaganlari so'raladi. Oldin boshlovchi saylanadi va har bir bola boshlovchi bo'lgunicha o'yin davom etadi.

Demak, shunday xulosa qilamiz: bolalarni yoshligidan geometrik figuralar shaklini turli xil o'yinli faoliyatlar bilan, qo'lga ushlab ko'rib, ular haqida eshitib, ko'zlari bilan ko'rib, bilimlarga ega bo'lishlari va to'g'ri xulosa chiqarishlariga o'rgatishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. –T.: Ilm ziyo, 2006.
2. Бикбаева Н.У., Ибрагимова З.И., Қосимова Х.И. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантириш. – Т.: Ўқитувчи, 1995 й.
3. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. – Т., 2007.
4. Михайлова А., Носова Э. Д., Столяр А. А., Полякова М. Н., Вербенец А. М. Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста. – Издательство «Детство-пресс». Санкт-петербург, 2008.

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH METODIKASI

Tolibboyeva Sabina Sherzod qizi

O'zDJTU 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash o'zining bir qator mezolariga ega. Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy jihatdan maktabga tayyorlash, ularning maktab ta'limida zo'riqmasligi, ta'limning uzliksizligi va samaradorligini ta'minlovchi asoslardandir. Ushbu maqolani o'qib chiqish orqali siz bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning bir qancha metodikalari bilan tanishib olasiz.*

Kalit so'zlar: *maqsad, vazifa, mazmun, ta'lim, davlat talabi, pedagogika, bola psixologiyasi, maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, aqlan rivojlanish, ma'nan rivojlanish, jismonan rivojlanish.*

hududlarda istiqomat qiluvchi insonlar shaxarga kelganlarida ifloslangan havoni tasirida bosh og'rihi ko'ngil aynishi kabi holatlar sodir bo'ladi. Avtomobil divigatellarida yonilg'ini yonishida atmosferaga chiqariladigan gazlar tarkibida 300 dan ortiq zaxarli birikmalar bo'lib, buning 60% aerozol holatida atmosferaga chiqarib tashlanishi avtotransportlar hissasiga to'g'ri keladi. Avtomobillar tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar ulushi 50 foizga yetgan bo'lsa, o'tgan asrning 70-yillarida bu ko'rsatkich atigi 10-15 foizni tashkil etgan. Katta shaharlar va zamonaviy megapolislarda esa bu ko'rsatkich 65-70% ga yetishi mumkin. Bundan tashqari, emissiya miqdori har yili taxminan 3% ga oshadi va bu jiddiy tashvish tug'diradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga asosan, avtomobil transportini ishlashi natijasida atrof muhitni zararlantirishi quyidagi ko'rsatgichlarga asosan harakterlanadi: masalan AQSH da har yili 142 mln.t. Zararli moddalar atmosferaga chiqsa, buning 86 mln.tsi avtomobillarni ishlashi natijasida hosil bo'ladi.

Hususan ma'lumot uchun aytishimiz joizki poytaxtimiz toshkent shaxari uchun Avtotransport vositalari har yili 395 tonna zaharli gazlar bilan ifloslantirmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan gazlarning 90 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi

O'zbekiston bo'yicha 2018 yilda atmosferaga 2 million 449 ming tonna zaharli gazlar chiqarilgan bo'lsa, ularning 60 foizi avtotransport vositalari hissasiga to'g'ri keladi va bu rivojlangan davlatlarda belgilangan standartlardan 3 baravar ko'p demakdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda havoning ifloslanishidan kelib chiqadigan yillik o'lim darajasi har 100 ming aholi soniga 81,1 tani

tashkil qiladi. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich 40 dan past, Ruminiya 59,3, Bolgariyada 61,8 ni tashkil etadi.

Xulosa: Yuqorida sanab o'tilganidek, to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlar shovqin bilan ifloslanish va uglerod oksidi emissiyalar bilvosita ta'sirlar bilan birga atrof-muhitga bevosita va zararli ta'sirlarni yaratadi. Bilvosita ta'sirlar ko'pincha yuqori oqibatlariga olib keladi, bu esa buning teskarisi degan noto'g'ri tushunchaga olib keladi, chunki dastlabki ta'sirlar eng katta zarar etkazishi tushuniladi. Masalan, ichki yonish dvigatelining to'liq bo'lmagan yonish natijasi bo'lgan zarrachalar, nafas olish va yurak-qon tomir muammolari bilan bog'liq emas, chunki ular nafaqat ushbu holatga, balki boshqa omillarga ham ta'sir qiladi. Atrof-muhitga ta'sirlar odatda birma-bir sanab o'tilgan bo'lsa ham, ta'sirlar ham mavjud. Transport faoliyatining sinergetik oqibatlari. Ular ekotizimga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sirlarning turli xil ta'sirini hisobga olishadi. Iqlim o'zgarishi bir nechta tabiiy va inson tomonidan yaratilgan omillarning yig'indisi. 15% global CO₂ emissiya transport sektoriga tegishli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Transportning atrof-muhitga ta'siri (wikidea.ru)
2. Dolzarbligini yo'qotmaydigan mavzu (kun.uz)
3. Tabiiy ofatlar: xususiyatlari, sabablari, turlari, oqibatlari - Fan - 2022 (warbletoncouncil.org)
4. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlari (fayllar.org)
5. Qarshi davlat universiteti falsafa kafedrasi tabiat va ekologik muammolar (denemetr.com)

ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ

Назарова Нилуфар Жўраевна

*Тошкент давлат транспорт университети
катта ўқитувчи*

Муратова Дилдора Абдуманнаповна

доцент в.б

Тошкент давлат транспорт университети

Жуманиязова Насиба Сапарбаевна

ўқитувчи Тошкент давлат транспорт университети

Аннотация: *Бугунги кунда аёллар барча соҳаларда бўлгани сингари, темир йўл тизимида ҳам фидоий мутахассис кадр ва юсак интеллектуал тафаккур соҳибалари сифатида ҳам ўзини намоён этиб келмоқда. Мақолада Ўзбекистон темир йўл транспорти тизимида фаолият олиб бораётган аёл кадрларни, бу соҳадаги фаолияти ўрганилиб, ўзига хос хусусиятлари социологик тадқиқот асосида таҳлил ва тадқиқ этилди. Соҳада фаолият олиб бораётган аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш билан боғлиқ муаммолар ва уларнинг ечимлари юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.*

Калит сўзлар: *Меҳнат ресурси, аёллар бандлиги, малакали кадр, психофизиологик мослашувчанлик, рағбатлантириш тизими.*

Бугунги кунда иқтисодиёт, сиёсат ва ижтимоий соҳаларни англашга ва уларни тараққий эттиришда янгича ёндашиш жараёни яққол кўзга ташланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан қабул қилинаётган Фармон ва Қарорларнинг ижросини таъминлаш жараёни илмий салоҳият ва интеллектуал ёндашув заруриятини янада кучайтирди. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида белгиланган вазифалар ижроси борасида катта илмий салоҳият талаб этилиши ушбу ҳаёт ҳақиқатини яққол ифодалайди. Жумладан, унда “хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни давлат ва жамият бошқарувидаги ўрнини кучайтириш, хотин-қизлар, касб-ҳунар коллежи битирувчи қизларининг бандлигини таъминлаш, уларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб этиш, оила асосларини янада мустаҳкамлаш” устувор вазифалардан бири сифатида белгиланганлиги аҳамиятлидир.

Мамлакат аҳолисининг дунёқараши ва тафаккури ўзгарди, фуқаролар мамлакатда амалга оширилиши кўзда тутилаётган ислохотларга Халқ қабулхоналарида ўз муносабатини билдириб келмоқда. Асосийси келиб тушган ҳар бир таклиф ёки саволга давлат органлари томонидан ўз вақтида жавоб берилмоқда.

Бу Ўзбекистонда демократик тамойилларни ҳаётга татбиқ этиш йўлидаги амалга оширилаётган ислохотларнинг ижобий натижасидир. Хусусан, Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимда: “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак ва бу ҳақиқатни аввало барча бўғиндаги раҳбарлар яхши тушуниб олиши зарур” [1] - дея таъкидлаган эди.

Ўзбекистон Республикаси қонунларига кўра, меҳнатга яроқли ёшлар бўлиб, 16 ёшдан 59 ёшгача эркеклар учун, ва 16 ёшдан 54 ёшгача аёлларга белгиланган. Меҳнат ресурслари таркибига I ва II гуруҳ ногиронлари ва муддатидан олдин пенсияга чиқиб ишламайдиган пенсионерлар, (5 ва ундан кўп бола туғиб, уларни 8 ёшгача тарбиялаган аёллар, болаликдан ногиронларни 8 ёшгача тарбиялаган оналар, ва меҳнат стажидан қатъий назар 50 ёшга етганда пенсия оладиган аҳолининг баъзи қатламлари: оғир ва зарарли меҳнат билан шуғулланадиганлар - аёллар 45-50 ёшда, эркеклар 50-55 ёшда пенсияга чиқадилар) [2]. Шу билан биргаликда, меҳнат ресурсларига пенсия ёшида ишлаётган қариялар ва ишлаётган ўсмирлар ҳам киритилади. Бинобарин, меҳнат ресурсларини реал ва истиқболдаги деб қараш мумкин, аммо реал меҳнат ресурслари булар, аҳолининг иш билан банд қисми истиқболдаги меҳнат ресурслари эса ишламайдиган, лекин меҳнатга яроқли қисмидир.

Мамлакатимиз меҳнат ресурсларининг 98,9 фоиз қисми меҳнат ёшидаги меҳнатга лаёқатли аҳолидан иборат бўлгани ҳолда, аҳолининг меҳнатга лаёқатлилиқ даражаси 95,9 фоизни ташкил этмоқда. Меҳнат ресурсларининг 1,1 фоиз қисми эса ишлаётган ўсмирлар ва пенсионерлардан иборат бўлиб, бу кўрсаткичнинг ўтган йилга нисбатан ўсиши кузатилган. Мазкур ўсиш эса меҳнат бозорида ўсмир ва пенсионерларнинг нисбатан фаоллашувини билдиради.

Шунингдек, демографик жараёнлар ичида туғилиш кўрсаткичи иш билан бандликка катта таъсир кўрсатади. Чунки фарзанд дунёга келиши натижасида аёллар вақтинчалик ишчи кучи сафидан чиқади ва иқтисодий нофаол аҳоли таркибига қўшилади. Ўзбекистонда аёллар фарзанди камида 2 ёшга ёки 3 ёшга етгунча туғруқ таътилида бўлади. Демак, бу ҳолатда аёллар камида 2 йилдан сўнггина яна иқтисодий фаол аҳоли таркибига қайтиши мумкин бўлади. Шу сабабли мамлакатда туғилишнинг юқори кўрсаткичи аёллар иш билан бандлигига таъсир қилувчи бош омиллардан бири ҳисобланади. Бугунги кунда республикада йилига ўртача 550,0 минг нафар чақалоқ туғилади, бу эса ўз навбатида шунча миқдордаги аёлларнинг меҳнат бозоридаги фаоллигига маълум муддат бўлсада чек қўяди.


Ўзбекистонда хотин-қизларнинг ижтимоий меҳнатга жалб қилиниши ва жамиятнинг фаол аҳолиси таркибига қўшилиши ўзига хос хусусиятга эгадир. Маълумки, хотин-қизларнинг меҳнатда бандлиги эркеклардан иш билан бандлигидан иккита асосий жиҳати билан фарқланади. Авваламбор, аёллар нафақат ишловчи, балки она, уй бекаси, келажак авлод тарбиячиси. Иккинчидан, кўпчилик хотин-

қизлар эркакларга нисбатан кам миқдорда ҳақ тўланадиган ишга жалб қилинганлар, шунингдек, уларнинг асосий меҳнат фаолияти ҳақ тўланмайдиган шаклдадир.

Меҳнатда банд аёлларнинг катта қисми учун иш, нафақат зарурият, балки эҳтиёж ҳамдир. Иш билан бандлик аёлларни (айниқса уй бекаларини) бир тусдаги фаолият (кундалик уй-хўжалик юмушлари)дан даромад ва моддий манфаат келтирадиган иқтисодий фаолиятга ўтишларига сабаб бўлади.

Республикамизда сўнги йилларда рўй бераётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар ва туб ўзгаришлар хотин-қизларнинг иш билан бандлик муаммолари ва уларнинг меҳнат бозоридаги ўрнини белгилаб берди. Жумладан, хотин-қизларнинг темир йўл транспорт тизимидаги фаолиятини ўрганиш мақсадида, “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти Тошкент темир йўл минтақавий темир йўл узели унитар корхонасига қарашли Тошкент алоқа ва сигналлаштириш дистанцияси (ШЧ-1) корхонасида фаолият олиб борувчи ходима-аёллардан сўров ўтказилди. Сўровномада 120 нафар 20 ёшдан 52 ёшгача бўлган респондентлар иштирок этди. Қуйида келтирилган социологик сўров натижаларидан айримларини келтириб ўтамыз.


Респондентларга берилган саволлар ичида “Сиз ишлаётган темир йўллар тизимига кирувчи корхона, ташкилотларда хотин-қизларга эътибор ва муносабати қандай?” - деган саволга 38 фоиз аъло даражада эканлигини билдирган. 52,4 фоиз яхши эканлигини, 9,5 фоиз респондентлар қониқарли деб таъкидлаб ўтишган. (1-диаграмма) Албатта ҳар бир жамоада хотин-қизларга берилаётган эътибор аёлларнинг касбий психофизиологик мослашувчанлигига ва меҳнат самарадорлигига ҳам ижобий таъсир ўтказиши.



1-диаграмма. Сиз ишлаётган темир йўллар тизимига кирувчи корхона ташкилотларда хотин-қизларга эътибор ва муносабати қандай?


“Корхона раҳбарияти томонидан хотин-қизларга алоҳида тартибда рағбатлантириш тизими борми?” - деган савол билан биз аёлларни руҳиятини ва фаолиятга бўлган позитив ҳаракатларини кучайтириш учун ташкилотлар қандай усуллардан фойдаланишларини аниқлашга ҳаракат қилдик. Сўралганларнинг 52 фоиз муқофотни белгилашган, 33 фоиз респондентлар эса, разрядни кўтарилишини қайд

этишган. Хизмат соҳасини кўтариш имкониятига 5 фоиз дейишган бўлса, яна 5 фоиз респондентлар бепул таълимни белгилашган, яъни бунда мутахассисларнинг малакасини оширишга қаратилган курсларни назарда тутишган, 5 фоиз унга эътибор берилмаслигини қайд этишган. (2- диаграмма) Ҳар бир инсон ўз меҳнатининг қадрланишини истайди ва ҳеч бўлмаганда маънавий рағбатни кутади. Агар ушбу ҳолатлар инobatга олинмаса, ишчилар, ходимлар ва мутахассисларнинг меҳнат жараёнларидан бегоналашиши кучаяди. Бегоналашиш жараёни чуқурлашса, унинг олдини олиш ва унга чора излаш ҳам шунчалик мураккаблашади. Албатта бу ҳолат ишнинг самарадорлигига ҳам ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди.



2-диаграмма. Корхона раҳбарияти томонидан хотин-қизларга алоҳида тартибда рағбатлантириш тизими борми?

“Ташкилотингизда ёшлар ҳамда хотин-қизлар қўмитаси маъмурияти билан ҳамкорликда ишлайсизми, уларни яқиндан танийсизми ва сизга амалий кўмак кўрсатганми?” - деган саволга 43 фоиз респондент муаммолар баратараф этилмаганини, 38 фоиз эса ижобий ҳал этилишини белгилашган, 19 фоиз жавоб бермаганлар. (3-диаграмма) Бундан кўриниб турибдики, корхонада аёллар ижтимоий муаммолари мавжуд эканлиги, лекин ижобий томонга ҳал этилишига ишончсизлик билдирилиши, ушбу ташкилотларнинг эса эътиборсизлигини қайд этиш мумкин.



3-диаграмма. Ташкилотингизда ёшлар ҳамда хотин-қизлар қўмитаси маъмурияти билан ҳамкорликда ишлайсизми, уларни яқиндан танийсизми ва сизга амалий кўмак кўрсатганми?

Глобаллашув жараёнларининг фаоллашуви давлат ҳамда турли даража ва соҳадаги раҳбарларнинг ўз фаолиятидаги ижтимоий-маънавий йўналишга эътиборини кучайтиришни талаб этади. Шу билан бирга, ҳар қандай мустақил давлат сингари ўз ҳудудида моддий неъмат ва маънавий қадриятларни сақлаш, ҳар томонлама ривожлантириш Ўзбекистон давлатининг асосий мақсади бўлиб қолади. Бу масала эса юқори малакали кадрларни тайёрлаш ва уларни оқилона бошқариш билан боғлиқдир. Шундай қилиб, келгуси йилларда, Ўзбекистон транспорт тизими соҳаси корхоналари ўртасида малакали кадрлар учун қаттиқ рақобат юзага келиши мумкин, шунинг учун ҳозирги кунда кадрлар салоҳиятини шакллантириш ва ривожлантиришга алоҳида эътибор бериш керак [3, 4, 5, 6, 7, 8].

Юқоридаги хулосалар асосида қуйидаги таклифларни илгари сурамиз:

- темир йўл транспорт тизимида фаолият олиб бораётган аёллар мавқеини мустаҳкамлашга доир уларга тегишли шарт-шароитлар яратиш;

- темир йўл транспорт тизимида фаолият олиб бораётган аёлларнинг ижтимоий, психологик, физиологик (аёл организми ва оналикни ўзига хос жиҳатлари билан) хусусиятларидан келиб чиқиб, белгили хизмат муддатини ўтаб тайинланадиган маош эркаклардан фарқли равишда уларга нисбатан камроқ муддатда берилишига эришиш;

- Аёлларнинг меҳнат реабилитациясида касб маҳорати ва қайта тайёрлашни такомиллаштириб бориш;

- Вилоятлар темир йўл узеллари контораларида фаолият олиб бораётган ходимлар учун кичик танаффуслар орасида дам олиш жойларини ташкил этиш;

- Ишдаги ва оилавий келишмовчиликлар туфайли рухий жиҳатдан стресс ҳолатига тушган аёллар учун бепул психологик маслаҳат марказларини ташкил этиш;

- “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамияти ходимларини уй-жой билан таъминлаш ва уй-жой жиҳозларини сотиб олиш учун имтиёзли кредитлар беришни йўлга қўйиш;

- Темир йўл транспорт соҳасида фаолият олиб бораётган аёллар учун турли хил спорт мусобақаларида кенг жалб этишни йўлга қўйиш орқали аёлларни соғлигини мустаҳкамлашга эришиш;

- Темир йўл транспорт тизимида хотин-қизлар билан ишлаш қўмита ишини такомиллаштириш орқали аёллар ҳақ-ҳуқуқлари ва ижтимоий ҳимоя қилиш масалаларини кучайтириш.

REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма олти йиллига бағишланган тантанали маросимида Президент Шавкат Мирзиёев нутқи. <https://kun.uz/news/>
2. Ўзбекистон Республикасининг меҳнат кодекси. // <http://www.lex.uz>
3. Назарова, Н. Ж. (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИНГ КАСБИЙ РАҚОБАТБАРДОШЛИК СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ (ТРАНСПОРТ СОҲАСИ МИСОЛИДА). Academic research in educational sciences, 3(6), 765-771.
4. Юнусова, Н. Ш., Назарова, Н. Ж., & Жуманиязова, Н. С. (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование (Узбекистан), (6 (115)), 9-16.
5. Muratova Dildora Abdumannapovna, & Nazarova Nilufar Juraevna. (2022). THE ROLE OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF YOUNG PEOPLE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 67–70. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2078>
6. Abror Sanakulov, Dustmurod Rakhmonov, Nilufar Nazarova. (2020). Social Service Technologies and Mechanisms of its Implementations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(3), 14192 - 14198. Retrieved from <http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/31869>
7. Самаров, Р. С. (2015). Таълим мазмунини белгилашнинг структуравий-функционал жиҳатлари (шахсга йўналтирилган таълим мисолида). Современное образование (Узбекистан), (12), 9-14.
8. Nazarova N. J. UDK: 711.6 YOSHLARNING KASBIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA TA'LIMNING O'RNI //ILMIY AXBOROTNOMA. – С. 80.

MONITORING DEMOGRAPHIC PROCESS BY INTEGRATION OF GEOINFORMATION SYSTEMS AND GPS ACCESSORIES

Abdurakhmonov S.N

Akmamatova M.K

*“Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National
Research University, Kory Niyoziy str., 39, 100000, Tashkent, Uzbekistan.*

Abstract :- *Research results in this article is based on facts of the demographic data of the southern region of the Uzbekistan. The article explains how developing the demographic process data acquisition and systematic mapping by using the latest methods and technologies, visualizing maps by using ArcGIS and MapInfo software’s. The practical significance of the research results is primarily to use of scientific conclusions and recommendations made on the specific manuals, as well as the use of targeted government programs and practical measures to regulate demographic processes from the theme and map projection.*

Keywords: *Cartographic, aerospace, statistical, GIS technologies, ArcGIS, MapInfo, survey questionnaires, regional analysis, mathematical modelling.*

I.INTRODUCTION

Today, the development of modern map-based methods directly relates to Geoinformation systems and technologies. Studying the effects of urban demographic processes on urbanization growth dynamics has attracted many experts today. It is noteworthy that the role of the cards created on the basis of modern methods and technologies is crucial to continuing such processes.

Gathering, storing, digitizing, analyzing, processing, registering, evaluating and predicting geographical information on the globe through the use of modern methods and technologies of space surfacing, space-based modeling and visualization are of particular importance. These processes attach great importance to the use of modern methods and technologies in creating demographic process cards in regions of the country, including the southern region.

Targeted research has shown that GATs in demographic processes need to be collected in order to collect demographic information and form their database in the region. In the demographic process, the GAT is the address, the coordinates, the data, and the economic parameters of the object.

Modern GIS technology is an effective approach to building demographic processes and performing specific tasks and analyzing problems. demographic processes, mapping of cartographic layers, and forecasting on topographical basis on data coordinates, and providing a single cadaster system over the coordinates of each object in the presentation.

In the demographic process, GAT is a cartographic algorithm for mapping them, and the development of the card algorithm is focused on the cardboard models and systems of communication objects.

II. THE MAIN PART

Manufacturers of leading geodetic instruments in the world are producing modern optical electronic devices, as well as electronic digital guides.

Receivers are traded mainly for geodesy, cartography and navigation purposes. To date, several generations of GPS receivers (ProMark, Ashtech, Leica, Sokia and Trimble) have been used by state-run enterprises and private commercial enterprises in geodesy and cartography. Nowadays, the GPS grips used in the agricultural sector are mostly one- and two-frequency, since the accuracy of centimeters is in units of measurement, and it is necessary to link the state geodetic points to further enhance the accuracy.

Geodetic point is the point where geodetic methods are used to determine the position of coordinates. Geodetic point coordinates (position) are used to determine where the coordinates are at the high point. The coordinates of the geodetic point are determined primarily by "Triangulation" methods. For long-term use of geodetic points, their location on the surface of the surface is determined by a special concrete cast (monolith), called the geodetic center. In addition, a pyramidal tower (geodetic signal) is constructed at the geodetic point. Geodesic point sets are called geodetic base stations. They are divided into state geodetic, local geodetic and planning points. Geodetic base stations are the basis for topographic plans, but also serve as a basis for addressing geodetic and engineering-technical issues of the national economy and the state.

Geodetic network is a network based on triangulation, trilateral and polygonometric surfaces. It can be divided into 4 levels, its width can range from 20 to 25 meters to several hundred meters. They are mainly constructed in the form of a triangle, that is, the interconnection of several geodetic points forms the geodesic network.

The corners of the geodesic points are determined by the exact theodolites. The accuracy of the accuracy can be from 0.7 to 2, and in some cases, the accuracy can be higher than the coordinates of the geodetic point points by geodetic and astronomical measurements, and the altitudes are determined by the method of leveling to the sea level taken as the starting point.

Sectors and their points are established by the project created by the Department of Geodesy and Cartography of the Land Resources, Geodesy, Cartography and State Cadastre of the Republic of Uzbekistan. Earth's satellites have been able to link geodetic continents and establish world geodetic networks through land observation.

The total density of points 1, 2, 3 and 4 of the state satellite geodetic network is at least one point per 50 km². The geodetic coordinate system (SR42), which is currently in force in 1942, operates on the territory of the Republic of Uzbekistan. At the same time, Uzbekistan has a geodetic network of satellite geodetic networks and is based on the principle of their development. State satellite radio navigation systems The state satellite

geodetic networks to be built using NAVSTAR (USA) and GLONASS (Russia) and other space-based geodesy systems include: Reference system geodetic points; 0 class satellite geodetic network; 1st class satellite geodetic network. State satellite geodetic network locations are identified in two coordinate systems - public and referencing systems. The connection between the two systems is interconnected from the connection settings. We believe that the creation of geodetic networks in our country should be based on the state geodetic points and lines. As you know, the permanent base station consists of satellite geodesy and antennae. This base station is fixed in a reliable location and operates with a source of uninterrupted power supply. The data receiver receives satellite signals itself. The received signals are processed and transmitted to other devices at the same time, ensuring the operation of the device. The requirements for accuracy, density and stability of geodetic networks are varied.

There are several prerequisites for working in satellite geodetic networks, which are the products of such major companies as Stonex, Leica, Trimble, and Magellan.

Figure 1. GPS stations in Uzbekistan and Magellan GPS receiver

Magellan, one of the aforementioned companies, uses GPS (figure 2), a company known as Ashtech (French), to be a precursor to digital cameras and navigation guides.

For download of any digital card of agricultural objects to a GPS navigator, it is necessary to bring the layers of the digital card into the * .shp format. The Navigator 's Mobile Mapper Office program opens and the "Background Map" button is pressed.

Opens a window called "Background Map". In this box, press the cardholder card button. "Add Data" button is pressed from the next window. As a result, the "Add layer" window opens and the existing layers in * .shp format are highlighted and the button is pressed. (Figure 3).

Figure 3. Uploading vector layer window

Then there is a situation in the window shown in the second picture, and we will look at the layers, the conditional character, and the process of writing. When you press the left mouse button two times over any desired layer, a window opens with the name "Parameter of Layer.

Type of the conditional character, size, name, color, maximum range and classification of the auxiliary window items is clicked and the "OK" button is pressed.

After each sequence has been replicated with this sequence, the "Save Project" button is pressed and a name for the project will be pressed once again, then press the "Map" button and the map we want to print will be saved into the workstation and press the release button (Figure 4).

Return to the window, and then click again to display the layers in the worksheet (Figure 4). Mobile Mapper office software window. Next, the GPS navigator software is loaded and the drive type is entered in the Mobile Mapper column and then the USB port connects to the computer. The computer is selected by the Mobile Mapper office and the "Vogue Phone" button is selected for the "Background Map". The window opens on the

working glass under the name "Parameter GPS" and will automatically wait until it is connected to the navigator. When you find the navigator, the white button is pressed and the layers in the navigator will start to float in the background. At the end of the work, the Navigator's menu button is pressed and entered in the "Settings" line in the menu.

Figure 4. Editing vector layers worksheet

As a result, auxiliary functions of the "Settings" will be created, the "Choose Map" function will be selected from the card of the card, and the "OK" key will be pressed.

The layers in the * .shp format are loaded into the working window, depending on the region's coordinates. Navigators with this capability, having enough experience and experience through performing the above sequence, can also be tested and tested for this feature.

III. INTEGRATION OF INFORMATION INTO DATABASE CREATION WHEN CREATING DEMOGRAPHIC MAPS

With the help of GPS receivers, it is required to carry out research by experts in the field to collect or update regional data. Before carrying out the research, GPS receivers are loaded with an electronic digital map created and developed by ArcGIS based on the above series (Figure 5).

The downloaded electronic digital map is activated on the GPS receiver. The GPS receiver is commanded to connect with satellites to work. Connecting to satellites requires at least 4 channels to be filled, and PDOP error corrections should not exceed 5. On the territory of the Republic of Uzbekistan there are about 10 to 12 satellite connections. There are 4 to 8 satellites in areas with high mountains, mountains and magnetic fields. The following demographic information will be studied in the area during the survey as Table 1.

Table 1

- total population; - nations;
- women; - deaths (decrease);
- men; - Birth (growth);
- children; - labor resources;
- persons with disabilities; - population employment.
- loneliness; - other demographic information

This information is learned from reliable sources and is included in the GPS receiver.

Figure 5. An electronic digital map created by ArcGIS

Figure 6. Demographic trend of Kashkadarya region, Uzbekistan

Before uploading data into the GPS receiver, the coordinates are obtained from the dotted area, depending on the geographical location of the area. the aggregated information will be included in the table of attributes of the coordinates taken. the information included in the database is integrated into the online server for integration with the software. the backup data is automatically backed up on the server for emergency

situations. then, the information is automatically retrieved to the memory of the working computer (Figure 7).

Figure 7. Integration structure of the system

An electronic digital map created by ArcGIS is loaded on the computer. Imported points and data collected using the GPS receiver are imported into the downloaded electronic digital map. Imported points are coordinated automatically in accordance with the geographic location of the state coordinate system. The information fills in the worksheet. Based on the data in the index of the index, the conditional signs are formed based on all indicators. Conditional characters are visualized in the form of several diagrams (Figure 8).

Figure 8. Received and updated online information from regions

After completing ArcGIS software and GPS receiver interoperability, in subsequent studies, data is automatically retrieved to the database. Database is based on ArcGIS database and worksheet "Updates" for database visualization based on new information. (Figure 8)

Indicators of the level of quality and quantitative scales of quantitative and qualitative assessments of the degree of necessity of introduction of aero-space photography in the process of GIS maintenance in demographic processes were developed. Cards were created in GIS technologies used to improve cartographic and geodetic support for creating demographic cards based on GIS technologies.

Summary

GPS receivers and data retrieval systems, the world's leading geodetic instruments manufacturers have developed modern optical electronic devices and electronic digital navigation nodes, with the ability to follow the business process steps of a typical GPS object, add the attribute and the picture in the final step more is given. As a result of the above mentioned sequences, topographic geodetic surveys are carried out using GPS in the region.

At present, many state-owned enterprises and businesses use agricultural land in their control, monitoring and planting crops. The Stonex S-3 Series receiver features a wide range of GPS and GNSS handling and panels.

The process of data base formation and integration into the GPS receiver is also detailed. At the same time, the structure of the geodetic network in the country is defined and its development is based on the principles of transition. State satellite geodetic network locations are identified in two coordinate systems - public and referencing systems. The connection between the two systems is interconnected from the connection settings. The analysis of the necessity of state geodetic stations and networks in the creation of satellite geodetic networks was analyzed and process of integration of demographic cards into database was developed. Consolidated data will be automatically copied on the server and the information will be automatically retrieved on the computer's hard disk drive.

After completing ArcGIS software and GPS receiver interoperability, in subsequent studies, data is automatically retrieved to the database. The database is visualized on the basis of new information. The process of creating and updating the created cards in a short time is provided in detail.

REFERENCES:

- [1] Zeyler M. Modelirovaniye nashego mira (rukovodstvo ESRI po proyektirovaniyu bazo geodannox). - M.: MGU, 2001. - 255 p .
- [2] Abduraxmonov.S. Geoinformatic Systems and Technologies (GAT) and Information on the Use of GPS Accessories in Integrated Demographic Process // International Journal of Multidisciplinary Research and Publications ISSN (Online): 2581-6187. 2019 y
- [3] Qayumov. A.A., Yakubov O'.Sh., Rayimjonov Z.H. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari Toshkent 2008 y-26.б.
- [4] M.R. Bo'riyeva Demografiya asoslari. Toshkent 2001y 10-6.
- [5] Q.X.Abduraxmonov X.X. Abdiramanov. "Demografiya" T.2010y 22-127-6
- [6] Pakizateli sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya. Respubliki Karakalpakstan, oblastey i g. Tashkenta.-Tashkent, 2000. - S-8.
- [7] Qayumov. A.A., Yakubov O'.Sh., Rayimjonov Z.H. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari T. 2008 y. 94-6
- [8] "Demograficheskiy ensiklopedicheskiy slovar" Moskva 1985.
- [9] Abduraxmonov S.N., Inamov A.N. Davlat geodeziya punktlarini raqamlashtirish va ob'ektlarni mazkur punktlarga bog'lash // Ўзбекистон Республикаси Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри Давлат қўмитаси ахборотномаси. 2-сон - Т., 2013. - 14 б
- [10] A.A.Qayumov. O'.Sh.Yakubov Z.H.Rayimjonov "Aholi geografiyasi va demografiya asoslari" Toshkent-2018
- [11] Tojiyeva.Z. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joydanishi. Monografiya. - T.: Fan texnologiya, 2010.- 113b.
- [12] Berlyant A.M. Kartografiya: Uchebnik dlya vuzov. - M.: Aspekt Press, 2002, - 162 s.
- [13] Sabitova N.I. Tematicheskiye karta na osnove metoda plastiki relefa v natsionalnom atlase Uzbekistana Nauchno-metodicheskiye osnova sozdaniya natsionalnogo atlasa Uzbekistana, -Tashkent, 2009. -S. 38-40.
- [14] <http://www.ESRI.com>
- [15] <http://gis-lab.info>
- [16] <http://www.geospatialworld.net>
- [17] <http://www.gisig.it/best-gis/Guides/main.tm>
- [18] <http://www.gisinfo.ru>

- [19] <http://lex.uz>
- [20] <http://www.dataplus.ru/>
- [21] <http://www.cadacademy.ru/>
- [22] <http://www.gis.nnov.ru>

KIMYO O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Abdug'ofurova Gulida

Namangan Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kimyo fanining eng dolzarb va zamonaviy innovatsion metodlar va interfaol metodlar haqida ma'lumot berib o'tiladi. Shuningdek, kimyo fanida pedagogik texnologiyalar qanchalik ahamiyatli va o'rinli ekanligi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar ; *innovatsiya, pedagogik mahorat, interfaol metodlar, kimyoviy tushunchalar, interaktiv metodlar.*

KIRISH

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish jarayonida ta’lim muassasalari axhorot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlandi, ta’lim sohasini isloh qilish uchun zarur bo’lgan moddiy texnika bazasi yaratildi. Ta’limni isloh qilishning zamonaviy vazifasi – faol pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, o’quv-tarbiya jarayonini yuksaltirishdan iborat. Shuning uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Kimyo o’qitish metodikasi» fanining nazariy va amaliy asosi qilib olindi. Maktablarda kimyo fanlarini o’qitishga qo’yiladigan asosiy talab – o’quvchilarni kimyoviy bilimlarni chuqur egallashlariga erishishdir. Kimyoviy bilimlarni egallashning eng muhim vositasi – o’qitilayotgan mavzuni tushuntirishda kimyoviy tajribalardan foydalanishdir. Lekin kimyoviy tajribalar va boshqa an’anaviy o’qitish vositalari bilan ko’rsatib bo’lmaydigan atomdagi yadroviy jarayonlar, elektronlarning to’liqsimon harakatida vujudga keladigan fazoviy shakllar, elektrolitik dissotsiatsiyalanish mexanizmi, elektroliz jarayoni, galvanik elementlarda elektr tokining vujudga kelishi, elektrokimyoviy korroziya jarayonlari, reaksiya mexanizmlari, kompleks birikmalar hosil bo’lishidagi kovalent bog’lanishning donor-akseptor mexanizmi, kompleks birikmalar izomerlarining vujudga kelishi, oqsil molekulasining birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to’rtlamchi strukturalarining vujudga kelishi kabi jarayonlarning dinamik modellarini kompyuterda animatsiya qilinib, multimediya mahsulotlari yaratildi. Ular asosida ko’rsatilgan jarayonlarni o’z ichiga oladigan mavzular uchun kompyuter darslari ishlanmalari tayyorlandi. Mavzuga oid testlar ishlab chiqildi va ularni programmalashtirib kompyuterga kiritildi.

Innovatsiya inglizcha (innovation) so’z bo’lib, yallgilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo’lib fikrlash, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning o’ziga xosligi shundaki, jarayon faqat pedagog va o’quvchilarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga

oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O'quvchini dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etadi;
- O'quvchilarni o'quv jarayonida bilim olishga bo'lgan qiziqishlarilli ta'minlaydi;
- O'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda, har bir masalaga ijodiy yondashishini kuchaytiradi;
- Pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

Quyida innovatsion texnologiyani dars o'tish jarayoniga tatbiq etilganda samarali natijalar bergan usullarni ko'rib chiqamiz.

MEDOLOGIYA

“Tarmoqlar” (Klaster) usuli. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchilarni mavzuga oid tushuncha yoki fikrini erkin va ochiq ravishda bir-biriga uzviy bog'lagan holda tarmoqlashga o'rgatadi.

Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini o'stirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yetarli darajada o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi.

Aqliy Hujum.

«Aqliy hujum» guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, muhim g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan usuldir. Bu haqiqatan ham o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish vaqtida boshqa o'quvchilarni ham qizg'in bahsgajalb etishlari, qunt bilan ishlashlariga imkon beruvchi va rag'batlantiruvchi usul hisoblanadi. “Aqliy hujum”ning foydali tamoni shundaki, unda yakka holda ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga jalb etadi.

«Aqliy hujum» turli tarzda, masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish, yangi savol qo'yish yoki istalgan qiziqarli muammoni hal etish uchun qo'llanilishi mumkin. Uning asosiy qoidalari quyidagilar.

1. Aytilayotgan g'oyalarning hammasi bir-biriga nisbatan muhimlikda teng bo'lishi.
2. Aytilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqidning yo'qligi.
3. G'oyani bayon qilayotgan paytda so'zlashuvchining fikrini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponentning yo'qligi.

MUHOKAMA

I-usul- guruhning barcha ishtirokchilariga bir xilda mavzu va savol qo'yiladi.

1. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'lga oladi. Buning uchun u auditoriyadagi o'quvchilarga savol beradi va ushbu mavzuga oid aytish mumkin bo'lgan barcha fikrlarni so'raydi.

2. Barcha, hatto, g'alati tuyulgan g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichidan birgina asosiy mavzu saqlab qolinadi.

3. Aytib o'tilgan barcha fikrlar sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Aytilgan asosiy fikrlarni o'qituvchi doskaga yozib oladi va ekranda ko'rsatadi.

5. «Aqliy hujum» tugagach, barcha g'oyalar to'planadi, guruhlarga ajratiladi yoki kategoriyalarga bo'linadi.

2-usul – barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishni saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalariga taqdim etiladi.

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha yoki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. Ajratilgan har bir guruhchaga «Aqliy hujum» o'tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha «Aqliy hujum» mavzusini yozib olish uchun bittadan o'quvchi ajratadi. Jarayon tenglashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G'oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalangan holda yozib olinadi. Sahifa – plakatining yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo'yiladi. Sahifa-plakat jarayonning oxirida har bir o'quvchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rish uchun osib qo'yiladi.

5. «Aqliy hujum»ning bu usuli qisqa vaqt davomida bir savolning bir nechta jihati yoritilishi zarur bo'lganda foyda beradi.

6. O'qituvchi rahbar – yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga «aqliy hujum» boshlanayotgan paytda yordam berib turadi.

Pigbord . Bu o'qitish metodining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzalligi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchiligidir. Bu usulda o'quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati. Mantiqiy va izchil fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Muammoli o'qituvchi metodi. Bu usul – o'quvchilarga muammoni vaziyatlarni va ularning bilish faoliyatini kuchaytirishga asoslangan. Usulning yo'nalishi vaziyatni aniq tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat.

Usulning yetakchi funksiyalari:

- rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida faktlar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantiradi:

- tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalar hosil qiladi.

- muammoli vazifalardan foydalanish usuli mavzuning dolzarbligini oshiradi, nazariyani amaliyot bilan bog'lashga imkon yaratadi.

Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini mukammallashtiradi. Ilmiy tushunchalar, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida berilgan materialni chuqur mantiqiy tahlil qilishga yordam beradi.

Muammoli vazifa hayotdan olingan faktlarni, ma'ruza va vaziyatni o'rganishdan, odamlar yoki ayrim tashkilotlarning manfaatlarini ko'zlashdan iborat bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa ham, vazifa o'quvchilarga taklif etilgan muammo ko'rinishida bo'lishi lozim.

Agar siz shu usuldan foydalanishga qaror qilgan ekansiz, avvalambor, muammoli vaziyatlarni yaratish usullari bilan tanishib chiqishingizni maslahat beramiz:

- siz o'quvchilarni qarama-qarshilik tomon olib borasiz va uning yechimini mustaqil ravishda o'zlari topishlarini taklif etasiz;

- amaliy faoliyatda duch keladigan qarama-qarshiliklarni ma'lum qilasiz;

- bir savolga turli nuqtayi nazardan yondashishni bayon qilasiz;

- o'quvchilarga hodisani turli vaziyat (yoki shaxs nuqtayi nazaridan) orqali ko'rib chiqishni taklif etasiz (masalan, huquqshunos, moliyachi, o'quvchi va h.k.);

- o'quvchilarni taklif qilingan vaziyatni taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga, faktlarni solishtirishga da'vat etasiz;

- aniq savollar qo'yasiz (umumlashtirish, asoslash va aniqlashga, mantiqiy fikr yuritishga doir);

- muammoli nazariy va amaliy vazifalarni belgilaysiz (masalan, ilmiy tekshirish);

- muammoli vazifalarni qo'yasiz (masalan, ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan dastlabki ma'lumotlar beriladi, muammo yetarlicha aniq bo'lmaydi, bir-biriga qarama-qarshi ma'lumotlar bilan qilingan xatolar yordamida beriladi, uni belgilangan vaqt ichida bajarish talab etiladi.

XULOSA

Innovatsion texnologiyalarning «Muammoli o'qitish», «Klaster», «Aqliy hujum», «Pinbord», «Loyihalash» texnologiyalarini kimyo fanlarini o'qitish jarayonlariga tatbiq etishga oid dastlabki tadqiqotlar ilatijabri dars samaradorligining oshishida va mustaqil ta'limli amalga oshirishda muhim omil ekanligi ko'rsatildi. Misol uchun «Muammoli o'qitish» texnologiyasidan kimyo fanlarining deyarli hamma mavzularini o'qitishda foydalanish mumkin. O'quvchilar diqqatiga havola qilinadigan mavzuga oid muammoli savollar dars jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirgandagina mazkur texnologiya yuqori samara beradi.

Shuning uchun muammoli savollarni tuzishda respublikadagi tabiiy kimyoviy zaxiralar va ulardan mahsulotlar ishlab chiqarish, qiziqarli fan yangiliklari va kirnyo tarixiga oid materiallar, mashhur kimyogar olimlarning kashfiyotlari, kimyoviy elementlar va ularning organizmdagi faoliyati kabi qo'shira materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. «Klaster» texnologiyasidagi yangi mavzu haqida bayon qilingandan so'ng o'tilgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. «Klaster» texnologiyasi o'quvchilarning mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushunchalar yoki g'oyalli ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlarga o'rgatadi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T., «O'zbekiston», 1997.

2. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T., Sharq, 1999.
4. Rahmatullayev N. G. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim Standarti. 5140300-kimyo va ekologiya yo'nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik damjasiga qo'yiladigan talablar. 2003.
5. Umumiy o'rta ta'limning takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari. «Kimyo, flzika, matematika va informatika». Ilmiyuslubiy jumal. NQ4. 2005.
6. Rahmatullayev N. G. Kimyo o'qitish metodikasi fanidan namunaviy dastur. T., OHMTV 2003.
7. Rahmatullayev N.G. Kimyo o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar matni. T., TDPU 2007.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING KIMYO TA'LIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Habiba

Namangan Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi 3-bosqich
talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kimyo fanining pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlar, interfaol o'yinlar qanchalik kerak ekanligi va kimyo fanidagi o'rni ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz.*

Kalit so'zlar *innovatsion usullar, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy interfaol o'yinlar, zamonaviy kimyo.*

KIRISH

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog-olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? s avollariga javob izlash bir qatord qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? –degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, yani o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchi, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To`rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, ularning qo`llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi.

O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o`quv-tarbiya jarayonida qo`llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o`quvchini kim o`qitayotganligi va o`qituvchi kimni o`qitayotganiga bog`liq. Pedagogik texnologiya asosida o`tkazilgan mashg`ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o`z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o`z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovatsion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarini o`zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish uslublari interfaol uslublardir, innovatsion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

MUHOKAMA

Innovatsiya (inglizcha-“ innovation”) yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoluyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter” – bu o`zaro. “act” – harakat qilmoq) – o`zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo`lishni anglatadi. Boshqacha so`z bilan aytganda, o`qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo`lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo`ladilar, ular biladigan va o`ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladilar. Interfaol darslarda o`qituvchining o`rni qisman o`quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo`naltirishga olib keladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o`rta ta`lim maktablari o`qitish jarayonida uch muhim funksiyani amalga oshiradi. Ta`lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish. Bu funksiyalarning har biri alohida ilmiy bilimlar sistemasining o`rganish ob'ekti hisoblanadi. Ta`lim berish funksiyasini didaktika, tarbiyalash funksiyasini tarbiya nazariyasi, rivojlantirish

funksiyasini esa psixologiya o'rganadi. Kimyo fanining o'zi ham alohida murakkab tushunchalardan iborat sistema hisoblanadi. Bu uning funksiyasi va kimyoviy tushunchalarning o'zaro qo'shiluvi natijasida yangi sistema hosil bo'ladi, va bu sistema kimyo o'qitish metodikasi deb nomlanadi.

Kimyo o'qitish metodikasining fan sifatida tan olinishida yuqoridagi barcha sistemalarni uning tarkibiy qismlari sifatida qarash lozim. Chunki bu sistemalar bir tomondan kimyo o'qitish metodikasini fan sifatida yaratsa, boshqa tomondan psixologik asoslarini tashkil qiladi. Shunga asoslangan holda kimyo o'qitish metodikasi – o'quvchilarga ta'lim va tarbiya beruvchi, ularning dunyoqarashlarini rivojlantiruvchi pedagogik fan deyish mumkin.[1]

Bizga ma'lumki, har qanday to'g'ri tashkillangan metodika ayni predmetning mazmunidan kelib chiqib, shu yo'nalishlarga oid bilimlarni tarixini rivojlantirishga asoslanishi zarur. O'quvchilarning yoshi, individual qiziqishi, qobiliyatlari, jamiyat talablarini inobatga olish, fan – texnika yutuqlarini o'qitish jarayoniga tadbiiq etish, o'quvchilarning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishlariga olib keladi. Kimyo o'qitish metodikasi oldida boshqa har qanday fan oldida turganidek, bajaradigan funksiyani aniqlab olishda quyidagi muammolar mavjud.

– muammo. O'qituvchi, avvalo, ayni predmetni o'qitishning maqsad va vazifalarini aniqlab olish lozim. Bu esa nimani o'qitish kerak degan savolga javob talab qiladi.

– muammo. O'quv predmetining mazmunini didaktik talablar va tegishli ilgari surilgan maqsadlarga mos bo'lishi lozimligi. Bu esa nimani o'qitish kerak degan savolga javob talab qiladi.

- muammo. O'qitishning forma, vosita va metodlarining mazmunini tanlab qayta ishlab chiqish zarur. Bu muammoni hal qilish uchun qanday o'qitish kerak degan savolga javob talab qiladi.

1. – muammo. O'quvchilarning ayni predmetni o'zlashtirish darajasini aniqlash. Bu muammo o'quvchilar qanday o'qiyabdi. Degani savoldga javob izlash talab qiladi.

NATIJA

Barcha muammolarni hal qilish yuqorida sanab o'tilgan uch funksiya nuqtai nazaridan qarab chiqilishi kerak. Muammolarni hal qilishdagi bunday yondashuv sistemalar strukturaviy yondashuv deyiladi. Pedagogika ilmgohlarida kimyo o'qitish metodikasi fanini o'qitilish talabalarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi. O'qituvchining egallagan metodik bilim saviyasi, uning dars bera olish qobiliyati, dars samaradorligini va o'quvchilar o'rtasidagi obro – e'tiborini belgilab beradi.

Kimyo o'qitish metodikasi fani psixologiya va pedagogika, shuningdek boshqa tabiiy va ijtimoiy gumanitar fanlar bilan uzviy bog'langan. Kimyo o'qitish metodikasida falsafiy, siyosiy, iqtisodiy tushunchalardan keng foydalaniladi, pedagogik va psixologik bilimlarga asoslanadi. O'qitish jarayonining qonunlarini o'zgartirish psixologiyasini bilmasdan turib, kimyoni o'qitish mumkin emas.

XULOSA

Kimyo o'qitish metodikasining o'quv fani sifatida asosiy vazifasi – bo'lg'usi kimyo o'qituvchilarini o'rta maktabda ishlash vaqtida zarur bo'ladigan bilimlar va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Kimyo o'qitish metodikasi fani bo'lajak kimyo o'qituvchilariga maktabda o'zining ilmiy – tarbiyaviy faoliyatini qanday tashkillashni, bunda texnika havfsizligi va atrof – muhit muhofazasini masalalarini doimo yodda tutish zarurligini o'rgatadi. Kimyo o'qitish metodikasi ma'lum ketma-ketlikda bir sistemaga solingan holda o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://azkurs.org/mominova-risolat-xabibulla-qizining.html?page=43>
2. N.G'.Rahmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov "Kimyo o'qitish metodikasi"
Toshkent-Moliya Jizzah-2013

INSONIYATNING HAYVON EKOLOGIYASIGA SALBIY TA`SIRI

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi

JDPU. Biologiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasida o`qituvchisi

Toshpo`latova Noila Ergash qizi

4 – bosqich talabasi

Hamdamova Umida Umidbek qizi

, 4 – bosqich talabasi

Orifova Maxliyo Nasriddin qizi

SamDU 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: *Fan – texnikaning jadal suratlar bilan rivojlanishi insoniyat ehtiyojining ham jadallik bilan o`shishiga olib keldi. Bu esa insonning tabiat ne`matlaridan ko`r ko`rona, tartibsiz va ayovsiz foydalanishiga sabab bo`lib, tabiatni qashshoq holatga kelishiga olib kelmoqda.*

Kalit so`z: *Xorda, tip, mo`yna, zot, go`sht, vitamin, timsoh, zahartish, qush, toshbaqa, turna, tuvaloq, baliq, kitob, qizil, bulduruq, kurka, maymun, orangutan, kit, delfin, karkidon, bug`u.*

Xordali hayvonlar (Chordata) tipi vakillari inson hayotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Yovvoyi xordali hayvonlar go`shti, terisi, mo`ynasi, yog`i va boshqa maqsadlarda foydalaniladi. Yovvoyi umurtqali hayvonlardan uy hayvonlari zotlarini yaxshilash, mahsuldor hayvonlar zotlarini chiqarish maqsadida ham foydalaniladi. Shuning uchun noyob va yo`qolib borayotgan umurtqali hayvonlar turlarini muhofaza qilish orqali ularni saqlab qolish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Insoniyat o`zining murakkab va bitmas tuganmas ehtiyojlarini qondirish yo`lida hayvonot olamidanda ayovsiz foydalanib kelmoqda. Jumladan, baliq ovlanishi man etilgan paytda brokonerlar tomonidan baliq ovlanib, juda ko`plab baliq chavoqlarining nobud bo`lishiga, qushlardan go`shti, tuxumi, dekorativ, jang maqsadlarda foydalanish ko`plab qushlarning soni keskin kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa tabiatning nochor ahvolga kelishiga sabab bo`lib bormoqda.

Ayrim xordali hayvonlar ustida esa juda ko`plab inson tomonidan tajribalar o`tkazilmoqda. Madaniy hordiq chiqarish maqsadida tutib, hayvonot bog`lariga keltirilmoqda. Alal oqibat ko`plab yovvoyi hayvonlar soni keskin kamayib, himoyaga muhtoj holatga kelib qoldi. Ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Zahartishlilar oilasiga 2 ta tur kiradi va ular kaltakesaklar kenja turkumi orasida birdan – bir zaharli guruh hisoblanadi. Zahartishlilar Shimoliy Amerikaning janubi-g`arbida uchraydi. Zahartishlilardan zahartish (*Heloderma suspectum*) Meksikada va eskorpion (*Heloderma horridum*) Kalimantan (Bornea) orolida uchraydi.

Zahartishlilarning 2 ta turi ham «Xalqaro Qizil kitob»ga kiritilgan.

Timsohlar ko'plab ovlanishi tufayli soni kamayib ketgan. Bir qancha mamlakatlarda (AQSh, Kuba, Yaponiya, Keniya va boshqa davlatlarda) timsohlarni ko'paytiradigan maxsus pitomniklar mavjud.

Timsohlar qimmatbaho terisi va go'shti uchun ovlanadi. Timsohlarning barcha turlari Jahon «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Dengiz toshbaqalari barcha tropik va subtropik dengizlarda tarqalgan bo'lib, dengiz toshbaqalari baliqlar, molluskalar va qisqichbaqasimonlar bilan oziqlanadi. Urchish uchun ular odam kam boradigan orollar sohiliga chiqib yuzlab tuxum qo'yadi. Tipik vakillariga yashil toshbaqa yoki sho'rva toshbaqa (*Shelonia mydas*), bissa yoki karett (Eretmohelus imbricata) va Hindiston bilan Seylon atroflarida ko'p uchraydigan sariq ko'kimtir dengiz toshbaqasi kiradi. Karett esa ancha kichik (bo'yi 80 – 100 sm) chiroyli shox plastinkalari uchun ovlanadi. Barcha turlari «Xalqaro Qizil kitob»ga kiritilgan.

Turnalar o'z uyalarini botqoqliklarga, ko'l va daryo bo'ylariga quradigan, O'zbekistondan uchib o'tuvchi qushlar hisoblanadi. Ular botqoqliklarda va cho'llarda keng tarqalgan. Turnalar kam uchraganligi uchun ko'pchilik turlari «Qizil kitob»ga kiritilgan, shu jumladan, oq turna O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Tuvaloqlar tashqi ko'rinishidan tovuqlarga o'xshaydigan hayvonlar bo'lib, ular Sharqiy yarimsharning cho'l va sahrolarida yashaydi. Qo'riq yerlarni o'zlashtirilishi va tartibsiz ovlanishi natijasida tuvaloqlarni soni kamayib bormoqda. Shuning uchun ular Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»lariga kiritilgan.

Shahrimiz hududida eng ko'p uchraydigan kaptarlarning ham hatto soni kamayib bormoqda, chunki aholi tomonidan o'zining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida ovlanish ko'rsatkichi ortib bormoqda. Bundan tashqari, kaptarning go'shti mazali va sifatli bo'lgani uchun ko'p ovlanadi. Qora kaptar O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Bulduruqlar massasi 300 – 500 g keladi. Bulduruqlar ov ahamiyatiga ega. Ko'plab ovlanishi sababli juda kamayib ketgan. Oqbovur O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan.

To'tiqushsimonlar turkumiga kiruvchi qushlar tropik va subtropik o'rmonlarda daraxtlarda hayot kechiradi. Chiroyliligi va ayrim tovushlarga taqlid qilishi, jumladan ayrim so'zlarni ifodalashga o'rgatish mumkin bo'lgani uchun ba'zi to'tilar qafasda, tutqinlikda boqiladi. To'tiqushlarning 70 dan ortiq turlari Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqning «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Vixuxollar suv hayvoni hisoblanadi. Ularning dum asosida muskus bezlari bo'lib, sanoatda ishlatiladi. Vixuxollarni soni juda ham oz qolgan, ovlash ta'qiqlangan. Xalqaro «Qizil Kitob»ga kiritilgan.

Kemiruvchilar turkumiga kiruvchi bobyorlar, sug'urlar, olmaxonlar, ondatra, shinshilla, norkalardan qimmatbaho mo'yna olinadi. Ko'k sug'ur bilan mitti qo'shoyoq O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan.

MDHda, asosan qo'ng'ir ayiq, qora ayiq va oq ayiq uchraydi. Janubda yashaydigan ayiqlar ko'proq o'simlikxo'r bo'lsa, shimolda yashaydigan ayiqlar etxo'r va hammaxo'r hisoblanadi. Ayiqlar 30—40 yil umr ko'radi. Ko'pchilik ayiqlar mo'ynasi va yog'i uchun ovlanadi. Barcha turlarining soni keskin kamayib ketganligi sababli bir qator mamlakatlarda ayiqlar muhofaza qilinadi. Ayiqlarning 5 ta turi Xalqaro «Qizil kitob»ga, qo'ng'ir ayiq esa O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan.

Kurakoyoqlilar barcha okean va dengizlarda, shu jumladan, Qora va Kaspiy dengizlarda tarqalgan. Ayrim turlari ko'llar (Ladoga va Baykal)da ham yashaydi. Kurakoyoqlilar katta ov ahamiyatiga ega, terisidan va yog'idan foydalaniladi, ayrim turlari qimmatbaho mo'yna beradi. Morjning qoziq tishlari fil suyagi singari juda qadrlanadi. 6 ta turi va 3 ta kenja turlari Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Sanoatda mo'ylovi hamda yog'i uchun ko'plab ovlanishi natijasida kitlar soni keskin kamayib ketganligi sababli ovlash taqiqlangan. Ularning yog'idan glitserin, margarin va sovun tayyorlashda foydalaniladi, go'shtidan konserva tayyorlanadi, suyagidan chorva mollari va parrandalar uchun un qilinadi, jigarida vitamin «A» ko'p bo'ladi. Kitlar sonini ko'paytirishning qiyinligi ular 2 yilda bir marta nasl beradi. Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Delfinlar oilasiga mansub kashalot, kasatka, oq biqinli delfin va boshqa turlarining yog'i, terisi hamda go'shtidan foydalaniladi. Ko'pgina turlarining soni kamayib ketgan. Xalqaro «Qizil kitob»ga tishli kitlarning 4 ta turi kiritilgan. Delfinlar 25 – 35 yil umr ko'radi, ularning tishlari 96 ta bo'ladi.

Juft tuyoqlilar turkumiga mansub ko'pchilik yovvoyi turlarining soni kamayib ketgan. Juft tuyoqlilardan xongul, jayron, morxo'r, Ustyurt qo'yi, Buxoro qo'yi, Qizilqum arxari O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan. Jumladan, bug`ular oilasiga mansub 7 ta turi MDH da va 2 ta turi O'zbekiston Respublikasi hududida uchraydi. Ayniqsa, Buxoro bug`usi sonining keskin kamayib ketganligidan maxsus qo'riqlanadigan Surxon, Badayto'qay qo'riqxonalarida va Buxoro jayron pitomnigida ko'paytirilmoqda. Asl bug'i xonakilashtirilmoqda, chunki uning shoxidan pantokrin preparati olinadi.

Karkidonlar oilasi vakillari gavdasining og'ir bo'lishi, oldingi va orqa oyoqlarida 3 tadan barmoqlarining borligi, peshona suyaklarining ustida 1—2 ta ba'zan 3 ta yoki 5 ta epidermisdan hosil bo'lgan uchi o'tkir shoxi borligi bilan xarakterlanadi. Karkidonlarning 5 ta turi, ya'ni — Sumatra karkidoni, Hind karkidoni, Yava karkidoni, qora karkidon va oq karkidon bor. Karkidonlarning go'shti, yog'i iste'mol qilinadi, terisi va shoxidan esa turli buyumlar tayyorlanadi. Barcha turlari Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Orangutan Borneo, Kalimantan va Sumatra orollaridagi botqoq o'rmonlarda yashaydi. Daraxtda hayot kechiradi. «Orangutan» degani, bu malay tilida «o'rmon odami» demakdir. Odatda urg'ochi ograngutan bolasi bilan alohida uyada, erkagi alohida uyada tunaydi. Ular

mevalar, barglar, qush tuxumlari bilan oziqlanadi. Kaftlarini novsimon bukib suv ichadi. Har yili og'irligi 1200—1600 g keladigan 1 ta bola tug'adi. Onasi bolasini 3 – 4 yil boqadi va tarbiyalaydi. 30 yildan ortiq umr ko'radi. Oxirgi yillarda orangutanlarni insonlar hayvonot bog'lariga ko'plab tutib kelinganligi, ular yashaydigan muhitni poymol qilinishi ularning soni keskin kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Shu sababli hozir orangutan Xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Bunday soni kamayib borayotgan turlarni asrab qolish va sonini yanada ko'paytirish uchun davlat qo'riqxonalarini va buyurtmaxonalar sonini yanada ko'paytirish, ularni taqiqlangan vaqtda ovlamaslik qat'iy choralarini ko'rish, soni kamayib ketib, ov qilish taqiqlangan hayvonlarni ov qilgan brokonerlarga nisbatan jarima miqdorini katta so'mmalarda belgilash hamda qattiq jazo turini tayinlash, kamyob va kamayib borayotgan hayvon turlarini sun'iy ko'paytirish uchun genetik tajribalar qo'yish, eng muximi insoniyat ongiga bolalikdan tabiat va uning har bir ne'matiga nisbatan ekologik madaniyatni shakllantirish, mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash lozim. Tabiatga nisbatan mehr ruhida ulg'aygan hech bir inson, uning ne'matiga nisbatan ham hurmatsiz va hissiz munosabatda bo'la olmaydi. Zero, tabiatdan olgan har bir narsamizni o'rniga qo'yishimiz, va yopiq zanjir siklini izdan chiqarmasligimiz, tabiatga zarar yetkazmasligimiz darkor. Yo'qsa, tabiat ham bizni ayovsiz jazolashi mumkin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Y.E.Ikromova., D.E.Azimova “Umurtqali hayvonlar zoologiyasi” o'quv qo'llanma Toshkent “Lesson – press” nashryoti 2022.
2. S. Dadayev, Q. Safarov “Zoologiya” 2 – qism. “Cho'lpon” nashryoti 2011.

ANAMNIYA VA AMNIOTA

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi

JDPU. Biologiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası o`qituvchisi.

Toshpo`latova Noila Ergash qizi

4 – bosqich talabasi

Agzamova Dilfuza Akbarovna

4 – bosqich talabasi

Orifova Maxliyo Nasriddin qizi

SamDU, 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: *Yer yuzining hayvonot dunyosi uchramaydigan joyni uchratishni o`zi mushkul, go`yo ularning hisobi yo`qdek. Ammo hayvonot dunyosi shunchalik ko`p bo`lsa ham, sistematik jihatdan tahlil etilgan. Lekin hali o`rganilmagan turlar ham mavjud. Shved olimi Karl Linney umurtqasiz va umurtqali hayvonlarni anatomiya – morfologiyasi, etologiyasiga qarab, ularning sistematikasini yaratdi.*

Kalit so`z: *Sistematika, tur, guruh, hayvon, tip, tizim, xorda, vertebra, amnion, anamniya, parda, nerv, suv, ququrlik, sariqlik, yo`ldosh, tanosil, volf, embrion, tuxum, to`qima, ichki, urug`lanish.*

Hayvonot dunyosi ikkita katta umurtqasizlar va xordalilar(umurtqalilar) tipiga bo`linadi. Umurtqalilar tipining o`zi sistematikaga aloqasi bo`lmagan ikkita katta guruhga bo`linadi. Anamniyalar (Anamnia) va Amniotalar (Amniota) guruhi. Bu ikki guruh vakillarining yashash sharoiti, tuxumi, uning rivojlanishi, voyaga yetgan davrlaridagi farqlar yaqqol namoyon bo`ladi. Quyida shunday farqlar bilan tanishib chiqamiz.

1. Anamniyalar (Anamnia) guruhi. Bu guruhga to`garak og`izlilar, baliqlar va suvda hamda quruqlikda yashovchilar kiradi.

2. Amniotalar (Amniota) guruhi. Bu guruhga sudralib yuruvchilar, qushlar va sutemizuvchilar kiradi. Anamniyalar va amniotalar guruhlariga kiruvchi umurtqali hayvonlar bir – birlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.

To`garak og`izlilar, baliqlar va amfibiyalar tuzilishi va hayotiy jarayonlari jihatidan bir-biridan farq qilsada, lekin bir qator o`xshash tomonlari ham bor, ana shu o`xshash tomonlarini hisobga olib ularni anamniyalar guruhiga kiritiladi Anamniyalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning hayoti suv bilan ozmi-ko`pmi bog`langan bo`lib, ular butun umrini yoki hech bo`lmasa hayotining ilk rivojlanish davrini (tuxumlik, lichinkalik davrini) suvda o`tkazadi. Ayrim tur amfibiyalar kamdan-kam hollarda bu qoidadan chetga chiqadi, lekin bu ikkilamchi holat hisoblanadi. Demak, anamniyalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlar, asosan birlamchi suv hayvonlari hisoblanadi, ya`ni ajdodlari bir umr suvda yashab o`tgan hayvonlardir.

Amniotalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlar esa aksincha, haqiqiy quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlar hisoblanadi. Hayotini bir qismini, ba'zi turlari esa hayotini bir umr (kitsimonlar) suvda o'tkazishlari bu ikkalamchi holat hisoblanadi. Bu guruhga kiruvchi umurtqali hayvonlardan faqat kitsimonlar turkumining vakillari suv muhitida tirik tug'ib ko'payadi. Guruhning boshqa vakillarida esa urug'lanishi ichki, lichinkalik davri yo'q, rivojlanishi metamorfozsiz o'tadi. Bu esa amniotalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarni birlamchi quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlar ekanligidan dalolat beradi.

Anamniyalalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning tuxumlari yopishqoq, yupqa parda bilan o'ralgan bo'ladi, amniotalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning tuxumlari esa juda qattiq po'st bilan o'ralgan bo'lib, bu po'st esa tuxumni atmosfera ta'sirida qurib qolishdan saqlaydi. Tuxum po'sti pergamentsimon yoki ohak shimib qattiqlashgan bo'ladi.

Ikkala guruhga kiruvchi umurtqali hayvonlarda ham embrion dastlab faqat tuxum pardasi bilan o'ralgan holda, tuxum ichida rivojlanadi. Anamniyalarda rivojlanishning keyingi davrlarida embrion tuxum pardasini yorib tashqariga, suvga chiqadi. Lichinka dastlab tuxum sariqligi bilan oziqlanadi va jabra orqali nafas olib, rivojlanishini suvda davom ettiradi. Amniotalarda esa rivojlanishning ilk davrlarida embrion atrofida tuxum yuzasidan halqasimon burma ko'tarilib chiqa boshlaydi. Bu burma borgan sari kattalashib, embrionni o'rab oladi, uchlari bir-biriga yaqinlashib qo'shilib ketadi va natijada ichki hamda tashqi varaqlari tutash bo'lib qoladi. Bunda tashqi varag'i seroz parda va ichki varag'i amnion parda deb ataladi. Natijada embrion amniotik bo'shliqning ichida qoladi, bu bo'shliq ichida maxsus amnion suyuqlik yig'iladi va embrion xuddi anamniyalarning embrioni suvda suzib yurganidek, amnion suyuqlikda suzib yuradi. Demak, anamniyalalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning embrionini suv qurib qolishidan saqlasa, amniotalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning embrionini amniotik suyuqlik qurib qolishidan va har xil mexanik shikastlanishlardan saqlaydi. Lekin amniotalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning embrioni kichkina bo'shliqda bo'lganligi uchun anamniyalalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlar embrioni singari nafas ololmaydi va parchalanish mahsulotlarini ularga o'xshab tashqi muhit- ga chiqarib tashlay olmaydi. Shuning uchun ham amniotalar guruhiga kiruvchi hayvonlar embrionida amnion pardasi hosil bo'lishi bilan bir vaqtda alohida embrion organi — allantois yoki embrion siydik pufagi (qovug'i) ham hosil bo'ladi.

Embrion siydik pufagi embrion ichagi keyingi qismining bo'rtib chi- qishidan hosil bo'ladi va kengayib, amnion bilan seroz parda orasidagi bo'shliqdan joy olgan katta pufakka aylanadi. Embrion o'zidan ajraladigan parchalanish mahsulotlarini shu allontoisga chiqaradi. Allantois embrion uchun nafas olish organi vazifasini bajaradi. Chunki allantoisning tashqi devorlari qon tomirlariga boy bo'lib, seroz parda bilan qo'shilgan va allantois kapitlari ichidagi qon bilan tashqi muhit o'rtasida tuxumning mayda-mayda teshikchali qattiq po'sti orqali gaz almashinadi. Tuban amniotalarda shunday hol yuz

beradi, sutemizuvchilarda esa allantois yo'qolib, uning o'rniga yondosh yoki platsenta hosil bo'ladi.

Anamniyalar bilan amniotalar o'rtasidagi farqlar voyaga yetgan shakllarida ham kuzatiladi. Anamniyalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning terisi doimo nam bo'lib turadi, suv va gazni yaxshi o'tkazadi, ko'p hujayrali teri bezlari ishlab chiqqan shilimshiq modda terini qoplab turadi. Himoya qiluvchi tangacha va qoplovchi suyaklar terining biriktiruvchi to'qimasidan kelib chiqqan. Amniotalar guruhiga kiruvchi umurtqali hayvonlarning terisi quruq bo'lib, undagi bezlar keskin qisqaradi (sutemizuvchilardan tashqari), epidermisning yuza qatlamida shox moddalar hosil bo'ladi, ya'ni hujayralarida keratogiolin to'planadi. Natijada teri suv va gazlarni deyarli o'tkazmaydi hamda bunday shox qoplagich terini qurib qolishidan saqlaydi.

Amniotalarning himoya qiluvchi terisidagi shox hosilalari — tirnoqlar, tangachalar, patlar va junlar epidermis hosilalari hisoblanadi. Anamniyalarda bo'lgan yon chiziq organlari amniotalarda hech qachon bo'lmaydi. Amniotalarning gavda bo'limlari ham ko'p darajada differentsiallashtirilib, tayanch funksiyasini bajaradigan juft oyoqlarining o'q skeletiga mahkam birikkanligi ham ularning quruqlikda hayot kechirishiga bog'liq. Amniotalarning skeleti to'liq suyakka aylangan, umurtqa pog'onasining bo'yin bo'limida atlas va epistrofey umurtqalari boshining harakatchanligini ta'minlaydi.

Bo'yin umurtqalarining birinchisi — atlas halqa shaklida bo'lsa, ikkinchisi — epistrofeyda atlasning halqasiga kirib turadigan tishsimon o'simtasi bor. Bo'yin umurtqalarining shu xilda tuzilganligi uchun ham ularning boshi juda harakatchan bo'ladi. Oyoq skeletining kamarlari o'q skeletiga kuchli birikadi. Tana umurtqalari o'z navbatida ko'krak va bel bo'limlariga ajraladi va qovurg'alar ko'krak bo'limining skeletini tashkil qiladi, ular to'sh suyagi bilan qo'shib amniotalarga xos bo'lgan ko'krak qafasini hosil qiladi. Natijada ularning oldingi oyoqlari kuchli tayanchga ega bo'ladi. Kamida ikkita umurtqadan tashkil topadigan dumg'aza chanoq bilan mahkam birikib, orqa oyoqqa katta tayanch bo'ladi.

Qovurg'alar umurtqa pog'onasiga ham to'sh suyagiga ham harakatchan birikkanligi sababli, amniotalarning ko'krak qafasi kengayib torayadi. Bu esa o'pkani kengayishiga va torayishiga sabab bo'ladi. Amniotalarning qon aylanish va siydik-tanosil sistemalari ham ancha differentsiallashtirib. Qon aylanish sistemasida yurak qorinchasi qisman bo'lsada, o'ng va chap bo'laklarga ajralgan hamda arterial stvol o'pka arteriyalari bilan aorta yoyiga bo'linadi. Bu esa arterial qon bilan venoz qonning alohida-alohida oqishiga sabab bo'lgan. Siydik-tanosil sistemasida tana buyragining o'rniga chanoq buyragi hosil bo'ladi va shu buyrak ayiruv organi vazifasini bajaradi, tana buyragi esa Volf nayi bilan birga tamomila yo'qolib ketadi (urg'ochilarida) yoki urug' chiqarish funksiyasini bajaradigan Volf nayigina saqlanib qoladi (erkaklarida). Nihoyat, amniotalarning bosh miyasi ancha kuchli rivojlangan. Ayniqsa, ularning oldingi miya yarimsharlari bilan miyachasi yaxshi taraqqiy etgan.

Demak, yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, amniotalar anamniyalardan juda ko`plab yuksak belgi va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa amniota guruhiga kiruvchi hayvonlarning evolutsiyaning yuqori pog`onasida turganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

3. Y.E.Ikromova., D.E.Azimova “Umurtqali hayvonlar zoologiyasi” o`quv qo`llanma Toshkent “Lesson – press” nashryoti 2022.

4. S. Dadayev, Q. Safarov “Zoologiya” 2 – qism. “Cho`lpon” nashryoti 2011.

ÓZBEKISTONDA AHOLI MIGRATSIYASI

Abdumalikova Surayyo Ulug'bek qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Ózbekiston Milliy Unversiteti

Sotsiologiya yónalishi talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Ózbekistondagi migratsion jarayonlar haqida umumiy ma'lumot beriladi. Ózbekistondagi aholininig migratsiyaga munosabati mustaqilligimizning ilk yillarida qanday edi? Hozir qanday? Aholimiz asosan qaysi davlatlarga immigrant bólib borishadi? Maqolaninig maqsadi migratsiya haqida tóliq ma'lumot berish. Mehnat migratsiyasini migratsiyaninig qolgan turlaridan farqlash.*

Kalit sózlar: *Migratsiya, migratsiyaninig 11 qonuni, migratsiya turlari*

МИГРАЦИЯ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абдумаликова Сурайё Улугбека кизи

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Студент специальности "Социологии"

Аннотация: *В статье представлены общие сведения о миграционных процессах в Узбекистане. Каким было отношение населения Узбекистана к миграции в первые годы нашей независимости? Как дела сейчас? В какие страны иммигрируют наши люди? Цель статьи — предоставить полную информацию о миграции. Отличие трудовой миграции от других видов миграции.*

Ключевые слова: *Миграция, 11 законов миграции, виды миграции.*

POPULATION MIGRATION IN UZBEKISTAN

Abdumalikova Surayyo Ulug'bek qizi

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Student of "Sociology"

The article *:provides general information about migration processes in Uzbekistan. What was the attitude of the population of Uzbekistan to migration in the first years of our independence? How is it now? To which countries do our people immigrate? The purpose of the article is to provide complete information about migration. Differentiate labor migration from other types of migration.*

Keywords : *Migration, 11 laws of migration, types of migration*

Ma'lumki, O'zbekiston tub aholisining migratsiyaga moyillik darajasi unchalik yuqori emas. Mahalliy aholi ayniqsa xorijiy mamlakatlarga ko'chishga intilmaydi. O'tgan asrda

aholining migratsiyaga kam moyilligi sobiq ittifoq davrida aniq maqsad sari yo'naltirilgan. Bu davlatning "temir parda" hamda "yopiq eshiklar" siyosatida o'z aksini topgan. Sovet davridagi milliy respublikalardagi migratsiya jarayonlarini ko'chadagi bir tomonlama harakatga o'xshatsa bo'lardi. Mana mustaqillikka erishganimizga ham yaqinda 31 yil bo'ldi endilikda bizda migratsiya jarayonlari bo'yicha hech qanday muammo yo'q u xoh ichki bo'lsin xoh tashqi. Aholi migratsiyasi mavzusini yoritir ekanman u haqida qisqacha ma'lumotlarni quyida keltirib o'taman.

Aholi migratsiyasi (lotincha "migration" – "ko'chish") – odamlarning bir mintaq (mamlakat, shahar, qishloq)dan boshqasiga, qator hollarda katta guruh holida va uzoq masofaga ko'chishidir. Demografiyada aholi migratsiyasiga aholining mexanik harakati sifatida qaraladi. "Aholi migratsiyasi" tushunchasiga turli tadqiqotchilar turlicha yondashishadi. Ammo migratsiya sohasida dastlabki chuqur nazariy tadqiqot muallifi ingliz olimi Y.G. Ravenshteynning Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsiya jarayonlari tahlili asosidagi 11ta migratsiya qonuni jahonda umume'tirof etilgan. Bu qonunlar migratsiya sohasidagi boshqa ko'pchilik nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi ular quyidagilardan iborat:

1. Migratsiya eng ko'p qisqa masofalarga amalga oshiriladi;
2. Migratsiya asta-sekin , bosqichma-bosqich ro'y beradi;
3. Katta masofalarga migratsiya, asosan, yirik savdo va sanoat markazlariga yo'naltirilgan bo'ladi;
4. Har bitta migratsiya oqimiga uning teskari oqimi muvofiq keladi;
5. Migratsiya sohasida shaharliklar qishloq joydagi aholiga nisbatan kam harakatchan bo'ladi;
6. Ichki migratsiyada ayollar, xalqaro migratsiyada esa erkaklar faolroqdir;
7. Muhojirlarning ko'pchiligi katta yoshdagi aholidan iborat;
8. Oilalar o'z mamlakatlari tashqarisiga kamroq migratsiya qiladi; (ya'ni oila a'zolari bilan birgalikda)
9. Yirik shaharlarning tarkib topishi aholining tabiiy o'sishiga qaraganda ko'proq migratsiya bilan bo'g'liqdir;
10. Sanoat va savdo ayniqsa transport rivojlanishi bilan migratsiya ko'lami ortadi;
11. Migratsiyaning iqtisodiy sabablari hal qiluvchi ahamiyatga ega.¹

Aholi migratsiyasi davomiyligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

Doimiy (qaytib kelmaydigan) – bunda odamlarning doimiy turar joyini bir umrga almashtirishi ko'zda tutiladi;

Vaqtinchalik (qaytib keladigan) – odamlarning uzoq , lekin cheklangan vaqtga boshqa joyga ko'chib borishidir;

Mavsumiy – odamlarning har yili muayyan muddatga bir joydan boshqa joyga, masalan, qishloq xo'jaligi sohasida ishlashga yoki sog'lomlashtirish markazlariga borishidir;

Tebranuvchan (tez-tez takrorlanib turadigan) – odamlarning muntazam ravishda boshqa joyga ishga yoki o'qishga qatnashidir.

Aholimizning migratsiya haqidagi fikrlarini bilish maqsadida bir necha yillar oldin 2004-2005 yillarda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish respublika markazi tomonida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqoti bilan tanishib chiqib undagi ayrim natijalaridan foydalandim. Sotsiologik tadqiqot 2004-yilning 9-23 dekabrda Toshkent shahrida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikaning barcha viloyatlarida o'tkazilgan. 1489 respondent, shu jumladan 501 shahar (33,6%) va 988 qishloq (66,4%) respondentlari ishtirok etgan. Respondentlarning milliy tarkibi: o'zbeklar - 84,3%, qoraqalpoqlar - 2,1%, tojiklar - 3,3%, qozoqlar - 2,9%, qirg'izlar - 1%, slavyanlar - 3,1%, va boshqa millatlar - 3,3%. Ushbu loyihada O'zbekistondagi ikki asosiy xalq - o'zbeklar va qoraqalpoqlarning javoblari tahlil qilingan.

" Siz boshqa mamlakatda yashashni xohlar edingizmi?" degab savolga o'zbeklar (94,8%) va qoraqalpoqlarning (97,35) mutloq ko'pchiligi " yo'q, istamayman jahonda O'zbekistondan yaxshi mamlakat yo'q" deb javob bergan. So'rab chiqilgan o'zbeklarning atigi 2,9% va qoraqalpoqlarning 1,3% ushbu savolga ijobiy javob bergan, o'zbeklarning 2,4% va qoraqalpoqlarning 1,3% javob berishga qiynalishgan.

Boshqa mamlakatda yashash istagini bildirgan o'zbeklar ko'proq AQSH - 29,2%, Rossiya - 16,7%, Avstraliya - 8,3%, Ozarbayjon - 8,3% va boshqa mamlakatlarni afzal ko'radilar.

" Sizning bolalaringiz boshqa mamlakatda yashash istagini bildirishiga qanday qaraysiz?" degan savolga " Mutlaqo qarshiman, bolalar ota-onalari bilan yashashi kerak" degan javob variantini o'zbeklarning 72,1% va qoraqalpoqlarning 85,3% qo'llab-quvvatlagan.

" Sizning bolalaringiz o'qish yoki ishlash uchun chet elga borishini xohlarmidingiz?" degan savolga respondent o'zbeklarning 69%, qoraqalpoqlarning 66,7% ijobiy javob bergan. Bundan tashqari so'rovnoma qatnashgan o'zbeklarning 8,5%, qoraqalpoqlarning 26,7% " mening o'g'lim (qizim) chet elga borishga tayyorgarlik ko'rmoqda" va " hozir chet elda o'qiyapti" degan mazmundagi javoblarni berishgan.²

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki avvalgi vaqtlarda aholimizning tashqi migratsiyaga bo'lgan munosabati qoniqarli darajada emas edi. Lekin hozirgi kunga kelib iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va diniy sabablar tufayli amalga oshirilayotgan tashqi migratsiyalarda aholimizning ko'p qismi ishtirok etmoqda. Bu albatta quvonarli holat bu xaqimizning dunyo qarashi kengayganligidan dalolatdir. Ammo shu shu bilan birga migratsiya deganda faqat mehnat migratsiyasini tushunadiganlar ham topiladi, chunki XXI asr texnika asri bo'lib inson bir kunda qiladigan ishlarni texnika 1 soatda bajarmoqda bu esa ishchi kuchi sonini kamayishiga, ish o'rinlarini qisqarishlariga olib kelmoqda. Bu O'zbekistonda mehnat migratsiyasini ko'payishini bir sababi bo'lsa, yana bir sababi ish haqqining kamligidir. Hozirgi kunda mana shu ikki sababni bahona qilib ko'pchilik yurtdoshlarimiz o'zga yurtlarga ishlagani ketmoqda. Migratsiyaning asosiy qismi MDH (Rossiya, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston) davlatlari hududlariga to'g'ri keladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, migratsiya har doim bo`ladi, globallashuv davrida yashar ekanmiz urbanizatsiya jarayonlari davom etar ekan aholi ichki va tashqi migratsiyani amalga oshiradi. Aholining migratsiyasi uchun turli omillar sabab bo`lishi mumkin, masalan:

- kasbiy o`shish;
- malaka darajasining yetarliligi yoki ortiqchaligi;
- mehnat faoliyatidan qoniqish hosil qilmaslik;
- turar joyni o`zgartirish ;
- ta`lim muassasidagi o`qishni tugallash va boshqalar.

Migratsiya - bu mavzuning qamrovi juda keng, biz bu mavzu doirasida

“ Mehnat migratsiyasi ”, “Aholi migratsiyasidagi gendr tafovutlar ”, “Ayollar migratsiyasi ” kabi dolzarb mavzularda haqida yozish mumkin yoki jahon miqiyosida butun dunyo aholisining Amerikaga intilishini yoritib chiqish mumkin. Men bu maqolamda umumiy aholi migratsiyasini yoritishga harakat qildim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÓYXATI:

1. "Demografiya" Toshkent: - " IQTISODIYOT"- 2014
- 2.P. Убадуллаева, О. Мирзаев, Н. Умарова " Узбекистан демографик жарайондари ва ахоли бандлиги" Тошкент : - 2010

**PROFESSIOGRAMMANING TUZILISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
(TIBBIYOT SOHASI KADRLARI MISOLIDA)**

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Nigmatova Charosxon Muhammadjon qizi

TTA "Tibbiy biologiya" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Begmatov Murodullo Xaydarovich

TTA "Tibbiy biologiya" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola professioqrammaning psixologik jihatlari va uning amaliyotdagi o'rnini o'rganish haqida.*

Kalit so'zlar: *professioqramma, diqqat, shijoat, malaka, kooperasiya, inqiroz, mehnat, qobiliyat, prinsipiiallik, tashabbuskorlik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению психологических аспектов профессioqramмы и ее места на практике.*

Ключевые слова: *профессионализм, внимание, энтузиазм, компетентность, сотрудничество, кризис, работа, умение, принцип, инициатива.*

Annotation: *This article is devoted to the study of the psychological aspects of the professioqram and its place in practice.*

Key words: *professionalism, attention, enthusiasm, competence, cooperation, crisis, work, skill, principle, initiative.*

Shaxs kamolotida kasbiy kamolot – faoliyatdagi unga bo'lgan asosiy ehtiyojni belgilaydi. Mazkur kadrlarga bo'lgan ehtiyojning zarur omili sifatida professional tayyorgarlik jihatlari o'zida aks ettirgan professioqrammaga ehtiyoj katta. Aynan tibbiyot sohasi hodimlari uchun kasbiy yetuklikning zaruriy aspektlarini o'zida aks ettirgan professioqrammaning tuzilishi va o'ziga hos xususiyatlarini keltirib o'tamiz.

Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so'ziga sodiglik, o'ziga tangidiylik, prinsipiiallik, qiyinchilikni yengish uquvi, tashabbuskorlik, amaliyotchilik, do'stlar orasida nufuzga egalik.

Kasb tanlashga yo'naltirilgan uchburchak shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o'zini o'zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

Shifokorlarni professioqramma bilan tanishtirishda bosh maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

a) asosiy tashxis qo'yish vositalari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr – xayoli xuddi shu vositalarni o'rganish qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

b) asosiy faoliyat operasialari: texnik vositalar bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarda ishlatish mumkin ekanligini

bilish; bemorlarda qo'llay olish xususiyatlarini qila olish; ish faoliyatida qo'llashning yangi variantlarini ko'rib chiqish, imkoniyatlarini o'rganish;

Professiografiya natijalari profессиogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'ligiga qarshi ko'rsatmalarni oz ichiga oladi.

Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi – psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivasion, iroda va emosional sohasining tavsifi xisoblanadi. Psixogramma kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.

Professiografik tadqiqot metodlari. Kasbning ilmiy ta'siri, mehnatning (mehnat hulqi) tashqi ya'ni, psixik jarayonlar ya'ni, mehnat subyektining ichki vositalariga bo'lgan integral psixologik tuzilmalarini nazarda tutadi.

Rasmiylashgan profессиogramma sxemasi o'z ichiga kasbning ijtimoiy va kasbiy tavsifini oladi:

- 1) Kasb yoki mutaxassislikning rasmiy qabul qilingan nomenklaturasi bo'yicha nomi.
- 2) Taksanomik ma'lumotlar: shakli, turi, sinfi, guruhi, mutaxassisligi.
- 3) Ish joyi nomi.
- 4) Kasbning shu soxa bo'yicha kasbiy guruxidagi o'rni.
- 5) Lavozim bo'yicha ish haqqi va uni baholash.
- 6) Asosiy malaka va lavozim majburiyatlari.
- 7) Zaruriy ma'lumot.
- 8) Malaka diapazoni (razryadlar, sinflar va xokazo) shuningdek, ma' muriy, kasbiy, ilmiy rivojlanish istiqbollari.
- 9) Muammolarning asosiy xususiyatlari: doimiy yoki keng yoki tor doyra ishlarini bilan muammoli turi (tor kasbiy taklif buyuruvchilar, mijozlar bilan odamlarga xizmat ko'rsatish sharoitiga va qo' ostidagilarning xabarlariga nisbatan va xokazo)
- 10) Kasbiy layogqt tufayli diskvalifikasiya hollarini alohida kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat davridagi tavsifi .
- 11) Mexnat faoliyati asosiy xususiyatlarining qisqacha tavsifi (yosh jixatdan cheklash va boshqa xolatlar)

Professiogramma oldiga quyidagi talablarni qo'yish maqsadga muvofiq:

1. Ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi;
2. Ishning maqsadi, samaradorligi xususida ma lumotlar;
3. Faoliyatda qo'llaniladigan vositalarning qo'llanilish mexanizmini bilish;
4. Faoliyatda qo'llaniladigan vositalarning tarkibi va ularning o'ziga hos jabhalari;
5. Faoliyatda qo'llaniladigan vositalarning qaysi usullar yordami bilan bajarilishi;
6. Nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat) amalga oshirilishi;
7. Mehnat mahsuldorligini baholash mezonlari;
8. Ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari.
9. Ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi.

10. Ishning bajarilish shart va sharoitlari;
11. Mehnatni (faoliyatni) tashkil qilish shakllari;
12. Mehnatning kooperatsiyasi (Kim?, Nima?, Kim bilan hamkorlikda?);
13. Mehnatning jadalligi (intensivligi) to'g'risida ma'lumotlar;

Tibbiyot hodimlarining individual qobiliyatlariga kasbiy talablar: neyropsik barqarorlik, analitik fikrlash, yaxshi uzoq muddatli, mantiqiy va sensorli (vizual, eshitish, hid bilish, taktil) xotira, kuchlarni o'lchash va dozalash qobiliyati, ixtiyoriy diqqat, jismoniy chidamlilik, yuqori. qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish, barmoqlarning sezgirligi, rangni to'g'ri idrok etish, aniq nutq kiradi [1, 22-25]. Kasbning tibbiyot hodimlarilarning shaxsiy qobiliyatlari va fazilatlariga qo'yiladigan talablari: o'zini o'zi boshqarish qobiliyati, shaxsiy tashkilotchilik, ijtimoiy intellekt (boshqa odamlarning xatti-harakatlarini tushunish qobiliyati), xushmuomalalik, muvozanat, muloqot qobiliyatlari, mas'uliyat, yaxshi niyat, aniqlik, bemorlar bilan empatiya qobiliyati sanaladi [2, 208]. Neyropsixiatrik, yurak-qon tomir, tayanch-harakat tizimi, surunkali yuqumli, yuqori nafas yo'llari, allergik, vizual va eshitish analizatorlari, ovoz apparati kasalliklari bo'lgan odamlar uchun tibbiyot hodimlari sifatida ishlash tavsiya etilmaydi. Tibbiyot hodimlarining kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, ish bemorga qaratilgan bo'lib, u bilan ishlashning o'ta murakkabligi kasallik davrida uning fiziologik tizimlarining ishlash xususiyatlari, psixofizik rivojlanishi bilan belgilanadi. Kasallikka reaksiya sifatida noto'g'ri adaptatsiya, shuningdek, uning psixosotsial holatini buzilishi ham misol bola oladi.

Tibbiyot hodimlari ishidagi psixofiziologik keskinlikka quyidagi omillar yordam berishi mumkin:

- odamlarning hayoti va sog'lig'i uchun huquqiy va ma'naviy javobgarlikni oshirish; odamlar bilan doimiy ortiqcha va faol muloqot (kasal va sog'lom) va ular bilan bog'liq hissiy stress;

- jismoniy faoliyat (tungi smenalarda ishlash, doimiy harakat);

- bemorning va o'zining sog'lig'i uchun xavf bilan bog'liq kutilmagan xavf ehtimoli (kuyishlar, kesishlar, elektr toki urishi, infeksiya);

- boshqa shaxsni idrok etishda estetik tuyg'ularga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning buzilishi (bemorning yoshi va jismoniy xususiyatlari, nopoklik va boshqalar) [3, 244].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, bugungi kunga kelib, kasbiy faoliyatning psixologik mazmuni sohasi, shifokorlardan farqli o'laroq, tibbiyot muassasalari tibbiyot hodimlarilarining turli hil kasbiy deformatsiyalarining o'ziga xos hususiyatlari va shartlari kam o'rganilgan. S. L. Rubinshteyn, E. F. Zeer, E. E. Simanyuk, R. Kalimo va boshqa mualliflarning fikriga ko'ra, shaxsning kasbiy moslashuvi jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, u shaxsiy hissiy natijasida faoliyat usullari va vositalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Shaxs, va bu faoliyatda shaxsning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish, shuningdek, shaxsiyatning kasbiy deformatsiyasi deb ataladigan psixologik hodisaning ulkan ijtimoiy oqibatlarini, uning mehnat samaradorligi va boshqa odamlar bilan kasbiy o'zaro munosabat jarayoniga mumkin bo'lgan salbiy ta'siri, shuningdek, bilimlarning yetishmasligi bilan

bog'liq. Tibbiyot hodimlarini psixologik tarbiyalash sohasida samarali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga va bemorlar bilan samarali muloqotga, shuningdek, tibbiyot hodimlarining kasbiy deformatsiyasining samarali birlamchi, ikkilamchi oldini olishga ta'sir ko'rsatadigan tibbiyot xodimlari bilan ishlashning o'ziga hos uslubi deyarli yo'q. Ta'riflanganlar shuni ta'kidlashga imkon beradiki, nazariy rivojlanishning yetarli emasligi va amaliy ahamiyati tibbiyot muassasasi rahbariyati va tibbiy psixologi faoliyati tizimida tibbiyot hodimlarilning kasbiy deformatsiyasini psixokorreksiya qilish muammosining yuqori dolzarbligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Саблина Т. А. Синдром профессионального выгорания средних медицинских работников /Т. А. Саблина, Т. В. Бутенко // Медицинская сестра. – 2011. – №2. – С. 22-25
2. Хухлаева О. В. Основы психологического консультирования и психологической коррекции: Учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с
3. Щербатых Ю. В. Психология стресса и его коррекция: Учеб. пособие. – СПб: Питер, 2006. – 244 с
4. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2/S), 103-109.
5. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). “МУОШАРАТ ОДОБИ” ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
6. Sharapova D.B. [UY BEKALARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI](#), 2022, 219-225b.

NEVROZ HOLATINING TAVSIFI VA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Mahmudov Abbosbek Oybek og'li

TTA "Davolash ishi" 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola shaxsda uchraydigan nevroz kasaligini o'rganish, unga qarshi psixologik chora tadbir o'tkazish va bu kasallikning klinik belgilarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *tajanglik, beparvo, tajavuzkor, odamlarga qarshilik reaksiyalari.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению неврозов у человека, психологических мер борьбы с ними, анализу клинических симптомов этого заболевания.*

Ключевые слова: *гнев, неосторожность, агрессивность, реакции противодействия людям.*

Annotation: *This article is devoted to the study of neuroses in humans, psychological measures to combat them, and the analysis of the clinical symptoms of this disease.*

Key words: *anger, imprudence, aggressiveness, reactions of opposition to people.*

P. Pavlov ozining fiziologik ta'limoti doirasida nevrozni noadekvat kuch va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siri tufayli miya po'stlog'ida o'ta zo'riqish natijasida oliy nerv faoliyatining surunkali uzoq vaqt buzilishi deb belgilagan. XX asr boshlarida «nevroz» klinik atamasini nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga nisbatan ham qo'llash ko'p bahs-munozaralarga olib keldi. Psixoanalitik nazariyalar nevrozni va uning alomatlarini asosan chuqur psixologik nizo natijasi sifatida ifodalaydi. Bunday nizo insonning asosiy ehtiyojlarini qondirishga to'sqinlik qiladigan va uning kelajagiga tahdid soladigan, inson unga qarshi kurashadigan, lekin yenga olmaydigan uzoq vaqt saqlanadigan ijtimoiy vaziyatlar sharoitida shakllanadi deb taxmin qilinadi. Zigmund Freyd bunday nizolarni «Id»ning instinktiv talablarni jamiyatdagi odoq-axloq va me'yorlarni nazarda tutadigan «Super-Ego» tomonidan bostirilishidagi fundamental qarshiliklarda ko'rgan. Karen Xorni fikricha, nevrozning fundamental nizosi shaxsning mos kelmaydigan himoya tendentsiyalari o'rtasidagi qarama-qarshilikning natijasidir. Xorlik, ijtimoiy izolyatsiya, ota-onalarning mutlaq boshqaruvchi mehr-muhabbati, beparvolik va tajavuzkor munosabat kabi noqulay ijtimoiy omillardan himoyalani uchun, bola «odamlar tomon», «odamlarga qarshi» va «odamlardan nari» yo'nalishlarga asoslangan himoya usullarini shakllantiradi. Odamlar tomon harakat qilish, asosan, bo'ysunish, sevis, himoya qilishni ifodalaydi. Odamlarga qarshi harakatlar odamlar ustidan hokimiyat o'rnatishga, shuhratga, tan olinishga, muvaffaqiyatga, kuchli bo'lishga va hayot bilan kurashishga intilishni ifodalaydi. Odamlardan nari harakati mustaqillik, erkinlik, odamlardan holi bo'lish zaruriyatini

ifodalaydi. Nevrotik bemor bir vaqtning o'zida barcha uch tendentsiyalarga ham moyil bo'ladi, lekin ulardan biri ustunroq boladi, shuning ustun nevrotiklarni «bo'ysunuvchi», «tajovuzkor» va «ajralgan» turlarga tasniflash mumkin. Karen Xorni himoya tendentsiyalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning sababi bo'lgan muammolarga katta e'tibor bergan. Umuman olganda, bugungi kunda ham psixologik omillar (shaxsning xususiyatlari, uning kamolotga yetishi va tarbiya topishi sharoitlari, jamiyat bilan aloqalarni o'rnatish shartlari, intilishi darajasi), ham biologik omillar (muayyan psixogen ta'sirlarga nisbatan zaifroq qiladigan ma'lum neyromediator yoki neyrofiziologik tizimlarning funktsional tanqisligi) nevroz rivojlanishiga turtki bo'ladigan omillar sifatida qaralmoqda.

Ajratish mezonlari. Nevrotik buzilishlarni umuman psixik buzilishlardan ajratishning asosiy mezonlari quyidagilardir: Og'riqli namoyondalarning boshlanishi va dekompensatsiyasida psixogen omillarning yetakchi roli; Psixik buzilishning funktsional (tiklanadigan) xarakteri; Psixotik alomatlar, shaxs o'zgarishlari, aqli zaiflikning yo'qligi; Psixopatologik namoyondalarning egodistonik (bemor uchun azobli) xarakteri, shuningdek, bemorlarning o'z ahvoliga tanqidiy munosabatda bo'lishi kiradi.

Nevroz alomatlari va belgilari ruhiy alomatlar. Emotsional tushkunlik (ko'pincha aniq sabablarsiz) ikkilanish, ijtimoiy aloqa qilish muammolari, noadekvat o'zini baholash: past yoki haddan ziyod ortiqcha. Tez-tez tashvish, qorquv hissi, «biron narsaning tashvishli kutilishi», fobiya, vahima hujumlari, vahimali buzilishlar. Hayotiy tizimining, hayotiy istaklar va afzalliklar, kishining o'zi, boshqalar va umuman hayot to'g'risidagi fikrlarining noaniqligi yoki qarama-qarshiliklari. Ko'pincha sinizm qayd qilinadi. Kayfiyatning nobarqarorligi, tez-tez va keskin o'zgaruvchanligi. Qo'zgaluvchanlik (nevrasteniya). Stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik, ahamiyatsiz stressli voqeaga odamlar umidsizlik yoki tajovuzkorlik bilan munosabat bildirishadi. Yig'loqilik. Hafachanlik, zaiflik. Tashvishlanish. Psixotravmatik vaziyatga ko'p to'xtalib qolish. Ishlamoqchi bo'lganda tezda charchab qolish xotira, diqqat va fikrlash qobiliyatlari pasayadi. Baland tovushlarga, yorqin nurlarga, harorat ozgarishiga sezgirlik ortadi.

Nevrozning boshqa kasalliklar va alomatlar bilan aloqasi bosh og'rig'ida bilinadi. Bosh og'rig'i turli hil aqliy holatlarda va kasalliklarda uchraydi. Odatda u emotsional zo'riqish yoki o'z his-tuyg'ularni bostirish (masalan, g'azabni) hollarida paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bosh og'rig'i gallyutsinator (psixologiya) bo'lishi mumkin. Vegetotomirli distoniya. Vegetotomirli distoniya bu vegetativ asab tizimi faoliyatining buzilishidir. Aqlga bo'ysunadigan va mushaklarni boshqaradigan somatik nerv tizimidan farqli o'laroq, vegetativ asab tizimi avtomatik ravishda ishlaydi va organizmning a'zolari va tizimlari faoliyatini ta'minlaydi. Xavf tug'ilganda vegetativ asab tizimi xavfni yengish uchun organizmning kuchlarini safarbar qiladi (masalan, qon bosimini oshiradi). Agar odam tez-tez xavfli deb hisoblangan vaziyatga faol javob qaytara olmasa (masalan, ijtimoiy omillar tufayli) va o'zining xavotirini bostirishga majbur bo'lsa, shuningdek, xavfli bo'lmagan ko'p vaziyatlar unda qo'rquv hissini uyg'otsa (yoki u panik xujumlardan aziyat chekayotgan bo'lsa), avtonom asab tizimi no'to'g'ri ishlay boshlaydi, xatolar to'planib boradi va

muvozanatning yo'qolishi yuzaga keladi, bu VTDning bevosita belgilari bilan bir qatorda turli a'zolar ishining buzilishiga sabab boladi.

Panik buzilishlar, fobiya, tashvish hissi. Turli xavotirli buzilishlar (panik xujumlar, fobiya, doimiy tashvish) odatda nevroz bilan birga kechadi.

Nevroz kasalligini davolash. Nevrozlarni davolashning ko'p usullari va nazariyalari mavjud. Nevrozni da'vosi antidepressantlar va trankvilizatorlar yordamida psixoterapiya va medikamentoz terapiyaga asoslanadi. Nevroz va nevrotik reaksiyalarni davolashning asosiy usuli psixoterapiya hisoblanadi. Hozirgi vaqtda psixoterapevtik yordamning ko'plab yo'nalishlari va usullari mavjud. Ular patogenik (nevrozning sabablari va uni shaxsda ushlanib turishi jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan) va simptomatik yoki yordamchi (ular faqat patogenik uslublar bilan birgalikdagina samarali bo'lib, o'zlari faqat alomatlarini yengillashtiruvchi vaqtinchalik ta'sir ko'rsatadi) turlarga bo'linadi. Patogenetik uslubi psixodinamik, ekzistentsial, interpersonal, kognitiv, tizimli, integrativ, geshtalt-terapiyani o'z ichiga oladi. Simptomatik usublarga esa xulq-atvor, gipnoz, tanaga yo'naltirilgan, ekspozitsion terapiya, nafas olish mashqlari, art-terapiya, musiqa terapiyasi va boshqalar kiradi. Nevroz insonning tiklanadigan holati bolib, psixoterapevtik davolanishiga yaxshi bo'ysunadi. Dori-darmonli terapiya faqat psixoterapevtik jarayon uchun katalizator bo'lib, hech qanday holatda nevrozni davolashning asosiy shakli sifatida qaralmaydi. Kamdan-kam hollarda, inson shaxsiyatining o'sishi, nizoli vaziyat ahamiyatining yo'qolishi, avvalgi turmush tarziga qaytish va hokozolar tufayli nizoning hal bo'lishi natijasida nevrozdan mustaqil qutilish hollari ham qayd qilinadi. Obsessiv-kompulsiv buzilishda birinchi o'rindagi davolash sifatida kognitiv-xulq terapiyasi (KXT) va SQUSI (serotonin qayta ushlanishining selektiv ingibitorlari) yoki klomipramin guruhi antidepressantlarini qo'llash tavsiya etiladi. Kognitiv-xulq terapiyasidan tashqari, psixodinamik terapiya yoki psixoanaliz ham ishlatiladi, lekin ularning samaradorligi, KXT samaradorligidan farqli o'laroq, kam isbotlangan. KXT bu obsessiv-kompulsiv buzilishda samaradorligi nazorat ostida o'tkazilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlangan psixoterapiyaning yagona turidir. Obsessiv-kompulsiv buzilishni kognitiv davolashda adaptivlikka o'rgatish qo'llaniladi, bu texnikada terapevt bemorda qayta-qayta o'rnashib qolgan fikrlarni chaqirishga harakat qiladi, natijada bunday fikrlar bemor uchun xavflilik ahamiyatini yo'qotadi va xavotirning pasayishiga sabab bo'ladi deb taxmin qilinadi. Shuningdek javobni oldini olishning yashirin texnikasi ham ishlatiladi: terapevtlar bemorlarni adaptiv o'qitish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'rnashib qolgan fikrlardan chalg'ish yoki saqlanishga o'rgatadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, kognitiv nazariya tarafdorlari fikrlariga ko'ra, bunday buzilish insonning yoqimsiz, keraksiz o'ylari mavjudligi xususiyatlaridan kelib chiqadi: ba'zi odamlar uchun yoqimsiz fikrlar shu darajada jirkanch va zo'riqtiradigan ta'sir ko'rsatadiki, ular bunday fikrlardan qochish yoki ularni bartaraf qilishga urinishadi. Bu sa'y-harakatlar fikrlarning o'rnashib qolishiga olib keladi, ular noqulaylikni bir muddat pasaytiradi va qayta-qayta takrorlanaveradi, qutilishga harakat qilish esa ular bilan bog'liq tashvishlarni yanada kuchayishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
5. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan
6. S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y.
7. Sharapova D.B. [УЙ БЕКАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ](#)
FORMATION OF PSIXOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES (ITALY CONFERENCE) 2022, 24-31b.

BEMORDAGI NEVROTİK HOLATLARDA PSIXOLOGİK YONDOSHUVNING ZARURATI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Xoshimjonova Iroda Qosimjon qizi

TTA "Davolash ishi" 2-kurs talabasi

Musinova Dinora Muzaffar qizi

TTA "Davolash ishi" 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola tibbiyot sohasida eng ko'p uchrovchi nevroitik holatlarning tahlili va tibbiyot hodimlarining bemor bilan ishlashdagi psixologik yondoshuvi zaruratini o'rganishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *psixosomatik, tibbiy psixologiya, nevroz, psixologik yordam, kasallik, bemor shaxsi.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу наиболее распространенных невротических случаев в сфере медицины и изучению необходимости психологического подхода медицинского персонала в работе с пациентами.*

Ключевые слова: *психосоматика, медицинская психология, невроз, психологическая помощь, болезнь, личность больного.*

Annotation: *This article is devoted to the analysis of the most common neurotic cases in the field of medicine and the study of the need for a psychological approach of medical personnel in working with patients.*

Key words: *psychosomatics, medical psychology, neurosis, psychological help, disease, patient's personality.*

Har bir shifokor va hamshira o'z faoliyati davomida shunday bemorlarga duch keladi-ki, ularning butun klinik ko'rinishi yoki asosiy qismi nevroitik kasalliklar bilan bog'liqdir. Har qanday kasallik qo'rquv, havotir, tashvish va boshqa qator salbiy his-tuyg'ular tug'diradi. Jismoniy yoki somatik kasalliklar, butunlay boshqa bir sabablarga ko'ra, allaqachon paydo bo'lgan nevroitik buzilishlar tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, nevroz bilan og'rigan bemor ko'pincha psixoterapevtga emas, balki terapevtga murojaat qiladi. Negaki, nevroz allaqachon ichki a'zolari dardga chalintirib qo'ygan bo'ladi.

Bu oson emas. Negaki, bemor odatda "asab"dan emas, balki aniq bir nohush hislar: og'riq, hansirash, yurak «gupur»i, bo'shashish, bosh aylanishi, qabziyat va hokazolardan aziyat chekayotganligidan noliydi. Bunday bemorlar bilan qanday ishlash kerak? Buning javobi oddiy. Maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha, poliklinikaga murojaat qilgan bemorlarning to'rttdan uch qismi jismoniy kasallik bilan emas, balki nevroz kasalligi bilan og'rigan bo'ladilar.

K.Gaiening taxminiga ko'ra, bemorlar shikoyatining 60%i jismoniy emas, balki emotsional belgilardan iborat bo'ladi. Nevrotik kasalliklar hamma mamlakatlarda va

hamma davrlarda odam ko'p duchor bo'ladigan dardlardandir. Buning hayratlanarli joyi yo'q: zero, a'zo qancha murakkab bo'lsa, uning dardga chalinishi shuncha oson. Nerv sistemasi kabi murakkab tizim mavjud emas.

Agar kasallik faqat nevroitik buzilishlardan iborat bo'lib, bemor psixoterapiya uchun tayyor bo'lsa, unda har qanday dori – antibiotik bo'ladimi, safro haydovchi bo'ladimi yoki spazmolitik bo'ladimi, foyda keltiraveradi. Bu o'rinda “Platsebo effekti”ni yodda tutmog'imiz kerak.

Har qanday kasallikning birlamchi tashxisi – shu kasallikning bo'lishi ehtimoli borligini unutmashkdir. Agar nevroitik buzilish ko'p uchrasa, demak uni har doim yodda tutmoq kerak. Albatta, bosh og'rig'idan shikoyat qilganlarida bosh suyagi ichidagi shish haqida ham, meningit to'g'risida ham o'ylamoq joiz. Zero, bu kasallik vaqtida aniqlanmasa bemor halok bo'ladi. Lekin shunisi ham borki, shish bilan meningit kamdan kam uchraydigan kasallik, aksariyat, bosh og'rig'i nevroitik buzilish belgisidir.

Ma'lumki, nevroz chog'ida jismoniy o'zgarish bo'lmaydi: bemorning shikoyatlari fizik va laboratoriya tekshirishlarida tasdiqlanmaydi. Agar xolis tekshirishlarda qandaydir organik patologiya ma'lum bo'lsa, nevroz haqidagi taxmin bekor qilinadi. Aslida esa, yo bir-biridan xolis mustaqil organik va nevroz kasalligi, yoinki organik kasallikning nevroitik reaksiyasi tufayli og'irlashish yuz bergan bo'lishi mumkin. Shuningdek, nevroitik buzilish haqida tashxis qo'yish uchun organik o'zgarish bor-yo'qligi ahamiyatsizdir. Negaki, bu kasallik asabiy-ruhiy sohaga tegishli bo'lib, uni aniqlash uchun fonendoskop ham, nevropatolog to'qmoqchasi ham kerak emas. Buning uchun bemor bilan suhbat va uni kuzatish kifoya. Bu holat uchun quyidagi misolni keltirib o'tishimiz mumkin:

Bemor ayol 48 yoshda, u yurak atrofi va to'shida, ko'krak orqasida og'riq borligidan, kechasi yuragi o'ynashidan, dam olgan chog'ida havo yetishmasligi, kekirish, ichi qotishi, uyqusizlikdan shikoyat qiladi. Bemor ayol hayajon, tahlikada, fikr-xayoli o'zidagi noxush his-tuyg'ulari bilan band. Turli shifoxonalarda borganligi, har xil mutaxassislar tekshiruvdan o'tganini hikoya qiladi. Shikoyat ko'p-u, lekin aniq bir nima demaydi. Kasalini bir jumla bilan ifodalay olmaydi. Doim yuragida og'rig'ini his etadi. Qandaydir bo'shshab turadi, ob-havo o'zgarishi bilan o'zini yomon his etadi. Qornida ham og'riq borligidan noliydi. Ancha-muncha so'rab-surishtirishlardan so'ng og'riq uzoq cho'zilishi, jismoniy zo'riqish bilan bog'liq emasligi aniqlanadi. Odatdagi vazifalarni bajarganda harsillamaydi. Arteriya bosimi, ahyonda simob ustunining 160/90 mm ga yetadi, ammo odatda, me'yorda yuradi. Uyqusi yomon, uzoq yillar mobaynida uxlatadigan dori iste'mol qiladi. So'nggi yillarda hayz ko'rishi muntazam emas. Oilali, farzandsiz, ishlamaydi. Moddiy sharoiti yaxshi. Shifoxona va uyda ko'p marta davolangan, tashxislari turli-tuman, vegetososudistaya distoniya, spondilez, miokardit, yurakning ishemik kasalligi, klimakterik kardiopatiya mavjud.

Yaqinda klinikada yana mufassal tekshiruvdan o'tgan va unga diafragmaning qizilo'ngach teshigining sirg'aluvchi dabbasi tashxisi qo'yilgan. Bunaqa kasalni tuzalmaydi, deb eshitgan bemor ayolning ruhan tushkunlikka tushgan.

Bemor ayol bilan suhbat jarayonida ma'lum bo'ladiki, yurakning hech qanday organik patologiyasi bunday shikoyatlarga o'rin qoldirmaydi. Shikoyatlari o'n yil burun: klimaks haqida gap bo'lishi mumkin bo'lmagan paytdan boshlangan. Bu yerda nevroitik hodisalar shunchalar ko'pki, buning natijasida barcha xilma-hil shikoyatlari o'z izohini topadi. Organik kasallik topish uchun bemorni yangidan-yangi tekshiruvlardan o'tkaziladi. Mana, nihoyat yechim ham topildi - diafragma dabbasi. Bemor ayolning hikoyasiga ko'ra davolovchi vrach, hamshira u bilan birga rentgen kabinetiga birga kirganini, dabba aniqlanganda quvonib ketganliklarini so'zlab bergan²⁷. Bu misoldan ko'rinadiki, shifokor bemorni qanchalik kuzatmasin, navbatida bemor ham uning har bir harakatini ipidan ignasigacha bilib, kuzatib turar ekan. Shuning uchun ham shifokor va hamshira har bir bemorning ichki dunyosidan xabardor bo'lmog'i, hech bo'lmaganda uning tomir urish (puls)ini bilganchalik bilmog'i kerak. Negaki, bemorni shaxs sifatida bilmoq uni muvaffaqiyatli davolashda qo'l kelishi tabiiy. Bemorni davolashga kirishishda uning ichki dunyosini anglab olmoq uchun nimalar qilmoq kerak? Buni amalga oshirish biz o'ylaganimizdek juda qiyin ish emas. Buning uchun, avvalo, bemorga bir necha oddiy savollar berildi. Masalan, "Uyqungiz qanday, yaxshimi yoki yomonmi?" Uyquning notinchligi, uyqusizlik, uzilib turishi, ziyrak uxlash, dahshatli tushlar ko'rish bemorning hayajonda va tashvishdaligini ko'rsatadi. Uzluksiz uyqu dori ichish - ruhiy tushkunlikning asosiy belgilaridandir. Lekin ba'zan bemorda uyquchanlik, hatto kunduzi ham uyqu bosish kuzatiladi. Ammo bu hol bizni qiziqtirgan uyqusizlikdek muhim emas.

Bizda yengil ruhiy azoblanish (depressiya) juda keng tarqalganligini hisobga olgan holda quyidagi savollar bilan bemorning ahvolini bilib olish qiyin emas. "O'zingizni qay payt yaxshi his qilasiz – ertalabmi, kunduzimi yo kechqurun?". Ruhiy azobda qolgan kimsa, odatda, erta bilan bo'shashadi, kechga borib kayfiyati yaxshilanadi. Bo'shashish holatiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ruhiy azobdagi kishida bu hol yurakdagi yetishmovchilik tufayldi bo'lgandagi kabi jismoniy emas, ruhiydir: ya'ni kitob o'qiganda, suhbatlashganda, televizor ko'rganda ham charchaydi. Bemordagi bu ruhiy tushkunlikning mohiyatiga yetib olish uchun undan: "Aytingchi, quvvatsizmisiz yoki hech nima qilgingiz kelmaydimi?" deb so'ralsa, uning ahvolini tushunish mumkin. Buning ustiga bemorning yashash sharoiti ham bilib olinsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Shunda shifokor bemorning ruhiy azoblanishi sabablarini yaxshi anglab oladi: biron yaqinini yo'qotgani, turmushi buzilgani yoki farzandsizlikdan ezilayotganini anglaydi.

"Ishxonada sharoitingiz yaxshimi?", "Oilangiz kattami, kim bilan yashaysiz?" kabi savollarga olingan javob bilan bemorning kayfiyati, ruhiy holati va hatto ijtimoiy ahvolini anglab olish mumkindir.

Shifokor va hamshira bemorning faqat dardinigina emas, balki uning turish-turmushi, tabiatini har taraflama o'rgangan chog'dagina u muvaffaqiyatga erishadi.

²⁷ N.A. Magazannik "Искусство общения с больными"

Xuloa qilib shuni aytish lozim-ki, bemorni to'g'ri davolash uchun, kasallikni aniqlashdan tashqari, uning ruhiy holatini ham chuqur o'rganish talab etiladi. Buning uchun shifokorda laboratoriya tekshiruvlarini mustaqil tahlil qilish uquviga ega bo'lish bilan bir qatorda tibbiy psixologiyadan xabardor bo'lmog'i lozim.

Shifokor va yuqori ma'lumotli hamshira butun faoliyati davomida bir-birini to'ldiruvchi bu ikki jismoniy va ruhiy nuqtai nazarni chuqur egallagan taqdirdagina buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino aytganidek: "Bemor borki, uni so'z bilan davolasa bo'ladi" degan so'zlariga amal qilgandagina muvaffaqiyat qozonadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Александер Ф. «Психосоматическа медицина» 2000.
2. Б.Д.Карвасарский «Клиническая психология» 2004.
3. Т.П.Пушкина «Медицинская психология» 1996. ст 32
4. Нарметова, Ю. (2014). Тиббиёт психологиясида психосоматик касалликлар муаммоси. ЎзМУ хабарлари.
5. Нарметова, Ю. (2016). Специфика работы психолога в клинике внутренних болезней. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 33(4), 53-57.
6. Нарметова, Ю. (2022). Психосоматик беморларда эмоционал–невротик бузилишлари ва уларга психологик ёрдам кўрсатишнинг ўзига хослиги. Общество и инновации, 3(2/S), 64-71.
7. Нарметова, Ю. (2016). Вопросы организации психологической службы в перинатологии и родовспоможении.
8. Sharapova D.B. [УЙ БЕКАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ](#) FORMATION OF PSIXOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES (ITALY CONFERENCE) 2022, 24-31b.

QOBILIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Fayzullayeva Madina Baxshillo qizi

TTA "Davolash ishi" 2-kurs talabasi

Ortiqboyeva Feruza Bahodir qizi

TTA "Davolash ishi" 2-kurs talabasi

Buzrukova Vazira Jamshidzoda

TTA "Davolash ishi" 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola shaxs qobiliyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib, qobiliyat rivojlanishida individual yondoshuvning ahamiyatini o'rgantahlil qilish, o'z oldiga zarur maqsadlarni qo'ya olish kabi muhim masalalarga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *qobiliyat, iste'dod, iqtidor, malaka, bilim, amaliyot, individual psixologik hususiyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается процесс влияния на производственный процесс и рассматривается важность индивидуального подхода к производству, акцентируя внимание на таких вопросах, как умение расставлять приоритеты.*

Ключевые слова: *способность, талант, талант, умение, знание, практика, индивидуально-психологическая характеристика.*

Annotation: *This article examines the process of influencing the production process and discusses the importance of an individual approach to production, focusing on issues such as the ability to prioritize.*

Key words: *ability, talent, talent, skill, knowledge, practice, individual psychological characteristics.*

Bilim va qobiliyatni bir-biridan farqlay olish lozim. Bilim bu-mutolaa natijasi hisoblansa, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatda qaraladi va faqatgina uni ilg'ay olish hamda rivojlantira bilish kerak. Qobiliyat bir shaxsga xos murakkab psixologik tushunchalardan tashkil topgan bo'lib, yutuqlarga o'z qiziqishi orqali erishishi tufayli uni payqash mumkin. Qobiliyatni ona qornidaligidanoq rivojlantirsa bo'ladi va bunga bir qancha misollar keltirilgan.

Misol uchun, ona homiladorlik vaqtida ko'proq nima bilan shug'ullansa, tug'ilajak farzandning ham shunga moyilligi ortadi. Ular tug'ma va ba'zida turli to'satdan sodir bo'lgan zarbalar, tanqidlar natijasida ham paydo bo'ladi. Agar bola yoshligida biror sohaga qiziqsa (rasm chizish, qo'shiq kuylash, sport va h.k) uni shakllantirishga alohida e'tibir

berish va o'z ustida ishlashini ta'minlash kerak. Bugungi kun bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni damda bitta qobiliyatga ega bo'lishning o'zi yetrali emas, agar ma'lum bir sohada haqiqatdan ham muvaffaqiyatga erishishni istasangiz, bu jarayon doimiy ravishda takrorlantirilib hamda rivojlantirilib borilishi kerak. Yana bir narsani yodda tutish kerakki, qobiliyat dinamik tushuncha – ularni doimiy ravishda shakllanishi, rivojlanishi va faoliyatning turli sohalarda namoyon bo'lishini anglatadi.

Rubinshteynning fikriga ko'ra, qobiliyatning rivojlanishi spiral shaklida sodir bo'ladi, bu esa keyingi darajaga o'tish uchun qobiliyatlarning bir darajasi tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Qobiliyatlarni rivojlanishi va rivojlantira olishni ikki xil yo'li bor.

1-yo'l:

- Tanqidiy vaziyatlar;
- Umidsizlik hissi
- Raqobatlasha olish
- Shart-sharoitlarga baho bera olish
- O'z kelajagini qobiliyatida yorqinroq qilish

Bir zamonda ikki aka-uka bo'lgan ekan. Aka ko'p icharkan va buning natijasida hattoki o'z oilasini boqa olmaydigan darajaga yetibdi. Uka esa o'z qiziqishlari ortidan bilim, malaka egallab, hayotda o'z o'rnini topdi. Bir keksa inson esa ularga savol beribdi: Bir onaning farzandlarisizlar, bir uyda, bir xil muhitda katta bo'lgansizlar, ammo taqdirlaringiz turlicha, bunga sabab nima deb so'raganida ular shunday javob berishibdi.

Aka: Dadam ko'p ichar edilar, hamma otasidan o'tib qayoqqa ham borardi degan, men ham taqdirim shunaqa ekan deb, bu holga tan berganman.

Uka: Dadam ko'p ichar edilar, ba'zan non qolmasdi uyda, men esa bu holatni ko'rib farzandlarim bunaqa hayotni ko'rmasligi kerak degan xulosaga kelganman.

Ikki aka-ukaning bir otadan olgan namunasi. Xuddi mana shunday holatlar yashirin qobiliyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Faqatgina bunda to'g'ri yo'naltira va to'g'ri tafakkur qila olish muhimdir.

Bunday holat tengdoshlar orasida ham raqobat shaklida uchraydi. Ilm egallash vaqtida o'z qiziqishini payqashi va uni rivojlantirishi mumkin.

2-yo'l:

Qaysidir sohaga qiziqish bor, ammo qobiliyat mavjud emas. Shu holatda qiziqishlarni rivojlantirish kerakmi?

Bu holatda iste'dodini emperik tarzda kamol toptirish mumkin. Bunda insonning qilayotgan ishiga qiziqishi va buning unga yoqishi lozim, qolgan barcha narsa esa unga ergashadi. Kimdir alpinizm (tog' cho'qqilarini zabt etish)ga moyillika ega, ammo bunga qobiliyati yo'q. Inson umri davomida dasht-u biyobonlarni keksa ham qobiliyatli bo'lib qolmaydi. Qobiliyat asosi bu moyillikdir, ya'ni bir vazifani qilish qanchalik qiziqarli bo'lsa moslashuvchanlik shuncha ortadi.

B.M.Teplov, K.K.Platonov, A.N.Leontiev, L.S.Vygotskiy empirik tarzda rivojlangan qobiliyatlarni o'rganishga hissa qo'shganlar. B.M.Teplov "qobiliyat" tushunchasi har doim uchta belgini o'z ichiga oladi deb ishongan:

1. Qobiliyat tushunchasi bir odamni boshqa odamdan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlarni tushunamiz.

2. Barcha individual xususiyatlar qobiliyat deb atalmaydi, ko'plab faoliyatlarning muvaffaqiyati bilan bog'liq.

3. Qobiliyat tushunchasi faqat ma'lum bir shaxs tomonidan ishlab chiqilgan, ko'nikmalar bilan chegaralanib qolmaydi.

K.K.Platonova esa qobiliyatni shunday ta'riflaydi: "Qobiliyatlar – bu ma'lum bir faoliyatni o'zlashtirish va uni takomillashtirish muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsiyat sifati"

Turli mualliflar nuqtai nazaridan yuqoridagi qobiliyat tushunchalaridan shuni aytish mumkinki, odam ma'lum bir faoliyatga qodir bo'lib tug'ilmaydi, uning qobiliyatlari to'g'ri tashkil etilgan tegishli faoliyatda shakllanadi, shakllanadi, rivojlanadi. ta'lim va tarbiyaning ta'siri. Qobiliyatlar-bu tug'ma ta'lim emas, balki butun umr saqlanib qoluvchi iste'doddir.

Qobiliyatli inson iqtidorlimi? Ma'lum bir sohada yuqori cho'qqilarni zabt etishga imkon beradigan turli qobiliyatlar kombinatsiyasi bu iqtidor hisoblanadi.

Xoxish muvaffaqiyatga erishishga kafolat bermaydi, ammo unga erishish imkonini beradi. Qobiliyatlarni rivojlantirishga to'g'ri yo'naltirish tamoyillari:

- Nima uchun kerakligini tushunish lozim, nima xohalyotganizni aniqlay olinsagina, ularning shakllanishi tezroq amalga oshadi. Ya'ni, giyohvand "nasha"ga qanchalik talpinsa, kishi ham o'z qobiliyatiga shu kabi talpinib, qiziqishi va uni rivojlantirish, yaxshiliklarga sarflashga shu qadar ishtiyoqmand bo'lishi kerak.

- O'z qobiliyati qiziqishi haqida iloji boricha ko'proq ma'lumot to'plashi muhim. Misol uchun, sportning boks sohasi. Bunda boksga oid istiqbollari va xavf-xatarlarni bo'lishi kerak hamda o'ziga bir qahramon boksyor tanlashi, nafaqat uning balki barcha – barcha jangchilarning ringdagi holatini ko'rishi, janglarini kuzatishi lozim. O'zi uchun ideal sanagan qaxramonnig hayot yo'li ham iqtidorni rivojlantirish uchun motivatsiya bo'la oladi.

- Muhimi bularni o'rganish va amaliyotda sinash. Nazariyasiz amaliyot yura olmaganidek, amaliyotsiz nazariya – bo'sh qop ekanligini unutmaslik lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozim-ki, har bir insonning individual psixologik hususiyatiga ko'ra yondoshish shaxs kamolotida muhim rol o'ynaydi. Shaxsning qiziqish va qobiliyatini, iqtidor va iste'dodini, moyilliklarini inobatga olgan holda kelajak rejalarini tuzishiga, rivojlanishiga erishish ortidan yangi ilmiy va innovatsion g'oyalarning tug'ilishiga zamin yaratish mumkin. Mazkur faoliyat davomida maqsad qo'yish va bu maqsad yo'lida strategik vazifalarni belgilab olish muhimdir.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
5. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan
6. S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y.
7. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2/S), 103-109.
8. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). “МУОШАРАТ ОДОБИ” ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
9. Мелибаева, Р. (2019). Использование обобщенных способов учебной деятельности-фактор совершенствования творческого мышления.
10. Sharapova D.B. [УЙ БЕКАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ](#) FORMATION OF PSIXOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES (ITALY CONFERENCE) 2022, 24-31b.

**O`QITUVCHINING TA`LIM TEXNIKASI VA TA`LIM JARAYONIDAGI KASBIY
MAXORATIDA MIMIKA VA PANTAMIMIKA, VERBAL VA NOVERBAL TA`SIR ETISH
MEHANIZMLARI**

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o`qituvchisi

Matchanova Darmonjon Umidbek qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

"Bizni hamisha o`ylantirib keladigan yana bir muhim masala-yoshlarimizning odob-axloqi, bilimi, bir so`z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog`liq. Bugun zamon shiddat bilan o`zgarimoqda. Bu o`zgarishlarni hammadan ham ko`proq his etadigan kim? Yoshlar! Mayli, yoshlar o`z davrining talablari bilan uyg`un bo`lsin. Lekin ayni paytda o`zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug` zotlarning avlodimiz, degan da`vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o`zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Ta`lim-tarbiya va yana tarbiya"

Shavkat Mirziyoyev Miromonovich

Annotatsiya. *Mazkur maqola o`qituvchining ta`lim texnikasi va ta`lim jarayonidagi kasbiy maxoratida mimika va pantamimika, verbal va noverbal ta`sir etish mehanizmlarini o`rganishga bag`ishlangan.*

Tayanch tushunchalar: *ta`lim texnikasi, kasbiy mahorat, mimika, pantamimika, verbal ta`sir, noverbal ta`sir.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению механизмов пантомимы и пантомимы, вербального и невербального воздействия в педагогической методике и профессиональном мастерстве педагога в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *педагогические приемы, профессиональные навыки, пантомима, пантомима, вербальное воздействие, невербальное воздействие.*

Annotation. *This article is devoted to the study of the mechanisms of pantomime and pantomime, verbal and non-verbal influence in the pedagogical methodology and professional skills of the teacher in the educational process.*

Key words: *pedagogical techniques, professional skills, pantomime, pantomime, verbal influence, non-verbal influence*

Mamlakatimizda ta`limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e`lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratlashuv va insonparvarlik tamoyillarining targ`ib etilishiga zamin yaratdi. Pedagoglar faoliyatiga doir hamda ta`limga oid qarorlar mazmun-doirasida yoshlarni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalash masalasi ko`rib chiqildi.

Pedagogik texnika – o`qituvchining nafaqat ta`lim-tarbiya, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo`lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari bu avvalo o`qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko`nikmalari hisoblanadi, ya`ni o`qituvchining savodli va ifodali so`zlay olishi, o`z fikr mulohazasini tushunarli va aniq yetkazib bera olishi lozim.

Har bir pedagog ta`lim-tarbiya tomonidan “mimik va pantomimik” qobiliyatlarga va albatta psixologik bilimga ega bo`lishlari shart.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo`lib o`rganiladi:

- 1) O`qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va hulqi;
- 2) O`qituvchining shaxs va jamoaga ta`sir ko`rsatish malakasi;

- O`qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi ya`ni ta`lim-tarbiya jarayonida o`zini va xatti-harakatlarini boshqara olishi, ta`lim-tarbiya jarayonida o`z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo`ya ta`sirga berilmaslik va perseptiv qobiliyatlarga egaligi, nutq texnikasini bilishi va o`z o`rnida qo`llay olishi kerak.

- O`qituvchining shaxs va jamoaga ta`sir ko`rsatish malakalari bilan bog`liq bo`lib, bu guruh ta`lim tarbiya jarayoning texnologik tomonini qamrab oladi. O`qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlarima`lum bir reja asosida o`z oldiga qo`yilgan talablarni bajarilishini nazorat qilishi, ta`lim muassasasida va o`quvchilar jamoasida ta`lim tarbiya bilan bog`liq bo`lgan ijodiy faoliyatini tashkil eta olishi, o`quvchilar bilan pedagogic muloqot jarayonini bior muvozanatda saqlab qola olishi kerak.

Mimika – bu, o`z fikrini, kayfiyatini, hissiyotini ya`ni ichki dunyosidagi holatini yuz ifodasi orqali namoyon qilish san`ati hisoblanadi. O`qituvchi chehrasining ifodasi o`quvchilarga maksimal darajada o`z ta`sirini ko`rsatadi. O`quvchilar o`qituvchining xatti-harakati, muomalasi, yuz ifodasiga qarab ularning munosabatini uqib oladilar. Shuning uchun ham nafaqat pedagogikada balki barcha kasb hodimlari shaxsiy hayotidagi ba`zi noxushliklarni, muommolarni, g`am tashvishlarini mimikasi orqali ifodalashi mumkin emas. Chunki ushbu muammolar o`qituvchining pedagogik faoliyatiga, dars mashg`ulotlarini mukammal darajada bajarishiga o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatadi. Pedagogik faoliyatida o`qituvchining chehrasida ya`ni mimik belgilarida o`quvchilarga dars faoliyatida yordam bera oladigan ularni darsga qiziqishlarini orttira oladigan umuman olganda ularga motivatsiya bo`la oladigan individual xarakterga ega bo`lishi kerak. O`qituvchining mimik ifodasi ta`lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ravishda ishonch, ma`qullash, faxrlanish, qiziqish, ta`qiqlash, norozilik, e`tiroz kabi xususiyatlari bayon qilinishi lozim. Bu esa pedagogning o`quvchilar diqqatini bo`lmagan holda ta`lim metodini samarali olib borishga yordam beradi.

Pantomimika – bu, o`qituvchining gavdasi, qo`l-oyoqlarini harakatini tartibga soluvchi uslubdir. Pedagogik jarayonda o`qituvchining o`quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etadi biroq o`qituvchining o`quvchilar bilan muloqotida o`qituvchining pantomimikasi to`g`ri ifodalanmasa ta`lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin. Agar o`qituvchi har qanday pedagogik ma`lumotlarining obrazini yarata olsa

o`quvchilar bundan zavqlanadilar chunki ularning his tuyg`ulari tashqi dunyosi bilan qo`shilib psixologik tomondan butun ongini mavzuni mazmuniga, darsni o`zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdasini tik tutib yura olishi, oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi boshining turli harakatda ifodalay olishi o`qituvchining o`ziga, bilmiga bo`lgan ishonchini bildiradi. O`qituvchining pantomimikasi ortiqcha xatti-harakatlardan holi bo`lishi kerak.

Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo`llari bilan tez-tez turli xil imo-ishoralar qilishi, boshini har tomonga tashlashi.

Bunday holatlar o`quvchilarni darsda e`tiborini bo`linishi asosiysi o`quvchilarda hurmatsizlik hissini keltirib chiqaradi. O`qituvchi dars jarayonida faqat to`g`riga yurishi tavsiya qilinadi chunki o`qituvchi old tomonga yurayotganda muhim ma`lumotlarni namoyon qilishi mumkin shuningdek bunday holatda o`quvchilar bu ma`lumotlarni diqqat bilan eshitayotgan bo`ladilar.

Biz yuqorida aytib o`tganimizdek, pedagogikada muloqot muhim ahamiyatga ega, shuningdek, muloqot psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri ham pedagoglarning quyidagilardan foydalanishidir:

- O`quvchilarni faollikka undovchi muomalaviy imkoniyatlar mavjudligini ta`kidlab o`tish;

- O`quvchilarni kasbiy layoqatini faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish;

- O`zaro ta`sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish.

Muloqotda odatda “verbal va noverbal” kommunikatsiya turlari farqlanadi

a. VERBAL – nutq so`zlash, ma`ruza, suhbatlashish, savol-javoblar, bahs-munozara, muzokara, axborot va ma`lumot berish, kengashish, maslahatlashish va tanbeh berish;

b. NOVERBAL – imo-ishora, qo`l va gavda harakatlari yordamida ma`lum ma`no-mazmunni ifodalash yoki ta`kidlash;

Pedagog faoliyati davomida ham verbal ham noverbal muloqot juda katta ahamiyatga ega chunki verbal va noverbal muloqot turlari bir-biriga chambarchas bog`liq ya`ni o`qituvchi dars mobaynida nutq so`zlayotganida yoki turli hil suhbatlarni olib borganida imo-ishoralar yoki gavda harakatlaridan foydalangan holda o`quvchilarga uqtirishga harakat qiladi shunday ekan biz pedagogika faoliyatida bir-biriga bog`liqliklarni ko`rishimiz mumkun.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o`tishimiz kerak-ki, har bir pedagog o`zining fani bo`yicha yetarlicha bilimga va qobiliyatga ega bo`lsa, kelajagimiz yoshlari bizdanda bilimli va malakali bo`ladi. Taraqqiyotni rivojlantirish strategiyasida belgilangan choralar bo`yicha faoliyat olib borish ortidan, biz yoshlar yuksak natijalarga erishamiz, bejizga kelajak yoshlar qo`lida deb bot-bot tarorlamaydilar, zero, kelajagimizning poydevorini mustahkamlash uchun biz bugundan, hozirdan harakat qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi “Umumiy Pedagogika” (N.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov, 2012)
2. O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`limvazirligi “Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat” (H.T.Omonov, N.X.Xo`jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshjonov, 2009)
3. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neyropedagogika va neyropsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. Общество и инновации, 3(2/S), 103-109.
4. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.
5. Мелибаева, Р., & Ахмедова, М. (2021). Бола нутқини чиройли ривожлантириш-ноадабий сўзлар таназзулидир.
6. <https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/324> “Та`лим-tarbiya tizimi”
7. Sharapova D.B. УЙ БЕКАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ FORMATION OF PSIXOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES (ITALY CONFERENCE) 2022, 24-31b.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA KREATIV YONDOSHUV

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o’qituvchisi

Gafurova Gavhar

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Nasillayeva Jasmira

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqola bugungi kunda pedagogik faoliyat uchun zarur bo’lgan kreativ fikrlash, dars o’tishning noodatiy usullarini o’ylab topish va amaliyotga tadbiq etishning zaruratini ko’rib chiqishga bag’ishlanadi.*

Tayanch tushunchalar: *Pedagog, kreativlik, talaba, individuallik, metod.*

Аннотация. *Данная статья посвящена рассмотрению необходимости творческого мышления, изобретения необычных методов обучения и воплощения их в жизнь, что необходимо сегодня для педагогической деятельности.*

Ключевые слова: *Учитель, творчество, ученик, индивидуальность, метод.*

Annotation. *This article is devoted to the need for creative thinking, the invention of unusual teaching methods and their implementation, which is necessary today for pedagogical activity.*

Key words: *Teacher, creativity, student, individuality, method.*

Har bir inson boshqa bir odamga o’zi bilgan bilimlarni o’rgata olishi mumkin. Bunda hech qanday qiyinchilik yoki mujmallik ko’rinmaydi ham. Xo’sh, unda nega bizga pedagoglar kerak bo’lib qoldi? Nima sababdan oliy ta’limning barcha sohasiga bu yo’nalish kirib borgan? XXI asr – texnologiyalar zamonida, xattoki, eng nozik mikrojarrohlik amaliyotlari ham kompyuterlashtirilib, robotlar tomonidan amalga oshirilayotgan bir paytda, davlatning bu soxaga ko’rinarli mablag’ ajratib, pedagogikani rivojlantirishga undayotganining sababi nimada deb o’ylaysiz?

COVID – 19 har bir davlatning, har bir sohaning o’z potensialini yuzaga chiqardi. Davlatlararo masofaviy munosabatlar, masofaviy (online) iqtisodiyot, cheklangan “erkinlik”, masofaviy ta’lim va boshqalar.


Ko’plab an’analarni o’zgartirib yuborgan bu davr ba’zi sohalar uchun foydali bo’ldi. Online uchrashuvlar, online iqtisodiyot (internet magazinlar, savdo saytlari, yetkazib berish xizmati) avvalgisiga qaraganda qulayligi, kam vaqt va mablag’ talab qilishi bilan butun dunyo hamjamiyati tomonidan ommaga kirib, hozirga qadar foydalanib kelinmoqda.

Har doim so’ngi o’rinlarda keladigan, shuningdek, bizning ham og’riqli nuqtamiz hisoblanadigan ta’lim sohasi masofadan o’qitilganda iqtisodiy jihatidan qulaylik keltirgan bo’lsa-da, nima sababdan yana o’z holiga – an’anaviy o’qitish tizimiga qaytildi?

Bunga bir necha sabablarni keltirishimiz mumkin:

- O`quvchilarning nazoratsiz qolgani;
- O`quvchilarda faqat guruh bo`lib ishlashdagina shakllanadigan sifatlar rivojlanishdan ortda qolganligi – zukkolik, tezkorlik, bahslashish, sog`lom raqobat, maslahatlashish;
- O`quvchilarda o`zaro fikr almashinishning cheklanganligi;
- Ta`lim olish jarayoni uy roliga aralashib ketganligi – bolaning ta`lim oladigan joyi har xil maishiy jihozlardan holi bo`lishi, unga ovqatlanadigan xonani yoki yotoqni eslatmasligi kerak;
- Ota onalar uchun qiyinchiliklar (bunga to`xtalish joiz emas deb bilaman) ;

Qisqa qilib aytganda, biz jonli pedagoglarga ehtiyoj sezdik. Bu yerda “jonli” so`zi alohida ahamiyatga ega. You Tube tarmoqlaridagi Oxford, Cambridge kabi universitet o`qituvchilari tomonidan qo`yib borilgan videodarslar ham o`rnini bosa olmagan “jonli pedagog” lar - kim ular?



Shu yerning o`zida maqolaning mavzusini qaytadan o`qishni tavsiya qilaman. Qisqa javob bilan kifoyalanishim mumkin edi, ammo bu jummalarni yanada teranroq qilib yoritish, endi yetishib chiqayotgan yosh pedagog kadrlarga bu sohaning mazmunini bilan tanishtirish, ularni ruhan stressga bardoshlik qilib tayyorlash maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Demak kreativ pedagogika umulashtiradi:

- darsga ijodiy yondashish;
- individual psixologik sifatarni inobatga olish;
- fikrlashda erkinlik;
- muammolarni ijodiy hal qilish;
- mahsuldorlikni oshiruvchi metodlar.

Kuchli xarakterga ega odamlarda bo'lgani kabi pedagoglarning ham ishini mukammallashtirishga sabab bo'ladigan o'z printsiplari mavjud. ular bir birini to'ldiradi, pedagogik jarayonda kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmovchiliklarning oldini oladi.

1. Muammo printsiplari.

Muammo tamoyilidan foydalanish allaqachon yagilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoning nostandart echimini izlashdan iborat. Ushbu pedagogik faoliyat o'quvchining ijodkorlik va oldindan ko'ra olish qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi yoki shakllantiradi. Masalan, faraz qilish va uni tekshirish, vaziyatni baholash, oldindan natijani tahmin qilish, materialga foydali o'zgartirish kiritish va boshqalar.

2. Ijodiy yo'naltirish printsiplari.

Ushbu tamoyil nafaqat tasviriy san'at ko'nikmalarini, balki, keng qamrovlilik, did, fantastik yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yakuniy nuqtaga bolalarning har xil uslublardan foydalanib, shuning bilan birga, rang-baranglikka urg'u berib, bir- biriga kesishmaydigan yo'llardan yurib yetib borishga undaydi. Va yana bu printsiplari o'quvchilar o'rtasida hissiy yaqinlikka sabab bo'ladi. Bu jarayon eksperimental metodlarga asoslangan bo'lishi natijaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Metodikani hisobga olish printsiplari.

Metodika pedagogning asosiy ish quroli bo'lmaguncha uni kreativ deb atash xato tushuncha. Metodika - faqat o'yinlar emas, u xatto bir soat e'tiborni o'ziga qaratish vositasi ham emas. Bu pedagogik jarayonni aniq maqsadga yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi va mahsuldorligini oshiruvchi stimullar yig'indisidir. Bunda zamonaviy metodologik vositalar ish koeffitsiyentini oshirishda xizmat qiladi²⁸.

4. Yaxlitlik va izchillik printsiplari.

Pedagogda faoliyatiga nisbatan ambitsiya bo'lishi kerak. Bir xil ma'lumotlar, adabiyotlar bilan kifoyalanib qolish, o'quvchilar uchun "zamondan ortda qolgan o'qituvchi" roliga kirib qolish, innovatsion texnologiyalarga ega bo'la turib, bu resurslardan oqilona foydalana olmaslik pedagogning reputatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillardan hisoblanadi. Bu kasbda yoshdagi farq, irq, ijtimoiy ahvol degan tushunchalar pedagogning o'zini oqlashi uchun sabab bo'lmazligi kerak. Aksincha pedagog o'quvchilarning ushbu jihatlarini inobatga olib, shaxsiy chegaralarini tan olishi lozim.

5. Individualizatsiya printsiplari.

Bir so'z bilan aytganda shaxsni tan olish demakdir. Har bir o'quvchining axborotni qabul qilishi, amal qilishi uning psixologik holatidan kelib chiqib ta'lim standartlariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Yoki gumanitar fikrovchi bola aniq fanlarni yaxshi o'zlashtira olmasligi, uni majburlab arifmetik fanlarni o'qitishingizga sabab bo'la olmaydi. Bolada qaysi ijobiy xususiyatlar dominant bo'lsa, urg'u shu tomonga qo'yilishi kerak. Aksincha, bolada fanga

²⁸ [tibbiyotdagi asosiy metodik vositalar haqidagi maqola](#) 286-b

nisbatan nafrat va qobiliyatlarini so`nishiga sabab bo`lish mumkin. Shuningdek bolani doimiy ravishda idealikka undash unda pessimizm yoki nevrozning rivojlanishiga olib keladi. Shuni unutmaslik lozimki, individuallikning o`zi – ideallik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). “МУОШАРАТ ОДОБИ” ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.

2. Melibayeva, R. N., Khashimova, M. K., Narmetova Yu, K., Komilova, M. O., & Bekmirov, T. R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. International journal of scientific & technology research, 9(03).

3. Sharapova D.B. [УЎ БЕКАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ](#) FORMATION OF PSIXOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES (ITALY CONFERENCE) 2022, 24-31b.

4. <https://infourok.ru/statya-na-temu-kreativnost-uchitelya-1913414.html>

5. <https://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/4-SUSHHNOST-PEDAGOGICHESKOJ-KREATIVNOSTI.pdf>

6. <https://tmetod.uz/wp-content/uploads/Kreativ-pedagogika-asoslari.pdf>

TIBBIY KASBIY TA'LIMGA OID ILG'OR XORIJ TAJRIBASINING TAHLILI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Axmedov Komiljon Ma'murjon o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Tibbiy Pedagogika" fakulteti 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola xorijdagi tibbiy kasbiy ta'limdagi ilg'or va innovatsion g'oya va metodlarni o'rganish va tahlil qilishni nazarda tutadi.*

Tayanch tushunchalar: *Metod, ilm-fan, g'oya, xorijiy tajriba, ta'lim inspeksiyasi.*

Аннотация: *В данной статье речь идет об изучении и анализе передовых и инновационных идей и методов медицинского профессионального образования за рубежом.*

Ключевые слова: *Метод, наука, идея зарубежный опыт, образовательная инспекция.*

Annotation. *This article refers to the study and analysis of advanced and innovative ideas and methods in medical professional education abroad.*

Key words: *Method, science, idea foreign experience, educational inspection.*

Bilamizki, ko'pgina rivojlangan davlatlar kundan kunga o'z tajribalarini ilm-fan, iqtisodiyot, texnika va boshqa jabhalarda o'zlarini yuksaltirib bormoqdalar. Rivojlangan davlatlar o'z ustilarida juda qattiq ishlab innavatsion g'oyalar bilan boshqa raqobatdosh davlatlarni ortda qolirishmoqda. Bu quvonarli yangiliklardan biri deb hisoblasak bo'ladi. Chunki raqobat bor ekan, har doim rivojlanish va yuksalish bo'ladi. Yuksalish yana ham tez bo'lishi uchun rivojlangan davlatlar boshqa raqobatchilarining ilm-fan uchun o'ylab topgan yangi g'oya va metodlarini o'rganib o'zlarini maqsadlarida keng ko'lamda ishlatishmoqdalar. Chunki biz o'ylab ko'rmagan yo'llarni boshqa bir odam o'ylab buni targ'ib qilishi mumkin va shu tariqa boshqalarning rivojlanishiga katta turtki bo'lishi mumkin. Shu bois biz ham rivojlangan davlat sifatida o'z g'oya va metodlarimizni targ'ib qilishimiz va boshqa davlatlar g'oyalarini o'rganishimiz zarur. Xalqaro tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz.

Davlat standartiga ko'ra, shifokor quyidagilarni bilishi kerak:

- kasalliklarning individual va aholi profilaktikasini amalga oshirish;
- sog'lom va kasal odamlarni klinik ko'rikdan o'tkazish;
- bemorlarni tashxislash va davolash

–kasalliklar bilan rejalashtirilgan va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va o'rganish ta'lim tomonidan ko'zda tutilgan patologik sharoitlar tibbiyot universitetida o'qish dasturi va rejalari;

- tibbiy olib boorish hujjatlar sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish;
- ko'rsatish aholini ommaviy qirg'in qilish markazlarida tibbiy yordam ko'rsatish;
- unga bo'ysunuvchi tibbiyot xodimlarining ishini tashkil etish texnologiya talablarini hisobga olgan holda sog'liqni saqlash muassasalarining bo'limlari xavfsizlik va xizmatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq sog'liqni saqlash;
- sog'lom va kasal odamlarni sog'lomlashtirish ishlarini samarali olib borish.

Shuning uchun tibbiyot oliygozlari talabalariga bu talablarning barchasini bajarish uchun turli tuman va esda qolarli metodlarni ishlatish lozim.

“Aqliy hujum” usuli. Bunda qatnashchilar birlashgan holda amaliy va ilmiy muammolarni yechishga harakat qiladilar:

–uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari (generatsiya qiladilar) suradilar. Aqliy xujum jarayonida qatnashchilar qiyin muammoni bir-birlari [bilan fikr almashgan holda](#) yechishga harakat qiladilar:

–muammoni yechishda uni tanqidga uchramasligi uchun o'zlarining ko'proq shaxsiy fikrlarini (generatsiya qiladilar) bayon etadilar, keyin esa mos keladigan, ratsional, samarali, optimal va ilg'or g'oyalarni (fikrlarni) tanlab, muhokama qilib, ularni kengaytiradilar, chuqurlashtiradilar, ularni isbotlanishi yoki rad etilishi imkoniyatlarini baholaydilar. Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarning o'quv-bilimini orttirish, faoliyatini faollashtirish, muammolarni mustaqil tushunish va yechishda ularning motivatsiyasini o'stiradi va muomala madaniyatini tarbiyalaydi, kommunikativ (o'zaro fikr almashinuvi) malakalarini rivojlantiradi, fikrni inertsiya (holatni saqlash hususiyati) holatidan ozod etish va ijodiy vazifalarni yechishda, o'rganib qolingan fikrlarni yengilashga yordam beradi.

Bu usul orqali tibbiyot oliygozlari talabalarini hodim bo'lib ishlash jarayonlarida qiyinchiliklarsiz bemorlarga tez va tog'ri tashhis qo'ya oladilar. O'zlarini bilim va malakalarini o'z ish jarayonlarida qiyinchiliksiz va samarali tarzda ishlatish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

I.Ya.Lerner bo'yicha o'qitish usuli bir necha ketma-ket usullaridan iborat bo'lib, har bir metod o'quvchilarning faolligini oshiradi: tushuntirish va illyustrativ usul, reproduktiv usul, muammoni ko'rsatish usuli, qisman izlash yoki evristik usul, tadqiqot usuli.

1) Eng oddiy tushuntirish va illyustrativ usul - pedagogik jarayonga o'qitishning innovatsion usullari joriy etilishidan oldin qo'llanilgan. Usul turli xil usullardan foydalangan holda bilimga asoslangan o'rganish shakli deb ataladigan "tayyor" bilimlarni olishdan iborat.

2) Reproaktiv usul - namuna yoki qoida misolida o'rganish. Mashg'ulotning bu shakli asosan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi, bu mashg'ulotlarda talabalar aniq tuzilgan sxema bo'yicha amaliy ishlarni mustaqil bajaradilar. Mashg'ulotlarni o'tkazishning bunday shakllari faol va interaktiv usullar joriy etilishidan oldin ham qo'llanilgan.

3) Muammoni taqdim etish usuli - dars o'qituvchining uni hal qilishni talab qiladigan muammoni taqdim etishi bilan boshlanadi. Bundan tashqari, o'qituvchi materialni taqdim etar ekan, muammoni hal qilishda turli xil yondashuvlarni taklif qiladi, ularni taqqoslaydi, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini ilmiy isbotlaydi.

4) Qisman qidirish yoki evristik (yunoncha heurisko - qidiraman, ochaman) usuli - "yangi" ni kashf qilish usuli. Dars shunday tuzilganki, munozara jarayonida o'quvchilarning bilish qobiliyati, fanga qiziqishi va to'g'ri yechimni mustaqil izlash faollashadi.

5) Tadqiqot metodi talabalarning mustaqil tadqiqot ishlari tamoyiliga asoslanadi. Talabalar berilgan muammo bo'yicha adabiyotlarni o'rganadilar, tahlil qiladilar, muammoning echimini qidiradilar. Ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy izlanishni, tadqiqot faoliyatiga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik amaliyotda faol va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini faollashtirishga yordam beradi, o'quv jarayonida ijodiy ishtirokini rag'batlantiradi. Bu usul o'quvchilarni bilim darajasini aniqlashda juda katta yordam beradi.

Jamoaga yo'naltirilgan ta'lim (JYT - jamoaga asoslangan o'rganish) 70-yillarda Oklaxoma universiteti biznes kafedrasida o'qituvchisi Larri Mishelsen tomonidan taklif qilingan. Muvaffaqiyat bilan, usul Qo'shma Shtatlardagi tibbiyot maktablarida qo'llaniladi, ularning 77 dan ortig'i oliy tibbiy xodimlarni tayyorlash uchun JYTDan foydalanadi.

Jamoaga yo'naltirilgan o'qitish – bu, guruhlar tarkibi doimiy bo'lishi kerak bo'lgan har hil darajadagi 3-4 o'quvchidan iborat kichik guruhlarda ishlashga asoslangan o'qitish usulidir.

JYT usulining asosiy maqsadi talabalarni jamoada ishlashga o'rgatish, yangi bilimlarni tushunish va o'zlashtirishga yordam berish; har bir talaba jamoaning qo'llab-quvvatlashini his qilishi kerak, bu unga o'ziga ishonch, o'zini-o'zi takomillashtirish istagini beradi.

Jamoaga yo'naltirilgan trening, nomidan ko'rinib turibdiki, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Darsni o'tkazishning ushbu texnologiyasi talabalarga kursni o'rganish maqsadini tushunishga, ma'ruza, seminarlarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga qaratilgan. Jamoa ishi qiyin masalalarni tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi, muammolarni hal qilishda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Kelajakdagi shifokorlarda diagnostika va davolashda malakaga asoslangan yondashuvni ishlab chiqish uchun klinik bo'limlarda Case-based learning (CBL) keng qo'llaniladi.

Keysga asoslangan mashg'ulotlar jamoada vaziyatli vazifalar, biznes-rol o'yinlari yordamida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv o'quvchilar o'rtasida rol va mas'uliyatni taqsimlash imkonini beradi. Jamoada ishlash talabalarga qiyin muammoni birgalikda hal qilishga yordam beradi, bir-biriga yordam beradi, jamoa a'zosining qarorlarini qabul qiladi va hurmat qiladi, ularni o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rgatadi, muloqot

qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, jamoada ishlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Jamoada ishlashning shartlaridan biri talabalarni to'g'ri tanlashdir. Jamoa shunday tanlanadiki, uning tarkibiga bilim darajasi turlicha bo'lgan, kuchli va zaif o'quvchilar kiradi. Faqatgina ushbu qoidaga rioya qilingan taqdirda, natijaga erishish mumkin - muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, qiyin vaziyatda yordam va yordam ko'rsatish qobiliyatini o'zida aks ettiradi.

Klinik holatni tahlil qilishda talabalar tegishli bo'limlarda ilgari olingan bilimlarni eslab qolishlari kerak. Shunday qilib, tashxis qo'yish uchun laboratoriya testlarini, anatomiyani, patologik anatomiyani (a'zolar va tizimlarning tuzilishi), fiziologiyani (a'zolar va tizimlarning funktsiyalarini), patologik fiziologiyani (mumkin patologik anomaliyalar, ularning oqibatlarini) sharhlashda biokimyoy, immunologiya bilimlari talab qilinadi. va boshqalar). Davolash rejasini tuzish uchun farmakologiya (dorilarning farmakokinetikasi va farmakodinamikasi) va boshqalarni bilish muhimdir.

Konfutsiyi aytkanidek: "Men eshitaman va unutam, men ko'raman va eslab qolaman, men bajaraman va tushunaman" so'zlariga asoslanib barcha o'qitish tizimida mana shu tamoyilga asoslanadi, jumladan tibbiyot oliygohlarida ham. Bu gapga asoslanib shuni ta'kidlab o'tish joizki, barcha tibbiyot oliygohlarida amaliyot o'tamagan talabaning shifokorlik faoliyatini amalga oshirishi juda ham qiyin. Ilmiy bilim bo'la turib, uni amaliyotda qo'lay olmasa, bunday talaba o'z ishida ko'p qiyinchiliklarga uchraydi. Shu sababdan eng asosiy va kerakli metodlardan biri bu "Amaliy metod"dir. Bu metod orqali talaba bemorlar bilan muloqot qiladi, ularni holatini ko'radi, ko'rikdan o'tkazadi va o'z amaliy ko'nikmalarini oshirib borishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak barcha metodlarning asosiy maqsadi tibbiyot talabalarini kelajakda o'z kasblarining yetuk mutaxasisi bo'lib yetishib chiqishiga, ularni har qanday vaziyatda to'g'ri va oqilona yechim topishiga, og'ir vaziyatlarni to'g'ri baholashga, yechim topishga va barcha bemorlar bilan chiroyli muomalaga o'rgatishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. [Эффективные методы преподавания в медицинском вузе \(allbest.ru\)](http://allbest.ru)
2. [СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА -
Современные проблемы науки и образования \(сетевое издание\) \(science-
education.ru\)](http://science-education.ru)
3. [Методы и формы обучения в профессиональной деятельности врача-
специалиста \(studopedia.su\)](http://studopedia.su)
4. [АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ \(infourok.ru\)](http://infourok.ru)
5. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI
PSIXOLOGIK OMILLAR.](#) International scientific-online conference FORMATION OF
PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.

O'QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI KASBIY PEDAGOGIK MAHORATI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida
o'qituvchisi*

Ochildiyeva Nilufar

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy pedagogika 3-kurs talabasi

Mamajonova Dildora

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy pedagogika 3-kurs talabasi

Annotatsiya.: *Mazkur maqola bugungi kunda o'qituvchining faqatgina ta'lim beruvchi shaxs emasligi, balki tarbiya ham beruvchi kasb egasi ekanligini va bu faoliyati davomida ikkala yo'nalishni teng olib borishdagi kasbiy pedagogik mahoratiga bag'ishlanadi.*

Tayanch tushunchalar: *Pedagog, tarbiyachi, pedagogik tashkilotchilik faoliyati, tarbiya.*

Аннотация: *Данная статья посвящена тому, что сегодня педагог – это не только лицо, дающее образование, но и лицо, дающее образование, и в ходе этой деятельности он в равной степени обладает профессиональными педагогическими навыками в осуществлении обоих направлений.*

Ключевые слова: *Педагог, воспитатель, педагогическая организаторская деятельность, воспитание.*

Annotation: *This article is devoted to the fact that today the teacher is not only a person who gives education, but also a person who gives education, and during this activity, he has professional pedagogical skills in carrying out both directions equally.*

Key words: *Teacher, educator, pedagogical organizational activity, education.*

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir.

Tarbiya – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib, shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va

irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlari asosida ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Abdulla Avloniyning "Tarbiya – biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir", - degan fikri ko'p mushohadalarga munosib jummalardir. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim - tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad, ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda ularning ma'naviy qirralari: iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvatlilik, qanoatlilik va sabr - toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish juda muhimdir. Bu mislsiz tengi yo'q ishda o'qituvchilarning, tarbiyachilarning, ta'lim sohasida mas'ul xodimlarning xizmati benihoya kattadir.

Tarbiya tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Tarbiya avlod – ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan buyuk meros bo'lib, u komil insonni voyaga etkazishda muhimdir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida shunday deb yozgan: "Kimdakim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach baxtli bo'la olmaydi".

Adibning yuqoridagi so'zlariga amal qilgan holda o'quvchilarning ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyaviy darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'quvchilar qalbini odob - axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi o'qituvchi chuqur bilim keng mahorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i kerak. Tarbiyachilar yoshlarni tarbiyalashda quyidagi manbalardan foydalanishlari mumkin:

1. Umumiy qadriyatlar.
2. Islom ta'limoti.
3. O'zbek milliy urf odatlari.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib etishtirishda unda har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyalash jarayonida tarbiyachi o'quvchilar mahorati tarbiya jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim.

Yurtimizda tarbiyaviy ishlarini tashkil qilishning asosiy maqsadi milliy istiqlol g'oyasi talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ekan, ayni paytda bu niyat tarbiyachi o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Pedagogik faoliyat yuritish davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 5 – moddasida huddi shu hususda to'xtalgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ...". Demak, o'qituvchi jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi. O'qituvchilar tayyorlash jarayonida, ularning ham pedagogik, ham psixologik tayyorgarligi va bilimli, muomala madaniyati, milliy va milliy psixologik omillarni e'tiborga olish kerak. Yuksak saviyali zo'r mahoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. A.Avloniy aytganlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalom bor ilmli, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi. Bu maqsadda ko'ngliga eng oliy orzularni jamlab, o'qituvchi ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini munosib hurmat qilib, imkonda bor bilimlarini egallamoq kerak. Behbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir".

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda o'qituvchi quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak:

- ruhiyat madaniyati-o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatish;
- mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo'r quvonch va qalbdan tashkil qilish;
- siyosiy madaniyat o'quvchilarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashki qilishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, har bir tarbiyachi pedagogik tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, darsdan so'ng o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlashi kerak. Bunda o'qituvchilar, ota – onalar bilan yaqin munosabatda bo'lishlari kerak. O'qituvchi yakka suhbatlarni quyidagi sharoitda olib boradi. Shuningdek, o'qituvchi o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor berishi kerak. Toza, ozoda, ixcham kiyinishi kerak. Bundan tashqari oliy ma'lumotli, chuqur bilim egasi, o'zining fanini puxta biladigan yurt ravnaqi uchun jonini fido qilishga tayyor, o'quvchilardan bilimini, malakasini ayamaydigan, o'quvchilar bilan aziz do'st, sirdosh, maktabning fidokor xodimi bo'lmog'i kerak.

- o'quvchining xarakter xususiyati, oiladagi o'rni, mavqei, ruhiy holatini o'rganishda;
- odob va axloqqa doir suhbat. Ota - ona shu borada qanday tadbirlarni amalga oshirishda sharqona urf - odat, rasm - rusumlar, yangi chiqqan adabiyotlar;
- tarbiyasi murakkablashgan o'quvchlarning ota - onalarini malahat berish o'qituvchini yakka - yakka suhbatiga puxta, asosli va mantiqan boy bo'lsa, ota - onani unga ishonishini oshiradi. Natijada erkin dil so'zlari, maslahat o'zaro yordam kabi bir hamkorlik holati vujudga keladi.

Demak, pedagog o'z faoliyati davomida ta'lim bilan birgalikda tarbiyani ham olib borish kerak. Agar yetarli kasbiy mahoratga ega pedagog bo'lsa, bu unga dars berish jarayonida hech qanaqangi qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun pedagog doim o'z ustida ishlaydigan, kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi kerak. Chunki u kelajak bunyodkorlari bo'lmish-yoshlarni tarbiyalaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" (O'RQ-683-son 23.09.2020)
2. Юлдашева, Х., & Нарметова, Ю. К. (2022). РОЛЬ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ СРЕДИ ДЕТЕЙ ИНВАЛИДОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 114-117.
3. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.
4. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.](#) International scientific-online conference FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.
5. <https://fayllar.org/9--mavzu-oqituvchining-tarbiyachi-sifatidagi-mahorati-reja.html>
6. <https://fayllar.org/oqituvchining-tarbiyachilik-mahorati.html>

UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM JARAYONIDA SHAXSGA QO'YILADIGAN O'QUV TALABLARI. SHAXS FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Abdurahmonov Shahzod Ilhamovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Tibbiy Pedagogika" fakulteti 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola shaxsning uzluksiz ta'lim jarayonidagi majburiyatlarini yoritib berishga, shaxs faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga bag'ishlanadi.*

Tayanch tushunchalar: *Davlat Ta'lim Standarti (DTS), Ta'lim to'g'risidagi qonun, bakalavriat, magistratura.*

Аннотация: *Данная статья посвящена уточнению обязанностей человека в процессе непрерывного образования, изучению факторов, влияющих на деятельность человека.*

Ключевые слова: *Государственный Образовательный Стандарт (ГОС), Закон об образовании, бакалавриат, магистратура*

Annotation. *This article is devoted to clarifying the responsibilities of a person in the process of continuous education, the study of factors influencing human activity.*

Key words: *State Educational Standard (SES), Law on Education, bachelor's, master's degree.*

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-sonli bilan tasdiqlandi. Mazkur qonun kuchga kirgach, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi 463-I-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 11-12, 295-modda), O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 9, 225-modda) va boshqa bir qator qonun osti hujjatlari o'z kuchini yo'qotdi.

Yangi qonun tahriiga muvofiq ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Mazkur qonunga muvofiq ta'limning quyidagi turlari farqlanadi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI - umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich (1 — 4-sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (1 — 9-sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o'рта ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'рта ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi. Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

“Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

Bakalavr va magistr larni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga “bakalavr” akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga “magistr” akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar (“Double degree”) asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

1. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

2. Magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 6 – bobida Ta'lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan:

Ta'lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

bepul asosda umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olish;

yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o'rta ta'lim muassasasiga qabul qilinish;

ta'lim olish shakllarini erkin tanlash;

davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq sifatli ta'lim olish;

ta'lim olish uchun o'zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;

davlat ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta'lim va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o'zi oladigan ta'limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;

pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalash;

ta'lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar olish;

akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va o'qishini boshqa ta'lim tashkilotlariga, bir ta'lim shaklidan, kasbdan, ta'lim yo'nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko'chirish;

ta'lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

ta'lim olish jarayonida ta'lim tashkilotining o'quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;

ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish.

Ta'lim oluvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarni ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari:

Ta'lim oluvchilar:

1. o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi;

2.ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'rvonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi;

3.ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

4.axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;

5.ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

6.ta'lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart.

Ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo'yiladigan talablar:

1.Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2.Maktabdan tashqari ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash turlari bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablarni mustaqil belgilashga haqli.

3.Ta'lim oluvchilarning ayrim toifalari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kiyim-bosh bilan ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joiz-ki, har bir ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim jarayonida mutahassisligiga aloqador bo'lgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun o'zining ichki nizomiga shaxsga bo'lgan qo'shimcha talablar (ustavlar) kiritishi mumkin, chunki talablarga javob bera oladigan uzluksiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

6. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.

7. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.

8. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR](#). International scientific-online conference FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.

9. <https://lex.uz/acts/-1205976#-1206357>

10. <https://lex.uz/docs/-5013007>

11. <https://lex.uz/docs/-361387?ONDATE=16.08.2001%2000#-361877>

12. [http://e-library.namdu.uz/uzluksiz talim jarayonida pedagog faoliyatining orni](http://e-library.namdu.uz/uzluksiz_talim_jarayonida_pedagog_faoliyatining_orni)

TIBBIYOTDA KASBIY PEDAGOGIK BILIMLARINING O'RNI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Mirkhaydarova Surayyo

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tibbiyotdagi pedagogik muammolarga zamonaviy qarashlar bilan yechim topish, tibbiyot ta'lim muassasalarida pedagogik intizomni va bilimlarning o'rni, shifokor faoliyatining pedagogik jihatlari, bo'lajak tibbiyot o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy kamoloti haqida fikr yuritiladi.*

Tayanch *:tushunchalar: pedagog, shifokor, tibbiyot talabasi, komil inson, ilm saviyasi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются решение педагогических проблем в медицине с учетом современных взглядов, роль педагогической дисциплины и знаний в медицинских учебных заведениях, педагогические аспекты деятельности врача, профессионального и личностного развития будущего педагога-медика.*

Ключевые слова: *педагог, врач, студент-медик, совершенный человек, уровень знаний.*

Annotation: *This article discusses the solution of pedagogical problems in medicine, taking into account modern views, the role of pedagogical discipline and knowledge in medical schools, pedagogical aspects of the doctor's activity, professional and personal development of the future medical teacher.*

Key words: *pedagogue, doctor, medical student, perfect person, level of knowledge.*

Hozirgi kunda tibbiyot va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Davlat va nodavlat institutlaridagi va dars jarayonlarning murakkablashuvi, sivilizatiya va innovatsion sharoitdagi o'zgarishlar, bugungi ijtimoiy hayotdagi sezilarli o'zgarishlar bilan bog'liq. Tibbiyot va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

Insonni tarbiyalash jarayonida tibbiyot va pedagogikaning o'zaro bog'liqligi ko'plab jihatlarda namoyon bo'ladi, bu ilmiy nazariyalarda aks etadi. Hatto qadimgi mutafakkirlar ham ta'lim va tarbiya faqat o'qimishli sog'lom va jismoniy faol bo'lgan taqdiridagina samarali bo'lishi mumkinligiga e'tibor berishgan. Tibbiyot va pedagogikaning integratsiyasi yangi bilim sohasi-tibbiy pedagogikaning paydo bo'lishiga olib keldi. Eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- Kasallik tufayli yo'qolgan ehtiyojlar va qiziqishlar;
- Iroda, jasorat, chidamlilik, va boshqalarni rag'batlantirish;
- o'z-o'zini boshqarish usullarini o'rgatish, ularning holatini boshqarish;

- o'z-o'zini boshqarish jarayonlarini faollashtirish;
- kasallik va sog'lik bilan kurashishda talabalarning faolligini oshirish;
- zarur aloqa muhitini o'zgartirish yoki shakllantirish;
- bemorga yordam berish va dentalogiya haqida tushuncha berish;
- reabilitatsiya va boshqalar.

Tarixan madaniyatimizda ham tibbiyot va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlik mavjud ma'lum. Shunday qilib, nazariy tibbiyotning asoschisi bo'lgan Gippokrat – shifokor nafaqat davolaydi, balki bemorni tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, kasbga munosabati bilan tarbiyalanishi lozimligini ta'kidlaydi. O'rta asr madaniyatida universitetlarning paydo bo'lishi bilan pedagogika sxolastikaga aylandi va tibbiy ta'limda sxolastik va dogmatik shifokorni shakllantirishda yetakchi rol o'ynadi. Uyg'onish davrida madaniyatning tabiatshunoslik, mexanika, geografik kashfiyotlar va ixtirolarning paydo bo'lishi, adabiyot va san'atning rivojlanishi yangi, sxolastikadan tozalangan pedagogika va tibbiyotning shakllanishiga va ushbu fanlarning inson mohiyatini tushuntirishga intilishlarida bir xilligini anglashga yordam berdi. Uyg'onish davri tibbiyoti ham, pedagogikasi ham bitta maqsadga ega – inson tabiatini "tuzatish va yaxshilash".

Uyg'onish davri pedagogik uchligi shakllandi: insonga klassik ta'lim berish, jismoniy sog'lom shaxsni shakllantirish va faol fuqaroni tarbiyalash kerak. Tibbiyotning pedagogik ta'sirining klassik namunasi Mishel Montaigne tadqiqotlari bo'lishi mumkin [1, 40-bet]. Hozirgi zamonaviy davrda tibbiyotning ahamiyati ortib bormoqda. Kerativ fikrlaydigan, keng dunyo qarashga ega va faol harakatga qodir bo'lgan komil shaxslar shakllanmoqda.

Doktor-faylasuf va pedagog Jon Lokk o'zining "Ta'lim haqidagi fikrlar" risolasida o'sha davr uchun umumiy bo'lgan bolalarning tibbiy-gigienik va ijtimoiy-axloqiy tarbiyasi birligi g'oyasini ifoda etgan. Shuni ta'kidlash kerak-ki, tibbiyotning pedagogika bilan munosabati Respublikamizda sezilarli va dolzarb bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtda tibbiyotning paternalistik modeli shakllanmoqda, u shifokorning obro'sini nafaqat tana kasalliklarini davolovchi, balki ma'naviy tarbiyachi, m'naviyati, saviyasi va komil insonligi bilan belgilanadi.

XIX asrda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan tibbiyot va pedagogika o'rtasidagi bog'liqlik tibbiy yoki demografik statistikani shakllantirishda o'z ob'ektiv ifodasini topdi.

XX asrning boshlarida Vilgelm Avgust Layning "Pedagogik harakatlar tizimi" asari mashhur bo'ldi. Uning muallifligidagi pedagogic risola sohani yanada biologiklashtirdi, bu tibbiyot va pedagogikaning so'zsiz sinkretizmini tasdiqlashga imkon berdi. XIX asrda tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarining birligini, ya'ni inson haqidagi har tomonlama ilmiy bilimlarni hisobga olgan holda, insonni har tomonlama tarbiyalashni o'rganishga tabiatshunoslik va gumanitar yondashuvlarni birlashtirish asoslari qo'yildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida tibbiyotning faol rivojlanishi insonning pedagogik tadqiqotlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Odamlarning ijtimoiy falokatlarni boshdan kechirishi muqarrar ravishda ularning psixologik holatiga ta'sir qiladi, bu esa insonning

morfofiziologiyasini ham, somatikasini ham o'zgartiradi, kasalliklar, ayniqsa "Sivilizatsiya kasalliklari" deb ataladigan kasalliklar xavfini oshiradi. Hozirgi vaqtda insonparvarlik pedagogika va tibbiyotning asosi sifatida fan va amaliyotning ushbu sohalari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi, sog'liqni saqlash, inson tarbiyasi va ta'limini davlat miqyosidagi uch birlik vazifasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Tibbiyot va pedagogikaning o'zaro bog'liqligi muammosini hisobga olgan holda, ularning birligi shifokor va o'qituvchining kasbiy tafakkurining o'xshashligida ham namoyon bo'lishini ta'kidlash mumkin emas.

Tibbiyot fani amaliyoti bilishga, ham jismoniy, ham ruhiy kasalliklarni davolash va yo'q qilishga qaratilgan. Ilmiy va amaliy pedagogika shaxsning sotsializatsiyasi, shakllanishi va shakllanishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni bilish va yo'q qilishga qaratilgan.

O'qituvchi o'zining kasbiy faoliyati tufayli bolalar bilan bevosita bog'liq va ularning sog'lig'i darajasi va holatini hisobga olishi kerak. Inson ob'ekti bo'lgan tibbiyot ham, pedagogika ham axloqiy asoslarda bir xildir. Faoliyatning bir va boshqa shakli uchun "Zarar qilmang" tamoyili xarakterlidir.

Tibbiyot va pedagogika dinamik rivojlanayotgan tizimlar sifatida o'z mazmunida jamiyat va madaniyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni aks ettiradi. Ularning birligining samaradorligi faqat hozirgi paytda boshdan kechirayotgan global antropokultural inqirozni hisobga olgan holda mumkin.

Shunday qilib, madaniyatdagi tibbiyot va pedagogika o'rtasidagi munosabatlarning tabiati tarixning hozirgi davrida insonning mohiyati haqidagi mavjud g'oyalar bilan belgilanadi. Ushbu muammoni o'rganish qadimgi Yunonistonning tibbiy va pedagogik tizimlariga asoslangan juda chuqur tarixga ega. Uyg'onish davrida shakllangan pedagogik uchlik (insonga klassik ta'lim berish, jismoniy sog'lom shaxsni shakllantirish va faol fuqaroni tarbiyalash kerak) keyinchalik Ya.A. Kamenskiy, J. Lokka A. Sikorskiy va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi. Ular pedagogikaning shifokor amaliyotiga, tibbiyot esa pedagogik faoliyatga kirib borishi zarurligini ta'kidladilar, bu esa o'z navbatida inson to'g'risida "Tibbiy pedagogika" kompleks nazariyasini yaratishga imkon beradi. Tibbiyot va pedagogika axloqiy asoslarda, deontologik talablarning umumiyligida birlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

7. Bojenkina S. A. Madaniyat tarixidagi tibbiyot va pedagogikaning aloqasi // Xalqaro amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. – 2016. – № 4-1. - 60-62 betlar;

8. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.

9. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.](#) International scientific-online conference FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.

10. Sharapova D.B. [ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ «СИНДРОМА ДОМОХОЗЯЙКИ»](#) Цифровые технологии на службе педагогики и психологии 2021, 239-241.

11. <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=8799>

KASB HUNAR TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Tangriyeva Charos

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Rajabova Mukarram

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni tarbiyalashning nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganishga, o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy metodlarni o'rganish hamda amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilishga bag'ishlangan.*

Tayanch tushunchalar: *Kasb-hunar ta'limi, metodika, tarbiya, kuzatish metodi, test metodi, aqliy hujum, tarbiya, nazariya, amaliyot.*

Аннотация : *Данная статья посвящена изучению теоретического и практического значения обучения студентов профессиональному образованию, изучению современных методов, направленных на гармонизацию образования и обучения в учебном процессе, и анализу их применения на практике.*

Ключевые слова: *Профессиональное образование, методика, обучение, метод наблюдения, метод тестирования, мозговой штурм, обучение, теория, практика.*

Annotation: *This article is devoted to the study of the theoretical and practical significance of teaching students vocational education, the study of modern methods aimed at harmonizing education and training in the educational process, and the analysis of their application in practice.*

Key words: *Vocational education, methodology, training, observation method, testing method, brainstorming, training, theory, practice.*

«Tarbiya san'ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o'sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish», degan edi K.D.Ushinskiy. Tarbiya – pedagogik nazariya va amaliyotidagi eng o'zgarmas, va eng qadimiy muammodir.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma'lum tomonga yo'naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to'g'rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo'linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul.

Ikkinchi usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. tarbiya beruvchi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchilarning qo'llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo'ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi ham kasb-hunat ta'limida tarbiya berishda muhim manba sanaladi. Shuningdek, muhim arxeologik topilmalar, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyondalarining ijodiy merosi, san'at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda, quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
2. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, ular tomonidan amal qilingan urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari mazmuni xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo'lgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalarning qahramonlari yaxshilikning tantana qilishi uchun yomonlik hamda nurning muqarrar mavjud bolishi uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxtsaodatga chulg'angan o'lkalarini yaratadilar. Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkii etgan.

Tarbiyaning maqsadi – jamiyatning alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablarini qondirishga erishishdan, o'ziga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir. Shaxsning har tomonlama kamolotga yetishi – ma'lum bir hayotiy, tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to'liq va batamom rivojlanishidir.

Pedagogik jarayon – ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan bovitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z – o'zini taraqqiy ettirishi, bolalarni tarbiyalovchi jamoa – bir butun o'quv – tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik hamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan tizim, bolalar muhitida muloqot olib borishdir. Havaskorlik – bolalarning mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradigan ichki faoliyati. Tarbiyaviy muhit – inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlar tizimi. ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning

doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va muvofiq kelishi kabilarni o'z ichiga oladi.

Aqliy tarbiya – bolalarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish, aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirishga aytiladi.

Huquqiy tarbiya – huquqiy madaniyatni, o'quvchilarda qonunga bo'ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirishga aytiladi.

Mehnat tarbiyasi-bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Shu bilan birga, mehnatsevarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatining har xil shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etib, muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodiy yondashuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirishdir.

Iqtisodiy tarbiya – o'quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi oddiy harakatlar qilishi lozim bo'ladigan ishlar ko'nikmasi, malakasi bilan taqsimot va ta'limot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivoji bilan qurollantirish jarayonidir.

Ekologik tarbiya – o'quvchilarni ekologik (atrof-muhit muhofazasi) bilimlari bilan qurollantirishdir, shuningdek, tabiatga nisbatan axloqiy-estetik, oqilona ekologik xatti-harakatlar ko'nikmalarini, ekologik tafakkurini hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Axloqiy tarbiya – o'quvchilarda umuminsoniy axloqiy prinsiplarga sodiq bo'lishdek. jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z xatti-harakatlarini tanlay olish mahoratini, axloqiy tafakkur va kundalik odatdagi axloqiy xatti-harakatlarining mustahkam tizimini shakllantirishga aytiladi.

Jismoniy tarbiya – bolaning hamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshka sistemalarini har tomonlama rivojlantirish, sog'lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari. asoslari hamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish holati hisoblanadi.

Estetik tarbiya – badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik hodisalar» ko'rinishlar, holatlarni his qila olish. qabul qila olish, baholav olish qobiliyatlarini shakllantirish shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, tarbiyalash usullari (usullari) – katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasidagi pedagogik, aqlan o'ylab ko'rilib. Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ta'sirlarining jamiyat tomonidan shart deb qo'yilgan usullari bo'lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag'batlantiruvchi hamda xatti-harakatlarini boshqarish asoslari hisoblanadi.

Ta'lim usullari (uslublari) - bolalarning bilimlarni, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishini, umumiy ma'lumot hamda umumiy ta'limning vositalarini egallashi uchun aqliy kuchlari, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan, pedagog bilan o'quvchining o'quv o'rganish jarayonidagi o'zaro ta'sirlarda maxsus yo'nalishlarni qamrab oladi. Ta'limni

tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayro tasavvur etib bo'lmagani kabi ta'lim jarayonida tarbiya berish o'quvchilarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotini kasb-hunar ta'limiga tadbiq etishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: O'zbekiston-2016.
2. A.Mavlyanov va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi "VORIS-Nashriyot"- T.: 2010. 112-bet.
3. A.Xodjaboev, L.Xusanov "Kasbiy ta'lim metodologiyasi". T.: Fan va texnologiyalar, 2007
4. D.Alimjonova, I.T. Aliev "Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar" Moliya 2015.
5. Abdukudusov O., Rashidov H. Kasb-hunar pedagogikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'MKHTTKMO va UQT, 2008. – 240 b.
6. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). "МУОШАРАТ ОДОБИ" ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
7. Юлдашевна, Х., & Нарметова, Ю. К. (2022). РОЛЬ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ СРЕДИ ДЕТЕЙ ИНВАЛИДОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 114-117.
8. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.](#) International scientific-online conference FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.
9. Sharapova D.B. [ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ «СИНДРОМА ДОМОХОЗЯЙКИ»](#) Цифровые технологии на службе педагогики и психологии 2021, 239-241.

O'QITUVCHINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATI VA PEDAGOGIK QOBILIYATI.

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Tojiboyev Mahmud

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Shamsiyev Navruz

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqola o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyati va pedagogik qobiliyatini o'rganishga bag'ishlangan.*

Tayanch tushunchalar: *Kasbiy pedagogik faoliyat, Kasbiy pedagogik qobiliyat, kasbiy faoliyat yo'nalishi, Ijtimoiy faoliyat.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению профессиональной педагогической деятельности и педагогического мастерства педагогов.*

Ключевые слова: *Профессионально-педагогическая деятельность, Профессионально-педагогическая способность, направление профессиональной деятельности, Социальная активность.*

Annotation. *This article is devoted to the study of professional pedagogical activity and pedagogical skills of teachers.*

Key words: *Professional pedagogical activity, Professional pedagogical ability, direction of professional activity, Social activity.*

Inson faoliyatining muhim turlaridan biri bu o'qituvchining kasbiy faoliyati. Bu yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u insoniyat tomonidan to'plangan tajriba almashinuvini ta'minlaydi, bolalarni insoniyat madaniyati qadriyatlarini bilan tanishtirishga yordam beradi. O'qituvchilik sharafli va talabchanlikka asoslangan faoliyatdir. Uning faoliyati natijalariga mamlakatning kelajagi ko'p jihatdan bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat, inson faoliyatining boshqa turlari singari, kasbiy va kasbiy bo'lmagan deb hisoblanishi mumkin.

Pedagogik faoliyat shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida ham namoyon bo'ladi, u har bir shaxs tomonidan o'ziga nisbatan ixtiyoriy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanadi.

Menejment sohasida pedagogik faoliyatga muhim rol beriladi. Shunday qilib, bo'limlar va tashkilotlar rahbarlari o'zlarining tajribalari va bilimlariga asoslanib, jamoaning shakllanishiga g'amxo'rlik qiladilar, uning a'zolarining o'zini o'zi rivojlantirish jarayonini tashkil qiladilar va shaxsiy va kasbiy o'sishni rag'batlantiradilar.

Ishlab chiqarish sohasida pedagogik faoliyat zamonaviy kompaniyalar tomonidan xodimlarni rivojlantirishning asosiy usuli sifatida ko'rib chiqilgan mentorlik shaklida amalga

oshiriladi. Mentorlik - bu tajribali ishchilarning individual ishchilar yoki ularning guruhlari ustidan repetitorlar tomonidan to'plangan tajriba almashish asosida individual yoki jamoaviy homiyligi. Mentorlik sizga yosh xodimlarni tashkilotga o'qitish, o'qitish va moslashtirish muammolarini hal qilishga imkon beradi, ish madaniyati va korporativ qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyat, umuman olganda, aloqa va muloqotning barcha sohalarini qamrab oladi, chunki bu odamlar o'rtasida o'zaro tushunishni, hamkorlikni o'rnatishga yordam beradi, muammolarni hal qilishda yordam beradi va ustuvor vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Kasbiy faoliyat ma'lum kasb egalari tomonidan amalga oshiriladi. Kasb maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan asosiy mashg'ulot, mehnat faoliyati hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi va tuzilishi.

Pedagogik faoliyatning tuzilishini aniqlash uchun "faoliyat" umumiy tushunchasining mohiyatiga murojaat qilish kerak. "Faoliyat" tushunchasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa bir qator fanlarda keng qo'llaniladi. Psixologiya nuqtai nazaridan, faoliyat insonning shaxs bo'lib qolishi va qolishi uchun yagona samarali usul sifatida qaraladi. Faoliyat sub'ektning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'sirining dinamik tizimi sifatida tushuniladi, uning davomida shaxs ongli ravishda maqsadga muvofiq ravishda harakat qiladi, buning natijasida u o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Pedagogik faoliyat, mohiyatiga ko'ra, o'ziga xos bo'lib, uning tarkibidagi faoliyatning umumiy tuzilishidan ma'lum bir farqni aniqlaydi.

Pedagogik faoliyatning yetakchi mavzusi - o'qituvchi. U hozirgi kunda qaysi asosiy faoliyat turiga (o'qituvchi va tarbiyaviy ish) bog'liq holda o'qituvchi yoki o'qituvchi sifatida harakat qilishi mumkin. Shunga ko'ra, pedagogik faoliyat ob'ekti talaba yoki o'quvchi hisoblanadi.

O'qitish birinchi navbatda talabalarning bilim faoliyatini boshqarishga qaratilgan, qat'iy belgilangan maqsad va unga erishish yo'llari mavjud. Dars davomida o'qituvchilar faoliyatining bu turi ustunlik qiladi. U qat'iy tartibga solingan va belgilangan dasturga muvofiq saqlanadi.

Kasbiy pedagogik faoliyatda uchta asosiy tarkibiy qismni ajratish mumkin:

8. Годовой отчет Центрального банка Республики Узбекистан за 2020 год. Режим доступа: <https://cbu.uz/upload/medialibrary/ee6/Godovoy-otchet.pdf>

EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING HOZIRGI ZAMONDAGI IJTIMOY- IQTISODIY ROLI

Xolmirzayev Sobir

Termiz davlat universiteti magistanti

Annotation: *In this article, the concept of ecotourism and ways to develop and improve its socio-economic importance at the present time are highlighted.*

Keywords: *ecological tourism, ecotourism, tourism industry, sustainability in tourism*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekoturizm tushunchasi va uning hozirgi zamondagi ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari yoritilgan .*

Kalit so'zlar: *ekologik turizm, ekoturizm, turizm industriyasi , turizmda barqarorlik*

Аннотация: *В данной статье освещены понятие экотуризма и пути развития и повышения его социально-экономического значения в настоящее время.*

Ключевые слова: *экологический туризм, экотуризм, индустрия туризма, устойчивость в туризме.*

Zamonaviy turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng yirik yuqori daromadli va dinamik tarmoqlaridan biridir. Buning asosiy sabablari sayohatga doimiy o'sib borayotgan talab va sanoatning nisbatan yuqori rentabellik darajasidir.

Ekoturizm turizm industriyasining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Ekoturizm jamiyati (AQSh) ta'rifiga ko'ra, "ekoturizm - bu tabiatda tabiiy majmualarga zarar yetkazmaydigan, tabiatni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan har qanday turizm va dam olish turidir". Boshqacha qilib aytganda, "ekoturizm - bu barqaror va tabiatga asoslangan turizm va rekreatsiya". Turizmdagi barqarorlik esa turizmning ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy ta'sirining ijobiy umumiy muvozanatini hamda tashrif buyuruvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sirini nazarda tutadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ekoturizmning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u insonning tabiat bilan muloqot qilish istagini yuzaga keltiradi va qondiradi, ekologiya, madaniyat va estetikaga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini oladi, turizm salohiyatini tabiat manfaati va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ekoturizmning rivojlanishi tashrif buyuruvchilar va mahalliy aholining ekologik, ma'rifiy va umumiy madaniy darajasini oshirishga yordam beradi. Ekoturizm va uning rivojlanishi nafaqat o'rganilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog'liq bo'libgina qolmasdan balki shu hududning tabiiy sharoitiga, unda ekoturistik ob'ektlarning mavjudligiga va ularning geografik o'rniga ham bog'liqdir. Chunki tabiiy sharoit xususiyatlari hududning ekoturistik imkoniyatlarini va uning qaysi turlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi.

Respublikamiz o'zining turistik resurslari bo'yicha Markaziy Osiyoda oldingi, dunyoda noyob turistik potentsialga ega bo'lgan 10-15 ta davlat orasida joy egallaydi. Uning

hududida har xil tarixiy davrlarga mansub noyob arxitektura, tarixiy va tabiat yodgorliklari mavjud.

O'zbekistonga turistlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiatidir, uning xilma-xilligidir. Sababi O'zbekiston iqlimi, ob-havosi yil davomida dam olish va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, geografik o'rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo'lgan, sanoat rivojlangan va aholi zich yashaydigan Toshkent viloyatida ekoturlarga talab yuqori.

Misol uchun, viloyatning ekoturistik salohiyati yuqori bo'lib, uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Misol uchun, Bo'stonliq tumani o'zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi. Eng muhimi, hududda turizmning ayniqsa, ekoturizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Shu ma'noda bugun tumanda bo'sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan ob'ektlarni sotish orqali ular negizida turizm va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 80 ga yaqin davlat ob'ektlarini xususiylashtirish rejalashtirilgan. Bu orqali turizm sohasida davlat ishtiroki qisqartiriladi va xususiy tadbirkorlik rivojlanadi. 15 mingtagacha yangi ish o'rni yaratiladi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bugun ekologik inqirozning sayyoraviy tus olishi insoniyatni tashvishga solmoqda. Ekologik muammolarning dunyo miqyosida haddan tashqari og'irlashib ketayotgani zamirida tabiatning o'zini-o'zi tiklash kuchi pasayayotgani, uning resurslari kamaygani, atrof-muhit ifloslanib, zaharlanib borayotgani yotadi. Bu borada aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash o'ta muhimdir. Zero, ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Ekoturizmni rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- jahon turistik xizmat bozorida O'zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potentsiali va resurslarini namoyish qilish

- xududlarning , ayniqsa tabiatning geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirish

- turizmni rivojlantirishda ekoturizmning ahamiyati va ulushini oshirish

- O'zbekistonda joriy etilgan turistik faoliyatda ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va ekoturistik xizmatlar xajmini jadal oshirish

- istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlnmalarni yaratish

Xulosa qilib aytganda, ekoturizmning quyidagi ijobiy iqtisodiy va shu bilan birga ijtimoiy funksiyalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish;

- tabiatdan foydalanishning an'anaviy shakllarini rag'batlantirish;

- ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- infratuzilma va xizmatlar sohasiga hamda tabiatni muhofaza qilishga investitsiyalar hajmini oshirish;
- mahalliy aholi farovonligining o'sishi;
- turizm va ekologiya kasblarini egallashga qaratilgan maxsus ta'limni rivojlantirish;
- hunarmandchilikni rivojlantirish;
- mahalliy o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish;
- mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda "ichkaridan" rivojlanish rejalarini shakllantirish.

**“MAVJUD PRAGMATIK KOMMUNIKATSIYA NAZARIYALARIDA “ALDOV/YOLG’ON”
NUTQIY AKTLARNING NAMOYON BO’LISHI”**

Qodirova Holida Xayriddin qizi

*Buxoro davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti,
Ingliz tilshunosligi kafedrasida o’qituvchisi*

Abstract. *This article analyzes the study of the concept of "lie" from different angles and examines the theoretical opinions about the various manifestations of the concept of deception analyzed in Grisin's pragmatics and J. Austin's theory of speech acts. In addition, the factors and ways of occurrence of the concept of lying are studied in depth in the scientific article*

Key words. *Speech acts, discourse, deception, commissive, directive, pragmatics*

Annotatsiya. *Ushbu maqola “yolg’on” tushunchasining turli tomondan tadqiqini tahlil qiladi va Grisin pragmatikasi va J. Ostinning nutq aktlari nazariyasida tahlil qilingan aldov tushunchasining turli ko’rinishlari haqidagi nazariy fikrlarni o’rganadi. Shuningdek, ilmiy maqolada yolg’on tushunchasining yuzaga kelishi omillari va yo’llari ham chuqur o’rganiladi.*

Kalit so’zlar. *Nutq aktlari, diskurs, yolg’on tushunchasi, komisivlar, pragmatika*

Аннотация. *В данной статье проводится анализ изучения понятия «ложь» с разных сторон и рассматриваются теоретические мнения о различных проявлениях понятия обмана, проанализированные в прагматике Гризина и теории речевых актов Дж. Остина. Кроме того, в научной статье подробно исследуются факторы и пути возникновения понятия лжи.*

Ключевые слова. *Речевые акты, дискурс, обман, комиссив, директива, прагматика*

Yolg’on tushunchasi har bir madaniyatga xos bo’lib, insoniyat xulq-atvorida namoyon bo’ladigan universal xususiyatlardan biridir. Aldov tushunchasi nafaqat ha bir shaxsning, balki har bir jamiyatning ajralmas qismidir. Xoh u reklamalar bo’lsin xoh siyosiy munozara, hayotiy voqealarga asoslangan teleko’rsatuv yoki o’qituvchi va talaba orasidagi oddiy iliq suhbat bo’lmasin, ularning barchasida yolg’on ma’lum bir darajada namoyon bo’ladi. So’nggi yillarda, ijtimoiy tarmoqlarning soxta, yolg’on xabarlar bilan keng miqyosda to’lib toshganligi sababli, ijtimoiy hayotimizning har bir javhasida kundan kunga soxta ma’lumotlar, xabalar ommalashib bormoqda. Garchi yolg’onga asoslangan nutq til orqali namoyon bo’lsada, nazariya jihatdan olimlarning e’tiborini ko’p ham o’ziga tortmadi. Grisin, Ostin va boshqa bir necha olimlar nutq aktlari va ularning pragmatik xususiyatlari bo’yicha chuqur izlanishlar olib borgan bo’lsalarda, ularning barchasi ushbu nutq aktlari bilan yolg’on tushunchasini qamrab olishda yetarli e’tibor qaratishmadi.

Falkenbergning fikriga ko'ra (1982), yolg'onning mukammal nazariyasi faqat lingvistik jihatdangina tadqiq qilinib qolinib qolinmay, balki inson xulq-atvorini o'rganish mazariyasi, psixologiya va ijtimoiy fanlar doirasida ham o'rganilishi lozim. Sababi, yolg'onning asl mohiyatini faqatgina lingvistik yondashuv bilangina to'laqonli aks ettirib bo'lmaydi. Tilshunos olimlar Adler va Falkenberg yolg'on/aldov tushunchasining besh asosiy xususiyatini sanab o'tgan:

- Shaxsiy yolg'onlar
- Ijtimoiy yolg'onlar
- Vaqtinchalik yolg'onlar
- Qasddan aytiladigan yolg'onlar
- Verbal yolg'onlar ((Falkenberg, 1982, p. 14))

Shuningdek, Adlarning fikriga ko'ra, yolg'on nutqiy ifodalarning ko'pgina shakllari xushmuomalalilikka o'xshash kundalik hayotimizdagi muloqotning asosiy qismini tashkil etadi. Buni quyidagi misol orqali ko'rishimiz mumkin: (S-so'zlovchi, T tinglovchi)

S1: Kechirasiz, ikki daqiqa kutib turolasizmi?

S2: ha

S1: Hozir, bir odam bilan tepada uchrashib uch daqiqada qaytib kelaman, uzr

S2: hammasi joyida (Svartvik, 1990)

Tinglovchi (yoki S2) so'zlovchi garchi dastlab ikki daqiqa keyin esa uch daqiqada qaytishini aytganda, unchalik ham e'tibor bermadi. Shuningdek, so'zlovchi haqiqatdan ham tinglovchini bir necha daqiqa yolg'iz qoldirayotganidan afsusdamikin? Har ikkala muloqot ishtirokchilari S1 ning aytgan mulohazasi bilan uning his-tuyg'ulari mutanosib emasligini anlgab turgan bo'lsalarda, tinglovchi so'zlovchining uzrini qabul qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, suhbat davomida insonlar ma'lum darajada yolg'onni qabul qiladilar.

Meybaurning fikricha, aldov faqat og'zaki ko'rinishda ma'lum bo'lib, yolg'onning boshqa shakllari esa noverbal ko'rinishda namoyon bo'ladi (Meybaur, 2014). Faylasuf Kant ushbu nazariyaning eng mashhur misolini quyidagicha keltirib o'tadi: bir kishi yuklarini joylab uni kuzatib turganlarni ishontirmoqchi bo'ldi, garchi ko'chib ketmayotgan bo'lsada. Bu odam endilikda guvohlarni bir og'iz so'zsiz o'z harakatlari bilan aldadi. Bundan ko'rinib turibdiki, yolg'on tushunchaning yuzaga kelishiga nafaqat verbal balki noverbal omillar ham ta'sir qiladi. Shunga o'xshash boshqa bir misolni ko'rib chiqamiz:

So'zlovchi koridor bo'ylab kelayotgan ayolning juda ham sekin yurib kelishini badiiy asar qahramoni Arabellaga o'xshatayapti:

S1. Bechora, Arabella ilondan ham sekin sudralib keldi. Arabellaning sekin qadam bosishi sababli karidordan o'tishimizga besh soat ketdi (Svartvik, 1990).

Aslida esa, kichik bir karidordan o'tishda besh soat sarflanmaydi. So'zlovchi bu yerda anglyadiki, tinglovchi yo'lakdan o'tishga besh soat ketmasligini juda yaxshi anglyadi, vas hu tariqa u hech qanday yolg'on strategiyasini qo'llamayapti.

Yolg'onning qanday yuzaga kelishini anglash uchun, ikkita muhim bo'lgan termini bilish lozim: implikatura va

Implikatura tushunchasi brinchi marta Gris tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, gapning taxminiy ma'nosiga ishora qiladi (Gris 1975)/

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH ORQALI TEVARAK-ATROFDAGI BORLIQNI TASAVVUR QILISHGA YORDAM BERISH USULLARI

Eshpo'latova D.M

NavDPI Jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi

D.M.Sidiqova

Navoiy shahar karmana tumani 1-maktab o'qituvchisi

Qiziltepa tumani 21-maktab o'qituvchisi Rahmonova H

Annotatsiya: *Maktabgacha yoshdagi bolalarga rasm chizishga o'rgatish 2 yoshdan boshlanadi. Bu davr bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish davri deyiladi. Bu davrda bolalar qalamni to'g'ri ushlashni, uni qog'oz yuzasiga chizishni asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar lekin bu jarayonni bir o'zlari amalga oshirolmaydi shuning uchun tarbiyachi bolalarga qalamni qanday ushlash kerakligini urgatadi. Bundan tashqari bolalar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida asosan amaliy ish bajaradilar.*

Kalit so'zlar: *tasviriy faoliyat, aqliy rivojlanish, ijodiy qobiliyat, loy qurish-yasash, applikatsiya.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlaridan tadbir etish va ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim tashkilotlarining moddiy texnika bazasini va maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Shunga ko'ra kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh tarbiyalanuvchilarga bilim olish ehtiyojini qondirish hamda uqishga bo'lgan qiziqish moyilliklarini shakillantirish, o'z fikrlarini qurmasdan aniq va erkin bayon qilishga urgatishni ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishda tarbiyachining o'рни beqiyosdir. Shuning uchun tarbiyachi kerakli bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim, albata buning uchun esa o'z ustida tinmay mehnat qilmog'i kerak. Tasviriy faoliyat bu-go'zallikdan nafosatdan dars beradigan estetik tarbiyaning maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasidagi muhim bo'lgan ilk bosqichlardan biridir. Bundan tashqari tasviriy faoliyat-asliga qarab va tasavvur bo'yicha buyumlar va o'yinchoqlarning rasmini chizishga hamda o'lchamini fazoviy joylanishi hamda ularda manzaralar go'zalligini tabiat anglashga o'rgatish zarur. Ayniqsa bu ishlarni tashkil etishda tarbiyachining o'рни beqiyosdir. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarni tabiatga bo'lgan muhabbatini yanada rivojlantirish bo'yicha turli tuman o'yinlar yordamida urgatiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktabda muvaffaqiyatli o'qib

ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar ha*m hal qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida fikrlarini analiz-sintez va takrorlash ko'nikmalari shakllana boradi. Shuningdek bu mashg'ulot davomida bolalar jamoada ishlash, o'z xati-harakatlarini boshqarishga harakat qiladi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida maktabgacha ta'lim yoshidagi bollalarni badiiy didini tarbiyalash hamda amaliy badiiy faoliyat va malakarini rivojlantirish va fikrlashini yoki fantaziyasini va tasavvur qilish qobiliyatini hamda qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish kerak. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish shuningdik, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy, vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratishni o'rgatadi. Maktabga bolalami tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalami bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Bundan tashqari tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z harakati va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa bolalarda malakani egallash hamda bolalarda qo'lni yengil, va erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari tayyorlov guruhlarida birmuncha murakkablashadi sababi tayyorlov guruhi bolalari naturaga qarab rasm chizish yoki rasmlarni tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar o'z navbatida maktab talabiga yaqin turadi. Naturaga qarab rasm chizishda ishning ketma ketligi ko'rsatiladi va tayyorlov guruhi hamda kata guruhlarda o'rganishning boshlang'ich bosqichi amalga oshiriladi. Tarbiyalanuvchilar naturani qog'ozga tushirishga, ketma-ketlikda bajarishga, kamchiliklarini to'g'rilshga harakat qiladilar. Shuningdek tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'ozdan tashqari mel va bo'yoqlar) bilan ulaming o'ziga xos xususiyatlari hamda ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, Bu esa bolalarni aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari rivojlanishga imkon beradi va bu o'z navbatida bolalarni oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatining ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar hamda ulaming o'ziga xos sifatleri va shakli hamda rangi yoki katta-kichikligi bilan tanishadilar, ulami farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalami sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalami axloqiy tarbiyalaydi. Chunki,

bolalar o'z ishlarida burning hayotimizda hamda jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar va ulardan mamnun boladilar va hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari boshlagan ishini oxiriga yetkazish va oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish hamda qiyinchiliklarni yengish va do'stlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam berish shu bilan birgalikda kelishib ishlash kabi sifatlari tarbiyalanadi. Bolalar ishni baholash jarayonida va bolalarni o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish to'g'ri baholash hamda o'z ishidan va do'stlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratishni o'rgatadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm va loy hamda qurish materiallari bo'yicha bilim hamda malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi va pedagogni tinglashga va uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishdagi shuningdek, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib bo'rish shuningdek, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin: tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi. O'z navbatida boshqa ta'lim-tarbiyaviy ishlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar ular rasm va loy hamda applikasiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova F.R, Qodirova R.M. Bolalar metodik ishlar. Darslik.2012.
2. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. T 2013.
3. Qodirova F. R. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. T. 2013.

INTERNET MANBAALARI:

1. <https://gendocs.ru>
2. <https://n.ziyouz.com>
3. <http://www.genderi.org>

HALIMA XUDOYBERDIYEVA POETIKASIDA SHE'RIY SAN'ATLARNING QO'LLANISHI

Mingboyeva Zulhayo Ulug'bek qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarida qo'llangan she'riy san'atlar va ularning izohiga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, shoiraning badiiy niyati, she'rlaridagi g'oyalarini aks ettirishda badiiy san'atlarning ahamiyati tahliliy mushohada qilingan. Badiiy san'atlarning har bir guruhiga alohida e'tibor qaratilgan va poetik mahorati yuzasidan fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *she'r, badiiyat, adabiyot, badiiy san'atlar, ma'naviy san'atlar, lafziy san'atlar, harfiy san'atlar, tahlil.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОЭТИЧЕСКОГО ИСКУССТВА В ПОЭТИКЕ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

Аннотация: *Данная статья содержит комментарии к поэтическим искусствам, использованным в стихах народного поэта Узбекистана Халимы Худойбердиевой, и их интерпретацию. Также анализируется значение художественных искусств в отражении художественного замысла и идей поэтессы в ее стихах. Особое внимание уделялось каждой группе художественных искусств и задумывалось об их поэтическом мастерстве.*

Ключевые слова: *поэзия, искусство, литература, изобразительное искусство, духовное искусство, словесное искусство, литературное искусство, анализ.*

THE USE OF POETIC ARTS IN HALIMA KHUDOYBERDIYEVA'S POETICS

Annotation: *This article contains comments on the poetic arts used in the poems of the People's Poet of Uzbekistan, Halima Khudoyberdiyeva, and their interpretation. Also, the importance of artistic arts in reflecting the poetess's artistic intention and ideas in her poems is analyzed. Special attention was paid to each group of artistic arts and thought was given regarding their poetic skills.*

Key words: *poetry, art, literature, fine arts, spiritual arts, verbal arts, literary arts, analysis.*

Halima Xudoyberdiyeva – hassos shoira. She'rlaridagi o'zgachalik xususiyati, yuksak badiiyat va xalqchillik uning poetik mahoratidan dalolat beradi. Ijodining ma'nan yuksakligi, obrazlar talqinining izchilligi, shoir individualligi, mavzu va mazmun talqini, adabiy-estetik

qarashlarida she'riy san'atlarning o'zni katta. Umuman olganda, badiiy san'atlar she'ning hayotiyliigi, g'oya mazmuni, lirik va epik timsollarning ifodalanishi, shoirona talqin, erkin bayon etish xususiyatlarini ochib berish uchun xizmat qiladi. Badiiy san'atlarning ma'naviy san'atlar turiga tashbeh, istiora, tafrit, mubolag'a, tashxis, tazod, tanosub, irsoli masal, laf, nashr, ruju', tazmin, iyhom, sifatlash, tajnis, sinekdoxa, husni ta'lil, tajohuli orifona kabilar, lafziy san'atlar turiga qofiya, ichki qofiya, boshqofiya, zulqofiyatayn, radif, hojib, takrir, mukarrar, tardi aks, ta'did, ishtiyoq, qaytariq, tasbe, tasdir, iltifot, tarse', nido, saj' kabilar, harfiy san'atlar guruhiga kitobat, istixroj, muammo, muvashshah, tavzi'qalb kabilar kiradi. Ularni o'rganuvchi fan "Ilmi sanoye'", yoki "Ilmi bade'" deyiladi. "Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodalilik va xushohanglik vositalari badiiy san'atlar deyiladi" [1, 3]

Shoira poetikasida ham she'riy san'atlardan keng foydalanilganligi va she'ning badiiyatini oshirganligini ko'rish mumkin. Bu holatga uning "Minnatdorlik", "Sado", "Bir kun yashay", "Tosh yaxshi yashar", "Shunchaki", "O'q haqida olti she'r", "Dorilomon kunlar keldi..." kabi she'rlarida guvoh bo'lish mumkin.

"Davr, rahmat!

Har lahzada yo'qlading meni,

O'tday kuydim. Tindirmading, o'qlading meni.

Bashoratlar qilganimda yaxshi kunlardan,

Haqoratlar devoriga mixlading meni" [2, 20]

Ushbu parchada ilgari surilayotgan g'oya, fikr aniq. Shoiraning ichki kechinmalarida hayot aksi mujassam, taqdirning har doim turfa sinovlar bilan sinashiga oid poetik mushohadalar o'quvchi ongida gavdanlanadi. Bu parchada ikki o'rinda badiiy san'atning ma'naviy san'atlar guruhiga mansub turlarini ko'rish mumkin. "Tashbeh – o'xshatish san'ati. Bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatish tashbeh deyiladi" [1, 4]. She'rda qo'llanayotgan o'tday kuydim jumlasidagi o'tday so'zidagi –day o'xshatish qo'shimchasi orqali tashbeh shakllantirilgan bo'lib, fikrini tushunarli va ta'sirchanroq, hayotiy qilib ifodalashiga zamin yaratgan. Parchadagi ikkinchi badiiy san'at istiora hisoblanadi. Istiora san'ati ham xuddi tashbehga o'shaydi, ammo tashbeh san'ati –day, –dek, –simon, kabi, singari, so'z va qo'shimchalaridan foydalangan holda ishlatilsa, istiora xuddi shu so'zlarni keltirilgan qo'shimcha hamda so'zlarsiz ifodalaydi. Masalan, guldek yuzing – tashbeh, gul yuzing-istiora. She'rda keltirilayotgan haqoratlar devori iborasi ham istiora san'atiga kiradi va u shoir fikrini o'quvchiga obrazlilik bilan yetkazilishni ta'minlaydi.

"Men oh tortsam ohimga,

Kimlar sado qaytarar?

Tarqalib ketgan toshlar,

Qumlar sado qaytarar." [3, 185]

Ushbu parchada o'rinli foydalanilgan tashxis san'ati badiiy asarda predmetni jonlantirish uchun xizmat qiladi. Ya'ni, "Badiiy asarda tabiatdagi narsa-hodisalarni jonlantirish, shuningdek, hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish tashxis deb ataladi. Tashxis – shaxslantirmoq, odamga aylantirmoqdir" [1, 7].

Shuningdek, Halima Xudoyberdiyeva ijodidan olingan parchada ham toshlar va qumlarni sado qaytarmoq fe'li yordamida shaxslantirgan. Bu she'rning obrazlilikini oshirib, fikrni o'zidek emas, balki kengroq, boshqa predmetlarga tayangan holda ifodalaydi.

“Yo'q, men sog' qalb bilan kuylaganim yo'q,
Dardi yo'q ko'ngilning kuylashi qiyin.
Ko'ksimga sanchildi bir kun qizil o'q,
Men alvon qo'shiqlar kuyladim keyin” [4, 110]

“Predmet, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi xislatlarini aniqlash, izohlash, tavsiflash usuli sifatlash deyiladi” [1, 13] Parchada keltirilgan sog' qalb, dardi yo'q ko'ngil, qizil o'q, alvon qo'shiqlar kabi jumllaridagi sog', dardi yo'q, qizil, alvon kabi so'zlarni qalb, ko'ngil, o'q, qo'shiqlar so'zlarining sifatini belgilalab, she'rda sifatlash badiiy san'atini hosil qilgan.

“Shunchaki yozmoqqa, ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim” [4, 15]

Misra oxiridagi so'zlarning ohang jihatdan bir-biriga o'xshashligiga qofiya deyiladi. Ushbu she'r a-b-a-b ko'rinishida qofiyalangan. Ushbu to'rtlikda birinchi misra so'nggidagi to'lmaydi va uchunchi misra oxiridagi bo'lmaydi so'zlari, ikkinchi misra oxiridagi qo'lim hamda to'rtinchi misra so'nggidagi o'lim so'zlari o'zaro qofiyadoshlikni hosil qilgan.

“So'lg'in-so'lg'in lablaringdan ucharkan shu so'z,
Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.
Dorilomon kunlarga qayt, onam, yumib ko'z,
O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat” [5, 20]

So'zlarning juft takroriga mukarrar deyiladi va ular orasiga chiziqcha qo'yiladi. Keltirilgan to'rtlikda ham tuzilishi jihatdan takror so'z hisoblangan so'lg'in-so'lg'in juftso'zi she'rda mukarrar san'atini hosil qilgan. Badiiy san'atlarning lafziy san'atlar guruhiga mansub mukarrar san'ati so'zning takrorlanishi yordamida hosil bo'lib, qo'shimcha ma'no yuklab, qo'llananilgan so'z mazmunini oshirib kelgan.

“Yo bor Xudo, jafo bersang
Navoiyning jafosin ber.
Vafo bersang Qurbonjonning
Turkiy qavmga vafosin ber” [3, 414]

She'rda undalmadan foydalanilsa, ya'ni biror kishi, narsa, hayvonlar, tabiat hodisalariga xitob qilinsa, demakki baytda nido san'ati mavjud. Sababi, aynan murojaat etilayotgan predmet yoki shaxs she'riy san'atlarning lafziy san'at turiga mansub nido san'atini hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan parchada ham Xudoga qarata so'z borgan. Bu orqali nido san'atidan foydalanilgan.

“Sarg'ayamiz sabrsizlikdan,
Yomg'irsizlik, abrsizlikdan...” [3, 414]

Badiiy san'atlarning harfiy san'atlar guruhiga kiruvchi tavzi' deb misrada biror harf yoki tovushning ko'proq takroriga aytiladi. Yuqoridagi baytning birinchi misrasida qo'llangan [s] undosh tovush (harf)ji tavzi' san'atini hosil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, asarlaridagi badiiy san'atlarning o'rinli ishlatilishi, fikrlarini izchillik bilan o'quvchiga yetkazib bera olishi, tuyg'ularidagi xalqchilik ifodasi e'tiborga loyiq jihatlaridan biridir. Shoir kechinmalarini goh ma'naviy, goh harfiy, lafziy san'atlar vositasida ifodalar ekan, badiiy g'oya ochib berilishida bu jihatga alohida e'tibor qaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asallayev A, Rahmonov V, Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. – Toshkent:, Tafakkur nashriyoti. 2015. B – 3, 4, 7, 13.
2. Xudoyberdiyeva H. Osoyishta sham. – Toshkent:, O'zbekiston nashriyoti. 2017. B – 20.
3. Xudoyberdiyeva H. Yo'ldadirman. – Toshkent:, Sharq nashriyoti. 2006. B – 185.
4. Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar. – Toshkent:, O'zbekiston nashriyoti. 2012. B – 15, 110.
5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. –Toshkent:, Sharq nashriyoti. 2020. B -20.

USING NEW INTERACTIVE METHODS IN TEACHING PRIMARY SCHOOL CHILDREN.

Matkurbonova Gulnoza Odilbekovna

Yangarik district Primary school teacher at school No. 23

Annotation: *One of the main requirements of today is the effective use of pedagogical technologies in improving education, paving the way for modern knowledge.*

Keyword: *native, student, oral, written, educational.*

Interactive learning will help create conditions under which the child will feel successful. Interactive learning implies the process of interaction between a teacher and a student, students among themselves, in which it is important to be able to conduct a dialogue, to establish understanding between those who study and between those who teach. The task of the teacher is to direct the activities of students to achieve the goals of the lesson. And the goal will be achieved if the student takes part in its formulation, because such joint work will give the student an understanding of the objectives of the lesson, as well as a correct perception of the methods used by the teacher to achieve the goal of the lesson.

Role play technology. In modern pedagogical practice, the role-playing method is an effective diagnostic, prognostic and corrective means of socio-psychological training. The role-playing method is interactive and is usually used in programs that study the field of human relations (interaction of business partners, interpersonal communication, mutual understanding), which helps participants become more receptive to the feelings of others.

The main difference between role-playing games, for example, from “acting out” situations in roles, first of all, is that the one who plays the role of a participant in the analyzed situation, along with its description, is given an instruction that prescribes how to play your role, what strategy to follow, what character depict how to assess the current situation, what interests to defend and what goals to achieve. Such a game is called a story or scenario game. The story game is aimed at living and analyzing typical interaction problems. With its help, students learn new, unusual for themselves, but effective models of behavior.

The instruction for a role-play should, on the one hand, describe in detail all aspects of the situation, on the other hand, set rigid boundaries that prevent participants from playing their roles in accordance with their own ideas about how to act. The task that the members of the group participating in the role-playing game strive to solve is the creation of a model of behavior that is typical in everyday life for real people. It should be emphasized that it is the behavior, and not just the manifestation of the talents of the speakers, that will be the basis of the subsequent discussion. The group must observe the content of each scene played out.

FSMU Technology. The main characteristic of the Fsmu technology: this technology allows students in groups 1-3 to learn about their ideas and problems when solving controversial issues, discussing or at the end of the lesson. Can be used when studying a section of the plan. This technology teaches students to defend their ideas, think freely and communicate their ideas, openly discuss, analyze and evaluate the level of knowledge students have gained in the learning process, evaluate students and have a culture of discussion. Using technology, it helps students express their ideas clearly and concisely on plain paper, which is distributed to support evidence or refute ideas.

The teacher distributes four pages of FSMU technology to each student and asks them to complete it individually.

F - Make your point;

C - substantiate your statement;

M - Provide justification for your reasons;

U - summarize your point of view.

References:

1. Law of the Republic of Uzbekistan on education.
2. "National training program" of the Republic of Uzbekistan // The perfect generation is the basis for the development of Uzbekistan. T. : Vostok, 1998. - p. 57.
- 3.A. Gulomov, M. Kadyrov "Methods of teaching the native language", Tashkent., 2001.
4. Munavvarov A.K. "Pedagogy" Tashkent 1996
5. Passov E. Ya. Communicative method of teaching foreign language government. Moscow. "Enlightenment", 1991.
6. Mavlonova O. et al. "Pedagogy" Tashkent 2001.

TA`LIM-TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO`LLASH. TA`LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.

Y.T.Qiyomov

Xalqaro Innovatsion Universiteti

Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrası mudiri

Daminov Boyqobil Ollonazar o`g`li

talaba

Xonnazarov Ulug`bek Baxtiyor o`g`li

talaba

Annotatsiya: *maqolada darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari, talaba yoshlarni yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo`yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o`z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo`lishi, O`zi mustaqil mutoala qilishi kabi jihatlar haqida.*

Kalit so`zlar: *dars, interfaol, metod, guruh, ta`lim, o`quvchi, talaba, fikr, mulohaza, faoliyat, usul, tizim*

Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari, O`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib keladi. O`z vaqtida o`quvchi -o`qituvchi -o`quvchilar orasida ta`limiy aloqalar o`rnatiladi. O`qitish usullari ta`lim jarayonida turli xil ko`rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O`quv jarayoni o`qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo`ladi. O`zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o`quv materiali yaxshi esda qoladi. O`quv jarayonida o`quvchining o`zi o`ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O`quvchi uchun dars qiziqarli o`qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O`qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo`ladi. Har bir o`quvchining o`zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o`tilgan darslarda o`quvchi faqat ta`lim mazmunini o`zlashtiribgina qolmay, balki o`zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Xulosa shuki, bunday sharoitda o`qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo`yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o`z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo`lishi kerak.

Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o`quvchi shaxsini rivojlantirish o`zi – o`ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya`ni o`quvchining:

-O`zi mustaqil mutoala qilishi, o`qishi asosida bilim olishi;

-O`zini -o`zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;

-O`z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;

-O`quv mehnatiga mas`uliyat xissi bilan qarashga;

-O`z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g`animat bilishga;


-O`quv mehnatiga o`zida hoxish, istak uyg`ota olishga;

-Har qanday vaziyatda faollik ko`rsata olishga;

Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining o'zini – o'zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida echimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

Shu kunlarda umumta'lim maktablarimizda olib borilayotgan an'anaviy darslarni yana bir marotaba tahlil etish joizdir. An'anaviy usul 17 asrda Chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan. U o'qitishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni sinf – dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan. An'anaviy maktab sinf dars sistemasi quyidagicha o'ziga xos an'analarga ega: taxminan bir xil yoki yaqin yoshli, tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfni tashkil etadi. Sinf yagona reja, dastur, darslik, dars jadvali asosida ishlaydi.

Interfaol metodlar- shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", ya'ni "Inter" – o'zaro, "akt" – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi. Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlik, hamjihatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lim mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir. Quyida interfaol ta'lim tizimini sxematik tarzda keltiramiz:



Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi.

Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham

o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi.

O'quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy xissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiyligni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi. Dars jarayonida bir – birlarini qo'llab – quvvatlash, o'zaro samimiy, do'stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Interfaol darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjat bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashlardan foydalanish mumkin. Interfaol usullar nimalarni o'z ichiga oladi? Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi o'qituvchilari turli shakl – formalar taklif etmoqda va amaliyotda qo'llamoqda. Ulardan:

-Juftlikda ishlash;

-Karusel;

-Kichik guruhlarda ishlash;

-Akvarium;

-Tugallanmagan gaplar;

-Aqliy hujum;

-Daraxt echimi

-Rolli o'yinlar;

-Press

metod;

Yuqoridagi turli shakl – formalardan foydalanishda, o'quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, ularni ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan hollarda qo'llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin. quvvatlashlarini ta'kidlab o'tganlar.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlar tomonidan bayon etilgan javoblardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish bugungi kun talablari darajasida emas ekan. Mazkur holatni bartaraf etish uchun maxsus dastur asosida muayyan pedagogik faoliyatni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish lozim. Qayd etilgan fikr-mulohazalarga tayanib quyidagi xulosaga keldik.

Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi ta'lim-tarbiyaning globallasuvi sharoitida boshlang'ich ta'lim o'quvchilari tomonidan qisqa vaqt oralig'ida puxta bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Mazkur nazariya g'oyalarini uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida faoliyat olib borayotgan ta'lim-tarbiya muassasalarining o'quv jarayoniga tadbir etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ta`lim-tarbiya muassasalarining o`quv faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish borasida dastlabki tajribalar to`plangan bo`lsa-da, ular davr talablariga etarli darajada javob bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2003.-174b.
2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida.- T.:O`zbekiston, 1995.-269 b.
3. Jumaniyozova M. Innovasion faoliyat tushunchasi va malaka oshirish jarayonida o`qituvchilarni innovasion faoliyatga tayyorlash. Xalq ta`limi, 2004, 6 son. -137-140 b.
4. Jo`raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta`limga asoslangan o`quv –metodik qo`llanma.-T.: Fan, 2005.-66 b.
5. internet saytlari

UY-JOY KOMMUNAL HIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA ULARNING ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISHINI BELGILASH TO'G'RISIDAGI FARMONLAR VA ULAR HAQIDAGI XULOSALAR

Y.T.Qiyomov

Xalqaro Innovatsion Universiteti

Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasini mudiri

Abdurashidov Fazliddin Baxtiyor o'g'li

talaba

Ziyodullayev Diyorbek Sobir o'g'li

talaba

Annotatsiya: *maqolada ko'pqavatli uy-joy kommunal xizmatlari turlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish va bular asosida kommunal xizmati tizimining asosiy ko'rsatkichlari prognoz qilinadi va tizimning rivojlanish istiqbollari belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *kommunal xizmati , energiya ta'minoti , suv ta'minoti, shovqin, elektr maydoni ta'siri, elektromagnit maydoni, ekologiya, model, monitoring, prognoz , samaradorlik.*

Farmonda, ko'rsarib o'tilgan muommolar , xato va kamchiliklar energiya resurslari (elektr, gaz, issiqlik va boshqalar) uchun to'lovlarni undirish hamda ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rishni taqozo etmoqda.

Energiya resurslarini yetkazib berish hamda istr'mol qilish sohasidagi vazifalarni amalga oshirishda ijro uchun quyidagi vakolatlar beriladi:

-energiya resurslari yetkazib berishni va iste'molini hisobga olishning to'lqligi hamda haqqoniyliigi , ular uchun hisob-kitoblarning o'z vqtida amalga oshirishi yuzasidan tekshirishlar o'tkazish;

-yetkazib berilgan energiya resurslari uchun qarzdorlikni iste'molchilar –yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bank hisobraqamlaridan so'zsiz undirish;

-yetkazib berilgan energiya resurslari uchun eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan ko'p bo'lmagan miqdordagi qarzdorlikni iste'molchilarning ish haqidan ushlab qolish to'g'risida ish beruvchilarga talabnomalar yuborish;

-energiya resurslarini yetkazib berish va foydalanish sohasidagi foydalanish sohasidagi qoidalarni buzganlik uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda moliyaviy jarima qo'llash;

-hisob-kitoblar o'z vqtida amalga oshirilmagan hollarda , iste'molchilarni elektr va gaz tarmoqlaridan uzish;

-energiya resurslaridan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish;

Farmonda belgilandan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi –elektr energitika va gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilishga iste'molchilarni energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlashga, mamlakat iqtisodiyotini ,shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishga, qarorlar ijrosining samaradorligini, aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga hamda jab=miyatda qonuniylikni mustahkamlshga xizmat qiladi.

Metrologik vositalardan , masalan gaz schyotchiklaridan foydalanganda ma'lum davrda uni standartlashtirish va sertifikatlash tashkiloti nazoratidan qayta o'tkazish lozim(normativ bo'yicha). Buni hozirgi uy egasining o'zi amalga oshirdi , bu ancha ko'p vaqt, tashvish va qo'shimcha xarakat talab qiladigan xizmatdir.Buni soddalashtirish maqsadida "Kommunak xizmatlar "tizimiga maxsus xizmat brigadasini tashkil qilish lozim , ularning o'zlari o'z joyida barcha hisoblagichlarga xizmatko'rsatishlari, lozim bo'lsa, standart sertifikatlashdan o'tkazib , hujjatlarni tayyorlab uy egasiga topshirishlari kerak.

Yuqorida aytilgan xizmatlar turi minglab uy-joy mavjud bo'lgan hududida elektr,suv, gaz, sovuq , sovuq, texnik va issiq suv, kanalizatsiya, shovqinni aniqlash, elektromagnit to'lqinlar va elektr maydonlar ta'sirini, ekologik xolatni aniqlovchi metrologik vositalarni ta'minlash, obodonlashtirish va boshqa turdagi xizmatlar samaradorligini oshirish ham muhum iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Hozirgi paytda foydalanib kelinayotgan ko'pgina uy-joylarda suv yoki gaz schyotchiklari o'rnatilmagan, bu xonadonlar bunday hisoblagichlarni o'z mablag'lari bilan qo'ydirish imkoniyatiga ega emasdir. Shuning uchun ham ijtimoiy ximoyalash maqsadida aholining ana shu qatlami uchun hisoblagichklarni "Kommunal xizmati"sohasi kafolati bilan kreditlar asosida o'rnatib berish va ma'lum davr ichida kredit mablag'i ulishini hisoblagich ko'rsatgichi to'lovi bilan to'lab boorish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan hizmat turlari bilan bir qatorda , ichimlik suvi sifatini, yong'inga qarshi kurash xizmatlari,sanitariya,-epidemologiya isharini amalga oshirish xizmatlari va ularning nazoratini xam e'tiborga olish lozim.

Uy-joykommunal xizmatida metrologik o'lchov asboblari va bu vositalar asosida nazorat ishlarini yo'lga qo'yish kata miqdordagi zararlarni oldini oladi. Shiningdek, xizmatlar uchun to'lanadigan barcha to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishi va resurslardan noqonuniy foydalanishni oldini olishni ta'minlaydi. Bulardan tashqari elektromagnit to'lqinlari va elektr maydonlari ta'sirini , shovqin ta'sirini, ekologik holatni hamda kommunal xizmatlari doirasidan tashqarida va kommunal xo'jaligiga kiruvchi elektr energiyasi quvvati, gaz va suv bosimi hamda miqdorini nazorat qiluvchi zamonaviy o'lchov asboblaridan foydalanish iqtisodiy samara bilan bir qatorda yetarlicha ijtimoiy samaradorlikni ta'minlaydi. Metrologik vositalar yordamida ana shu jarayonlarni nazorat qilish sohaga tegishli moliyaviy jihatlarni tartibga solib turadi, ya'ni lozim bo'lganda kommunal xizmati monitoringini amalga oshirishga zamin yaratadi. Bu narsalar sohani optimal boshqarishga asos bo'luvchi.- prognozlashni shakllantiradi.

Metrologik vositalar yordamida turli eksprementlar o'tkazish mumkin hamda olingan eksprement ma'lumotlari asosida Nafaqat resurslar sarfini, balki inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi holatini oldini olishni ham ta'minlashimiz mumkin bo'ladi.

Ko'p qavatli uy-joy kommunal xizmatlari resurslaridan foydalanish miqdorini hamda inson salomatligiga salbiy ta'sir etadigan holatlarni bashorat qilish masalasini qaraymiz , misol tariqasida, elektr energitikasi, gaz, ichimlik suvi, texnik sovuq va issiq suv , shovqin miqdori va ta'siri darajasi, elektr va elektromagnit maydoni ta'siri darajasi , ekologik holatni prognoz modellarini ko'rib chiqish usullarini tavsiya etamiz. Buning uchun hududda ma'lum davrdagi ko'pqavatli uy-joy kommunal xizmatlarining turlari bo'yicha miqdorlari ma'lum bo'lishi lozim, ya'ni statistik ma'lumotlar bo'lishi zarur.

Adekvat bo'lgan modellardan amalyotda foydalanish mumkin bo'ladi, ya'ni bunday modellar yordamida kommunal xizmatlari tizimini istiqboldagi rivojlanishini belgilash mumkin. Bunday modellar O'zbekistonning Qashqadaryo viloyatidagi ko'p qavatli uy-joy kommunal xizmatlari tizimi misolida ko'rib chiqilgan va amalda sinab ko'rilgan.

Statistik va ekspremental ma'lumotlarga ko'ra metrologik nazorati xizmatlarini baholovchi empiric bog'lanishlarni tadbiri va uning samaradorligi bayon qilingan Suv, gaz, energiya, shovqin , elektromagnit to'lqinlari , elektr maydon ta'siri , ekologik holat va boshqa faktorlarni dinamik o'zgarishlarini o'lchash va nazorat qilish, shu tariqa kommunal xizmatlari tizimida monitoring o'tkazish karrali effektlarga olib keladi. Ishning tadbiri sifatida ana shu qirralarda e'tibor berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda este'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash ,shuningdek ,ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni . Toshkent shahri, 29- may 2017 yi. Xalq so'zi gazetasi , 2017-yil 30-may.

2. Uy-joy kommunal hizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. . Toshkent shahri 18-aprel 2017-yil. Xalq so'zi gazetasi,2017-yil 19 aprel.

Водоросли являются естественной формой растительной жизни. Они присутствуют во всех природных водоемах - реках, озерах и т.д. Присутствие водорослей в бассейне является крайне нежелательным, так как рост колоний водорослей приводит к помутнению воды и делает элементы конструкции бассейна скользкими. Процесс дезинфекции должен эффективно сдерживать развитие водорослей, но иногда приходится прибегать к использованию дополнительных химикатов - альгицидов.

В случае правильного ухода за водой и адекватной в бассейне не происходит передача вирусных инфекций. Существуют два организма, особенно устойчивых к дезинфекции - патогенные цисты *CRYPTOSPORIDIUM* и *GIARDIA*. Эти микроскопические простейшие широко встречаются в окружающей среде. Хотя эти организмы и устойчивы к дезинфекции, они крупнее чем, например, бактерии и поэтому могут эффективно удаляться флокуляцией с последующей фильтрацией.

Сами купающиеся вносят в воду ряд загрязнителей. Наиболее важными из них являются азот - содержащие пота и мочи, которые находясь в аммонийной (положительно заряженной) форме, реагируют с некоторыми дезинфицирующими агентами с образованием побочных продуктов, вызывающих раздражение. Для снижения отрицательного эффекта их действия требуется использование специальных реагентов или разбавление воды.

В настоящий момент гипохлорит натрия являются самым популярным дезинфицирующим агентом для бассейнов. Производители предлагают гипохлорит натрия либо в виде концентрированного раствора, представляющего собой бледно - желтую жидкость с запахом бытового отбеливателя. Коммерческие жидкие препараты содержат от 10 до 15% хлора.

Гипохлорит получают, пропуская газообразный хлор через раствор гидроксида натрия в строго контролируемых условиях. Для повышения стабильности препарата при хранении часть не прореагировавшей щелочи оставляют в дезинфицирующем средстве, поэтому получаемый раствор препарата характеризуется очень высоким значением pH - около 12.

Даже при соблюдении благоприятных условий хранения (в темном месте при пониженной температуре) гипохлорит медленно разлагается, теряя часть хлора и образуя кислород. Однако значения pH при этом остается высоким. В летние месяцы рекомендуется хранить раствор гипохлорита натрия в темном контейнере не больше месяца при максимально низкой температуре.

Никогда не добавляйте кислоту непосредственно к раствору гипохлорита, так как это приведет к образованию ядовитого газообразного хлора.

ВНИМАНИЕ: ВСЕГДА вносите химической агент в воду. НИКОГДА не добавляйте воду к химическим агентам во избежание несчастных случаев.

Необходимая для коррекции pH кислота должна подаваться в бассейн постепенно. В случае использования хлористоводородной (соляной) кислоты ее необходимо разбавить перед добавлением в бассейн. Это можно сделать, например, в ведре и канистре, добавив к воде из бассейна соляную кислоту (конкретные концентрации, объемы и дозировки должны присутствовать в инструкции по применению, представляемой производителем).

При применении сухого препарата для понижения pH (гидросульфата натрия) его необходимо предварительно растворить в воде. Вне зависимости от того, какой препарат вы используете (жидкий или твердый), старайтесь как можно более равномерно распределять в бассейне приготовленный раствор понижающего pH реагента.

Гипохлорит кальция являются более стабильным аналогом гипохлорита натрия. Коммерчески доступны препараты в форме гранул или таблеток с содержанием хлора вплоть до 65%, что выше, чем в случае гипохлорита натрия.

Гипохлорит кальция растворяют в воде и подают в циркуляционную систему автоматически. Постоянное использование гипохлорита приводит к увеличению уровня кальция в воде. Это являются безусловным достоинством препарата в регионах с мягкой водой. В таких условиях в бассейнах часто наблюдаются «растворение» цемента между керамическими плитками из-за того, что вода испытывает «нехватку кальция», и ей требуется источники кальция для компенсации его уровня. В этом случае гипохлорит кальция выполняет сразу две функции: дезинфицирует воду и помогает устранить нехватку кальция.

В областях с повышенной жесткостью воды разрушение цемента маловероятно, но велик риск образования осадка на стенах бассейна и в фильтре. В таких случаях очень важно сбалансированность воды.

Гипохлорит кальция проявляет щелочные свойства, pH его раствора лежит в интервале от 11 до 12. Соответственно, для коррекции уровня pH воды также необходимо использовать кислоту. Минерализация (общее солесодержание) в воде увеличивается при использовании гипохлорита кальция, но не в такой степени, как в случае гипохлорита натрия. После внесения хлорсодержащих реагентов, вода поступает в кольцевую водораспределительную сеть и равномерно подводится к

боковым форсункам чаши бассейна обеспечивая равномерное перемешивание реагентов и выравнивание температуры воды по всей чаши. После заполнения ванны бассейна вода переливается в переливные желоба и поступает в резервуар для сбора перелива. Пятьдесят процентов воды на фильтрацию забирается от донных выпусков и 50% из переливных лотков. Для предотвращения попадания грязи при мытье переливных лотков в резервуар сбора перелива, на отводящих трубопроводах проектируются грязеотстойники со спускными кранами с отводом загрязненной воды в дренажный приямок. Объем сборного резервуара - 20,7 м³, максимальный объем воды в резервуаре - 18,0 м³, рабочий объем воды в резервуаре 10,0 м³. Для работы ручных донных очистителей в ботах чаши бассейна запроектированы вакуумные форсунки для подключения гибких гофрированных труб с специальными щетками и штангами для направления их с борта бассейна. Циркуляционные насосы имеют всасывающие линии, позволяющие переключением арматуры забирать воду из резервуара сбора перелива, из донных выпусков чаши бассейна и из вакуумных форсунок.

Циркуляционные насосы обеспечивают расход 62 м³/час, полный цикл водообмена за 7,1 часа. Промывка фильтров осуществляется периодически обратной осветленной водой циркуляционными насосами. При промывке фильтра должен обеспечиваться расход воды 50 м³/час/м², для фильтра диаметром 1,2 м расход промывки равен 54 м³/час, то есть промывка осуществляется при работе двух насосов. Необходимость промывки фильтра определяется по разности давления на подводящем и отводящем трубопроводах фильтра. Но не реже один раз в неделю.

Необходимость полного опорожнения чаши бассейна определяется по данным химико - биологических анализов и заключению СЭС. Опорожнение проектируется в сеть ливневой канализации с разрывом струи. После вынесения решения о опорожнении чаши бассейна прекращается его использование и проводится «шоковое хлорирование» из расчета 10 г/м³. Для этого применяются специальные быстрорастворимые реагенты. Упрощенное понимание этой реакции сводится к тому что хлорамины преобразуются в свободный хлор и газообразный азот. После отстаивания в течение 24 часов производится замеры свободного хлора. После снижения концентрации остаточного свободного хлора до требуемого значения, органы СЭС дают разрешение на сброс воды в систему ливнеотвода. Лабораторный контроль воды по этапам водоподготовки проводится с отбором проб воды: - поступающей (водопроводной) в бассейнах рециркуляционного типа; - до и после фильтров бассейна рециркуляционного типа; - после обеззараживания перед подачей воды в ванну. Для этого на трубопроводах системы водоподготовки запроектированы краны забора воды на анализ. Проектируемая система экспресс контроля и управления дозированием реагентов, обеспечивает контроль 2 параметров: рН и хлора. На основании экспресс анализов рассчитывается и дозируется раствор кислоты и раствор гипохлорита.

Важное значение имеет контроль за свежей подпиточной воды и циркуляционным расходом. Для контроля расхода свежей подпиточной воды на подводящем трубопроводе к резервуару сбора перелива запроектирована установка расходомера (см. раздел ВК). Для контроля циркуляционного расхода запроектирована установка электронный водомер устанавливаемого на обводной линии циркуляционного трубопровода.

Для сокращения общего расхода воды на технологические нужды избыток подпиточной воды (после потерь испарением, уноса пловцами и разбрызгивания) используется на нужды других технологических потребителей.

Вода из рециркуляционного контура, прошедшая обеззараживание, коагуляцию и осветление используется для промывки фильтров.

Объем подпитки равен сумме расходов всеми потребителями, но не менее чем 50л на каждого занимающегося в сутки. Подача подпиточной воды осуществляется равномерно во время работы бассейна.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

[1]. В Mamadov, K Muminov, O Cholponov, R Nazarov, A Egamberdiev [Reduction of Destructive Processes in Concrete Concrete Processing in Dry-hot Climate Conditions](#). International Journal on Integrated Education 3 (12), 430-435

[2]. НР Ходжиев, РУ Назаров [Бетон ва асфальт-бетон материалларидан фойдаланиб йўл ва йўлаклар ҳамда кичик майдонлар қуришда йўл қўйилаётган камчиликлар](#). So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 1 (4), 88-92

[3]. РУ Назаров, ИХ Эгамбердиев, РС Исмоилов [Инновацион педагогик технологияларни қўллаш орқали қурилиш конструкцияларни лойиҳалашда компьютер технологиялари](#). Scientific Impulse 1 (2), 399-402

[4]. ИУ Kovtun, AZ Maltseva [Improving the reliability of calculations of bases and soil massifs based on geotechnical control methods](#). Academicia: an international multidisciplinary research journal 11 (1), 1367 ...

[5]. ИЮ Ковтун [Концептуальные предпосылки отчетного раскрытия информации о собственном капитале предприятия](#). ООО «Изд-во Молодой ученый»

[6]. ИЮ Ковтун, АЗ Мальцева [Быстрорастущий павловний–эффективное решение актуальных задач ресурсосбережения и лесовосстановления](#). Научный электронный журнал «матрица научного познания», 38

[7]. ИЮ Ковтун, АЗ Мальцева [Механизм изменения физико-механических свойств древесины при различных температурах и времени термообработки](#). Научный электронный журнал «матрица научного познания», 45

[8]. ИУ Kovtun [Methods Without Formwork Molding of Reinforced Concrete Products](#). Eurasian Journal of Engineering and Technology, 128-130

- [9]. ИЮ Ковтун, АЗ Мальцева [Матрица научного познания](#). Матрица научного познания Учредители: Общество с ограниченной ...
- [10]. ИЮ Ковтун, АЗ Мальцева [Контролируемые параметры и средства измерений параметрическим методом при геотехническом мониторинге зданий и сооружений](#).
- [11]. БШ Ризаев, РА Мавлонов, АШ Мартазаев [Физико-механические свойства бетона в условиях сухого жаркого климата](#). Инновационная наука, 55-5
- [12]. АМ Рахимов, БА Мамадов [Энергосберегающие методы ускорения твердения бетона](#). Научный электронный журнал «матрица научного познания», 81
- [13]. МКК Ҳакимов ША, ИХ Эгамбердиев [Особенности твердения бетона на портландцементе с учетом погодно-климатических факторов](#). Механика ва технология илмий журнали, 102
- [14]. ША Хакимов [Новые конструктивные системы жилищно-гражданских зданий и проблемы актуализации сейсмических норм](#). XIII Российская национальная конференция по сейсмостойкому строительству и ...
- [15]. ША Хакимов [Проблемы сейсмобезопасности конструктивных систем гражданских зданий современной застройки и концепции ее повышения](#). Вестник АО «КазНИИСА», 29
- [16]. AT Saidmamatov, AO Egamberdiev [Analysis of Theory and Practice of Optimal Design of Construction](#). Middle European Scientific Bulletin 8
- [17]. AT Saidmamatov, AO Egamberdiev, DG Akramova [Mathematical Model of the Optimization Problem Taking Into Account a Number of Factors](#). European Journal of Research Development and Sustainability 2 (3), 1-2
- [18]. B Mardonov, AH Latifovich, T Mirzoxid [Experimental Studies of Buildings and Structures on Pile Foundations](#). Design Engineering, 9680-9685
- [19]. K Alimov, Z Buzrukov, M Turgunpulatov [Dynamic characteristics of pilot boards of structures](#). E3S Web of Conferences 264, 02053

TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TADQIQOTLARDA EKOLOGIYA VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Urazboyev Jalol Maksetiyar o'g'li
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya ; *Ushbu maqola ekologiya fanining O'zbekiston va Jahon miqyosida rivojlanishi tarixi , shuningdek atrof-muhit muhofazasi bo'yicha olib borilgan tarixiy ishlar va tadqiqotlarga bog'liq.*

Kalit so'zlar : *Hayvonlar tarixi , Aristotel , biosfera , ekologiya , qo'riqxon*

Hozirgi davrdagi ekologiyaga oid bilimlarimizning shakllanishida qadimgi yunon olimlarining xizmati katta. Masalan, Aristotel (e.av. 384-322 y.y.) o'zining "Hayvonlar tarixi" nomli asarida suvda va quruklikda yashovchi hayvonlar, shuningdek suzuvchi, havoda uchuvchi va o'rmalovchi kabi hayotiy shakllarni ajratgan. Ulardan tashqari, organizmlarning yashash joylari, yolg'iz yoki gala bo'lib yashash, oziqlanishi va boshqalar qiziqtirgan. Tirik organizmlarning tuzilishi va hayoti Aristotelning shogirdi Teofrast (e. av. 380-271 y.y.) ishlarida ham uchraydi. Teofrast o'simliklarning yashash joylarini hisobga olib, ularni o't, chala buta, buta va daraxt kabi hayotiy shakllarga bo'ladi. XVII-XVIII asrlardagi ekologik ma'lumotlar tirik organizmlarning ayrim guruhlarini o'rganishga qaratilgan edi. J.Byuffon ishlarida hayvonlarning tuzilishiga tashqi muhitning ta'siri, J.B.Lamark o'simlik va hayvonlarning evolyutsion o'zgarishlarida eng muhimi tashqi muhit ta'siri ekanligi, ekologik g'oyalarning rivojlanishida Ch.Darvinning organik olam evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti ilgari surilgan. Nemis biologi Emest Gekkel 1866-yilda fanga "ekologiya" tushunchasini birinchi bo'lib kiritdi va unga ta'rif berdi. Ekologiya mustaqil fan sifatida XX asrning boshlarida vujudga keldi. Uning rivojlanishiga G.F.Morozov, V.N.Sukachev, V.G.Ramenskiy, K.Raunkier, Ch.Elton, M.S.Gilyarov, N.S.Serebryakov, A.Tensli, G.Odum, Y.Odum va boshqalar katta hissa qo'shdi. Yirik ms olimi V.I.Vemadskiy biosfera haqidagi ta'limotni yaratdi va biosferaning holati inson faoliyati bilan bog'liqligi haqidagi xulosaga keldi. O'rta Osiyolik allomalar al-Xorazmiy, Forobiy, Bemniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrlarda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Muhammad Muso al-Xorazmiy "Bilginki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi" deb ta'kidlagan edi. Buyuk alloma suvlarni ortiqcha sarflash hozirgi kundagi Orol fojiasi kabi noxush hodisalarni keltirib chiqarishini nazarda tutgan bo'lsa, ehtimoldanholi emas. Abu Nasr Forobiy odam a'zolarining tuzilishi va unda kelib chiqadigan o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar, ovqatlanish tartibining buzilishi, kasallikning oldini olish chora-tadbirlari, shuningdek, tabiiy, sun'iy tanlanishlar haqida ma'lumotlar qoldirgan.[1.7-9] O'zbekistonda ham bir qator olimlar bu fan rivoji uchun K.Z.Zokirov AM.Muzaffarov, D.N.Qashqarov N.I.Granitov, AE.Yergashev va boshqalar o'z asarlarida ekologiyaning ilmiy masalalarini o'z

asarlarida bayon qilishdi. [3.15] Tabiatni muhofaza qilish tarixi insoniyat tarixining ilk davrlariga to'g'ri keladi. Insoniyat tarixiy davri bilan tabiiy muhitning taraqqiyot va o'zgarish tarixi bir xil emas. Biroq ular orasida chambarchas aloqa bor. Eng yangi paleogeografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'rtlamchi davr davomida antropogen faktor ta'sirida va shu omillar yordamida tabiiy sharoit muayyan darajada o'zgaradi. Tabiatni muhofaza qilish tarixini o'rganayotganda ana shu narsaga ahamiyat berish lozim. Inson bilan tabiatning o'zaro munosabati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyotiga bog'liq ekanligi qayd qilingan edi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichi-poleolit va neolitda inson bilan tabiatning o'zaro munosabati ibtidoiy ahvolda edi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kishilar o'ziga kerakli bo'lgan oзуqalarni olishdan tashqari, tabiatdan olayotgan ne'matlarning holatiga ham ahamiyat bera boshlaydi. Kishilar tabiiy hodisa va jarayonlarning sabablarini, ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlamoqchi bo'lgan, albatta. Ishlab chiqarish quollarining ancha takomillashgan turlari o'q-yoy, murakkabroq baliq ovlash asboblari, qadimgi aholining tabiatan o'zi uchun zarur bo'lgan narsalarni ko'proq olishga va hayvonlarni kengroq maydonda tutishga, ov qilishga imkon beradi. Bularning hammasi qadimgi kishilar jamoasi yashagan joyning tezda buzilishi, oзуqa kamayishiga olib kelgan. Insonlar o'zlarining hayotlari uchun muhim bo'lgan tabiiy zaxiralarni himoya qilish yuzasidan ba'zi bir choralarni ko'ra boshlagan. Chunonchi, muayyan hududlarda xilma-xil hayvonlarni ovlash va foydali o'simliklarni terib olish man etila boshlagan. Foydali hayvonlarni ko'plab qirib yuborish ko'pgina ibtidoiy xalqlarda o'lim jazosiga sabab bo'lgan. Bu esa tabiatni muhofaza qilish tarixining boshlanishi bo'lgan. Qimmatli hayvonlar, ov qilinadigan va yeyishga yaroqli yovvoyi o'simliklar o'sadigan joylar muqaddas deb e'lon qilinib, bu yerlarda ov qilish va o'simliklarni terish man etiladi. Shunday qilib o'ziga xos ibtidoiy qo'riqxonalar paydo bo'lgan. Bu davrda ibtidoiy chorvachilik va ibtidoiy dehqonchilik rivojlana boshlagan. Bu esa ibtidoiy jamoa tuzumi kishilariga yerlar va yaylovlardan yaxshiroq foydalanishga imkon bergan, tabiatdan foydalanishning ibtidoiy sistemasi asta-sekin vujudga kelgan. Quldorlik jamiyati xususiy mulkchilik paydo bo'lgan. dastlabki sinfiy jamiyatdir. Ibtidoiy urug'chilik tuzumida ishlab chiqarish quollari va ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchilik bo'lmaydi, birlikdagi mehnat hukmron edi. Quldorlik jamiyatida ham tabiatni muhofaza qilish bo'yicha choralar ko'rilgan. Chunki ibtidoiy-sinfiy jamiyatning deyarli hammasida qurg'oqchilik bo'lib, yerlarni sug'ormasdan yashab bo'lmas edi. Yog'och-taxtalarga ehtiyoj katta bo'lgani uchun, ularda o'rmon daraxtlarini qo'riqlash haqida qonunlar vujudga kela boshlagan. Masalan, Vavilon podshosi Hammurabi eramizdan avvalgi 1792-1750-yillar, ya'ni bundan qariyb 4 ming yil oldin har doim yog'ochga muhtoj bo'lganidan o'rmonlarni muhofaza qilish chorasini ko'rgan. Dehqonchilik uchun yaroqli yerlarni tubdan kengaytirish maqsadida Evropadagi mamlakatlarda yoppasiga o'rmonlar kesib yuboriladi. Buning ustiga kemalar qurish uchun ko'p miqdorda chinor, eman va boshqa qimmatli daraxtlar kesilgan. Shuni aytish kifoyaki, bitta kema qurish uchun 4000 dona eman kerak bo'lgan. O'rta asrlar tarixida mashhur bo'lgan Ispaniyaning harbiy floti uchun yarim million eman daraxti kesilgan. Ana shu

davrdan buyon 400 yil o'tgan bo'lsa ham, Ispaniya hozirgacha o'rmon xo'jaligini tiklab olgani yo'q. Dastlab o'rmonlar kema qurish uchun, so'ngra esa kofe va shakarqamish ekish uchun kesib yuborilgan. Evropada katta-katta maydonlarda o'rmonlarning kesib yuborilishi bevosita hayvonot dunyosiga ta'sir qildi. Ma'lumki, feodalizm davriga kelganda dasht va o'rmonlarda yashaydigan ko'pgina hayvonlar - bizg'aldoq va sug'ur, shimol bug'usi, tur, topon, sayg'oq, suv qunduzi, oqqush, tualoq, g'oz va boshqa hayvonlar butunlay qirilib bitadi. Markaziy Osiyoda qo'riqxonalar qadim zamondan bo'lgan va qo'riq deb atalgan. Bundan 1000 yil oldin Buxoro yaqinida Shamsobod qo'riqxonasi barpo etilganligi va atrofi baland devor bilan o'ralib, qo'riq ichida bug'u, kiyik, tulki ayiq kabi yovvoyi hayvonlar yashaganligi haqida tarixchi Narshaxiy yozib qoldirgan. Bobur zamonida Samarqand yaqinida bedana ovlanadigan «Bedana qo'rig'i» mashhur bo'lgan. Qirg'iziston Olatog'ining qo'riqxonasida asosan qulon qo'riqlangan va ot bilan qulon chatishtirilgan. Qo'qon xoni Xudoyorxonning daryo, ko'l bo'ylarida va zax yerlarda bir necha qo'rig'i bo'lgan, bu qo'riqlarda daraxtlarni kesish, o'tin tayyorlash va ov qilish ma'lum ruxsat asosida bo'lgan. XI va XVII asrlarda Rossiyada tabiatni muhofaza qiluvchi dastlabki qonunlar ovchilikka oid bo'lgan, chunki ovchilik slavyanlar uchun birinchi darajali ahamiyatga ega edi. Jumladan, Rus huquqining dastlabki birinchi yozma hujjatlari Yaroslav Mudriyning «Russkaya pravda»sida yovvoyi hayvonlar va qushlarni ovlash haqida qoidalar yozilgan. Bundan ovchilikni cheklash masalasi ham qo'yilgan. Masalan, XI asrda qunduzni g'ayriqonuniy ovlash uchun 12 gravinlik jarima to'langan. Bu ikkita sigir, bir ot yoki bir qo'yning bahosiga teng kelgan. Pyotr Ining otasi Aleksey Mixaylovich (1645-1676) podsholik qilgan davrlarda ov haqida 67 ta farmon qabul qilingan. Bu farmonlarda ovchilik muddatlari, man etilgan mintaqalar, ov qoidalarini buzish va bu haqidagi jazolar, yasoq, jazo haqida gapirilgan[2.257-259]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

- 1.O.E. Xojanazarov , Sh.T.Yakubjonova “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” Toshkent-2018
- 2.A.Ergashov , T.Ergashov “Ekologiya , Biosfera va tabiatni muhofaza qilish” Toshkent-2005
- 3.D.Yormatova “Ekologiya” Toshkent-2012

ANDALUSIYANING FATH ETILISHI

Xolmatov Shukurillo Ziyovidin o`g`li

Farg`ona davlat universteti Tarix fakulteti magistranti

Annotasiya: *Mazkur maqolada Andalusiyaning hududi, arablar tomonidan fath etilishi, manbalarda qachondan Al-Andalus degan nom bilan atalishi, shimoliy Afrikaning egallanishidan boshlab, o`sha davrdagi arab xalifaligidagi siyosiy vaziyat*

haqida bayon qilingan. Bundan tashqari Andalusiyani fath etilishida Toriq ibn Ziyodni o`rni, uning harbiy mahorati, shuningdek Andalusiyadagi arab bosqinigacha bo`lgan davrda siyosiy vaziyat, Umaviylar va Abbosiylar o`rtasidagi toj-u taxt uchun kurash bayon qilingan. Andalusiyada ilm-fanning taraqqiy etishi haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so`z va iboralar: *Andalusiya, arab xalifaligi, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Toriq ibn Ziyod, barbarlar, umaviylar, abbosiylar, ilm-fantaraqqiyoti, islom dini, musulmonlar, hukmdorlar, masjidlar, yevropa*

Andalusiya (isp. Andalucía, arab. الأندلس) hozirgi zamonaviy Ispaniyaning janubiy, eng serhosil viloyati, avtonom hududdir. Markazi – Sevilya shahri. Andalusiya nomining kelib chiqishi aniqlanmagan. Lekin bir qancha ilmiy nazariylar o`z tahminlarini bildiradi.⁴² Arablar 8-asr avvalida Pireney yarim orol katta qismini egallagach, o`sha joylarni Andalusiya (al-Andalus) deb ataganlar. Andalusiyada qadimda Iberlar yashagan. Andalusiyada finikiyaliklarning manzilgohlari (koloniyalari) [Gades (Kadis), Korduba (Kordova), Malaka (Malaga) va boshqa], so`ngra karfagenliklarning manzilgohlari bo`lgan. Ispaniyada Rim hukmronligi davrida A. Betika (Rim provinsiyasi) hududiga kirgan. Arablar hukmronligi o`rnatilgan davrda Andalusiya 4 ta qirollik (amirlik) – Xaen, Kurtuba, Sevilya, G`arnataga bo`lingan.⁴³

Toponim al-Andalus birinchi bo`lib 716 yilda Iberiya yangi musulmon hukumati tomonidan zarb qilingan tangalardagi yozuvlar bilan tasdiqlangan. Ushbu tangalar da, ikkita tilda ham yozilgan Lotin va Arabcha. Ismning etimologiyasi "al-Andalus" deb bitilgan.⁴⁴

711-yilda Shimoliy Afrika arablari Gibraltardan o`tib, Ispaniyaga bostirib kirdilar va uch yil davomida janubiy va markaziy viloyatlarni egalladilar, bu hududlarni Al-Andalusiya deb atadilar. "Andalusiya" janubiy mintqa degan ma`noni anglatadi va u yerda hozirga qadar arablar ta`siri sezilib turadi⁴⁵. Andalusiya janubi-g`arbda Atlantika okeani, janubi-sharqda O`rtayer dengizi bilan o`ralgan, janubda Gibraltar bo`g`ozi uni Afrika qit`asidan

⁴² Wikipedia.org internet elektron ensiklopediyasi

⁴³ O`sha manba

⁴⁴ Maykl L. Bates (1992). "Ispaniyaning Islomiy tangalari". Jerrilynn D. Dodds (tahrir). Al-Andalus: Islomiy Ispaniya san'ati. Metropolitan San'at muzeyi. p. 384

⁴⁵ Лалагуна Х., Испания: История страны. –М.: Издательство Мидгард, 2009, ст. 329.

ajratib turadi. Tarixchi olimlar bu hududni Al-Andalusiya nomidan tashqari “Musulmon Ispaniyasi” yoki “Arab Ispaniyasi” deb ham atashadi.

7-asr o`rtalarida. Xalifalikdagi diniy-siyosiy murakkabliklar (xalifa Ali va Muoviya o`rtasidagi hokimiyat uchun kurash, umaviylar qo`shilishi, xorijiylar qo`zg`oloni bilan yakunlangan) tufayli arab istilolarida tanaffus yuzaga keldi. A. z ning 1-bosqichi natijasida yaratilgan ulkan davlatni boshqarishni tashkil etish. 7-asr oxirida boshlangan arab istilolarining 2-bosqichida arablar Qayruan shahrini (670-yilda asos solingan) o`z qo`rg`oniga aylantirib, Shimolni bosib oldilar. Afrika, 709 yilga kelib ular Tanjerga va Atlantika okeani qirg`oqlariga etib kelishdi.

Umaviylardan bo`lgan xalifa Al-Valid I davrida, buyuk sarkarda Toriq ibn Ziyod u tarixda Arab bo`lmagan. U tarixda ko`proq Barbarlar nomi bilan tanilgan Amaziklar xalqidan chiqqan. Amaziklar xalqi islom uchun kurashgan, buyuk islomiy xalqlardan biri edi. Toriq ibn Ziyod Shimoliy Afrika amiri Muso ibn Nusayrning sarkardalaridan biri edi. Kunlardan bir kun Tanjer amiri Toriq ibn Ziyod nomiga Marokashning Suyeta shahri hokimi Yulian ismli nasroniydan xat keldi. Yulianning Florinda ismli go`zallikda tengi yo`q qizi bo`lgan. Ota qizini Andalusiya saroyiga tahsil ko`rishi uchun yuboradi. Biroq o`sha davrda yuz bergan davlat to`ntarilishi tufayli Andalusiya qiroli Vititsa taxtdan ag`darilib, o`rniga qirol Roderix keladi. Yangi qirol Yulianning qizini zo`rlab, o`ziniki qilib oladi. Qiz otasiga xat yo`llab, boshidan o`tgan kulfatlarni bayon etadi. Tabiiyki, otaning qahri qaynab, zo`ravon qirolga xoinlik qilishga ahd qiladi.

Musulmonlar ertami-kechmi Seut shahrini nasroniylar hukmidan ozod qilishini idrok etgan Yulian, Toriq ibn Ziyod bilan muzokaralar o`tkazib, qiziq bir taklif kiritadi. Xususan, Yulian Tanjer amiri Toriq ibn Ziyodga Seut shahrini tinch yo`l bilan topshirish, kemalarini amirga vaqtincha berib turish va musulmonlar qo`shinini Andalusiya tog`larining kishi bilmas so`qmoqlari orqali olib o`tishni taklif qiladi. Bularning evaziga u, agar musulmonlar Andalusiyaning zabt etishsa, qirol Vititsaning yer-mulkini berishini so`raydi.⁴⁶

Tariq ibn Ziyod bu haqda Musoga ma`lum qildi, u esa musulmonlarning o`sha paytdagi xalifasi Valid ibn Abdulmalikka maktub yo`lladi. Halifa Yulianning taklifini bitta shart bilan qabul qilishga ruxsat berdi: Yulianning so`zlari nechog`lik chin ekanligini tekshirish uchun razvedka otryadini yuborish kerak. Muso 500 kishilik otryad to`plab, unga Tarif ibn Malikni qo`mondon etib tayinladi. 91 hijriy yil (milodiy 710-yil)ning Ramazon oyida Tarif Gibraltardan o`tib, Andalusning janubiy qismini o`rgana boshladi va Yulian taqdim etgan axborot haqiqat ekanini ko`rdi. Shundan keyin Muso bir yil davomida qo`shin tayyorladi va alaloqibat yetti ming kishilik lashkar to`plandi. Andalusga yurishga rahbar etib Tariq ibn Ziyodni tayinladi. U arab va barbar tillarini a`lo darajada bilgan, taqvodor inson edi.

Qayd etish joizki, u qo`shinga qo`mondon etib arabni emas, balki barbarni tayinladi, sababi armiyaning asosiy qismini barbarlar tashkil etib, ularning hammasi ham arab tilini bilmasdi. Qo`mondon Tariq ibn Ziyod 711-yil 30-aprelda Gibraltarga qo`ngan kichik guruhga

⁴⁶ A`zon.uz internet sayti

boshchilik qilib, go'yoki Vestgot fuqarolar urushiga aralashdi. 711-yil 19-iyulda Guadalete jangida qirol Roderixni qat'iy mag'lub etgandan so'ng, Tariq ibn Ziyod va shimoliy Afrika voliyi Muso ibn Nusayr bilan birga yetti yillik yurish davomida Vesigot qirolligining ko'p qismini musulmonlar bosib oldi. Pireney yarim orolining katta qismi al-Andalus nomi ostida kengayib borayotgan Umaviylar imperiyasining bir qismiga aylandi. Al-Andalus Ifriqiyaga bo'ysunuvchi viloyat sifatida tashkil etilgan, shuning uchun dastlabki bir necha o'n yilliklarda al-Andalus hukmdorlari Damashqdagi xalifa tomonidan emas, balki Qayruan amiri tomonidan tayinlangan. Viloyat poytaxti Kordovada joylashgan.

Dastlabki istilo paytida Toriq boshchiligidagi kichik qo'shin asosan berberlardan iborat bo'lsa, Musoning 12 000 dan ortiq askardan iborat arab qo'shinlariga bir guruh Mavlaviylar, ya'ni arab bo'lmagan musulmonlar hamrohlik qilgan. Toriqqa hamroh bo'lgan berber askarlari yarim orolning markazida va shimolida, shuningdek Pireneyda garnizonlarga ega edi.⁴⁷ Shunday qilib Arab xalifaligi Ispaniyaning katta qismini fath etishga muvaffaq bo'ldi.

Bu haqda "Musavvar tarixi Islom" asarida quyidagi ma'lumotlar bor: "Andalus qit'asi Umaviylar davrida, Abdumalik zamonida fath etilgan edi. Va shul kundan buyon Umaviya davlatining bir viloyati abbosiylardan Abdulloh Saffohga mag'lub bo'lgach, hukumat umaviylar qo'lidan chiqib, abbosiylar qo'lga o'tdi... Abbosiylarning Umaviylarga qilgan zulmlaridan achchiqlanib, Andalus musulmonlari Abbosiya davlatini tan olmay qo'ydi. O'zlariga mustaqil bir hukumat tuzishga qaror berdilar"⁴⁸

Bu mustaqil davlat 750 yili qaror topib, «Qurtuba saltanati» nomi bilan mashhur bo'ldi. Unda o'n to'rt rahbar hukmronlik qildi.

Andalus hukmdorlari ham ilm-fanga homiylik qilgan, o'zlari diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor edi. Ularning saroylari ilm ahli bilan doimo gavjum, muntazam ilmiy majlislar, munozaralar o'tkazilar edi. Bu davralarda hukmdor va amaldorlarning farzandlari ham ishtirok etardi.

Andalusning birinchi hukmdori Abdurrahmon (756-788 yillar) dastlab ichki nizolarni bartaraf etib, Frantsiya qiroli Pipin va boshqa tashqi dushmanlar hujumini qaytardi. Tinchlik qaror topgach, mamlakatni isloh qilishga kirishdi. Oldin uni oltita viloyatga bo'lib, ularni muntazam yo'llar bilan poytaxt Qurtuba shahriga bog'ladi. Kanallar, suv yo'llari qazdirdi. Yurt obod bo'ldi. Qurtuba va boshqa shaharlarda katta-katta madrasa va masjidlar, kasalxonalar qurildi. Abdurrahmon Andalusni dushmanlardan himoya qilish uchun qal'a va istehkomlar barpo ettirdi. Yurt mudofaasi va tijorat uchun kemalar yasatdi.

Hishom ibn Abdurrahmon ham otasi kabi mamlakatni isloh qilish va rivojlantirish yo'lidan bordi. Ilm va maorif rivoji uchun ko'p ishlar qildi. Bu hududda boshqa millat va xalqlar ham bemalol yashar edi.

⁴⁷ Roger Collins. Caliphs and Kings: Spain, 796-1031 (англ.). — John Wiley & Sons, 2012. — P. 8—9.

⁴⁸ Saloh Kamol "Musavvar tarixi Islom"

Andalusning to'rtinchi hukmdori Abdurrahmon Ikkinchi ibn Hishom (821-850 yillar) g'oyat ilmi odam bo'lib, saroyi har vaqt olim va ulamolar bilan to'la edi. Har kuni ilmiy majlislar, turli masalalar bo'yicha munozaralar bo'lar edi. Saloh Kamol yozishicha, Sharq G'arbdagi Islom mamlakatlari ichida Abdurrahmondan in'om-ehson ko'rmagan biror ilm ahli qolmagan edi. Bundan tashqari, Abdurrahmon Andalusda muntazam pochta xizmatini tashkil qildi va poytaxtga keladigan yangi yo'llar qurdirdi. Bu Ovrupadagi dastlabki pochta tizimi ekani manbalarda ta'kidlangan.

Sakkizinchi hukmdor Abdurrahmon Uchinchi ibn Muhammad (913-962 yillar) davrida Andalusning rivoji yanada yuksaldi. Qurtuba jahonning eng rivojlangan, chiroyli shaharlaridan biriga aylandi. Shahar yaqinida me'moriy jihatdan juda noyob «Madinat uz-Zahro» saroyi barpo etildi. Sanoat va tijorat ham taraqqiy etib, Ovrupa bozorlarida Andalus mollari katta shuhrat topdi.

Turli yurtlardan kelgan sayyohlar Andalusdagi taraqqiyotdan hayratda qolishdi. Mamlakat madrasalarida tub joy aholi farzandlaridan tashqari minglab ovrupalik talaba turli fanlardan tahsil olgan edi. Natijada, ilm-fan yutuqlari keng yoyildi. Shu orqali Muso Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Farg'oniy kabi Sharq olimlarining ilmiy kashfiyotlari, asarlari Ovrupaga kirib keldi va to XVII–XVIII asrlarga qadar G'arb universitetlarida darslik sifatida o'qitildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://wikipediya.org> internet elektron ensiklopediyasi
2. Maykl L. Bates (1992). "Ispaniyaning Islomiy tangalari". Jerrilynn D. Dodds (tahrir). Al-Andalus: Islomiy Ispaniya san'ati. Metropolitan San'at muzeyi. p. 384
3. Лалагуна Х., Испания: История страны. –М.: Издательство Мидгард, 2009, ст. 329.
4. [https:// A`zon.uz](https://A`zon.uz) internet sayti
5. Roger Collins. Caliphs and Kings: Spain, 796-1031 (англ.). — John Wiley & Sons, 2012. — P. 8—9.
6. Saloh Kamol "Musavvar tarixi Islom"
7. <https://uz.wikisu.ru>
8. Hidoyat jurnali 2011 yil 2-soni

**NEFT VA GAZ KONLARINI QAZIB OLISH VA FOYDALANISH KASBI HAQIDA BATAFSIL
MA`LUMOT**

Yo'lchiboyev Husan Mirzohidjon o'g'li

*Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Geologiya fanlari universiteti
Neft va gaz konlari geologiyasi fakulteti, Neft va gaz geologiyasi yo'nalishi 2-kurs
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Neft va gaz sanoati bo'yicha kasbiy mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular haqida batafsil o'rganamiz.*

Kalit so'zlar: *Neft gaz, texnologiya, mazut, uskunalar, ixtisosliklar, kasblar, sanoat, operator va hk.*

**EXTRACTION AND EXPLOITATION OF OIL AND GAS DEPOSITS DETAILED
INFORMATION ABOUT PROFESSION**

Yulchiboev, son of Khusan Mirzakhidjan

*Mirzo Ulugbek district, Tashkent city University of Geological Sciences
Faculty of Geology of Oil and Gas Fields, 2nd-year student of Geology of Oil and Gas*

Abstract: *In this article, we will learn about careers in the oil and gas industry.*

Keywords: *Oil and gas, technology, mazut, equipment, specialties, professions, industry, operator, etc.*

**ДОБЫЧА И РАЗРАБОТКА НЕФТЕГАЗОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ ПОДРОБНАЯ
ИНФОРМАЦИЯ О ПРОФЕССИИ**

Юлчибоев Хусан Мирзахиджанович

*г.Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, Университет геологических наук
Факультет "Геологии месторождений нефти и газа" студент 2 курса
кафедры геологии нефти и газа*

Аннотация: *В этой статье мы узнаем о карьере в нефтегазовой отрасли.*

Ключевые слова: *Нефть и газ, технология, мазут, оборудование, специальности, профессии, промышленность, оператор и др.*

Kasbiy mutaxassisliklar Neft va gazga kimyoviy ishlov berish va qayta ishlash texnik-texnologiy, neft va gazni tashish va saqlash qurilmalari texnik-mexanigi, neft va gaz quduqlarini sinash texnigi, neft va gaz quduqlarini burg'ulash texnigi, neft va gaz konlari mashina jihozlarini ishlatish texnigi.

Ixtisosliklar

O'rta maxsus (texnologik uskunalari operatori, neft va gazga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, sanoat jihozlari korroziyadan himoya qilish bo'yicha texnolog, kimyoviy tahlil laboranti, texnologik kompressor va nasoslar mashinisti, texnologik qurilmalarni ta'mirlashchi-chilangar, neft va neft mahsulotlarini tashish, saqlash qurilmalariga xizmat ko'rsatish va ishlatish texnigi; neft, gaz quduqlari sinovchisi elektrgazpayvandchi ...) – neft va gaz, sanoat kollejlari;

Oliy (neft va gaz konlari operatori, neft va gaz konlari mashina va jihozlari mashinisti, neft va gaz quduqlari burg'ulovchisi) – tog' kon metallurgiya instituti, muhandislik va texnik institutlar, universitetlar.

Qobiliyatlar qandaydir o'ziga xos iste'dod talab qilinmaydi, lekin kimyoviy, fizik va texnik bilimlar, mustahkam sog'lik, jismoniy tayyorgarlik, chiqishimlilik, jismonan qiyin ishlarni bajarish uchun kuch va matonatga ega bo'lish, kuchli iroda.

Fanlar

Mazmuni

Neft va gazni qayta ishlash zavodlarida – kimyoviy ishlov berishda texnologik jarayonlarni nazorat qilish, texnologik jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, kompressor va nasos qurilmalarini ishlatish, xomashyo va mahsulot sifatini, miqdorini tekshirish, tahlil qilish;

neft quduqlari qaziladigan joylarda – parmalash bloklarining montaji, demontaji, ya'ni qismlarga ajratilishi va transportlarda tashilishi, mineralarni yig'ish, ajratish jarayonida yer, beton, chilangarlik, duradgorlik va ko'tarish-tushirish ishlarini amalga oshirish, quduqlarning uzluksiz ishlashini ta'minlash;

Ilmiy-tadqiqot institutlarida – innovatsion texnologiyalar va loyihalarni ishlab chiqishda, yangi texnologik qurilmalarni yaratish va ularni sinashda ishtirok etish.

Afzalliklar sohada kadrlarga bo'lgan yuqori talab; yuqori maosh; mamlakatning, hatto dunyoning turli o'lkalarida bo'lish imkoniyati; imtiyozli mehnat ta'tillari, davolanish uchun imtiyozlarning mavjudligi; ish joyidan turarjoyga ega bo'lish.

Kasbiy qiyinchiliklar ish asosan erkaklar uchun, shunda ham erkaklarning hammasi uchun ham to'g'ri kelavermaydi; smenali tartibda ishlash, og'ir jismoniy mehnat; ish tufayli oiladan uzoqlarda yashash, o'ta yuqori kasbiy mas'uliyat.

Batafsil ma'lumot Neft va gaz ishi – hozirgi zamonning eng serdaromad va sermashaqqat sohalaridan biri. Bu faqat O'zbekistonda emas, balki dunyoning barcha mamlakatlarida. O'zbekiston juda ko'p neft, gaz va toshko'mir zahiralari ega. Gaz qazib olish bo'yicha mamlakatimiz dunyo mamlakatlari orasida yuqori o'n beshtalikda turadi.

Mamlakatimizning yirik gaz konlari Gazli, Muborak, Sho'rtan, Ko'kdumaloqda bo'lib, ularning tarkibini 90-96% gacha metan tashkil qiladi. Tabiiy gazlar qatoriga neft va toshko'mir konlaridagi yo'ldosh gazlar ham kiradi. Tabiiy gazni qazib chiqarilgandan so'ng, avvalo, yonmaydigan qo'shimchalardan tozalanadi. Gaz tarkibidagi namlik miqdori kamaytirilib, azot, karbonat angidrid, vodorod sulfiddan tozalanadi, chunki tarkibida

oltingugurt birikmalari borligi sababli bu gazlar ishlatishga yaroqli emas. Birinchi qayta ishlov jarayonida tabiiy gaz bilan birgalikda oltingugurt moddasi ham ishlab chiqariladi.

Aytish joizki, bir tomondan neft va gaz sohasida ishlash oson kechmaydi, ikkinchi tomondan esa bu sohasiz rivojlanish “oqsab” qoladi. Shuning uchun ham har bir mutaxassis sohaning “yulduzi”ga aylanishi mumkin. “Neftli kasb”ni tanlagan yoshlarning hammasi ham bu soha mutaxassislari aynan qanday jarayonlarda ishtirok etishi, qanday vazifalarni bajarishi, ularning zimmasida qanday mas’uliyat yotishi to’g’risida ma’lumotga ega emas. Masalan, neft va gazga birlamchi ishlov berish texnik-texnologiy qanday jarayonlarda ishtirok etishi to’g’risida suhbatlashamiz.

Neft – qora-qo’ng’ir rangli, suvda erimaydigan o’ziga xos hidli, tez yonadigan moysimon suyuqlik. Tabiatda neft yer ostida mavjud bo’lib, tarkibi jihatidan turli uglevodorodlarning aralashmasidan iborat: gaz, suyuq va qattiq moddalar erigan eritma.

Neft tarkibidagi kerakli moddalarni ajratib olish uchun u qayta ishlanadi. Neftni qayta ishlov birlamchi va ikkilamchi qayta ishlov turlariga bo’linadi.

Birlamchi qayta ishlovning asosini neftni haydash tashkil etadi. Bunda neft tarkibiga kirgan moddalarni, qaynash haroratlariga ko’ra, turli fraksiyalarga ajratiladi. Neftni haydashda avval rangsiz moddalar – gazolin va benzin fraksiyalari ajratib olinadi. Ulardan keyin rangli fraksiya mahsulotlari – ligroin, kerosin, gazoyl ajratib olinadi.

Keling, ana shu jarayon bilan batafsil tanishamiz.

Neftni haydash reaktivatsiya kolonnasida olib boriladi. Bunda neft avval qizdirish pechida qizdirilib, bug’ va suyuqlik aralashmasi holda balandligi 40 metrli kolonnaga yuboriladi. Unda teshiklari bo’lgan yotiq holda joylashtirilgan likopchalar qo’yilgan bo’lib, ular orqali qizigan neft bug’i yuqoriga ko’tariladi va sovib, suyuqlikka aylanadi. Eng avval oson uchuvchan gazoyl, keyin kerosin, ligroin, benzin va oxirida gazolin fraksiyalari ajratib olinadi. Ajratib olingan benzinning bir qismi qaytadan kolonnaga sovitgich sifatida yuboriladi. Bu bosqichda neftning 20% i benzin sifatida ajratib olinadi. Oxirida qora quyuq massa – mazut qoladi. Mazutni vakuumli haydash orqali turli surkov moylari, parafin va vazelinlar olinadi, qolgan qoldiq “neft kuli” yoki gudron deyiladi. Ajratib olingan har bir fraksiya mahsuloti o’zining ishlatilish sohasiga ega:

Benzin –avtomobil va avia yonilg’isi, erituvchi, ekstraksiyalovchi modda sifatida ishlatiladi.

Ligroin - dizel yonilg’isi, lak-bo’yoq sanoatida erituvchi va benzin olishda xomashyo sifatida ishlatiladi.

Kerosin – reaktiv dvigatellar, uy-ro’zg’orda yonilg’i, erituvchi sifatida, tibbiyotda ishlatiladi.

Solyar moylari - motor yonilg’isi sifatida ishlatiladi.

Vazelin – tibbiyot va texnikada ishlatiladi.

Mazut – benzin, surkov moylari olishda xomashyo va issiqlik qozonlarida yonilg’i sifatida ishlatiladi.

Gudron - asfalt ishlab chiqarishda asosiy material sifatida ishlatiladi.



Neftni haydash bilan olingan benzin juda kam va sifat jihatidan talabni qondirmasligi sababli neft mahsulotlari ikkilamchi qayta ishlanadi.

Ikkilamchi qayta ishlash neftni krekinglash va riforminglash orqali amalga oshiriladi.

Kreking ikki usulda – termik va katalitik usulda amalga oshiriladi.

Termik kreking natijasida neftdan olinadigan benzin miqdori oshiriladi va kimyo sanoati uchun xomashyo olinadi.

Katalitik krekinglashda neftdan benzin olish unumi 80% gacha oshiriladi va asosan aviabenzin olinadi. Bundan tashqari, kreking gazlari hosil bo'lib, ulardan kimyo sanoatida xomashyo sifatida ishlatiladi.

Neftni riforminglash jarayonida esa, benzinning sifati yaxshilanishiga erishiladi.

Neft pirolizi usulida neft havosiz sharoitda qizdirilib, etilen, atsetilen va aromatik uglevodorodlar olinadi, shu sababli bu jarayon neftni aromatlash ham deyiladi.

Ha, juda ham qiziqarli va mashaqqatli soha. Aytaylik, siz ushbu soha kasblaridan birini tanladingiz, yuqorida bayon qilingan jarayonlarning bevosita ishtirokchisiga aylanmoqchisiz. Xo'sh, qanday texnologik qurilmalar, jihozlar va asboblardan birini ishlashingizga to'g'ri kelishini bilasizmi? Bu xaqda keyingi maqolamizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent, Ozbekiston, Simpozumlar saroyi, 2016-yil 24-noyabr 2017.
2. Turobjonov S.M., Juraev V.N., Ziyadullaev O.E., Mirxamitova D.X. Neft-gaz kimyosi va fizikasi, Toshkent, Tafakkur bostoni, 2014, 156 b.
3. Kuznetsov A.A, Kagermanov S.M., Sudakov Ye.N. Raschety protsessov i apparatov neftepererabatyvyushey promyshlennosti. M.: Ximiya. 1974. 340 s.
4. Osnovnye protsessy i apparaty ximicheskoy texnologii. Pod obsh. Redaktsiey Yu.A. Detnerskogo. M.: Ximiya. 1989. 265 s.
5. Kasatkin A.G. Osnovnye protsessy i apparaty ximicheskoy texnologii. M., Ximiya. 1973. 752 s.
6. Erix V.N., Rasina M.G., Rudin M.G. Ximii i texnologiya nefti i gaza. - L.: Ximiya, 1985.
7. Kuznetsov A.A., Sudakov Ye.N. Raschety osnovnyx protsessov i apparatov pererabotki uglevodorodnyx gazov: Sprav, posobie. -M.: Ximiya, 1983.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent 2006.

OPTIMIZATION OF PRODUCTION COSTS BY REDUCING LABOR STANDARDS AND TIME STANDARDS IN THE DEVELOPMENT ENTERPRISE

Kamilova Anora Nasirovna

Teacher of Andijan Mechanical Engineering Institute

Abstract: *Currently, companies are trying to optimize production, even more so as the economic situation is gradually deteriorating in many countries around the world, which is currently caused mainly by the COVID-19 pandemic. A specific type of production is that on production lines, which are individual workplaces where various production and assembly operations take place. The aim of the article is to analyze the impact of the choice of the control method for the production process on the optimization of costs and the process. The subject of the research is the production of fire-fighting throttles on a production line that has three workplaces. The problem of waste on the production line was identified by direct measurements of time consumption at the individual workplaces and by using images of the working day schedule. The article compares three approaches to production line management and waste reduction.*

Keywords: *production link; production time; tact time; hourly output; labor costs.*

Introduction The budget LP the company is allocated for the implementation of various measures to improve working conditions and safety, as well as to preserve and prevent the health of workers. The distribution of costs is appropriate to relate to their effectiveness, assessed by reducing the rate of accumulation of professional risk. Customer-focused (Singh and Singh, 2014) and rapid industrialisation (Gorantiwar and Shrivastava, 2014) paradigm of business environment puts tremendous pressures on quality, delivery, dependability, flexibility and various costs associated (Jaju et al., 2010) with manufacturing organisation for delivering the desired product. Automatic manufacturing systems (Mathur et al., 2011a, 2011b) and industrial engineering concepts offer several advantages and are increasingly being adopted as a strategy to improve performance of manufacturing organisations and employee satisfaction which is important for organisation's success and survival (Meena and Dangayach, 2012). The quest for lower operating costs and improved manufacturing efficiency (Dangayach and Deshmukh, 2001) has forced a large number of manufacturing firms to embark on industrial engineering approaches to analyse and optimise their production. Productivity reflects the ability (Sauian et al., 2013) to generate higher income or value-added for the organisation and labour performance is affected by many factors and is usually linked to the (Soekiman et al., 2011) time, cost, and quality constraints.

A common goal is to establish a continuous improvement process to achieve the same added value with reduced resource utilisation (Womack and Jones, 2003). Meena et al. (2014) state in his article that working environment is most essential factor which

affects the work quality of worker that is somehow related to the productivity of organisation. Because productivity is the term that makes all the difference, for raising the prosperity of any organisation in terms of cost-return analysis (Dwivedi et al., 2013), profitability (Dwivedi et al., 2013) and operational efficiency (Dwivedi et al., 2013; Mathur et al., 2011b). Integration of various functional groups within a manufacturing organisation (Gunasekaran et al., 1994) can improve both productivity and quality in the organisation. Inequalities in gross domestic product (GDP) per capita among the various developing countries – primarily reflect differences in labour productivity growth (Manyika et al., 2014). Currently, however, many countries lag significantly behind from the USA as, especially in emerging markets. The theory and practice of industrial production have been dealing with the issues of loss elimination and labor productivity growth for several decades. In 1921, Herbert Hoover set up The Committee on the Elimination of Waste in Industry. No-one doubts the wisdom of the old management truism – “You can’t manage what you can’t measure.” However, as this paper will demonstrate, how you measure labor is as important as the fact you are measuring it at all. In fact, using the wrong measurements can provide a distorted view of productivity that leads to incorrect decisions which can put your company at a competitive disadvantage. Most companies measure labor productivity in some manner. Labor productivity, in simple terms, is the rate of output per unit of input. Metrics such as units per hour (UPH), lines per hour (LPH), dollars shipped, and other similar measurements are commonly used to report on productivity. The figure below shows commonly used metrics and frequency of use.

The causes of losses are extremely complex. Even for the simplest tasks, it is possible to detect many errors contributing to waste of matter or of human and machine energy, but especially over time. Wasted time has proven to be the biggest cause of losses, although losses seem to arise differently. Equally important is the correct use of production equipment. However, no loss is caused by a single reason. Therefore, it is possible to consider losses only in relation to each other. This is the basic knowledge of the loss analysis. It is conditioned by the very dynamics of the production process, which is often similar to sociological phenomena. When measuring your processes and operations teams performance, you’re looking for efficiency, productivity, quality, and on-time delivery—among other things. But how are you defining those terms?

What are your metrics for success in each of those areas? How do you determine which processes are effective, and which ones need improvement? These questions extend to your workforce as well; who is highly performant, and who needs coaching or training? The answers to these questions can be found using labor standards – also known as engineered labor standards, or engineered performance standards.

Where many companies begin to go wrong is during the creation of engineered labor standards. It’s not as simple as drawing a line on a graph and saying “this is the standard we expect for our processes”. That’s a good way to set yourself up for failure.

Setting labor standards used to be the domain of engineers performing time and motion studies. Traditional engineered labor standards were done with stop watches and spreadsheets, measuring each process one at a time over a set time period. Now fast forward to the digital era. With modern analytics, and data capture systems that can integrate data sources from multiple systems, there are more options. Now, labor standards have moved far beyond manual spreadsheets, and with the click of a button can be created by machine learning.

According to, two concepts can be encountered in the context of production optimization. The word loss was used, mainly, at the beginning of the last century after the First World War, and the word “waste” was not brought into practice until the 1970s. The biggest obstacle to increasing productivity is ignorance of waste, of any kind. The process is a series of consecutive steps that begins with the input of raw materials and ends with the output of finished products. Value is added to the product in each of the process steps. Workers and machines thus add value to the product, or do not add value. The term waste refers to all activities that do not add value to the product and, at the same time, increase the cost of the product. Waste is defined as activities that consume resources but do not create any value for the customer. Most value-flowing activities that create value for the customer are a small part of all activities. Eliminating large amounts of waste has the greatest potential for improving performance. Waste is anything that increases the cost of a product or service without increasing its value . Through the gradual development of the concept of leanness, Shingo defined waste as 3 MU: MUDA—waste (time, material, resources), MURI—congestion (workers, lines, transport), MURA—non-continuity (work, supplies). MUDA (waste) is classified into today’s seven categories:

O'smir depressiyasi o'z joniga qasd qilish, zo'ravonlik, giyohvandlik va xatti-harakatlarning og'ishiga olib keladigan eng murakkab tibbiy muammolardan biridir. MB Kellerning ta'kidlashicha, depressiya boshlangan bemorlarning o'rtacha yoshi 14 yoshni tashkil qiladi. O'smirlik davrida reallashtirilgan ehtiyojlar va ularni qondirishning mumkin emasligi o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ladi, chunki ko'plab eski munosabatlar buziladi va qayta tiklanadi, bu umidsizlikni keltirib chiqaradi, depressiv reaksiyalar ruhiy reaksiyaning mumkin bo'lgan shakllari bo'ladi.

Shunday qilib, yolg'izlikning sabablarini tahlil qilish salbiy holatni bartaraf etish uchun profilaktika choralari va usullarini yaratish, shuningdek, ijtimoiy barqaror, ijtimoiy mustaqil, mas'uliyatli, harakatchan shaxsni shakllantirish uchun zarurdir. O'smirlik turli xil ruhiy kasalliklarning paydo bo'lishi uchun eng sezgir hisoblanadi, shuning uchun ularning belgilarini o'z vaqtida tanib olish va bolaga ta'sir qiluvchi salbiy omillarni bartaraf etish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovarь-spravochnik po psixodiagnostike. - SPb., 1999. - 528 s.
2. Yo'ldoshev M "Yoshlar muammosi aslida kattalar muammosi" Maktab va hayot, 2004 - № 7. 25- 30 (27).
3. Jumanazarov Yo, Mullaboyeva N, O'smirlar va ota-onalar munosabatlari, "Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Namangan 2009, 79-80.
4. Nasiba Jumanova, Цели и задачи активации, ускорения педагогических технологий , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
5. Jumanova, N. (2021). Профилактика психологических дефектов в развитии личности. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>
6. Jumanova, N. (2021). Характеристики пробуждения большой группы детей любовь к литературе. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>
7. Jumanova, N. (2020). Актуальные вызовы современной науки. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Obidova, D., & Nasiba, J. Analysis of the activities of health care institutions: prospects for the application of psychological knowledge.
9. Атамуродова, Р. К., Жуманова, Н. Ш., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Взгляды учёных средневековья о душе человека. Проблемы педагогики, (8 (19)).
10. Sherboevna, N. J. (2020). The use of integrated technologies in the cultivation of children's speech in preschool education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Qodirova Malikaxon Kaxramonovna

JDPU, katta o'qituvchi

Annotasiya: *Maqolada inson ongi taraqqiyoti, inson ruhiy hayotining o'ziga xosligi, bilish jarayonlarining o'ziga xos rivoji va unda tafakkur jarayonining o'rne, ahamiyati ochib berilgan. Shu bilan birga tafakkurning rivojlanishida muloqotning o'rne va o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ularga ta'lim berish jarayonini samarali tashkil etish mazmuni haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ong, taraqqiyot, ruhiy hayot, irsiyat, ta'lim-tarbiya, muloqot, tafakkur, harakat, hissiyot, aql, intuitiv, dars, zamonaviy o'qitish, munozara, muhokama, nutq, bilish jarayonlari.*

Аннотация: *В статье описывается развитие человеческого сознания, своеобразие духовной жизни человека, своеобразие развития познавательных процессов, роль и значение в ней мыслительного процесса. При этом выделена роль общения в развитии мышления и содержание эффективной организации процесса обучения им в развитии мышления учащихся.*

Ключевые слова: *сознание, развитие, духовная жизнь, наследственность, воспитание, общение, мышление, действие, эмоция, разум, интуиция, урок, современное обучение, дискуссия, дискуссия, речь, познавательные процессы.*

Annotation: *The article describes the development of human consciousness, the originality of the spiritual life of a person, the originality of the development of cognitive processes, the role and significance of the thought process in it. At the same time, the role of communication in the development of thinking and the content of the effective organization of the process of teaching them in the development of students' thinking are highlighted.*

Keywords: *consciousness, development, spiritual life, heredity, education, communication, thinking, action, emotion, mind, intuition, lesson, modern education, discussion, discussion, speech, cognitive processes.*

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarni qo'llanilishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shuning uchun xam ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning extiyojiga aylandi. Bu ehtiyoj ta'lim faoliyati orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kundagi ta'lim faollikni, ijodkorlikni talab qiladi.

Ta'lim inson psixologiyasini shakllantirish va rivojlantirish kuchiga ega. Faqat bu jarayon o'qituvchi oldiga ko'pgina talablarni qo'yadi. Bu talablardan oldin tafakkur jarayoniga to'xtalib olsak.

Tafakkur - insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni talqin ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi deb ta'riflanadi.

Tafakkurning so'z yordami bilan ifodalanishini M.V.Gamezo tomonidan bayon qilingan: "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi".

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavoita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".

Demak, inson tafakkurini so'z, nutq, muloqot va munosabatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Inson miyasida har daqiqada yuzlab fikrlar o'tadi. Ularning qanday maqsadga qaratilganligini, qay darajada samaradorlikka ega ekanligini bilish inson faoliyatining qaysi tomonga yo'nalishini bilish imkonini beradi. Shu sababli fikrlar ustida ko'proq muhokama o'tkazish inson uchun har tomonlama samara keltiradi.

Inson ongli mavjudot. Uning ongi jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun tub me'zon bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning tarkibiga aylanish uchun inson shaxs sifatida shakllanishi lozim. Insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar – irsiyat, muhit (oila mikromuhiti) hamda ta'lim-tarbiyadir. Hozirgi kunda bizning oldimizda turgan dolzarb muammolardan biri insonni shaxs sifatida emas, balki uni ma'naviyatli, dunyoqarashi keng, tafakkuri yuksak darajadagi shaxs sifatida shakllantirishimiz zarur. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur.

B.G.Ananev "Odamni bilishning predmeti sifatida" nomli asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan va muloqot odamni bilishning predmeti ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shu bo'yicha ta'lim jarayonida o'quvchilarning bir-biri bilan bo'ladigan muloqot jaryonini kuzatish va muloqot yo'nalishini to'g'ri yo'lga qo'yish pedagogka yuklatilgan muhim vazifalardan biridir. B.G.Ananevning fikricha, muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun bu nutq bilan uzviy bog'liq. O'z navbatida nutqning qay darajada rivojlanishi tafakkurga borib taqaladi. Tafakkur – shaxsning borliqni, u har doim munosabatga kirishadigan kishilarni to'liq, tub mohiyatini anglashini ta'minlovchi omildir. Tafakkur orqali barcha narsaga erishish mumkin. Tafakkur – voqelikning umumlashtirilgan, bevisita va eng to'liq hamda eng aniq intihosidir. Odam tafakkuri, fikrlash faoliyati tufayli voqelikni idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda chuqurroq, aniqroq va to'laroq bilib oladi. Inson har qanday faoliyatda biror maqsad sari harakat qiladi. Shu jarayonda fikrlash, tahlil qilish, umuman olganda tafakkur operatsiyalari amalga oshadi. Harakatlanish davomida u o'zi uchun kerak bo'lgan barcha omillarni o'z atrofiga yig'a boshlaydi. Natijada, inson faoliyat davomida yuzaga kelgan vaziyatlarga to'g'ri munosabat bildirishi ta'minlanadi. Shunday ekan

oldimizda yana bir vazifa turadi. Shaxs tafakkurini qanday rivojlantirish mumkin? Uni rivojlantirishda qanday usullardan foydalanish samaraliroq?

Inson faoliyat yuritar ekan uni o'rab turgan muhitni, uning mohiyatini bilishga intiladi va ular to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi. Bu o'rinda hissiy (emperik), aqliy (ratsional) hamda intuitiv bilish o'zini namoyon qiladi. Bilishning bunday darajalaridan samarali foydalanish uchun ham avvalo tafakkur kerak bo'ladi. Chunki, yuqorida ham ta'kidlab o'dik, tafakkur borliqni yaqqol, hech qanday kamchiliklarsiz, yagona bir tizim ko'rinishida ongimizda gavdalandiradi. Uni rivojlantirish esa har bir o'qituvchining zimmasida. Bu masalaga quyidagicha yondoshamiz.

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning yagona yo'li ularga ta'lim berish jarayonini samarali tashkil etish. Dars jarayonida yuzaga kelgan bahs-munozaralarni oydinlashtirish va bu jarayonga o'quvchilarni jalb etish, ularni muloqotga chaqirish juda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi davr ta'lim tizimi bo'yicha dars mashg'ulotlarining tashkil etilishida o'quvchilarning ko'plab jihatlarini hisobga olish o'quvchini yanada yaxshiroq o'rganishga yordam beradi. Zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Faol o'qitish metodlari va ularni tashkil etish orqali bunga erishish mumkin. Faol o'qitish metodlariga eng avvalo bahs va munozara yo'li bilan bilim va malakalar hosil qilish tushuniladi. Baxsning samarali bo'lishi, eng avvalo, baxslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuviga bog'liq. Quyida keltirilgan chizmada tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati keltirilgan. Bunday joylashuv qatnashuvchilarda o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

“Men - munozarada” deb ataluvchi bu holat ayni muhokama o'tkazish, muloqotga kirishish uchun qulay. Chunki unda shaxs o'z fikrini dadil aytish uchun imkoniyatni his qiladi.

Psixolog-olim V.N.Myasishevning fikricha: “Shaxs turli munosabatlarda turlicha qarama-qarshi sifatlarni namoyon qiladi”. Demak, biz o'quvchilarni qanchalik yaxshi bilishni xohlasak ularni ko'proq muloqotga chaqirishimiz, erkin fikr yuritishiga imkon berishimiz lozim. Aynan ta'lim jarayonida shunday vaziyatlarni tashkillashtirsak, ularning bildirgan fikrlari yuzasidan turli bahs-munozaralarni yuzaga keltirsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quv-dars jarayonini tashkillashtirishda fan o'qituvchilari dars mavzusiga doir bahs-munozaralarni o'tkazishlari va bu muhokamaga barcha o'quvchilarni jalb etishlari bir soatlik dars davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga erishishlariga imkon beradi. Mana shu jarayonda malakali pedagog o'quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlariga, balki individual xususiyatlariga ham “baho” beradi va shu orqali o'quvchilarni har tomonlama o'rganadi. Bahs-munozara masalasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu orqali o'quvchilarda yanada izlanish, ko'proq narsalarni bilishga qiziqish hissini orttirish mumkin. Chunki, o'quvchilardagi yetakchilikka bo'lgan intilishning, sinfdagi liderlikni egallashga bo'lgan

intilishning yuqoriligi ularni muhokama qilishga undaydi. Bundan tashqari bahs yuritish, muhokama tarzda suhbat olib borish o'quvchilarning nutq faoliyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Nutqning tafakkur bilan bog'liqligini hisobga oladigan bo'lsak, nutq va tafakkur bir birini doimo talab qiladi. Chunki fikrlash jarayonida fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash uchun, avvalo, fikr muhokamaga qo'yilishi kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, nutq tafakkurning ajralmas bir qismi. Atrofimizda nutqi rivojlanmagan insonlar ham ko'p uchraydi. Ularning tafakkuri nutqsiz ham rivojlanadi. Ammo, yuksak tafakkurga, barkamollikka erishish uchun har tomonlama yetuk bo'lish talab etiladi.

Nutqning shakllanishi uchun ko'proq adabiyotlar o'qish, ko'proq muloqotga kirishish ulkan samara keltiradi. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmagan bolalarning 20%i tug'ma emas, balki bola bilan bo'ladigan muloqot jarayonining yetarli darajada olib borilmaganligi hamda muloqotga kirishish jarayonining kechikkanligi natijasida kelib chiqqan.

Tafakkur, fikr, nutq, muloqot va munosabat. Bu tushunchalar doimo birgalikda keladi. Ularning bir-biriga nisbatan ahamiyati yuqorida keng doirada qayd etildi. Umuman, hayotimizda biz duch keladigan har qanday holatlarga o'z munosabatimizni bildiramiz ya'ni ularga qarshi faol harakat qilamiz. Muloqotga kirishishimiz ham faol aqliy harakat. Bu harakatimizning quroli esa nutq, unda foydalaniladigan so'zlar. Biz olib borayotgan faoliyatning samaradorligi ham nutqimizning ravonligiga bog'liq.

Natijalarining ko'rsatishicha, o'quvchilar tafakkurini yuksaltirishga turli ta'lim texnologiyalarinin qo'llash quyidagicha qator ta'limiy afzalliklarni qo'lga kiritish imkoniyatini berar ekan:

- O'qitishda jodiy muhit yaratiladi;
- o'quvchilar sifatli va ishonchli o'quv-didaktik va intellektual ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ya'ni ular shug'ullanayotgan sohasi bo'yicha o'zlari ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'ladi;
- ta'limda mulohaza, munozaralar o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi;
- mustaqil fikr bildirishlarida, bilimlarni egallashlarida ishonchli usullardan bo'lib, o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Demak, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joyizki, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish bugungi kunning asosiy maqsad vazifalaridan bir bo'lib kelmoqda. Ta'lim olayotgan o'quvchilar aynan ta'lim jarayoni orqali tafakkurlarini rivojlantirishni tashkil etish muhim ekan, darsda muloqot va munozaralardan foydalanib dars tashkil etish ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qayd etilgan raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Слостенин, В. А., Каширин В. П. / Психология и педагогика [Текст] / - М.: Академия 2007.
2. Орлова, В. А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие [Текст] / Б.А. Орехова. - М.: КНОРУС, 2009.
3. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
4. G'oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.
5. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil
6. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil
7. Климов Е.А. «Общая психология». Реч, Москва-2001
8. Qodirova, M., & Nasimov, D. (2022). MUTAFFAKKIR OLIMLARIMIZ O'QUV FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).
извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6415>
9. Qodirova, M. (2021). O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3).
извлечено от <https://primedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4021>
10. Qodirova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3). извлечено от <https://fll.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4025>

SURXONDARYO VILOYATI QUMQO`RG`ON TUMANIDAGI ETNOTOPONIMLAR TAHLILI

To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna

*Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim
markazi katta o`qituvchisi*

Anotatsiya: *Har bir etnonimning o`z ma`nosi bor. Ba`zi etnonimlar juda qadimiy nomlar bo`lganidan ma`nosini tushunish qiyin. Maqolada Qumqo`rg`on tumanidagi etnotoponimlar tahlil qilingan.*

Kalit so`z: *Etnonim, etnotoponim, etimologiya, oykonim, totem, toponim, jat, tukaraun, kunksaut, uyat, nilkan, kurkin, tulangit, turi, shankut, komponent*

Bir qator toponimlar bizning o`tmish ajdodlarimiz – turkiy qabila va urug`larning, shuningdek boshqa xalqlar, elatlarning hozirgi O`zbekiston hududida qaysi o`rinlarda yashaganliklari, qaysi hududlar bo`ylab ko`chib yurganliklarini aniq ko`rsatib bera oladi. Ayranchi, Do`rmon, Jaloyir, Mo`nka, Baymoqli, Qaychili, Nayman, Bahrin, Qipchoq, Qarluq, Qorabura, Qo`ng`irot, Arslonboyli, Achamoyli kabi qishloq va ovullarning nomlari o`sha joyda o`tmishda nomi tilga olingan qabila va urug`lar istiqomat qilganligini yoki hozirda ularning avlodlari yashab turganligidan dalolat beradi. Bunday urug` va qabila nomlari tilshunoslikda etnonimlar va shu nomdagi joy nomlari etnotoponimlar deb yuritiladi. Etnonim yunoncha etnos-xalq va onim-nom so`zlaridan tarkib topgan. Har qanday etnos (xalq, guruh, qabila, urug`, millat va b) ning nomi.

Har bir etnonimning o`z ma`nosi bor. Ba`zi etnonimlar juda qadimiy nomlar bo`lganidan ma`nosini tushunish qiyin. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo`lib, ma`lumot tashishga xizmat qiladi, shu sababli etnonimlarni o`rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Qadimiy kartalarga e`tibor berib qaralsa, asosiy toponimik yukni qabila va xalqlar nomlari, ya`ni etnonimlar tashkil etadi. Buning boisi shuki, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridan buyon aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos bo`lib xizmat qilgan. Shahar va qishloqlar nomini tashkil etgan etnotoponimlarga qarab qadimda ushbu hududda qanday etnik guruhlar istiqomat qilganligini bemalol bashorat qilish mumkin. Ma`lumki, har bir etnonimning kelib chiqishi tarixi bor. Ularni bilmasdan turib toponimlar haqida xulosa chiqarish ancha qiyin, chunki urug`, qabila nomlari ham muayyam ma`noni anglatadi. Ko`pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hozirgacha ham ma`lum emas. Masalan “O`zbek” so`zining kelib chiqishi to`g`risida turli fikrlar mavjud. Ko`pchilik olimlar ko`chmanchi o`zbeklar Oltin o`rda xoni O`zbekxon (13 asr) ismi bilan atalgan deyishadi. Xolbuki, O`zbekxon Oltin o`rdada xonlikka ko`tarilgan, o`zbek atamasi esa Oq o`rdada paydo bo`lgan. XIV-XV asrlarda Eron va O`rta Osiyo tarixchilari Oq o`rdaning barcha turk-mo`g`ul qabilalarini o`zbeklar deb atashgan. Bundan tashqari O`zbek ismi O`zbekxondan oldin bitilgan asarlarda ham uchraydi. O`zbek etnonimi O`zbekxon ismidan kelib chiqqan degan fikr noto`g`ri. Bu etnonim “O`zi bek” degan ma`noni bildiradi

deyish ham ilmiy dalil emas. O'zbek o'z(uz)qabilasi nomi bilan bog'liq degan fikr ham isbot talabdir. Umuman, o'zbek so'zining etimologiyasi hozirgacha aniq emas. Boshqa ko'pgina turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham qabila-urug'lardan tashkil topgan. Akademik V.V. Bartold fikriga ko'ra dastlab 32 o'zbek urug'i bo'lgan. Lekin 16 asrda Farg'onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiy "Majmuat-tavorix" asarida 92 o'zbek urug'ini tilga olgan. N. Xannikov o'zining "Buxoro xonligi tasviri" (1843) kitobida "Nasabnomai o'zbekiya" ga asoslanib, 97 o'zbek urug'ining ro'yxatini keltirgan. Etnotoponim larni har qadamda uchratish mumkin. Masalan, Samarqand viloyatining ba'zi bir tumanlarida qishloqlar nomlarining 1/3 qismi etnonimlardan iborat. Har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman joy nomlaridan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Til tuzilishida etnonimlarning ham muhim o'rni bor. Urug' va qabilalar ko'pgina xalqlar uchun allaqachon tugab ketgan. O'zbekiston etnotoponimiyasi to'g'risida esa bunday deb bo'lmaydi. Chunki bu yerda urug'chilik qoldiqlari yaqin vaqtgacha ham mavjud bo'lgan va har bir urug' yoki uning tarmoqlari yashagan qishloq o'sha urug' yoki shoxning nomi bilan atalgan. (Masalan, Qumqo'rg'on tumanidagi Qanjig'ali qishlog'ining nomlanishi bevosita shu urug' nomi bilan bog'liq: Qanjig'ali – O'zbek urug'laridan birining nomi. Qo'ng'irotlarning besh bo'limidan biri – qanjig'ali, u 14 urug'dan iborat. Xonjig'ali deb ham ataladi. Qanjig'ali – umumturkiy qipchoq etnonimi. Qanjig'alilar XIII-XVII asrlarda qipchoq konfederatsiyasiga kirgan. Ular Dashti Qipchoqning sharqiy qismida (Volganing sharqida) yashagan. Qipchoq ittifoqining bo'linib ketishidan so'ng turli turkiy xalqlar, jumladan O'zbeklarning turli qabilalari (yuz, xitoy, qipchoq, qo'ng'iroq, saroy) tarkibiga qo'shilib ketgan. Qoraqalpoqlarning o'rta juzida qanjo'g'ali urug'i qayd etilgan. Etnonimning tarkibi qan+jig'a+li. Qanxon, hukmdor, hokim. Jig'a-bosh kiyim ustiga taqilib, yuksak lavozim egasi ekanligini bildiruvchi belgi; bayroq, qadimda arava qora uy ustiga taqilgan tug, lattali nishon. Li-affiksi mavjudlikni bildirgan. Tumandagi Qarg'ali qishlog'i nomi ham urug' nomi bilan bog'liq: Qarg'ali – Qumqo'rg'on tumanidagi qishloq. Qishloqni nomlashda shu yerda yashovchi urug' nomi asos bo'lgan. Surxondaryo qo'ng'irotlarining qanjig'ali bo'limi qorag'ursoq urug'ining bir tarmog'i. Surxon vohasi juzlarining jilontamg'ali bo'limining qarg'a degan urug'i bor. Xorazm qo'ng'irotlari, Farg'ona vodiysidagi o'zbek urug'larida hamda G'arbiy Sibir turkiy xalqlarida qarg'a urug'i borligi aniqlangan. Qarg'a aslida totem, muqaddas hisoblangan jonzot (qush). Qarg'a qadimgi turklarda chiqayotgan quyoshning timsoli bo'lgan. Quyosh esa tonggi ko'k samo bilan birga Tangrini o'zida mujassam etgan. Burgutdek qanotini yozgan qizil qarg'a tasviri qadimgi turk shahzodasi Kulteginning tojida o'rnatilgan. VIII asrning ikkinchi yarmiga oid Tibet manbalarga ko'ra O'rta Osiyoda yashagan qabilalar orasida gar-rga-pur nomli qabila tilga olinadi. Bu so'z "Qarg'a o'g'li" degan ma'noni bildiradi. Sosoniylar sarkardasi Bahromning laqabi Cho'bin bo'lib, u ham qarg'a degan ma'noni bergan. Totem ifodalovchi so'z (qarg'a) etnonimga o'tish jarayonida -li affiksi qo'shilgan. Qishloq nomiga juzlarning urug'i nomi (qarg'ali) asos bo'lgan. Totemdan etnonim, undan oykonim vujudga kelgan.

Etnotoponimlarni respublikaning hamma joyida uchratish mumkin. Bir qator toponimlar bizning o'tmish ajdodlarimiz – turkiy qabilalar va urug'larning hozirgi O'zbekiston hududida qaysi o'rinlarda yashaganliklari, qaysi hududlar bo'ylab ko'chib yurishganini aniq ko'rsatib bera oladi. O'tgan asrning 20 - yillarida aholi ro'yxati natijasida O'zbekiston aholisining urug'-qabilalari to'g'risida mukammal materiallar to'plandi. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi. Qumqo'rg'on tumanidagi joy nomlari tarkibida etnonimlardan nom olgan etnotoponimlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Tuman hududidagi Arg'in, Achamayli, Qo'ng'iro't, Jaloyir, Tortuvli, Xidirsho, Batosh, Mo'nka, Qarg'ali, Qorag'ursoq, Harduri, Yuz, Baymoqli, Jaloyir, Arslonboyli, Qorabura, Bo'ston, Kamarki, Qarsoq, To'g'iz kabi joy nomlari urug'-qabila nomlari asosida paydo bo'lgan toponimlar hisoblanadi. Qumqo'rg'on tumanidagi Jaloyir, Baymoqli, Mo'nka, Qiyg'ochli, Ochamayli, Uyas, Mergan, Xalaki, Arslonboyli, Kamarki, Bo'ston, Qo'ng'iro't, Qoraqasmoq, Jaloyir, Qorag'ursoq, Qo'ldovli Qorabura, To'pqora, Qarg'ali, Kamarki, Chagoyoq kabi qishloq va ovullarning nomlari ham shu joyda o'tmishda nomi tilga olingan qabila va urug'lar istiqomat qilganligidan yoki hozirda yashab turganligidan dalolat beradi. Bu toponimlarning etimologiyasiga nazar tashlasak ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lamiz: Jaloyir – Qumqo'rg'on tumanidagi qishloq. Qadimgi Darzangi shahri yonida vujudga kelgan. Jaloyir - Eng qadimgi urug'lardan bo'lib, bu urug' haqidagi dastlabki ma'lumot Rashid ad – Dinning asarida uchraydi. Rashiddinning ma'lumotiga ko'ra, jaloyirlar ko'p sonli qabila bo'lib; jat, tukaraun, kunksaut, uyat, nilkan, kurkin, tulangit, turi, shankut urug'lariga bo'lingan. Ayrim tarixchilar jaloyirlarni mo'g'ul qabilasi sifatida qayd etishgan. Rashid-ad Dinning yozishicha, Chingizilarning davriga kelib ko'plab qabilalar o'zlarini mo'g'ul deb hisoblashgan, lekin ular o'tmishda turk bo'lib, mo'g'ul nomini pisand ham qilishmagan. Yetti suv va Markaziy Osiyoga 14 asrda kirib kelgan. O'zbek xalqining genetik tarkibiga kirgan qabilalardan biri. XIII –XIV asrlarda jaloyirlar asosan Ohangaron vodiysi va Xo'jandda o'rnashib olganlar. XIV asrda Xo'jand hokimi Boyazid Jaloyir bo'lgan. XIII asrlarda jaloyirlarning katta guruhi Iroq va Ozarbayjonga ko'chib o'tib, mustaqil Jaloyiriylar sulolasiga asos solgan. Amir Temur qaramog'idagi qirq aymoqdan 12 tasiga tamg'a berilgan bo'lib, bular xos navkarlar qatoriga kiritilgan. Ular orasida jaloyirlar ham bo'lgan. Amir Temur farmoni bilan jaloyir ulusidan To'q Temur va Sher Bahrom sakkizinchi va to'qqizinchi amir etib tayinlangan. Shayboniyxon va Ashtarxoniylar davrida ham, ular katta nufuzga ega edilar. XVIII –XIX asrlarda Turkistonda yashovchi jaloyirlar o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlari tarkibiga kirdi. O'zbek jaloyirlari ikki asosiy guruh – qaychili va bolg'ali urug'lariga hamda qarg'ali, boshqird, qorabdal, qorako'li, qorachopon, chuvuldoq, jastaban va shu singari mayda urug' bo'linmalaridan tashkil topgan. Barno Eshpo'latovning yozishicha Jaloyir so'zi "Vatanni tark aylaganlar" degan ma'noni anglatadi. Jaloyir etnonimi Jizzax viloyati Zomin tumanida, Samarqand Viloyati Kattaqo'rg'on tumanida, Toshkent, Buxoro vohalarida, Navoiy va Xorazmda uchraydi. Bunday misollarni Qumqo'rg'on tumani hududidagi toponimlar orasidan ko'plab keltirish

mumkin. Tuman hududidagi toponimlarning 3dan 1 qismini etnotoponimlar tashkil etadi. Etnonimlar tarix taqozosi bila vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashiydi. Etnonimlarni o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. O'zbek urug'larining nomlari (etnonimlar)ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan deb hisoblaganlar. Jilontamg'ali, oqbura, qorabura, qarg'ali kabi etnonimlar bunga misol bo'la oladi. Xuddi shunday qadimiy etnotoponimlar Qumqo'rg'on hududida ham ko'plab topiladi. Tuman hududidagi Baymoqli, Qorabura, Qarg'ali, Qiyg'ochli, Qorag'ursoq kabi qishloq nomlari qadimiy etnotoponimlarga kiradi: Baymoqli – Qumqo'rg'on tumanidagi mahalla nomi. Qo'ng'irotlar vixtamg'ali bo'limining 18 urug'idan biri. etnonim tamg'a asosida yaralgan. Baymoq-egri oyoq yoki oyoq kafti, maymoq. Dasht kemiruvchilaridan sug'urni qadimgi turkiy tilda baymoq deyishgan, chunki sug'urning oyoqlari ham maymoq bo'ladi. Sug'urning beso'naqay yirik turini ruslar baybak deyishadi. Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlarida Baymoqli qishloqlari bor. Tamg'aning uch qismi egik bo'lgan. Surxondaryoning Boysun va Jarqo'rg'on tumanlarida ham shu nomli qishloq mavjud. Boyboq-sug'urning bir turi. Urug'ning totemi va tug'idagi tasviri-sug'ur. Tumandagi Ochamayli toponimi ham etnotoponimlar sirasiga kiradi: Ochamayli – Qumqo'rg'on tumanidagi joy nomi. Ochamayli- etnonim. Ochamay+li o'zak va affiksdan tashkil topgan. Achamayli, achimayli, ochamayli shakllarida uchraydi. Samarqand viloyati Bulung'ur, Urgut tumanlari; Toshkentning Bekobod, Bo'ka tumanlarida Qashqadaryoning Kitob tumanida, Qoraqalpog'istonning Kegayli tumanlarida Ochamayli qishlog'i bor. Ochamayli-Qo'ng'irotlarning vixtamg'ali bo'limining bir urug'i. S. Qorayevning izohlashicha, ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay (achamay) deb atalgan. Achamayli "egarli", "tamg'asi egar shaklidagi urug'" deganidir. Toponimlar O'zbekiston hududida qadimdan yashab kelayotgan boshqa bir qator turkiy elatlar, qabilalar, xalqlar haqida ham xabar beradi: Turkmanovul, Turkmanariq, Qozoqli, Qozoqovul, Qirg'izlar, Tatarqishloq, Afg'onbog', Tojikqishloq, Tojikmahalla yoki bosqinchilik yo'li bilan kirib kelgan va keyinchalik o'zlashib ketgan xalqlar avlodlari Arabxona, Arabqishloq, Mo'g'ultepa, Mo'g'ulkent haqidagi daraklar ham o'z izini qoldirgan. Xususan Qumqo'rg'on tumani hududidagi joy nomlariga nazar tashlasak Bir qancha mahallalarda Tojikobod, tojikqishloq, Turkman qishloq, Arabqishloq nomli toponimlarga duch kelamiz. Etnonimlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, turli-tuman ijtimoiy-tarixiy, lingvistik omillar bilan bog'liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi. Har qanday etimologiya, xususan aksari qadimiy so'zlar bo'lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Turkiy urug' va qabilalar juda qadimiy davrlardan beri o'z boshidan murakkab shakllanish jarayonlarini kechirgan. Urug', qabila ma'lum miqdor odamlarning guruhi, to'pi, birlashuvi va uyushmasidan iborat bo'lgan. Ma'lum davrda bu

to'daga yangi qardosh va noqardosh urug'lar (etnoslar) qo'shilib turgan yoki qabila ma'lum bir shoxobcha, tarmoqlarga bo'linib ketgan. Mana shunday jarayonlar urug', qabila tarkibidagi komponentlarning soni miqdoriga ta'sir etgan. Mana shu xususiyat, belgi ba'zi hollarda urug', qabilani atash, nomlashga asos bo'lgan. Tobora unitilib borayotgan urug'-aymoq nomlarini to'plash, yig'ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar bilan toponimlar munosabatini aniqlash etnotoponimika oldida turgan vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

Toponimika.87-bet, Toshkent.2006 S.Qorayev
.S.Tursunov, Q.Eshboyev. Qumqo'rg'on tarixidan lavhalar.2019 Toshkent
T.Nafasov, V.Nafasova. O'zbekiston toponimlari izohli lug'ati. Toshkent
S.Qorayev O'zbekiston viloyatlari toponimlari.202 - bet

SAMARQAND SHAROITIDA O'SUVCHI SOYA O'SIMLIGI VA UNING BIOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kuvondikov Olim

Samarqand Davlat Universiteti

Annotatsiya; *O'zbekiston sharoitida soya yetishtirish va undan yuqori hosil olish texnologiyalarini ishlab chiqish maqsadida Samarqand viloyati sharoitida soya o'simligining dala va laboratoriya sharoitida unuvchanligi tekshirilib xulosalar yasalgan*

Kalit so'zlar; *soya, unuvchanlik. unish quvvati, urug'lar, texnologiya, islohot, qishloq xo'jaligi, mahsuldorlik, dala sharoiti.*

Ishlab chiqarish tarmoqlarini, chunonchi qishloq xo'jaligini isloh qilishni kuchaytirilishi, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini salmog'ini ko'paytira borib, ishloqlarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, chet el investitsiyalarini aynan qishloqlarga yo'naltirishni yo'lga qo'yilishi sohalarni modernizatsiya va deversifikasiya qilinishi, mamlakatimizda soyachilikni rivojlantirilishida qishloq xo'jalik ekinlari orasida soyaning ahamiyati juda yuqori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ -2832-sonli qarori soyachilikni tashkil etish hamda 2017 yil 24 iyuldagi PQ -3144-sonli qarori bilan to'ldirilishi, Respublikamizda soyachilikni tashkil etish va rivojlantirilishiga asos bo'ldi [1, 2].

Shu bois bu o'simlikka olim va tadqiqotchilarning e'tibori ortib bormoqda: har yili soyaning yangi navlari yaratilmoqda, turli genotiplarning bioekologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari o'rganilmoqda, soya navlari yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalari yaratilmoqda [3, 4].

Laboratoriya va dala tajribalarda soyaning o'sishi, rivojlanishi hamda fiziologik ko'rsatkichlari umumqabul qilingan uslublar yordamida o'rganildi.

Tajribalar Samarqand viloyati Payariq tumani tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Barcha tajribalarda variantlar to'rt qaytariqli qilib, paykallarning umumiy yuzasi 120 m², hisobga olinadigan yuzasi 60 m². Bahorda soya maydonlarga asosiy ekin sifatida urug'lari keng qatorlab, qator orasi 60 sm qilib ekildi.

Tajribalarda qo'llanilgan kaliyli o'g'itning 100% shudgorlashdan oldin solingan bo'lsa, fosforli o'g'it ikki muddatda – shudgorlashdan oldin (50%) va ekish bilan (50%) berildi. Azotli o'g'itlar uch muddatda berildi. Ekish bilan, g'unchalash boshlanganda va gullash fazalarida berildi.

Laboratoriya tadqiqotlarida soya urug'larining unish quvvati va unuvchanligiga haroratning ta'siri tadqiq qilindi. Urug'larning unish quvvati va unuvchanligini tadqiq qilishda urug'lar Petri kosachalariga namlangan filtr qog'ozi ustiga joylashtirildi va maxsus termostatda 10, 15, 20, 25, 30°C bo'lgan haroratlarda amalga oshirildi.

Laboratoriya sharoitida urug'larining unish quvvati va unuvchanligini aniqlash bilan birgalikda, dala sharoitida soya urug'larining dala unuvchanligi ham o'rganildi.

Tadqiqotlar davomida urug'larining laboratoriya va dala unuvchanligi, o'simliklarning o'sishi o'rganilgan.

Soya navlari urug'larining unuvchanligiga haroratning ta'siri

Qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishning eng zarur shartlaridan biri o'simlikning unuvchanligi yuqori bo'lgan urug'laridan foydalanish hisoblanadi. Soyaning urug'i uch qismdan iborat: urug' qobig'i, murtak va urug'palla. Urug'palla soya urug'ining asosiy qismini tashkil qilib, o'simtani deyarli ikki haftagacha oziq elementlari bilan ta'minlaydi.

Soyaning unib chiqishi urug'larining bo'kishidan boshlanadi: urug' og'irligining 50% gacha suvni shimib oladi [5, 16]. Ortiqcha namlik esa unuvchanlikni pasaytiradi (urug'ning nafas olishiga salbiy ta'sir qiladi) [7, 8].

Soya urug'larining unib chiqishi uchun minimal harorat 6-8⁰C atrofida bo'lishi kerak. Xona sharoitida optimal harorat 20-24⁰C bo'lganida, 2-3 kun ichida urug'lar 90-100% unib chiqadi. Tuproqda urug' unib chiqishi uchun zarur sharoitlar yetarli bo'lganida 5-7 kun davomida maysalar ko'rinadi. Dala sharoitida unuvchanligi yuqori bo'lib, 70-80% gacha yetadi. Urug'larining unuvchanligi laboratoriya sharoitida termostatda va dala sharoitida ishlov berilgan yerga bahorda soya donidan 100 tasini 3 karra takrorlikda qatorlab ekish orqali aniqlandi.

Tadqiqotlarimizda soya urug'ining unuvchanligini ham aniqladik va laboratoriya sharoitida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Labaratoriyada "Nafis" soya navi urug'ini 3 takrorlanish asosida 10C⁰, 15 C⁰, 20C⁰ 25C⁰, 30C⁰ haroratda undirib ko'rdik bunda 10C⁰ haroratda undirilgan urug'lar 1-takrorlanishda unuvchanlik 56% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 68% ekanligi aniqlandi va birinchi takrordan 12% ga ziyod unganligi isbotlandi. 3-takrorlanishda chigitlarning unuvchanligi 56% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 60% tashkil etdi.

Soyaning "Nafis" navi urug'ini 15C⁰ haroratda undirilgan urug'lar 1-takrorlanishda unuvchanlik 84% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 72% ekanligi aniqlandi. 3-takrorlanishda chigitlarning unuvchanligi 84% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 80% tashkil etdi.

"Nafis" soya navi urug'ining laboratoriya sharoitida unuvchanligi, %.(1-jadval)

Harorat, C ⁰	Takrorlar soni			O'rtacha
	1	2	3	
10	56	68	56	60,0
15	84	84	72	80,0
20	88	84	88	86,6
25	100	88	100	96,0

30	84	84	84	84,4
----	----	----	----	------

20C⁰ haroratda undirilgan urug'larning 1-takrorlanishida unuvchanlik 88% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 84% ekanligi aniqlandi. 3-takrorlanishda urug'larning unuvchanligi 88% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 86,66% tashkil etdi.

Urug'lar keyingi 25C⁰ haroratda undirilganda 1-takrorlanishida unuvchanlik 100% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 84% ekanligi aniqlandi. 3-takrorlanishda urug'larning unuvchanligi 88% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 86,66% tashkil etdi.

Urug'lar 30 C⁰ haroratda undirilganda unuvchanlik pasayganini kuzatish mumkin. Bunda barcha takrorlanishlarda urug'larning unuvchanligi 84% ni ko'rsatdi.

“Selekta-302” soya navi urug'ini 3 takrorlanish asosida laboratoriyada undirib ko'rdik bunda 10 C⁰ haroratda undirilgan urug'lar 1-takrorlanishda unuvchanlik 56% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 68% ekanligi aniqlandi va birinchi takrordan 12% ga ziyod unganligi isbotlandi. 3-takrorlanishda urug'larning unuvchanligi 56% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 64% tashkil etdi.

Laboratoriya sharoitida soya urug'larining unib chiqishi.

Soyaning “Selekta-302” navi urug'ini 15C⁰ haroratda undirilgan urug'lar 1-takrorlanishda unuvchanlik 72% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 84% ekanligi aniqlandi. 3-takrorlanishda urug'larning unuvchanligi 72 % ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 76% tashkil etdi. 2-jadval

20 C⁰ haroratda undirilgan urug'larning 1-takrorlanishida unuvchanlik 84% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 84% ekanligi aniqlandi. 3-takrorlanishda urug'larning unuvchanligi 88% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 85,33% tashkil etdi.

Urug'lar keyingi 25 C⁰ haroratda undirilganda 1-takrorlanishida unuvchanlik 100% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanlik 88% ekanligi aniqlandi. 3-takrorlanishda urug'larning unuvchanligi 92% ekanligi aniqlandi. O'rtacha hisoblaganimizda unuvchanlik 93,33% tashkil etdi.

“Selekta-302” soya navi urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi, %.(. 2-jadval)

Harorat, C ⁰	Takrorlar soni			O'rtacha
	1	2	3	
10	56	68	68	64,0
15	72	84	72	76,0
20	84	84	88	85,3
25	100	88	92	93,3
30	88	88	84	86,6

“Selekta-302” navi urug’lari laboratoriya sharoitida undirilganda unuvchanlik pasayganini kuzatdik. 1- takrorlanishida 88%, 2-takrorlanishda ham 88 %, 3-takrorlanishida 84% ni tashkil etdi.

Soya urug’larini biz 1-mayda ekdik. 5-maydan boshlab urug’lar unib chiqa boshladi. Soya urug’larning dala unuvchanligi 4 ta takrorlanish asosida aniqlandi.

Bunda birinchi takrorlanishda soyaning “Nafis” navi urug’larining unuvchanligi 95,5% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanligi 93,4% ekanligi aniqlandi va birinchi takrordan 2,1 % ga kam unganligi isbotlandi. 3-takrorlanishda urug’larning unuvchanligi 91,1% ekanligi aniqlandi va to’rtinchi takrorlanishda unuvchanligi 94,2% ekanligi aniqlandi va uchinchi takrordan 2,3% ga ziyod unganligi aniqlandi. O’rtacha hisoblaganimizda unuvchanligi 93,75% tashkil etdi. “Selekta-302” navida esa birinchi takrorlanishda urug’larning unuvchanligi 91,3% ekanligi aniqlandi va ikkinchi takrorlanishda unuvchanligi 93,2% ekanligi aniqlandi va birinchi takrordan 1,9 % ga ziyod unganligi isbotlandi. 3-takrorlanishda urug’larning unuvchanligi 92.2% ekanligi aniqlandi va to’rtinchi takrorlanishda unuvchanligi 91,2% ekanligi aniqlandi va uchinchi takrordan 1% ga kam unganligi aniqlandi. O’rtacha hisoblaganimizda unuvchanligi 91,9% tashkil etdi.

“Nafis” va “Selekta-302” soya navi urug’larning dala unuvchanligi.

Xulosa qilib aytganimizda umuman respublikamiz sharoitida yetishtirilgan urug’larning unuvchanligi yuqori bo’lib laboratoriya sharoitida “Nafis” navi laboratoriya unuvchanligi 96,0 %, dala unuvchanligi 93.75 bo’lishi aniqlandi. “Selekta-302” navida esa laboratoriya unuvchanligi 93,33 %, dala unuvchanligi esa 91,9 % bo’lishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ -2832-sonli qarori
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 iyuldagi PQ -3144-sonli qarori
3. Баранов В.Ф., Березовская С.М., Гринов, Давыденко О.Г., Дубовицкая Л.К., Затровних В.И, Качегура А.В. Квинто Д.А, Летуновский В.И., Смирнова Л.А., Тильба В.А., Устюжанин А.П. Агронимическая тетрадь. Технологии высокобелковой сои. Краснодар: Информ Лайн, 2005. - 107 с.5
4. Вавилов П.П., Посыпанов Г.С. Бобовые культуры и проблемы растительного белка. М., Россельхозиздат. 1983. –с 256.
5. Кучеренко Л.А. Влияние зоны выращивания сои на биохимический состав семян / Селекция и агротехнология сортов сои северного экотипа. Воронеж, 2006. –С. 52-56.
6. Kato M., Yorinori J.T., Paiva W.M. Jamaoka Y., Almeida M.R. Epidemiological studies of soybean rust in South America: host susceptibility and pathogenic races. //Comprehensive studies on the development of sustainable soybean production technology in South America. 2007 Tsukuba, JIRCAS. -P.35-46.
7. Egli D.B., Bruening W.P. Fruit development and reproductive survival in soybean: Position and age effects // Field crops research. -2006. vol. 98., no 2-3. -P.195-202.

8.Kitada S, Kishi H. Effect of sprind seedind and short-day treatment on harvest time and yields of soybean cultivar “Tanbaguro ” as green soybean in the north of Okayama prefecture. // Horticultural research (Japan). 2007.vol. 6.no 3. -P.465 – 469.

THE ROLE OF CABBAGE IN THE PREVENTION OF TUMOR DISEASES

Akhunjonova Hakima Abdumannabovna

Tillaboeva Surayo Zakirjonovna

Turgunbayev Fazliddin son of Avazbek

Ferghana Medical Institute of Public Health

Assistants of the Department of Nutrition, Child and Adolescent Hygiene

Ferghana Medical Institute of Public Health

Residents of the Department of Nutrition, Child and Adolescent Hygiene

Students of group 521 of medical prevention course

Summary: To date, chemical and very expensive drugs are used in the treatment and prevention of tumor diseases caused by anthropogenic, various radiations and harmful microorganisms. Although these chemical drugs are useful, they are harmful in some ways. Medicines made from natural plants are effective for the population, which are very beneficial for their health. After all, cruciferous vegetables are no less than superfoods, because they contain vitamins, minerals, antioxidants and sulfathaphane, genistein, melatonin, folic acid, indole-3-carbinol, carotenoids, vitamin C, vitamin E, and dietary fiber. The presence of vitamin K, omega-3 fatty acids shows it's main properties.

Keywords: *Prevention, anthropogenic, choline, folic acid, antioxidant, DNA.*

Annotatsiya. *Bugungi kunga kelib antropogen omillar, turli radiatsiya va zararli mikroorganizmlar tufayli kelib chiqayotgan va chiqishda davom etayogan o'sma kasalliklarini davolashda, profilaktika qilishda kimyoviy va qimmat dorilardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu, kimyoviy dorilar kasallikning qaysidir bosqichlarini davolashda foydali bo'lsa, ma'lum bir tarafdin zarar hisoblanadi. Aholi uchun uning salomatligiga foydali bo'lgan tabiiy o'simliklardan tayyorlangan dorilar samaralidir. Negaki, xochga mixlangan sabzavotlar hech qanday superfoodlardan kam emas, chunki ular tarkibida vitaminlar, minerallar, antioksidantlar va sulfatafan, genistein, melatonin, foliy kislotasi, indol-3-karbinol, karotenoidlar, S vitamini, E vitamini, shu qatorda oziq-ovqat tolalari mavjud. Vitamin K, omega-3 yog' kislotalari mavjudligi uning asosiy xususiyatlarini namoyon qiladi.*

Kalit so'zlar: *Profilaktika, antropogen, xolin, folat kislotasi, antioksidant, DNK.*

Аннотация. *На сегодняшний день в лечении и профилактике опухолевых заболеваний, вызванных антропогенными факторами, различными излучениями и вредоносными микроорганизмами, используются химические и дорогостоящие препараты. Эти химические препараты полезны при лечении некоторых стадий болезни, но в некоторых отношениях они вредны. Лекарства из натуральных растений эффективны для населения, полезны для его здоровья. Ведь овощи семейства крестоцветных – это не меньше, чем суперфуды, ведь они содержат витамины, минералы, антиоксиданты и сульфатафан, генистеин, мелатонин,*

фолиевую кислоту, индол-3-карбинол, каротиноиды, витамин С, витамин Е и пищевые волокна. Наличие витамина К, омега-3 жирных кислот проявляет его основные свойства.

Ключевые слова: *Профилактика, антропогенность, холин, фолиевая кислота, антиоксидант, ДНК.*

Today, the use of dried vegetables belonging to the natural cabbage family is very effective in preventing cancer, that is, tumor diseases. Cruciferous vegetables are relatively well-studied for cancer prevention. In laboratory studies, their compounds have good protective potential. Because, over the past two decades, the association between cruciferous vegetable consumption and the risk of various types of cancer has been widely studied, and researchers have mostly found an inverse relationship between the two. Numerous population-based studies have linked higher consumption of cruciferous vegetables and the risk of lung cancer, pancreatic cancer, colorectal cancer, renal cell carcinoma, ovarian cancer, stomach cancer, bladder cancer, and breast cancer. showed a strong correlation between A diet rich in cruciferous vegetables may help prevent certain types of cancer.[4]Now, natural chemicals found in some vegetables, such as broccoli, cauliflower, and cabbage, can boost DNA repair in cells, which can help stop them from becoming cancerous. That is, in these cabbages, there are many medicinal substances that stop the development of the cancer gene. Cauliflower contains vitamin C, glucosinolates, folic acid, etc., which act against tumor diseases.[5] A person who eats a normal amount of cauliflower can get 77% of the daily need for vitamin C, 20% of the daily need for vitamin K, 10% or more of the daily need for vitamin B6 and folate and fight cancer. Cauliflower is high in fiber and water. [6] Therefore, it helps prevent constipation, maintain a healthy digestive system, and reduce the risk of colon cancer, and dietary fiber also helps regulate the immune system and inflammation. The choline substance in cauliflower maintains the structure of cell membranes and prevents chronic inflammatory processes. As a result, it helps reduce the risk of inflammation-related conditions such as cardiovascular disease, diabetes, cancer, and obesity. Dried cauliflower contains one of the antioxidants, indole-3-carbinol, which mainly helps to restore cells affected by reproductive cancer. [7]

Mainly, cabbage products are very effective for fighting and treating breast cancer, colon and rectal cancer, which is seriously increasing now. Of course, when preparing such medicinal dishes from cabbage products, it is necessary to pay attention to proper cooking. One of the best ways is to eat such products as such, i.e. uncooked, the quality of the result is much more effective.[3]

REFERENCES:

1. Dr. Ben Kim "Feel Your Best Health"
2. Kendra J. Royston, B.S. and Trygve O. Tollefsbol - Epigenetic Effects of Cruciferous Vegetables on Cancer Prevention
3. Abdumannabovna A. K., Asadullaevna K. S. DISEASE WITH POSTCUID GASTRODUODENITIS AND THE ROLE OF DIET IN TREATMENT // EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. - 2022. - T. 2. – no. 3. - S. 52-55.
4. Abdumannabovna K. A. et al. The Role of Diet and Preventive Nutrition in Diabetes Type 2 //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. - 2022. - T. 3. – no. 2. - S. 324-328.
5. Makhamatov U.S., Khatamova U.B. EMERGENCY SITUATIONS RESPONSIBILITIES AND PREVENTION MEASURES //Mirovaya nauka. – 2018. – no. 12. - S. 33-36.
6. Khatamova U. B., Makhamatov U. S. VITAMINS AND HUMAN HEALTH //Mirovaya nauka. – 2018. – no. 12. - S. 83-85.
7. Makhamatov U. et al. NUTRITION OF YOUNG MOTHERS AND RECOMMENDATIONS //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. - 2022. - T. 2. – no. 6. - S. 160-162.
8. Parpieva Odinoxon Rakhmanovna //Nutrition and diet in breast cancer// Texas Journal of Medical Science. Vol. 7. 04-2022. 27-30 page.
9. O.Parpiyeva, A.Ostonaqulov //Psychology of patients with oncological diseases// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science 06 (74) 2019. Philadelphia, USA. 642-645 page.
10. Parpieva Odinoxon Rakhmanovna, Ostonaqulov Alijon Dadajon Ugli, (2021). //Modern Scientific Research In Oncological Diseases// The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 3(03) 2021, 117-121 page.
11. Parpieva Odinoxon Rakhmanovna, Ostonaqulov Alijon Dadajon Ugli, //Mental-emotional Disorders in Patients with Oncological Disiases// EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Volume: 7/ Issue: 4/ Aprel 2021. 232-235 page.
12. Odinoxon Raxmanovna Parpiyeva, Eleonora Topvoldievna Mirzajonova // The role of psycho-oncology in the treatment of cancer patients// Texas Journal of Medical Science. Vol. 9. 06-2022. 14-17 page.

EDUCATIONAL COMPARISON BETWEEN USA AND UZBEKISTAN

Sulaymonova Nilufar Dobilovna

Ismoilov Kozim Komiljonovich

Students of Samarkand State University

(Kattakurgan branch)

Annotation: *Education system-11 year education system which was mandatory for everyone, after that you could either go to university or work. But 6-7 years ago the government decided to switch to 11 year school system, which started loading like: This article provides information about the education system between Uzbekistan and USA.*

1.Primary school (1-4grades) 2.Middle school (4-9grades) 3.Lyceum/ college (9-11grades)

Key words: *education ,examination, grade, diploma, network, system, elementary school, middle school, high school, private school.*

There are five types of schools in the US education system. They are: kindergarten, elementary school, middle school, high school and private school. Children go to kindergarten when they are 5 years old. They go to elementary school from ages 6 through 11(1-5 grades),middle school from ages 12 through 14(6-8 grades) and high school from ages 15 through 19(9-12 grades).

Education in Uzbekistan Uzbekistan 11 years of education are compulsory and free, beginning with years at primary school, and followed by 2 phases of secondary education taking

5 and 2 years respectively. Primary school begins at age 6 and there is no specific leaving examination after the 4 years are complete. The next 5 years are spent at general secondary school from ages 10 to 15. Following that, there is a choice of between 2 to 3 years of upper education at either general or technical vocational schools. The former provides a certificate of completed secondary education and the opportunity to enter university, the latter a diploma of specialized secondary education, through a network of secondary vocational institutions.

Each criterion (question) has its own "weight", that is, information protection. This criterion is determined separately according to the specific characteristics of the organization. The review of the security level consists of 6 sections, in which the main factors are evaluated. The assessment is carried out using the following formula:

Protection Level = Max. Ric - (S. Ric / P. Ric), here Max. Ric is the maximum risk level, 3 is taken as the maximum level.

That is, the gradation of risks looks like this:

- Max. Ric < 1 – low level of threat;
- 1 < Max. Ric < 2 – medium level of threat;
- 2 < Max. Ric < 3 – high level of threat.

S. Ric is the relative value of risks and it is by the following formula is calculated: the criterion value * to its "weight".

P. Ric is the "weighted" sum of the grades.

Analyzing the current information security policy is current in the enterprise it is necessary to review and analyze the developed software. This analysis necessary to review a potential vulnerability in the software being used. See the list of programs used in the enterprise in Table 1. can:

Table 1. List of enterprise information systems and software

№	Systems and programs
1	ljro.gov.uz – inter-departmental executive discipline system
2	e-qaror.gov.uz – by local government authorities development, agreement and registration of decisions to be made single electronic system of transfer
3	e-hujjat – local electronic document exchange system
4	e-tahlil – sector activity control system
5	collective.uz – effective team management system
6	exat – e-mail protected
7	murojaat.fergana.uz – applications portal

All computers in the enterprise run Windows 10 x64. MMHT software package to transmit electronic documents, including confidential information includes.

Table 2. Comparison of enterprise software

Name of the software	Protection with a password	From the certificate use	Owning a WEB-interface	Secure connection channel availability	Confidential / private	Software for the organization
Eqaror.gov.uz	+	+	+	+	+	+
Ijro.gov.uz	+	-	+	-	+	-
Collective.uz	+	+	+-	-	-	-
Exat	+	+	+-	-	+	+
e-hujjat	+	-	-	-	-	+
e-tahlil	+	-	-	-	-	+
murojaat.ferghana.uz	+	-	+	-	-	-

In this regard, data transfer is a secure VPN-type connection through the channel. Authentication in a secure communication channel is carried out using an electronic certificate.

It should be noted that the standard MS Office package is not included in the list in Table 1. Authentication in systems using an electronic certificate PIN code is done using An antivirus is mandatory on every computer software is installed.

As you can see from the table above, 8 out of 5 software products very important for the work of the organization. In other words, if this software in the event that one of the products malfunctions or ceases to function to a significant extent, or can completely disrupt the work of the organization.

Using the interface comes with various risks of information that is expressed. + - is installed both on the WEB-interface and on the local network a software product that supports working in distributed form is defined. Electronic certificates - software for working with electronic documents used in products. Certificate authentication is one-phase, i.e. password (PIN code). In the reviewed aspects of the current state of information security policy to make the following conclusion, taking into account the sum of identified shortcomings possible: currently the enterprise has a vulnerability in the form of internal threats and is current it is necessary to improve the information security policy. In this way, the task of developing an information security policy is correct should be formed.

CONCLUSION

The current state of industrial enterprises related to the provision of information security of economic resources is analyzed. The current policy of economic resources of information security of industrial enterprises, the journal in which all important comments are entered, and means of protection (software and engineering tools) were considered. The purpose of this analysis is to disclose or leak confidential information in order to identify shortcomings and weaknesses that may lead to a result. In addition to the review

and analysis of the current situation in the field of economic resources of information security, any laws that may lead to data leakage have been corrected, as well as explanations and instructions for elimination have been given. To summarize, review the developed and analyzed current information security policy and identified weaknesses. Information security defines the task of policy development.

REFERENCES

1. F.W. Taylor Principles of scientific management/ F.W. Taylor // Controlling. - M. - 1991. - 184 p.
2. J. Stacy Adams «Inequity in Social Exchanges» in Berkowitz, ed. Advances in Experiential Social Psychology. NY: Academic Press, 1965, pp. 267-300.
3. Walter B. Newsome. Motivate, Now, 1992. - P. 458.
4. A.M. Yugay Economic relations and motivation for the development of innovative technologies in agriculture (theory and practice) / A.M. Yugay. – M.: MSHA, 2002. - 582 p.
5. B. X. Muradov. Improvement of organizational and economic mechanisms for the development of coal industry enterprises in a strategic approach. «Industrial Economics and management: problems and solutions»./The on topic of II-collection of materials of international scientific-practical conference. International scientific-practical conference is a collection of articles and abstracts. Department of «Industrial Economics and management of the faculty" engineering technologies». TSTU named after Islam Karimov. T.: 2022. 22.05.144-147 p.
6. B. X. Muradov. Public-private partnership to ensure the current economic stability of the coal industry in educational institutions in the energy sector. «Industrial Economics and management: problems and solutions»./ The on topic of II-collection of materials of international scientific-practical conference. International scientific-practical conference is a collection of articles and abstracts. Department of «Industrial Economics and management of the faculty» engineering technologies".TSTU named after Islam Karimov. T.: 2022. 22.05.141-144 p.
7. Б. Х. Мурадов Энергия ишлаб чиқаришда кўмир саноати корхоналарини ривожлантиришнинг замонавий ҳолати ва уларга таъсир этувчи омиллар./ «Иновацион техника ва технологияларнинг қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат тармоғидаги муаммо ва истиқболлари»./ II-Халқаро анжуман илмий ишлар тўплами. - Тошкент. ТошДТУ, 2022. 22-23 апрель Тошкент. 484-498 вароклар
8. B. X. Muradov. The modern state of development of Kumor industrial enterprises and the factors influencing them./ "The role and significance of digital life and Social Sciences in the upbringing of a harmonious generation: current issues and prospects."./ International scientific and practical conference collection of scientific articles and theses. III-IV-subsiary. Andijan AndMI, 2022. April 12. 2022 Andijan. 292-296 sheets. 5 b.

9. B. X. Muradov. Features of the development of organizational economic mechanisms of modern industrial enterprises.// "The role and significance of digital life and Social Sciences in the upbringing of a harmonious generation: current issues and prospects".// International scientific and practical conference collection of scientific articles and theses. III-IV-subsiary. Andijan AndMI, 2022. April 12. 2022 Andijan. 296-300 sheets. 5 b.

**ТОЛА ХОСИЛ ҚИЛУВЧИ МИНЕРАЛЛАР, БАЗАЛЪТ, ШИША ВА БОШҚА
НООРГАНИК ТОЛАЛАР АСОСИДА ОЛИНГАН ШИФЕРНИНГ СОЛИШТИРМА
КЎРСАТГИЧЛАРИ**

И.Х.Турдибоев

*ФарПИ “кимё ва кимё технологияси”
кафедраси ассистенти.*

Аннотация: *Мақолада том ёпқи махсулотлари шифер таркибидаги концентрат асбестни ўрнига, махалий хом-ашёлардан олинган ноорганик минерал тодаларни ишлашиш билан экологик зарарсиз шифер олиш усули ёритилган.*

Аннотация: *В статье приведено пути получения кровельное материал-шифера на основе неорганического минерального ваты из местного сырьё замена концентрат асбеста.*

Annotation: *This article introduces the methods of getting dew clay-slates on the base of inorganic mineral fibre, instead of toxic asbestos*

Калит сўзлар: *Шифер, асбест, минерал тола, базальт, шиша толаси. цемент, технология.*

Ключевые слова: *Шифер, асбест, минеральное, базальтовое, стекловое волокон, цемент, технология.*

Keys words: and expressions: *slate, asbestos, mineral fibre, kess – fibre, cement, technology*

Қурилиш хажмининг ортанлиги сабабли шиферга бўлган талаб йилдан-йилга ортиб бормоқда. Шифер СНГ давлатларида, Хитойда, Яқин Шарқ давлатларида, Хиндистонда, Тайландда том ёпқи материали сифатида ишлатилмоқда. Шу сабабдан тўлқинсимон том ёпқи махсулотларини шифер деб аталиб, азбестли шифер, азбестсиз-еврошифер, тўлқинсимон битумли листлар, металошиферлар номларига эга бўлган том ёпқилар ишлатилмоқда. [1-3].

Шифер ишлаб чиқариш технологиясининг ўхшашлиги ва олинаётган махсулотнинг ўхшашлиги жихатидан Россия ТУ 5781-016-00281594-2007 миёри хужжатлар асосида тайёрланаётган шифер олиш усулидир. Бу усулда азбестни махсус майдалагич ва титувчи қурилмада, титилган тола холатига келтирилиб сўнгра шифер олишда таркибида $(12,5 \pm 0,5)$ оғирлик миқдорида азбест, $(87,5 \pm 0,5)$ оғирлик миқдорида цемент кукунини солиниб сув билан $(50 \div 70)^\circ\text{C}$ да 1-2 соат даъвомида аралаштирилиб текис-лента холатига келтирилиб, сўнгра тўлқинсимон формага-шифер холатига келтирилади ва 4-6 соат даъвомида $(70 \div 85)^\circ\text{C}$ хароратда иссиқликда қиздириш йўли билан олинади

Шифернинг узунлиги 1750 мм.; эни 1130 мм., қалинлиги 6÷8 мм.

Оғирлиги 24÷26 кг., 1та шифернинг юза хажми 1,98 кв.м.

1. Эзилишдаги мустахкамлиги, МПа - 160 (кгс/см³), дан кам эмас.
2. Солиштира оғирлиги (зичлиги) г/см³ – 1,60 г/см³ дан кам эмас.
3. Урганда мустахкамлиги, кДж/м² - 1,5 (кгс.см/см² дан кам эмас.
4. Сув ўтказмаслиги, соат – 24 соатдан кам эмас.
5. Сувда бўкиши-(набухаемость),% - 20% дан кўп эмас.

Юқоридагилардан келиб чиқиб Ўзбекистон Республикасида экологик муҳитни яхшилаш мақсадида азбестнинг ўрнига минерал, базальт, шиша ва бошқа маҳаллий хом ашёлардан олинган минерал толаларни олишни ташкил қилиб том ёпқи маҳсулотларин ва композицион маҳсулотлар: арматуралар, черепицалар, газли бетонлар, иссиқ-совуқдан химояловчи ўрама-тўшаклар, ер ости иншоотларида, электрдан химояловчи воситалар ишлаб чиқариш долзарб ва кечиктириб бўлмайдиган масалалардан бири деб биламиз.

Асбест ўрнига, минерал тола, базальт толаси, шиша толаси ва бошқа ноорганик толалар аралашмаларидан қуйидаги % оғирлик нисбатларда қўшиш йўли билан шифер олинади:

Минерал, базальт, шиша ва бошқа ноорганик толалар аралашмалари 100-80%

Хиризатил толаси 0-20 %

1-жадвал

Минерал, базальт, шиша ва бошқа ноорганик толалар асосида олинган шифернинг солиштира кўрсаткичлари

Кўрсаткичлар номи	Прототип Азбестли 6÷8мм	Базальтли шифер олинган усуллари (қалинлиги 6,0÷7,0 мм.)		
		1	2	3
Хиризатил толаси,% оғирлик миқдорида	100	20	10	0
Минерал, базальт, шиша ва бошқа ноорганик толалар ёки уларнинг аралашма лари, % оғирлик миқдори	-----	80	90	100
Штамповка-эзилишдаги оғирлик кН (кгс), кам эмас	1,5 (150)	158	165	171
Эгилишдаги мустахкамлиги, МПа (кгс/см ²), кам эмас	1,6 (160)	178	171	175
Урганда мустахкамлиги, кДж/м ² , дан кам эмас	1,5(150)	169	164	177
Сувда бўкиши	20	12	10	6

.	(набухаемость) эмас	% дан кўп				
---	------------------------	-----------	--	--	--	--

2-жадвал

Азбест асосида ишлаб чиқарилган шифернинг ўртача тан нархи

	Н о м л а р и	Ўлчов бирлиглари	Нархлар сўм хисобида
.	Цемент	17,5 кг.	9000
.	Хиризотил азбести (қўшимча қийматисиз)	2,5 кг.	10000
.	Қўшимча қиймат солиғи	20% бўлса	2000
.	Бошқа харажатлар	30%	5000
.	Бир дона шифернинг тан нархи, жами		26000

3-жадвал

Минерал, базальт, шиша ва бошқа ноорганик толалари асосида ишлаб чиқарилган шифернинг ўртача нархи

	Н о м л а р и	Ўлчов бирлиглари	Нархлар сўм хисобида
.	Цемент	17,5 кг.	9000
.	Базальт	2,5 кг.	7000
.	Бошқа харажатлар	30%	5000
.	Бир дона шифернинг тан нархи		21000

Энг асосийси бу минералларнинг захиралари бутун Ўзбекистон Республикасиз ҳудудида жумладан Жиззақ вилоятида, Фарғона вилоятининг Шўр-сув, Чимён худудлари жуда кўплаб конлари мавжуддир. Бу конларни қазиб олиш, қайта ишлаб минерал толалар ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқарилган толалар асосида том ёпқи махсулотларини янги технологик ускуналарда ишлаб чиқариш долзарб вазифалардан биридир.

АДАБИЁТЛАР:

1. А.Г. Комар, Строительные материалы и изделия, Москва, 2008.
2. Е.А.Гудкова, “Экологическая опасность хризотил-асбеста как функция физико-химических свойств поверхности его волокон”, Автореферат-03.00.16.-Экология, к.х.н., М., 2008.
3. Турдибоев И. Х. У. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВА КРОВЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 8 (86). – С. 50-52.
4. CARCINOGENIC M. B. F. I. O. F. МИНЕРАЛО-БАЗАЛЬТОВЫЕ ВОЛОКНА ВЗАМЕН КОНЦЕРОГЕННЫХ АСБЕСТСОДЕРЖАЩИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ //Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии. – 2022. – С. 30.
5. Turdiboyev I. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФЕНОЛФОРМАЛЬДЕГИДНО-ФУРАНОВЫХ СВЯЗЫВАЮЩИХ В ЛИТЕЙНОМ ПРОИЗВОДСТВЕ //Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии. – 2020. – С. 48.
6. Турдибоев И. Х. У., Ахмаджонов Л. Х. У. МИНЕРАЛО-БАЗАЛЬТОВЫЕ ВОЛОКНА ВЗАМЕН КОНЦЕРОГЕННЫХ АСБЕСТСОДЕРЖАЩИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 1-3 (94). – С. 30-33.
7. Мирзаев Д. М., Турдибоев И. Х. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ЧИСТЫХ ПЕСТИЦИДОВ //The Scientific Heritage. – 2021. – №. 64-2. – С. 20-22.
8. Турдибоев И. Х. У. Использование фенолформальдегидно-фурановых связывающих в литейном производстве //Universum: технические науки. – 2020. – №. 7-3 (76). – С. 48-52.
9. Хамракулова М. Х. и др. Оптимизация процесса отбелки соевого масла //Universum: технические науки. – 2019. – №. 10-1 (67).
10. Ахмадалиев М. А., Асқаров И. Р., Турдибоев И. Х. У. МИНЕРАЛО-БАЗАЛЬТОВЫЕ ВОЛОКНА ВЗАМЕН КОНЦЕРОГЕННЫХ АСБЕСОСОДЕРЖАЩИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-2 (89). – С. 17-20.
11. Матякубов Р. и др. Синтез исследование свойств ацеталей и кеталей фуранового ряда //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-4. – С. 54-57.
12. Турдибоев И.Х., Ахмаджонов Л.Х. МИНЕРАЛО-БАЗАЛЬТОВЫЕ ВОЛОКНА ВЗАМЕН КОНЦЕРОГЕННЫХ АСБЕСТСОДЕРЖАЩИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 1(94). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12977> (дата обращения: 25.01.2022).
13. Тожибоев М. М. и др. Методы снижения слёживаемости аммиачной селитры //Universum: технические науки. – 2020. – №. 1 (70).

14. Хошимов И. Э., Сайдазимов М. С. ПРОИЗВОДСТВО СУЛЬФИДА НАТРИЯ ИЗ МЕСТНОГО СЫРЬЯ //The Scientific Heritage. – 2021. – №. 80-3. – С. 31-34.

15. Сайдазимов М. С. ИЗУЧИТЬ СВОЙСТВА ЭМУЛЬГАТОРОВ И ДИСПЕРГАТОРОВ (ПМС-К), ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ДЛЯ КРАСОК НА ВОДНОЙ ОСНОВЕ //The Scientific Heritage. – 2021. – №. 80-2. – С. 56-59.

16. Сайдазимов М. С., Хайдаров А. А., Абсарова Д. К. СПОСОБЫ ПОЛУЧЕНИЯ АНИОННЫХ ПОВЕРХНОСТНО-АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ ИЗ НЕИОНОГЕННЫХ //Universum: технические науки. – 2020. – №. 12-4 (81).

17. Хошимов И. Э., Сайдазимов М. С. ПРОИЗВОДСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ ПОВЕРХНОСТНО АКТИВНОГО ВЕЩЕСТВА С АМФОТЕРНЫМ СВОЙТЦВОМ //The Scientific Heritage. – 2020. – №. 55-2. – С. 3-7.

18. Кадирова Н. Б. и др. КОЛЛОИДНО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПРОИЗВОДИМЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ //Harvard Educational and Scientific Review. - 2022. - Т. 2. - №– 1.

FAN VA ILMIY TADQIQOTNING GLOBALLASHUVI

Musayev O

Ilmiy rahbar:

Qo'chqorov Jahongir Axrorovich

O'zMU 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Jahonning yetakchi mamlakatlari singari mamlakatimizda ham ta'lim tizimini isloh etishga birinchi galdagi vazifa sifatida qaralmoqda. Buning boisi , hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim har qanday sohaning strategic istiqbolini belgilaydigan, islohotlarni harakatga keltiradigan tayanch omilga aylandi. Ushbu maqolani o'qish orqali siz mana shunday globallashuv bilan chuqurroq tanishib chiqishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *ilmiy tadqiqot, globallashuv, fan, metod, ijtimoiy ong , transformatsiya, internet tarmog'i, globalizatsiya, demokratlashtirish.*

Bilimlar taraqqiyoti kelajakda qanday boladi? Globallashuv jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday tasir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global ozgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funktsiyalaridagi – transformatsiya jarayonlari, yani chuqur, yangi sifatiiy ozgarishlar bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internatsional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida koramiz. Bu jarayon ikki yonalishda rivojlanayotganligi takidlanmoqda. Bulardan birinchisi, fanning notijorat globallashuv yonalishi bolib, unda olimlar va turli oquv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar, ozaro bilim almashish sodir boladi. Ikkinchisi tijorat yonalishidagi fandagi globallashuv hisoblanadi. Bu yonalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi on yillarda dadil osib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yonalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bolib, uning omillari bolib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi; halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy faoliyat kolamining osishi; aloqa vositalari, shuningdek global "INTERNET" tarmogining rivojlanishi, urning maxsus suniy yoldoshlarining uchirilishi hizmat qiladi. Tijorat yonalishidagi fan globallashuvida transmilliy korporatsiyalar va davlatlar chet eldagi ilmiy ishlanmalarni moliyalaydi. va bu holat bugungi kunda osib bormoqda.

Shuni ham aytib otish kerakki, bunday fandagi globallashuv jarayonlari ijobiiy tomonlari bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ya'ni xalqaro alyanslarning faoliyatida faqatgina iqtisodiy maqsadlarni kozlab, ilmiy tadqiqotlarni olib borish keng tus oladi, bu esa fundamental bilimlar taraqqiyotini susaytiradi. SHuningdek, halqaro alyanslar mahaliy ilmiy xodimlar ortasidagi qonimsizlik, ilmiy salohiyatning pasayishi, axborotlarning qoldan boy berilishi kabi oqibatlariga olib kelishi mumkin. SHunga qaramasdan, fandagi globallashuv ham obyektiv jarayon bolib, uning salbiy tomonlarini bartaraf etish uchun ilm - fan va har bir davlat ortasida mustahkam hamkorlik talab

etiladi. Demak, aytish mumkinki, globalashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga oz tasirini otkazuvchi jarayondir. Global jarayonlar insoniyat oldidagi global muammolarni global – evolyutsionizm, sinergetik paradigmaga asoslangan fanni yanada rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni innovatsion ishlab chiqarishga joriy etish asosidagina hal qilish mumkinligini korsatmoqda.

Zamonaviy globallashuv postnoklassik fanning mazmuni, funktsiya, strukturasi, obyektiga tasir etdi. Murakkab, oz-ozini tashkil etadigan, sinergetik xarakterga ega bolgan tizimlar zamonaviy jahon fanning obyektiga aylandi. Fanda integratsiya, differentsiatsiya, globallashuv jarayonlari kuchaydi. Fanning borgan sari qadriyatlar bilan uzviy holda rivojlanishi, uning gumanizatsiyalashuvi, uning ekologik muvozanatni saqlashdagi roli ortdi. SHuningdek, globallashuv paradigmasida “moddiy” resurslar emas, “nomoddiy” resurslar, yani bilim, nou-xau, axborot tizimi va patentlarni, ilmiy axborotni boshqarish ahamiyatli bolib borayotganligi sababli kelgusida ham jamiyat taraqqiyoti fan, bilimlar bilan uzviy bogliqlikda rivojlanishi etirof etilmoqda. Ayniqsa, jamiyatning kelajagi asosan, genetika, materialshunoslik, energetika, suniy intellekt, inson miyasini organish, bilimlar dinamikasi, bilimlarni boshqarish, globallashuv davrida qanday bilimlarni translyatsiya qilish, ekologiya sohalaridagi yutuqlarning amaliyotga qollanish darajasiga bogliq boladi. Natijada olimlarning halqaro ilmiy hamkorligiga talab yanada kuchayadi.

Shu bois, globallashuv davrida ilmiy bilim va fan taraqqiyotining hal qiluvchi ahamiyati har bir davlat doirasida ilmiy siyosat tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan va Yevropa hamkorligiga azo davlatlar va Ozbekiston ilmiy siyosatiining asosini butun dunyo ilmiy imkoniyat va salohiyatini integratsiya qilish tashkil etadi. CHunki globallashuv davrida yuzaga kelgan global muammolar faqatgina butun jahon olimlarining birgalikdagi ilmiy izlanishlari natijasidagina oz echimini topishi mumkin. Bu oz navbatida ilm-fanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. “Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlantirish salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga ozini jamiyatga daxldor deb hisoblash imkonini beradigan obro emas, balki yashovchanlik va iqtisodiy taminot, pirovardida siysiy mustaqillik omiliga aylanadi”. Malumki globallashuvning fundamental omillaridan biri axborotlashuv jarayonlari hisoblanadi. SHu bois globallashuv davrida fanning, madaniyat sohasida ham axborotlashuv jarayonlari sodir boladi va bu oz navbatida fanning ham axbortlashuvini talab etadi. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bolgani singari, globallashuv jarayonlari ham bundan mustasno emas. Uning keng qamrovli va goyat otkir tasiri natijasida u mafkuraviy tasir otkazishning quroliga ham aylanib bormoqda. Prezidentimiz takidlaganidek “bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham koproq kuchga ega.”. Bunday vaziyat odamning oz mustaqil fikriga, bilimga, keng dunyoqarash va boy manaviyatga ega bolishini talab etadi. Biz istiqbolimizni marifatli dunyo, rivojlangan mamlakat qurmoqchi ekanmiz, xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz manaviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerakligi muhimdir. Buning uchun mamlakatimizda fan va bilimlarni

translyatsiya qilish vositasi bolgan talim tizimini jahon fani va talim tizimi bilan integratsiyasini taminlash, globallashuv davrida sodir bolayotgan fan va talimdagi global tendentsiyalarni falsafiy-metodologik tahlil qilish ozbekiston olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli buni qilmasdan amalga oshirib bolmaydi. Ijtimoiy subyektlarning faol faoliyatining zamirida bilim yotadi. Talim shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor ijtimoiy taraqqiyot sohasi deb etirof etilgan. Talim bu tizimlashgan bilim, mahorat, va malakalarni shaxs tomonidan ozlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanar edi. Bugungi kunda talim ijtimoiy institut sifatida tsivilizatsiyaviy (iqtisodiy, gumanitar, madaniy) funktsiyani bajaradi va insoniyat toplagan ilmiy bilimlarni, malaka, konikmalarni ozlashtirish va ijodiy shaxsni tarbiyalashi lozim. Malumki bilimlarni uzatishning sinxron (kommunikatsiya) va diaxron (talim) turlari farqlanadi. Talim tizimi bilimlarni diaxron uzatish turi bolib, eng avvalo bilimlarni avlodlardan avlodga uzatish vositasi hisoblanadi. Talim tizimi insonni savodxonlik-talim-kasbiy malaka-madaniyat-mentalitet bilan taminlaydi.

Buni falsafiy izohlaydigan bolsak, jamiyat murakkab tizim sifatida yangilanar ekan, ozi – ozi tashkil etuvchi tizimning asosiy omili-inson ham yangi muhitga moslashishi, uning talablariga javob berishi uchun majburiy funktsiyalarni bajara olishi lozim. Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olish usullari va bilimni uzatish vositalari ozgarib boradi. Adabiyotlarda talimning mifologik, sxolastik, dunyoviy va zamonaviy turlari farqlanadi. Mifologik talim turi ertak, mif va qoshiqlar asosida olib borilgan. Sxolastik talimda matnlarni organish, ritorika, gramatika, inson mohiyatini anglashga qaratilgan. Dunyoviy talim turi XX asr boshlarida vujudga keldi. Zamonaviy talim insonda nafaqat bilim, balki sifatli bilim va talim, manaviy qadriyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, bilim olishning agrar, industrial, axborot jamiyatidagi hisoblash texnikasini qollashga asoslangan bilim olish turlarini tasniflash mumkin. Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblangan va u asosida mehnatga oid samarali hatti-harakatlar va tabiiy resurslarning oshishi ta'minlangan. Industrial rivojlanish usulida esa kuzatuv, eksperiment, nazariyalar bilim manbai edi. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qollashga asoslanadi. Har bir fan taraqqiyotining malum davrida yangi talim paradigmasi vujudga keladi. Masalan, klassik fanda talim insonning hayot va mehnatga zarur bolgan bilim, malaka, konikmalarni ozlashtirish jarayoni va natijasi sifatida etirof etilgan edi. Bu davrda talim klassik ratsionalizmga asoslangan bolib, talim natijasida shaxsda mexanistik va deteterministik olam manzarasi shakllanar edi. Talim jarayonida bilimlar va muammolarni echish usullari togriidan - togri uzatilar edi. Murakkab tizimlarni organish, ozi – ozi tashkil etuvchi, ozi – ozi rivojlantiruvchi tabiatni organishga otilishi tizimlarning yopiqligi togriidagi mexanistik tasavvurlarning radikal transformatsiyasiga olib keldi. Postklassik fanning vujudga kelishi natijasida talim tizimida ham modernizatsiya jarayonlari yuz bermoqda.

Talimdagi modernizatsiya jarayonlari serqirra jarayondir. U taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga otayotgan mamlakatimiz ijtimoiy ozgarishlarning tarkibiy qismi,

mustabid tuzum mafkuraviy asoratlardan xalos bolish jarayoni hamdir. SHu sababli XXI asrda jahon hamjamiyati talim roli va ahamiyatini qayta korib chiqa boshladi. Dastlab talimni isloh qilish ilmiy texnik inqilobning “ijtimoiy natijalari”dan biri sifatida korila boshlandi. Ammo keyinchalik talim iqtisodiy va ilmiy –texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili va muhim sharti jamiyat ijtimoiy tuzilmalarini shakllantirishning, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi sifatida tan olindi. Prezidentimiz takidlaganlaridek, talim-tarbiya tizimidagi islohotlarni «muvafaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy manodagi «portlash effekti»ga, yani yangi talim modelining kuchli samarasiga erishamiz ...». Respublikamizda ham talimni modernizatsiya qilish maqsadida “Talim togrisidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” qabul qilindi va ular asosida taalim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “Ozbekiston XXI asr bosagasida: Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqqiyot kafolatlari” asarida inson salohiyatini eng faol, eng bunyodkor, mamlakatimizdagi islohot va tub ozgarishlarning muvafaqiyatini taminlovchi muhim omil sifatida etirof etgan edi.

Bilimlardagi transformatsiya jarayonlariga ijtimoiy-madaniy omillar katta tasir etadi. Buni islohotlar natijasida respublikamiz fani va talim tizimidagi ozgarishlarda korishimiz mumkin. Mustaqillikka qadar Ozbekiston talim tizimi qatiy markazlashtirilgan dasturlar, darsliklar, oqitish uslublari asosida faoliyat olib borar edi. Talim jarayoni bilim darajasi ortacha bolganlarga moljallangan bolib, qobiliyatli va istedodli bolalar uchun moljallangan individual talim dasturlari boyicha oqitish mexanizmlaridan etarlicha foydalanilmas CHunki bunday tafakkur uslubi tizimda boladigan beqarorlik va xaotik holatlarni inkor etadi. Vaholanki bilim ilmiy ijod mahsuli bolib, u ozida ratsional va irratsional holatlarni mujassam etadi. Talim jarayoni asosan monoloka asoslangan edi. Talimdagi chiziqli tafakkurning ustunligi postnoklassik fan asoslariga muvofiq kelmay qoldi. Natijada bilimlarni uzatish jarayoni, bilimlarni generatsiya qilish samaradorligi, bilish subyektlari ijodkorligining susayishiga sodir boldi. Bu talim falsafasida “talimning inqirozi” sifatida baholandi.

1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilgan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, “Talim togrisidagi” Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo`ydi. “Hozirda respublikamiz aholisining yalpi savodxonlik muammosi tola hal qilingan. Zero, aholining savodxonligi 1991 yildagi 97,7 % dan 2003 yilda 99,3% ga etdi. Orta maxsus, kasb- hunar yoki oliy malumotga ega katta yoshli aholi hissasi 75% dan oshadi. Boshlangich va orta talim darajasida qamrab olingan qiz va ogil bolalar soni orasida amalda farq yoq.” SHuningdek, Ozbekiston umumiy boshlangich talimni taminlab, global Mingyillik Rivojlanish Maqsadlaridan birini muvaffaqiyat bilan royobga chiqarganini qayd etish lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq nisbatan qisqa davr ichida orta kasb- hunar oquv yurtlarining yangi tiplari tarmogi yaratildi, talim dasturlarining rangbarangligini taminlashga, talim tizimini moliyalashtirish kop tomonlama bolishiga erishildi. 2004 yil may oyida Prezident Farmoni bilan maktablar moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va uzluksiz talimning yagona yaxlit tizimini shakllantirish bilan bogliq maktab talimini rivojlantirishning

davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning kop asrlik tarixga ega bolgan manaviy- intellektual merosini organish imkoniyati yaratildi. Mamlakatimiz talim tizimida jahon talim tizimining ilgor tajribasini qollash, talimni axborotlashtirish, gumanizatsiyalashtirish, elektron darsliklar bilan taminlash, masofaviy talimni rivojlantirish keng kolamda olib borilmoqda.

Respublikamizda aalga oshirilayotgan talim sohasidagi islohotlar xalq manaviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajak avlodga etkazish, umuminsoniy merosdan bahramand bolish, global ozgarishlar sodir bolayotgan jamiyatda faol, manaviy etuk insonlarni shakllantirishning asosidir.

Talim tizimining ijtimoiy taraqqiyotdagi, jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli mutaxassislar tomonidan keng yoritilmoqda. Masalan, Fukuyama ozining “Velikiy razriv” asarida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy kapitalning asosiy manbalaridan biri- ijtimoiy qadriyat sifatida taminlanadigan-talim tizimidir”-deb yozadi. Subetto esa jamiyat progressiv evolyutsiyasining assosiy omili “tizim intellektining” sifati, moslashuvchanligi, kelajakni yaratuvchanligi va kelajakni boshqara olish qobiliyatlarining osishida deb takidlaydi. Uning fikricha, har qanday progressiv evolyutsiya doirasida bu qonun amal qiladi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot, umumjahon tarixiy qonuniyati ijtimoiy intellekt bilan bogliq. bolib, olim fikriga kora u quyidagi funktsiyalarni bajaradi: ijod, loyihalashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, dasturlash. Olim XX va XXI asrda insoniyatning Ulkan Portlash davriga qadam qoyganligini, bu davr noosfera evolyutsiyasidagi sakrash bolib, bu jamiyat intellekt va talim jamiyati asosida boshqarilishini etirof etadi. Olim ijtimoiy intellekning substantsiyasi bilim, talim esa – ijtimoiy va individual intellektni qayta ishlab chiqarishning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi. Ammo bu jarayonlarning amalga oshishi uchun talim tizimini intellektuallashtirish lozimligini takidlaydi. Zamonaviy talimni modernizatsiya qilish butun XXI asrni oz ichiga olishini va talimni fundamentallashtirish, noosferizatsiyalash, gumanizatsiyalashtirish, kreativlashtirish, intellektuallashtirish, axborotlashtirish, talim va tadqiqot jarayonlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi kundagi modernizatsiya jarayonlari davrida talimni modernizatsiya qilish jamiyatdagi integrativ mexanizm bolib, modernizatsiya jarayonlarining kuchaytirishga olib keladi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan talimni rivojlantirish, uni tubdan qayta ozgartirishda aniq yonalishlar belgilandi. Ularning birinchisi - talimni tubdan demokratlashtirishdir. Ikkinchisi - uzluksiz talim goyasi, songra esa “talim bir umrga” goyasini “talim butun umr davomida” goyasiga almashtirishdir. Uchinchisi - bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki balki jamiyatga ongli, insonlarni etkazib berishdir. Uchinchisi talimni globallashtirishga erishish. Tortinchisi- talimni axborotlashtirish. Talimni modernizatsiya qilishni talim zamonaviy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish va rivojlanish, raqobatbardoshlik asosi va jahon hamjamiyatining rivojlanish kabi omillar taqazo etadi.

Zamonaviy ijtimoiy ozgarishlarning murakkabligi talimga ham sinergetik yondoshuv zarurligini talab etadi. Bunda zamonaviy talim paradigmasi yopiq tizimlarni organishdan,

evolyutsion ochiq tizimlarni organishga otish zarurligini etirof etadi. Talim tizimi ochiq tizim sifatida tasniflanmoqda. Ochiq talim – bu oz-ozini tashkillashtiruvchi tizim bolib, ijodiy shaxsni rivojlantirish jarayonidir. Bu zamonaviy axborotlashgan jamiyat talim tizimi falsafasining asosiy jihatidir. Sinergetik yondoshuvda oqitish, oquvchi va oqituvchi ortasidagi munosabat - bilimlarni togridan-togri uzatish emas, balki bilimlarni uzatishdagi ochiq dialog, hamkorlikdagi talim maydoniga asoslanadi. Ochiq talim tizimi uzluksiz, innovatsion, masofaviy oqitish orqali moslashuvchan, faol, ijodiy shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Bunda bilimlar subyekt keyinchalik ulardan yangi bilimlarni hosil qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun uzatiladi. Bunda oquvchidagi yashirin qobiliyatlarni uygotish, ozini namoyon etishga, imkon yaratiladi. Bilish yangi mazmun kasb etadi. Bilish subyekt faol bolib, talimda uzatilayotgan bilimlar absolyut haqiqat sifatida etirof etilmaydi. Talim jarayonining nochiziqli tafakkurga asoslanishi etirof etiladi. Nochiziqli tafakkur rivojlanishning kop variantlilikini, bilish jarayonida tizim tabiatini yagona qonunlarda aks ettirib bolmasligini. etirof etadi. Nochiziqli tafakkur tadrijiy (evolyutsion) yonalishlarning kop variantlilik va muqobilliligi goyasi hamda bu muqobillardan birining tanlanishi, muhitdagi jarayonlarning taraqqiyot (darajasida) surati, tadrijiylikning orqaga qaytarilmasligi goyalari sifatida tushuniladi. Bunday tafakkur tamoyillariga kora talim rivojlanishining kop variantlilikini tan olinmoqda. Bu talim jarayonida bir yoqlama yonalganlik, tafakkur jarayonining inertsiyasiga barham beradi. Bilish jarayonida “subyekt-subyekt” munosabatlari amal qiladi. Bilish jarayonining beqaror, xaotik holatlarga ega ekanligi etirof etiladi. Natijada shaxs faolligining osishiga, bilimlar generatsiyasining samaradorligining ortishiga erishiladi.

Sinergetik tamoyillarni talimning barcha pogonalariga kiritish uchun olamning yaxlitligini anglatuvchi integrativ kurslarni tashkil etish, har bir fan sohasiga sinergetika tamoyillarini yorituvchi materiallarni kiritish zarurdir Sinergetikaning talim tizimida amal qilishi fanlararo dialogni taminlash imkonini beradi, natijada fan va madaniyat birligiga erishish mumkin boladi.

Bolonya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bolsa, boshqa tomondan Yevropa madaniyati va manaviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolonya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yonalishi sifatida oliy talim Yevropa zonasini qorish; Yevropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Yevropa oliy talimining dunyodagi obroini oshirish; talabalar, mablag, tasir borasidagi Yevropa oliy oquv yurtlarining raqobatbardoshligini taminlash; universitetlar Yevropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy ornini oshirish; oliy talimda Yevropacha qarashlarga komaklashish, talim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni ragbatlantirish. Bolonya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Yevropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi. Globallashuv, tabir joiz bolsa, davr talabi bilan uzluksiz talim,

masofadan talim goyalari Markaziy Osiyo, xususan Ozbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga etibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Yevropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy talim sohasida AKTni qo'llash kolami oshirib borildi. Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, Ozbekiston grajdanlari masofadan talim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin.

Shu o'rinda muayyan masalalarni korib chiqish kerak bolur. Birinchidan, talim tili masalasi. Bolonya jarayonida til masalalari ochiq korib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon Garbiy Yevropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari talim oladilar. Chet el universitetlar talim mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlarini aks ettirilmagan. Ya'ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi. Taqiq yoli bilan bu imkoniyatni bekor qilib bolmaydi. Talim globallashtirishning salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo "bolonya" jarayonini yolga qoyish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Yevropada moljallangandek, markaziy orinda turishi kerak. Talim sifati orqali raqobatbardoshlikni taminlash mumkin. Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron oquv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, talim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron oquv muhitini tola kolamda rivojlantirish kerak. YAni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan tola kolamli interaktiv usullar va bilimni tekshirish tizimiga otish lozim.

Globallashuv atamasi otgan asrning 80 yillaridan keng qo'llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari togrisida xilma-xil fikrlar shunchalik kopki, natijada har bir muallif o'zining mafkuraviy qarashlariga kora va o'z fanining predmetidan kelib chiqib, o'z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan tariflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib korsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo'llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, malum maqsadlarini amalga oshirish uchun jugrofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum etirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bolmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yollari togrisida ozaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina.

Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o'z iqtisodiy manfaatlari yolida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ortasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. Shu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, tsivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. TSivilizatsiyalar toqnashuvi, iqtisodiy,

texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar haqidagi taxminlar shular jumlasidandir.

Ozbekiston Prezidenti I.Karimov ozining “Yuksak manaviyat-engilmas kuch” asarida globallashuv jarayonining mohiyati, oqibatlari haqida to`xtalar ekan, uni “...hayot jarayonlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir” deb baho bergan edi. SHunday ekan, ozgarib borayotgan hayot talablariga moslashish, shu bilan bir qatorda har bir inson, millat ozligini saqlab qolish uchun ozining mustahkam etiqodiga, nuqtai nazariga ega bolmogi, boshqalarning etiqodi va nuqtai nazarini hurmat qilmogi lozim. Mabodo turli etiqodlar va nuqtai nazarlar birdek qadrlanmas ekan, birini kuchsizlantirish hisobiga ikkinchisi kuchayadi, hayotning mohiyati, gozalligining oziga xos ifoda shakli bolgan rang-baranglik, takrorlanmaslik inkor qilinishga olib keladi. Rivojlangan garb davlatlari tomonidan dunyoni ekspansiya qilish boshlanganidan beri ana shunday nuqtai nazar, tamoyil ustuvor bolib kelgan. Buning qanday oqibatlarga olib kelganligini jamiyatning barcha sohalarida yaqqol korishimiz mumkin.

Bugun biz yashayotgan asr fan, texnika, axborot rivojlanganligi va shu bilan birga globallashuv jarayonlari osayotgan davr hisoblanadi. XXI asrda insoniyat katta yutuqlarga erishdi va erishmoqda ham. Ammo shu bilan birga bugungi kunda insoniyatning er yuzida uzoq yashashi va faoliyatini chegaralayotgan muammolar doirasi ham borgan sari kopayib bormoqda.

Bugun insoniyat va atrof muhitga havf solayotgan bir nechta muammolarni global muammolar deyish mumkin. Ekologiyaning buzilishi, SPID, narkobiznes, yadroviy qurollar, va odam savdosi hamda ochlik kabi muammolar hozirda faqatgina bir davlat bir millat doirasidagina emas, balki er yuzida mavjud bolgan barcha millatlar qolaversa, butun insoniyatga havf solmoqda. Umuman globalizatsiya va global jarayonlar XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib kuchaya boshladi. Globalizm atamasi oxirgi yuz yillikda tobora katta ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan «global» tushunchasining lugaviy manosiga etibor qaratadigan bolsak «umumiy», «globus», «yer shari» kabi tushunchalarga duch kelamiz. Demak, globalizm tushunchasi ana shu har ikki manoda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bogliq bolgan katta muammolarni, «sayyoraviy», «umumsayyoraviy», «umuminsoniy», «dunyoviy» muammolarni, «umumplanetar ahamiyatga ega bolgan masalalar» va global taraqqiyot istiqbollarini oziga qamrab oladi. Ijtimoiy fanlarda ushbu masalalarni yoritish va tadqiq etish esa afsuski ancha kech boshlandi. CHunki yuqorida aytib otilgan muammolar faqatgina ayrim millat va davlatlarga tegishli degan dunyoqarash mavjud edi. Va shuning uchun ham bu kabi masalalar hammani qiziqirtmas edi. Keyinchalik esa global muammolar echimi dolzarb va butun dunyo uchun havfli ekanligi anglana boshlandi. Hozirgi zamonda mutaffakkirlar va olimlar er sayyorasi miqyosida yagona tsivilizatsiya qaror topayotganligi xususida tobora koproq gapirmoqdalar. Fan va amaliyotda bu goyaning mustahkam orin olishi bilan «globalizatsiya» atamasi qollanila boshlandi. Globalizatsiya sotsiumning barcha sohalarini qamrab olib, ijobiy jihatlari bilan

birga qator jiddiy muammolarni ham tugdirdi. Hozirda ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash mumkin.

Er yuzida tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish; atrof muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo); aholi soni va tarkibi bilan moddiy va manaviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo); ochlik, qashshoqlik hamda qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar ortasidagi keskin farqni bartaraf etish; xavfli kasalliklarni tugatish; inson manaviy muhiti sofligini taminlash (etikologiya muammosi) va hokozolar. SHuningdek global muammolarni kelib chiqishi mavjudligi va hal etilishiga kora quyidagi guruhlariga bolish mumkin: birinchisi – bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiati turli mintaqalar davlatlarining (masalan Sharq, G'arb, Janub–SHimol rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmui bilan boglangan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar ijtimoiy ozaro munosabatlar tugdirgan muammolardir. Ikkinchi guruxga inson va u mansub bolgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi. Uchinchisi oz ichiga «jamiyat – tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tugdirgan muammolarni oladi.

Global muammolarning bu guruhlari ozaro bir-biridan farq qilsa-da, inson, uning hayoti, shart-sharoitlari va kelgusi rivoji jihatidan yaxlitlik, umumiylik kasb etadi. Ikkinchi umumiylik u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikda korinadi. Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnologiya yaratishni taminlasa, oz navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi ozgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Eng achinarlisi shuki erishilgan kashfiyotlarni kim qanday maqsadlarni kozlasa, oshalarga tatbiq etilmoqda. SHuning bilan birga hozirgi paytda insoniyat manaviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tugdirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Bunga misol qilib zoravonlik va nafratning kishilar ortasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, manaviy muhitni zaharlayotgani hamda insoniyatni axloqiy falokat sari etaklayotganligini keltirish mumkin. Manaviy muhitini bulgashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning orni katta bolmoqda. Koppina mamlakatlar bu xil moddalarni tarqatganlik uchun ogir jazo belgilanganligiga qaramay, er yuzi aholisining muayyan qismida bangilikka ruju qoyish avj olgan. SHuningdek bugun rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalib, bularning qatoriga hozirda insoniyat va uning hayotiga nuqta qoyayotgan SPID ham qoshilmoqda. Kasalliklarning global muammo bolib qolganligi yana shunda korinadiki, canoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, rak va boshqa xastaliklar kopayib bormoqda. Demak global muammolarni yuzaga kelishida inson va uning ehtiyojlari asosiy sabab bolib qolmoqda. Global muammolarning eng asosiylari tafsiflaridan ham korinib turibdiki, bunday bohronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil echimga ham ega emas. Shu bilan birga insoniyat bularni hal etish choralarini tinimsiz izlamogi lozim. Shuningdek insoniyat global bohronlarni bartaraf etish uchun avvalo yuqori darajadagi tafakkurga ega bolishi shartdir. Ya'ni, manaviy yuksaklik va

chuqur gumanizmga ega bolish. Zamonaviy insonparvarlik esa eng kamida uchta asosga: globallashuvni anglashga, zoravonlikdan voz kechishga hamda adolatlilikka tayanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global muammolar kabi jarayonlarning echimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bogliqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bolib, dunyo davlatlarining ozaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi. Ta'riflardan birida globallashuv Er kurrasi bo'ylab yoyilayotgan kommunikatsiya va ayirboshlash tarmoqlar orqali va ular tufayli mintaqaviy xo'jaliklar, jamiyatlar va madaniyatlar bir biri bilan yaqinlashib, bir biriga singib ketganligini ifoda etadi, deyiladi. F.Tolipovning "global taraqqiyot deganda biz kishilar hamjamiyatlarining hayotiy faoliyati natijasida jahon miqyosida sodir bo'layotgan va butun insoniyat taraqqiyoti uchun tizimiy ahamiyatga ega siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik o'zgarishlar majmuini tushunamiz", degan ta'rifi globallashuvning asosiy jihatlarini qamrab oladi, deb hisoblaymiz. Globallashuv alomatlari qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Qadimgi va o'rta asrlar imperiyalari tarix qatlarida qolib qetgan bo'lsa-da, o'sha davrlardagi globallashuv tamoniga bo'lgan siljishlar saqlanib qoldi. Bunga bir misol Ipak yo'li bo'lsa, boshqa misol sifatida CHingizxon imperiyasida barpo etgan pochta xizmatini ko'rsatish mumkin. Ammo xususi, tor ma'noda globallashuv, deb eng oxirgi davr yuritiladi.

Globalizatsiya 19-asrining 60-yilaridan boshlab yonqin namoyon bo'ldi. Boshqa fikrlarga ko'ra globalizatsiya 19-asrning oxirida boshlanib, o'tgan asrning oxirgi choragida jadallashdi. Globallashuv transmamlakat korporatsiyalarining tez sur'atlar bilan kengayishi ortidan xo'jaliklarning "o'sish-yo-o'lish" dinamikasini ifoda etuvchi sistemik tendensiyaning natijasidir, degan fikr bildirilgan.[26] O'z navbatida bu tendensiya trasmamlakat korporatsiyalarning jadal o'sib borishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy kontekstda globallashuv tovarlar, sarmoya, xizmatlar va ishchi kuchi oqimini osonlashritish maqsadida davlatlar chegaralaridagi to'siqlarni bartaraf qilish yoki sezilarli darajada pasaytirishni anglatadi. Tor ma'nodagi globallashuv savdo-sodiq, bevosita chet el investitsiyalari, kapital oqimi, migratsiya orqali mamlakatlar xo'jaligining bir internatsional xo'jalikka intregallashuvni anglatadi. Keng ma'nodagi globallashuvga g'oyalar, tillar va ommabop madaniyatning mamlakatlararo almashinuvi hamroh bo'ladi.

O'zbekiston globallashuv jarayonidan chetda qolmadi. Ipak yo'lining bir necha marshruti hozirgi O'zbekiston eridan o'tgan, Samarqand va Buxoro Ipak yo'lidagi yirik savdo markazlari sifatida jahonga tanildi. Hozirgi O'zbekiston eri xalqaro tijorat yo'llarining chorrahasi sifatida o'z ahamiyatini kech o'rta aslargacha saqlab keldi. Ushbu globallashuv natijasi o'laroq Markaziy Osiyo erlarida ma'naviy sohada diniy tolerantlik, ilm-fanga charqoqlik vujudga kelgan, islom diniy tafakkuri va grek falsafasi kirib kelgan bo'lsa, xo'jalikda ipakchilik va paxtachilik rivojlandi, muayyan mahsulot ekport qilindi. Salbiy oqibatlar ham yo'q emas edi – "miyalar sizib ketishining" ilk ko'rinishlari, yalpi ichki mahsulotning bir qismi markazga to'lov sifatida olib ketilishi, masalan. Rossiya istilosi bilan globallashuv jadallalashdi va boshqa yo'nalish oldi. Turkiston oykumenasi deformatsiyaga

uchradi. Iqtisodda paxtachilik va ipakchilik ko'lamini oshgan, temir yo'llar va shular asosida paxtaga dastlabki ishlov berish, mexanik ishlab chiqarish paydo bo'lgan bo'lsa, turmush tarziga evropacha usullar kira boshladi va ko'payib bordi. Ma'naviy sohada ta'lim tizimini isloh qilish g'oyalari, yangi usul maktablari, dramaturgiya janri, teatr yuzaga keldi. Siyosiy sohada konstitutsiyaviy monarxiya, imperiya tabaalarining millati, dinidan qat'i nazar tenghuquqligi g'oyalari muhokama qilina boshladi. Mustaqillik O'zbekiston uchun o'yukumenani kengaytirib xalqaro munosabatlarning to'laqonli qatnashchisiga aylanishga imkon yaratdi, respublika BMTga, ko'pchilik xalqaro shartnoma, konvensiya, ularga qo'shimcha protokollar va hokazolarga a'zo bo'ldi.

Barcha globallashuv jarayonlarida iqtisodiy globallashuv etakchi ahamiyatga ega. U ta'lim sohasidagi globallashuvni ham belgilaydi. Bir tomondan ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida bir xil bilim, qo'nikma va usullar talab qilinadi. Boshqa tomondan ta'lim sohasining o'zi ham global bozor va raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatishi kerak. Yuzaga kelgan muammolarga javoban masofadan ta'lim, umr davomida ta'lim va Bolonya jarayoni, deb yuritiladigan choralar vujudga keldi. Globallashgan xo'jalik va transmamlakat korporatsiyalar bir mamlakatda ta'lim olib boshqa mamlakatda, undan yana uchinchisiga o'tib ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. Yuqoridagilarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari turli miqyosda bo'lsa-da, katta ahamiyat kasb etadi. Bolonya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan Evropa madaniyati va ma'naviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolonya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yo'nalishi sifatida oliy ta'lim Evropa zonasini qo'rish; Evropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Evropa oliy ta'limining dunyodagi obro'ini oshirish; talabalar, mablag', ta'sir borasidagi Evropa oliy o'quv yurtlarining raqobatbardoshligini ta'minlash; universitetlar Evropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Evropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy o'rnini oshirish; oliy ta'limda Evropacha qarashlarga ko'maklashish, ta'lim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni rag'batlantirish. Bolonya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Evropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi.

Globalashuv, ta'bir joiz bo'lsa, davr talabi bilan uzluksiz ta'lim, masofadan ta'lim g'oyalari Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga e'tibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Evropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy ta'lim sohasida AKTni qo'llash ko'lamini oshirib borildi. Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, O'zbekiston grajdanlari masofadan ta'lim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin.

Shu o'rinda muayyan masalalarni ko'rib chiqish kerak bo'lur. Birinchidan, ta'lim tili masalasi. Bolonya jarayonida til masalalari ochiq ko'rib chiqilmagan. Implitsit ravishda jarayon G'arbiy Evropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari ta'lim oladilar. Chet el universitetlar ta'lim

mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. Ya'ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi. Taqiq yo'li bilan bu imkoniyatni bekor qilib bo'lmaydi. Ta'lim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo "bolonya" jarayonini yo'lga qo'yish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Evropada mo'ljallangandek, markaziy o'rinda turishi kerak. Ta'lim sifati orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin.

Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron o'quv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, ta'lim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron o'quv muhitini to'la ko'lamda rivojlantirish kerak. Ya'ni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan to'la ko'lamli interaktiv usullar va bilimni tekshirish tizimiga o'tish lozim.

Globallashuv atamasi o'tgan asrning 80 yillaridan keng qo'llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari to'g'risida xilma-xil fikrlar shunchalik ko'pki, natijada har bir muallif o'zining mafkuraviy qarashlariga ko'ra va o'z fanining predmetidan kelib chiqib, o'z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikatsiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo'llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma'lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug'rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e'tirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yo'llari to'g'risida o'zaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina.

Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o'z iqtisodiy manfaatlari yo'lida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. Shu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, sivilizatsiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi taxminlar shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki globalizatsiya va global muammolar kabi jarayonlarning echimi butun insoniyatning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishiga bog'liqdir. Zero global muammolarga echim topish har bir davlatning vazifasi bo'lib, dunyo davlatlarining o'zaro hamkorlikda ish tutishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson taraqqiyoti maruza. Ozbekistonda talim: talab va taklif mutanosibligi. Ozbekiston. -T., 2007-2008.
2. Rakitov A.I. Nauka v epoxu globalnix transformatsiy (rossiyskaya perspektiva). Nauka v Rossii: sostoyanie i perspektivi. - M.; 1997.
3. Karimov I. "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch". 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi "Talim togrisida" gi Qonuni. -T., 1997.
5. " Osnovi otkritogo obrazovaniya". Otv. Red. Soldatkin V.I. – T.1. RGI otkritogo obrazovaniya. -M.: 2002.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

Ro'ziyeva Nafisa Sadullayevna

Navoiy viloyati Karmana tumani

14-sonli "Bulbulcha" maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: *ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun muhim bo'lgan, tarbiya jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan muhim vazifalar va tarbiyaning uyg'un jihatlari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, tarbiya, ko'nikma, axloqiy xislatlar.*

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb ahamiyatga molik bo'lib kelgan.

Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy xislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir.

Tarbiya – bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishni o'rganishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir. Ta'lim jarayonining markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o'rganishi yotsa, undan farqli o'laroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya - bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarni kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi.

Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan, psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari shug'ullanadi. Holbuki, psixologiya fanisiz tarbiyaning asosiy muammolari hal qilinib bo'lmagan holda to'g'ri qo'yilishi ham mumkin emas, chunki ularni anglash negizida shaxs psixologiyasi, insoniy munosabatlar, har xil ijtimoiy jamoalar psixologiyasini bilish yotadi. Barcha uchun umumiy bo'lgan yoki bolalarga individual tavsiyalar berishda umumiy psixologiya va yosh davrlar psixologiyasiga tayaniladi.

Tarbiyaning bosh vazifasi - jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, chunki o'zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo'lavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi.

Tarbiya turli xil davrlarda va turli xil jamiyatlarda o'zgarmas jarayon bo'lib qolmaydi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakl va metodlari har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Inson shaxsini shakllantirish bo'yicha har bir ijtimoiy tuzum

yoʻnalishiga mos ravishda talablar qoʻyiladi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos boʻlgan baʼzi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik gʻoyalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va maʼlum bir davomiylik mavjud. Jumladan, asrlar davomida dars maktabda oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishning asosiy shakli boʻlib keldi va shunday boʻlib qolmoqda. Qator oʻquv predmetlari mazmuni maʼlum darajada saqlanib qolayapti. Ayni chogʻda tarbiyada va taʼlim berishda gʻoyaviy jihatdan betaraf qoladigan jihatlar borligini ham unutmaslik lozim. Tarbiya va taʼlimning tashkiliy shakllarini aniq toʻldirish, maktab ishining u yoki bu masalalarini izohlashda turli davrlarda turlicha yondashuvlar mavjud boʻlgan.

Agar jamiyat oʻz taraqqiyot davrida maʼlum bir rivojlanishga, madaniyatga va maʼnaviyatga erishgan boʻlsa va uni saqlab qolishni hamda yuksaltirishni istasa, uning tarixida turli xil oʻzgarishlar roʻy berishidan qatʼiy nazar, u oʻtmishdan beri saqlanib kelayotgan eng yaxshi anʼana va qadriyatlarini qabul qilishi, davom ettirishi lozim boʻladi. Umuminsoniy qadriyatlar va madaniy boyliklar tarixiy va hududiy chegara va hududiy chegara bilmaydigan boyliklar qatoriga kiradi. Birinchi navbatda xuddi oʻshalar ijtimoiy tarixning barcha bosqichlarida tarbiya maqsadlarini ifodalaydi. Bu maqsadlar yaxshilik va yomonlik, toʻgʻrilik va tartiblilik, insoniylik va tabiatga boʻlgan muhabbat tushunchalari bilan bogʻliqdir. Bu yana ruhiyat, erkinlik, shaxsning oʻzi va atrofida roʻy berayotgan voqealarga javobgarlikni his qilishi, kamtarlik, insoniylik koʻrinishlarida namoyon boʻladi.

Ruhiyat yuqori axloqiy tafakkurning bir daqiqalik mayl va ehtiyojlardan yuqori qoʻyilishini bildiradi. Oʻsib kelayotgan va rivojlanayotgan shaxsda bu doimiy ravishda ahloqiy barkamollikka intilishda namoyon boʻladi. Erkinlik bu insonning ichki va tashqi ozodlikka intilishidir, bunda boshqa shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniy va siyosiy qarashlari, sinfiy munosabatlari va boshqa xususiyatlaridan qatʼiy nazar, uning xuquqlari albatta toʻla toʻkis tan olinishi lozimdir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal yetuvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib oʻtganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bogʻliqdir. Bu faktor nasliy yoʻl bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning taʼsiridir. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va koʻzlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tugʻma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, yaʼni uning aqliy tomonlari bilan bogʻliq boʻlgan sifatleri nasliy yoʻl bilan berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematika qobiliyatlarda nasliy yoʻl bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, yaʼni roʻyobga chiqishi uchun albatta, maʼlum sharoit boʻlishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan isteʼdodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, isteʼdodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yoʻl bilan berilgan barcha imkoniyatlarning roʻyobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili boʻla oladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaradi va har biri murakkab qurilmadan iborat. Shaxsning ana shu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashrieti, 2013.
4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
5. M.M. Axmedjanov, B.Q.Xo'jayev, Z.D. Hasanova. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014

ALISHER NAVOIY IJODI

Xolnazarova Gulnora Fayzullayevna

Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktab ôqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ,Mir Alisher Navoiyning ijodi yozgan asarlari ,g'azal ,ruboiy,doston ,kitoblari .Turk tilining rivojlanishiga qôshgan hissasi ,shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g'oyani ilgari suradi. Aynan shu sababli, bir mavzu doirasidagi asarlarni qiyosiy tahlil etishda, har ikki ijodkorning mushtarak yoxud xos jihatlarini ko'rsatish bosh mezon bo'lgani haqida sôz yuritiladi.*

Kalit sôzlar:*Sharq adabiyoti, Xamsa asari,Foniy,tanqidchi , tilchi, Hayrat ul-abror,mushtarak*

KIRISH QISMI:

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analari zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Navoiy nafaqat o'zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli (forsiy tildagi taxallusi Foniy) meros qoldirgan. Uning forsiy merosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar ob'yektiga aylandi hamda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Alisher Navoiy shoir, olim, tarixchi, tanqidchi, tilchi, adabiyot nazariyotchisi, siyosiy arbob va hattot edi. Uning asarlari yaxlit olganda, hayot qomusiga o'xshaydi. Chunki biror - bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, u qalamga olmagan bo'lsa!



Asosiy qism:

Ma'lumki, Sharq adabiyoti tarixining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida adabiy an'ana muhim o'rin egallaydi. Shoirlar ijodiy merosiga murojaat qilar ekanlar, avvalo, o'z estetik qarashlariga mos, ko'ngillariga yaqin, dunyoqarashlariga nisbatan uyg'un keladigan asarlarni maqbul ko'rganlar. Yana bir tomoni, o'rta asrlar estetikasi me'yoriy xarakterda bo'lib mavzular ko'lami hamda janrlar tabiati avvaldan belgilangan qoidalar asosida voqiya bo'lgan va bu holat o'sha davr kishilarining mental dunyoqarashi bilan izohlanadi. Biroq bu

Sharq adabiyoti namunalari originallikdan xoli, adabiy an'analar doirasida qolib ketgan degan mulohazaga sabab bo'lmastigi kerak. Chunki har bir shoir ko'hna mavzuga murojaat etar ekan uni ma'lum darajada bo'lsa ham zamonasi bilan bog'lashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g'oyani ilgari suradi. Foniyl forsiy tilda deyarli barcha janrlarda, jumladan, qasida janrida ham go'zal badiiyat namunalari yaratgan. Shoirning qasidalarini navoiyshunoslar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Bu qasidalar orasida "Tuhfat ul-afkor" o'zgacha mavqega ega va nisbatan ko'proq tahlilga tortilgan. Qizig'i shundaki, asar mashhur shoir Amir Xusravning qasidasiga tatabbu tarzida yozilganiga qaramay, Navoiy zamondoshlarining yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasida qasidadan katta parcha keltirib yozadi: "Garchi Amir Xusrav peshqadam Sohibi fazl bo'lsa ham, "Bahr ul-abror"da (ayrim manbalarda "Daryoi abror" shunday nomlanadi-A. E.) uning ma'rifat va haqiqatlar, daqiq xayoloti oriflar nazdida mukarram va azizdir. Biroq bu ulug' amir (gap Navoiy xususida – A. E.) ham ma'nolarni (eng baland) cho'qqisiga chiqargan bo'lib, shoirlik, suxandonlik, o'ziga xos taxayyulni ko'rsatishda xato qilmadi". Yana bir jihati, Xusrav Dehlaviyning "Daryoi abror" qasidasi XV asr Hirot adabiy muhitida mashhur bo'lib, davrning nomdor shoirlari Abdurahmon Jomiy, Sulton Mahmud Mirzo, Shayxim Suhayliy, Binoiy unga javob yozganlar. Bular orasida faqat Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlari bizgacha to'liq yetib kelgan. Adabiyotshunosligimizda adabiy aloqa va ta'sir xususida so'z ketganda ko'proq mushtarak nuqtalarga urg'u qaratilib, muayyan badiiy asarni namuna sifatida taqdim etish ustunlik qiladi. Vaholanki, har ikki o'xshash hodisa chog'ishtirilganda faqat yuzadagi umumiy holatlar bilan kifoyalanmay, mohiyatni ko'rsatuvchi xususiy jihatlar ham e'tiborga olinishi shart. Uning ko'plab asarlari bor. Bulardan bizga eng mashxur bo'lgan asari Xamsa asaridir.

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi „Xamsa“ asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo'lib, turkiy tilda to'liq „Xamsa“ yaratdi va turkiy tilda shunday ko'lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Ushbu to'plamni Nizomiy Ganjaviyning „Panj Ganj“ („Besh xazina“) asariga havas sifatida yozilganligini o'quvchilarga anglatmoq maqsadida „Xamsa“ning kirish qismida:

„Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.“
deya ta'kid etadi.

„Xamsa“ tarkibiga „Hayrat ul-abror“, „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“, „Sab'ai sayyor“, „Saddi Iskandariy“ kabi dostonlar kiradi.

"Hayratul-abror"da hamd, munojot, na't, hayrat boblaridan keyin shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo'lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'rifiy, axloqiy va estetik munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, adl, insof, mantiq,

taqvo yo'lida ulusdan o'ta olmaganini anglatish bilan o'zining adolatli shoh haqidagi qarashlarini anglatadi.

„Farhod va Shirin“da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o'sha sharaflil nomning himoyasi orqali ekanini uqdiradi. Sharq tarixidagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o'zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda qilgan. Navoiy dostoni orqali Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy an'analari yangilangan bo'lsa, undan keyin bu syujet turk mumtoz adabiyotining o'zak muammolarini hal etishda asosiy o'rin tutdi va bu yo'nalishda Ahmad rizvon, Jaliliy, Harimiy, Bafqiy, Urfi Sheroziy, Lamiiy, Nizoriy v.b. dostonlari yaratildi.

„Layli va Majnun“ dostonida arab ertaklari orqali ma'lum syujet o'zining tugal shaklini topdi, unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilindi. Keyinroq yaratilajak Fuzuliy, Andalib, Sayqaliy dostonlari uchun ma'naviy zamin bo'ldi. „Xamsa“ tarkibidagi „Sab'ai sayyor“ va „Saddi Iskandariy“da shohlik bilan bog'liq masalalarni birinchi o'ringa olib chiqdi. Bu dostonlar xamsanavislik an'anasida o'zining ijtimoiy-siyosiy xarakteri va originalligi bilan ajralib turadi. „Xamsa“ga ustoz Abdurahmon Jomiy (1414—1492) yuqori baho berdi. O'R FA ShI qo'lyozmalar fondida 15-20 asrlarda ko'chirilgan 166 qo'lyozma saqlanadi. Ulardan 84 tasida beshlikning hamma dostonlari berilgan.

Tasavvufiy asarlari

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singigan bo'lsa-da, maxsus "Lison ut-tayr" dostoni(1499)da, "Nasoyim ul-muhabbat" (1495-96)da, "Tarixi anbiyo va hukamo"(1485-8), „Arbain“, „Munojot“ singari asarlarida aks etgan.

"Lison ut-tayr"da borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini, inson, tabiat va hayot haqidagi fikrlarini qushlar tili va sarguzashtlari orqali bayon qilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Navoiy asarlarini diniy va so'fiylik jihatidan o'rganish kengaydi, ular ob'ektiv va ilmiy bahosini olmoqda. „Arbain“, „Munojot“ kabi asarlari chop etildi. Jomiyning „Nafahotul-uns min hazarotil-quds“ tazkirasini tarjima qilib va to'ldirib, so'z yuritilgan 618ta shayxlar sonini 770 taga yetkazdi.

Xulosa qismi:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning ijodi shunday ijodki "Obi Zamzam" suvi kabi totlidir. Uni qancha kôp ôqisakda uning asarlariga tôymaymiz.

Bugungi kunda 7 yoshdan boshlab 70 yoshgacha bôlgan yoshlar orasida Alisher Navoiyni tanimaydigan inson topilmaydi. Hamma uning asarlarini sevib ôqiydi. Yanada kôproq Navoiy ijodiga yoshlarni jalb etish hamda u kabi buyuk shaxslarni yetishtirib chiqarishni xulosalash mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan,1978:
- 2.Ya. G'ulomov. Alisher Navoiyning davrini o'rganish haqida. Kitobda: „Ulug' o'zbek shoiri“. -T.:1948;
- 3.Bertels E.E. Navoiy. Opit tvorcheskoy biografii. -M,L.: 1948;
- 4 Oybek. Navoiyning tarjimai holi. Kitobda: „Navoiy gulshani“. -T.:1967;
- 5.S.G'anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;
- 6.V.Abdullaev. Navoiy Samarqandda. -T.: 1968;
- 7.Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -T.: G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969;

УДК 338.2: 338.45(575.2)

**НЕОБХОДИМОСТЬ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНА ПРИРОДНЫХ
РЕСУРСОВ ПРИГРАНИЧНЫХ ТЕРРИТОРИЙ**

Ахмадалиев Юсуфжон Исмоилович

*д. г. н., профессор
Ферганский государственный университет,
Фергана, Узбекистан*

Маматисаков Жахонгирмирзо

Докторант Ферганского государственного университета,

Мухитдинов, Илхомжон

*Старший преподаватель
Ферганского государственного университета*

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы совместного использования трансграничных природных ресурсов странами, расположенных в приграничных территориях. Рациональное и совместное использование природных ресурсов является единственным условием обеспечения устойчивого развития этих территорий.

Ключевые слова: Совместное использование, трансграничные ресурсы, «горно-равнинная» геопара, орошаемые земли, антропогенная нагрузка.

**THE NEED FOR JOINT USE AND PROTECTION OF NATURAL RESOURCES OF BORDER
TERRITORIES**

Akhmadaliyev Yusufjon Ismoilovich

*Doctor of Science, Professor
Ferghana State University,
Ferghana, Uzbekistan*

Ferghana State University

Mamatisakov Jahongirmirzo

Muhitdinov Ilhomjon

Teacher of Ferghana State University

Annotation: The article deals with the problems of joint use of transboundary natural resources by countries located in border territories. Rational and shared use of natural resources is the only condition for ensuring the sustainable development of these territories.

Keywords: Joint use, transboundary resources, "mountain-flat" geopair, irrigated lands, single natural and historical territory, anthropogenic load.

ВВЕДЕНИЕ

Современное развитие общества требует сближения законов природы и общества. Возможно, поэтому из стран, расположенных в одном географическом ареале, формируются региональные объединения с географической основой, такие как «Европейский союз», «Организация американских государств», «Шанхайская организация сотрудничества», «Организация африканского Единство» и других. Одной из основных целей объединения государств, организованных по территориально-географическому принципу, является эффективное использование природных и экономических ресурсов, имеющихся на территории. Однако обособленное существование таких географических районов условно, и они создают основу для ускорения экономического развития только при соседстве с другими районами, морями и океанами, иными климатическими районами или природными зонами. Географическое изучение древних и современных развитых регионов мира показывает, что они расположены на стыке нескольких резко различающихся территорий и акваторий, природных зон, климатических поясов. К таким регионам можно отнести Древний Египет, Месопотамию, Индию, Китай, а сегодня Западную Европу, Северную Америку, Восточную Азию. В прошлом и в настоящее время характерно, что эти земли расположены в районах, где встречаются сухопутно-морская, равнинно-горная, степно-лесная зоны. Безусловно, научный анализ карты мира показывает, что такие территориальные части, принципиально отличающиеся друг от друга, являются основой постоянного обеспечения человеческого общества разнообразными продуктами питания и промышленными продуктами. По этой причине страны, расположенные в однородной ландшафтной зоне, развиваются относительно медленно. Сильное влияние природных условий на экономическую отсталость таких стран, как Чад, Судан, Нигер территория, которой состоит только из пустынь или Непал расположенный только в горной области.

Исходя из вышеизложенного, можно сказать, что совместное использование природных ресурсов трансграничных территорий странами, расположенными по соседству, является единственным условием быстрого развития их экономики и поддержания благосостояния их жителей. Поэтому сегодня в географической науке широко используются выражения единый естественно-исторический ареал и трансграничные ресурсы. Такими регионами являются Центральная Азия и Ферганская долина.

В настоящее время Центрально-Азиатский регион, объединяющий страны Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана, площадью около 4 миллионов квадратных километров, где проживают более 50 миллионов человек, также является естественно-историческим регионом. А в Ферганской долине проживают уже более 10 миллионов человек. Существуют природные,

исторические, экономические, экологические основания, обосновывающие единство и целостность этой территории.

Физико-географическая целостность Центральной Азии и Ферганской долины определяется ее географическим положением. Это место равноудалено от океанов и морей мира. Оно характеризуется своим расположением в центре Евразийского континента. Климатическая основа единства и целостности региона заключается в том, что большая его часть расположена в резко континентальной области умеренного климатического пояса, а в гидрологическом отношении территория этой страны представляет собой в целом замкнутый бассейн. На первый взгляд кажется необходимым разделить всю страну на горные и равнинные районы. Однако, согласно созданной Л.Алибековым теории геопары «горно-равнинная», эта территория функционально-динамически, структурно-генетически едина. Эта целостность наблюдается в интенсивном обмене массой и энергией между горой и равниной.

Историко-географическая целостность этого региона определяется тем, что тюркские и персидские народы проживали на этой земле несколько сотен лет, создали единый государственный строй и постоянно вместе боролись против общего врага. Также в новую историю входит Средняя Азия как целостное выражение древней Туркестано - Туранской земли. Культурно-социальные, духовно-образовательные сходства и гармонии в стране являются исторической основой единства региона. Исторически «Великий шелковый путь» объединял регионы этого региона и создавал большие возможности для развития. Первые научные выводы, обосновывающие историческое единство страны, даны в работах А.Миддендорфа, В. Бартольда, Б. Андрианова, Ю. Ахмадалиев.

Экономико-географическую целостность обеспечивают следующие показатели территории: богатство разнообразными природными ресурсами и удельные демографические показатели населения, обилие трудовых ресурсов, целостность религиозных убеждений, сходство жизнедеятельности и производственной деятельности населения, близость уровня социально-экономического развития страны, промышленность и сельское хозяйство тесная специализация в производстве народнохозяйственной продукции. Т.Джумаев научно обосновал тот факт, что горные и равнинные районы Центральной Азии хозяйственно и продуктивно дополняют друг друга, образуя единый экономический комплекс.

С *эколого-географической* точки зрения предварительные научные выводы, обосновывающие единство территории Средней Азии, были сделаны Д.И. Кашкаровым, Е.М. Мурзаевым, В.М. Четиркиным Э.П. Каровиным, Л.Н. Бабушкиным научно обосновали теорию. Сегодня острую проблему можно назвать основным принципом, лежащим в основе экологической целостности Центральной Азии и Ферганской долины. Потому что одна из самых больших проблем в истории человечества – полностью охватить территорию Средней Азии. Президент

Республики Узбекистан Ш.М. Мирзияев 2020 года на 75-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН подчеркивал, что ликвидация экологического кризиса Аральского моря и Приаралья является одним из главных условий будущего процветания народов Средней Азии. Кроме того, существуют этнологические (этнографические), культурологические, образовательные, религиозные, языковые принципы, обосновывающие тот факт, что Центральная Азия и Ферганская долина является единым целым регионом, которые составляют отдельную тему исследования.

ВЫВОДЫ

На наш взгляд, помимо вышеизложенного, необходимо провести исследования по включению подземных вод в районы, образующие единый гидрогеологический бассейн, земельных ресурсов в местах, где склоновые процессы имеют единую литолого-генетическую основу.

По нашему мнению и по мнению международных экспертов к трансграничным ресурсам, наиболее важным для приграничных территории Центральной Азии и Ферганской долины требующим комплексного изучения и совместного использования, относятся:

- Трансграничные гидрологические объекты (реки, озера, каналы, водохранилища;
- атмосферный воздух (загрязнение воздуха приграничных районов;
- подземные воды с подвижным основанием;
- земельные и лесные ресурсы, активно участвующие в склоновых процессах, обеспечивают равновесие в геопаре «горы-равнины»;
- территории загрязнённые радиоактивными, химическими веществами;
- обеспечение безопасности хвостохранилища;
- совместная охрана горной экосистемы.

Безусловно, вопрос рационального использования вышеуказанных трансграничных природных ресурсов является одним из основных факторов, обеспечивающих стабильное развитие приграничных территорий. Для этого в первую очередь требуются политическое решение данного вопроса. В современном условии, рыночные законы экономики не должны разрушать экономические отношения складывающихся тысячелетиями взаимовыгодных, взаимодополняющих основах.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Гумелев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. Л.: Гидрометеиздат, 1990. - 528 с.
2. Алибеков Л.Н. Новые подходы к сопряженному изучению горных и равнинных ландшафтов (на примере Средней Азии).// География и природные ресурсы. - Новосибирск, 1992.- №3, - С.29-37
3. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. (перевод с нем.) СПб., Изд. Императорский Академии наук, 1882. - 498с.
4. Джумаев Т. Устойчивое развитие горной зоны Узбекистана (социально-экономические аспекты): Автореф. Дисс. ... доктора геогр. наук. –Т.: УзНУ, 2004.
5. Кашкаров Д. Н. Основы экологии животных : [учебное пособие для биологических факультетов государственных университетов] / Д. Н. Кашкаров. — 2-е изд., испр. и перераб. -Ленинград: Государственное учебно-педагогическое издательство Наркомпроса РСФСР, 1944. — 382,
6. Мурзаев Э.М. Средняя Азия: Физико-географический очерк / Отв. ред. акад. [А. А. Григорьев](#). — 2-е изд., доп. — М.: Географгиз, 1957. — 272 с.
7. Коровин Е.П. Жизнь пустыни: Введение в экологию и освоение пустынь / Проф. Д. Н. Кашкаров, проф. Е. П. Коровин. — М.-Л.: Биомедгиз, 1936. — 250 с.
8. Бабушкин Л.Н., Когай И.А., Закиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана. –Т.: Мехнат, 1985.
9. Окружающая среда и безопасность. (Трансформация рисков в сотрудничество.Центральная АзияРегион Фергана - Ош – Худжанд) ЮНЕП, ПРООН, ОБСЕ, НАТО, 2005 г. ISBN: 82-7701-036-2.
10. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadaliyevich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
11. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadaliyevich, X. A. (2021). Geoecological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 169-174.
12. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS journali*, 10(1), 148-154.
13. Аҳмадалиев, Ю. (2018). Топонимика ва географик терминшунослик.
14. Аҳмадалиев, Ю. И. (2015). НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА К ИССЛЕДОВАНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ РЕГИОНА. *Актуальные вопросы современной науки*, (3), 24-28.
15. АХМАДАЛИЕВ, Ю., & КОМИЛОВА, Н. (2020). ЭТНОЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИНГ ХУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ.

16. Аҳмадалиев, Ю. И., & Алимджанов, Н. Н. (2020). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРАДИЦИОННОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. In *География: развитие науки и образования* (pp. 375-380).

17. Аҳмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Ҳ. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHO GEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).

18. Аҳмадалиев, Ю. И. АНДИЖОН ВА МАРҲАМАТ ТОПОНИМЛАРИ ҲАҚИДА. ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР НОМИДАГИ АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 81.

19. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, & Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2 (3), 986-989.

20. Ilhomjon Ihtiyorjon, O. G., Muhitdinov, L., Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G., Li Mamatisakov, F. O., & GIDROGRAFIYASI, V. J. Q. *Scientific progress*. 2021. № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n7farg-ona-vodiysining-janubiy-qismi-gidrografiya> (дата обращения: 07.12. 2021).

21. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.

22. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Lazizbek Shavkatjon O'G'Li Abduqaxxorov, Abrorjon Alisher O'G'Li Rahmatjonov, & Akbarjon Adhamjon O'G'Li Vahobjonov (2021). REGIONAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF TOURIST ROUTES. *Scientific progress*, 2 (8), 57-60.

23. Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, & Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2 (8), 823-825.

24. Махкамов, Э. Г., & Маматисаков, Ж. (2021). РЕКРЕАЦИЯ ВА ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, 2(1).

25. Jamoliddin o'g'li, J. M., & Isroiljon o'g, D. R. Z. (2022). DESCRIPTION OF LOCAL HISTORY AND EXCURSION OBJECTS OF FERGANA REGION.

26. J. J. Mamatisakov, M. M. Qahhorova, & S. I. Mo'Minova (2022). МАКТАВ ГЕОГРАФИЯ ТА'ЛИМИДА FOYDALANILADIGAN МАТЕМАТИК FORMULALAR TAVSIFI. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 153-161.

27. Jahongirmirzo Mamatisakov (2022). IMPROVING STUDENTS' GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 88-94.

28. O. I. Abduganiev, & A. Madrahimov (2022). MUҲОФАЗА ЭТИЛАДИГАН ТАБИЙ ҲУДУДЛАРНИНГ АСОСИЙ ТОИФАЛАРИ ВА ТАСНИФЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 136-143.

29. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona*, 87.

30. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 261-263.

31. Zarifjon o'g'li M. Z., Ihtiyorjon o'g'li M. I. FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 49-52.

32. Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). SO 'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI. *Academic research in educational sciences*, 2(7), 286-290.

33. Mamatisakov, J., Egamberdi, B., & Dostonbek, M. (2022). TERRITORIAL ASPECTS OF THE DISTRIBUTION OF ETHNOONYMS OF FERGANA REGION. *Scientific Impulse*, 1(2), 591-595.

34. Mamatisakov, J. (2022). 1 Òzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) 2 Ziyo. uz (sayti). *Scientific Impulse*, 1(2), 587-590.

35. Абдурахмонов Д. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ //ЎЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 21. – С. 58-63.

36. Абдурахмонов Д. ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ–ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ //О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 314-317.

37. Абдурахмонов Д. М. ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ДИНАМИКА ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ //Экономика и социум. – 2019. – №. 12. – С. 154-157.

ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИ АГОРОИҚЛИМИЙ РАЙОНЛАШТИРИШДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА АГРОИҚЛИМИЙ ТАСНИФИ

Қучқорова Махсуда Махкамовна

Фарғона давлат университети география кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Фарғона водийсини агороиқлимий районлаштиришда Фарғона вилоятининг тутган ўрни ва агороиқлимий таснифи ундаги муаммолар ечимлари кўриб чиқилган ва хулосалар берилган.

Калит сўзлар: агороиқлимий шароит, еографик ўрни, орографик тузилиши, гидрологик иқлимий, тупроқ, текислик, адирлар, тоғлари, тоғли ҳудудлар, кузги мавсум.

АСОСИЙ ҚИСМ

Фарғона водийсининг географик ўрни, орографик тузилиши, гидрологик иқлимий, тупроқ – биологик хусусиятларида ўзига хос умумийлик мавжуд, лекин водийнинг агороиқлимий шароитини келтириб чиқарувчи айрим тафовутлар мавжуд бўлиб, аввало улар метеорологик жараёнларда яққол ифодаланади. Яъни, Фарғона водийсининг текислик, адирлар, тоғлари, тоғли ҳудудлари орографик хусусиятига кўра айрим агороиқлимий тафовутларни ҳосил қилади. Шунга кўра Фарғона водийси ҳудудида 4 та агороиқлимий районларга ажратилади: 1. Наманган, 2. Андижон, 3. Қўқон, 4. Фарғона. Бу агороиқлимий районларни ичида Фарғона агороиқлимий райони термик ресурслари, ёғинлар миқдори, шамол ва бошқа метеорологик хусусиятлари билан ажралиб туради.

Аввало бу тафовутларни унинг географик ўрни белгилаб беради. Агороиқлимий район Фарғона водийсида бошқа агороиқлимий районларга нисбатан жануброқда жойлашган бўлиб, феврал ойининг иккинчи декадасиясида вегетация бошланиши учун шароит яратилади. Кузги мавсум эса декабрнинг 2 – 3 декадаларига тўғри келиб бу ерда 0° дан юқори хароратлар ҳуқумронлик қилади. Бу ерда 0° дан юқори бўлган фаол хароратлар йиғиндиси 280-310 кунгача давом этади. Фаол хароратлар йиғиндиси ичидв 10° дан юқори бўлган хароратлар кўрсатгичи 200-220 кун бўлиб, унинг йиллик умумий миқдори ичида Фарғона шаҳрида 4450° ни, Шохимардонда 3300° ни ташкил этади. Йиллик ёғин миқдорининг катта қисми яъни 40 % и вегетация даврига тўғри келади. Октябрдан май ойигача бўлган мудатда йиллик ёғинларнинг 85 – 90 % и ёғади. Лекин шундай бўлишига қарамасдан Фарғона агороиқлимий райони гидротермик коэффициент кўрсатгичи бўйича 0,08 – 0,2 намликни коэффициентлари бўйича 0,02 – 0,05 қуруқ ва мутлоқ қуруқ зонага тўғри келади. Шу сабабли қишлоқ хўжалиги фақат суғорма деҳқончиликка асосланган. Намликнинг бундай ўзгариши ва қуруқчилик ҳолати ёғинлар режими ва миқдори билан ва буғланиш кўрсаткичлари

билан бевосита боғлиқдир. Фарғона агроиқлимий районида баландлик ортиши билан табиий намлик билан таъминланиш ҳолати ўзгаради ва ортиб боради.

Масалан Фарғона агроиқлимий районида 600 – 800 м баландликларда табиий намлик билан таъминланиш 75 – 90 % ни, 800 м дан баланда табиий намлик ундан ҳам юқори кўрсаткични ташкил қилади. 1000 м гача бўлган баландликларда вегетация намлиги 25 – 50 % ни етказиб беради. Лекин вилоятнинг чўл ҳудудларида намликни сақлаш учун қўшимча суғориш тадбирлари ўтказилиши керак. Айниқса ёғингарчилик миқдори 200 мм дан кам бўлган ҳудудларда тупроқ намлигини сақлаб қолиш муаммоси билан бирга тупроқдаги шўрликнинг камайтириш муаммолари мавжуд бўлиб, айниқса Бағдод, Риштон, Ўзбекистон, Бувайда, Қўштепа, Ёзёвон туманларида шўрланиш жараёни агроиқлимий районнинг бошқа туманларига нисбатан юқоридир. Бунинг асосий сабаби тупроқ грунтнинг табиий дренаж имкониятини камлиги, рельефни нишоб эмасли, ер ости сувларининг вертикал йўналишни горизонтал йўналишга нисбатан устунлиги ҳисобланади. Шўрланишни келтириб чиқарувчи омиллар бу сизот сувларнинг кўтарилиши ва тупроқ юзасидаги буғланиш ҳисобланади. Бундай жараёнларда буғланиш туфайли тупроқнинг юқори ҳайдалма қатламида тузлар тўпланадию шунинг билан бирга агроиқлимий районнинг чўл минтақасида ва айниқса ғарбий қисмларида катта майдонлар шамолга рўпара бўлиб, баҳор ойларида кўплаб эсувчи шамоллар туфали тупроқ намлиги камайиб кетади. Ортиқча намланган ҳудудларда эса экинларнинг уруғлари чириб қолиши хароратнинг совуқ тушишлар ҳолатида эса қуриб қолиши мумкин.

Бундай оғир агроиқлимий шароитда қўшимча агромелиоратив тадбирларни қўллаш талаб этилади. Шу нарсани айтиш зоизки Фарғона агроиқлимий районида водийнинг бошқа агроиқлимий районлари каби табиий – мелиоратив ҳолатининг қишлоқ хўжалигига таъсири сезиларли ва ўсимликларни вегетация давридаги сувга бўлган талаби ҳам гидрогеологик мелиоратив шароитдан кели чиқади. Сизот сувлари ер юзасига яқин ҳудудларда (масалан, Федченко тажриба станцияси ҳудуди) суғориш нормаси 6500 м³ га тенг. Бутун Фарғона водийсидаги каби мазкур агроиқлимий районда ҳам вегетация даврида сув етишмаслиги муаммоси сезилади. Бу ҳолатда ўсимликларни сув билан таъминланиши 70 % га етади холос. Кам сувли йилларда эса 60 % га тушиб қолади. Ҳозирги кунда трнасчегаравий дарёлардан фойдаланишдаги халқаро меъёрларни бузилиш шароитида сув етишмаслиги ҳолатлари янада кучайиб бормоқда. Агроиқлимий районга сув етказиб берувчи каналлар ва сойликлар вилоятлараро чегараларга эга бўлиб, Фарғона вилояти ҳудуди Сўх – Сирдарё ирригация тизимлари ҳавзавий бошқарув тизимига қаралган.

Агроиқлимий районда сизот сувлари сатхи унчалик кўтарилмаган ҳудудларда суғориш нормаси 7200 м³ га тенг.

ХУЛОСА

Фарғона вилояти ва умуман агроиқлимий ҳудудларда қишлоқ хўжалигини ташкил этишда табиий иқлимий шароитларни ҳисобга олиш муҳим масала эканлиги юқоридаги маълумотларда ҳам баён этилган. Шунга кўра қуйидаги хулосаларни айтиб ўтишни жоиз деб биламиз:

1. Фарғона водийси, жумладан Фарғона вилояти жуда қулай агроиқлимий ҳудудларни бирлаштиради.

2. Барча ҳудудлар учун хос бўлган ҳолат яъни ноқулай агроиқлимий шароит ва унинг юзага келиши ўрганилган ҳудудда ҳам айнан вегетация даврига тўғри келади.

3. Ноқулай метеорологик жаарёнлар тўфали вилоят қишлоқ хўжалиги жиддий зарар кўради. Бу баҳори совуқ тушишлар, ҳаво нисбий намлигининг пасайишини, қурғоқчилик ва уни юзага келтирувчи метеорологик жараёнларни фаоллашуви билан бевосита боғлиқдир.

4. вилоятда тупроқ намлиги ва ундаги дефицит кам ҳолатларни аниқлаш, ўсимликларни вегетация давридаги сувга бўлган эҳтиёжини аниқлаш суғориш нормаларини шунга кўра белилаш қишлоқ хўжалигида ҳосилдорликнинг асосий мезони ҳисобланади.

5. Агроиқлимий районларда қишлоқ хўжалигини ташкил этишда ва ҳосилни ноқулай метеорологик жараёнлардан муҳофаза қилишда узоқ йиллар давомида шаклланган агрономик услублар, тажрибалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. *Экономика и социум*, (10), 477-480.

2. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. *Экономика и социум*, (10), 477-480.

3. Mahsuda, Q. C. (2022). The Importance of Protected Natural Areas in Preserving Rare Landscapes. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*, 3(1), 330-333.

4. Qo'Chqorova, M. M. (2022). THE ESSENCE, STRUCTURE AND IMPORTANCE OF TOURISM INFRASTRUCTURE. *Scientific progress*, 3(1), 1040-1043.

5. Abduganiev, O. I., & Makhkamov, E. G. (2022). ECOLOGICAL TOURISM IN PROTECTED NATURAL AREAS. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(02), 25-32.

6. Makhkamov, E. G., Umurzakova, G. A., & Gopporova, F. B. (2022). PROSPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN FERGANA PROVINCE. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(02), 33-39.

7. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
8. Topvoldievich, Pirnazarov Ravshan, and Muhitdinov Ilhomjon Ikhtiyorjon Ugli. "Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley." *JournalNX* 6.12: 264-267.
9. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." *Scientific progress* 2.8 (2021): 823-825.
10. Xolikov, Raximjon, and Otabek Qo'chqarov. "BASIC PRINCIPLES OF URBANEKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT." *Конференции*. 2021.
11. Махкамов, Элёрбек Гайратович. "Рекреация ва туризмни ташкил этишда табиий шароитни баҳолашнинг назарий жиҳатлари." *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО* 1.4 (2020).
12. Хамидов, А. А., and М. Н. Дехканбаева. "ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 881-886.
13. Абдурахмонов, Дилмуроджон. "ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАҲОЛАШ РИВОЖЛАНИШИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ." *ИЛОҚКОР О'QITUVCHI* 2.21 (2022): 58-63.
14. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li, and Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov. "FARG 'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI." *Scientific progress* 2.3 (2021): 975-980.
15. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, and Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION." *Scientific progress* 2.3 (2021): 986-989.
16. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." *Scientific progress* 2.8 (2021): 823-825.
17. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li. "SO 'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI." *Academic research in educational sciences* 2.7 (2021): 286-290.
18. Muhitdinov, I. I. "Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida)." *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona* 87 (2021).
19. Muhitdinov, Ilhomjon. "O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 1.2 (2022): 261-263.
20. Zarifjon o'g'li, Maxammadov Zuhridin, and Muhitdinov Ilhomjon Ihtiyorjon o'g'li. "FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI." *PEDAGOGS jurnal* 2.1 (2022): 49-52.

21. Абдурахмонов Д. ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ–ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 314-317.

22. Абдурахмонов Д. М. ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ДИНАМИКА ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ //Экономика и социум. – 2019. – №. 12. – С. 154-157.

ТУРИЗМ ИНФРАСТРУКТУРАСИНИ МОХИЯТИ, СТРУКТУРАСИ ВА АХАМИЯТИ.

Қучқорова Махсуда Махкамовна

Фарғона давлат университети география кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Туризм инфраструктурасини мохияти, структураси ва ахамияти Туризм бозорини шаклланиши энг аввало талаб ва таклиф орқали аниқланиши. Мехмонлар талабини қондирадиган, туристик таклифлар ўрганилган ва тахлиул қилинган.

Калит сўзлар: Туризм, Мехмонлар, Бирламчи таклиф, Туристик инфраструктура, туристик супраструктура, сайёхлар ва махаллий аҳоли,

АСОСИЙ ҚИСМ

Туризм бозорини шаклланиши энг аввало талаб ва таклиф орқали аниқланади. Мехмонлар талабини қондирадиган, туристик таклифлар қаторига қуйидагилар киради: иқлим, ландшафт (табиат манзараси, мехмонхоналар, атракционлар, музейлар ва х.к.). Туристик таклиф бирламчи, бошланғич ва ишлаб чиқариш таклифларидан иборат бўлади. Бирламчи таклиф табиий ҳолки, ўзининг фойдасини кўзлаб саёхатчиларни жалб этади, лекин бунда фақат туристик мақсадларни эмас бошқа мақсадлар ҳам кўзда тутилади. Ишлаб чиқарувчи таклиф эса туристик мақсадлар олдиға қўймайди.

Шуни таъкидлаш лозимки, мамлакатда туризм саноатининг ривожланишиға кеаркли бўлган шарт-шароитнинг мавжудлиги муҳим роль ўйнайди, бирламчи таклиф туризм билан боғланмаган. Масалан, мамлакатнинг табиий хусусиятлари, ижтимоий-маданий омиллар, умумий инфраструктура булардан махаллий аҳоли ҳам фойдаланади, булар туристик жараёнға ҳам таъсир кўрсатиши мумкин.

Ишлаб чиқариш таклифи, туризм соҳаси учун туристик инфраструктура ва туристик супраструктурани ажратиб беради.

Туристик инфраструктура қуйидагиларға бўлинади:

-махаллий аҳоли истиқомат қилаётган районда, саёхатчиларға хизмат қилиш имкони бўлмаса, қўшимча зарур чоралар кўрилади.

-хусусий туристик инфраструктура.

Туристик супраструктура туризм саноатида мехмонхоналар, умумий овқатланиш ташкилотларининг тутган мавқеи билан белгиланади.

Масалан, Чимён-Билдирсой туристик зоналарига ташриф буюрган туристларнинг чанғи учиши учун қуйидаги бирламчи ва ишлаб чиқариш таклифлари мавжуд бўлиши керак:

-табиат хусусиятлари –Чимён тоғининг топографияси, иқлим;

-туристик супраструктура- «Чимён оромгоҳи», «Билдирсой оромгоҳи» мехмонхоналари, кафе ва ресторанлар;

-хусусий туристик инфраструктура – автобуслар, тоғдаги канат-чанғи йўли, чана ва чанғилар ижараси, қутқарув станциясининг мавжудлиги.

Бундан кўриниб турибдики, туристик талабни қондириш бир нечта шароитлар мавжуд бўлиши лозим, агар бу шароитлар мавжуд бўлмаса яхши натижаларга эришиб бўлмайди. Айтайлик, тоғда чанғи бўлса-ю қор бўлмаса истеъмолчининг кўзига яхши ресторан ва кафелар кўринмайди.

O'rganish xususiyatlari. Chuqur o'rganish tarmoqlari tomonidan o'rganilgan xususiyatlar o'rganish xususiyatlari sifatida qabul qilinadi. GPU tomonidan taqdim etilgan kompyuter quvvatini oshirish va keng ko'lamlil o'quv to'plamini to'plash bilan chuqur o'rganishga asoslangan harakatni aniqlash katta muvaffaqiyatga erishadi. Simonyan va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Ikki oqimli ConvNets fazoviy va vaqtinchalik tarmoqlardan iborat bo'lib, ImageNet ma'lumotlar to'plamidan oldindan o'qitish uchun foydalanadi va harakat ma'lumotlarini aniq suratga olish uchun optik oqimdan foydalanadi. Tran va boshqalar. Keng ko'lamlil nazorat qilinadigan ma'lumotlar to'plamida o'qitilgan 3D ConvNetsni o'rganish orqali tashqi ko'rinish va harakat xususiyatlarini o'rgandi. Yaqinda Varol va boshqalar. Videoni o'rganish uchun uzoq masofali vaqtinchalik tuzilmaga (LTC) ega neyron tarmoqlardan foydalangan va LTC-CNN vaqt oralig'i oshishi bilan modellashtirilgan harakatni aniqlashning aniqligini yaxshilagan degan xulosaga kelgan. Biroq, bu usullar hisoblash narxi bilan cheklangan, shuning uchun video 120 kvadratdan oshmasligi kerak. Vaqtinchalik segment tarmog'i HMDB51 ning ikkita murakkab ma'lumotlar to'plamida (69,4%) eng so'nggi ko'rsatkichlarga erishib, butun harakat videosidan to'g'ri ma'lumotlarni

o'rganish uchun siyrak vaqtinchalik namuna olish strategiyasi va video darajasidagi nazoratni birlashtirdi. UCF101 (94,2%). Harakatni aniqlash texnologiyasi nisbatan etuk bo'lsa-da, chuqur ConvNets yordamida zo'ravonlik bilan o'zaro ta'sirni aniqlashga kam kuch sarflangan. Videolardan amaliy harakat xususiyatlarini samarali tanlashi mumkin bo'lgan ajoyib TSNGa murojaat qilib, biz FightNet nomli zo'ravonlik bilan o'zaro ta'sirni aniqlash ConvNet-ni yaratamiz.

ADABIYOTLAR:

1. P. Turaga, R. Chellappa, V. S. Subrahmanian, and O. Udrea, "Machine recognition of human activities: A survey," *IEEE Trans. Circuits Syst. Video Technol.*, vol. 18, no. 11, pp. 1473–1488, Nov. 2008.
2. R. Poppe, "A survey on vision-based human action recognition," *Image Vis. Comput.*, vol. 28, no. 6, pp. 976–990, 2010. Author, F., Author, S., Author, T.: Book title. 2nd edn. Publisher, Location (1999).
3. S.-R. Ke, H. L. U. Thuc, Y.-J. Lee, J.-N. Hwang, J.-H. Yoo, and K.-H. Choi, "A review on videobased human activity recognition," *Computers*, vol. 2, no. 2, pp. 88–131, 2013.
4. S. Gracia, O. D. Suarez, G. B. Garcia, and T.-K. Kim, "Fast fight detection," *PLoS ONE*, vol. 10, no. 4, Apr. 2015, Art. no. e0120448.
5. O. Deniz, I. Serrano, G. Bueno, and T.-K. Kim, "Fast violence detection in video," in *Proc. Int. Conf. Comput. Vis. Theory Appl. (VISAPP)*, vol. 2, Jan. 2014, pp. 478–485
6. Khamidovich, X. E., & Murodovich, X. J. (2022). Parallel Programming in Java for Mobile App Development. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(3), 69–74. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijiaet/article/view/1155>
7. Khamidovich, X. E. ., & Murodovichelnur, X. J. . (2022). Computer-Vision Based Method for Human Action Recognition. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(3), 44–47. Retrieved from <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijiaet/article/view/1150>
8. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 11, 167-168.
9. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. *Scientific progress*, 3(4), 738-740.
10. Каримов, Ж. Х. (2021). ПРОЦЕДУРЫ ОПТИМИЗАЦИИ ГЛОБАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МНОГОСТАДИЙНЫМИ ПРОЦЕССАМИ. *Universum: технические науки*, (11-1 (92)), 48-52.
11. Пайзуллаханов, М. С. С., Холматов, А. А. У., & Собиров, М. М. У. (2020). Титанаты бария и стронция, синтезированные на солнечной печи. *Universum: технические науки*, (6-1 (75)), 49-56.

12. Payzullakhanov Mukhammad-Sultan Saidvalikhanovich, Xolmatov Abdurashid Abdurakhim ugli, Sobirov Muslim Muhsinjon ugli. Magnetic materials synthesized in the sun furnace // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. 2020. Vol. 7, Issue 4, pp.1499-13505.

13. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

**O'TMISH MUTAFAKKIRLARINING MUSIQA SAN'ATI YOSHLARNING MA'NAVIY –
AXLOQIY DUNYOQARASHLARINI VA MUSIQIY IDROKNI SHAKLLANTIRISHDAGI TUTGAN
O'RNI.**

Mahkamov Ulfat Ilhomovich

*Pedagogika fanlari doktori, professor
Chirchiq Davlat Pedagogika Universtiteti*

Abdixodirova Go`zal Erali qizi

Pedagogika va psixologiya yo`nalishi magistranti

Kalit so'zlar: *san`at, madaniyat, ma`naviyat, axloq, tarbiya*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'tmish mutafakkirlarining musiqa san'ati yoshlarning ma'naviy – axloqiy dunyoqarashlarini va musiqiy idrokni shakllantirishdagi tutgan o'rni haqida bayon etiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.*

Musiqa qadim zamonlardan boshlab kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim – tarbiyaning barcha tizimlarida keng qo'llanilgan. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atning barcha turlarida jumladan musiqa san'atida ham insonlarning ongli va ruhiyatida chuqur ta'sir qilib ularda yuksak ma'naviy xislatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida qarashganlar va bunda katta e'tibor berganlar.

Musiqa san'atning har bir janri shunday mavzular mazmunini o'z ichiga oladiki, unda mamlakatning, xalqning, insoniyatning boshidan kechirgan u yoki bu davri xalqning yoki millatning ruhi ifodalanadi.

Musiqa asarlarining kuchi uning haqchil va tushunarligida kishilar ichkiy ruhiy dunyosiga emotsional ta'sir ko'rsata olishidadir. Barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa san'atining ana shu xususiyatini hisobda olish muhimdir.

Milliy dastur yuksak ma'naviy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etar ekan bu borada musiqiy merosimizning o'rni ham ahamiyatlidir.

Musiqaning keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o'rta asr mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashganlar. Navoiy buyuk shoir mutafakkir olim, musiqachi, tarixchi, pedagog va mashhur davlat arbobi bo'lganligi barchamizga ayon. Shoir o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholaydi. U musiqa san'atida nihoyatda katta e'tibor qaratib, mazkur san'at turi kishilar ongi va ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita sifatida qaragan. Bunda u ayniqsa xalq og'zaki ijodiyotiva professional musiqa asarlariga alohida urg'u beradi va ushbu asarlar kishini ruhlantirish, unda ijobiy fazilatlarini rivojlantirish hamda yuksak his-tuyg'ularni shakllantirish kuchiga ega ekanligi xususida fanlar yuritadi. Musiqa tarbiyasi va ta'lim nazariyasi hamda amaliyoti butun madaniyatimiz bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat madaniyatining boshqa sohalarida bo'lganidek musiqa ham uning tajribiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish jarayonida muhim xususiyatlar va qonuniyatlar yorqin

namoyon bo'ldi. O'zbek musiqa san'atining ildizlari qadim zamonlarda borib taqaladi. Qadimgi madaniyatning kundan-kun obidalari, buyuk mutafakkirlari, shoirlari, yozuvchilarining boy adabiy merosi bundan guvohlikberadi. Tarix o'rta asrlarda talaygina atoqli musiqachilar, shoirlar san'atkorlarning nomlarini saqlab qolgan. O'rta osiyo musiqasi haqida qimmatli ma'lumotlarni IX asrdan buyon saqlab kelayotgan yozma manbaalardan olish mumkin. O'rta asrlarda musiqa matematika va astronomiya qatori fanlarning yagona sikliga kirganligidan O'rta osiyoning ko'pgina madaniyat arboblari unda o'z asarlaridan joy ajratganlar, Shuningdek uning nazariy asoslarida maxsus risolalar bag'ishlanganlar. Musiqa ta'limida nihoyatda katta ahamiyat bergan O'rta osiyolik mashhur musiqachilar orasida qomusiy olim Muhammad al Forobiy alohida o'rin egallaydi. Olim filosof va siyosiy masalalar bilan uzviy bog'liq holda maorif rivojlantirish yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga o'z asarlaridan salmoqli joy ajratgan. Forobiy alohida o'rin egallaydi. Olim filosofik va siyosiy masalalar bilan uzviy bog'liq holda maorifni rivojlantirish yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga o'z asarlaridan salmoqli joy ajratgan. Forobiy o'rta asrlarda matematik fanlar sarasiga kirgan musiqa nazariyasining asoschilaridan biridir. Turli sohalarda ko'rib chiqilgan musiqa ijodi masalalari Forobiy asarlarida muhim o'rinni egallaydi. Uning «Kitob ul musiqiy al kabir», qalam fil musiqiy hamda «Kitob fi ixso-al ulum va al ta'rif» (fanlarning tasnifi va xarakteristikasi haqida kitob) fundamental asari nihoyatda mashhur bo'lgan. Bu asarlar musiqa fani va madaniyati sohasida keyingi taraqqiyotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'zbek musiqa san'atining ildizlari juda qadimiydir. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. Eramizdan oldingi III asrda qariyib 2400 yil muqaddam Iskandar Zulqarnay O'rta Osiyoni zabt etganida yunonlar ajdodlarimiz bo'lmish va xorazmiyliklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning mashshoq xonandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiq va kuylarini yuksak ijrochilik san'ati shuningdek xushnavo turli cholg'u asboblarini o'rganib o'zlarining musiqa madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblarimiz ovropa xalqlari amaliyotida qo'llanib yangi ko'rinish (shakl) va nomlanishda tarqalgan (ud, lyutniya, dutor, dutor – gitara, arganik – arfa va boshqalar).

Ajdodlarimizning qadimgi zardushtiy (amashparastlik) diniy kitobi «Avesto» yozuvlarida binoan xudolarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan turli marosimlarda ham qo'shiqlar kuylagan.

II asrda O'rta Osiyoga islom dinini olib kelgan arablar ham ajdodlarimiz musiqa madaniyatidan bebahra qolmadilar. IX – X asrlarga kelib, samoniylar davlatida Buxoro yuksak san'at va ilmu-fan maskaniga aylandi. Bu davrda olamga mashhur olimlar, shoirlar va musiqachilar yetishib chiqdilar. Mashhur faylasuf al-Forobiy Ahmad farg'oniy alloma Abu Rayxon Beruniy buyuk, Abu Ali Ibn Sino, Abu Abdulla Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy va boshqalar o'rta asr sharq madaniyatida katta hissa qo'shdilar.

XI-XX asrlar davomida o'zbek xalqining madaniyati yangi cho'qqilarga erishdi. Ayniqsa pomiriylar zamonida o'zbek musiqa madaniyati yuksak rivojlandi. Bunda Abdurahmon

Jomiy, Alisher Navoiy Mirzo Ulug'bek, Zahariddin Muhammad Bobur kabi ulug' allomalarning xizmatlari alohida hurmatga sazovvor.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xonliklari rus chorizm tomonidan bosib olina boshlandi natijada musiqa madaniyatimizga rusiya orqali Ovrupa musiqasi ta'siri jarayoni boshlandi.

Shuro davrida musiqa madaniyatimizda turli o'zgarishlar ro'y berdi, chunonchi maktab ta'limi va musiqa o'quv yurtlarida musiqali ovrupaga fan sifatida o'rganish joriy etildi, shuningdek teatr konsert muassasalari tashkil etildi. Kompozitorlik musiqa ijodiyoti uslubi vujudga keldi natijada o'zbek kompozitorlari yetishib chiqdi. Ayniqsa shu uslubda ijod etilgan bolalar musiqasiga e'tibor kuchaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, o'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Xalq musiqa merosining zarchashmalari tarixan olislardan boshlanib xalq ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Xalq musiqa merosining ilk ko'rinishi va tafakkurining taraqqiy etishi natijasida tabiat go'zalliklaridan ilmhomlangan inson tomonidan mehnat jarayonida vujudga kelgan. Darhaqiqat, inson turmushniqo'shiqsiz, musiqasiz, tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy kamolotga erishuviga ham muhim rol o'ynagan. Mashhur alloma Abu Ali Ibn Sino o'zining «Kitob-ash-shifo» asarida yozishicha «Musiqqa-kishi ruhini davolovchi inson qalbiga kuchli ta'sir etuvchi estetik vositalardan biridir»- deydi. Musiqa va kuyning paydo bo'lishini olish shunday izohlaydi. «Tbiatning o'zi odamlarga nutq ato etgan. U shartli xarakterga ega bo'lib xushomat qilganda o'z tabiiyligini bildirganda yoki yalinib yolvorganda tovush mayinlashib natijada so'z ta'sirli va o'z maqsadiga erishadi. Keyin tahlid qilish ayniqsa odamlarga katta orom bag'sh etadi». O'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida, tanbur, rubob, g'ijjak, nay, karnay, sunray kabi ko'pgina cholg'u asboblarning nomlari qayd qilinadi. Shoir o'z asarlarida insonning go'zalligini va ma'naviy boyligini ijodiy mehnatini zavq-shavqini tarannum etadi. Jumladan olim o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatini yuqori baholaydi.

Umuman olganda o'tmish mutafakkirlarimiz musiqa san'ati borasida so'z yuritishar ekanlar, ular musiqa san'atining o'sib kelayotgan va davlatimiz, xalqimiz, qolaversa butun jahonga xizmat qiluvchi barkamol avlodimiz bo'lish yoshlarning ma'naviy axloqiy dunyoqarashlarini va ularning musiqiy idrokni shakllantirishdagi tutgan o'rnini yuqori baholashadi. Bu bejiz emas albatta chunki, musiqa san'atini sevib, uni chin yurakdan, qalbdan chuqur his qila oladigan, uni idrok eta oladigan inson ongi va qalbi doimo go'zallikka ezgulikka, yaxshi niyatlar sari talpinadi. Qalbi go'zal bo'lgan inson esa xunuklik va xudbinlik, qo'pollik va noinsoflikdan xazar qiladi, nafratlanadi. Bas shunday ekan, biz-bo'lajak musiqa o'qituvchilarining asosiy vazifasi qalbi pok, go'zal, har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy idrokini shakllantirish yo'llari haqida.

Bizga ma'lumki pedagogic ishlarning muvoffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning kasbiy faoliyati bog'liq bo'ladi. Har dars jarayoni uning oldiga bir qancha ta'lim tarbiyaviy

vazifa hamda muallimlarni qo'yadi. Ba'zan bu muallimlar to'satdan o'qituvchi uchun kutilmaganda sodir bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi faqatgina o'zining mutaxassisligi bo'yicha bilishlariga suyanibgina qolmasdan turli xildagi metodik vositalardan mohirona foydalanishi lozim. O'qituvchi ijodiy sezgirlik, tez fikrlay olish va aniqlovchilik xususiyatlariga ega bo'lishi lozim.

AXBOROT MANBALARI:

1. Abu Ali Ibn Sino «Kitob-ash-shifo»
2. Abu Nasr Al-Forobiy «Kitob ul musiqiy al kabir»
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi

SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDA SOYA NAVLARINING HOSILDORLIGINI KUZATISH

Kuvondiqov Olim Muhiddinovich

magistrant, Samarqand Davlat Universiteti Dots;

Kabulova Flora Jabborovna

Samarqand Davlat Universiteti


Annotatsiya; Samarqand viloyati hududida soya o'simligining selekta302 va Nafis navlarining hosildorligi va ularning hosili farqlari solishtirilgan .

Kalit so'zlar; Selekta302, Nafis, Soya, hosildorlik, Oqsil, ekish muddati, nav , gektar.

Soya dunyo dehqonchiligida ekin maydoni hajmiga ko'ra, bug'doy, sholi, makkajo'xoridan keyingi o'rinda bo'lib, 122 mln.gektardan ortiq maydonda yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha soya donidan olinadigan o'simlik moyi jahonda is'temol uchun ishlab chiqariladigan moyning 29 foizini tashkil etadi. Soya donida 50 foizgacha oqsil, 25 foizgacha moy bo'lganligi, undan 400 dan ziyod turli xil oziq-ovqat va chorva ozuqasi mahsulotlari olinadi. Shuning uchun ham soya eng qimmatbaho oqsil tanqisligini oldini oluvchi ekin sifatida tan olingan. Soya navlari ekish me'yoriga gektariga 60-70 kg bo'lib, qator oralari 70 sm kenglikda ekilganda yaxshi hosil berishi tajribada tasdiqlangan.

Turli soya navlarida hosildorlik ko'rsatkichlari 20-30s/ga gacha bo'lishi aniqlangan. A. Panjivening ma'lumotiga ko'ra soyaning O'zbek 2 navi hosildorligi 32,0 s/gani , Amurskaya 310 nav 27,0 s/gani tashkil etadi .

Ilmiy adabiyotlarda soyaning hosildorligi ekish muddati va me'yorlariga bog'liq, har bir soya navi uchun yuqori hosildorlikni ta'minlovchi maqbul ekish muddatini va meyorini aniqlashni talab etadi..



Mahsuldorlik parametrlaridan 1000 dona urug' massasi tahlili natijalariga ko'ra, "Nafis" navi 164,1 gr, "Selekta-302" navi 171,3 gr ekanligi aniqlandi.

Samarqand viloyati sharoitida tajriba maydonchalarida olib borgan tadqiqotlarimizda mahsuldorlik parametrlarining barcha belgilari hosildorlik ko'rsatkichini belgilaydi. Demak,

soya navlarining hosildorlik strukturasi tahlil natijalariga ko'ra biz o'rganib, o'zlashtirgan navlardan "Nafis" navining bo'yini o'rtacha balandligi 144,8 sm, yon shoxlar soni 3 ta, bitta o'simlikdagi barglar soni o'rtacha 27 dona bo'ldi. Bunda hosildorlik gektariga 25,2 sentnerni tashkil etdi.

"Selekta-302" navida o'simlikning bo'yi o'rtacha 128,9 sm, yon shoxlar soni 3-4 dona, bitta o'simlikdagi dukkaklar soni esa 68 dona 1000 dona urug'ning og'irligi esa 171,3 gramm bo'ldi. Hosildorlik gektariga 27,4 sentnerni tashkil etdi.

Tajribada Krasnodar o'lkasidan keltirilgan "Selekta-302" soya navi mahalliy "Nafis" navidan hosildorligi 2,2 s/ga ga farq qildi. "Selekta-302" bu ko'rsatkichi uning hosildorligi yuqori potensialiga ekanligi isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Panjiev A., Ubaydullaev SH., Erkaev N. "Soya", Qarshi, 2006 y.
2. Рахимова Т., Азимова Д., Рахимова А. Шаҳар муҳити экологияси махсус курсидан амалий машғулотлар ўтказишга доир методик қўлланма. –Тошкент, 2005.- 18 б.
3. Работнов Т.А. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах// Труды БИН АН СССР. 1950. Серия3. Вып.6.-С.7-204

**UZLUKSIZ TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASHDA XORIJIY TAJRIBADAN
FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.**

A.Axmedov

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

M.Meliqo'ziyeva

Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

Anotatsiya: *Maqolada Germaniya, Fransiya, SHvetsariya, Yaponiya, Koreya kabi ilg'or xorijiy ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. SHuningdek O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimi ham yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tajriba, xalqaro baholash, xorijiy tajriba, uzluksiz ta'lim.*

O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqazo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri. Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oily ta'lim, oliy o'quv yurtidan keying ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati hurmatlash, ta'lim tarbiyaning uzviy bog'liqligi bu jarayonni har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'lantirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish. Uzluksiz ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oldimizda ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriylikning oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviyligi ta'minlagan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi" hamda "Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqilishi zarurligi hamda mutaxassislikka aloqasi

bo'lmagan fanlar sonini ikki barobarga qisqartirish to'g'risida" aniq vazifalarni belgilab bergan edi. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad, maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'limni qadr-qimmat, obro va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoiylik va ishbilarmonlik ham bo'lishi kerak. Ta'limdagi muvaqqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Mamlakatimizda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu boradagi xalqaro tajriba ham o'rganilmoqda. Professor-o'qituvchilarimiz Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Chexiya, Niderlandiya kabi davlatlarda ta'lim olib, malaka oshirib kelmoqda. Yevropa Ittifoqi komissiyasining "Erasmus", "Texnik yordam dasturlari" kabi loyihalari oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, yanada takomillashtirishda qo'l kelmoqda. Irlandiya ta'lim tizimida yaqin-yaqingacha oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari ko'zda tutilmagan edi, deydi Irlandiya O'qitish hamda ta'lim olishni rivojlantirish milliy forumi direktori Tereza Margaret Magvayyer. Shu bois o'qituvchilarning malaka oshirish ishlari ixtiyoriy bo'lib kelgan. O'zbekistonning pedagog kadrlar malakasini oshirishga davlat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishi, ularning dars jarayonlarida zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va xorijiy tillarni o'rganib borish tajribasidan iborat. O'zbekiston 2021-yil PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishni rejalashtirgan. O'quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o'rtoqlashishga to'g'ri keladi. Germaniya ta'limi o'ziga xos murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud. Fransiya ta'lim tizimini oladigan bo'lsak Fransiyada ta'lim sifati ta'lim, sport va tadqiqotlar bo'yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Fransiya ta'lim tizimiga ko'ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4-yil boshlang'ich sinfdan o'qiydi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham deyarli shunday. Shu o'rinda Shvetsariya ta'lim tizimini ham aytadigan bo'lsak Oliy ta'lim Shvetsariyada oliy ta'limning eng kuchli jihati amaliyotga yo'nalganligidir. Bu yerdagi davlat universitetlari aniq va huquq sohasida o'qitish bilan mashhur. Ta'limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so'z yuritish ekanmiz, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o'zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro, chet el tajribasi ya'ni ta'limda o'z yo'nalishiga va uslubiga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish hozirda mamlakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ni tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir. Yana bir xalqaro tajribalarni joriy etish doirasida, Koreya davlatining tajribasi olib kildi, bu tajriba barchaga ma'lum bo'lgan kredit- modul tizimidir. Ushbu kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara berganligi sababdan ham, bu xalqaro va ilg'or tajriba

ayrim oliy o'quv yurtlarimizda tashkil etildi .Va o'quv yurtlarida ta'lim kredit –modul tizimini joriy etish bilanoq, ta'limda sifatni yanada yaxshilanganligini ko'rish mumkin Darhaqiqat bu kabi o'z sinovidan o'tgan va yaxshi samara beradigan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o'zlashtirib boriladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish , ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda TIMSSva TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Rossiya Federasiyasida ham o'ziga xos tajriba shakllangan . 2022-yilda O'zbekiston Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturida (Program for International Student Assessment,PISA) ishtirok etadi.O'zbekistonni ushbu xalqaro dasturga tayyorgarlik ko'rishiga Rossiya ta'lim akademiyasining Ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti Ta'lim sifatini baholash markazi ko'maklashmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonlik yoshlar tomonidan Yaponiyada ta'lim olishga qiziqish katta va yapon tilini mamlakatimiz yigit-qizlari qiziqib o'rganmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda oltita oliy o'quv yurti ta'lim dasturlariga yapon tilini o'rganish kiritilgan.SHuningdek, Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkiloti (JICA)ning yordami bilan bir qator oliy o'quv yurtlarida yapon tilini o'rganish markazlari ochilgan. Bundan tashqari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ikki mamlakatning ta'lim va madaniyat sohasidagi aloqalarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan Yaponiya tadqiqotlari tahlil markazining ochilish marosimi o'tkazildi. Yaponiya bizning strategik hamkorimizdir va Yaponiya bilan mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinib kelinmoqda. Jahondagi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning bosib o'tgan yo'llarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida qo'llay olgan .Jumladan ,[4] Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Tavyan kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarda aynan Yaponiya tajribasining ko'plab jihatlaridan unumli foydalanilgan. Shuning uchun ham Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba'zi bir jihatlarini O'zbekistonda ham qo'llash manfaatli bo'ladi. Shu tufayli ikki mamlakat o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo`ldoshev J.F. Xorijda ta`lim (metodik qo`llanma) Toshkent: 1995-yil
2. Pardayeva Maftuna Ulug`bek qizi maqolasini 1-3 betlari.
3. Abdiyeva Komila Suvonqulova maqolasini 2-3 betlaridan olindi.
4. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 59-60.
5. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
6. Ахмедов, А. Ю. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ АЖРАЛМАС ҚИСМИ БЎЛГАН КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 8).
7. Ахмедов, А. Ю. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, (4), 778-781.

РЕГУЛИРОВАНИЕ СОЛЕВОГО РЕЖИМА ПОЧВ С ПОМОЩЬЮ ЗИМНИХ ПРОМЫВОК И РАСЧЕТ ПРОМЫВНЫХ НОРМ

Шерматов Е

, д.т.н. НИИ Ирригации и водных проблем, Узбекистан;

Рахимов Н.Ш

, соискатель, НИИ Ирригации и водных проблем, Узбекистан;

Мирхасилова З.К

., доцент PhD, НИУ ТИИИМСХ; Узбекистан;

Якубов М.А

д.т.н., профессор, НИИ Ирригации и водных проблем, Узбекистан

Аннотация: В статье рассмотрена проблема возникновения засоленных почв в условиях аридных земель на примере Голодной степи в пределах Узбекистана. Выполнены количественные расчеты по борьбе с засолением на основе метода водно-солевого баланса

Во всем мире в борьбе с засолением почв широко применяются промывки земель на фоне дренажа.

Теоретические и практические основы по установлению промывных норм и опыта по их проведению в зависимости от гидрогеолого - почвенно мелиоративных условий, степени засоления и их химического состава достаточно подробно описаны в трудах С.Ф. Аверьянова [1], И.П. Айдарова [2], М.А.Якубова, Х.И. Якубова, Ш.Х.Якубова [5], А.Р. Рамазанова и др.[4], Р.К. Икрамова [3] и др.

Обзор этих работ показывает, что в них детально рассмотрены такие вопросы, как скорость растворения и выноса солей из почв в зависимости от промывных норм, механического состава почв, коэффициентов диффузии и др. Для расчёта промывных норм мы использовали метод САНИИРИ, который довольно хорошо учитывает особенности почвенно-мелиоративных условий и типы засоления объекта исследований (М.А. Якубов, Р.К. Икрамов и др.1982 г., с. 3-10).

Согласно данному подходу, для вегетационного периода водно-солевой баланс корнеобитаемой зоны в упрощенном виде можно описать уравнением:

$$\Delta W^{KC} = W_H^{KC} - W_K^{KC} = O_c + N_{np} - ET \pm g, \quad \text{м}^3/\text{га} \quad (1.1)$$

$$\Delta C^{KC} = C_H^{KC} - C_K^{KC} = N_c \cdot C_{np} \pm Cg \cdot g, \quad \text{т/га} \quad (1.2)$$

Где ΔW^{KC} ΔC^{KC} - изменение запасов влаги и солей в корнеобитаемой зоне; W_H^{KC} W_K^{KC} C_H^{KC} C_K^{KC} - начальные и конечные запасы влаги и солей в корнеобитаемой зоне за расчётный период. O_c – атмосферные осадки за расчётный период (мм или $\text{м}^3/\text{га}$). N_{np} – промывная норма, $\text{м}^3/\text{га}$; ET – эвапотранспирация, $\text{м}^3/\text{га}$; $\pm g$, $\pm Cg$ - водо и

солеобмен корнеобитаемого слоя с нижележащими; Спр, C_g - минерализация соответствующих элементов водного баланса, г/л.

Величину эвапотранспирации (ЕТ) за невегетационный период можно рассчитать по формуле института «Средазгипроводхлопок» (УзГИП): $ET = \frac{E_o^{1.28}}{5,047}$

где E_o – среднемесячная испаряемость, мм, (по Иванову, Молчанову):

$$E_o = 0,0018 \cdot 0,8(t^0 + 25)^2 \cdot (100 - \alpha)$$

- t^0 – среднемесячная температура воздуха $^{\circ}\text{C}$; α - среднемесячная относительная влажность воздуха %.

Исходные запасы в корнеобитаемой зоне рассчитываются как:

$$C_H^{KC} = h_{KC} \cdot \rho \cdot S^{KC} \cdot 100 \cdot Y, \quad \text{т/га} \quad (1.3)$$

где S_H^{KC} – содержание легкорастворимых солей в корнеобитаемом слое перед промывкой, % от веса сухой почвы; ρ – объёмная масса почв, т/м³; Y – коэффициент перехода водных вытяжек на исходные расчётные запасы солей, по данным П.С.Панина [1978 г. с.90], для хлоридных почв – 1,17; хлоридно-сульфатных и сульфатных почв – 1.41.

Для случая нисходящего тока влаги (-g) вынос солей с инфильтрационными водами из корнеобитаемого слоя в нижние определяется по формуле:

$$-C_g = C^{KC} \left(1 - \frac{1}{\frac{K^1}{e \frac{\gamma}{\gamma}}}\right), \quad \text{м}^3/\text{га} \quad (1.4)$$

где K^1 – кратность водообмена в корнеобитаемом слое

$$K^1 = \frac{g}{h^{KC} \cdot m_0 \cdot 10000} \quad (1.5)$$

В случае подпитывания корнеобитаемого слоя (+g), то приток солей восходящими точками определяется как:

$$+C_g = 0.001 \cdot q \cdot M_{BT} \quad (1.6)$$

здесь M_{BT} – минерализация нисходящего тока, г/л

$$M_{BT} = \frac{C^{KC} \cdot \sigma}{W^{KC} \cdot 100} \quad (1.7)$$

здесь σ – пересчётный коэффициент от содержания солей в почвах от % ной формы к минерализации почвенного раствора. По П.С.Панину его значение для хлоридных почв 0,82; хлоридно-сульфатных и сульфатных почв 0,535. Методика и алгоритм расчёта по данным уравнениям детально изложена в соответствующих работах М.А.Якубова, Р.К Икрамова и др. [6]

Анализ многолетних данных по Голодной степи показывает, что в последние годы (особенно в маловодные по осадкам), нормы осенне-зимних эксплуатационных

промывок составляют порядка 1800-2800 м³/га, в другие годы она составляет 3600-400 м³/га.

Нами выполнены расчеты водно-солевого баланса корнеобитаемого слоя для случая маловодного года, когда промывная норма равнялась 2700 м³/га и для случая, когда она была 4800 м³/га (многоводный год), таблица 1.

Таблица 1

Расчёт изменения водно-солевого баланса корнеобитаемого слоя почв под влиянием зимних промывок (на примере Голодной степи)

Показатель	Маловодный год	Многоводный год
Водный баланс (м ³ /га)		
Приход: Норма промывки (Nпр)	2700	4400
Осадки (Ос) за XII-III месяцы	1748	1060
Всего приход (ΣПр)	4448	5460
Расход: Эвапотранспирация ЕТп (за XII-III)	2841	2628
Рассоляющий расход (-q)	-1607	-2832
Солевой баланс, (т/га)		
Минерализация промывной воды, г/л	1,4	1,6
Приток солей: - с промывной водой	3,8	7,04
- вынос солей с рассоляющим током (-Cg)	38,6	60,7
Исходное содержание солей в почве S _Н ^{кк} , %	0,700	0,700
Исходные запасы солей (C _Н ^{кк}), т/га	137,9	137,9
Конечные запасы солей (C _к ^{кк}), т/га	103,1	84,2
Конечное содержание солей (S _к ^{кк}), %	0,526	0,386

Результаты расчетов показывают, что для маловодного года, когда эксплуатационные промывки проводятся небольшими нормами (1800-2800 м³/га), конечное содержание солей в корнеобитаемом слое (S_к^{кк}) сохраняется довольно высоким – в пределах 0,520 % от массы сухой почвы (по плотному остатку).

В многоводные же годы при подаче нормы 4400 м³/га содержание легкорастворимых солей можно снизить до 0,386 % от сухой массы, что близко к допустимому пределу по плотному остатку.

Приведенный методический подход позволит рассчитать оптимальную промывную норму для борьбы с засолением в т.ч. с пятнистым засолением почв, а также учесть сроки их проведения с учетом водности года и температуры воздуха, и типа засоления и для других объектов.

В целом основные предпосылки для недопущения засоления земель включают в себя следующие принципы:

-улучшения спланированности орошаемого поля для равномерного увлажнения почв;

- повышение культуры земледелия;
- поддержания глубины грунтовых вод ниже критического уровня с помощью дренажа;
- исключение переполивов земель с помощью внедрения водосберегающих способов, технологий и т.д.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Аверьянов С.А. Борьба с засолением орошаемых земель. М.: Колос, 1978. –288 с.
2. Айдаров И.П. Пути решения региональных водохозяйственных проблем//Мелиорация и водное хозяйство. М., 2010. №5. С.43-48.
3. Икрамов Р.К. Исследование интегрированного управления почвенными и водными ресурсами на уровне фермерских хозяйств//Центрально-азиатская международная научно-практическая конференция WATER/ Алматы. 2003 г. с. 609-612.
4. Рамазанов А.Р., Якубов Х.И. Промывные влагозарядковые поливы. Ташкент: Мехнат 1988 г. с.191.
5. Якубов М.А., Якубов Х.И., Якубов Ш.Х. Коллекторно-дренажный сток Центральной Азии и оценка его использования на орошение. Монография. Ташкент: Из-во ИПТД «Узбекистан», 2011. 189 с.
6. Якубов М.А., Икрамов Р.К., Джалилова Т., Каримова Н.М. К вопросу методики прогнозирования минерализации почвенного раствора и грунтовых вод при близком их залегании на крупных орошаемых массивах // Сб. научных трудов САНИИРИ. 1982. С.3-10.

MAKTAB YOSHDAGI BOLALAR GARDEROBIDAGI KIYIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI

Yusupova Dilfuza Ubaydulloyevna

Farg'ona Politexnika instituti,

"Yengil sanoat texnologiyalari" kafedrası, assistenti,

Usmonova Mohira Habibjon qizi

Farg'ona Politexnika instituti, magistranti

Annotatsiya : *Ushbu maqolada maktab yoshdagi bolalar davriga xos kiyinish madaniyati va ularning turlari, yoshlar garderobiga qaysi kiyim turlari kirishi va ularning qanday jihatlariga e'tibor berish kerakligi, maktab yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktab yoshdagi bolalar garderoibi, zamonaviy liboslar, transformatsiya, milliy matolar, matolar kombinatsiyasi.*

Аннотация : *В данной статье анализируются культура одежды детей школьного возраста и их виды, какие виды одежды должны входить в гардероб юношества и на какие ее стороны следует обращать внимание, характеристика требований к одежде в гардеробе подростков. дети школьного возраста.*

Ключевые слова: *Детский гардероб школьного возраста, современная одежда, трансформация, национальные ткани, сочетания тканей.*

Abstract: *This article analyzes the culture of school-age children's clothing and their types, what types of clothes should be included in the wardrobe of young people and what aspects of them should be paid attention to, the characteristics of the requirements for clothes in the wardrobe of school-age children.*

Keywords: *School-age children's wardrobe, modern clothes, transformation, national fabrics, combinations of fabrics.*

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodning rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, bolaning o'sib rivojlanishiga, to'g'ri tarbiya va ta'lim olishiga katta imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan havfsiz mahsulotlar bilan bolalarni ta'minlash muammosi davlatimizning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki yosh avlodning sog'lig'i va kelajakdagi muvaffiqiyati bu vazifa yechimining natijasiga bog'liqdir. Shu bilan birga maktab yoshdagi bolalar kiyimining o'ziga xosligi ham muhim rol o'ynaydi. Bu yoshda bolalar kiyimiga qo'yiladigan talablar bir muncha o'ziga xos hususiyatlari bilan ajralib turadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oxirgi yillarda yangi materiallar paydo bo'lishiga yuzaga keladigan bolalar kiyim-kechagini loyihalash katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Maktab yoshdagi bolalar

gavdasining shakli, yangidan shakllantirish, standart usullari bo'yicha, ayni paytda juda mashhur ochiq uslub va trikotaj ishlab chiqarishda katta ulushini qo'shmoqda.

Shu bilan bir qatorda maktab yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan kiyimlarga ko'pgina talablar qo'yiladi. Birinchi navbatda ular: qulay, sifatli va yorqin bo'lishi lozim va albatta tabiiy tolali matolardan tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir.

Sintetik kiyim turlaridan ajratilgan mikroplastikani yuvishda atmosferada va tuproqda to'planadi va sayyoramizni ifloslantiradi. Har yili dunyoda 150 milliard kiyim ishlab chiqariladi, shulardan faqat yarmi sotib olinadi. Haddan tashqari ko'p miqdordagi ishlab chiqarish tufayli sotilmagan tovarlar hajmi oshib boradi, sotilmagan tovarlar yo'q qilinadi yoki chiqindilarga tashlanadi [4].

Rassom materialni ongli ravishda tanlaydi, uning xususiyatlarini belgilaydi va sharhlaydi, mahsulotni umumiy shaklga, ya'ni badiiy va kompozitsion birbutunlikga yig'ish uchun muhandislik va texnologiya ishlarini bajaradi [5].

Odatda, barcha ko'rsatkichlarga mos tushuvchi kiyimlarni tanlash murakkab jarayon hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham yoshlarbop zamonaviy liboslarni tanlashda uzoq vaqt va e'tibor talab qilinadi. Yoshlarbop zamonaviy liboslar nafaqat, kiyim, balki jamiyatda o'z o'rnini, o'z hohish-istak va qiziqishlarini ko'rsata olish ham demakdir. Buning uchun esa maktab yoshdagi bolalar uchun kiyimlarni aniq va to'g'ri tanlay olish kerak bo'ladi. Aynan, maktab yoshdagi bolalar davrida biror bir aniq guruhga xos bo'lishni hohlaydilar, ya'ni ma'lum bir uslub asosida kiyinishni istaydilar. Masalan, ijod bilan qiziquvchi yosh o'smirlar yorqin, ko'p yozuvli kiyimlarni ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari, bunday kiyimlar juda yorqin tusda yaltirovchi ranglargacha ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda o'smir bolalar atrofdagilarga ishga bo'lgan nostandart munosabatini va xarakterining yangi ko'rinishlarini ko'z-ko'z qiladilar. O'smirlar uchun zamonaviy liboslardan tashkil topgan garderob quyidagilarni o'z ichiga oladi: oddiy maykalar bilan birga rasmi bo'lgan maykalar, kalta va uzun yengli rasmi yoki yo'l-yo'l ko'ylaklar. Shuningdek, shimlar, jinsi, shorti, bridjilar va h.k. O'smirlar garderobida ko'pgina zamonaviy liboslarni ham uchratish mumkin. O'smirlar odatda, o'z garderobini ochganda nima kiyish kerakligi to'g'risida bosh qotirmaslikni xush ko'radilar. Yoshlar an'anaviy tarzda o'ziga qulay bo'lgan kiyimlarni tanlaydilar. Ular uchun keng shimlar yoki jinsi, keng ko'ylaklarni kiyish yetarli xolos. Albatta, o'smirlar orasida o'zini doimiy ravishda kuzatib yuruvchilar ham topiladi. Bunday o'smirlar uchun dizaynerlar bir oz tanaga yopishib turuvchi modellarni tavsiya qilishadi. O'smir qizlarda kiyimlar bo'yicha tanlov juda ham ko'p. Bular: turli bichimdagi ko'ylak va yubkalar, shimlar, jinsi, shorti va boshqalar. Yoshlarbop liboslar boshqa yoshdagi kiyimlarga nisbatan, bir-birini kombinatsiyalashi mumkinligi bilan ham ajralib turadi. Odatda, bunday kombinatsiyalash yaxshi natija beradi [1].

Maktab yoshdagi bolalar uchun tanlangan zamonaviy liboslar chiroyli va yangi dizayndan tashqari yana bir qator zarur va asosiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim. Maktab yoshdagi bolalar kiyimlari nafaqat, zamonaviy, balki, sifatli, chidamli, tana uchun zararsiz ham bo'lishi darkor. Ko'pgina mahsulot ishlab chiqaruvchilar ajoyib dizayn yaratadilar,

ammo mahsulot sifatiga kam e'tibor beradilar, odatda kiyimlar uzoqqa chidamli bo'lmay, tez eskiradi, rangi chiqib, xiralashib qoladi. Ishlab chiqaruvchilar bunday kiyimlarni, odatda, sarf-harajatini o'ylab yaratadilar. Agar maktab yoshdagi bolalar kiyimlarini mavsumiy kamaytirilgan narxda sotuvga qo'yilgan bo'lsa, birinchi navbatda uning sifatiga qarash lozimdir. Odatda, o'smirlar uchun kiyimlarni qimmatga ham olish noto'g'ri, sababi maktab yoshdagi bolalar tez o'sib boradilar va ular garderobini kamida bir necha bor almashtirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, maktab yoshdagi bolalar kiyimlariga nisbatan mavsumiy narxining pasaytirish hollarida sifatli bo'lgan mahsulotlarni ham topib, xarid qilish mumkin. Ular orasida urfdan qolgan yoki mavsumdan o'tgan kiyimlar ham bo'lishi mumkin. Bunday hollarda qilingan xarid ota-onalarga oilaviy byudjetiga putur yetkazmaydi. Shuningdek, kostyumning asosiy jihatlaridan biri bo'lgan poyafzal ham asosiy rol o'ynaydi. Bunday hollarda bir o'lcham katta bo'lgan poyafzalni xarid qilish mumkin, ammo o'ta katta oyoq kiyim bolaning yurishiga noqulayliklar tug'diradi. Tabiiy charmdan tayyorlangan poyafzallar maktab yoshdagi bolalar uchun qulay va zararsiz hisoblanadi.

Maktab yoshdagi bolalar kiyimlari kattalar ko'ylaklari, pidjak va shimlaridan butunlay farq qiladi. Bular nafaqat, moda yoki uslubga tegishlidir, balki uni tayyorlashda ishlatiladigan materialga ham taaluqlidir. Yoshlarbop kiyim mustahkam, chidamli bo'lishi bilan birga zamonaviy urfga xos bo'lgan va chiroyli ham bo'lishi lozim. Shu bilan birga, maktab yoshdagi bolalar kiyimlari narx jihatidan ham mos kelishi kerak.

Ma'lumki, yoshlik – bu orzu va umidlar, yorqin va unutilmas daqiqalar davri hisoblanadi. Har bir bola biror idealga taqlid qilgan holda, hech kimga o'xshamagan uslubda kiyinishni istaydi. Aksariyat hollarda, maktab yoshdagi bolalar garderobi hoh u o'g'il bola yoki qiz bola bo'lsin onalar maslahatiga tayanib tanlanadi.

Maktab yoshdagi bolalar ulg'aygani sari kiyim tanlashni o'z didlariga moslashtirib, aynan o'zlari tanlay boshlaydilar. Bunday hollarda, onaga ma'qul bo'lgan kiyim, bolada e'tirozni kelib chiqishiga olib keladi. Aynan shuning uchun ham, maktab yoshdagi bolalar uchun kiyim xarid qilinayotganda ular bilan birgalikda tanlash lozim, aks holda bunday holatda pulni havoga sovurish hisoblanadi. Maktab yoshdagi bolalar ular uchun qulay, foydali bo'lgan kiyimlarni avvaldan bilishadi. Ammo maktab yoshdagi bolalar uchun kiyimlar qanday sifatlarga ega bo'lishiga ham ahamiyat berish lozimdir. Albatta, o'smir liboslari urfga mos, chiroyli va zamonaviy ko'rinishda bo'lishi talab etiladi. Yorqin ranglar, turli xil rasmlar va dekorativ bezaklar, o'zgacha model va bichim- bularning barchasi o'smirlar uchun muhimdir. Bugungi kunda turli xil do'konlar o'smirlar uchun zamonaviy kiyimlarni taqdim etib kelmoqdalar. Bunday kiyimlar ulgurji va chakana sotuv asosida ham olib borilmoqda. Qoida bo'yicha, ular tomonidan taqdim qilinayotgan assortiment katta bo'lib o'smirlar o'zlari uchun aynan hohishistaklari bo'yicha kiyimlarni turli xil fason va rangi bo'yicha tanlashlari mumkindir. [8]

Ota-onalar uchun esa maktab yoshdagi farzandlariga kiyim tanlash bosh og'riqning o'zginasidir. Ayrim hollarda, o'smirlar tomonidan tanlangan kiyim ota-onalarni shok holatiga ham keltiradi. Maktab yoshdagi bolalar uchun zamonaviy kiyim ularning ichki

hissiyotlarini ifodalaydi. Maktab yoshdagi bolalar faqat keyingina qulaylik va funksionallik to'g'risida fikrlashi mumkin. Bunday holatda, ota-ona farzandiga kiyim tanlashi yoki o'smir bolasining o'ziga imkon berishi kerakmi? Bu ikki holatda ham meyor tanlanishi kerakdir, ya'ni ota-ona o'z fikrini butunlay farzandiga o'tkazmasligi, ammo bir vaqtning o'zida to'g'ri yo'naltira olishi ham lozimdir. Maktab yoshdagi bolalar kiyimlari qulay va havoga mos tarzda tanlanishi lozim [2].

Maktab yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarni ishlab chiqishda albatta, O'zbekiston hududining iqlimiy jihatlarini o'rganish muhim. Buning uchun dizaynerlar har bir mavsumga xos bo'lgan kiyimlar turini ishlab chiqishi, odam tanasi nafas oladigan matolarni ishlab chiqarish va ular asosida yangi dizayn loyihalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday holatlarda kiyimlarni transformatsiya qilish yo'li bilan maktablar uchun maxsus liboslar gaderobini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Maktablar uchun qulay, zamonaviy va bejirim liboslarni yaratishda dizaynerlar bir necha muammolarni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Jumladan, yaratilayotgan kiyim raqobatbardosh, sifatli va iste'molchi talabiga mos bo'lishi lozim. Albatta, maktab bolalar uchun xam libos yaratishda tabiiy matolar turiga murojaat qilinadi. Bular sirasiga, shoyi, ip gazlama va jinsi matolari kiradi. Bunday matolar nafaqat sidirg'a, balki yo'l-yo'l, katak-katak, gulli naqshli matolar ko'proq tavsiya etiladi. Shuningdek, matolar rangi maktab yoshiga mos bo'lishi lozim [7].

Milliy kiyimlar millatimizning etnik madaniyatini ko'tarish jarayonlarini o'rganish vositasidir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda u o'zbek modasining zamonaviy liboslarini loyihalash jarayonida g'oya va manba sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga bevosita ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, mamlakatimiz modasida "kamtarona moda" ning sinteziga asoslangan dizayn mexanizmlarini amalga oshirish uchun muhim metodologik manba sifatida muhim rol o'ynaydi [6].



1-rasm. Milliy matolardan tayyorlangan bolalar kiyimlari [8].

XULOSA

Mustaqillik yillarida ishlab chiqarish sohasida birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi,

- "Dizaynerlar birinchi marta o'zlarining rivojlanishi uchun davlatdan emas, balki xususiy tuzilmalardan buyurtmalar olishni boshladilar. Bundan tashqari, yangi tashkil

etilgan tijorat tuzilmalarining o'zi ko'plab logotiplar, savdo markalari, vizitkalar, kalendar sovg'alari, broshyuralar va boshqa reklama materiallariga muhtoj edi" [3].

Yuqorida keltirilgan sifatlarlarni inobatga olgan xolda milliy kiyinish madaniyatiga mos bo'lgan libos namunalarini ishlab chiqish va ularni tavsiya etish dizaynerlarning bosh maqsadidir. O'zbek qizlari yoshligidanoq ibo-hayoga, nafosatga o'rgatilib boriladi. Bu jihatlar ularning nafaqat umumiy madaniyatida, balki kiyinishida ham bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, zamonaviy dizaynerlarimiz taqdim qilayotgan kiyimlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmasdan, meyyor kategoriyalariga amal qilish har bir o'zbek qiziga xos bo'lishi o'rinlidir. Bugungi kunda o'zbek dizaynerlari mana shunday ko'rsatkichlarni inobatga olib, milliy matolarimiz, bichimlarimizni unutmagan xolda yangi libos to'plamlarini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lishmoqda.

REFERENCES

1. Xasanbayeva G.K. Spetsifika dizayna molodyojnoy odejdi: -Toshkent: 2008 yil. 40-43 betlar.
2. F.Abdullayeva. Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi: - Toshkent:2006.
3. F.Z.Atahanova, A.S.Saidiganieva, S.A.Karimova, G.E.Umarov, N.A.Abdukadirova. "Artistic design education in Uzbekistan: origins, features, problems": Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 884-889. 884
Info@philosophicalreadings.org 10.5281/zenodo.5184686
4. Nargiza A.U. "Effective Options Of The Fashion Recycling In The Concept Of Environmental Sustainability Development". International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 71-73. www.ijeais.org/ijamsr
5. M.X. Sovridinova D. U.Yusupova., Qodirova D,K., Nigmatova F.U. Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women, The american journal of Engineering and Technology 03.05.2021 yil.
6. Irgasheva Ma'suda, O'smir yoshdagi bolalar garderobidagi kiyimlarga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlari tahlili maqolasi.
7. Sovridinova Mohidil Husan qizi, Yusupova Dilfuza Ubaydulloyevna, Katta yoshdagi ayollar kiyimlariga bo'lgan talablarni aniqlash Eurasian journal of academic research <https://doi.org/10.5281/zenodo.5813456>, Volume 1 Issue 9, December 2021, ISSN 2181-2020
8. Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing) S M Husanqizi, Y D Ubaydulloyevna, HJ Valiyevich - Asian Journal of Multidimensional Research, 2021

TILGA E'TIBOR QARATISH , VATANGA E'TIBOR QARATISHDUR

Nurmuradova Dilovar Boxadirovna

Alisher Navoiy nomli o'zbek tili va adabiyoti universitetining o'zbek filologiyasi "Adabiyotshunislik" mutaxassisligi 2-kurs magistranti, Nizomiy nomli TDPU akademik litseyining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada , Til xalqning bebaho boyligi, milliy g'ururi timsolidir. Turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek tili ham qadriyatlarimizning yorqin namunasi sifatida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy tilimizning chinakam latofati va jozibasini tarannum etib, ijodini yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Asrlar davomida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan adabiy meros ona tilimizning boqiy qudratidan dalolat beradi, albatta. Shular haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ona tili, yurt, qadriyatlar, nutq , Vatan, ma'naviyat, qaror,.*

PAYING ATTENTION TO THE LANGUAGE MEANS PAYING ATTENTION TO THE MOTHERLAND

Nurmurodova Dilovar Bokhadirovna

2nd-year master's degree in Uzbek philology "Literary Studies" at the Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature, teacher of native language and literature at Nizomiy TDPU academic lyceum.

Annotation: *In three articles, language is a priceless wealth of the people, a symbol of national pride. The Uzbek language, which belongs to the Turkic language family, has been passed down to generations as an example of our values. Alisher Navoi, the sultan of words, buried the true beauty and charm of our language and brought his creativity to a high peak. The great literary heritage left by our great ancestors for centuries proves the eternal power of our mother tongue, of course. This is what we are talking about.*

Key words: *Mother tongue, country, values, speech, Motherland, spirituality, decision.*

ОБРАЩАТЬ ВНИМАНИЕ НА ЯЗЫК - ЗНАЧИТ ОБРАЩАТЬ ВНИМАНИЕ НА РОДИНУ

Нурмуродова Диловар Бохадировна

2 курс магистра узбекской филологии «Литературоведение» Университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, преподаватель родного языка и литературы Низомийского академического лицея ТДПУ.

Аннотация: *В трех статьях язык – бесценное богатство народа, символ национальной гордости. Узбекский язык, принадлежащий к тюркской языковой*

семе, предавался из поколения в поколение как пример наших ценностей. Алишер Навои, султан слова, похоронил истинную красоту и очарование нашего языка и вознес свое творчество на высокую вершину. Великое литературное наследие, оставленное нашими великими предками на протяжении веков, безусловно, доказывает вечную силу нашего родного языка. Это то, о чем мы говорим.

Ключевые слова: Родной язык, страна, ценности, речь, Родина, духовность, решение.

Bugun yurtimiz bo'ylab O'zbek tili bayramining keng miqyosda nishonlanayotgani, tom ma'noda, xalqimizning tarixiy yutug'idir. O'zbek tilining mavqei va nufuzini yanada yuksaltirishga ulkan e'tibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar hali bisyor. Chunonchi, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida o'zbek adabiy tili me'yorlaridan foydalanish bo'yicha juz'iy kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Aholining ayrim qatlamlari, xususan, yoshlar orasida ona tilimizga bepisand munosabatda bo'layotgan, muloqot jarayonida turli tillarni qo'shib, yozma va og'zaki nutq qoidalari buzayotganlar ham yo'q emas. So'zga chiqqanlar til, muloqot insonning ma'naviy olamini ko'rsatib, ona tilimizga bo'lgan bunday e'tibor Vatanga nisbatan nechog'lik daxldorligimizni namoyon etishi ta'kidlandi. Ma'naviy hayotimizga raxna solayotgan bunday illatlarga qarshi mahallalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish borasida mulohazalar o'rta tashlandi.

"Mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) 2020 — 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish;

ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilmfan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash;

Va boshqa ishlar amalga oshirildi.

"2025-yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga yetkazish;

dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish; xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish;

g) davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish sohasida:

2030-yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish;

2025-yilga qadar "O'zbek tilining do'stlari" klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni.

Ona tili – millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Tarixga nazar solsak, Ona tilimiz – o'zbek tiliga 1989 yil 21 oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o'shanda til to'g'risida qonun qabul qilinmaganda edi, o'zbek tili ham tarix saxifalaridan joy olgan bo'larmidi?!.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlool yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi.

Shukrkim, milliy tilimizga bo'lgan e'tibor va hurmatni Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida yana bir bor tarixiy ahamiyat kasb etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Eng buyuk qudrat ona tildadir. Yana bir bor Yurtboshimiz o'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatini namoyon etdi. Bu muhabbat ona tilga, Vatanga bo'lgan muhabbatdir.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarining so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu, o'z navbatida, o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YuNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya

tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir.

O'z ona tilimizga bo'lgan muhabbatni xalqimizning, odamlarning samimiy suhbatlarida, yuksak axloqiy fazilatlarida ko'rib, beixtiyor shunday el farzandi ekanligimizdan faxrlanamiz.

Bugun qaysi jabhani olmaylik, ularning barchasida davlat tilida ish yuritish va o'zbek tilining nufuzini oshirish bilan bog'liq ishlar sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarilganligini ko'ramiz. Jumladan, "O'zeltexsanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalarda ham o'zbek tiliga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarganligini ko'rish mumkin. Buni, avvalo, xat-hujjatlar almashinuvida, qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, qolaversa, ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulot qadog'i va uning yorliqlarida sof o'zbek adabiy tili talablariga amal qilinayotganligini guvohi bo'lish mumkin. Reklama va peshtaxtalarda ham bu kabi qat'iy talablar e'tiborga olinmoqda. Tadbirlar va barcha yig'ilishlar avvalo o'zbek tilida, zaruratga qarab boshqa tillarda tashkil qilinmoqda.

Shu aziz Vatanda yashayotgan fuqaro borki, har qachongidan ko'ra o'zbek tiliga bo'lgan yuksak iftixor va e'tiborni ich-ichidan his etib turibdi.

Darhaqiqat, til madaniyat ko'zgusi va ruhimizning qanoti ekan, biz ona tilimiz orqali xalqlar, millat va elatlar orasida hamisha aziz-u mukarram ekanligimizni aslo unutmasligimiz kerak. O'zbekona lutf, muomala, milliy qadriyatlar, odob-axloq esa ona tilimiz madaniyatining kalitidir.

2020-2030 yillarga davlat tilini rivojlantirish ustuvor yo'nalish deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi qarorida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
2. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1985-yil. 48-52-betlar.
3. Ashrapova T. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi», 1984-yil. 102- 103-betlar.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING ERTAK JANRIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI

Kasimova Shahlo Bahromovna

Farg'ona viloyati Qo'qon shahar 18-sonli
maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari

Annotatsiya: *Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirish.*

НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СКАЗОЧНОГО ЖАНРА НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ.

Касимова Шахло Бахромовна

*Заведующая 18-й дошкольной организацией города Коканда
(Фергана, Узбекистан)*

Аннотация: Сегодня дети дошкольного возраста богаты нацией. Сохранение национального, культурно-исторического наследия и духовно нравственного воспитания является одной из актуальных задач организаций дошкольного образования.

Ключевые слова: патриотизм, воспитание детей дошкольного возраста, формирование потребностей, склонностей к учебе, развитие мышления,

THE RELEVANCE OF THE USE OF FOLK TALES IN THE MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Kasimova Shakhlo Bakhromovna

*Head of the 18th preschool organization of Kokand city
(Ferghana, Uzbekistan)*

Abstract: *Today, one of the most important tasks of preschool education organizations is to educate preschool children with the rich national, cultural and historical heritage and spiritual and moral values of the people*

Keywords: *Patriotism, the formation of the need for education in preschool children, the desire to learn, the development of thinking.*

Davlatimiz rahbari o'z murojaatnomalarida ta'kidlaganlaridek, "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi. Bolalar uchun mazkur fandan oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish, matematik ongini, kerak bo'lsa, bog'chadan boshlab shakllantirish lozim".

Maktabgacha yosh davri-bolalar dunyoqarashi rivojlanishidagi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi, bu davrda ularning fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy, aqliy jihatdan rivojlanadi va shu bilan birgalikda insonlarga mehr oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat qilish kabi bir qator insoniy fazilatlarni tarbiyalashga zamin yaratiladi. Shu boisdan maktabgacha tarbiya muassasalarida mazkur maqsadlarga ko'ra qator ishlarni olib borish, shu jumladan, turli didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish va boshqa vositalar orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ruhan tetik qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi. Shuning uchun bizning asosiy vazifamiz maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni bilimga undash, faollikka chaqirish, amaliy faoliyatning har bir turida matematik tushunchalarning muhimligini ko'rsatish, fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Demak, zamonaviy maktabgacha ta'lim oldida bolalarga yoshligidan boshlab mustaqil, faol matematik tushunchalarni rivojlantirish vazifasi turibdi. Bolalarda vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q. Sababi, o'zbek xalqi qadimdan mexnatkash, farzandlar tarbiyasiga juda qattiq e'tibor beradigan xalq bo'lgan. Bolalarga ta'lim-tarbiyada ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borganlar.

Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan bo'lgan ertaklar bizga qo'l keladi. Sababi ertaklar barcha yoshdagi bolalarga birdek yoqadi va ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ertaklarning ta'limiy xamda tarbiyaviy ahamiyati katta. Xalq og'zaki ijodi-insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at bo'lib, uning janrlari o'zning ta'sirchanligi, xalqchilligi, qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvorini, urf-odatlarini, adriyatlarini, an'analarini, orzu-intilishlari hamda tabiatini o'zid aks

ettiradi. Xalq folklorida ta'lim va tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk, yuqori axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan va tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining sanab o'tilgan barcha janrlarida o'z ifodasini topgan

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q. Sababi, o'zbek xalqi qadimdan mehnatkash, farzandlar tarbiyasiga juda qattiq e'tibor beradigan xalq bo'lgan. Bolalarga ta'lim –tarbiyada ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borganlar. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan bo'lgan ertaklar bizga qo'l keladi. Sababi ertaklar barcha yoshdagi bolalarga birdek yoqadi va ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ertaklarning ta'limiy xamda tarbiyaviy ahamiyati katta. Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at bo'lib, uning janrlari o'zning ta'sirchanligi, xalqchilligi, qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvorini, urf-odatlarini, adriyatlarini, an'alarini, orzu-intilishlari hamda tabiatini o'zid aks ettiradi. Xalq folklorida ta'lim va tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk, yuqori ahloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan va tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining sanab o'tilgan barcha janrlarida o'z ifodasini topgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalarga ahloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Sababi, ushbu metodlar bolalarning ahloqiy tasavvurlari hamda bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan barcha metodlar orqali bolalarga ahloqiy normalar va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Bolalarda ahloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bolalarga ahloqiy tarbiya normalarini o'rgatayotganda ularni no'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish mumkin emas. Bu o'rinda barcha metodlardan o'z o'rnida izchillik bilan

kompleks ravishda foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda tushuntirish va namuna ko'rsatish metodidan foydalanish katta natija beradi.

Tushuntirish odatda bolalarga yangi ahloqiy tushunchalarni, normalarni, ahloqiy qonun-qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan, o'zidan kattalarga qo'lini ko'ksiga qo'yib "Assalomu alaykum" deb aytish va h. Tarbiyach ahloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhlarida qo'llashi mumkin. Suhbat uchun tanlanayotgan ertak yoki hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak.

Ahloqiy mavzulardagi ertaklardan namunalar ko'rsatish orqali bolalar ahloq normalari va qoidalarini, ijobiy hulq shakllarini egallaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ahloqiy tajribalarini kengaytirib borish, hulqning ahloqiy sabablarini aniqlab boorish tarbiyachidan ziyraklik talab etiladi. Ertakdagi qahramonlarning hatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonida bolalar o'z fikr mulohazalarini aytishlariga o'rganadilar. Ertak qahramonlarining har bir xatti-harakatini ongli ravishda, ahloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, multfilmlar tomosha qilishda, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg'otardi, shu bilan bir qatorda ahloq qoidalari va normalarini singdirib boradi. Bolalarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil metodlardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalalarni ahloqiy tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.nom. ... diss. avtoref. - T.: 1998.- 18 b.
2. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida ahloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish. - T., 2010. - 90 b.
3. Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» ma'naviyatimiz sarchashmasi. -T.: Adolat, 2001.- 157 b.
4. Yo'ldoshev I., To'rayev S., Kornilov M., Xodjayev B. «Diniy bag'rikenglik madaniyati» maxsus kurs dasturi. - T., 2009. - 30 b.
5. Kornilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari /Ped. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. - T., O'zPFITI, 2005. - 22 b.

“MEKETEPKE SHEKEMGI JASTAĞI BALALARĞA SHET-TILIN ÚYRETIW METODIKASI”

Aytmuratova Gózzalxan Jańabaevna

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti Mektepke shekemgi tálim fakulteti 3-basqış talabası

Tayanış túsinikler: *shet til, kommunikativ, videorolik, audio ertekler, qosıqlar, oyın, metodika, usıl, úyretiw;*

Ключ слова: *иностранный язык, коммуникативные, видео-, аудиорассказы, ложки, игра, методика, метод, обучение;*

Key words: *foreign language, communicative, video, audio stories, spoons, game, methodology, method, learning;*

Házirgi rawajlanıp atırǵan dáwirde shet tilin úyreniw júdá áhmiyetli máselelerdiń birine aylanbaqta. Shet tilin úyreniw tek ǵana insan ózin rawajlandırıw ushın emes, búgingi kúnde bul úlken bir zárúriyat bolıp qalmaqta. Jámiyetimizde shet tiline bolǵan talap kúnnen-kúнге artıp barmaqta. Shet tilin úyreniw tek ǵana mektepler hám universitet, institutlarda emes bálkim kóplegen bilim jurtlarında sonıń menen birge, mektepke shekemgi tálim orınlarında tálimniń májbúriy bólegine aylanbaqta. Sol sebepten, mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa shet tillerin úyretiw áhmiyetli máselelerdiń biri bolıp tabıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa shet tilin úyretiwdiń tiykarǵı maqsetleri:

- balalarda shet tiline bolǵan baslanǵısh sóylesiw qábiletlerin rawajlandırıw;
- óz maqsetlerine erisiw, turmısta óz pikirlerin hám sezimlerin bayan etiw ushın shet tilinen paydalanıw qábiletin rawajlandırıw;
- shet tillerin úyreniwge jáne de jaqsı sharayatlar jaratıw;
- basqa mámleketler turmısı hám mádeniyatına qızıǵıwshılıǵın oyatıw;

Mektepke shekemgi jasta ásirese, shet tilin úyreniwdi baslaw ushın qolaylı bolıp esaplanadı. Bul jastaǵı balalar tildi úyreniwge bolǵan sezgirliǵi menen ajıralıp turadı. Olar ózleriniń sóylew tájriybeleri, tildiń «sırların» túsiniwge qızıǵadı.

Mektepke shekemgi jasta, shet tilin úyretiwde, balalar áste-aqırın kommunikativ kompetenciya tiykarların rawajlandıradı, bul shet tilin úyretiwdiń tiykarǵı basqışında tómenдеги táreplerdi óz ishine aladı:

- fonetikalıq jaqtan durıs tákirarlaw qábiletin inglizshe sózlerdi tárbiyashi, yaki oqıtıwshı arqasında, yaǵniy esitiw dıqqatın, fonetikalıq esitiw hám durıs aytıwdı basqışpa-basqış rawajlandırıw;
- inglizshe sóz baylıǵın ózlestiriw;
- belgili muǵdardaǵı ápiwayı grammatikalıq sistemalardı ózlestiriw;

Metodika - tuwrıdan-tuwrı tálim jıyınların ótkeriw balalardıń shet tilin úyreniw qábiletleriniń dúzilisi jası hám individual qásiyetlerin esapqa alǵan halda, olardıń rawajlanıwına qaratılǵan bolıwı kerek. Shet tilinde sáwbet motivaciyaǵa jóneltirilgen bolıwı kerek. Balalarda shet tiline qarata joqarı psixologiyalıq múnásebetlerdi jaratıw kerek, bunday múnásebetlerdi jaratıw usılı oyın bolıp esaplanadı. Oyın – bul shólkemlestiriw forması hám de balalarda belgili muǵdarda sabaqlardı ótleriw usılı ingilizshe sóz baylıǵı, kóplegen taqmaqlar, qosıqlar, sanaw hám basqalardı úyretiw bolıp tabıladı.

Sabaqlardı ótkeriwdiń usı forması til úyreniw kónlikpelerin hám sóylew qábiletlerin ózlestiriw ushın qolaylı sharayat jaratadı. Oyın iskerliginde isenim qábileti shet tilinde sóylew ushın túrtki beriwge, hátte eń ápiwayı sózlerdi de qızıqlı hám mazmunlı etiwge imkaniyat beredi. Shet tilin úyretiwde oyın iskerligi zıyan keltirmeydi, bálkim onı bekkemlewge hám jaqsı ózlestiriwge járdem beredi.

Shet tilin úyretiwdiń eń tiykarǵı usıllarınan biri bul **innovaciya-kommunikaciya usıllarınan paydalanıw**. Kompyuter texnikası, multimedia, audio hám basqalar. Tuwrıdan-tuwrı tálim iskerliginde audio, video, ertekler, kognitiv materiallardan paydalanıw tálimdi individualizaciya etiwde hám mektepke shekemgi balalar sóylew iskerligin rawajlandırıw ushın járdem beredi.

Oqıw dástúrinen kóre, ertek, gúrriń yaki oqıw filmlerin tırlaw yaki kóriw anagurlım qızıqlı bolıp tabıladı. Balalar júdá tez shet tildiń sematikalıq tiykarların túsinedi hám ózleri sóylep baslaydı. Balalarǵa shet tilin úyretiw ushın arnawlı videoroliklerdi tańlap alıw kerek, eń jaqsısı balaǵa 2-3 jasqa móljerlengen animacion qosıqlar yaki multfilmler (misalı, Maisy tıshqan haqqındaǵı videolar) . Balalarǵa bunday multfilmlerdi túsiniw júdá ańsat boladı.

Balalar ushın oyın

Bog bilberry [bag bilbari] Голубика	Cherry [tferi] Вишня	Blackberry [blakbari] Ежевика
Strawberry [strawbari] Клубника	Bleuberry [bleubarı] Черника	Gooseberry [gosbari] Крыжовик
Apple [] Яблока	Ananas [] Ананас	Mandarin

Balalarǵa shet tilin úyretiwdiń eń qolaylı klassikalıq usıllarınan biri – bul sóz kartoshkaları bolıp esaplanadı. (aǵniy taza sóz + awdarma + súwret). Bunda balalar sol zattı kózleri menen kóredi hám atın aytadı, onıń ingilizshe awdarması menen ataydı. Bul balalarǵa shet tilin úyretiwdiń eń qolaylı usılı bolıp tabıladı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa shet tillerin úyretiw ushın eń qolaylı jas dáwiri bolıp esaplanadı, bul dáwirde balalardıń dúnyaǵa degen qızıǵıwshılıqları basımıraq boladı yaǵniy, balalar turmıstaǵı barlıq zatlardı, hádiyselerdi biliwge urınadı sonlıqtanda balalarǵa

bul dáwirde shet tilindiń baslangısh bólegin úyrete alsaq, keyingi mektep dáwirinde hámde kelesheginde zárúrli áhmiyetke iye bolǵan bilimdi úyretken bolamız.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR:

6. M.V.Ivanova «Balalar ushın ingliz tili», Astrel-2009 – jil;
7. T.M.Zemchenkova « Mektepke shekemgi jastaǵı Balalar ushın ingliz tili», Vako-2008 – jil;
8. N.D.Galskova, Z.N.Nikitenko, «Shet tillerin oqıtıw teoriyasi hám ámeliyatı» oqıw qollanba, Airis-press, 2004 – jil;
9. www.algoritm-centr.ru

USTOZ-SHOGIRD AN`ANALARI

Mahkamov Ulfat Ilhomovich

*Pedagogika fanlari doktori, professor
Chirchiq Davlat Pedagogika Universtiteti*

Ganibayeva Saliya Sharipbay qizi

*Pedagogika va psixologiya
yo`nalishi magistranti*

Kalit soʻzlar: *ustoz, sshogird, mutaxassis, kasbiy faoliyat*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ustoz-shogird an`analari haqida bayon etiladi.*

Oliy o`quv yurtlarida bo`lg`usi mutaxassis o`qituvchilarga tarbiyaviy ta`sir qiluvchi ustoz-shogird an`analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur`atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta`lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo`lg`usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o`z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e`tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an`analaridan o`rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o`z ifodasini topdi.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e`tibor har qachongacha nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Tarixiy sharoitlarining o`zgarishi borasida to`plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o`zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an`analarini yana-da rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O`zbekistonni rivojlantirishga asos bo`ladigan yangi ta`lim tizimining tashkil etilishidir. 1997-yil 29-avgustda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta`lim to`g`risida"gi Qonun va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo`lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ham ustoz-shogirdlik an`analari ko`plab mehnat jamoalarida, shu jumladan, davlat idoralarida qo`llanib keladi. Biroq, hozirgi vaqtda kadrlar siyosatida olib borilayotgan islohotlar ustozlikni rasmiy va professional tartibda amalga oshirishni talab qiladi.

Hayotda yozilmagan, ammo unga amal qilinmasa, xunuk oqibatlarga olib keladigan qonunlar bor. Shulardan biri ustoz va shogirdlik munosabatlaridir. Xalq orasida ustoz va shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida million yillardan buyon yashab, kamolga yetib, rivojlanib kelayotir. Biron bir kasb egasi yo`qki, u ustoz ko`rib kamolga yetmagan bo`lsin. Ustoz va shogirdlik rishtalari juda nozik bo`lib, sal qaltis harakat qilinsa, uzilishi, keyin ulanganda ham tugun qolishi mumkin. Ana

shunday hol yuz bermasligi uchun, avvalo, shogird ustoziga cheksiz mehr qo'yishi, ishonishi, uning har bir so'zi, xatti-harakatini tushunishi, unga rioya qilishi shart. Shogird ustozidan o'rganganlarini maromiga yetkazib, mustaqil ish boshlashdan oldin ustozini rozi qilib, duosini olishi ham odat tusiga kirgan. Duo olmagan shogirdlarning esa kosasi oqarmagan, biri ikki bo'lmagan. Rozilik olish ko'ngil obodligini ta'minlashdir. Shogirdidan ko'ngli to'lgan ustozgina unga chin dildan fотиha beradi. Xalqimiz "Ustoz ko'rmagan shogird - har maqomga yo'rg'alar" degan hikmatli iborani bejiz to'qimagan.

Shogird ustoz rahbarligida bilim yoki hunar o'rganayotgan muddatda uning har bir harakati va ish uslubini, hatto nimani qayerga qo'yish, qaysi tomoniga ko'proq e'tibor berish holatlarini ham sinchiklab kuzatishi talab qilinadi. Odatda ustoz ba'zan hunarning har bir ikir-chikirini ham aytavermaydi, balki amalda ko'rsatadi. Ehtimol, bu bilan ustoz shogirdining hushyorligini, sinchkovligi va qiziqishini sinab ko'rmoqchidir? Shu sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan shogirdning oshig'i, shubhasiz, olchi bo'ladi.

Boshqa kasblarni mutlaqo kamsitmagan holda aytish joizki, hunarlar orasida eng qiyini ilm o'rganishdir. Bu borada ustoz tanlashning ham ahamiyati katta. Avvalo, ustoz bilan shogird bir-biriga munosib bo'lishi, bir-birini tushunishi lozim. Bunda ko'proq mas'uliyat shogird zimmasiga tushadi. Negaki, shogird ustozini avaylashi, uning hurmatini joyiga qo'yishi, ba'zi injiqliklariga chidashi, igna bilan quduq qazishdek zahmadli ishga bardosh berishi shart.

Ustozlik – bu yoshlarni har tomonlama tarbiyalashdagi bir yo'nalishi hisoblanadi. Lekin, bu an'ana oila, maktab kabi turli mazmundagi yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy institutlarning ta'lim-tarbiyaviy ta'sirlarni davomchisi sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham ustoz-shogirdlik faoliyatlarida oila, maktab kabi jamoalar faoliyatlari bilan hamkorlik amalga oshirilib, bir-birlarining ta'sir qilish kuchlari mustahkamlanib boradi. Ijtimoiy hayot tajribasining tasdiqlashicha insoniyatning bo'lg'usi ijtimoiy-siyosiy faolligi, ta'lim-tarbiyani avloddan-avlodga yetkazish asosida amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Bunday yuqori darajadagi tasdiqlanishlar ustozlik faoliyatini ham yuqori darajada baholash zarurligini ifodalaydi. Ustozlarning faoliyati shogirdlarda vaqt ko'rsatkichlarni umum davlat miqyosida amalga oshirishga o'rnatishdan iborat. Bu jarayonda esa vaqtni qanday taqsimlash masalasini hal qilishda ustoz ko'rsatmalari asosiy o'ringa ega. Har qanday vaqtni taqsimlashda maqsad, vazifa, vositalardan qanday foydalanish zarurligini o'rgatib shogirdlarni bo'sh vaqtlarini sermazmun yo'nalishda bilim, ko'nikma, malakalar egallashga jalb qila bilish ustoz siyomosini yana-da obro'-e'tiborli shaxsga aylantiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ustoz-shogirdlik an'anasining faqat moddiy-iqtisodiy tomoniga e'tibor qilinadigan bo'lsa bu faoliyat asosi hech qanday ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Sharq madaniyatining buyuk namoyondasi Alisher Navoiy yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ularni nodir fazilatlar egasi kilib tarbiyalashning afzalligiga kuplab asarlarida aloxida etibor karatadi. Mutafakkir ustoz, shuningdek, ukituvchi, murabbiy, mudarrislarning xislatlari tugrisida "Maxhub ul-qulub" ya'ni, "Qalblar sevgisi" asarida

shunday yozadi: "...ustozlar mansab va amalga qiziqmasligi, uzi bilmaydigan ilmdan dars berishga urinmasligi, din ilmidan aniq masalalarni bilmog'i kerak.

Demak, bu faoliyat asosida ixtiyoriylik tamoyili bilan bir qatorda, tizimli ravishda hamkorlik mazmunida har ikkala tomonini mutaxassislik darajasini yuqori darajaga ko'tarishi ham o'z ifodasini topadi. Ularni yuqori darajadagi umum mutaxassislik xususiyatlari bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalari ham rivojlanib, shakllanib boradi. Ya'ni ulug' mutafakkirlarining fikrlariga ko'ra bo'lg'usi mutaxassisni har tomonlama shakllantirish uchun uni o'zini ham har tomonlama bilish zarur degan talablar "Ustoz shogird" an'analari asosida amalga oshiriladi.

AXBOROT MANBALARI:

1. Alisher Navoiy "Maxbub ul-qulub"
2. Xalq so'zi gazetasi

A BRIEF HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF HISTOLOGY

Zakirova Nargiza Ravshanovna

Бабаджанова Туркон Мусаевна

*Babajanova Turkon Musayevna teachers of "Vocational sciences"
department of Bukhara Public Health College.*

Abstract: *The study of the basics of histology, cytology and embryology is an important link in understanding the structure of the human body, since tissues are one of the levels of organization of the living, the basis for the formation of organs.*

The purpose of the work is to define histology, cytology and embryology as a science, to study their objects and historical stages of development.

Keywords: *Epithelial; Connecting; Muscular; nervous; Cyto- and histochemistry; historadiography;*

"КРАТКАЯ ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ГИСТОЛОГИИ"

Закирова Наргиза Равшановна,

Бабаджанова Туркон Мусаевна

*преподаватели кафедры «Профессиональные науки» Бухарского техникума
общественного здравоохранения.*

Аннотация: *Изучение основ гистологии, цитологии и эмбриологии является важным звеном в понимании строения организма человека, так как ткани являются одним из уровней организации живого, основой образования органов.*

Цель работы - дать определение гистологии, цитологии и эмбриологии как наук, изучить их объекты и исторические этапы развития.

Ключевые слова: *эпителиальная; Подсоединение; мышечный; нервный; Цито- и гистохимия; гисторентгенография.*

"GISTOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHINING QISQA TARIXI"

Zakirova Nargiza Ravshanovna,

Babadjanova Turkon Musaevna

*Buxoro jamoat salomatligini saqlash texnikumi
"Kasbiy fanlar" kafedrası o'qituvchilari*

Annotatsiyasi: *Gistologiya, sitologiya va embriologiya asoslarini o'rganish inson tanasining tuzilishini tushunishda muhim bo'g'indir, chunki to'qimalar tirik mavjudotni tashkil qilish darajalaridan biri, organlarning shakllanishi uchun asosdir.*

Ishning maqsadi gistologiya, sitologiya va embriologiyani fanlar sifatida belgilash, ularning ob'ektlari va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishdir.

Kalit so'zlar: *epiteliy; ulanish; mushak; asabiy; Sito- va gistokimyo; tarix rentgenografiyasi*

Гистология зародилась задолго до изобретения [микроскопа](#). Первые описания тканей встречаются в работах [Аристотеля](#), [Галена](#), [Авиценны](#),

[Везалия](#). В [1665 году Р. Гук](#) ввёл понятие [клетки](#) и наблюдал в микроскоп клеточное строение некоторых тканей. Гистологические исследования проводили [М. Мальпиги](#), [А. Левенгук](#), [Я. Сваммердам](#), [Н. Грю](#) и др. Новый этап развития науки связан с именами [К. Вольфа](#) и [К. Бэра](#) — основоположников [эмбриологии](#).

В [XIX веке](#) гистология была полноправной академической дисциплиной. В середине XIX века [А. Кёлликер](#), [Ф. Лейдиг](#) и др. создали основы современного учения о тканях. Открытия в [цитологии](#) и создание [клеточной теории](#) стимулировали развитие гистологии. [Р. Вирхов](#) положил начало развитию клеточной и тканевой патологии. Большое влияние на развитие науки оказали труды [И. И. Мечникова](#) и [Л. Пастера](#), сформулировавших основные представления об [иммунной системе](#).

[Нобелевскую премию по физиологии или медицине](#) 1906 года присудили двум гистологам, [Камилло Гольджи](#) и [Сантьяго Рамон-и-Кахалю](#). Они имели взаимно-противоположные воззрения на нервную структуру [головного мозга](#) в различных рассмотрениях одинаковых снимков.

В XX веке продолжалось совершенствование [методологии](#), что привело к формированию гистологии в её нынешнем виде. Современная гистология тесно связана с цитологией, эмбриологией, медициной и другими науками. Гистология разрабатывает такие вопросы, как закономерности развития и дифференцировки клеток и тканей, [адаптации](#) на клеточном и тканевом уровнях, проблемы [регенерации](#) тканей и органов и др. Достижения патологической гистологии широко используются в медицине, позволяя понять механизм развития болезней и предложить способы их лечения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Салохиддинов Б.М., Шукуров Х.И., Мухаммадов Т.М. «Гистология и гистологическая основы проверки» Ташкент, издательство «Илм Зия», 2007 г.
2. К. А. Зуфаров «Гистология». Ташкент, 2004. 3-е издание

“INSONIYAT JAMIYATIDA TIBBIYOTNI KELIB CHIQISHI. DAVOLASH MUOLAJALARINING ISHLAB CHIQILISHI”

Namozova Nargiza Saydilloevna

*Buxoro jamoat salomatligini saqlash texnikumi “Kasbiy va umum kasbiy fanlar” kafedrası
o’qituvchisi*

Annotatsiyasi: *Tibbiyot tarixi fanining tibbiy xodimlar tayorlash tizimidagi tutgan o’rni va ahamiyati. Mehnat jarayonida inson qiyofasining shakllanishi, ibtidoiy mehnat qurollari, olov qo’llanila boshlashining tibbiy uchun ahamiyati. Insoniylik jamiyati davri tabiblari va birinchi dori- darmonlar. Ibtidoiy insonni kasalliklari haqida ma’lumot beruvchi birlamchi asl manba’lar, ilk davolash usullari va O’zbekiston xududida xalq tabobatini vujudga kelishi.*

Kalit so’zlar: *Ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, Qadimgi odamlar, tibbiyot tarixini o’rganish manbaalari, Instinktiv tibbiyot, Davolash, idrok, Ilmiy tibbiyot.*

Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanishi.

Hozirgi zamon vrachi keng va chuqur bilimga ega bo’lishi bilan birga yuksak saviyali va madaniyatli kishi ham bo’lishi kerak. Bu sifatlarga ega bo’lishda tibbiyot tarixi fani katta rol uynaydi. Binobarin, tibbiyot tarixini o’rganish muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Tibbiyot tarixi – tibbiyot amaliyoti va tibbiyot bilimlarning rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning rivojlanishi bilan bog’liq ravishda o’rganuvchi fandır. Tibbiyot amaliyoti o’z rivojlanishida kasalliklarni aniqlash, ularni davolash va oldini olish sohasida, yangi-yangi usullar ishlab chikib, tibbiyot fanini boyitadi. Tibbiy bilim esa tibbiyot amaliyoti to’plangan tajribalarni umumlashtiradi, uni yangi nazariy asoslar, fikrlar, xulosalar, bilan boyitadi, yangi bosqichga ko’taradi. Yer yo’zida tibbiyotni inson faoliyatining muhim sohalarini biri sifatida shakllanishi antropogenez jarayoni, ya’ni odamning paydo bo’lishi bilan bog’liq ekanligi fanga qadimdan ma’lum.

Insoniyat jamiyatida tibbiyotining paydo bo’lishi va hozirgi ilmiy tibbiyot darajasiga eytqunga qadar 4 asosiy bosqichni bosib o’tdi:

I-Bosqich – Instinktiv tibbiyot davri. Bu tibbiyot ba’zi hayvonlar va past darajadagi odamsimon ajdodlarimizga xos bo’lgan. Bu tibbiyotning xususiyati shundan iboratki, davolash choralarida hech qanday qurol ishlatilmagan. Shuning uchun davolash usullari juda oddiy bo’lgan.

II-Bosqich – Davolashda juda ham oddiy quroldan, asosan toshdan yasalgan quroldan foydalanish davri. Bu davrni tibbiyotning tosh davri desa bo’ladi. Bu davr tibbiyotining xususiyati shundan iboratki, bu yerda davolash ishini amalga oshirishda ma’lum darajada **idrok** qatnasha boshlagan. Davolash ishlari *ma’lum maqsad bilan* amalga oshirilgan, *ya’ni instinktning o’rnini idrok egallagan.*

III-Bosqich – tibbiyotning kasb sifatida shakllanish davri. Bu bosqich *ibtidoiy jamoa davridan quldorlik jamiyatiga o’tish bilan bog’liq.* Quldorlik davriga kelib har xil kasblar

bilan bir qatorda tabiblik kasbi ham kelib chiqadi. Tabiblik kasbining kelib chiqishi tibbiyotning rivojlanishini ancha tezlashtiradi.

IV-Bosqich – Ilmiy tibbiyotning kelib chiqishi, ya'ni uning fan sifatida shakllanishi davri. Respublikamiz xududi yoki Markaziy Osiyo bu bosqich o'rta asrlar, ya'ni feodalizmning eng rivojlangan davriga to'g'ri keladi. Bu davr tibbiyotining xususiyati shundan iboratki, bu mamlakatda umumiy iqtisodiy, madaniy va ilmiy Taraqqiyot jarayonida rivojlandi. Bu davrga kelib Markaziy Osiyo tibbiyoti jaxon mikyosida etakchi o'rinlardan birini egalladi.

Tibbiyot tarixini 5 ta davrga bo'lib o'rganamiz.

1) Ibtidoiy jamoa tuzish davri. 2) Quldorlik davri. 3) Feodalizm davri. 4) Kapitalizm davri. 5) Hozirgi zamon davri.

TIBBIYOT TARIXINI O'RGANISH MANBAALARI:

I- Arxeologiya fani.

Arxeologiya fani qadimgi zamon odamlari va ularning tarixiga oid masalalari arxeologik qazilmalar orqali o'rganuvchi fandir. Ibtidoiy jamoa kishilari o'qish va yozishni bilmaganlar, ammo har xil kasallik va shikastlanishlar yuz berganda, o'sha davr kishilari davolash ishlarini bajarganlar, ammo bu haqida yozma ma'lumot yo'q. U davr tibbiyotining rivojlanish darajasini arxeologik qazilmalardan topilgan buyumlarga qarab belgilashimiz mumkin. Masalan, Qadimgi odamlar suyaklari, ular ishlatgan qurollar, xususan tibbiy muolajalarda foydalanilgan bronza pichoqlar, tibbiyot qaychilari, dori tayyorlaydigan idishlar va ularda saqlanib qolgan dorivor moddalarning qoldiklari va boshqalar yoki suyaklarda o'tkazilgan operatsiyalar, amputatsiya va trepanapiya va x.k.lar. Shu ashyoviy materiallarga qarab, u yoki bu mamlakatda u yoki o'sha davrda tibbiyot qay darajada rivojlanganligi, qanday davo usullari qo'llanilganligini aniqlash mumkin.

II. Yozma asarlar, bular ikkiga bo'linadi:

Qo'lyozma asarlar

Bosma asarlar

Qo'lyozma asarlar juda qadim zamonlardan yaratila boshlangan. Bularga Qadimgi Misr papiruslari, Assuriya va Vavilomiya (Babil) shoxlarining toshlarga uyib yozgan qonunlari, g'orlarga yozilgan xikmati so'zlar va yozgan qonunlari, suratlar, teriga va nihoyat qog'oz kashf etilgandan so'ng qog'ozga yozilgan xatlar kiradi. SHu xatlar orasida tibbiyotga oid qo'lyozmalar ham uchraydi. Bular arxiv materiallari, Qadimgi olimlarning qo'lyozmalari, shuningdek, badiiy asarlar va sayoxatchilarning kundaliklarini kiritishimiz mumkin.

III. Xalq tabobati.

Tibbiyot tarixini o'rganishda xalq tabobati juda ahamiyatga ega bo'lib, muhim ma'lumotlar beradi, ma'lumki tibbiyot dastlab emperik xalq tabobati sifatida paydo bo'lgan va rivodlangan. Biz xalq tibbiyoti bilan tanishib, qaysi mamalakatda, qaysi davrda tibbiyot kay darajada rivojlanganligi haqida ma'lum tushunchaga ega bulamiz.

IV. Turli mamlakat xalqlarining moddiy madaniyati manbalari. Tibbiyot tarixini o'rganishda turli mamalakat xalqlarining moddiy madaniyati manbalari ham ma'lum

darajada rol uynaydi. Jumladan, Qadimgi ibodatxonalarning, kasr va shunga uxshagan boshqa diniy binolar, hamda gorlarning devorlarida ba'zan bemorlarga yordam ko'rsatayotgan tabib tasvirlangan.

INSON HAYOTIDA TIBBIYOTNING KIRIB KELISHI.

Jamiyatda tibbiyotning paydo bo'lishi to'g'risida 2 xil nazariya mavjud:

1. Diniy mistik nazariya.
2. Ilmiy materialistik nazariya.

Diniy mistik nazariya asoschilari dastlab din peshvolari tibbiyot ibodatxonalarida kelib chiqqan va muolajalar koxinlar va roxiblar tomonidan ko'rsatilgan degan fikrni ilgari surganlar. Ibtidoiy ajdodlarimiz har xil kasalliklarga chalingan va o'zlarini davolashga harakat qilganlar, bu paytlarda koxinlar va roxiblar yo'q edi. Binobarin, tibbiyotning kelib chiqishi din bilan bog'liq emas. Dalillar shuni ko'rsatadiki, din paydo bo'lmasdan ancha ilgari tibbiyot vujudga kelgan. Qadimda ibodatxonalarida davolash xonalari mavjud bo'lib, ularda koxinlar va roxiblar bemorlarni davolab parvarish qilganlar, lekin bu bilan tibbiyot ibodatxonalarida paydo bo'lgan degani emas.

Ilmiy materialistik nazariya asoschilari tibbiyot jamiyatning ilk bosqichlarida tarixiy taraqqiyot natijasida kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradi. Arxeologik qazilmalarda topilgan ashyoviy dalillar ko'rsatishicha, dastlabki primitiv davolash usullarri bundan bir necha million yil ilgari yashagan odamsimon ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan.

Tibbiyotning inson hayotida kirib kelishi to'g'risida uchinchi nazariya ham mavjud bo'lib, bu fikr tarafdorlari insoniyatning ilk bosqichida odamlar juda baquvvat bo'lib, kasalliklarga chalinmagan va tibbiy yordamga muxtoj bo'lmaganliklari uchun tibbiyot bo'lmagan va u keyinchalik sivilizatsiya keng tarkalgan paytda madaniy rivojlanishning mahsuli sifatida paydo bo'lgan deb hisoblashadi.

Bunday fikrni fransuz faylasufi Jan Jak Russo ilgari so'rgan. Ammo ilmiy o'rganishlar va Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'tgan zamonlarda ibtidoiy odamlar nihoyat og'ir axvolda yashaganlar. Ular ko'p kasalliklarga uchrab davolaganlar, doimo tibbiy muolajalarga muxtoj bo'lganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tursunov E. Tibbiyotimizning barhayot siymolari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Fan va texnologiya. 2013 y2. Iskandarova SH.T., Maxmudova N.M., Djalilova G.A. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil qilishning asosiy masalalari. O'quv qo'llanma. - Toshkent. Fan va ta'lim. 2011 y. 3 Qodirov A.A. O'zbekiston tibbiyoti tarixi darsligi. -Toshkent. IbnSinonashriyoti. 2001 y.

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETILISHIDA TILNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Mirzahalilova Sevinch Otabek qizi
Abdug'aniyeva Gulnoza Abdurahim qizi
Namangan Davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida XX asrning 90-yillari boshida qaror topib, demokratik taraqqiyot yo'liga kirdi. Bu bilan bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, amalga oshgan tadbirlar va jamiyat oldida turgan vazifalar belgilab olindi. Demokratik o'zgarishlarning hozirgi bosqichi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning uzoq vaqtga mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda kuchli Markaziy davlat hokimiyati o'zining kuch-g'ayratlarini asosiy, milliy va umummilliy vazifalarga qaratiladi.

Demokratiyaning tarkibiy nuqtai nazardan uchta asosiy tipi farqlanadi:

- a) milliy birlik va tegishli tarzdagi muvofiqlikka ega bo'lish;
- b) anchagina baland iqtisodiy rivojlanish darajasiga erishish;
- c) demokratik prinsiplarning e'tirof etilishi, asosiy siyosiy institutlarga nisbatan ishonch, shaxslararo ishonch, fuqarolik hissi kabilarni nazarda tutuvchi madaniy va ma'naviy normalar va qadriyatlarning keng tarqalishi.

Demokratiyaning bu boshlang'ich tipi qadimgi Gretsiyada yuzaga kelgan. U erda jamiyatning ozchilik qismini tashqil etuvchi fuqarolar ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy masalarni ko'rib chiqish, jiddiy qarorlar qabul qilish uchun muntazam to'planib turganlar. "Tarixda shunday davlatlar ham bo'ladiki, ularning jarayonlari evolyusion yo'l bilan emas, halqning davlatchilik tajribasi va an'analarni chetlab o'tgan holda zo'ravonlik ta'sirida kechishi ham mumkin. Sovet sotsialistik davlat tizimi ana shunday davlatlarga misol bo'la oladi. Bu davlatning, shakl va mohiyati halqimizning axloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga to'g'ri kelmaydigan, mos kelmaydigan tizimga asoslangan edi"⁷³. Istiqolga erishganimizdan so'ng tilga katta e'tibor qaratilib, o'zbek tili rivojining yangi imkonlari ochildi, ko'plab eskirgan so'zlarning qayta faollashuvi ta'minlandi. Demokratlashuv davri esa ko'plab tillar qatori o'zbek tilini ham xalqaro tillarning faol ta'siriga uchratmoqda. Diqqat qilinsa, zikr etilgan ta'sirlar va tildagi o'zgarishlarni sof lisoniy emas, tildan tashqari, masalan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy jarayonlar harakatlantirmoqda. O'zbek sotsiologiyasida ana shunday ta'sirlashuvlarni xolis baholashi, milliy til va davlat tili manfaati nuqtayi nazaridan ish ko'rishi lozim bo'ladi. Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari sotsiologiyaviy tadqiqotlarning naqadar zarurligini milliy tillar va ingliz tili ekspansiyasi misolida ayon etib qo'ydi. Milliy tillar lug'at tarkibiga katta miqdordagi inglizcha so'zlarning kirib borishi til siyosatida o'zgarishlar qilish zarurligini ham

⁷³ H.Rajabov. "Fuqarolik jamiyati. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining o'quv majmuasi. Toshkent-2019. 10-bet.

ko'rsatmoqda. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida, ya'ni so'zlarida o'z ifodasini topadi. Buni biz mustaqillikka chiqqan davr mobaynida o'zbek tilidagi ayrim so'zlarning (oblast, rayon, xirurg, ekspress va h.k.) chiqib ketishi ayrim so'zlarning esa (marketing, menejment, kompyuter, diler va h.k.) tilimizga kirib kelishi misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Har qanday jamiyat va mamlakat o'z demokratik taraqqiyoti jarayonida inson va uning manfaatlarini oshkora tan oladi, huquqiy jihatda ularni tasdiqlashga intiladi. Amaliy hayot esa barcha dasturlarni, o'zining yozilgan va yozilmagan qonuniyatlarini ro'yobga chiqarib boradi. Bunda albatta ona tili xalqqa yetkazib berish va tushuntirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixda adolatli jamiyat qurishga intilishlar juda ko'p bo'lgan. O'zbekistonda barpo etilayotgan davlatchilik tizimi ham adolatli jamiyat qurishga qaratilgan. Xalq bilan davlat, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy tafovutlar tamoman yo'qolib borishida, xalqimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda ona tilimizda qabul qilinayotgan qarorlar, farmon va farmoishlar, qonunlarni ahamiyatli rolini ko'rishimiz mumkin. Bunda, til va jamiyat bir-biriga ta'sir qilib turadigan, birining rivojiga boshqasi hissa qo'shadigan hodisalar bo'lganligi uchun jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar tezlik bilan tilda ham aks etishi tabiiydir.

Jamiyat a'zolarining tilga munosabatida ikki jihatni — tilga munosabat hamda ona tiliga munosabatni farqlab olish lozim. Birinchi holatda — tilning xalqni birlashtirishdek vazifani bajarishini anglab munosabat ko'rsatilishi, "Davlat tili haqida"gi qonun talablariga rioya etilishi, ish yuritishda adabiy til me'yorlariga amal qilinishi zarur. Ikkinchi holatda — ona tili o'ta milliy, etnomadaniy hodisa deb tushunilishi, ona tili taqdiriga millat taqdiri deb qaralishi, ona tili boricha qabul qilinishi kerak. Til muloqot vositasidir. Ma'lumki, til odamlar bir-biri bilan muloqot qilish zarurati tug'ilganda paydo bo'lgan. Avvaliga bular alohida bo'laklar, keyin esa ma'lum so'zlar to'plami edi. Insoniyat taraqqiyoti taraqqiy etgan sari til ham murakkablashib, rivojlanib, takomillashib bordi. Dunyo tillari 1999-yilda yer yuzi aholisi 6 mlrdga yetdi. Mana shu aholi 2976 xil tilda gaplashadi. Dunyoda odamlar millati, tili, ko'rinishi yoki jinsiga qarab turli-tuman bo'lganidek, davlatlar ham mamlakat tarixi, millat taqdiri, madaniyati, an'analari, siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy darajasiga qarab har xil bo'ladi. boshqa mamlakatlar aholisi o'z ona tillariga ona madaniyatining ajralmas qismi sifatida tobora ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni boshladilar. Ular o'z ona tilini bilmay turib, o'z ildizlarini yo'qotish, o'zligini yo'qotish, hech kim bo'lib qolish oson ekanligini tushunadilar. Axir, til har bir xalq uchun individual bo'lgan atrofdagi dunyoni va uning g'oyasini aks ettirishi qadimdan ma'lum. O'z ona tilidan foydalanishni to'xtatib, inson o'zini shaxsiyatining muhim qismidan mahrum qiladi, boshqa shaxsga aylanadi. Bosh qonunimizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda yer yuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishini tashkil etishi uning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Zero, "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar

yaratdi. O'zbekistonda barpo etilayotgan davlat, eng avvalo, jahon sivilizatsiyasi, boshqa halqlar ijobiy va ijodiy tajribalari, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda, adolatparvarlik va ma'rifatparvarlik bilan sug'orilgan SHarq falsafasi va islom dini ta'limotlariga, milliy davlatchilik an'analariga asoslanmoqda. Davlatimizning ana shunday falsafiy-nazariy va axloqiy-ma'naviy ildizlardan "O'sib chiqadigan" kelajagi buyuk ekanligiga shak-shubha yo'q. Biz o'zbek ekanligimizdan, o'z ona tilimizdan faxrlanar ekanmiz, bunda, albatta tarixga nazar tashlamaslikni iloji yo'q. O'zligimizni anglashimizda ulkan hissalarini qo'shgan buyuk allomalarimizni hizmatlarini qadrlashimiz, bizlarga qoldirib ketgan ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashimiz lozim.

Shunday ulug'lik maqomiga ega bo'lgan Farobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiy) (873, Farob shahri — 950, [Damashq](#)) — [O'rta Osiyoning](#) mutafakkiri va qomusiy olimi. Farobiy o'rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. U „Ilmlarning kelib chiqishi haqida“, „Ilmlarning tasnifi haqida“ nomli risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi. “Mutafakkir tabiat va inson organizmiga xos bo'lgan tabiiy jarayonlarni o'rganuvchi ilm sohalarini birinchi o'ringa qo'ydi. Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she'riyat, to'g'ri yozuv va boshqalarni o'z ichiga oladi); 2) mantiq (8 bo'limdan iborat bo'lib, tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o'z ichiga oladi); 3) mat. (arifmetika, geom., astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og'irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, ped., axloqshunoslik va kalom kiradi)”⁷⁴. Abu Bashir Matta ibn Yunusdan (870—940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860—920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o'rgandi. Ba'zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Turkiy tillar sultoni, buyuk shoir va adib, ulug' mutafakkir olim Alisher Navoiy sharq va g'arb olimlari orasida eng hurmatga loyiq inson ekanligi barchamizga ma'lum. Alisher Navoiy adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida umuman tillarda, xususan ona tilida munosobati alohida o'rin egallaydi. U deyarli barcha asarlarida o'zining til haqidagi qarashlarini, ona tilini rivojlantirish, uning boyligi va go'zalligi haqidagi, o'z xalqini ana shu tilda yozilgan g'oyaviy-badiiy yuksak asarlardan bahramand etish haqidagi g'oyalarini, fikr-mulohazalarini bayon etadi. “Alisher Navoiy ona tilini forsiy g'oyalar tanasidan butunlay xolos etish uchun ona tilini tahqirlagan, uni mensimagan shoirlarga qarshi keskin kurash olib bordi. U ilm-fanda arab tili va badiiy adabiyotda fors-tojik tili an'analarini keskin rad etdi, ona tilining boyligini, badiiy-uslubiy vositalari, imkoniyatlarini namoyish etdi”⁷⁵. Navoiy barcha badiiy asarlari «Majolis-un nafois» va boshqa ilmiy asarlarini ona tilida yaratdi. Navoiy «Muhokamat-ul lug'atayn»da boshqa-boshqa oilaga mansub bo'lgan ikki

⁷⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi(2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁷⁵ <https://uz.denometr.com> “Navoiyning til haqidagi qarashlari”. 19.08.2013.

tilni bir-biriga qiyoslab o`rganish orqali o`zbek tilining ham boy tillardan bo`lib, g`oyaviy-badiiy yuksak asarlar yaratishda u katta imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlaydi, uning to`liq ma`noda rivojlangan adabiy til ekanligini amaliy ravishda va ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi.

Bugungi o`zbek jamiyatida tilga oid muammolar yetarli. Bu “Davlat tili haqida”gi qonun talablarining ko`p hollarda bajarilmayotgani, davlat tilining amaliyotga keng joriy etilmayotgani, ta`limning turli bo`g`inlari va ish yuritishda lisoniy layoqatlilik darajasining pastligi, davlat tiliga ham, ona tiliga ham bepisand munosabatning uchrayotgani, til madaniyatining lozim darajada shakllanmayotganida ko`rinadi. Til va jamiyat o`rtasida doimiy ta`sirlashuv kechadi. Fan va ta`lim, madaniyat va san`at, texnika va davlatchilikning taraqqiyoti til va jamiyat ta`sirlashuvining asosiy omillaridir. Bunday ta`sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansub jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayish, usluban to`lib borishiga sabab bo`ladi.

“Davlat murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida millat taraqqiyotining aniq tarixiy davrlari mahsuli va xazinasidir. Har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi halq tarixiy va ma`naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o`ziga mos madaniyati rivojining natijasidir”⁷⁶. O`zbekiston Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O`zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni o`zbek tilining davlat tili sifatida qaddini ro`y-rost tiklashini, ijtimoiy maqomining yana-da barqarorlashuvini ta`minladi. Ana shu farmonning amaliy ifodasi sifatida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O`zbek tili, adabiyoti va folklori institutida sotsiolingvistika bo`limining tashkil etilishi esa davlat tili va jamiyat munosabatlarini o`rganishga yo`naltirilgan tadqiqotlar kengayishi va kuchayishini ta`minladi. Bu bo`lim o`z faoliyatida o`zbek tilining rivojlanishi bilan bog`liq fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish va kengaytirish, o`zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish borasidagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish, o`zbek tilining yozma matni me`yor va qoidalarini ishlab chiqish, o`zbek tilining izohli lug`atlari, davlat tilida ish yuritish bo`yicha qo`llanma va adabiyotlar tayyorlash, davlat tilini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishga alohida e`tibor beradi.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida insoniyat oldida turgan eng muhim masalalar xususida o`zbek tilida nutq so`zlagani tilimizning xalqaro miqyosdagi mavqeyini mustahkamlash yo`lida yana bir qadam bo`ldi. Zotan, ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma`naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. 2020-yil 21-oktabr qutlug` bayram arafasida qabul qilingan “Mamlakatimizda o`zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmon hamda davlatimiz rahbarining O`zbek tili bayrami munosabati bilan xalqimizga yo`llagan tabriklari

⁷⁶ H.Rajabov. “Fuqarolik jamiyati. O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining o`quv majmuasi. Toshkent-2019. 15-bet.

o'zbek tili va adabiyotini, milliy madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishga qaratilgan amaliy harakatlar bilan uyg'un va hamohangdir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Til – jamiyat hayotidagi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida bo'lgan tirik organizmdir. Farmonga muvofiq, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. Qolaversa, mazkur hujjatda 2025-yilgacha davlat maktabgacha ta'lim tizimida o'zbek tilli guruhlar qamrovini kengaytirish, yangi darslik va qo'llanmalar, elektron dasturlar yaratish, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini ko'paytirish singari muhim vazifalar o'rin olgan. Farmonda ko'rsatilganidek 2021-yil 1-apreldan boshlab o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi aniqlandi hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlari joriy etildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlil bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Zamon ta'sirida ba'zi so'zlar o'lib, bir umrdan chiqib ketadi, ularning o'rniga zamon talablariga to'g'ri keladigan yangi so'zlar tilga kirib keladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, “Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”. Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini butun vujudimiz bilan his etishimiz lozim. Bunday vatanparvar harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz bilanoq o'zbek tilini rivojlantirishga bevosita ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz. Til, albatta, insoniyat uchun ulkan ne'matdir. Shunday ekan, biz buni qadrlashimiz, beadab so'zlar, parazit so'zlar bilan ifloslantirmaslikka harakat qilishimiz kerak, chunki bu bilan biz, eng avvalo, xalqimizning ko'p asrlik madaniyatiga, shaxsiyatimizga katta zarar yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1,4. H.Rajabov. “Fuqarolik jamiyati. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining o'quv majmuasi.Toshkent-2019. 10,15 betlar.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi(2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanildi.
3. <https://uz.denometr.com> “Navoiyning til haqidagi qarashlari”. 19.08.2013.

**THE ANCIENT STATE OF KHORAZM - SCIENTIFIC RESEARCH ON THE TERMS
"KHORAZM THE GREAT" , "ANCIENT KHORAZM" AND "KHORAZM"**

Nazarov Ziyoviddin Muhammadrasul ogli

Ferghana State University, Linguistics (English Language)

Abdullayev Ziyodbek Mansurovich

Ferghana State University, German and French languages departament PhD

Abstract: *In the following scientific article , the former state of "Big Khorezm" , "Ancient Khorezm" Many Uzbek and foreign scientists tried to give brief information on the scientific views of the issue and the term "Khorazm" .*

Key words: *"Big Khorezm", "Ancient Khorezm", "Khorazm", "History", "Khorasmia" .*

Another large state union in Central Asia is the ancient Khorezm state. Although many Uzbek and foreign scientists have conducted various studies on the issue of "Big Khorezm" and "Ancient Khorezm", these issues are still the cause of debate among researchers. The Avesta and the information of Greco-Roman historians form the basis of these discussions. In addition, the results of archaeological research conducted from the 50s to the 60s of the last century have provided rich materials on the history of Khorezm statehood.

First of all, if we draw a conclusion from the comparative studies of the monuments of the primitive period in recent years (Kh.Matyakubov), Khorezm began to play the role of a people directly connecting the Far North with the world of ancient civilizations of the Middle East in the 4th - 3rd millennium BC. . The Bronze Age Suvyorgan and Tozabogyob cultures were the cultures of the tribes that were in close contact with each other by mastering the lands of the ancient Khorezm, received influence from the North and the South, and rose to a new stage of development.

During the period of the Amirabad culture (9th - 8th centuries BC), the population living in the lower Amudarya basin was still unaware of statehood, and irrigation was characteristic of the population that preserved primitive clan-tribal traditions. Compared to the southern regions of Central Asia, the inhabitants of the Khorezm oasis have long been stuck in the conditions of unstable water flow, in the vortex of unfavorable natural whims . According to the data of ancient written sources and the comparative analysis of existing archaeological monuments, the first urban planning culture, which was the basis for the emergence of the roots of statehood in Khorezm, was formed and developed after the migration of the Khorazmians.

There are many opinions about the origin of the term "Khorazm". A large group of scientists came to the conclusion that the second component of the term "Khorazm" - zmi - zam belongs to the Indo-European languages - zemo - land, land, country. When it comes to the first component of the word, the unanimity of scientists' opinions disappears and it

is different - "A country rich in food", "Fertile land" (E. Burnuf, E. Zahau, U. Geiger, U. Tomashek), "A beautiful country" (F. Yusti), "Barren, bad land" (F. Shpigelg'), "Low land" (P. Lerkh, N. Veselovsky, H. Clipert), "Sunny or Eastern land" (S. Tolstov, P. Savelg'ev, F. Sulaymonova), "Eastern land", "Kunchikar mamalakat" (I. Mominov) are interpreted in the style.

Another group of scientists believe that the term "Khorazm" was formed on the basis of three lexemes (Uvarazimi, u - "good" + vara - "castle", "fortress" + zimi- "land"), and this they translate the meaning of the historical term as "a well-fortified land", "a land with a wonderful fortress" or "a land with a strong fortress" (Bogolyubov, A. Muhammadjonov). Recent studies have suggested that the root of the term "Khorazm" may have ancient Turkic roots ("Khuar" ("Suvar") - "water" ("xu") - water, "Ar" - land, man, "m" is the first person suffix) and it is translated as "Water (river) people" or "owners of water" (M. Zakiev, SH. Kamoliddin, O'. Nosirov).

Scholars say that Aryoshayona or Aryanam Vaichakh, mentioned in the Avesta, was the kingdom of Kavi Vishtasp, mentioned in this source, and united the provinces of Drangyona, Satagadiya, Ariya, Margyona, and the middle reaches of the Amudarya in the 9th-8th centuries BC. Western researchers V. Henning and I. Gershevich believe that the country of Kavi Vishtaps in the Avesta is "Big Khorezm" located around Marv and Khivot. The problem of "Great Khorezm" began with the information of Herodotus. He gives the following information in the third book of "History" : "There is a valley in Asia. It is surrounded by mountains on all sides, and the mountain is cut by five gorges. Once this valley belonged to the Khorasmites and was located in the bordering lands of the Khorasmites, Parthians, Sarangs and Tamanei. A big river named Akes starts from the mountain surrounding the valley.

Hecataeus, who lived a little earlier than Herodotus, mentions "Chorasmia" to the east of the Parthians, "the Khorasmites, who live partly in the plains and partly in the mountains." The researcher VALivoits also places this "Great Khorezm" in the four regions of Marv and Herat. If the assumption that the state of "Big Khorezm" is located in the vicinity of Marv and Herat is true, then according to ASSagdullaev, after the subjugation of this state by the Persian king Cyrus II, it is assumed that the Khorasmites moved to the Khorezm regions of the Lower Amudarya. According to this theory, the ancient Persians of the 6th century BC pushed the Khorasmites from the south to the lower Amudarya lands.

In conclusion, BC. In the 5th - 4th centuries Khorezm and its neighboring areas were covered by urbanization processes. As a result, oases of historical and cultural agriculture appear in these regions and they become the basis of the first statehood. BC From the 6th century, statehood was formed in the Khorezm oasis, and it became one of the centers of the ancient Eastern civilization.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Azamat Zia. History of Uzbek statehood. From the earliest times to the Russian invasion. - T.: Sharq, 2000.
2. Askarov A. Some issues related to the history of ancient Khorezm // Ethnology of Uzbekistan: new views and approaches. - Tashkent, 2004.
3. Sagdullaev AS Ancient Uzbekistan in the first written sources. - T., 1996.

TA'LIM JARAYONIDA YAKKA TARTIBDA VA GURUH BO'LIB ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Quryozova Gulzebo Farxadovna

Pedagogika (Urganch, O'zbekistan)

*(Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi,
Farmakologiya kafedrası yetakchi o'qituvchisi)*

Qurbonova Farida Boltoboyevna

(Urganch, O'zbekistan) (Urganch, O'zbekistan)

*(Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi,
Farmakologiya kafedrası o'qituvchisi)*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida yakka tartibda va guruh bo'lib ishlashning o'рни va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida tushunchalar ko'rsatilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение индивидуальной и групповой работы в образовательном процессе. Показаны концепции использования интерактивных методов и инновационных технологий.*

Annotation: *This article examines the role and importance of individual and group work in the educational process. Concepts about the use of interactive methods and innovative technologies are shown.*

Kalit so'zlar: *yakka tartibda ishlash, guruhda ishlash, intellektual salohiyat, interfaol metod, tashabbuskorlik, ilm-fan.*

Ключевые слова: *индивидуальная работа, групповая работа, интеллектуальный потенциал, интерактивный метод, инициатива, наука.*

Key words: *individual work, group work, intellectual capacity, interactive method, initiative, science.*

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog'liq. Globallashuv jarayonida innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga turtki bo'lmoqda.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor ta'lim tizimini va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv

va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak.

Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o'quv–tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

Interfaol ta'lim-hamkorlikda faoliyat olib borish, suxbat, dialog muxitida bo'lish. Interfaol metodlar o'quvchilarning faqat o'qituvchi bilan emas, balki o'zaro xamkorligiga, ya'ni kichik guruhlariga asoslanadi.

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib o'qituvchi darsni interfaol metodlar asosida olib borishi talab etilmoqda. Bunda o'qituvchi nafaqat o'quvchilar bilan balki o'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishadi.

Ta'lim olish jarayonida o'quvchilar faolligiga e'tibor qaratiladi. Buyuk donishmand **Konfutsiy** 3500-yil muqaddam quyidagi fikrni ta'kidlab o'tgan.

-Eshitganimni yoddan chiqaraman;

-Ko'rganimni eslab qolaman;

-Bajarganimni tushunib yetaman;

Ushbu fikrning tasdig'i sifatida biz o'qituvchilar o'quvchilarni yangi materialni o'zaro hamkorlikda turli o'yinlar, interfaol metodlar orqali o'zlashtirishlariga zamin yaratishimiz lozim. Shundagina o'quvchilar berilgan materialni yaxshi o'zlashtira oladi.

O'qitishda o'quvchilarning *bilim darajasi va qiziqishlari* ham hisobga olinadi. Ana shunday usul va metodlardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Guruh tartibda ishlashning ijobiy va salbiy hususiyatlari.

1.Rezyume metodi:

Texnologiyaning tavsifi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning

mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning aloxida elementlari muxokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topishga, kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechish hamda mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi: ma'ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka (yoki kichik guruxlarga ajratilgan) tartibda o'tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: A-3 formatdagi qog'ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi;
- o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaklarni tarkatadi;
- har bir guruh a'zolari o'zlariga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;
- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- o'qituvchi boshqa kichik guruxdardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruxlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;
- o'qituvchi guruxlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izox berib, ularni baxolaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Mashg'ulot jarayonida guruh bo'lib ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.

Guruh bo'lib ishlash jarayonida o'quvchi o'zini erkin xis qiladi, so'z boyligi oshadi. Mashg'ulotni amalga oshirishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni

guruhlar ajratishda sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni faol o'quvchilar bilan birgalikda ishlashlari uchun imkoniyat yaratadi. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etishga intiladi, o'z fikrini bayon eta oladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan turli xil interfaol usullarni qo'llashda yakka tartibda va guruh bo'lib ishlashga juda katta e'tibor berishimiz lozim. Bu o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni oson va tez o'zlashtirib olishlari uchun katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innavatsion pedagogik texnologiyalar". Toshkent-2013-y.

INTERNET MA'LUMOTLAR:

- 1.www. "Ziyonet".uz
- 2.www.google.uz tarmog'idagi ma'lumotlar.

**ELEKTR O'LCHASHLARNING FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI VA
O'LCHASH USULLARI**

Saydulloxon Akbarov

Namangan muhandislik-qurilish instituti 25-msmsm-21 guruhi talabasi

Muslima Abdubannayeva

Namangan muhandislik-qurilish instituti 26-msmsm-21 guruhi talabasi

Mahmudjon Melibayev

Namangan muhandislik-qurilish instituti professor t.f.n

Аннотация: Ушбу мақолада ўлчанаётган катталиклар, метрологик ўлчаш усулларининг турлари, ўлчов билан таққослаш (солиштириш), айирмали ўлчаш (дифференциал), нолга келтириш, ўриндошлик, ва мос келиш усуларининг бир-биридан фарқлари, ҳамда электр ўлчаш усулларининг фан-техникадаги тутган ўрни ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: усуллар, бевосита, билвосита, ўлчов билан таққослаш, солиштириш, нолга келтириш, айирмали ўлчаш, дифференциал, ўриндошлик, мос келиш.

Аннотация: В статье представлены измеряемые величины, виды метрологических методов измерений, сравнение с измерением (сличением), дифференциальное измерение (разностное), отличия методов обнуления, юстировки и согласования, а также сведения о роли методов электрических измерений. в науке и технике дано

Ключевые слова: методы, прямое, косвенное, сравнение с измерением, сравнение, обнуление, дифференциальное измерение, дифференциал, подстановка, сопоставление.

Abstract: The article presents the measured quantities, types of metrological measurement methods, comparison with measurement (comparison), differential measurement (difference), differences in the methods of zeroing, adjustment and matching, as well as information about the role of electrical measurement methods. in science and technology given

Keywords: methods, direct, indirect, comparison with measurement, comparison, zeroing, differential measurement, differential, substitution, comparison

Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotini elektr o'lchashlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti-fan bilan texnikaning o'zaro bog'liq,yagona,ilgarilanib boruvchi taraqqiyoti;ijtimoiy taraqqiyot asosi.Dastlab fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o'rtasidagi yaqinlashuv XVI-XVIII-asrlarda manfaktura ishlab chiqarish bilan bog'liq holda sodir bo'ldi.Bungacha moddiy ishlab chiqarish empirik tajribalar,hunamandlik asosida shakllangan.Teologiya va sxolastika ta'siridagi tabiat haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar ham

ishlab chiqarishga hech qanday salbiy ta'sir qilmasdan sekinlik bilan rivojlangan ilmiy va texnikaviy taraqqiyot inson faoliyatining 2 ta nisbatan mustaqil yo'nalishi sifatida yuksala boshlagan.

O'lchash-bu izlanayotgan kattalik haqidagi axborotni qabul qilish va o'zgartirish jarayonidir.


O'lchash fan va texnikaning qaysi sohasida ishlatilishiga qarab,u aniq nomi bilan yuritiladi;elektrik,mexanik,issiqlik,akustik va hokazo.


Elektr o'lchashlar deganda hamma elektrik va magnit kattaliklarni,elektr zanjirlarining parametrlarini va har xil noelektrik kattaliklarni o'lchah tushuniladi.

Elektr o'lchashlarning afzalliklariga quyidagilar kiradi;masofadan va markazlashgan o'lchashlarni olb borish imkoniyatiga ega ekanligi.Bundan tashqari elektr o'lchashlar yordamida bir vaqtning o'zida har xil xarakterdagi kattaliklarni o'lchash mumkinligi,o'lchash apparaturasining kam inersionligi,o'lchashning juda keng chastota diapazonida olib borilishi;avtomatik rostdash va boshqarish sistemalaridagi bazi masalalarni kompleks ravishda yechishning qulayligi va nihoyat,o'lchash natijalarida avtomatik ravishda har xil matematik operatsiyalar o'tkazish imkoniyatining mavjudligidir.

O'lchash usullari deganda o'lchash qonun-qoidalari va o'lchash vositalaridan foydalanib,kattalikni uning birligi bilan solishtirish usullarini tushunamiz.

O'lchash usullari o'lchash eksperimentini o'tkazish algoritmi va o'lchash vositalarining yig'ilmasi bilan xarakterlanib,ikki usulga bo'linadi;bevosita baholash va solishtirish usuli.





Bevosita baholash usuli-bevosita kuzatish asbobining kuzatish, sinash qurilmasi yordamida to'g'ridan-to'g'ri o'lchanayotgan kattalikni qiymatini toppish. Masalan, purjinali manometer bilan bosimni o'lchash yoki ampermetr yordamida to'k kuchini toppish.

O'lchov bilan taqqoslash (solishtirish) usuli – o'lchanayotgan kattalikni o'lchov orqali yaratilgan kattalik bilan taqqoslash (solishtirish) usuli. Masalan, tarozi toshi yordamida massani aniqlash.

O'lchov bilan taqqoslash usulining bir necha turlari bor;

Ayirmali o'lchash (difrensial) usuli – o'lchanayotgan kattalikning va o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasi (farqi)ning o'lchash asbobiga ta'sir qilish usuli. Masalan, uzunlik o'lchovini qiyoslashda uni komparatorda namunaviy o'lchov bilan taqqoslab o'tkaziladigan o'lchash, yoki voltmeter yordamida ikki kuchlanish orasidagi farqni o'lchash

Nolga keltirish usuli – kattalikning taqqoslash asbobiga ta'sir natijasini nolga keltirish kerak. Masalan, elektr qarshiligini qarshiliklar ko'prigi bilan to'la muvozanatlashtirib o'lchash.

O'rindoshlik usuli – o'lchanayotgan kattalikning o'lchov orqali yaratilgan ma'lum qiymatli kattalik bilan o'rin almashishiga asoslangan. Misol, o'lchanadigan massa bilan tarozi toshini bir pallaga galma-gal qo'yib o'lchash.

Mos kelish usuli – o'lchanayotgan kattalik bilan o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini shkaladagi belgilart yoki davriy signallarni mos keltirish orqali o'tkaziladigan o'lchash. Masalan, kalibr yordamida val diametrini moslash.

Har bir tanlangan usul o'z uslubiyatiga, ya'ni o'lchashni bajarish uslubiyatiga ega bo'lishi lozim. O'lchashni bajarish uslubiyati deganda, ma'lum usul bo'yicha o'lchash natijalarini olish uchun belgilangan tadbir, qoida va sharoitlar tushuniladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Мелибаев Махмуджон, Нишонов Фарходхон Ахмадхонович
“Определение площади контакта шины с почвой в зависимости от сцепной нагрузки и размера шин и внутреннего давления.”
- 2) “Машинасозликда деталларни ўлчамини назорат қилишда метрологик таъминот” М.Мелибаев, Б.С Абдуллажонов – Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн ..., 2022 conferencezone.org
- 3) Determination of the average resource of tires of cotton wheeled tractors A.Saidullo, M.Mahmujon - Conference Zone, 2022 - conferencezone.org
- 4) Analysis of the Structure and Classification of Airless Tires A.S.Askarjon, AMK Qizi... - Eurasian Journal of ..., 2022 - geniusjournals.org
- 5) Исследование влияния производительности очистителя хлопка-сырца на изменения скорости вращения колкового барабана А.А.Махмудов, А.Х.Бобоматов – Universum: технические науки, 2019

MA'NODOSHLIK (SINONIMIYA) QATORLARI

Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada leksemalarning sinonimik qatorlari, sinonimik munosabat va ularning ahamiyati, leksik paradigmalarda haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'nodoshlik, leksik paradigma, sinonimik munosabat, atash sema, vazifa sema, ifoda sema*

Ma'nodoshlik (sinonimiya) qatorlari o'zbek tilshunosligida atroflicha o'rganilgan leksik paradigmalardan biridir. Avvalo, sinonim so'zi nima? Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoqlar bilan leksemalar sinonim deyiladi. (Gr. synonymos – “bir nomli”). Hozirgi kunda bunday so'zlar qatori – muayyan o'xshashlik asosida bir necha til birliklarining o'zaro bog'lanishi, bu birliklar orasidagi muayyan farqlar, ularning tabiati va yuzaga chiqish kabilar maxsus ilmiy ishlarda, qo'llanmalarda o'z yechimini topgan.

Sinonim leksemalar sememalardagi atash va vazifa semasi bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanishi mumkin. Bunga misol tariqasida yurak – qalb – dil – ko'ngil – siyna ma'nodoshlik qatorini keltirishimiz mumkin. Ma'nodoshlik munosabatini to'liq va atroflicha tadqiq qilish, o'zbek tili leksemalari sememasi tarkibidagi ifoda semalarini o'rganish imkoniyatini tug'diradigan muhim omildir. Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli xil bo'ladi. Ularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin bo'ladi:

1) Ijoyib yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi

2) Leksemalarning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: “eskirgan”, “yangi”, “o'ta Yangi”, “arxaik”, “tarixiy”

3) Leksemalarning qo'llanish darajasini ko'rsatuvchi sema: “shevaga xos”, “so'zlashuvga oid”, “kitobiy”, “ko'tarinkilik” kabilar. Ma'nodoshlik qatorining umumiy xususiyatlaridan diqqatga sazovori shundaki, bu qatorlar, albatta, bitta bosh leksema (dominanta) atrofida birlashadi. Bosh leksemaning xususiyati shundaki, uning yuqorida sanab o'tilgan barcha ifoda semasi neytral va betaraf bo'ladi. M: qulay – ixcham – bejirim. Ushbu qator so'zlashuv nutqiga xos, ko'tarinkilik ifoda semalaridan iborat. Misoldagi “qulay” leksemasida ifoda semasi belgilanmagan, “ixcham”, “bejirim” leksemalarida esa ifoda semalari ifodalangan. Shuningdek, ma'nodoshlik qatorida bosh so'zning bir qancha xususiyatlari mavjud:

1) Bosh leksemaning mazmuni boshqa leksemalarga nisbatan kambag'alroq bo'ladi. M: rahmat – tashakkur – qulluq. Ushbu qatordagi “qulluq” va “tashakkur” leksemalaridagi ko'tarinkilik bo'yog'i “rahmat” so'zida yo'q.

2) Bosh leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori keng va ko'p bo'ladi.

3) Bosh leksema nutq sharoiti talabi bilan istagan vaqtda o'z ma'no guruhidagi barcha so'zlarni almashtira oladi.

4) Bosh leksema muayyan qo'shimcha vositalar bilan o'z qatoridagi leksemalarning qo'shimcha ifoda semasini anglata oladi. Masalan, "Muttaham qozining basharasiga tupurgim keladi". Bu gapda (basharasiga) so'zini (xunuk yuziga, razil yuziga) kabilar bilan almashtirsak ham bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan sinonimik qator, sinonimiya haqida anchagina fikrga ega bo'ldik. Endi biz "muhabbat" leksemasining ifoda semasini tahlil qilsak. Muhabbat leksemasining sinonimik qatoriga yoqtirib qolmoq, ko'ngil bermoq, moyil bo'lmoq, xushtor bo'lmoq, oshufta bo'lmoq, dil bermoq, bedil bo'lmoq, oshiq bo'lmoq, muftalo bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq, ishq tushmoq, ishq foniq, ishq boqiy, sevgi, mehr kabilarni kiritishimiz mumkin. Ijobiy yoki salbiy munosabat semasiga ko'ra moyil bo'lmoq va xushtor bo'lmoq so'zlari salbiy, qolgan barchasi ijobiy bo'yoqqa ega. Qo'llanish doirasiga ko'ra yoqtirib qolmoq, ko'ngil bermoq, moyil bo'lmoq, xushtor bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq so'zlari so'zlashuvga oid bo'lsa, oshufta bo'lmoq, dil bermoq, bedil bo'lmoq, ishq foniq, ishq boqiy so'zlarida esa ko'proq kitobiylik va ko'tarinkilik ifoda semalari anglashilib turadi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ma'nodoshlik qator o'zi nutqni boyitadigan, go'zallashtiradigan asosiy omil hisoblanadi. Yuqorida ko'rib turganimizday, ma'nodoshlik qatori doimo ochiq bo'ladi. Jamiyat rivojlanishi, o'zgarishi bilan umum iste'moldan so'zlar chiqib ketishi yoki so'zlar qo'shilishi mumkin. Shular orqali ham ma'nodoshlik qator boyiydi. Shuningdek, ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, frazeologik iboralar, yasama so'zlar, so'z birikmalari bilan bog'lanib, o'z qatorini nutqiy ma'nodoshlik vositalari bilan kengayib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Tafakkur Bo'ston, 2018.
2. Sayfullayeva Respublikasi., Menliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2005.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005.

РАХБАРЛИК ПСИХОЛОГИЯСИ, ХОДИМЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА АСОСИЙ БОСҚИЧЛАРИ

Турсунов Умиджон Фарходжон ўғли

*ИИВ Академияси ўқув саф қисми отряд камандирининг
ТИБ ўринбосари, лейтенант*

Жуманиёзов Нодирбек Ғиёс ўғли

ИИВ Академияси 3-босқич курсанти, сафдор

Имомалиев Диёрбек Илҳомжон ўғли

ИИВ Академияси 3-босқич курсанти, сафдор

Облоқулов Жавоҳир Толиб ўғли

ИИВ Академияси 3-босқич курсанти, сафдор

Аннотация: Ушбу мақола орқали сиз, раҳбарларнинг қўл остидаги ходимларга муносабатининг ахлоқий ҳуқуқий доирасининг чегараси, муомала маданияти, ходимларни бошқаришнинг моҳияти, психологик таъсир этиш усуллари, замонавий усулларни амалиётга қўллашнинг ташкилий омиллари ҳақида билиб олишингиз мумкин.

Калит сўзлар: раҳбар, ходим, замонавий усуллар, психологик таъсир этиш, ёндашув, лоқайдлик, бепарволик, касбига содиқлик.

ПСИХОЛОГИЯ ЛИДЕРСТВА, СУЩНОСТЬ И ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ

Аннотация:

Благодаря данной статье вы сможете узнать о границах морально-правовых рамок отношения руководителей к подчиненным, культуре поведения, сущности управления персоналом, методах психологического воздействия, организационных факторах применения современных методов на практике.

Ключевые слова: *руководитель, сотрудник, современные методы, психологическое воздействие, подход, равнодушие, небрежность, лояльность к профессии.*

PSYCHOLOGY OF LEADERSHIP, ESSENCE AND BASIC STAGES OF PERSONNEL MANAGEMENT

Annotation: *Through this article, you can learn about the limits of the moral and legal framework of managers' attitude to subordinates, the culture of behavior, the essence of personnel management, methods of psychological influence, and organizational factors of applying modern methods to practice.*

Key words: *leader, employee, modern methods, psychological impact, approach, indifference, carelessness, loyalty to profession.*

Раҳбар одам бошқаларга нисбатан узоқроқни кўриши керак. У нафақат бугунни, балки, эртанги кунни аниқ тасаввур этиб ишлаши, келажакнинг ташвиши билан яшаши зарур. Ҳали кўзга ташланмаган муаммоларни сезиши, кўра билиши керак. Раҳбар унга ишонган одамларни атрофда бўлаётган воқеа-ҳодисалардан, эртага у қандай оқибатларга олиб келиши мумкинлигидан огоҳ этиб бориши лозим⁷⁷.

Каримов И.А

Халқимизда "Ўтган кунингни унутма, эски чорифингни қуритма" деган ибратли бир мақол бор. Бу - аслида ким эканлигини, мансаб курсисига ўтирмасдан олдин ким бўлганлигини, лавозимдан тушгач, ким бўлажаклигини унутма, камтар бўл, қадамнинг билиб бос, халқнинг назаридан қолма, деганидир. Бу ҳаммининг, айниқса, катта-кичик раҳбарларнинг доим ёдида туриши керак.

Одамларимизнинг эртанги ҳаётдан кутаётган орзу-умидларининг рўёбга чиқиши, Ватан тараққиёти, юрт тинчлиги, халқ фаровонлиги раҳбарларнинг ўз вазифасини ҳалол ва малакали бажаришига, қолаверса, фидойилигига кўп жиҳатдан боғлиқ.

Бутун халқимизнинг тақдирига дахлдор муҳим масалалардан бири - иқтисодиётни, халқ хужалиги ва халқ таълимини, соғлиқни сақлаш, маданият ва спортни бошқариш, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш муаммосидир. Бу айтишга қўйиш мамлакатимиз тараққиётининг устувор йўналишлари этиб белгиланган. Чунки жаҳоннинг энг ривожланган мамлакатларида ҳам тараққиётга айнан шу йўл билан эришилган.

Раҳбар ўзига ишонч билдирган одамларнинг юрак уришини доимо сезиб туриши, унинг секин ёки безовта уришига қараб, вазиятга тўғри баҳо бериши, шу асосда тўғри қарор қабул қила олиши даркор. Айтиш керакки, раҳбар номаъқул ишни кўрганда бировнинг ёқасидан олмаса, эл-юрт манфаатини ўйлаб, эй инсон, нима қиляпсан, демаса, камчилик-нуқсонларга қарши жамоатчиликни кўтармаса, у ҳеч қачон яхши раҳбар бўла олмайди.

Агар раҳбарнинг ўзи тиним билмай ишламаса, янги имкониятларни топиб, одамларни олижаноб ишларга бошлаш учун кўйиб-ёнмаса, унинг атрофидагилар -

⁷⁷ Каримов И.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш - энг муҳим вазифамиз // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: "Ўзбекистон", 2000. - 357-360,403-б.

муовинлар дейсизми, бошқа мутасаддилар дейсизми - беғамликка, лоқайдликка берилиб, шундай иш услубига, шундай ҳаёт оқимига ўрганиб-кўникиб қолади. Раҳбарнинг фазилати, аввало, унинг одамларга муносабатида, одамларни рози қилиш, уларга ғамхўрлик, меҳрибонлик кўрсата олиш қобилиятида намоён бўлади. Раҳбар киши эл-юртнинг дарду ташвиши билан, шу ташвишларни имкон қадар осон қилиш ва енгиллатишни ўйлаб яшаши, одамларни ҳимоя қилишга доимо тайёр туриши, бир сўз билан айтганда, халқнинг дардини ўз дарди, деб билиши керак.

Ҳар қайси раҳбар қатъиятлилик, талабчанлик, керак бўлса, қаттиққўллик хусусиятларига эга бўлиши лозим. Ҳаёт олдимизга қўяётган кўпдан-кўп муаммоларни вақтида ечиш ҳақида муттасил қайғуриш, бу йўлда кечани кеча, кундузни кундуз демай, ўз ҳаловатидан воз кечиб, бошлаган ишини охирига етказмагунича тиним билмаслик - бу ҳам ҳар қандай раҳбарга қўйиладиган ҳаққоний талаб, десак асло хато бўлмайди⁷⁸.

Бинобарин, жамиятимизда раҳбарлик фаолияти туғри режалаштирилса, давлатимиз ва халқимиз олдида турган кўплаб муаммолар ўз ечимини топиб, юртимиз обод, турмушимиз фаровон бўлишига шак-шубҳа йўқ. Лекин очиғини айтганда, жамиятимизда раҳбарлик фаолияти ва унинг самараси талаб даражасида эмаслиги аён бўлиб қолаётир. Бунинг ҳар хил объектив ва субъектив омиллари бор албатта. Субъектив омиллардан бири шуки, жамият аъзоларидан бир қисмининг онги, дунёқараши ҳали бошқарув фаолиятига тайёр эмасга ўхшаяпти. Раҳбарликнинг моҳиятини, мақсад ва вазифаларини тушунмаслик оқибатида айрим етакчилар ўз фаолиятига лоқайд муносабатда бўлмоқдалар. Баъзи кишилар эса боқимандалик кайфиятидан тўла қутулган эмас. Шу билан бирга, айрим раҳбарлар ўз ҳақ - ҳуқуқларини, бурч ва мажбуриятларини етарли даражада билмайдилар. Айниқса, бугунги кунда ҳар бир раҳбар жуда кўп соҳаларни, ҳар бир соҳанинг ўзига хос мураккаблиklarини яхши билиши, олдига қўйган мақсадини ҳис этиши, раҳбарлик маданияти ва этикасини чуқур англаши лозим.

Раҳбарлик тушунчасига қўйидагича таърифларни келтириш мумкин:

1. Раҳбар ижтимоий шахс сифатида ишлаб чиқарувчи кучлар ва ишлаб чиқариш ресурсларини бирлаштириб, унинг асосий ҳаракатлантирувчи кучини бошқарувчи сифатида омилкорлик билан иш юритувчи шахсдир.

2. Раҳбар ҳар қандай ишни амалга ошириш учун, аввало, мустакил қарор қабул қилади. Бу қарор раҳбарнинг тадбиркорлик, ишбилармонлик фаолияти мақсадини белгилайди.

⁷⁸ Каримов И.А. Одамлар ташвиши билан яшаш - олий бурч // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т.: “Ўзбекистон”, 2002. - 77-78-б

3. Рахбар ўз соҳасига янги ғоя, янги ташаббус, янги технологияларни жорий этувчи тадбиркор шахс ҳисобланади.

4. Рахбар меҳнати, айна вақтда тадбиркорликка асосланган машаққатли фаолият ҳисобланади. Унга сарфланган куч, маблағ баъзан вақтинча фойда эмас, зарар келтириши, муассаса фойда ўрнига зарар ҳам кўриши мумкин. У бундай ҳолатларни олдиндан кўра олиши ва бунга тайёр туриши, зарур бўлганда, фаолиятини қайта бошлаши, ўзида бунга куч-гайрат топа билиши лозим.

Ўзаро муносабатларда раҳбарларнинг бир-бирини тўғри тушуна олишига имкон бермайдиган, ҳар хил келишмовчиликларга олиб келадиган омиллар ҳам бор. Бундай тўсиқларнинг энг кўп учрайдиган уч хилини кўрсатиб ўтиш мумкин. Булар:

1) дастлаб кўришганда бир-бирини ташқи қиёфаси бўйича ўзидан устун кўриш ёки уни ёқтирмаслик;

2) шерик билан дастлабки мулоқотда унинг муҳим фикрларига қушилмаслик ва ҳоказо;

3) дунёвий тасаввурлари, мақсад ва мулоҳазалари, ижтимоий барқарорлиги мос келиши ёки аксинча ва ҳоказо.

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Хуллас, жамоага рахбар бўлиш жуда қийин. Жамоа кўпчиликни ташкил этади. Шундай экан, уларнинг фикри, дунёқараши, маънавияти, характери, руҳияти ҳам турличадир. Рахбар уларнинг турли-туман, яхши-ёмон ишларини, албатга, кузатиб туриши керак бўлади, токи ҳеч бир иш уларнинг назаридан четда қолмасин. Агар рахбар фақат бошқарув ишларию, ўз шахсияти билан банд бўлиб қолса, қўл остидаги оммани кузатишга бефарқ бўлса, унда бу раҳбардан воз кечиш лозим. Ўз муассасаси аъзоларининг хатти-ҳаракатларидан воқиф бўлмаслик жамоанинг бир неча тарафга бўлинишига олиб келади. Бундай рахбар давлатга ҳам, жамоасига ҳам зарар келтиради.

Бошқарув жараёнини психологик таҳлил этиш масаласи, авваламбор, раҳбарнинг фаолиятини такомиллаштиришни ўз олдига мақсад қилиб куяди. Мазкур мақсадни амалга ошириш учун раҳбарга қўйиладиган талаблар, уларни бажаришга мойиллик ва бошқарув фаолиятини тўлақонли амалга оширишга тўсқинлик қилувчи шахс хусусиятларини ўрганиш зарурати туғилади.

Жамоатчилик, халқ раҳбар шахсинг мустақил дунёқараши, кенг фикрлаши, узоқни кўра билиш қобилияти билан бошқалардан ажралиб туришини, иймон-этиқоди мустаҳкам, иродаси бақувват, ор-номусли, ҳаром-хариш ишлардан ҳазар қиладиган, изланувчан, ташаббускор, тадбиркорлик фазилатига эга бўлишини, ташкилотчи, талабчан ва қатъиятли бўлишини истайди.

Раҳбар шахс ҳислатлари. Раҳбар шахси тушунчасини таҳлил этар эканмиз, унга хос хусусиятларни уч гуруҳга бўлиб ўрганиш таклиф қилинади:

Биографик тавсиф;

Кобилият;

Шахс хислатлари.

Раҳбар шахсининг биографик жиҳатларига унинг ёши, жинси, ижтимоий-иқтисодий мавқеи ва маълумоти киради.

Раҳбар ёши. Бошқарув фаолиятини муваффақиятли амалга оширишнинг раҳбар ёшига боғлиқлиги ривожланган мамлакатлар тадқиқотларига асосланади. Аниқланишича, Япония қайта ишлаб чиқариш йирик компаниялари раҳбарларининг ўртача ёши 63,5 бўлса, шу тоифа америкалик раҳбарларнинг ёши 59 да экан. Япония йирик компания раҳбарларини ўрганишда учрайдиган ва таажжубланарли жиҳатлардан бири, уларнинг ёши улўғлигидир. Баъзи бир ташкилотларда (масалан, «Сони корпорейшн») компания президентининг ёши 65 деб чекланган бўлса-да, лекин кўпгина автомобиль соҳасидаги фирма раҳбарларининг ёши 75 ва ундан юқорилиги ажабланарли ҳол эмас. Умуман олганда, Японияда ходимнинг корхонага бир умр ёлланиш тажрибаси қўлланади. Маълум бўлишича, юқори бўғин раҳбарларининг кўпчилиги ўз ташкилотида 30 йилдан ортиқ ишлайди. Бу соҳада ўтказилган тадқиқотлар шундан далолат берадики, катта ёшли раҳбарлар, агар уларнинг соғлиги кўнгилдагидай бўлса, ушбу ташкилот учун катта тажриба манбаидир. Раҳбарнинг улўғ ёши ҳақида гапирар эканмиз, нафақат унинг биологик жиҳати, балки, ижтимоий томони, ҳаётининг тажрибасини ҳам назарда тутишимиз даркор. Зеро, «Қари билганни пари билмас», деб халқимиз бежиз айтишмаган. Бироқ, ишлаб чиқаришга замонавий технологиянинг кириб келиши уларни ўзлаштиришда маълум маҳоратни талаб қилади. Бахтга қарши, ҳозиргача компьютерда ишлашни ўрганолмаётган катта ёшли раҳбарларни учратиш қийин эмас. Шу жиҳатдан олганда, ёш раҳбар кўпинча ташкилотга илғор технология ва тезкорлик олиб кирувчи омил сифатида қабул қилинади.

Ёш раҳбар бошқарадиган ташкилотдаги ходимларнинг ўртача ёш кўрсаткичи кўпинча паст бўлади. Ёшлик (30-35 ёш атрофида) бу янгилик ва кашфиётларга мойиллик, ижодийлик, қўрқмаслик ва ўзгарувчан муҳитга мослашувчанлик билан ифодаланади. Афсуски, бундай ташкилотда катта ёшдаги (40-45 дан юқори) ходимларга, ҳатто, шубҳа билан қарашади. Лекин, аниқланишича, инсон 35-55 ёшларида ўз касбининг моҳир устасига айланади, ўз соҳасидаги билимни яхши эгаллайди ва ихтироларни жорий этишга ўзида иштиёқ сезади. Шу билан бирга, унда вазиятни совуққонлик билан таҳлил этиш, вазминлик кайфияти шаклланади.

Албатта, ҳамма ёш раҳбар илғор технология тарафдори ва шунга мойил деб айтиш кийин, лекин ёшларга замонавийлик хос. Бу эса ўз навбатида, ёш раҳбарнинг замонавий ва илғор ишлаб чиқариш услубларига мурожаат этиш эҳтимолини кучайтиради. Халқимизда, ёши катта бўлса ҳам кўнгли ёш деган ибора бор.

Демак, замонавий раҳбар ёшидан қатъи назар илғор технологиялар тарафдори, ташкилот миқёсида замонавий ишлаб чиқаришни жорий этишга қобилиятли бўлиши лозим. Бу эса ўташ даври талабидир.

Раҳбар жинси. Инсон жинси, унинг айнаи бир ролга амал қилишини тақозо этади. Айниқса, бу ҳолат шарқ мамлакатлари, худудимиз шароитида яққол намоён бўлади. Бу худудда эркак ва аёлга хос жинсий ижтимоий нормалар аниқ белгиланган. Модомики шундай экан, инсон амалга ошираётган кўпгина ҳатти-ҳаракат айнан шу жинсий рол мезони таъсирида идрок этилади. Ҳозир, инсоннинг жинсий мансублигига қарамай, касб ёки лавозим поғонасида катта имкониятлар пайдо бўлаётганини кўрамыз. Мамлакатимизда тадбиркорлик ва давлат бошқаруви соҳасида аёлларга катта йўл очилган. Аммо, шунга қарамай, раҳбар сўзи кўпинча эркак жинси билан қиёсланади ва негадир, аёл раҳбар идора этадиган соҳалар сифатида маориф, соғлиқни сақлаш, аҳолига хизмат кўрсатишдан нарига ўтилмайди.

Ҳақиқатдан ҳам аёлнинг у ёки бу соҳада бошқарув лавозимини эгаллаши, кўп жиҳатдан, бу соҳа аёлларга мосми ёки эркакларгами деган саволга боғлиқ бўлиб қолган. Бир қатор тадқиқотлар оркали аниқланишича, эркак ва аёл аралаш ишлайдиган гуруҳда кўпинча эркаклар ташаббусни ўз қўлларига олар эмиш. Тадқиқотчи Е.Холландер тажрибасига кўра, гуруҳ доирасида хал этиладиган вазифани ечишда эркаклар кўпроқ мақбул йўл топа олишади ва аралаш гуруҳда эса устунликка интилишади. Олимнинг тушунтиришича, эркаларга хос бундай ҳатти-ҳаракат, кўп жиҳатдан, жамиятда ўрнатилган нормалар ва эркаклар ҳулқига оид установка, яъни кутувлардан келиб чиқади. Бундай установкалар асосидаги стандартлар атрофдагиларнинг бўлаётган воқеа-ходисаларни идрок этишига ҳам катта таъсир этади. Масалан, психолог Р.Райе ўтказган тажрибада қуйидаги манзара кузатилади: тажриба давомида харбий ўқув юрти курсантларида аёлларга нисбатан маълум (унчалик ижобий бўлмаган) установка шакллантирилган. Шундан сўнг, курсантларни учтадан қилиб икки гуруҳга булишган ва лаборатория шароитидаги тажрибада катнашишга таклиф этишган. Икки гуруҳ курсантга икки раҳбар — бири эркак иккинчиси аёл бошчилик килган. Гуруҳлар маълум бир мураккаб вазифаларни хал этишган ва ечим давомида раҳбар фаол мавқеа эгаллаган. Аниқланишича, аёл раҳбарлик килган курсантлар гуруҳ муваффақиятини тасодифга йўйишган, эркак раҳбар булган гуруҳдаги курсантлар эса муваффақиятда айнан раҳбарнинг қобилиятини етакчи деб кўрсатишган. Мазкур тажриба шундан далолат берадики, атрофдаги воқеаларни баҳолашимиз кўп жиҳатдан айнаи жамиятда қабул килинган норма ва меъёрларга боғлиқ.

Бошқарув амалиётида ва шунингдек баъзи бир адабиётларда эркак раҳбар фаолияти аёл раҳбарниқига нисбатан анчагина самарали деган тасаввур мавжуд. Одатда, бундай фикрга қуйидаги далиллар келтирилади: эркак ёрқин ифодаланган мантикий фикролаш хусусиятига эга эмиш, аёл эса кўпинча хиссиётга берилади; эркак уз ишига фидойи десақ аёл кимматли вақтини оилага сарфлайди. Чунончи, эркак

турли салбий таъсирларга, стрессларга чидамли булса, аёл мураккаб вазиятда ҳатто аклини «йўқотиб» куйиши мумкин экан.

Аммо, хаёт бунинг аксини курсатиб турибди-ки, айна пайт ишлаб чиқаришни самарали бошқараётган аёлларни кўплаб учратиш мумкин. Жинсий тафовутларни тахлил этишда самарадан кура бошқарув услуби хакида гапирса, ўринлироқ бўлади. Эркак раҳбар асосий дикдат-этиборини ишлаб чиқариш муаммоларига тааллуқли вазифаларга қаратса, аёл раҳбар кўпроқ жамоанинг ижтимоий—психологик жиҳатларига, психологик муҳитни соғломлаштиришга қаратади, деган хулосатар ҳам кам эмас. Албатта, бу фикр бир канча бахс ва мунозарага сабаб бўлса-да, эндиликда қўшимча тадқиқотлар ўтказишни ҳам тақозо этапти.

Хуш, аслида эркак ва аёл раҳбарлар муваффақиятга эришишларида маълум фарқ, тафовут мавжудми, деган саволга куйидаги жавобни оламиз. Таникли олима Ф.Денмарқ катта хажмдаги тадқиқотлари асосида шундай хулосага келдики, бошқарув соҳаларида муваффақиятга эришишда сезиларли жинсий тафовутлар кузатилмас экан. Аёл ва эркак менежерларнинг бошқарув фаолиятидаги фарқ шундан иборат эканки, аёллар жамоадаги инсоний муносабатларга кўпроқ этибор берадилар. Эркак ва аёл менежерларга хос жинсий психологик фарқнинг булиши табиий, лекин жамоа олдида турган вазифани бажариш, кўзланган мақсадга эришиш борасида жинсий тафовут кузатилмайди. Назаримизда, бу муваффақиятлар сабаби жинсга хос бўлмаган омиллар билан белгиланади. Масалан, шахснинг кўпгина ишчанлик фазилатлари жинсий мойилликлар билан эмас, балки ижтимоий кадриятлар, характердаги хусусиятларга асосланади. Хусусан, инсоний муносабатларга этибор, кўнгилчанлик бошқарувда демократик тамойилларга суюниш аёлларда кўпроқ учрайди ва бу кўрсаткичлар маълум маънода жамоа фаоллигига ижобий таъсир этувчи омиллардир.

Бир катер тажриба ва кузатиш натижалари яна бир бошқа маълумотларни ҳам беради. Раҳбарлик даражаси қанчалик юқори бўлса, эркак ва аёл раҳбар ўз услубларида шунчалик қарама-қарши жинс хусусиятларини намойиш этадилар. Эркак раҳбар эркакка хос ҳислатдан ташқари аёлга хос айрим фазилатларни ҳам бошқарув амалиётида қўллашгани кўрамаиз: кўнгилчанлик, нозикдидлик интуиция... Ўз навбатида аёллар ҳам эркакларга хос сифатларни ўз фаолиятларида қўллайдилар: мустаҳкам ирода, қатъийлик, фаоллик, тиришқоқлик. Демак бошқарув самарасини жинсий мансублик билан борлаш нотўғридир. Бу ўринда бошқа омиллар ахамиятлироқ ҳисобланади. Мисол учун интеллект, кадриятлар, шахс хусусиятлари, маълумот даражаси, бошқарув соҳасидаги тажриба каби кўрсаткичларни келтириш мумкин.

Ҳар қандай раҳбарлик мансабига кўтарилган одамни синайдиган оғир имтиҳонлардан бири шуки - атрофдаги уни ўраб оладиган хушомадгўй, лаганбардор, лаббайчиларнинг сохта мақтовидан ўзини сақлаб, мана шундай имтиҳонлардан одамийлигини, инсоний қиёфасини йўқотмасдан чиқишдир.

Раҳбар одам бошқаларга нисбатан узоқроқни кўриши керак. У нафақат бугунни, балки, эртанги кунни аниқ тасаввур этиб ишлаши, келажакнинг ташвиши билан яшаши зарур. Ҳали кўзга ташланмаган муаммоларни сезиши, кўра билиши керак. Раҳбар унга ишонган одамларни атрофда бўлаётган воқеа-ҳодисалардан, эртага у қандай оқибатларга олиб келиши мумкинлигидан огоҳ этиб бориши лозим⁷⁹.

Биографик ношатлар каторига шахснинг ижтимоий-иқтисодий мавқеи ва унинг маълумоти даражасини киритиш мумкин. Бошқарув фаолиятини муваффақиятли амалга оширишда мавқеи ва маълумот ҳам муҳим омил саналади. Бизнес бошқаруви соҳасидаги олим Р.Стогдилл муаллифлигидаги «Бошқарув қўлланмаси»да таъкидланишича, муваффақиятли бошқарув ва шахснинг ижтимоий-иқтисодий мавқеи ўртасидаги боғлиқлик 94% га тенг ҳамда маълумоти ўртасидаги боғлиқлик эса, 88% га тенгдир.

Япониялик тадқиқотчи Т.Коно маълумотида кўра, оддий япон менежери, албатта, муҳандислик мутахассислиги ёки ижтимоий фанлар бўйича университет дипломига эга бўлиши шарт. Кўп холларда менежерлар икки мутахассислик дипломига эга бўлса, бир қатор етакчи бизнесменлар ва йирик раҳбарларнинг биографик таҳлили уларнинг юқори маълумотга эга эканликларидан далолат беради.

Раҳбар, аввало, жойларга бориб, меҳнаткашлар билан маслаҳат қилиш, ўз фикр-мулоҳазаларини, қарашларини, амалга ошириладиган чора-тадбирларни оддий одамлар билан ўртоқлашиш лозим. Ва улардан фақат битта нарсани сўраш керак: азиз дўстлар, биродарлар, менга таянч бўлинглар, биргалашиб мана шу ишларни қилайлик. Агар менга ёрдам бермасангиз, бу ишлар бир ўзимнинг қўлимдан келмайди, деб очиқ айтиш керак⁸⁰.

Шахснинг ижтимоий-иқтисодий мавқеи раҳбарлик фаолиятини бажаришида кучли омил ҳисобланади. Бунинг аҳамияти аниқса шарқ маданияти мисолида яққол кўзга ташланади. Худудимиздаги оддий фуқаро раҳбар шахсида нуфузли, ўзига тўқ ва тўла-тўқис инсонни кўришни хоҳлайди. Раҳбар майда иқтисодий муаммоларни бемалол ҳал қила олиши, катта ижтимоий алоқаларга молик эканлиги билан ҳамда ўз ақлий қобилияти, тажрибаси бўйича бошқа ходимлардан устун туриши лозим. Раҳбарнинг ижтимоий-иқтисодий мавқеи дастлабки пайтларда етакчи ролни ўйнайди. Кейинчалик эса у ҳақидаги бўлган жамоа тасаввури раҳбарнинг вазифаларни адо этиш қобилиятига бориб тақалади. Аммо, шахс шаклланган муҳитнинг раҳбарликка, шунингдек оилавий анъаналарнинг бошқарув қобилияти

⁷⁹ Каримов И.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш - энг муҳим вазифамиз // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000. - 357-360,403-б.

⁸⁰ Каримов И.А. Изланиш, ташаббускорлик, тадбиркорлик – давр талаби // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000. - 421-422-б.

ривожланишига таъсирини ўрганиш ҳам ўта аҳамиятлидир. Ҳақиқатан, раҳбар оиласида туғилиш, улғайиш давомида ота тажрибасини ўзлаштириш доминантликка, яъни устунликка мойилликнинг шаклланишига асос бўлиши мумкин. Бизнес бошқаруви соҳасидаги олим Ф.Фидлер таърифи бўйича «компания президенти бўлишнинг энг ишончли омили — компанияга эгалик қиладиган оилада туғилишдир». Лекин, Ли Якокка каби буюк менежернинг биографияси тамоман юқоридаги таърифни инкор этади. Бинобарин, бу шахс раҳбарликнинг паст қатламларидан унинг энг юқори чўққисига кўтарилди.

Бир қатор машҳур тадбиркорлар ўтмишини таҳлил этиш натижасида аниқландики, уларнинг кўпчилиги оилада тўнғич фарзанд бўлиб ўсишган. Дарҳақиқат, оилада тўнғичлик ўз мавқеига кўра маълум масъулият ҳам демакдир. Ўзбек оилаларидаги кўпболалик шароити тўнғич фарзандга ота-онага мададкор бўлиш, кичикларга раҳнамолик қилиш ва назоратни ўз бўйнига олишини тақозо этади. Бу эса шаклланаётган шахснинг ташкилотчилик ва назоратга бўлган имкониятини янада оширади, келгуси фаолиятида ўз-ўзини идора эта олиш қобилиятини шакллантиради.

Биз кўпинча, раҳбар ақлли, доно, билимдон бўлиши керак, деб ҳисоблаймиз. Албатта, бу хусусиятлар керак, лекин бугунги кунда уларнинг ўзи етарли эмас. Нега деганда, инсон ақлли, доно ва билимдон бўлиши мумкин, лекин у ҳаётда ёниб яшамаса, ҳаммаси бекор. Бу фикрга қўшимча қилиб шуни айтмоқчиманки, бугунги кунда раҳбар фақат ўзи ёниб қолмай, унга кўз тикиб, ундан кўп нарсани кутиб турган халқни ҳам ёндира олиши зарур.

Мен ёндириш деганда, авваламбор, одамларни бирлаштиришни, одамларни бошқаришни, уларни юксак мақсадлар сари сафарбар этишни назарда тутаман.

Яъни, раҳбар эзгу мақсад-муддаоларга, олижаноб режаларга эришиш учун одамларни ўз ортидан эргаштира билиши керак.

Раҳбар учун зарур бўлган яна бир муҳим фазилат шундан иборатки, у халқ билан тил топиша олиши лозим. Раҳбар энг мураккаб, энг қийин вазиятларда ҳам одамларни кўндириши, уларни баъзи бир ножўя йўллардан, хатти-ҳаракатлардан қайтариши ва ўз атрофида соғлом вазият, соғлом иқлим барпо этиши даркор. Бунинг учун раҳбар албатта катта маҳоратга, худо ато этган ўзига хос, ўзига мос фазилатларга эга бўлиши зарур⁸¹.

Ҳаёт тажрибаси. Инсон тажрибаси ва унинг бошқарув фаолиятида намоён бўлиши икки асосий масала орқали таҳлил қилинади. Биринчидан, юқори бўғин раҳбари учун бошқарув тажрибаси зарур, шунингдек улардан ҳаётий тажрибага эга

⁸¹ Каримов И.А. Ютуғлар калити одамлар гурурини уйғотиш, уларнинг салоҳиятини, барча имкониятларини ишга солишда // Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003. – 94-96-б.

бўлиш ҳам талаб қилинади. Иккинчидан, ўрта бўғин раҳбарига ўз соҳаси бўйича камида уч йиллик тажриба бўлиши лозим. Бу тоифа раҳбар тажрибасини таҳлил этар эканмиз, асосий эътибор касб соҳасига қаратилади.

Хар қандай ташкилотдаги асосий оғирликни ўзига олувчи ўрта бўғин раҳбарларида эса махсус қобилият кўпроқ ривожланган бўлиши лозим. Улар ишга диққат-эътиборли, масъулиятли, катта хажмдаги миқдорий ва сифат маълумотларини таҳлил этиш қобилиятига эга шахслардир.

Пешкадам раҳбарга хос фазилатлардан бири - вазминлик ва сабру бардошлиқдир. Раҳбар хиссиётини мувозанатлаш-ганлиги, унинг ички дунёсига хос қарама-қарши туйғуларнинг турёнига йул кўймасликда ва кайфиятдаги сокинликда ифодаланади.

Маълумки, раҳбар одамлар орасида ва уларга хос турли хиссиётлар оғушида яшайди. Бинобарин, атрофдагиларнинг салбий ёки ижобий хис-туйғулари ўзаро кундалик мулоқотда тез «юқиш» хусусиятига эга. Шунинг учун раҳбар қалтис ва зиддиятли вазиятларда нафақат бошкаларнинг хиссиети таъсирга берилмаслик балки атрофдагиларга ўз мувозанати ва жоловланган хис-туйғуси билан таъсир эта олиши керақ. Шахснинг бу фазилати бир томондан асаб тизимининг турма хусусияти билан белгиланса, иккинчи томондан орттирилган Хаётий тажрибага боғлиқдир. Асаб тизимининг муътадиллиги учун раҳбар ўз соғлиги хакида кайғуриши лозим. Меҳнат фаолиятини рационал тарзда ташкил этиш, яъни меҳнатдаги ижобий жихатларга кўпроқ эътибор бериш, нохуш вазиятларни донолик билан бартараф этиш, кўпроқ якин дўстлар даврасида бўлиш, жисмоний тарбия ва фойдали машгулотларга ишкибозлик кайфиятида вақтни ўтказиш, Хар қандай стрессга қарши тура олишни кучайтиради, шунингдек организмнинг ишчанлик қобилиятини қайта тиклашга хизмат қилади.

Бирон-бир кийин ва инкирозли вазият пайдо булганда, баъзи бирлар мазкур вазиятни хал этиш орқали муваффақиятга эришиш хакида уйласа, бошка биров эса талофотга учрамаслик гамида ўзини иложи борича «офат»дан олиб қочади.

Самарали бошқарув учун яна бир зарурий хислат — масъуллик ва вазифани хал этишга қаратилган ишонч. Иктисодий ва ижтимоий қалкиш пайтида ўз хамкорида ишонч уйғотиш, навбатдаги ишга кафолат бериш ва боз устига, уни удцалаш замонавий раҳбар учун мухим фазилатдир. Бу жараёнда раҳбарлик тадбиркорлик фаолияти билан уйғунлашиб кетади ва ишонч тушунчаси марказий уринга кутарилади.

Раҳбарнинг, нафақат, обрусини оширадиган, балки кийин вазиятда уни асосий мақсад йўлидан етаклайдиган фазилатлардан бири - мустакилликдир. Раҳбар ўз қарши, мушоҳада лаёқати ва шахсий нуқтаи назарига эгалликка интилиши лозим. Тўғри, раҳбар ўз ҳамкасбларига, шунингдек маслахатчиларига қулоқ тутиши керақ лекин Қарор ва унинг ижроси раҳбар зиммасига юклатилади. Шу боис фиколаш ва хатти-харакатдаги мустакиллик самарали бошқарувнинг асосий омилларидан

биридир. Аммо, мустикаллик кайсарлик кайфиятига айланмаслиги лозим. Бунинг учун рахбар хамиша ўз ташаббусини ташкилот ёки жамоа мақсадлари билан уйғунлаштириб бориши зарур.

Навбатдаги зарурий хислатлардан яна бири мулоқотга мойилликдир. Аникланишича, рахбар ўз кундалик фаолиятининг тўртдан уч қисмини турли-туман мулоқотга сарфлайди. Мулоқотнинг бошқарувдаги ахамиятини кўздан кечиран эканмиз, беихтиёр Ли Якокка эсдаликларига дуч келамиз: «Мен автомобиль соҳасида бир умр ишлаган одамни билман. У олий маълумотли бўлиб, ўзини бошқариш қобилиятига эга, шунингдек ажойиб стратег ва ўз компаниясининг йирик мутахассиси эди. Лекин, уни ҳеч қачон ҳеч ким юқори лавозимга тайинламаган, чунки у ўзга билан мулоқотда бўлишни билмас эди».

Рахбар ўз ходимини синчковлик билан қузатиши орқали, унинг шахсидаги қатламлар ўртасида уйғунлик ёки зиддиятни илгаш мумкин. Рахбарнинг бундай назарга эга бўлишини яна бир шарт - ходим руҳиятидаги қатламлар зиддиятига ташкилот микёсида шаклланган муҳит ҳам сабаб бўлади. Демак ташкилотда шаклланган нормалар носоглом бўлса, ходим носамимий ҳаракатларга йўл қўяди ва у ўз эътиқоди ва кадриятларига зид чиқиши мумкин.

Т.Итоатидаги ходимларга таъсир этолмаслиқ рахбар ўз қўли остидаги ходимларга таъсир этиши лозим. Лекин, айрим рахбар ўз ходимларига суянолмайди ва бунинг ўрнига улар ҳақида салбий фикрда юради. Бундай рахбар ўз интилишида мунтазам эмас, атрофдагилар билан яқин мулоқотга киришмайди ва ўз ички дунёсини яхши ифода этолмайди.

Рахбарлик тайинланувчи лавозимдир, лидерлик эса ҳамфикрлар томонидан кўтарилган шахс мавқеидир. Агар рахбар ва лидер ўртасидаги фарқга эътибор берадиган бўлсак кўпгина жиҳатларни санаб ўтишимиз мумкин. Масалан, рахбар ходимларга эга бўлса, лидернинг ҳамфикр тарафдошлари мавжуд, рахбар тайинланса, лидер жамоа аъзолари орасидан ажралиб чиқали, рахбар ўз ҳокимиятига асосланса, лидер эса обрўсига таянади. Рахбар ўз мажбурияти бўйича ташкилот манфаатини биринчи ўринга қўяди ва шу хусусият унга расмий тус бериб, жамоа олдида лидерга нисбатан уни бир мунча «заиф» ҳолатга қўяди.

ХУЛОСА

Ҳаётда кўпгина жамоалар учрайдики, уларда расмий рахбар ва лидер алоҳида шахслардан иборатдир. Бундай жамоа ҳаётидаги кўп вазиятларда гуруҳ аъзолари рахбардан кўра норасмий лидер томонида бўлишлари эҳтимоли кўзатилади. Жамоодаги расмий рахбар ва норасмий лидернинг ўзаро муносабати доимо қийин масалалар доирасига киради. Бундай вазиятда одатда кўпчилик рахбарлар лидерни сиқиб чиқаришга, ундан қутулишга интилишлари кўзатилса, бошқа бир рахбар бу лидердан фойдаланишга, уни гуруҳ мақсадига тезроқ эришиш йўлига сафарбар этиши мумкин. Рахбарнинг лидер билан ўзаро тил топиши, ҳамфикр бўла олиши албатта

бўлажак муваффақиятлар гаровидир. Бунинг учун раҳбардан топқирлик, сабр-тоқат ва ўз шахсий манфаатидан устун тура олиш қобилияти кутилади.

Расмий раҳбар ва гуруҳ лидери турли шахслардан иборат бўлса, улар ўртасидаги келишмовчилик кўпгина ходимлар томонидан ижтимоий адолатнинг бўзилиши сифатида идрок этилади. Лидер билан муносабатни ривожлантириш эса аксинча, гуруҳдаги кучларни тан олиш, оқиллик йўлини танлаш деб баҳоланади. Раҳбар сезгир шахс сифатида нафақат лидерга, балки бундай ҳислатга эга бўлган ҳар бир гуруҳ аъзосига алоҳида диққат ажрата олиши лозим. Алоҳида олинган лидер билан мавжуд муносабатни ривожлантириш орқали гуруҳнинг бошқа аъзолари билан ўзаро ижобий ҳисларни шакллантириш имконияти туғилади. Шу маънода таҳлил этилганда, гуруҳда норасмий лидернинг мавжудлиги расмий раҳбар учун гуруҳ аъзолари билан илиқ муносабатни кўришдаги қўшимча кўприқдир. Лекин ҳаётда ҳамма нарса ҳам ўйлангандай силлиқ кетавермайди ва расмий раҳбар билан норасмий лидер манфаатининг зидлиги, раҳбарнинг илтифотли қадамига қарамай норасмий лидернинг қайсарлиги тўқнаш келиши мумкин. Бу эса жамоадаги низо билан ифодаланади ва бундай ҳолларни ҳал этиш йўл-йўриқдари ҳақида жамоадаги низолар мавзусида батафсил гапириб ўтилади.

Албатга, жамоа раҳбари ва лидер бир шахсда ифодаланиши айни муддао хисобланади ҳамда расмий раҳбар иложи борича ташкилот максадларини ходимлар манфаати билан уйғунлаштирган ҳолда бошқарув жараёнини ташкил этиши лозим. Айнан шу омил, айникса, касб соҳасидаги юкори малака раҳбарни лидерлик даражасига кўтарилиши учун асос бўлиб хизмат килади.

Психологиядаги барча муаммоларнинг марказида шахс ва унинг фаолияти туради. Раҳбар ходимлардаги психика уч хил руҳий ҳодиса сифатида намоён булади:

1. Раҳбарнинг руҳий хусусиятлари бу - унинг темпераменти, характери, қобилияти ва психик жараёнларининг барқарор хусусиятлари, шунингдек майли, эътиқоди, билим, кўникмалари, малакаси ҳамда одатларидан иборат.

2. Психик ҳолатлар унча ўзоқ давом этмасида, лекин анча мураккаб жараёндир. Бунга тетиклик ёки маъюслик, ишчанлик ёки ҳорғинлик, серзардалик, паришонхотирлик, яхши-ёмон кайфият ва ҳоказолар киради.

3. Психик жараёнларга руҳий фаолиятнинг мураккаб турига кирувчи оддий психик жараёнлар киради. Улар жуда қисқа вақт давом этади. Психик хусусиятлар, ҳолатлар, жараёнлар ўзаро мустаҳкам боғланган бўлиб, бири иккинчисига таъсир этиши, унинг ўрнини тўлдириши мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Рахбарлик психологияси, ходимларни бошқаришнинг моҳияти ва асосий босқичлари. Монография

2. Каримов И.А. Ютуғлар калити одамлар ғурурини уйғотиш, уларнинг салоҳиятини, барча имкониятларини ишга солишда // Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003. – 94-96-б.

3. Каримов И.А. Одамлар ташвиши билан яшаш - олий бурч // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т.: “Ўзбекистон”, 2002. - 77-78-б

4. Каримов И.А. Иқтисодий эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш - энг муҳим вазифамиз // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000. - 357-360,403-б.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING FUQAROLAR HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI HAMDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA`MINLASHDAGI ASOSIY VAZIFALARI

Raximov Sarvar Abduxamid o`g`li

IIV Akademiyasi saf qismi otryad kamandiri, katta leytenant

Toshpo'latov To'lqin Erkin o'g'li

IIV Akademiyasi saf qismi otryad kamandirining TIB o'rinbosari, leytenant

Jumaniyozov Nodirbek G'iyos o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti, safdor

Obloqulov Javohir Tolib o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti, safdor

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali siz Ichki ishlar organlarining vujudga kelish tarixi, xodimlarning fuqarolar xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi asosiy vazifalari, davlat va jamiyat rivojlanishdagi ahamiyati hamda xodimlarning odob axloq qoidalari va kasb etikasiga amal qilishi haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ichki ishlar organi, vatanparvarlik, professional kadr, qasamyodga sodiqlik, majburiyat, burch, fuqarolar xavfsizligi.*

ОСНОВНЫЕ ОБЯЗАННОСТИ ДОЛЖНОСТНЫХ ЛИЦ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ГРАЖДАНСКИХ ПРАВ И СВОБОД И ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: *Благодаря данной статье вы будете проинформированы об истории создания органов внутренних дел, основных задачах сотрудников по обеспечению безопасности граждан и общественной безопасности, значении государства и общества в развитии, приверженности сотрудников к правилам этикета и профессиональной этики.*

Ключевые слова: *Орган внутренних дел, патриотизм, профессиональные кадры, верность присяге, обязанность, долг, безопасность граждан*

PRINCIPAL DUTIES OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS IN ENSURING CIVIL RIGHTS AND FREEDOMS AND PUBLIC SAFETY

Annotation: *Through this article, you will be informed about the history of the establishment of internal affairs bodies, the main tasks of the employees to ensure the safety of citizens and public safety, the importance of the state and society in development, and the employees' adherence to the rules of etiquette and professional ethics.*

Key words: *Internal affairs body, patriotism, professional staff, loyalty to the oath, obligation, duty, citizens' safety.*

Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon

etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

Tarixiy manbalar qadimda vatanimiz hududida vujudga kelgan davlatlarda harbiy jangchilardan tashqari “soqchi”, “qorovul”, “chokar”, “shixna”, “yasovul”, “ko’kaldosh”, “muhtasib”, “posbonboshi”, “sarboz”, “mirshabboshi” va “mirshab”lar hukmdor qarorgohi, qal’alar va boshqa inshootlarni qo’riqlash, qishloq va shaharlardagi osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish, aybdorlarni aniqlash, topish va jazolash kabi vazifalarini bajarganligi, shu kabi tuzilmalar negizida bugungi ichki ishlar organlari shakllanganligi, bu esa o’z navbatida, ichki ishlar organlari o’zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog’langan tarixiy ildizlariga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tarixga nazar tashlasak, turli davrlardagi siyosiy sharoit taqozosiga ko’ra, bu tuzilmalarning nomi, vazifalari va ish uslublari o’zgarib borganligini ko’rishimiz mumkin. Masalan, XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan Turkistonda joriy etilgan politsiya-mirshablik tizimi asosan mustamlakachi imperiya manfaatlariga xizmat qilib, aholining tinchligini ta’minlash, jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan birga, mahalliy aholining harakatini nazorat qilish, xalq ozodlik harakatlari vujudga kelishining oldini olish va unga qarshi kurashishda harbiy bo’linmalarga ko’maklashish vazifalarini bajarish faoliyati bilan shug’ullangan.

Xuddi shunday sobiq Sovet Ittifoqi davrida ham ichki ishlar organlari (dastlab “ishchi-dehqon militsiyasi” deb yuritilgan)ning faoliyati jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bir qatorda, hududda sovet tuzumini o’rnatish va uning g’oyalarini yanada mustahkamlashga qartilgan. Markazdan kelgan bu boradagi topshiriqlarni o’z vaqtida va bekamu-ko’st bajarishga intilgan⁸².

Aynan istiqloq sharofati bilan ichki ishlar organlari xalqimizning himoyachisi va ko’makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Ayniqsa, so’nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ushbu tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o’z vaqtida va sifatli yordam ko’rsatadigan, har bir xodimi tomonidan «Xalq manfaatlariga xizmat qilish»ni o’z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo’naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga imkon bermoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlardan ko’zda tutilgan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

xodimlarni vatanparvarlik, qasamyodiga sadoqat ruhida, shuningdek, Konstitutsiya va normativ-huquqiy hujjatlar hamda kasbiy madaniyat talablariga so’zsiz rioya qilish ruhida tarbiyalash va muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish;

⁸² O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Axborotnomasi. Toshkent -2018-yil

xizmat intizomi, qonuniylik va inson huquqlariga qat'iy amal qilgan holda xizmat vazifalari samarali ijro etilishini ta'minlash;

yosh xodimlarda kasbiy ko'nikma va malakani shakllantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda individual yondashuvni ta'minlash;

yurtimizda yashovchi millat va elatlarning urf-odatlarini, an'analari, tili, dini, madaniyati, tarixiga hurmatni shakllantirish;

xodimlarning fuqarolar bilan, shuningdek, o'zaro kasbiy muloqoti hamda madaniyati darajasini oshirish va professional muloqotga kirishish sifatlarini shakllantirish;

jamoalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit barqarorligini ta'minlash hamda xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish yuzasidan psixologik kuzatuvni yo'lga qo'yish;

xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish va o'z ustida muntazam ishlashni tashkillashtirish, bu borada jamoat tashkilotlari va keng jamoatchilik imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

aholi o'rtasida ichki ishlar organlari xodimlari to'g'risida ijobiy fikrni shakllantirish orqali ularga nisbatan hurmat hissini oshirish⁸³.

Shuning bilan birga har qanday murakkab davrlar, qaltis vaziyatlarda ham ichki ishlar organlarida o'z jonini ayamadan, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan fidoyi xodimlar ko'pchilikni tashkil etgan. Ularning bu boradagi mashaqqatli mehnatlari, ko'rsatgan jasorat va qahramonliklari ichki ishlar organlari tarixining ajralmas qismi sifatida bugungi va kelgusi avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi va o'tish davrida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1991-yil 25-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori asosida O'zbekiston SSR IIV O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi.

Mazkur davrlarga hamohang ravishda, 1989-1990-yillar mobaynida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq juda og'ir bir davr hukm surardi.

Har bir sohada bo'lgani kabi, ichki ishlar organlari tizimida ham keng qamrovli ishlar, ulkan vazifalar, yechimini kutayotgan muammolar mavjud edi. Bunday vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga uringan ayrim kimsalarning noqonuniy qilmishlari natijasida giyohvandlik, diniy ekstremizm, bosqinchilik kabi og'ir jinoyat turlarining soni

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirining 2021-yil 21-oktabrdagi 400-sonli buyrug'i.

ko'payib

ketdi.

Bundan esa, ayrim chet davlatlarda faoliyat yuritayotgan ekstremistik tashkilotlarning jirkanch maqsadli rahnamolari tomonidan foydalanishga urinib, respublikamiz hududida mavjud kriminogen vaziyatni izdan chiqarishga, aholini vahimaga solishga, huquqni muxofaza qiluvchi organlar xodimlariga nisbatan ishonchsizlik uyg'otishga hamda ularni qo'rqitish va bo'ysundirishga bo'lgan amaliy harakatlar qilinardi.

Lekin shuni alohida qayd etish o'rinliki, mazkur og'ir sinovli davrlarning barchasida ham, ichki ishlar organlarining mard va jasur, yuragida o'ti bor, shijoatli xodimlari tomonidan Vatan himoyasi yo'lida o'z jonlarini ayamay, jinoyatchilikka qarshi mardonavor kurash olib borildi. Og'ir damlarda doimiy ravishda o'z xizmat burchiga sodiqlikni, jonbozlikni, qat'iyatlilikni, matonatlikni, fidoyilik xislatlarini namoyon etdilar. Bu haqdagi aniq faktlarni esa respublikamiz hududida 1989-2010-yillar davomida sodir etilgan terrorchilik, qo'poruvchilik hamda turli ommaviy tartibuzarliklarda ko'rishimiz mumkin. Mazkur xunrezliklarga qarshi ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan yuksak darajadagi mardlik va fidoyilik bilan kurash olib borilganligi natijasida ularning aksariyati mardlarcha halok bo'lganligiga guvohimiz.

Sir emaski, islohotlar samaradorligi, birinchi navbatda, kadrlar masalasi bilan bog'liq edi. Shu bois ham, ichki ishlar organlarida malakali kadrlar tayyorlash, yangicha mafkura asosida tarbiya topgan, ma'naviy etuk kadrlarni tayyorlash maqsadida IIV ta'lim muassasalari faoliyati tubdan isloh qilindi. Bu borada 1993 yilda Yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabi, 1994 yilda esa IIV Akademiyasi tashkil etilgan.

Qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi etarli malakaga ega bo'lgan kadrlar bilan jamlandi, xodimlarning kasbiy va jangovar mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada mamlakatda jinoyatchilik sezilarli darajada kamayib, sodir etilgan jinoyatlarning qisqa fursatlarda ochilishiga erishildi. Bundan tashqari, 1994 yilda O'zbekistonning Interpolga a'zo bo'lishi respublika huquq-tartibot organlariga xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlik qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkor davlatlarning kuch va vositalaridan foydalanish imkonini berdi.

XXI asr bo'sag'asida dunyoda yuz bergan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi mamlakatimizda ham xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, turli tahdidlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni kun tartibiga qo'ydi. 1999 yil 16 fevral voqealari ichki ishlar organlari tizimida jiddiy kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Shu bois Toshkent shahrida jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi kontsepsiya joriy qilinib, unga binoan, shahardagi avvaldan mavjud militsiya uchastka nozirlari o'rniga profilaktika inspektori shtat birliklari ta'sis etildi. "Mahalla posbonlari" va "Yarashtirish komissiyalari" jamoat tuzilmalari tashkil etildi. Bu tuzilmalar joylarda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini kuchaytirishga imkon berdi.

MUAMMO, KAMCHILIKLAR VA YECHIMLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 martdagi farmoni va uning ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlar asosida ichki ishlar organlarining asosiy sohaviy xizmatlarida yangi islohotlar o'tkazilib, ularning faoliyati yanada takomillashtirildi.

Ushbu islohotlar va strukturaviy o'zgarishlar, avvalo, mamlakatdagi tinchlik-osoyshtalikni saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish, yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarning bardavomligi va uzviyligini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga oshirishga harakat qilindi.

Keyingi davrlar mobaynida respublikada fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Ichki ishlar organlarida xizmatni tashkil etishni takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning bo'linmalarining quyidagi keltirilgan vazifalar eng muhim vazifalari hisoblanadi:

birinchidan — huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasida tezkorlikni, jinoyatlar haqidagi xabarlarni o'z vaqtida hisobga olish va ko'rib chiqishni ta'minlaydigan, amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida ichki ishlar organlarining mavjud kuch va vositalarini boshqarish hamda hamkorlikni tashkil etishning samarali tizimini yaratish;

ikkinchidan — ichki ishlar organlarining barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy, ishbilarmonlik va kasbiy fazilatlariga ega kadrlar tanlanishi, ularning maqsadli joylashtirilishi hamda "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" o'z xizmat burchini so'zsiz bajarish ruhida tizimli ravishda tarbiyalash uchun shaxsiy javobgarligini belgilash;

uchinchidan — bo'sh lavozimlarni jamlash va kadrlar zaxirasini, birinchi navbatda, o'z kasbiy fazilatlarini, axloqiy ko'rinishi, xulq-atvori va madaniyat darajasi bilan namuna bo'lgan istiqbolli boshqaruv tarkibini shakllantirishning ta'sirchan mexanizmini joriy etish;

to'rtinchidan — xizmat o'tashni qat'i nazorat qilish va tarbiyaviy jarayonni ta'minlash sohasida muvofiqlashtirish, tahliliy va uslubiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha faoliyatni tashkil qilishning sifat jihatdan yangi tartibni belgilash;

beshinchidan — ish tajribasining vorisiyligini, yosh xodimlarning xizmatga amaliy moslashishini, kasbiy shakllanish jarayonini tezlashtirish hamda ularda xizmat vazifasi bo'yicha zimmasiga yuklatilgan tezkor-xizmat vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlovchi samarali murabbiylik tizimini joriy etish;

oltinchidan — ichki ishlar organlarining barqaror professional kadrlar tarkibini shakllantirish, kadrlar qo'nimsizligini pasaytirish, xodimlarning uzoq muddatli xizmatini rag'batlantirish, shuningdek shaxsiy tarkibni uning kasbiy malakasi, shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarini inobatga olgan holda lavozimlarga optimal taqsimlash;

yettinchidan — qo'yilgan vazifalarni vijdonan va tashabbuskorlik bilan bajaruvchi xodimlarni rag'batlantirish, shuningdek mas'uliyatsiz xodimlarga nisbatan xizmatdan

bo'shatishgacha bo'lgan intizomiy jazo tayinlash bo'yicha choralarni o'z vaqtida va xolisona ko'rish orqali ichki ishlar organlarida mustahkam xizmat intizomini ta'minlash;

sakkizinchidan — ichki ishlar organlarida ijro intizomini, jumladan boshqaruv qarorlari har bir bevosita ijrochiga o'z vaqtida yetkazilishiga va tizimli uzluksiz nazoratni ta'minlanishiga imkon beradigan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'minlash mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish⁸⁴.

O'z vaqtida va uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan mazkur o'zgarishlar mustaqil davlatimizning oyoqqa turishi va dunyo mamlakatlari orasidan o'zining munosib o'rnini egallashida, atrofdagi ayrim mamlakatlarda keskinlik vaziyati saqlanib turgan bir paytda, mamlakatimizda doimiy barqarorlikning ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Mazkur davr ichida fuqarolar bilan muloqot jarayoni, aholining muammolarini hal etish borasida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktikasi bo'yicha ayrim kamchiliklar kuzatildi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqot va tahliliy ishlarning natijasi ichki ishlar organlari faoliyatida bir qator jiddiy kamchilik va muammolar to'planib qolganligini ko'rsatdi.

Jumladan:

- respublika, o'rta va quyi bo'g'indagi bo'linmalar o'rtasida asosiy vazifa va funktsiyalarning, shuningdek, amaldagi tashkiliy-shtat tuzilmalari kuch va vositalarining aniq taqsimlanmaganligi;

- II Olari mansabdor shaxslari, shu jumladan, profilaktika inspektorlarining aholi bilan muloqoti yo'lga qo'yilmaganligi, ularning aholi oldida hisobot berib borish amaliyoti yo'qligi, shuningdek, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratining samarali mexanizmlari joriy etilmaganligi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikning etarli emasligi; - jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga nisbatan yuzaki yondashuvlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarganligi; - huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli choralar ko'rilmaganligi; - o'sib kelayotgan yosh avlodni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish amaliyotiga etarlicha e'tibor qaratilmaganligi;- II Olari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi zamon talablariga javob bermay qo'yganligi va boshqalar⁸⁵.

⁸⁴ Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3413

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

Albatta, ushbu ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, tizim faoliyatida amalga oshirilayotgan ishlar samarasiga salbiy ta'sirini kamaytirish, bu borada idoralararo hamkorlikni kuchaytirish ishlari amalga oshirib borildi. Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni hozirgi kun talablariga moslashtirishni zamonning o'zi taqozo etar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. IIV Akademiyasi Axborotnomasi. Toshkent-2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirining 2021-yil 21-oktabrdagi 400-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
4. Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3413

**ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ МАХСУС ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ
ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ МАЗМУН–МОХИЯТИ**

Рахимов Сарвар Абдухамид ўғли

ИИВ Академияси саф қисми отряд камандири, катта лейтенант

Тошпўлатов Тўлқин Эркин ўғли

ИИВ Академияси саф қисми отряд камандирининг ТИБ ўринбосари, лейтенант

Жуманиёзов Нодирбек Ғиёс ўғли

ИИВ Академияси 3-ўқув курси курсанти, сафдор

Облоқулов Жавоҳир Толиб ўғли

ИИВ Академияси 3-ўқув курси курсанти, сафдор

Аннотация: Ушбу мақола орқали сиз, фирибгарликнинг махсус профилактикасини тушунчаси, турлари, бугунги кундаги ҳолати ва фаолиятни такомиллаштиришнинг ўзига ҳос хусусиятлари, қолаверса фаолиятга доир муаммо ва камчиликларни бартараф этиш бўйича бир қатор таклифлар келтирилган. Фирибгарликнинг махсус профилактикасига доир фаолиятни такомиллаштириш бўйича бошқа хорижий давлатларнинг илғор тажрибалари, ҳамда миллий қонунчилигимиздан фарқли ва ўхшаш томонлари шунингдек, юқорида келтириб ўтилган жихатлардан фойдаланган ҳолда ушбу фаолиятни такомиллаштириш ёналишлари ҳақида билиб олишингиз мумкин.

Калит сўзлар: Фирибгарлик, профилактика, ҳалол, ҳаром, ҳуқуқбузарлик, ҳафсиз хонадон, махсус тадбирлар, қонун, нормалар.

**СОДЕРЖАНИЕ - СУТЬ ОРГАНИЗАЦИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ
ПРОФИЛАКТИКИ МОШЕННИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ**

Аннотация: Благодаря этой статье вы познакомитесь с понятием, видами, современным состоянием специальной профилактики мошенничества, особенностями совершенствования деятельности, а также рядом предложений по устранению проблем и недостатков, связанных с деятельностью. Вы можете узнать о передовом опыте других зарубежных стран по совершенствованию специальной профилактики мошенничества, а также о различиях и сходствах с нашим национальным законодательством, а также о путях совершенствования этой деятельности с использованием вышеперечисленных аспектов.

Ключевые слова: Мошенничество, профилактика, ҳаляль, ҳарам, преступление, убежище, специальные мероприятия, закон, нормы.

**CONTENT - ESSENCE OF ORGANIZING AND IMPROVING THE SPECIAL PREVENTION
OF FRAUD CRIMES**

Annotation: *Through this article, you will be introduced to the concept, types, current state of special prevention of fraud, specific features of improving the activity, as well as a number of suggestions for eliminating problems and shortcomings related to the activity. You can learn about the best practices of other foreign countries in improving the special prevention of fraud, as well as the differences and similarities with our national legislation, as well as ways to improve this activity using the above-mentioned aspects.*

Key words: *Fraud, prevention, halal, haraam, crime, safe house, special events, law, norms.*

Кейинги вақтларда жамиятимизда ўзгаларнинг молини ноҳақ йўллар билан ўзлаштириш, хусусан фирибгарлик жинояти тез-тез содир бўлиб турмоқда. Аждодлари дину диёнат, ахлоқу одоб, ор-номус, ҳалолу покликка одатланган ўзбек халқининг авлодларидан мазкур жиноятга қўл ураётганларнинг учраши ачинарли ҳолдир. Ҳолбуки, динимизда бировнинг молини алдов, фирибгарлик, чув тушириш йўли билан ўзлаштиришдан қаттиқ қайтарилган. Қуръони каримда бу ҳақда шундай баён этилган.

Аллоҳ таоло айтади: “Мол ва бойликларингизни ўрталарингизда ботил йўллар билан емангиз. Шунингдек, била туриб, одамларнинг ҳақларидан бир қисмини гуноҳ йўл билан ейиш мақсадида уни ҳокимларга ҳавола этмангиз.” (Бақара сураси, 188-оят).

Фирибгарлик жинояти молни ботил йўл билан ейишнинг бир кўриниши бўлиб, бундай йўл билан топилган мол дўзах оташининг бир бўлаги ҳисобланади. Бу ҳақда Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васаллам қуйидагича марҳамат қиладилар: Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васалламнинг аёллари Умму Салама розияллоҳу анҳо ривоят қилиб айтадилар, Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам ҳужраларининг олдида жанжал овозини эшитиб, ташқарига чиқдилар ва дедилар: “Мен ҳам бир инсонман. Менинг ҳузуримда ҳақ талашиб, даъво билан келиб турасизлар. Балки бирингиз бошқангиздан сўзга чечанроқ бўлиб чиқарсиз ва мен уни рост гапиряпти, деб шунга қараб ҳукм чиқараман. Лекин билиб қўйингки, мен кимга бирор мусулмоннинг ҳаққини олиб берган бўлсам, ўша нарса дўзахнинг бир чўғидир. Хоҳлаган уни олсин, хоҳламаган олмасин”.⁸⁶

Сир эмаски, кейинги вақтларда баъзи кишилар одамлардан қарзга ёки шерикчиликка, деб пул олиб, охир-оқибат уни қайтармай ўртада низо чиқиши, яқин кишилар бир-бири билан юз кўрмас бўлиб кетиш ҳолатлари кузатилмоқда. Албатта, зарурат учун қарз олиш ёки шерикчилик билан шуғулланиш жоиз. Бироқ, олган қарзини пайсалга солмай қайтариш, шерикчиликда эса хиёнат қилмаслик лозим. Акс ҳолда бошланган ишлар ортга кетиб, касодга учраши тайин. Пайғамбаримиз

⁸⁶ <https://nagshband.uz/makolalar/firibgar01>

соллаллоҳу алайҳи васаллам шундай марҳамат қилганлар: “Ким одамларнинг молини қайтариб бериш мақсадида олса, Аллоҳ таоло унга ёрдамчи бўлади. Ким одамларнинг молига талофат етказиш учун олса, Аллоҳ таоло унинг ўзига талофат етказди”.

Айниқса, савдо-сотиқ вақтида ҳаридорга фириб бериш, масалан, айбли молни айбини яшириб сотиш ёки сохта молни асл мол, деб сотиш энг оғир гуноҳдир. Қуйидаги ҳадислар бунга очиқ далил бўлади.

Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам дон сотаётган одамнинг ёнидан ўтиб қолибдилар. Унинг дони орасига қўл тиқиб кўрсалар, намланиб қолган экан. “Бу нима?”, деб сўрадилар. Сотувчи: “Ей Расулulloҳ, унга ёмғир тегибди”, деди. Шунда Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам: “Уни устига қуймайсанми, одамлар кўрар эди”, дедилар ва “Кимки алдаса, мендан эмас”, дедилар.⁸⁷

Демак, алдов, фирибгарлик, бирор нарсани сохталаштириш мусулмоннинг иши эмас. Яна бир ҳадисда Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васаллам шундай деганлар: “Туя ва молларингизни серсут қилиб кўрсатиш мақсадида атайлаб соғмай қўйманглар. Кимки билмай шундай ҳайвонни сотиб олган бўлса, унинг ихтиёрида икки йўл бордир, бири – уни ўзида олиб қолмоқлик, иккинчиси уни эгасига қайтариб бермоқликдир. Агар қайтариб берадиган бўлса бир-икки кун соққани учун бир сў хурмо қўшиб берсин”.

Мамлакатимизда сўнги йилларда жинойтчиликнинг кесин камайишига эришилаётган бўлсада, фирибгарлик жинойтининг салмоғи ханузгача юкорилигича колмоқда. Шу боис барча давлат органлари ва жамоатчилик ташакилотларининг асосий вазибалари каторида жинойтчилик, хусусан, фирибгарлик жинойтларининг содир этилиш сабаблари ҳамда уларга имкон берган шарт-шароитларни аниқлаган холда уларни барвакт олдини олиш борасида ҳамкорликдаги ишларни амалга оширишни янги боёкичга кўтариш зарурлигини таказо этмоқда .

Фирибгарликка қарши кураш самарасини оширишнинг асосий йўналишларидан бири бу ички ишлар органлари томонидан ушбу турдаги жиноятларни олдини олиш фаолиятини ташкил этиш самарасини ошириш ва такомиллаштириш ҳисобланади.

Ушбу жинойтларни статистик малумотлари тахлили кўра республикаимизда фирибгарлик жинойтларининг содир этилиши 2019 йилнинг 4 ойи мобайнида жами содир этилган жинойтлардан 12%, жинойт кидирув йўналишидаги жинойтларнинг 20% и фирибгарлик жинойти эканлиги фикримизга далил бўла олади.

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ҳозирги кунда фирибгарликка оид ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда махсус чора тадбирларни ташкил этиш самарасини ошириш, такомиллаштиришда бир қатор

⁸⁷ <https://naqshband.uz/makolalar/firibgar01>

муаммоларни номоён этувчи омиллар сифатида кўйидагиларда намоён бўлиб келмоқда:

1. Ушбу турдаги ҳуқуқбузарликлар махсус профилактикасига доир фаолияти амалга оширишнинг ҳуқуқий ва илмий назарий жихатдан ўрганиб чиқиш ва таҳлил қилишдаги камчиликлар учраб турганлиги;

2. Ушбу турдаги ҳуқуқбузарликлар махсус профилактикасига доир чора тадбирларни амалга оширишнинг асосий ҳуқуқий ва ташкилий асосларини чуқур таҳлил этишнинг етарли даражада олиб борилмаётганлиги.

Бизнинг фикримизча фирибгарликка оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг самарадорлигини янада ошириш учун авваламбор

- Фирибгарликка оид ҳуқуқбузарликларни кенг ва чуқур таҳлил қилиш;

- Фирибгарликка оид ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш мақсадида янги ва самарали махсус чора тадбирларни ишлаб чиқиш ва замон талаблари доирасида такомиллаштириш;

- Ички ишлар органларининг ушбу турдаги ҳуқуқбузарликлар профилактикасида жамоат ташкилотлари корхона муассасалар давлат ва нодавлат органлари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи бошқа органлари орсида ҳамкорликни кенгайтириш ва юқори даражада амалга оширилишии тамтлаш, каби вазифаларни хал этиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Ҳозирги кунда фирибгарликнинг умумий динамикаси, унинг кўринишлари кўпайиб бораётганлиги ҳам мавзунинг долзарблигидан далолат беради. Ундан ташқари, ҳаёт кечириш зарур маблағларни одамларни алдаш йўли билан топаётган шахс фақат жиноятчи сифатида хавfli бўлмай унинг қилмиши туфайли давлатга, одамларга моддий зарар етказилши билан бир қаторда, фирибгарлик оқибатлари аҳолига, айниқса ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатади. Шундай экан, жиноятчиликка қарши қарши курашувчи органларга маъсулият юклатилади. Зеро, мухтарам биринчи президентимиз И.А.Каримов тақдиринингдек, **«Бундай шароитда суд ва ҳуқуқ-тартибот органларга катта маъсулият юклатилади»**.

Конунга кўра алдаш ёки ишончни суиистемол қилиш юлти билан ўзганинг мулкани ёки мулкка бўлган ҳуқуқини қўлга қиритиш **фирибгарлик** дейилади.⁸⁸

Ўзбек тили изоҳли луғатида, «Фириб-кишини қасддан адаштириш, қўлга тушириш, алдаш, ҳийла-найрангдир», деб тариф берилган.

Бу турдаги жиноятларнинг олдини олиш бўйича бир қатор профилактик чора – тадбирлар ишлаб чиқарилган ва амалга оширилиб келинмоқда.

Фирибгарлик жиноятининг махсус профилактикаси, мамурий ҳудудда фирибгарликнинг сабабларини ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни

⁸⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий суд пленумининг «Фирибгарлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисидаги» 2017-йил 1-октябрь 35-сон қарори -Т.,2017,-6-6

бартараф этиш, фирибгарлик содир этишга мойил бўлган ва содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларга профилактик тасир кўрсатиш мақсадида ҳуқуқбузарликларнинг маҳсус профилактикаси чора-тадбирларни амалга оширади.⁸⁹

Фирибгарлик жиноятларини содир этишнинг асл мақсадига қўшимча равишда, жиноятчиларда ўзбошимчалик, таваккалчилик, «еҳтиросни қондириш» каби ғаразли мақсадлар ҳам мавжуд. Бунда жиноятчилар руҳий озик ва завқ оладилар. Шунинг учун бу мақсад жиноят содир этилишида доимо уларга далда беради.

• Бошка тоифадаги шахслар деганда мисол килиб фирибгарликка оид ҳуқуқбузарликларни ҳали содир этмаган аммо ўзини тутиши ҳатти - ҳаракатлари билан бу гурдаги ҳуқуқбузарликларни содир эгиш эҳтимоли юкори даражада бўлган шахслар гуруҳини аниқлаш ва профилактик чора тадбирлар кўриш механизми назарда тутилади.

Хар бир ҳудудда ижтимоий-демографик жараёнлар мазкур ҳудуддаги криминоген вазият билан узвий боғлиқдир. Ҳудуддаги жиноий элементлар, яни салбий тоифалар билан билан ҳисобда ткрган ёки жиноий ҳаракатлар ларга мойил шахслар профилактикасининг тўғри ташкилининг олдини олишга хизмат қилади.

Малумки иқтисодиёт соҳасидаги жиноятлар нафақат жисмоний ва юридик шахсларга манавий ва моддий етказида, балки давлат ва жвмият манфаатларига тасир кўрсатади. Дунёнинг барча давлатларида жиноятчилик умумий тизимида ғаразли жиноятнинг улуши энг катта бўлиб, БМТ ҳисоби бўйича жиноятчилик тизимида энг катта улушни ўғирлик (таҳминан 70%, ривожланган мамлакатларида эса 80%) ташкил қилса, иккинчи ўринда гиёҳвандоик билан боғлиқ жиноятлар (6% гача), учинчи ўринда босқинчилик(6% гача), тўртинчи ўринда фирибгарлик жинояти (4% гача) туради.⁹⁰

Мол-мулкка қарши жиноятлар ўртасида энг кўп тарқалгани бу фирибгарликдир. Бу турдаги ўзганинг мулкига қаратилган жиноятларга қарши кураш шу кунгача долзарб бўлиб қолмоқда.

Хозирги кунда мамлакатимизда жиноятчиликнинг, айниқса, фирибгарлик жиноятини олдини олиш ва унга қарши курашаш бўйича бир қатор самарали ишлар олиб борилишига қарамасдан, ушбу турдаги жиноятлар салмоғи йилдан йилга ошиб бормоқда.

Бугунги кунда фирибгарлик жиноятларининг кўппайиши, ўз навбатида, жамиятда алданиб, мол-мулқидан айрилган фуқоралар ортишига сабаб бўлмоқда .

Афсуски, жиноятчиликка қарши курашишда ҳалигача эскича ишлаш тизимидан воз кеча олмаяпмиз. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар бу фаолиятга

⁸⁹ Фирибгарлик жиноятларини олдини олиш бўйича ҳудуд методикаси. ИИВ Академия

⁹⁰ Фирибгарлик жиноятларини олдини олиш бўйича ҳудуд методикаси. ИИВ Академия

кўрсаткичларни олдинги давр билан таққослаш орқали баҳо бериб келмоқда. Аслида битта бўлса ҳам жиноят бўлгани ҳаммамизни ташвишга солиши керак.⁹¹

Жиноятчиликка қарши кураш амалиётининг кўрсатишича, кўп ҳолларда фирибгарлик жиноятларини содир этишда шахс ўз олдига, асосан, моддий ва мулкый бойликларга эга бўлишни мақсад қилиб қўяди.

Тахлилларга кўра, Фирибгарлик жиноятларининг аксарият қисми савдо, хизмат кўрсатиш ҳамда кўчмас мулк ва ер олди- сотдиси соҳасида содир этилганлиги кузатилади.

Такидлаш жоизки, таҳлиллар жараёнида фирибгарлик жиноятлари корхон ва фирмалар, маиший хизмат кўрсатиш(сартароўхона, тикувчилик цехи ва х.к), автосалонлар, банк ва кредит муассалари, давлат хизматлари (газ электр, сувоқава, солиқ ва х.к) бинолари, соғлиқни сақлаш муассасалари, ҳокимият, талим муассасалари, хаттоки, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар биноларида ҳам содир этилганлиги аниқланди.

Ҳозирги ушбу турдаги жиноятларнинг олдини олишва унинг бугунги кундаги ҳолатини аниқлаш бўйича қатор кўплаган илмий амалий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

2017 йил 9 февралда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ички ишлар органлари фаолияти, тизимда мавжуд муаммо ва камчиликлар, истиқболдаги вазифаларга бағишланган ўтказилган видеоселектор йиғилишида: “мол-мулкка жиноий тажовуз каби салбий ҳолатларга тўлиқ чек қўйилмаган... Хусусан, ўғирлик ва фирибгарлик билан боғлиқ жиноятларининг ҳар бештадан биттаси фош этилмаган”⁹² деган танқидий фикрларни бежизга билдирмаган эди.

Шу ўринда, масаланинг ачинарли жиҳатини қуйидаги ўрганишларда кўришимиз мумкин, республикада 2018 йил (2017 иил) давомида содир этилган фирибгарлик жиноятларининг 478 (803) таси ёки 7,4 (83) фоизи фош этилмаган.

Статистик малумотларга кўра, 2019 йилнинг 4 ойи мобайнида Ўзбекистон Республикаси бўйича жами содир этилган жиноятларнинг 12 фоизи жиноят қидирув йўналишларидаги жиноятларнинг 20 фоизи фирибгарлик жиноятларини эканлиги қайд этилган.

Айни пайтда аёллар жиноятчилиги фирибгарлик орқали талон-тарож қилишда юқори (39-41%) эканлигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, ҳозирги кунда аёлларнинг фирибгарлик жиноятларин содир этиши ортмоқда (15-20%), жумладан, 2019 йилда содир этилган фирибгарлик жиноятларининг 30 фоизига яқини аёллар томонидан содир этилган.

⁹¹ Шавкат Мирзиёев: Битта бўлса ҳам жиноят бўлгани ҳаммамизни ташвишга солиши керак. <http://www.president.uz>

⁹² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йилнинг 9 февраль куни ички ишлар органлари фаолияти, тизимда мавжуд муаммо ва камчиликлар, истиқболдаги вазифаларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи: www/uza.uz.

Жиноят статистикаси малумотларга кўра, фирибгарлик жиноятларини содир этганларнинг хар ўнтадан биттаси 18-24 ёшда, хар бештадан биттаси 25-29 ёшда, хар учтадан биттаси 29-45 ёшда эканлиги аниқланган.

Фирибгарлик жиноятларининг содир этилишида муқаддам судланганлар 15-16% ни ташкил этади. Муқаддам судланганларнинг хар иктадан биттаси жазони ижро этиш муассасаларида жазони ўтагандан кейин бир йил ичида уч марта такроран жиноят содир этган.⁹³

Малумки хар бир ҳудудда ижтимоий-демографик жараёнлар мазкур ҳудуддаги криминоген вазият билан ўзвий боғлиқдир. Ҳудуддаги жиноий элементлар, яни салбий тоифалар билан билан ҳисобда турган ёки жиноий ҳаракатларларга мойил шахслар профилактикасининг тўғри ташкилининг олдини олишга хизмат қилади.

Хусусан, содир этиладиган фирибгарлик жиноятларида қуйидаги омиллар батафсил ўрганилади:

- айбланувчиларнинг жинсига оид малумотлар;
- яшаш турмуш шароитлари;
- муқаддам судланганлик ҳолати;
- ёшига доир малумотлар;
- бандлик даражаси;
- айбланувчи ўзини ким сифатида таништиради;
- жиноятни содир этиш воситаси;
- содир этилган соҳа йўналишлари;
- кўп ҳолатли содир этилиш ҳолатлари
- етказилган моддий зарарнинг қорланиши.

Фирибгарлик жиноятининг олдини олишда махсус профилактика йўналишидаги қуйидаги чора-тадбирлар тавсия этилади:

❖ мамурий ҳудудда фирибгарликнинг сабаблари ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф этиш, фирибгарлик содир этишга мойил бўлган ва содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларга профилактик тасир кўрсатиш ;

❖ мамурий ҳудудда илгари фирибгарлик жиноятини содир этган шахсларни аниқлаш, уларнинг такроран жиноят содир этишининг олдини олиш;

❖ илгари судланган шахслар ўртасида махсус профилактик чора-тадбирларни манзилли амалга ошириш;

❖ илгари судланган шахсларнинг ижтимоий хавфлилик ҳолати, у муқаддам содир этган фирибгарлик жиноятининг тавфсифи, даражасини ҳисобга олган ҳолда профилактика инспектори мамурий ҳудудда яшайдиган, илгари фирибгарлик жиноят содир этгани учун судланган шахслар рўйхатини тузиш.

⁹³ Фирибгарлик жиноятларини олдини олиш бўйича ҳудуд методикаси. Методик ва амалий қўлланма . ИИВ Академия Тошкент-2019

❖ фирибгарлик жиноятлари бўйича муқаддам судланган шахслар томонидан қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш мақсадида ички ишлар идоралари тезкор малумотлар бошқармалари базаларидан фойдаланган холда барча фирибгарлик жиноятларини содир этган шахсларни ажратиб, уларнинг фотосуратлари асосида вилоят(кейинчалик бутун республика) бўйича ягона фотоалбом ишлаб чиқиш. Ушбу фотоалбомни хизматдан фойдаланиш учун барча худуд профилактика инспекторларига тарқатиш. Бу тадбир, ўз навбатида, профилактика инспекторларига бегона шубхали шахслар орасида фирибгарликни аниқлашда ёрдам беради. Шу билан бтрга, содир этилган фирибгарлик жиноятларини “иссиқ изи”дан очишда ҳам қулайлик яратади;

❖ Мамурий худудда илгари фирибгарлик жиноятларини содир этгани учун жиноий жазога тортилган ва судланган шахс сифатида ички ишлар органлари таянч пунктида профилактик хисобда турувчиларни ёши,жинси бўйича таҳлил этиш ва улар билан профилактик ишлар олиб бориш;

❖ Фирибгарлик жиноятини содир этган профилактик хисобда турган шахслар устидан назоратни кучайтириш;,,⁹⁴

❖ фирибгарлик жиноятлари бўйича муқаддам судланган шахслар томонидан қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш мақсадида ички ишлар идоралари тезкор малумотлар бошқармалари базаларидан фойдаланган холда барча фирибгарлик жиноятларини содир этган шахсларни ажратиб, уларнинг фотосуратлари асосида вилоят(кейинчалик бутун республика) бўйича ягона фотоалбом ишлаб чиқиш. Ушбу фотоалбомни хизматдан фойдаланиш учун барча худуд профилактика инспекторларига тарқатиш. Бу тадбир, ўз навбатида, профилактика инспекторларига бегона шубхали шахслар орасида фирибгарликни аниқлашда ёрдам беради. Шу билан бтрга, содир этилган фирибгарлик жиноятларини “иссиқ изи”дан очишда ҳам қулайлик яратади;

ХУЛОСА

Бундан ташқари фирибгарлик жиноятининг олдини олишда хар бир худуддаги фирибгарлик жиноятларини содир этиши мумкин бўлган қуйидаги хавфли гуруҳни ажратиб олиш лозим:

1. Муқаддам фирибгарлик жиноятларини содир этган шахслар
2. Фуқороларни ишончига осон кира оладиган ишсиз ва енгил пул топиш йўлига кириб кетган шахслар;
3. Ноқонунийтарзда автомашина ва чорва моллари олди-сотдиси билан мунтазам шуғулланиб келувчи шахслар;
4. Муқаддам фирибгарлик жиноятларидан жабрланган шахслар;⁹⁵

⁹⁴ Фирибгарлик жиноятларини олдини олиш бўйича худуд методикаси. ИИВ Академия/ Тошкент-2020

⁹⁵ Фирибгарлик жиноятларини очиш, тергов қилиш, уларнинг сабаб ва шарт-шароитларини аниқлаш ва баргараф этиш Т.2017-йил

Мазкур ажратиб олинган шахслар билан профилактик чора тадбирларни ўтказиш мақсадга мувофиқ⁹⁶

Мамлакатда жиноятчиликнинг очилшии 54 фоизни ташкил этса, фирибгарлик билан боғлиқ ҳукукбузарликларда бу кўрсаткич атиги 25 фоизга тенг бўлганлиги кайг этилган.

Бош Прокуратура маълумотига кўра охириги 5 йил мобайнида фирибгарликнинг умумий жиноятчиликдаги миқдори 7.5 фоиздан 10.7 фоизгача кўгарилгашни ва наркотиклар айланмаси билан боғлиқ жиноятлар сони ҳам ошиб кетганлиги маълум килинди.

Охириги йилларда фирибгарликнинг статистика таҳлили шуни англатадики, бундай жиноятчилик барча турдаги жиноятчиликнинг енг жозибали тури ҳисобланади. Россияда фирибгарлик фаолиятининг ўсиши 2002 йилда 69346 та жиноятдан 2005 йилда 17953 жшюятга тўгри келган. 2,5 бараварга ошди.

Фирибгарлик бир харакгерли хусусияти, юкорида айтилган каби, асосий хавф бўлиб кутиш вайи жуда юкори даражада. дсб у объектив жиноятчилар жазосиз ва уларнинг жиноят кайта содир тайёр бир маънода шакллантириш учун шарт-шароит яратади, деб ҳисоблашади.

ФЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Абдукодиров Ш.Ё. Айбнинг эҳтиётсизлик шақли ва унинг белгилари. - Тошкент: ТДЮИ, 2005. - 91 б.
2. Абдурасулова К.Р.Жиноятнинг махсус субъекти. - Тошкент: ТДЮИ, 2005.- 156 б.
3. Алимов Ҳ.Р.. Маҳмудов А.А., Исмоилов Н.Т. Ўзбекистон Республикасида давлат хизмати: Чизмалар албоми. - Тошкент: 14.Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2002. -Б. 19.
4. Аллабергенов А.П. Фирибгарлик жинояти учун жавобгарлик- Тошкент: ТДЮИ, 2008. - Б. 39.
5. Ахраров Б.Д. Мансабдорлик жиноятлари учун жиноий жавобгарлик. - Тошкент: Адолат, 2007. -Б. 118.
6. Ахраров Б.Д. Ҳокимият ёки мансаб ваколлатини суистеъмол килиш жинояти учун жиноий жавобгарлик: Ўқув кўлламма. - Тошкент: ТДЮИ, 2007.-Б. 39.
7. Бакулов П. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган талон-торож жиноятлари. Монография. -Тошкент: ТДЮИ, 2011. -Б. 75.
8. Ўзбекистон Республикаси Олий суд пленумининг «Фирибгарлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисидаги » 2017-йил 1-октябрь 35-сон карори -Т.,2017,-6-6

⁹⁶ Фирибгарлик жиноятларини очиш, тергов қилиш, уларнинг сабаб ва шарт-шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш Т.2017-йил

BOLANI SOG'LOM FIKR BILAN TARBIYALASH

Arzikulova Kamola Nuriddin qizi

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi Kutubxona
mudirasi:*

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish vazifasini muhokama qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur vazifani hal qilishda psixologiyaning o'rni qanchalik muhim ekanligi qator tajriba va ma'lumotlar asosida isbotlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha yoshdagi, psixologiya, metod, kuzatish, suhbat, kitobxonlik.*

KIRISH QISMI

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

Abdulla Avloniy

Siz bolangiz kitobxon bo'lishini albatta istaysiz. Chunki, bu uning baxtli kelajagiga xizmat qiladi. Lekin bolangiz siz olib kelgan kitoblarga qaramasa, nima qilish kerak?

Gap shundaki, «men keltirgan kitob bolamga albatta yoqadi», deb o'ylamang. Buning uchun ishni ancha oldinroq, bolaning kitobga munosabatini shakllantirishdan boshlash kerak. Boshlang'ich sinflarda bolalar kitob o'qishadi. Lekin kitob tanlay olishmaydi. Shunday paytda sizning yordamingiz kerak. Sizga bolalar uchun chiqarilgan kitoblar, tavsiyalar yordam beradi. Kitob do'konlarida, kutubxonalarda shunday bo'limlar bor. Bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, tartib berilgan. Kitob uning yoshiga, qiziqishlariga mos va rang-barang: ertaklar, o'simliklar, hayvonlar haqida, sarguzasht, buyuk bobolarimiz, tariximizga, qahramonlar, olimlarga bag'ishlangan bo'lsin.

Bolangizga kitob o'qish texnikasini o'rgating.

ASOSIY QISM :

Kitob o'qish, avvalambor, qiziqishni talab qiladi. Biror narsaga qiziqmasdan turib kitob o'qib bo'lmaydi. Avvalo, kishi kitobni o'z qiziqishlariga qarab o'qigani ma'qul. Palapartish mutolaaning foydasi kamroq bo'ladi. Kitobni sevgan inson hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydi, xolisona fikr yuritadi. Kichkintoylarning dunyoqarashini shakllantirish, ularni to'g'ri yo'lga solishda kitobdan muhimroq vosita yo'q. Shuning uchun ham ota-onalar, o'qituvchilar va kutubxonachilarning birinchi vazifasi yosh avlodda mutolaaga qiziqish va mehr uyg'ota olishdir.

Qiziqtirish shaxsning shakllanishida, faolligini oshirishda zarur bo'lgan eng kuchli quroldir. Bolalarimizda kitobga mehr, ishtiyoq uyg'otish uchun, avvalo, o'zimiz unga to'g'ri

munosabatda bo'lishimiz lozim. Adabiyotga mehr qo'yishning o'zida bir hikmat bor. Avvalo, o'smirlarda kitob o'qish ishtiyoqini shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon. Bu masala ularning mutolaaga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, yoshlarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda kutubxonachi va o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak.

Qiziqishning o'zi ham kitob o'qish uchun yetarli sabab bo'la oladi. Bolalar ota-onalari o'qib bergan ertaklar-u, boshlang'ich sinfda o'zlari o'qiy boshlagan hikoyalar orqali kitob dunyosiga kirib boradilar. Shuning uchun bu davr alohida e'tibor talab qiladi. Chunki kitob o'qishga qiziqishning poydevori mana shu paytlarda shakllana boshlaydi. Bog'chaga bormaydigan bolalarga uyda albatta hikoya va ertaklar o'qib berish kerak.

Ota-onalar uyda bolaning kitobga qiziqishini shakllantirish uchun turli o'yinlardan foydalansalar ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bola bilan muloqot qilish, uni kitobga jalb etish lozim. Bola bilan samimiy suhbat, uning qanday kitoblarga qiziqishi haqida so'rash va bu kitobni o'qishi uchun qanday muammolarga duch kelayotgani, muammo yechimini birgalikda hal etish bolaning qiziqishini yanada oshiradi. O'qilgan kitob haqida bola bilan qizg'in suhbat o'tkazish, uni e'tibor bilan tinglash ham qiziqishlarning ortishiga sabab bo'ladi.

Keyingi jarayon kutubxona va kutubxonachi bilan bog'liq. Shinam va ozoda, rang-barang, ko'zni quvontiruvchi shiorlar bilan bezatilgan kutubxona bolani o'ziga tortishi tabiiy. Kutubxonaga kelgan kitobxon o'z fikrini hech bir qo'rquv va tortinishlarsiz bayon eta olishi kerak. Yoshlarning kitobga qiziqishi oshishida kutubxonachining roli va shaxsi ko'p narsani hal etadi. Kutubxonachi shirinso'z va xushmuomala bo'lmog'i darkor. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatleri) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Les Gaining fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatleri paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi[3]. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi .

Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqea va hodisalarni tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozi o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tartib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqea va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratadilar va ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o'zlarini o'rab turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar, o'qimliklar qiziqtiradi. Shuning

uchun ham ular o'z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-xil savollarga ko'mib tashlaydilar. Endi ular voqea va hodisalarga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. "Nima uchun qaroqchi bo'ladi?", "Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi?", "Nima uchun qor yog'adi?" va boshqa savollar bilan kattalarga murojaat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o'sishida, o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishini talab etadi.

Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash xarakterlidir, o'qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozlishi masalaning qo'yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi.

Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirish ular o'qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu yerda alohida kitobxonlarga ta'rif berdik xolos. Bolalar o'qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o'rganish lozim.

Ba'zi bolalar haqiqiy kitobsevar bo'lsa, boshqalari esa o'qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, barcha bolalarni ham kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin. Pedagoglar tomonidan berilgan quyidagi ko'rsatmalar bolalarni kitobga mehr qo'yishiga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyadan foydalanish: Ota ona farzandining kitob o'qishini istaydi, u esa kompyuter o'yinini xohlaydi. Nima qilish kerak? Kitob mutolaasini ana shu jarayonga yaqinlashtirish, ya'ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lozim. Ota-onalar internetda ko'plab bepul elektron kitoblar topishi va kompyuter yoki planshetdan foydalangan holda elektron kitoblardan o'qib berishi mumkin. Ularni on -layn o'qish yoki yuklab olish ham mumkin. Ba'zi elektron kitoblarning qog'oz nusxasiga nisbatan imkoniyatlari keng. Masalan, audio va video tasvirlar bilan boyitilganligi ularning imkoniyat darjasini yanada oshiradi. Bu esa bolalarni qiziqtirishi aniq.

Mutolaa burchagi qilish: Bolalarni chalg'itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo'lgan mo'jazgina "uycha" yoki burchak qilib berish ularning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi mumkin. Ana shunday mo'jazgina chodirchalar ham bolalar uchun "uycha" sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bolalarni tez-tez kutubxonaga olib boorish: Ota-onalar farzandida doimiy ravishda kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishni istahsa, haftasiga hech bo'lmaganda bir marta kutubxonaga olib borishi lozim. Chunki kutubxonada bola turli xil kitoblarni ko'radi va uning kitobga bo'lgan qiziqishi tobora oshadi

Kitoblarni tez-tez suhbat mavzusiga aylantirish: Agar ota-onalar bolalarini kitob o'qishga g'ayratini oshirmoqchi bo'lishsa, tez-tez ertaklar, hikoyalar aytib bering, umuman kitoblar va ularning mazmun - mohiyati haqida suhbatlashib turishi kerak. Hayotda sodir bo'lgan haqiqiy voqealarni bolalar o'qigan ertak va hikoyalar bilan bog'lashga harakat qilish lozim. Bu esa bolalarni nafaqat o'qishga chorlaydi, balki, mushohada qilishga o'rgatadi, tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Asosiy tamoyillardan biri - yosh kitobxonni o'rganishni uning shaxsini o'rganish bilan bog'liq holda olib borish. Avvalo tarbiyachi suhbat, kuzatish va boshqalar birgalikda kitobxon haqida to'liq ma'lumot bera oladigan bo'lish lozim.

Shunday qilib biz yosh kitobxonning qiziqishi va talablarini o'rganish bilan birga uning o'zini ham o'rganamiz. Zero, kitobxonning qiziqishi, talabi uni o'rab turgan muhit (oil, maktabgacha ta'lim muassasasi, o'rtoqlari) bilan munosabatini qo'shib o'rganishga, u haqda to'liq ma'lumot beradi.

Ikkinchi tamoyil, pedagogik va psixologik xususiyatlardan kelib chiqadigan fikrlar va xulosalar asosida yosh kitobxonni o'rganish bilan birga uning qiziqishlarini to'g'ri yo'lga solib, yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Uchinchi tamoyil bolalar kitobini ilmiy va estetik jihatdan o'rganish bilan uzviy alohida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga atalgan badiiy, ilmiy, ommobob kitoblarni yaxshi bilishi, uni pedagogik tomondan tahlil qila olish kerak. Tarbiyachi bu kitoblarni o'zining mulohazasi va xulosalari bilangina baholab qolmasdan, kitobxonning yosh xususiyati, saviyasi hamda nuqtai nazarini ham hisobga olish lozim.

XULOSA QISM

Xulosa qilib shuni aytamanki „Aziz ota -onalar farzandingiz kelajagiga befarqlik bilan qaramang .Ularning kelajagi bizning kelajagimizdir .Kôp vaqtingizni farzandingiz bilan ôtkazing ularni tarbiyasi bilan jiddiy shug'illaning.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'oziyev E.G'. "Umumiy psixologiya" 1-kitob .
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
4. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.

INSONLARDA ONKOLOGIK KASALLIK XAVFLI VA XAVFSIZ O'SMA KASALLIGI HAQIDA

Shamsiddinova Go'zal Bahodirovna

Ilmiy rahbar

Usmonov Jamshidbek Rustamjon o'g'li

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kattalarda onkologik kasalliklar kechishi, uning psixik-ruhiy holati, patologik xususiyatlari, patologiyaning patogenezi haqida ilmiy fikrlar keltiriladi. Kattalarni davolashda, avvalambor, ularning psixik holatini o'rganish lozimligi maqolada asosiy o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Onkologiya, gematologiya, kasallik, bemor, baho, munosabat, tajriba, maqsad, ishonch, rehabilitatsiya, patologiya, patogenez.*

Barchaga ma'lumki, katta yoshdagi onkologik va gematologik kasallikka chalingan bemorlarda o'ziga bo'lgan bahosi, unga atrofdagilarning hurmat bilan munosabat qilish tajribasi asosida tiklanadi. Bemor atrofdagilar tomonidan hurmatli munosabat ko'rsa, shu qatori o'ziga ham ayab hurmat bilan munosabatda bo'lishga qodir. Bemorga «O'zingga ishon, seni hamma yaxshi ko'radi, senga g'amxo'rlik qilayotganlarga ishonch bildir», degan gaplarni aytib atrofdagilarga nisbatan bemorni ishonchini orttirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Nafaqat mavjud simptomlarni kuzatish, balki mijozning shikoyatlari va harakatlari zaminida nima yashiringanini ham tushunish kerak. Kuzatuv o'tkazish va o'z-o'ziga parvarish qilish qobiliyatini baholashni bajariladi.

Yosh qaytgach o'ziga xos psixogigiyenik muammolar vujudga keladi. Keksalik hayotning nihoyasi bo'lishi kerak emas, balki u hayotning ochilgan gulidir, – degan edi Andre Renon. Shunday ekan, qarilik chog'idagi psixogigiyenik tadbirlar sistemasi gulni so'litmaslikka, barglari, yaproqlarining tushmasligiga qaratilmog'i kerak. Qarilik chog'ida ko'rish qobiliyati susayadi, quloq og'irlashib qoladi, asta-sekin oyoqlardan mador ketadi, harakatlarni bajarish qiyinlashib boradi. Bu esa ruhiyatning pasayishiga olib keladi.

Qariyalarning ko'ngliga tez ozor yetadi, ular nozik bo'lib qoladilar, salbiy kechinmalardan ko'p tashvishga tushadilar, ularni xavotirlik, qo'rquv egallaydi. Yolg'izlik ularni og'ir xayollarga cho'mdiradi. Ba'zida yoshlar oiladan uzoqlashib, o'zlari yangi oila quradilar. Natijada keksalar yolg'iz qoladilar. Yolg'izlik ularni qiynaydi. Bunday vaqtda qo'shnilar, o'g'il-qizlari, nevara-chevaralari qariyadan xabardor bo'lib turishlari lozim. Mahalla faollari yolg'iz qolgan qariyalarga mos keladigan ishlar topib berishlari kerak. Ularning doimo nima bilandir mashg'ul bo'lishlari ruhiy sog'lomlikka olib keladi. Kezi kelganda, qariyalarning tibbiy parvarishi haqida ham to'xtalib o'tmoqchimiz. Abu Ali ibn Sino qariyalarga badanni yog' bilan uqalash, yengil

harakatlar qilish, piyoda va otda yurish, ko'katli taomlar yeyish, sut-qatiqni ko'proq ichish, asabiylashmaslik, yetarlicha uxlash va ichni surib turish kerakligi haqida uqtirgan edi. Darhaqiqat, keksa odamning ovqati oz-ozdan, sifatli, darmondorilarga boy va mazali bo'lishi darkor. Shovla, shirguruch, atala, holvaytar, shirchoy, limonli choy kabi ichimliklar me'da-ichak yo'llarida tez hazm bo'ladi. Sabzavot (sabzi, sholg'om, karam) va ko'katlar qo'shib tayyorlangan suyuq taomlar qariyalarga foydali, shifobaxsh ta'sir qiladi va huzur bag'ishlaydi.

Bugungi kunda onkologik kasalliklar o'lim va nogironlikning uchrashi bo'yicha dunyoda birinchi, ba'zi davlatlarda ikkinchi o'rinni egallaydi. Tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatuvchi barcha yo'nalish mutaxassislari o'z amaliyotida xavfli o'smalar bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Chunki onkologik kasalliklar inson organizmining deyarli barcha a'zolarida uchraydi. Xususan, 6 mingdan ortiq odamning qon tahlilini o'rgangan tadqiqot bir guruh amerikalik va britaniyalik olimlar tomonidan olib borildi va Silikon vodiysidan bo'lgan startap tomonidan homiylik qilingani ma'lum.

Olimlar bunday sinovlar o'simtalarni erta bosqichda aniqlashga va ularni muvaffaqiyatli davolashga yordam beradi deb umid qilishmoqda.

Tadqiqot Onkologiya institutining bir guruh amerikalik olimlari tomonidan olib borildi. Dana Farber va Garvard tibbiyot maktabi, Frensis Krik instituti va London universitet kolleji britaniyaliklar bilan hamkorlikda. Uning natijalari Annals oncology akademik jurnalida chop etilgan, Oksford Universiteti Pressi.

Saratonni aniqlagan testlarning 99% dan ko'prog'i tasdiqlangan bo'lsa ham, olimlar ularning usuli onkologiyani o'tkazib yubormasligiga va yolg'on umid bermasligiga ishonch hosil qilishni xohlashadi. Bu qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, klinik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, qon testi kasallikning rivojlanishining boshlanishiga qaraganda progressiv onkologiyani aniqlaydi. "Ushbu qon sinovi barcha saraton kasalligi uchun tahlil sifatida keng qo'llanilishi kerak bo'lgan barcha xususiyatlarga ega", deydi tadqiqot etakchilaridan biri professor Jof Oksnard. Ammo bunday klinik tadqiqotlar natijalari olinganidan keyingina ushbu tahlilning keng qo'llanilishi haqida gapirish mumkin bo'ladi.

"Saratonni erta aniqlash, u kamroq invaziv va davolanmasa, hayotni saqlab qolish uchun ulkan salohiyatga ega, ammo bu potentsialni ro'yobga chiqarish uchun texnologik yangilik zarur".

"Har kim bunday sinov qachon tayyor bo'lishini so'raydi. Minglab bemorlarning muvaffaqiyatli klinik sinovlaridan kelib chiqqan holda, ushbu test klinik sinovlarda cheklangan foydalanish uchun allaqachon boshlangan ».

Onkologik kasalliklarga qarshi kurashda nafaqat tibbiyot xodimlari, balki biologlar, genetiklar, ximiklar, fiziklar va shu kabi ilmfanning bir qancha yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar ishtirok etishmoqda. Olimpiarning

intilishlari onkologik kasalliklarni erta aniqlash va davolash sohasida katta yutuqlarga erishish imkonini berdi. Masalan, nevrologiya sohasini misol qilib oladigan bo'lsak, kompyuter tomografiya yoki magnitli-rezonans tomografiya bosh miya o'smalarini juda erta aniqlash va samarali davolash imkonini berayapti. XX asrning 80-yillarigacha esa miya o'smasi tashxisini aniqlash o'ta mushkul va juda ko'p urinishlarni talab qilardi.

«Bosh miya o'smasi» tashxisi faraz qilingan bemorda chuqur klinik tekshiruvlardan tashqari, bir qancha paraklinik tekshiruvlar, ya'ni rentgenoskopiya, exoensefaloskopiya, elektroensefalografiya, reoensefalografiya, lyumbal punksiya, pnevmoensefalografiya, serebral angiografiya tekshiruvlari o'tkazilardi. Oxirgi 3 ta tekshiruv katta diagnostik ahamiyatga ega edi. Bu tekshiruvlarni o'tkazish uchun bemor shifoxonaga, ya'ni neyroxirurgiya bo'limiga yotqizilardi.

Yuqoridagilardan tashqari, bemorni nevropatolog, otonevrolog, okulist, psixiatrlar ham ko'rishi va o'z xulosasini berishi zarur bo'lardi. Ushbu mutaxassislar xulosalari asosida yoki ularning ishtirokida konsilium o'tkazilardi va ana shundan so'ng bosh miyada o'sma bor yoki yo'qligi haqida bir fikrga kelinardi. Demak, bemorni shifoxonaga yotqizmasdan va shuncha tekshiruvlarni o'tkazmasdan turib miya o'smasini aniqlab bo'lmasdi va bir bemorga aniq tashxis qo'yish uchun deyarli 10 nafar shifokor kamida 10 kun mobaynida mehnat qilishiga to'g'ri kelardi. Vaholanki, tekshiruv larga vo'qotilgan har bir kun erta davolashni boshlash uchun yo'qotilgan har bir kun bilan barobardir.

Mana shu kunlar mobaynida vrachlarning xattiharakatidan aksariyat bemorlar o'zida o'sma kasalligi izlanayotganini bilib olar, bu esa bemor va uning yaqinlari uchun katta xavotir tug'dirar edi. Hozir-chi? Hozir bemorda bosh miya o'smasi bor-yo'qligini aniqlash uchun deyarli bir soat vaqtning o'zi yetarli, xolos, ya'ni KT yoki MRT tekshiruvlariga ketgan vaqt. Albatta, bir Bemorni bir necha mutaxassisning sinchiklab tekshirishi va o'zaro maslahatlashishlari vrachning klinik tafakkuri va mahoratini yanada oshiradi. Biroq u paytlari ham, hozir ham vrachning maqsadi yagona bo'lgan, bundan so'ng ham shunday bo'lib qoladi. Bu ham bo'lsa tashxisni erta aniqlash va davolashni erta boshlash.

Shu yerda aytib o'tish lozimki, «KT va MRT kabi zamonaviy tekshirish usullari bebaho tekshiruvlardir, biroq ularning paydo bo'lishi vrachlarni dangasa qilib qo'ymoqda, ular o'z ustida ishlaymay qo'yishmoqda», degan fikrlar mavjud. Bu holat tibbiyotga endi qadam qo'yib kelayotgan vrachlarda klinik tafakkurning shakllanishiga to'sqinlik qilmoqdami? Bu savolga ham «ha», ham «yo'q», deb javob berish mumkin.

Onkologik kasalliklarda katta yoshdagi bemorlar psixologiyasihaqida so'z yuritishni bosh miya o'smasi diagnostikasi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar bilan boshlashimiz bejiz emas. Chunki organizmning boshqa a'zolarida joylashgan o'smalardan farqli o'laroq, bosh miya o'smalarining o'zi bir qator ruhiy buzilishlarga olib keladi. Bundan tashqari, miyasida o'sma aniqlangan va uni operatsiya qilib davolash mumkinligini bilgan bemor og'ir ruhiy vaziyatga tushadi. Chunki gap bosh miya haqida

ketayapti! Demak, bu yerda vrachning vazifasi ushbu muolajalar bilan bog'liq bo'lgan psixologik taranglikni yumshatishdan iborat bo'lmog'i va bu masala bilan psixolog emas, aynan neyroxirurgning o'zi shug'ullanishi lozim.

Operatsiya murakkab bo'lsa-da, undan so'ng bemorga ahvoli ancha yaxshilanishi va uni qiynayotgan dardlardan xalos bo'lishini davolovchi neyroxirurgning o'zi tushuntirishi lozim. Neyroxirurgiya markazi yoki bo'limiga taklif qilingan psixolog nafaqat bemorda o'sma sababli paydo bo'lgan ruhiy buzilishlarni aniqlashi va davolashi, balki neyroxirurglar bilan hamkorlikda bemorni operatsiyaga tayyorlashda va operatsiyadan keyingi davrdagi davolash jarayonlarida faol ishtirok etishi lozim.

Ma'lumki, xavfli o'sma aniqlangan bemor iloji boricha unda bu kasallik borligidan bexabar bo'lishi lozim. Bunday vaziyatlarda vrach qanday yo'l tutishi kerak? Odatda, «Sizda haqiqatan ham o'sma aniqlandi, biroq u xavfsiz, ya'ni hayotingizga xavf solmaydi, uni davolash mumkin», deyiladi. Biroq bemorda o'smaning xavfli turi borligini vrach uning qarindoshlariga aytishi lozim. Gap shundaki, bemor ertami-kechmi, o'z kasali haqida qarindoshlaridan yoki shifokorlarning xatti-harakati va muloqotlaridan bilib oladi. Bu yerda, ayniqsa, hamshiralalar juda ehtiyot bo'lishlari lozim. Chunki bemorlar ba'zan aldov yo'llari bilan hamshiralardan haqiqatni bilib olishga intilishadi va buning uddasidan chiqishadi ham. Buning yuridik javobgarligi borligini har bir tibbiyot xodimi unutmash kerak.

Yuridik javobgarlik turli ko'rinishda bo'lishi mumkin: ishdan haydalishtan tortib, ozodlikdan mahrum bo'lishgacha. Chunki o'zida xavfli kasallik borligini bilgan bemor joniga qasd qilishi mumkin.

Ba'zan bemor yaqinlariga xat yozib qoldiradi va u yerda sirni kimdan bilib olganini ko'rsatishi ham mumkin. Ba'zi hollarda bemor o'z kasalligini boshqa katta yoshdagi bemorlardan bilib oladi. Shuning uchun ham shifokorlar boshqa bir bemorning kasalini ikkinchi bir bemorga aytmasligi kerak. Sirni bilgan bemor davolanishga qattiq qarshilik ko'rsatishi, davolanishdan voz kechib shifoxonani tark etishi yoki davolash jarayonlarida katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Odatda, sirdan voqif bo'lgan bemorda dastlab ruhiy karaxtlik ro'y beradi, bu xabarni u o'lim haqida chiqarilgan hukmdan qabul qiladi. Nima qilishini bilmay qoladi, xayolan har xil rejalar tuzadi, aniq bir qarorga kela olmaydi, doktorlar xato qilmadimikan, deb o'ylaydi, qayta tekshirishlarini iltimos qiladi. Boshqa mutaxassislar yoki boshqa tibbiy markazlar bilan maslahatlashib ko'rishni yaqinlaridan talab qiladi.

Biz gurrakib rivojlanib kelayotgan axborot texnologiyalari asrida yashamoqdamiz, internetdan foydalanuvchilar soni ham kundan-kunga oshib bormoqda. Deyarli barcha ta'lim muassasalari, shifoxonalar, korxonalar bilan bir qatorda, har bir xonadonga internet kirib kelmoqda. U yerdan juda ko'p ma'lumotlarni bemalol olishi mumkin. Bemor ham bundan foydalanishi va o'ziga kerakli ma'lumotni topib olishi mumkin. Bu yerda talabalar ham ehtiyot bo'lishi lozim, bemor ulardan ham o'ziga kerakli ma'lumotlarni bilib olishi qiyin emas.

Talabalar bemorlarni ko'rgani kirganda, palatalarda darslik va o'quv qo'llanmalarini qoldirmasliklari, ulami so'ragan bemorga bermasliklari kerak. Qo'llanilayotgan diagnostika va davolash usullaridan ham bemor o'z kasalligi turini bilib olishi mumkin. Masalan, ko'pchilik nur bilan davolash usuli xavfli o'smalarda ko'p qo'llanilishi yoki og'riq qoidirish uchun narkotik analgetiklar buyurilishi va ozib ketish rak uchun xos ekanini biladi. Demak, onkologiyada sir saqlash o'ta murakkab masaladir, biroq buning uddasidan chiqishga intilish lozim va bemor sirni bilib qolgandan so'ng vrach qanday yo'l tutishni ham o'ylab qo'yishi kerak.

Odatda, sirdan voqif bo'lgan katta yoshdagi bemorlarda reaktiv nevroz yoki reaktiv psixoz rivojlanadi. Bu yerda, albatta, psixologning yordami kerak bo'ladi va undan unumli foydalanish kerak.

Umuman olganda, onkologiya, neyroxirurgiya, ftiziatriya, kardiolog; ya, xirurgiya va travmatologiya ilmiy markazlari va harbiy gospitallarda psixologlar uchun ish joylari ajratilgan bo'lishi kerak. Deyarli barcha rivojlangan davlatlarda shunday. Chunki bu markazlarda kasallik turlari va bemorlar soni ko'p.

ADABIYOTLAR:

4. Abu Ali ibn Sino. Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o'git. – T., Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 1999.

5. В.А. Медик. В.К. Юрьев. Курс лекций по общественному здоровью и здравоохранению. Часть I. – Москва, «Медицина», 2003.

6. В.А. Медик. В.К. Юрьев. Курс лекций по общественному здоровью и здравоохранению. Часть II. – Москва, «Медицина», 2003.

7. С.М. Бортникова. Т.В. Зубахина. Нервные и психические болезни. Ростов-на-Дону, «Феникс», 2004.

8. С.М. Бортникова. Т.В. Зубахина. Нервные и психические болезни. Ростов-на-Дону, «Феникс», 2005.

BOLALARDA “ SISTIT” KASALLIGI. PATOGENEZI, DAVOLANISHI, PROFILAKTIKASI

Axtamova Shirin Xayrulloevna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: *Sistit kasalligi kelib chiqishini o'rganish, davolanishi, profilaktik chora - tadbirlarni ko'rib chiqish.*

Kalit so'zlar: *Sistit, uretrit, total tarqalish, siydik analizi, siydik yo'llari,*

Sistit siydik pufagining yallig'lanish jarayoni bo'lib, ko'pincha chanoq bo'shlig'i va buyraklar infeksiyaning retrograd tarqalishi bilan kechadi. Bolalarning siydik yo'llarining har qanday joyida, jumladan, siydik yo'llari, siydik pufagi, siydik yo'llari yoki buyraklarda rivojlanishi mumkin. Barcha sog'lom bolalarning tanasida va ichaklarida hech qanday zarar keltirmaydigan bakteriyalar mavjud. Ba'zida bakteriyalar siydik pufagiga kirib, yallig'lanishni keltirib chiqarishi mumkin. Bu har qanday yoshdagi bolalarda, shu jumladan chaqaloqlarda paydo bo'lishi mumkin.

Ko'pincha siydik pufagi infeksiyasiga odatda ichaklarda joylashgan bakteriyalar sabab bo'ladi. Sistit yoki siydik pufagining yallig'lanishi bolalarda siydik tizimining keng tarqalgan muammolaridan biridir. Ba'zida shifokorlar siydik yo'llari infeksiyasi umumiy atamasidan foydalanadilar, agar faqat siydik pufagi ta'sirlanganligini aniq aniqlashning iloji bo'lmasa, uretrit va pielonefrit simptomlari qidiriladi. Siydik pufagi infeksiyalari har yili 100 boladan 3 tasida uchraydi. 12 oygacha bo'lgan chaqaloqlar katta yoshdagi bolalarga qaraganda rivojlanishi ehtimoli ko'proq. Hayotning birinchi oylarida qizlarga qaraganda o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. 1 yoshga kelib, qizlarda o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq paydo bo'ladi va qizlar bolalik va o'smirlik davrida yuqori xavf tug'diradi.

Qizlar, hayotning birinchi yilidan tashqari, o'g'il bolalarga qaraganda siydik pufagi infeksiyasiga ko'proq moyil. 1 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar orasida sunnat terisini olib tashlamagan (sunnat qilingan) o'g'il bolalarda siydik pufagi infeksiyasi xavfi yuqori. Biroq, ko'pchilik sunnatsiz o'g'il bolalarda siydik pufagi infeksiyasi rivojlanmaydi.

Qoida tariqasida, har qanday patologik holat yoki bolaning siydik pufagida uzoq vaqt davomida siydikni ushlab turish odati infeksiyaga olib kelishi mumkin. Sizda sistitni rivojlanish ehtimolini oshiradigan boshqa omillar:

1. Siydik pufagining haddan tashqari faolligi, bola o'sib ulg'aygan sayin tez-tez o'tib ketadigan davolanadigan holat;

2. Siydik pufagining to'liq bo'shatilishi;

3. Siyish uchun juda uzoq kutish;

4. Ich qotishi - haftada ikki martadan kam ichak harakati yoki og'riqli yoki o'tishi qiyin bo'lgan qattiq najas.

5. Siydik yo'llari torayishi - siydikning normal oqishini cheklaydigan muammo, masalan, tosh. Ba'zi hollarda, bu tug'ma nuqson bilan bog'liq bo'lishi mumkin;

Qizlarda siydik chiqarish kanali o'g'il bolalarnikiga qaraganda qisqaroq, shuning uchun bakteriyalar siydik pufagiga etib borishi va infeksiyani keltirib chiqarishi uchun qisqa masofani bosib o'tishi kerak. Qizlarda siydik pufagi infeksiyasini keltirib chiqaradigan bakteriyalar manbai bo'lgan to'g'ri ichakka yaqinroq joylashgan.

Klassifikatsiyasi:

1. Asoratlangan (peritonit va boshqa kasalliklar qo'shilishi bilan) yoki asoratlanmagan.
2. O'tkir (sub- va shilliq qavatlarning yallig'lanishi bilan birga, ba'zi hollarda - qovuq devorlarining qon ketishi) yoki surunkali (morfologik patologiyalar mushak qatlamiga ta'sir qiladi).
3. Total yoki umumiy (tarqalish darajasiga ko'ra).
4. Birlamchi (quviqning tuzilishi va disfunktsiyasida anomaliyalarsiz) yoki ikkilamchi (qovuqning noto'g'ri anatomiyasi va funktsionalligi tufayli qoldiq siydik tufayli paydo bo'ladi).

Kasallikning belgilari:

1. Ishtahaning pasayishi yoki ovqatlanishni to'liq rad etish;
2. Bezovtalik, bu bola siyish paytida kuchayadi;
3. Yig'lash, asabiy hayajon yoki aksincha, letargiya va zaiflik;
4. Tana haroratining ko'tarilishi;
5. Tashqi tomondan uretral sfinkterning spazmi, rivojlangan refleks tufayli siydikni ushlab turish;
6. Siydikning o'zgarishi: loyqalik, cho'kindi, yoriqlar, badbo'y hid.

Diagnostika:

Bolada sistit belgilari bo'lsa, darhol pediatrga murojaat qiling. Shifokor bakteriyalarni tekshirish uchun siydik sinovlarini buyuradi. Siydikni bir necha usul bilan to'plashingiz kerak:

1. Kattaroq bolalar steril stakanga siyishi mumkin.
2. Hojatxonaga o'rgatilmagan yosh bolalar uchun siydikni to'plash uchun jinsiy a'zolarga steril polietilen siydik o'tkazgichdan foydalaniladi.
3. Namuna olish uchun siydik pufagi va siydik pufagiga naycha (kateter) kiritilishi mumkin.

Davolanishi:

Ko'pincha antibiotiklar qo'llaniladi. Ushbu dorilar bakteriyalarni o'ldiradi. Bolalar odatda 3 dan 10 kungacha (ko'pincha 7-10 kun) qabul qilishadi. Bolaning doridarmonlarni qabul qilishini tugatgandan so'ng, shifokor infeksiya yo'qolgan yoki yo'qligini aniqlash uchun yana bir siydik sinovini o'tkazishi mumkin. Har doim doridarmonlarni to'liq qabul qilish kerak, hatto bola yaxshi bo'lsa ham. Juda erta to'xtash mikroblarni antibiotiklarga chidamli qilib qo'yishi va takroriy sistitni keltirib chiqarishi mumkin.

Profilaktikasi: Yetarlicha suyuqlik ichish, yaxshi gigiena va taglikdan foydalanish, keng kiyim kiyish va sistit bilan bog'liq sog'liq muammolarini davolash bola yoki o'smirda sistitning oldini olishga yordam beradi.

Qabziyatni oldini olish muhimdir. Qattiq najas siydik yo'llariga bosim o'tkazishi va siydik oqimini to'sib qo'yishi mumkin, bu esa bakteriyalarning ko'payishiga imkon beradi. Bolalarga muntazam ravishda ichak harakatlariga yordam berish, ich qotishining oldini olishga yordam beradi. Bolalarda siydik yo'llari tuzilmalari yoki anatomik muammo bo'lsa, pediatr urologiga yoki boshqa mutaxassisga murojaat qiling. Ushbu shartlarni davolash siydik pufagi infeksiyalarining takrorlanishining oldini olishga yordam beradi. Qandli diabet va boshqa sog'liq muammolari siydik pufagi infeksiyasi xavfini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova D.T. va boshk. "Bolalar kasalliklari propedevtikasi". Darslik (uzbek tilida) - Toshkent OOO Maximal format. Nurfayz nashriyoti. 2018 y.
2. Xalmatova B.T., Bobomuratov T.A. Pediatriyada sindromal diagnostika. –o'quv qo'llanma, Toshkent, TTA bosmaxonasi, 2010 y
3. Nelson Textbook of Pediatrics, 20 editions. Robert M. Kliegman, Bonita Stanton, Joseph St. Geme., Elsevier, 2016.

TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI

Y.T.Qiyomov

Xalqaro Innovatsion Universiteti

Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasini mudiri

Pirnazarov Ibodulla Xamza o'g'li

talaba

Omonshukurov Eldor Xayrullo o'g'li

Talaba

Annotatsiya: *Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni, Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanishi, Talablar turlicha bo'lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talablar,*

Kalit so'zlar: *Bozor, taklif, qonun, narx, harakat, ilmiy, ehtiyoj, yakka talab, Talab miqdori, taklif qonunlari, muvozanat.*

Bozor mexanizmining amal qilishida talab va taklif qonunlari muhim o'rin tutadi. Talab va taklif narxni shakllantiradi, shu bilan birga narx talab va taklif o'rtasidagi nisbatni aniqlab beradi. Bu bobda dastlab talab va taklifga narxning ta'sirini alohida qarab chiqamiz. Keyin talab va taklif ta'sirida muvozanatlashgan narxning o'rnatilishi tushuntirib beriladi. Shu o'rinda talab va taklif qonunlari, ularning miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni, ular o'rtasidagi mutanosiblikni bayon etishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, talabning shakllanishi va amal qilishi, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda iqtisodiyot nazariyasida muhim yo'nalishlardan biriga aylangan iste'molchi xatti-harakati nazariyasi ham mavjuddir.

Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Masalan, talaba yangi rusumdagi qo'l telefonini xarid qilish maqsadida do'konga kirdi. Qo'l telefonining narxi 300 ming so'm bo'lib, talabada faqat 200 ming so'm mavjud, deb faraz qilaylik. Bu holda talabaning yangi rusumdagi telefonga nisbatan ehtiyoji talabga aylanmaydi va, binobarin, qondirilmaydi. Bu o'rinda talaba yana 100 ming so'm miqdorida pul qidirib topishi yoki narxi 200 ming so'mgacha bo'lgan telefon xarid qilishi mumkin. Shu holdagina uning qo'l telefoniga nisbatan ehtiyoji talabga aylanadi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum vaqt oraliqida, narxlarning

mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji talab deyiladi. Talablar turlicha bo'lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farqlanadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxon, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi yakka talab deyiladi. Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi bozor talabi deyiladi. Yakka talab ham, bozor talabi ham miqdor jihatdan aniqlanadi. Lekin bu miqdor har doim ham bir xil bo'lib turmaydi, balki o'zgaruvchan bo'ladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning ichida eng ko'p ta'sir qiladigan omil narx omilidir.

Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik

1-jadval

Bir kilogramm kartoshka narxi (so'm)	Kartoshkaga bo'lgan yakka talab miqdori (bir oyda kilogramm)	Kartoshkaga bo'lgan bozor talabi miqdori (bir oyda tonna)
700	10	10
600	20	20
500	30	30
400	40	40
300	50	50


Jadvaldagi misolda kartoshkaning 300 so'mdan 700 so'mgacha bo'lgan narx darajalarida ularga bo'lgan talab miqdorlari ifodalangan. Ma'lumotlar tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishiga va aksincha, narxning o'sishi talab miqdorining kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Narxning eng yuqori – 700 so'm darajasida yakka talab (masalan, o'rtacha bir oilaning talabi) eng oz miqdor – 10 kg ni tashkil etgan bo'lsa, narx pasayishi bilan talab miqdori ko'payib bormoqda: 600 so'mda – 20 kg, 500 so'mda – 30 kg va h.k. Narxning eng past darajasi – 300 so'mga talabning eng yuqori miqdori – 60 kg to'g'ri kelmoqda. Jadvalning navbatdagi ustunida kartoshkaga bo'lgan bozor talabi miqdori ifodalangan. Bunda muayyan hududda taxminan 1000 ta oila istiqomat qiladi va ularning kartoshka narxining o'zgarishiga nisbatan deyarli bir xil xatti-harakat, munosabatda bo'ladilar, degan shartga asoslanildi. Misoldan ko'rinadiki, bozor talabi miqdorining narxga nisbatan o'zgarishi ham yakka talabning o'zgarishiga mutanosib ravishda ro'y bermoqda.

Tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi.

Real iqtisodiy hayotda ba'zan bu qoidaga zid bo'lgan, ya'ni ayrim tovar narxining o'sishi bilan unga bo'lgan talab miqdorining yanada ortishi holati ham uchraydi. Bu holat Giffen samarasi deb (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan) ataladi. Giffen kambag'al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko'rsatgan. Tushuntirish shunga asoslanadiki, kartoshka kambag'al oila

ovqatida mahsulotlarning asosiy qismini egallaydi. Agar kartoshka narxining o'sishi ro'y bersa, bunda kambag'al oila go'sht sotib olishdan umuman voz kechishga majbur bo'ladi, o'zining ko'p bo'lmagan daromadining barchasini kartoshka sotib olishga sarflaydi. Demak, bunday vaziyatda narxlarning oshishi zarur tovarlarga talab miqdorining kamaymasdan, aksincha ko'payishiga olib kelishi mumkin. Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori (talabning) o'rtasidagi teskari bog'liqlikni oddiy ikki o'lchamli grafikda ham tasvirlash mumkin: yotiq chiziq bozor talabi miqdorini, tik chiziq narxni ko'rsatadi (2-chizma).

2-chizma Talab egri chizig'i



Pul daromadi o'zgarishining talab hajmiga ta'siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Pul daromadining ortishi juda ko'p tovarlarga talabni nisbatan oshiradi, daromadning kamayishi esa bunday tovarlarga talabni kamaytiradi. Daromad oshsa, uning o'sishiga qarab iste'molchilar aksariyat hollarda narxi yuqori bo'lsada, ko'proq sifatli tovarlarni xarid qilishga harakat qilishadi. Bunda ular non, kartoshka, karam kabi mahsulotlarni kamroq sotib olishlari mumkin. Chunki ortiqcha daromad ularga ancha yuqori oqsil tarkibiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, go'sht va sut mahsulotlari xarid qilish imkonini beradi. Daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi.

Daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi. Iste'molchilar daromadi va ular tomonidan sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik nemis iqtisodchisi va statisti Ernst Engel (1821-1896) tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shunga ko'ra, iste'molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Engel qonuni deyiladi. Oliy toifali yoki normal tovarlar uchun Engel egri chizig'i o'suvchan ko'rinishida

bo'ladi. Haqiqatan ham, aholi daromadlari o'sib borishi bilan bu turdagi tovarlar ko'proq xarid qilinadi. Past toifali tovarlar uchun Engel egri chizig'i pasayuvchan ko'rinishda bo'lib, daromadlar oshib borishi bilan iste'molchilar ularni kamroq miqdorda sotib oladilar. Agar tovarning iste'moli daromad darajasiga bog'liq bo'lmasa, u holda Engel egri chizig'i tik holda bo'ladi.

2-chizma

Engel egri chizig'i

Daromad, ming so'm


Grafikdagi DD chiziq narx va talab hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni tasviriy aks ettiradi. Undagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdorini ko'rsatadi. Narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq talab egri chizig'i deyiladi. Talab miqdoriga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillar. Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning narxdan tashqari omillari deyiladi.

Talabga	narxdan	tashqari	quyidagi	asosiy	omillar	ta'sir	ko'rsatadi:
1)			iste'molchining				didi;
2)		bozordagi			iste'molchilar		soni;
3)			iste'molchining				daromadlari;
4)		bir-biriga	bog'liq		tovarlarning		narxi;
5)	kelajakda	narx	va	daromadlarning	o'zgarishi		ehtimoli.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qarab chiqamiz.

Biror mahsulotga iste'molchi dididagi ijobiy o'zgarish ro'y bersa, narxning tegishli darajasida unga bo'lgan talab ortadi. Bu o'rinda real hayotda iste'molchilar «moda», ya'ni biron-bir tovarning keng rasm bo'lgan turini sotib olishga harakat qilishlarini misol keltirish mumkin. Iste'molchi didiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar talabning qisqarishiga olib keladi.

O'z-o'zidan aniqki, bozorda iste'molchilar soni ko'paysa, talab ortadi, iste'molchilarning soni kamaysa, talab qisqaradi. Masalan, aloqa vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini, undagi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi jarayonlarida ishtirok etuvchilar sonini mislsiz kengaytiradi hamda aktsiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi. Tug'ilish darajasining pasayishi bolalar bog'chasi va maktabga bo'lgan talabni kamaytiradi.



1.

0 1 2 3 4 5 6 7 8 *Tovar miqdori, dona*

Daromadning bundan yuqori darajalarida esa sotib olish hajmining o'sishi butunlay to'xtagan (daromadning 60 ming so'm va undan yuqori darajalarida mazkur tovarning 7 donasi sotib olinmoqda). Engel egri chizig'i


Saliyeva Saidaxon Ahmadqul qizi

Andijon davlat pedagogika universiteti Magistranti

Annotatsiya: *Maskur maqolada pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, shaxslararo muloqotning boshqa shakllariga nisbatan pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti va hamkorligidagi o'ziga xoslik o'quvchilarning rivojlanishlariga xizmat qilishi o'rganilgan.*

Tayanch so'zlar: *Muloqot, Shaxs, Seminar, Munozara, Xulq-atvor, Ta'lim tarbiya, Pedagog.*

Chetdan nazar tashlar ekanmiz insonning yashashi, rivojlanishi, shaxs bo'lib shakllanishi uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz tasavvur qilish juda qiyin.

Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari, ta'sirlari, ma'lumot hamda axborot almashishiga doir ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim.

Shuning uchun ham muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Muloqotsiz ijtimoiy tajribani ta'lim oluvchilarga taqdim etish imkonsizdir. O'qituvchidan esa nutq va muloqot madaniyatini, notiqlik san'atini puxta egallashi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Yoshlarning bilim olishlari, intilishlarini, o'qituvchiga yoki tengdoshlarining ichki olamiga yaqinlashtirish uchun atrofida qilargalarga uning nazari bilan qarash, yondashish, ularni tinglash va tushunish ular uchun muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida muloqotini shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi ham muhim o'rin egallaydi. Ta'lim berish jarayonida yoshlarga kuchli ta'sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, o'qituvchining bergan ko'rsatmalariga amal qilmasligi mumkin. Chunki bolada yoshligidan muomala madaniyatini shakllantirib borishda maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar nafaqat bilimlarni o'rganishga jalb etiladilar, balki ularning muloqotga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi. Shu asosda o'quvchilarda o'z-o'zini namoyon etish, ijod qilish, o'zliklarining yaxshi jihatlarini ko'rsatish ko'nikmalari ham shakllantiriladi. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida esa muloqotning o'rne beqiyos. Muloqot nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, avvalo oilada, mahallada, jamoada, guruhda shakllanib boradi. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofda qilargalarga bilan nizolarga borishi mumkin. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi muomala va muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi ularning o'zaro bir-birlarini tushun masligi ular orasida qiyinchilikni vujudga keltiradi, hamda o'quv-tarbiya jarayonini murakkablashtiradi, ijtimoiy tajribasini ta'lim oluvchilarga yetkazilishini qiyinlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning yangi xarakterdagi shaxsiy tajribani hosil qilishlariga to'sqinlik qiladi. O'qituvchining

o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayoni kasbiy pedagogik faoliyatning mazmuni va muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, shaxslararo muloqotning boshqa shakllariga nisbatan pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti va hamkorligidagi o'ziga xoslik o'quvchilarning rivojlanishlariga xizmat qilishidir. Pedagogik muloqot o'qituvchining shunday muloqotiki, uning yordamida o'quvchilarning istak va hohishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o'quv faoliyatining ijodiy xarakterga ega bo'lishini ta'minlanadi, ularning shaxsiyatini samarali shakllantirish imkoniyatlarini vujudga keltiriladi, o'quv jarayonida qulay hissiy muhit yaratiladi, jamoada ijtimoiy-psixologik jarayonning boshqarilishi ta'minlanadi. Shu tariqa pedagogik muloqot tushunchasi ostida o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari tizimi, o'zaro axborot almashinish jarayoni, ta'lim-tarbiyani optimallashtirish imkoniyatlari, alohida o'quvchilar bilan birgalikda ishlashni tashkil etish imkoniyatlari shakllanadi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi harakatlarini tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi, o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, ularning mustaqil muloqotga kirishishlari uchun qulay sharoitlarning yaratilishiga imkoniyat yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. -Т. Янги аср авлоди, 2006. - 204б.
2. Алимжонова З., Тўлаганов А.Н., Нутқ санъати / – Т., Фан, 2005.
3. Бобоназарова Б. Нутқ санъати. –Т., ЎзДСИ, 2004
4. Каримова В.М. Психология. Т.: Шарқ, 2000. -256 б.

HAMID OLOMJON ASARLARI POETIK LEKSIKASI

Gulnora Imamova Talibovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Hamid Olimjon she'riyatida qo'llangan leksik birliklarning ifodalanishi, leksik-uslubiy jihatlari misollar asosida tahlilga tortilgan. Ular orqali yuzaga chiqayotgan ma'nolar, sinonimlarning qo'llanish o'rniga ko'ra turlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *poetik leksika, leksik- sintaktik vositalar, shakldosh so'z , ma'nodosh so'zlar zid ma'noli so'zlar,*

Ma'lumki, har qanday til o'z rivojlanish tarixiga, turli bosqichlarni bosib o'tadi. Til rivojining mana shu bosqichlarda uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu hol o'z-o'zidan har davr tilining o'ziga xos xususiyatlari, me'yorlarini yuzaga keltiradi. Tilshunoslikda bunday me'yorlar invariant norma deb yuritiladi. Mana shu ma'noda o'zbek tilining lug'at tarkibi va uning lug'aviy fikr boyligi haqida fikr yuritganda bu tilda qo'llanilayotgan so'zlar miqdorini nazarda tutish lozim. Ammo o'zbek tilining lug'at tarkibi va uning lug'aviy boyligini belgilash nihoyatda mushkul va amalda ado etib bo'lmaydigan vazifadir. Chunki o'zbek tilining butun tarixida qo'llangan so'zlar ma'lum manbalarda to'liq ifodalanmagan yoki bu kunga qadar to'liq aks ettirib kelmagan. Buning ustiga yozma manbalarda qo'llangan so'zlar ko'p holda adabiy til leksikasinigina xarakterlaydi. Shu sababli til lug'at tarkibining boyligi haqida fikr yuritganda o'zbek adabiy tili lug'at tarkibining muayyan davrdagi holati ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek tili rivojining turli xil bosqichlarida bu til lug'at tarkibi qaysi holatda bo'lganini belgilash alohida tadqiq va tasniflashni talab qiladi. Ma'lum bir davrda ma'lum bir uslubga xos asarlarning til xususiyatlari tadqiq qilinar ekan davriy va uslubiy me'yorlar Hamid Olimjon asarlari tilining uslubi va uning o'ziga xos muhim xususiyatlarini tahlil qilishni lozim topdik. "O'zbek tilshunosligida nasriy va nazmiy nutq muammolari ma'lum darajada tadqiq qilingan"⁹⁷. Hamid Olimjon asarlarining lug'aviy birliklari lingvo poetikasini tahlil qilar ekanmiz bu o'rinda adibning xilma-xil janrlarda yaratgan asarlari o'zbek xalqining turli davrlardagi turmushini aks ettirib, adabiyotimiz va tilshunosligimiz rivojiga o'zining ulkan hissalarini qo'shgan. Ulkan so'z san'atkori o'zining ajoyib va g'aroyib, she'riy va nasriy asarlari bilan o'zbek xalqining qalbiga o'rnashib qolgan. Buning asosiy sababi adib asarlarining xalqchilligi, yozuvchi g'oyasi mujassamlashgan badiiy mahoratining tashkil topganligi va tilining soddaligi, tasviriy vositalarining ifodaliligi hamda so'zlashuv nutqining soddaligi, tasviriy vositalarining ifodali va so'zlashuv nutqiga yaqinligidir.

⁹⁷Karimov.S O'zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.

H.Olimjon she'r va dostonlarni,avvalo, go'zal va jozibador tili, satrlarning musiqiy jarangdorligi fikr va tuyg'ularning tiniq va aniq tushunarli tarzda ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Adib asarlarini ko'zdan kechirsak unda ikki manbadan oziqlanganligini ko'ramiz: 1.O'z qatlam 2.O'zlashgan qatlam.

O'z qatlam so'zlar Hamid Olimjon asarlarida turkiy so'zlar, umumiy turkiy so'zlar o'zbekcha so'zlardan tarkib topgan. Uni an'anaviy qatlam deb ham atash mumkindir. Har qanday yangilik ham eskilik negizida shakllanadi. Shunday ekan,Hamid Olimjon asarlarining lug'at tarkibi an'anaviy qatlamdan butunlay uzoqlashib ketgan emas. Asrlar davomida ishlatilib kelingan vositalardan voz kechish bilan emas balki ularni taraqqiy qildirish va qayta ishlash bilan adabiy til ravnaqiga katta hissa qo'shgan. An'anaviy qatlamdan butunlay uzoqlashib ketish adib asarlarining badiiy qiymatiga putur yetkazgan bo'lar edi. Shuning uchun adib tili birinchi navbatda an'anaviy adabiy qatlamidan oziqlangan. Hamid Olimjon asarlari o'z qatlamga mansub quyidagi ma'lum guruhlar mavjudligini kuzatadi.

1.Inson tushunchasi bilan bog'liq so'zlar: el, elat, turmush, kishi, odam, inson kabilar:

**“Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q;
Men elimning yuragida yashayman!
Erk deganning tilagida yashayman!”**⁹⁸[18-bet]

Dunyo go'zal, ne uchunkim unda,
Sening bilan biz boramiz doim.
Unda **odam** qolmagan kunda,
Boshlanajak qiyomat-qoyim.[22-bet]
Go'zal etmish dunyoni **odam**,
Odam bilan go'zaldir ul ham.”⁹⁹[65]

“Hamid Olimjon poeziyazsining xislatlari ko'p: jo'shqin lirizmga boyligi, xalqona soddaligi, realizmning chuqurligi, ehtirosning zo'rliigi ... Lekin ularning yetakchisi- shodlik va baxtga to'lib yashash va bu tuyg'ularni ko'pning qalbiga singdirishdir”¹⁰⁰

2.Kasb hunar nomlari:

“Kasb hunar leksikasi –ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san'at va hakoza sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir”¹⁰¹

Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi.
Kuychilari o'qiydi yalla.
Juvonlari aytadi alla.
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.[43-bet]

⁹⁸ Hamid Olimjon “Muqanna” Toshkent- 1992, 64-bet.

⁹⁹ Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet.

¹⁰⁰ Hotam Umirov Vatan betakror, kuychisi betakror. So'z xiyoboni. Toshkent-2020. 155-bet.

¹⁰¹ H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005. 2001-bet.

Agar shunda ham qalbim
Yumshamasdan qolsa jim,
Uzib olib otarman,
Qassoblarga sotarman.[27-bet]
Yumshoqqina ko'k parda yopilgan
Tog'lar, ana... rohatgina uxlar.

Cho'pon ila qo'y –turnaqatorlar,
KezmaKda uning bag'rida tunlar.[12-bet]

3. Daraxt va o'simlik va ularning mahsulotlari nomlari: o'rik, olma, archa, novda, gul, arpa, bug'doy, tut, tol, chechak, shox, g'uncha, sunbul, lola va boshqlar.

Derazamning oldida bir tup,
O'rik oppoq bo'lib gulladi...
Novdalarni bezab **g'unchalar**,
Tongda aytti hayot otini.
Va shabboda qurg'ur ilk sahar,
Olib ketdi **gulning** totini. [65-bet]

Anor so'zlar va Zaynab qalbi
Tol bargiday dir-dir qaltirar.[194-bet]

Qora kokillaringdan atru **sunbullar** hijolatda,
Olovdek lablaringdan otashin **gullar** xijolatda.[178]

Gul kiprigi oppoq
Bir duru sadafdek.

Lolalar qizardi
Bir lahza olovdek.[13-bet]

Bog'im boru, gulzorimda **gulim** ko'p
Har yoqda **gul**, **shoxlarda** bulbulim ko'p.

Shoir asarlarining asosiy qismini tashkil etgan umumo'zbek so'zlardan mohironalik bilan foydalangan. Ma'lum jamoa a'zolari uchun tushunarli bo'lgan va umumxalq tilida keng iste'mol qilinadigan lug'at tarkibining faol qatlamiga kiruvchi ishlab chiqarishning turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan asl o'zbekcha so'zlar so'z san'atkorlarining ijodida, asarlarida o'rinli foydalanilgan. Ular poetik leksikamizning yanada sayqallanishida o'zining muhim ahamiyatini kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov.S O'zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.
2. Hamid Olimjon "Muqanna" Toshkent- 1992, 64-bet.
3. Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet.
4. Hotam Umirov Vatan betakror, kuychisi betakror. So'z xiyoboni. Toshkent-2020. 155-bet.
5. H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005. 2001-bet.


ВЕЙВЛЕТ-МЕТОД В ОБРАБОТКЕ ЦВЕТНЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ

Абдумаджидов Достонбек Ботир угли

* Магистр, Факультет телевизионные технологии,
Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хоразми, Узбекистан

Аннотация: В этой статье основное внимание будет уделено вейвлетам, основанным на обработке изображений. В этой статье основное внимание уделяется применению вейвлета в области обработки цветных изображений и анализу того, как реализуется вейвлет для применения к сжатию цветного изображения в процессе сжатия цветного изображения, а также рассматривается качество изображения реконструированного изображения и его результаты. Метод сжатия изображения на основе вейвлета значительно улучшает визуальное качество.

Ключевые слова : Вейвлет, изображения, CR, MSE, PSNR



Введение . – Обработка изображений — это изучение любого алгоритма, который принимает изображение в качестве входных данных и возвращает изображение в качестве выходных данных. Методы обработки изображений часто используются для улучшения визуального качества синтезированных изображений. В науке об обработке изображений обработка изображений — это любая форма обработки сигналов, для которой входными данными является изображение, например фотография или видеокادر; результатом обработки изображения может быть либо изображение, либо набор характеристик или параметров, связанных с изображением. Обработка изображений — это метод преобразования изображения в цифровую форму и выполнения над ним некоторых операций с целью получения улучшенного изображения или извлечения из него некоторой полезной информации. Изображения содержат большие объемы информации, для которой требуется много

места для хранения, большая ширина полосы пропускания и время передачи. Поэтому выгодно сжимать изображение, сохраняя только существенную информацию, необходимую для восстановления изображения. Сжатие изображений — важная область в области цифровой обработки изображений; он определяется как минимизация размера графического файла в байтах без ухудшения качества изображения до неприемлемого уровня. Целью сжатия изображения является уменьшение ненужности и избыточности данных изображения, чтобы можно было хранить или передавать данные в эффективных схемах сжатия изображений, обычно классифицируемых как без потерь и с потерями. Алгоритм сжатия изображения направлен на удаление избыточных данных таким образом, чтобы выполнить реконструкцию изображения. Методы, основанные на вейвлетах, являются последней разработкой в области сжатия изображений, которая предлагает возможности с несколькими разрешениями, что приводит к превосходному сжатию энергии с высококачественными реконструированными изображениями при высокой степени сжатия. Вейвлет — это математический инструмент для иерархической декомпозиции функции. Сжатие изображений с использованием вейвлет-преобразований — это мощный метод, предпочитаемый учеными для получения сжатых изображений с более высокими значениями PSNR. В этой статье приводится набор описаний обработки изображений и реконструкции изображения на основе вейвлетов, которые преобразуются в сгенерированное изображение, иллюстрирующее идеи и алгоритмы, а также с результирующими сжатыми и реконструированными изображениями. В этой статье организована в следующем: Раздел II основные понятия обработки изображений. Краткое введение в вейвлет и применение вейвлета в обработке изображений описано в разделе V. Обсудите концепцию сжатия изображения и введение цветного изображения в обработку изображений в разделах III и IV. Целью этой статьи является сжатие цветного изображения с помощью вейвлет-методов с разным уровнем разложения, и методы применяются к цветным изображениям разного размера и реконструируют качество изображения, измеренное объективно, с использованием отношения пикового сигнала к шуму и среднеквадратичной ошибки.

Материалы . Обработка изображения означает изменение характера изображения для того, чтобы:

I. Улучшить его графическую информацию для интерпретации человеком.

II. Сделать его более подходящим для автономного машинного восприятия.

Область цифровой обработки изображений относится к обработке цифрового изображения с помощью цифрового компьютера.

Примитивные операции, такие как обработка изображения для уменьшения шума, повышения контрастности и резкости изображения. Низкоуровневый процесс характеризуется тем, что оба его входа включают в себя такие задачи, как сегментация, описание этих объектов для приведения их к виду, пригодному для

компьютерной обработки, и распознавание отдельных объектов. тот факт, что на входе обычно изображено изображение, а на выходе — атрибуты. Наконец, обработка более высокого уровня включает в себя осмысление ансамбля распознанных объектов, как при анализе изображения.

Методы . Сначала компьютер берет входное изображение и вейвлет-преобразование выполняется с цифровым цветным изображением, пороговое значение выполняется для цифрового изображения, поэтому сжатие изображения выполняется на компьютере. Затем выполняется сжатая реконструкция вейвлет-преобразования изображения, затем над изображением выполняется обратное вейвлет-преобразование, таким образом изображение реконструируется.

Wavedec2 выполняет декомпозицию изображения для заданного желаемого уровня (N) с заданными желаемыми вейвлетами (wname).

wavedec — это функция двумерного вейвлет-анализа.

[C, S] = wavedec2(X, N, wname) возвращает вейвлет-разложение матрицы X на уровне N, используя строку разложения 'wname'. Бухгалтерская матрица S. Здесь изображение берется как матрица X, и после сжатия изображения, затем реконструируют изображение с помощью обратного вейвлет-преобразования. Поскольку вся цель этой статьи состояла в том, чтобы сравнить показатели качества изображения (PSNR) и сжатия (CR) с использованием разных вейвлетов, здесь мы пробуем идеальную реконструкцию после обработки исходного изображения. Весь процесс сжатия изображения на основе вейвлета выполняется в программе MATLAB.

% Введите изображение

```
Xin=imread('e:\Users\Ritesh\Desktop\Lenna.jpg');
```

```
[r c p] = размер (Xin); disp (размер (Xin));
```

```
%Изменение размера изображения до квадратной формы, если (r<=c) Xin =  
imresize(Xin,[r c]);
```

```
X1=Xin(1:r, 1:c, 1:1);
```

```
X2=Xin(1:r,1:c,2:2);
```

```
X3=Xin(1:r,1:c,3:3);
```

```
иначе Xin = imresize(Xin,[c r]);
```

```
X1=Xin(1:c,1:r,1:1);
```

```
X2=Xin(1:c,1:r,2:2);
```


```
X3=Xin(1:c,1:r,3:3);
```

```
конец X(:,,1) = X1;
```

```
X(:,,2) = X2;
```


```
X(:,,3) = X3;
```

```
Отображение исходного изображения; NbColors = 255; карта = серый (NbColors);  
изображение (X); цветовая карта (карта); заголовок («Исходное изображение»);  
цветная полоса; wavelet=input('Выберите вейвлет','s');
```

Результаты. Стандартными мерами искажения являются среднеквадратическая ошибка (MSE) и пиковое отношение сигнал-шум (PSNR) между исходной и сжатой версиями изображения. Большее значение PSNR обеспечивает лучшее качество изображения, обычно выражаемое в децибелах (дБ). PSNR определяется следующим образом: Низкое значение MSE означает меньшую ошибку, и, как видно из обратной зависимости между MSE и PSNR. X — исходное изображение, аппроксимация распакованного изображения, а m , n — размеры изображения. Степень сжатия. Степень сжатия является одним из количественных параметров для измерения производительности метода сжатия. Коэффициент сжатия определяется как — Коэффициент сжатия (CR) = Коэффициент сжатия используется для измерения способности сжатия данных изображения путем сравнения размера исходного изображения со сжатым изображением.

В этой статье предложенные методы применяются для трех разных разрешений цветных изображений, а именно IMF (1200×1600), LENA (512×512) и SOMI (450×650), как показано на рисунке (6, 5,4). В этом эксперименте предложенный метод применяется к этим цветным изображениям, здесь концентрация заключается в проверке уровня разложения с помощью различных вейвлетов, таких как хаар, дб, симлет, койфлет, биортогональный. Алгоритм реализован в матлабе. В данной статье рассматривается предложенный метод сжатия и восстановления цветных изображений методом вейвлет-преобразования. Результаты представлены в таблице результатов. Качество изображения реконструированных изображений 1, 2, 3 измеряется значением PSNR на разных уровнях декомпозиции.



Вывод. В этой статье обработка изображений на основе вейвлетов преобразует и сравнивает качество изображения в соответствии с вейвлетами с разным уровнем декомпозиции. Этот алгоритм успешно реконструирует цветные изображения после сжатия изображения, а также обеспечивает наилучшее качество изображения. Значительные улучшения в общем процессе сжатия изображений, резкое увеличение PSNR реконструированных изображений, но с минимальной степенью сжатия. В дальнейшем объем представленной работы можно резюмировать следующим образом: Предложен алгоритм дальнейшего улучшения высокой степени сжатия. Этот алгоритм может быть использован для любого другого приложения для обработки изображений для улучшения качества изображения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Rafael.C.Gonzal & Richard E-Woods, «Цифровая обработка изображений», 2019 г.
2. Rafael.C.Gonzalez, Richard E.Woods & Steven L.Eddins, «Цифровая обработка изображений с использованием Matlab».
3. Ке Шен и Эдвард Дж. Делп, «Сжатие цветных изображений с использованием встроенного масштабируемого подхода», Лаборатория обработки видео и изображений, Школа, Индиана, 47907-1285, США.
4. Eic.,Stollnitz, Tony D.Derose, David H.Salesin, «Вейвлеты для компьютерной графики: учебник для начинающих»
5. Anil.K.Jain, Канифорнийский университет, Девис, «Основы цифровой обработки изображений», 2020
6. Г. Садашиваппа и К. В. С. АнандаБаб, «Оценка вейвлет-фильтров для сжатия изображений», Всемирная академия наук, инженерии и технологий, том: 3, 29 марта 2019 г.
7. Говард Л. Резнико, Раймонд О. Уэлс и Младший, Спрингер, «Вейвлет-анализ», 2018 г.
8. Дэвид Саломан «Сжатие данных: полный справочник», третье издание, 2018 г., Спрингер.
9. Myung-Sin Song, «Wavelet Image Compression», 2020.

**TARKIBIDA NOMA'LUMNING BUTUN QISMI QATNASHGAN TENGLAMALARNI YECHISH
USULLARI**

Muhammademinov Alijon Azizjon o'g'li

Andijon davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Matematika o'qituvchisi

Ismoiljon Hayitaliyev

Annotatsiya: *Bu maqolada tarkibida noma'lumning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni yechish usullarini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.*

Kalit so'zlar: *oraliqlar, belgilash kiritish, butun qism, tenglama, noma'lum, usul, tur, yechim.*

Butun va kasr qism qatnashgan tenglamalarni bir necha turga bo'lib o'rganganimiz ma'qul.

1-tur: $[f(x)]=a$ ko'rinishdagi tenglamalar.

Noma'lum sonning butun qismi belgisi ostida qatnashgan tenglamalardan $[f(x)]=a$ ko'rinish ko'p uchraydi. Bizga ma'lumki har qanday kasr sonning butun qismi $[a]$ ko'rinishda bo'ladi va u $[a;a+1)$ oraliqda bo'ladi. Demak shu holatdan kelib chiqib tenglamani yechib ko'ramiz:

$[f(x)]=a$ tenglamani bu ko'rinishga olib o'tamiz $a \leq f(x) < a+1$ va bundan ko'rinib turibdiki bizga berilgan tenglamaning yechimi qandaydir oraliq ko'rinishida bo'lar ekan.

1- misol. $[x]=1$ tenglamani yeching?

Masalani yechish uchun oraliqni aniqlab olishimiz kerak. Yani noma'lumning butun qismi 1 ga teng bo'lish bizga uning $x < 2$ ekanligini beradi. Lekin eng kichik qiymati 1 ekanini ko'rish mumkin. 1 va 2 ning orasidagi barcha qiymatlar tenglamani qanoatlantiradi.

Xossaga tayangan holatda: $1 \leq x < 2$;

Yuqoridagi fikrlardan shunday hulosa qilishimiz mumkinki x ning tashkil qiluvchi qiymatlari $[1;2)$ oraliqda mavjud.

Javob: $x \in [1;2)$

2- misol. $[x^2-5x+6]=1$ tenglamani yeching?

Demak yuqoridagi xossadan foydalanib $1 \leq x^2-5x+6 < 2$ holatga olib kelamiz. Yani berilyotgan tenglama eng kichik qiymatida 1 ga teng bo'la oladi. Lekin 2 ga erisha olmaydi. Chunki 2 ning butun qismi 2 ga teng bo'lib qoladi. Demak biz oladigan oraliq $[1;2)$ ni qanoatlantiradi. Oraliq olingandan keyin qo'shtengsizlik ko'rinishiga keltirilib uni sistema yordamida yechamiz. Umumiy yechim olish uchun sistemadan foydalanamiz. Bizga ma'lumki sistema umumiylik degani. Qo'shtengsizlik qoidasiga ko'ra tengsizliklar sistemasi tuzilib yechimlar umumlashtiriladi:

$$2 - \begin{cases} 5 + 6 \geq 1 \end{cases}$$

$$2 - \begin{cases} 5 + 6 < 2 \end{cases} \text{ yuqoridagi qo'shtengsizlikni sistema ko'rinishiga olib}$$

o'rdik. Endi bu sistemani yechib sistema qoidasiga ko'ra javoblarni umumlashtiramiz.

$$a) x^2 - 5x + 5 \geq 0 \text{ bundan } x \leq \frac{5-\sqrt{5}}{2} \text{ va } x \geq \frac{5+\sqrt{5}}{2};$$

$$b) x^2 - 5x + 4 < 0 \text{ bundan } (-4)(-1) < 0 \text{ va } x \in (1;4)$$

Shunday qilib umumiylik:

$$\left\{ \begin{array}{l} x \leq \frac{5-\sqrt{5}}{2} \text{ va } x \geq \frac{5+\sqrt{5}}{2} \\ x < 4; \quad x > 1; \end{array} \right.$$

$$\text{Javob: } \left(1; \frac{5-\sqrt{5}}{2}\right) \cup \left(\frac{5+\sqrt{5}}{2}; 4\right)$$

Istalgan noma'lumning butun qismi qatnashgan tenglamalarni aynan shu usul bilan yechish maqsadga muvofiq bo'ladi Trigonometrik yoki ko'rsatgichli tenglamami buni ahamiyati yo'q. Men shu o'rinda meni matematikani o'rganishimga, matematikagamuhabbat uyg'otgan ustozim Ismoiljon Hayitaliyevga kattadan katta rahmatlar aytaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoiljon Hayitaliyev- Butun va kasr sonlar(qo'lyozma),2020.
2. Mihaly Bencze - Tengsizliklar(qo'lyozma), 1982.
3. "Oktogon" matematik jurnali to'plami(1993-2006).

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Axmatova Dilobar Otamurod qizi

Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti 4-kurs kursanti

Annotatsiya: *Maqolada Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun faktorlar, Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy va eksport salohiyati, davlatlarning o'zaro o'rnatgan savdo aloqalari va bu davlatlarning iqtisodiy hamkorligidagi samaradorlik haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, tashq savdo aylanmasi, iqtisodiy hamkorlik, mintaqaviy hamkorlik, iqtisodiy munosabatlar, eksport salohiyati, transport logistikasi, savdo aloqalari.*

Аннотация: *В статье описаны факторы развития экономического сотрудничества между странами Центральной Азии, общий и экспортный потенциал стран Центральной Азии, торговые отношения между странами и эффективность экономического сотрудничества этих стран.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, внешнеторговый оборот, экономическое сотрудничество, региональное сотрудничество, экономические отношения, экспортный потенциал, транспортная логистика, торговые отношения.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon o'z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik, xavfsizlikni mustahkamlash va chegaradosh davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarni yaxshilashga alohida e'tibor qaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezidentligining dastlabki kunlaridanoq **“O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish”** tamoyilini amalda tatbiq etilmoqda. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnihilik asosidagi aloqalar mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi va mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo'laklarini izchil shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.¹⁰²

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunga qadar dunyo bo'ylab 140ga yaqin davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, ular o'rtasida aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik orqali ancha yuqoriroq samaradorlikka erishish mumkin.

Tahlil va natijalar

Markaziy Osiyoning O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida qaralishiga turtki berayotgan, mintaq davlatlariga xos bo'lgan mushtarak omillardan quyidagilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mintaq davlatlarining jo'g'rofiy joylashuvi va xususan, O'zbekistonning mintaq markazidan o'rin olgani va ularning barchasi bilan chegaradoshligi;

¹⁰² Sh.Mirziyoyevning 25.12.2017 dagi Oliy Majlisga murojaatnomasidan

- milliy, madaniy, diniy va ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarining o'xshash va yaqinligi;
- umumiy transport va energetika kommunikatsiyalarining mavjudligi;
- mintaqadagi suv resurslarining o'zaro oqilona taqsimoti;
- mintaqada ekologik, xavfsizlik va barqarorlik masalalarining umumiyliigi.¹⁰³

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish har tomonlama ijobiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo davlatlari asrlar davomida chambarchas hayot kechirishgan. Azaldan bu davlatlar o'rtasida iqtisodiy, savdo aloqalarini keng o'rnatilgan.

2021-yil ma'lumotlariga ko'ra Qozog'iston Markaziy Osiyodagi maydoni, YaIM ko'pligi va tashqi savdo aylanmasi hajmi jihatidan birinchi o'rinni egallagan. Undan keyingi o'rinlarda O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston turadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyoda yetakchi Qozog'iston iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat hisoblanadi. Qozog'istonning yetakchi davlat bo'lganligiga sabab uning investitsiya jozibadorligining yuqoriligi, ko'proq tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarishi va tabiiy xomashyo boyliklari ko'pligi hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda O'zbekiston turibdi. Buning asosiy sababi, O'zbekiston o'zining tabiiy boyliklari (oltin, paxta, gaz) nisbatan ko'pligi, ishga loyiq qatlamning soni yuqoriligi hisoblanadi. Boshqa davlatlar ham o'zining tabiiy boyliklari va boshqa yana xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining eksport salohiyati haqida gapiradigan bo'lsak:

Qozog'istonning asosiy eksport tovarlari: neft va neft mahsulotlari, mis va mis katodlari, ferroqotishmalar, tabiiy gaz, uran, temir rudalari va konsentratlar, mis rudalari va konsentratlar, bug'doy, po'lat.

Qirg'iziston asosan qimmatbaho metallar rudalari va konsentratlari, dukkakli sabzavotlar, bitumli jinslardan olingan neft va neft mahsulotlari, termik sayqallangan shisha, paxta tolasi, plastmassadan tayyorlangan tovarlar, avtotransport vositalarining ehtiyot qismlari, mis va uning chiqindilari eksport qiladi.

Tojikiston: alyuminiy mahsulotlar, mineral va metall rudalar, elektroenergiya, paxta xom-ashyosi, quritilgan mevalar, sabzavotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, elektroenergetika;

Turkmaniston: tabiiy gaz, neft bitumi, moylash moylari, paxtadan ip-kalava, elektroenergiya, oltingugurt, yoqilg'i energetika;

O'zbekiston: sanoat mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, meva-sabzavot, rangli metallar (oltin) , tabiiy gaz, avtomobillar, elektrotexnika tovarlari, kimyo mahsulotlari (etilen polimerlari, mineral o'g'itlar), oziq-ovqat mahsulotlari (un), qurilish materiallari, paxta tolasi, uran rudasi, . ***Iqtisodiyotning rivojlangan sohasi*** - og'ir va yengil sanoati, yoqilg'i-energetika, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish.

Mutaxassislar O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligining yangi bosqichi 2016-yildan boshlandi deb baholaydi.


¹⁰³ <https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1451>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi Ruslan Abaturov ta'kidlashicha:

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 5 yil ichida 2,6 barobarga, 2016-yildagi 2,5 milliard dollardan 2021-yilda 6,3 milliard dollarga o'sdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti 2 barobarga — 1,3 milliard dollardan 2,7 milliard dollarga, importi esa 3,2 barobarga oshdi. 1,2 milliard dollar. 3,7 milliard dollargacha.


2016-2021-yillar mobaynida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan tashqi savdosining umumiy hajmidan 1,7 barobar ko'proq o'sdi, xususan, eksport 1,4 barobar, import 2 barobar oshdi. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 10,2 foizdan 15,1 foizga, eksportda 10,8 foizdan 16 foizga, importda esa 9,6 foizdan 14,5 foizga o'sdi.

Bundan tashqari, 2021-yil Markaziy Osiyoning har bir davlati bilan alohida savdo hajmi bo'yicha rekord yil bo'ldi. 5 yil davomida barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi ko'paydi: Qozog'iston bilan — 2 barobar, 3,9 milliard dollargacha, Qirg'iziston bilan — 5,7 barobar, 952 million dollargacha, Tojikiston bilan — 3 barobar, dollargacha. 605 million, Turkmaniston — 4 baravarga, 882 million dollargacha.



1-rasm. O'zbekistonning MO davlatlari bilan TSA dinamikasi (mln.AQSh dollarida)

Qozog'iston 2021-yil oxirigacha O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi asosiy savdo sherigi bo'lib qolmoqda, biroq tahlil qilinayotgan davrda uning ulushining qisqarish tendentsiyasi kuzatildi. Agar 2016-yilda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo hajmining 77 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2021-yilda uning ulushi 62 foizga qisqardi. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlar bilan tovar ayirboshlash salmog'i ortdi. Qirg'iziston ulushi 2016 yildagi 7 foizdan 2021 yilda 15 foizga, Tojikiston 8 foizdan 9,5 foizga, Turkmaniston 8,5 foizdan 14 foizga oshgan.



2-rasm. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo hajmining davlatlar kesimidagi ulushi.

Shu bilan birga, tarkibiy jihatdan O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida eksportini sezilarli darajada diversifikatsiya qildi. Agar 2016-yilda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksportining 70 foizdan ortig‘i Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2021-yil oxiriga kelib Qozog‘istonga 44 foiz eksport yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, Qirg‘izistonga eksport ulushi sezilarli darajada oshdi — 2016 yildagi 9,3 foizdan 2021 yilda 30 foizgacha oshgan. Shunga ko‘ra, tahlil qilinayotgan davrda Tojikistonning eksportdagi ulushi 12,6 foizdan 19 foizga, Turkmanistonning ulushi 6,1% dan 7,2% gacha yuqorilgan.

104

Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev „Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategic istiqbollari va foydalanilmagan imkoniyatlar“ mavzusidagi xalqaro konferensiyasi ishtirokchilari bildirgan fikriga ko‘ra: „...Eng yirik xalqaro bozorlarni o‘zaro bog‘lab turgan Markaziy Osiyoning muhim geostrategik joylashuvini hisobga olgan holda, mintaqamizning xalqaro transport yo‘laklari tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish maqsadida mamlakatlarimiz sa‘y-harakatlarini birlashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniga ega bo‘lmagan mintaqa davlatlarining transport-tranzit xarajatlari sezilarli darajada katta bo‘lib, ular eksport qilinayotgan mahsulot qiymatining 70-80 foizigacha yetmoqda...

...Mamlakatlarimiz oldida tranzit salohiyatini yanada rivojlantirish va milliy iqtisodiyotlar tarkibida transport sohasi ulushini oshirish vazifasi turibdi. Transport infratuzilmasiga zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi istiqbolli transport yo‘laklarini shakllantirish mazkur vazifani amaliy jihatdan hal etishga yordam beradi.

¹⁰⁴ <https://www.eureporter.co/world/uzbekistan/2022/06/20/uzbekistan-in-trade-with-central-asia/>

BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarining kooperatsiya aloqalarini samarali yo'lga qo'yish natijasida mintaqa yalpi ichki mahsuloti o'n yilda kamida ikki barobar ko'payishi mumkin..."¹⁰⁵

Yuqoridagi muhtaram Prezidentimizning fikrlaridan hali transport logistikasi va tranzit sohasida qilinadigan ishlar yakuniga yetmaganligini tushunishimiz mumkin. O'zbekistonning geografik jihatdan Markaziy Osiyo markazida joylashuvi ham mintaqadagi savdo-sotiq doirasida tovarlarni qo'shni mamlakatlar bozorlariga qisqa yo'nalishlar bilan yetkazib berish va transport xarajatlarini minimallashtirishga yo'l ochadi. Mintaqaviy savdoni rivojlantirish, investitsiya va mehnat resurslarining davlatlararo hamkorligi va mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari milliy iqtisodiyotlar doirasidagi raqobat muhitini mustahkamlashi va shu orqali iqtisodiy rivojlanish uchun qo'shimcha turtki yaratishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan nazariya, tahlil va natijalardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish har tomonlama samarali va mintaqadagi barcha davlatlarning iqtisodiy o'sishi uchun o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. 2016-yildan buyon Markaziy Osiyo davlatlari orasida barcha sohalarda, xususan, iqtisodiy sohada ham katta miqyosda hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Lekin aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'rnatilishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlar, xususan bojxona tartib-taomillaridan samarali nazorat to'liq foylanilmayabdi. Yurtboshimizning har yilgi Oliy majlisga murojaatnomalarida, shuningdek, taraqqiyot strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar berilishi bu jabhaning hali qilinadigan ishlar ko'pligidan dalolat beradi.

1. Bojxona sohasida ma'lum ma'noda hamkorliklar yo'lga qo'yilgan lekin hozirgi globallashtirish va axborot-texnologiyalari zamonida buni yetarli deb bo'lmaydi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston bilan „EIS Monitoring“ AAT da chegaradan olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari haqida real ma'lumotlar almashinish tizimi yo'lga qo'yilgan. Qo'shni davlat taqdim etgan bojxona yukdeklaratsiyasining ayrim ma'lumotlari O'zbekistonga taqdim etiladi, lekin qo'shni davlat tadbirkorining O'zbekistonga taqdim etgandagi import oqimidagi bojxona yuk deklaratsiyasi va qo'shni davlat O'zbekistonga taqdim etgan ma'lumotlari avtomatik solishtirilmaydi, natijada bugungi kunda tovar almashtirib qo'yish holatlari yoki tovar miqdori, narxini o'zgartirib ko'rsatish holatlari uchrab turibdi. Agar bu ma'lumotlar avtomatik tizim tomonidan solishtirilib, agar salbiy natija bo'lganda bojxona organlarining

¹⁰⁵ <https://xs.uz/uz/post/markazij-osiyo-khalqaro-transport-jolaklari-tizimida-strategik-istiqbollari-va-fojdalaniilmagan-imkoniyatlar-khalqaro-konferentsiyasi-ishtirokchilariga>

xavfni boshqarish tizimida qizil yo'lakka yo'naltirib tovar va uning hujjatlari nazoratga olinsa bu yuqoridagi salbiy oqibatlarining salmog'i kamayadi.

2. Bojxona organlariga bojxona qiymatini aniqlash uchun deklarant tomonidan taqdim etiladigan hujjatlardan biri transport xarajatlari to'g'risidagi hujjat hisoblanadi. Bojxona qiymatini aniqlashda tovarni tashish uchun transport xarajatlarini aniqlashda aynan shu tadbirkor taqdim etgan transport xarajatlari to'g'risidagi hujjatlar asos bo'ladi va amaliyotda ba'zida bunday hujjatlarning qalbakilashtirilishi va natijada bojxona qiymatining noto'g'ri aniqlanishini kuzatishimiz mumkin. Agar dastlab Markaziy Osiyodan o'tgan barcha transport yo'llari va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatgan davlatlarning barcha transport yo'llarida tovarlar tashilganda sarflanadigan xarajatlar haqida bojxona organlarida muqobil manbalar va yetarlicha baza bo'lsa, transport xarajatlari haqida ma'lumotlar noto'g'ri taqdim etilishi va hujjatbozlikdan oz bo'lsada qochishning bir imkoniyati paydo bo'ladi.

3. Markaziy Osiyo davlatlari bir-biriga chegaradosh davlatlar bo'lib, agar davlat chegaralari yaqinida savdo zonalari yaratildigan bo'lsa, bu davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi va transport va tashish xarajatlarining sezilarli darjada qisqarishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlash va hali foydalanilmagan imkoniyatlardan foydalanish mintaqaning barcha mamlakatlari iqtisodiyoti uchun samarali natijasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyevning 25.12.2017 dagi Oliy Majlisga murojaatnomasi
2. Шишков, Ю.В. Интеграционные процессы на пороге XXI века. Москва-2001
3. <https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1451>
4. <https://www.eureporter.co/world/uzbekistan/2022/06/20/uzbekistan-in-trade-with-central-asia/>
5. <https://xs.uz/uz/post/markazij-osiyo-khalqaro-transport-jolaklari-tizimida-strategik-istiqbollari-va-fojdanilmagan-imkoniyatlar-khalqaro-konferentsiyasi-ishtirokchilariga>
6. www.stat.uz ma'lumotlari
7. www.trademap.org ma'lumotlari
8. <https://databank.worldbank.org> ma'lumotlari

MTM TIZIMI BOSHQARUV FAOLIYATIDA RAHBAR SHAXSINING O`ZIGA XOS IJTIMOIY, INDIVIDUAL – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.Bekmuradova

*Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM “Pedagogika, psixologiya
va ta’lim menejmenti” kafedrasida o’qituvchisi*

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanib borishi zamon talabiga mos ta’lim-tarbiyaga qaratilgandir. Pedagog rahbarlarning o’z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda, ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ijtimoiy tajribalarga asosan ish olib borish lozimdir. O’z mustaqil taraqqiyot yo’lidan borayotgan Respublikamiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash - shu kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri har bir rahbarning ma’naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog’liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o’zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to’la singdirishni taqozo etadi. Insonlar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o’ziga xos va har bir millat psixologiyasiga mos holda shakllantirishdir. Ushbu o’quv qo’llanma jamiyatning yangilanishi davrida rahbar ma’naviyati va ruhiyatida ro’y berayotgan o’zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi. MTM jamoasini boshqarishda muomala va muloqotning psixologik asoslarini bilish muassasa jamoasi xodimlarining o’zaro ijtimoiy munosabatlari ijobiy olib borilishiga va ta’lim-tarbiyaning samaradorligining oshishiga ta’sir etadi.

MTM rahbari o’z kasbining bilimdoni bo’lish uchun nafaqat pedagogikani, balki shaxslarning ruhiy holati va kechinmalarini, muloqotning ruhiy ta’siri va munosabatlarning psixologik tomonlarini ham yaxshi bilishi kerak bo’ladi. Bu esa har bir rahbardan psixologiya ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo’lish va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bu haqda O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov: «Psixologiya fani biz uchun eng zarur sohalardan biri. Psixologiyani o’rganish - hayotni, insonni o’rganish degani. Kerak bo’lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo’lib, odamlarga ko’rsatma bermiqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o’rganish kerak»¹⁰⁶, - degan edi.

Respublikamizda olib boriladigan islohotlarning asosiy maqsadi shakllanib kelayotgan yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g’oya asoslarini singdirish,

¹⁰⁶ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. *T. 2005.-189-b.T. 13. -T., 2005. - 189-6.*

vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllantirish, rahbar shaxsi talablariga mos keladigan muloqot madaniyatini o'zlashtirishni ta'minlash kabi masalalar qo'yiladi. Buning uchun esa, MTM rahbar shaxsi faoliyatiga muhim talablar qo'yiladi va shu talablar asosida MTM jamoasini boshqarish muassasa jamoasini to'g'ri psixologik yo'naltirish boshqaruv faoliyatining dolzarbligini belgilaydi. MTMdagi pedagogik jarayonga ilmiy yondashgan holda rahbarlik qilish pedagogik jamoa faoliyatining qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiradigan boshqaruv metodlari muammolarini yanada dolzarblashtiradi.

MTM rahbari vazifasini bajaruvchi har bir shaxs o'zaro munosabat va muomala, intizom, madaniy xulq tarbiyasini jamiyat talablari darajasigacha rivojlantirishga faol harakat qiladi. Bu esa shaxsning o'z intizomi, muomala madaniyati, xulq ko'nikmasi ustida doimiy ravishda ishlashga olib keladi.

Insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, insoniy munosabatlar, shaxslararo ijtimoiy munosabatlar masalasi ham shu darajada ko'hna va hamisha dolzarbdir. Inson tafakkuri va uning aql idrokiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shuki, uning taraqqiyoti eng avvalo, kishilik jamiyatidagi o'zaro munosabatlarni qay darajada mukammalligiga hamda insoniylikiga bog'liq. "Insoniyatning eng qadimiy faoliyat turlaridan biri - bola tarbiyasi o'zining ko'p asrlik rivojlanish tarixi davomida oddiy maishiy jarayondan ilmiy-ijodiy izlanishlar natijalariga asoslangan tizimli, uzaro uyg'un munosabatlar jarayoniga aylandi."²

Bola rivojlanishining eng muhim davri hisoblangan maktabgacha ta'lim bosqichida dastlabki axloqiy tarbiyani, kattalar va tengdoshlari bilan muomala tajribasini egallay boshlaydi. Turli o'yinlar davomida o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qiladi, jamoaviy mehnat va tadbirlarda bilish faoliyatining oddiy ko'nikmalarini egallab boradi.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni boshqarish yuzasidan o'tkazilayotgan ko'plab ilmiy izlanishlar boshqaruv modelini o'zgartirib, takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Pedagogik jarayonni boshqarish modeli asosida olib boriladigan rahbarlik tarbiyachilar jamoasi, ota-onalar va jamoatchilikni tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos ravishda rivojlantirishni ta'minlovchi yagona ta'lim makonida birlashtiradi.

Bu modelning tayanch nuqtasi shundaki, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda MTM rahbari o'zining boshqaruv faoliyatiga jo'shqin, ijobiy va ijodiy o'zgarishlarni joriy etishi talab qilinadi.

MTMdagi boshqaruvga nisbatan yondashuvni o'zgartirishda, ya'ni pedagogik jarayonga rahbarlik qilishni zamonaviylashtirishda quyidagi o'ziga xosliklarni birinchi navbatda inobatga olish kerak bo'ladi:

²Sh.M.Mirziyoyev. 2017 yil 7 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi ma'ruzasi. T. . : "O'zbekiston" -2018 y.

9. ta'lim va tarbiya bosqichida pedagogik jarayonning o'ziga xosligi;

10. uzluksiz ta'limning maktabgacha va boshlang'ach ta'lim bosqichlarining muvofiqlashuvi va uzviy bog'liqligi;

MTM faoliyatining ijtimoiy mas'uliyati keng qamrovliligi kattalarning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga nisbatan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan munosabati hamda hamkorligi.

Ta'lim muassasasi jamoasi esa, ana shu talablardan kelib chiqib, MTM rivojlanishini ta'minlovchi doimiy yangilanuvchanlikka moyil bo'lishi, buning uchun jamoada etarli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Demak, pedagogik jarayonni tashkil etishga o'zaro aloqador bo'lgan qator tarkibiy qismlardan tashkil topgan, o'ziga xos murakkab tizim sifatida qaralishi lozim. Masalan, maqsad, vazifalar, vositalar, boshqaruv shakli va uslublari, rahbarning o'z faoliyatini belgilovchi prinsiplari va funksiyasi, boshqaruv ob'ekti kabilar nazarda tutilayotgan tizimning alohida elementlari hisoblanadi.

“Rahbar faoliyatining maqsadi har doim bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi, unda dunyoni va o'z-o'zini anglashga ehtiyojning ortib borishiga erishish kabi pedagogik jarayonning asosiy maqsadiga hamohang bo'lishi kerak”³. Shuning uchun ham har qanday maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy sharti jamoaning har bir a'zosi bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga mas'ulligi bilan belgilanadi.

Ko'rinib turibdiki, bola shaxsini rivojlantirish vazifasi MTM rahbari boshqaruv faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'likdir. Rahbarlik ishi tarbiyachilarning bolalarga pedagogik yordam berish yuzasidan intilishlariga uygunlashganda, ish uslubi muntazam takomillashtirilganda, ta'lim muassasasining o'z boshqaruv konsepsiyasi joriy etilgandagina yuqorida nazarda tutilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarish mumkin.

3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: — Nihol|| nashriyoti, 2013, 2016.

Bunday rahbarlik konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi aksariyat hollarda boshqaruv tamoyillarining yaxlit va imkon darajasidaligiga ham bog'liqdir. Boshqaruv tamoyillari deganda rahbarning ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda o'z faoliyatini qanday usul va asoslarda ruyobga chiqarishi tushuniladi.

MTM rahbarlarining boshqaruv faoliyati yo'nalishlarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi va uzviyligini ta'minlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Ya'ni bu jihatlar o'z-o'zidan maqsadga ko'ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi o'zaro hamkorlik, o'zaro tushunish, o'zaro ta'sir jarayonining samarasi, jamoadagi qulay ruhiy muhit, jamoa a'zolari uchun yaratilgan shart-sharoitlar orqali belgilanadi. MTMning asosiy maqsadi umumiy bo'lib, u o'zgarmasa-da, mazkur maqsad belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar xamda jamoa a'zolarining tarkibi o'zgarishi natijasida MTM rahbarlari boshqaruv faoliyatining samaradorligi o'zgarishi mumkin.

Demak, MTM rahbarlari boshqaruv faoliyatining samaradorligi jamoadagi qulay ruhiy muhit, jamoa a'zolari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, rahbarlar, mutaxassislar va tarbiyachilarning bilimi, kasbiy ko'nikma va malakalari darajasiga bog'lik bo'lishi bilan bir qatorda, MTM rahbarlarining boshqaruv faoliyati yo'nalishlarining o'zaro bog'likligi, aloqadorligi va uzviyligini ta'minlash uchun tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etilishiga ham bog'lik bo'lishi MTM rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi va bu o'z navbatida, MTM rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni inobatga olish zaruriyatini belgilaydi.

MTMni boshqarishda pedagoglar sog'lom raqobat, hamkorlik asosida metodik ishlarni tashkil etish va demokratik boshqaruvga doir boshlang'ich amallarini rivojlantirish orqali ishtirok etadilar. Bunda MTM rahbarining vazifasi — har bir pedagogning o'zida kuch topa olishiga, o'z kasbiy maxratini oshirib borishi uchun hali ishga solinmagan imkoniyat- larni topishiga yordam berishdan iborat buladi.

Rahbarning ish uslubi, uning shaxsiy hamda kasbiy sifatlari MTMdagi ish tartibiga, muassasasa faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Shuningdek, ta'lim muassasasida boshqaruv, eng avvalo, shaxsiy sifatlarni tarbiyalab borishga asoslanmog'i zarur. Ayni mana shu yondashuv boshqaruv faoliyatining nafaqat rahbarga, balki butun jamoa a'zolariga tegishlilikini ta'minlaydi. Va bu bilan muassasasa boshqaruv tabiiy ravishda engillashadi. Jamoada alohida ahamiyatga ega bo'lgan axloqning, o'zini tutish odobining shakllanishiga, hamkorlik muhitining yaralishiga olib keladi.

MTM rahbarlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirish, uning natijaviyligini ta'minlash, qulay ta'limiy muhitni qaror toptirish va barqarorlashtirish uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, pedagog xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish o'z navbatida tizimli yondashuvni tatbiq etish zaruratini belgilaydi.

Ko'pchilik mutaxassislar rahbarlik uslublarini tasniflashida mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy tamoyili sifatida yakkaboshchilik ustuvorligiga e'tibor berishadi. Shundan kelib chiqib, rahbarning boshqaruv faoliyati asosiy uslublarining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tamiz:

1. Avtoritar uslubda rahbar o'z irodasini qo'l ostidagilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, rag'batlantirish va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu xil boshqaruvchilik bevosita buyruq va farmoyishlar berishga asoslanib, boshliqqa so'zsiz bo'ysunishni taqozo qiladi. Jamoa a'zolarining bevosita muloqotda bo'lishni chegaralab qo'yadi. O'zining noo'rin harakatlarining tanqid qilinishiga chiday olmaydi. Bunday vaziyatda xodimlarning mehnat jarayoniga munosabatlari, ayrim shaxsning manfaatlari psixologik jihatdan e'tiborga olinmaydi. U o'z xodimlariga ishonmaydi, barcha mavjud axborotlarni o'zi orqali o'tkazishga harakat qiladi. Bunday uslub ta'sirida inson o'z mehnatidan ko'nikmaydi, uning natijalaridan begonashib qoladi, mehnat unumdorligi pasayadi, ish sifati yomonlashadi, rasmiyatchilik avj oladi,

chaqimchilik, guruhbozlik kabi illatlarning kuchayishiga yakkahokimlikka intilish sabab bo'ladi. Bunday rahbar jamoadagi munosabatlarni izdan chiqaradi, jamoaning mehnat unumdorligi tushib ketishiga olib keladi.

2. Liberal (erkin ish yuritish) uslubi rahbarning o'z qarorlarini tavsiyalar ko'rinishida berish, xodimlarning ishiga kamroq, aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda rahbar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, xodimlariga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi. Liberal-rahbar turli xil nizolarning kelib chiqishidan cho'chidi, shuning uchun muassasa faoliyatini, asosiy ishlarni o'z oqimiga tashlab qo'yadi, shuningdek, o'z zimmasiga mas'uliyat olishni yoqtirmaydi.

3. Demokratik uslubda rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik bo'ysunuvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarni rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

Mazkur uslubda faoliyat ko'rsatuvchi rahbar tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, barcha bilan samimiy munosabatda bo'ladi, o'z mavqei ustunligini bildirmaydi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, qo'l ostidagilarga qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkonini beradi, ular tomonidan bildirilgan tanqidga to'g'ri munosabatda bo'ladi hamda turli xil vaziyatlarni inobatga olgan holda yondashuvlarni amalga oshiradi. Bunday rahbarlik uslubini takomillashtirish yo'nalishida quyidagi bir necha usul va shakllarni ajratib ko'rsatish mumkin:⁴

4.Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

a) innovatsiya orqali boshqaruv, bu faoliyat yo'nalishida xilma-xil tashabbuslar va yangiliklarni o'z ichiga oluvchi, ta'limning rivojlanishiga xizmat qiluvchi innovatsiyalarni ishlab chiqish talablarini belgilaydi;

b) maqsad yo'nalishidagi topshiriklar orqali boshqaruv - bu usuldagi boshqaruv birinchi o'rinda barcha bo'g'inlar bo'yicha maqsadga erishish yo'nalishida vazifalar belgilaydi, ma'lum bir belgilangan tartib va rejaga xamda tekshiruvlar taxliliga, erishilgan yutuqlarga asoslangan holda maqsadga erishish metodlari va yo'llarini belgilashda erkinlik beradi;

v) xodimlarning aloqadorligi orqali boshqaruv - maqsadni shakllantirish, shuningdek, uni amalga oshirish va tarbiyalash jarayonida xodimlarning ishtirokini ta'minlash;

Rahbarlar u yoki bu uslubni tanlashda aniqlangan qator omillarni hisobga olishi zarur:

1. Vaziyat (stress, tinch aniqlanmagan). Masalan, vaqt ziq vaziyatlarda avtoritar uslub o'zini oqlaydi.

2. Topshiriq (aniq tuzilishga ko'ra). Murakkab topshiriqlarni bajarishda ekspertlarni jalb etish, davra suhbatlari tashkil etish kerak va bunda demokratik uslub zarur.

3. Guruh (uning a'zolarining jinsi, yoshi, barqarorligi). Topshiriqlarning bajarilishiga qiziquvchi, o'zaro inoq jamoa uchun demokratik yoki (ijodiy jamoada, topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashuvda) liberal uslubni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi

MTMdagi pedagogik jarayonga ilmiy yondashgan holda rahbarlik qilish pedagogik jamoa faoliyatining qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiradigan boshqaruv metodlari muammolarini yanada dolzarblashtiradi.

Pedagoglik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra umumiylik va xususiylik xususiyatlariga ega. Har bir pedagogning muhim hayotiy o'rnini belgilovchi maqsadi - o'z ishini mukammal egallab, MTM boshqaruv tizimini puxta, mahoratli boshqara olish san'atiga ega bo'lishdir.

Rahbar mahorati uning pedagogik faoliyatida ko'rinadi. Rahbar, avvalo, pedagogik jarayonning qonuniyat va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda rahbarning umumlashgan malakalari uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat - bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada mahorat bo'lish mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy rahbar mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir.

Pedagogik mahoratga yetishish rahbar-pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik mahorat – tarbiyachining shunday **shaxsiy** (bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyliligi, nazokati va h.k.) va **kasbiy** (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z mutaxassisligini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarligida, yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun har bir rahbar o'z davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy – axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib toptirishi lozim.

Shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli egallashi, shuningdek uni ijodiy ravishda amalga oshirishning shartlari hisoblangan xususiyatlariga qobiliyat deb ataladi. Har bir inson takrorlanmaydigan individ bo'lib, uni muayyan faoliyat turiga layoqatli qiluvchi omil kishining o'z xususiyatidir. Ishdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan uning qobiliyati bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. – T.: 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: 1997.
3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. –T: 2005. 189-b.
4. Karimov I.A.. Adolatli jamiyat sari. – T.: O'zbekiston, 1998.
5. Sh.M.Mirziyoyev. 2017 yil 7 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi ma'ruzasi. T. . : “O'zbekiston” -2018 y.
6. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: —Nihol|| nashriyoti, 2013, 2016.
- Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
7. Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa: Ucheb.posobie: V 2 kn. – z – e izd. – M.: Gumanit.izd.sentr VLADOS, 2000. – Kn.2: Rabota psixologa so vzroslymi. Korreksionnye priomy i uprajnenie. 52 – 55 str.
8. Sosnin V.A., Lunev P.A. Kak stat xozyainom polojeniya: anatomiya effektivnogo obsheniya. – M.: izdatelskiy sentr «Akademiya», institut psixologii RAN, 1996g 186 str
9. Крутецкий В.А. Психология. Учебник для слушателей педагогических училищ. - М.,1987
10. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Pedagogik mahorat. – T.: O'qituvchi, 2003.
11. Krutetskiy V.A. Psixologiya. Uchebnik dlya slusateley pedagogicheskix uchil G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
12. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
13. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
- ishchi. – M:1987.
14. Abduraxmonov F. Davletshin M.G. «Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak».-Toshkent.1996 y.
15. www.ime.ru
16. www.mpei.ru
17. <http://www.universalinternetlibrary.ru/#>

ФОРМИРОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Холбоева Ойширин Норбековна

*преподаватель русского языка школы №33
Нарпайского района Самаркандская область*

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования читательской грамотности на уроках русского языка, организованной в формате лично-ориентированного обучения в школе.

Ключевые слова: самостоятельная работа, структура учебной деятельности, работа с книгой, модель.

Что значит «уметь читать»? Над этим вопросом размышлял еще К.Д. Ушинский. «Извлечь из мертвой буквы живой смысл, – говорил великий педагог – Читать – это еще ничего не значит, что читать и **как понимать** прочитанное – вот, в чем главное»[\[1\]](#).

К сожалению, часто современные школьники способны лишь воспроизводить текст, произносить звуки, однако совершенно не умеют его интерпретировать, определять основную мысль, делать выводы, а самое главное, применять полученную информацию для решения каких-либо практических задач в обычной жизни. Именно поэтому необходимо работать над формированием **читательской грамотности учащихся**.

В исследовании PISA «*читательская грамотность* – способность человека *понимать и использовать письменные тексты, размышлять о них и заниматься чтением для того, чтобы достигать своих целей, расширять знания и возможности, участвовать в социальной жизни*».

Далее будут представлены приемы по формированию читательской грамотности, которые я использую в своей педагогической практике на уроках русского языка и литературы.

«Банк идей (гипотез)», куда ученики «складывают» свои мысли о том, что будет изучаться на уроке. Так в 5 классе при изучении «Сказки о мертвой царевне...» А. С. Пушкина. Я предлагаю вниманию детей в начале урока несколько предметов: яблоко, зеркало, веретено. Дети высказывают предположения, о каком произведении пойдет речь на уроке, находят лишний предмет – веретено. Вспоминают сказку «Спящая царевна» В.А. Жуковского, изученную ранее.

Этот прием учит выдвигать гипотезы исследования и определять, доказаны они или опровергнуты, что очень важно для формирования навыков научно-исследовательской деятельности учащихся при работе с текстом.

«Верные или неверные утверждения», или «Верите ли Вы?». Этот универсальный прием может быть началом урока, когда учащиеся, выбирая «верные

утверждения» из предложенных учителем, описывают заданную тему. После знакомства с основной информацией (текст параграфа, лекция по данной теме) мы возвращаемся к данным утверждениям и просим детей оценить их достоверность, используя полученную на уроке информацию.

Кроме того, этот прием можно использовать при проверке знания содержания художественного произведения, критической статьи, теоретического материала в учебнике русского языка.

«Переведи сказку». В своей практике на уроках русского языка я часто использую лингвистические сказки Т.Г.Рик.^[2] Например, при изучении спряжения глаголов дети встречаются с рыцарем Неопределенной формой, который расселяет запутавшихся героев сказки по их городам: Второспряженску и Первоспряженску. Учащимся необходимо «перевести сказку на научный язык», записав правило определения спряжения глаголов.

Такой прием формирует умение извлекать необходимую информацию из текста, применять ее при решении практических задач.

«Письмо с дырками (пробелами)». Я использую этот прием для анализа сочинения. Даже слабый ученик по готовому шаблону, вставив недостающие слова и предложения, способен создать свой текст и испытать успех.

«Лови ошибку». Универсальный приём, активизирующий внимание учащихся.

Формирует умение анализировать информацию; умение применять знания в нестандартной ситуации; умение критически оценивать полученную информацию.

На этапе изучения материала предлагаю детям найти ошибку в предоставленном тексте, опираясь на статью в учебнике; при проверке домашнего задания – на имеющиеся знания.

«Конкурс на лучшую шпаргалку». Форма учебной работы, в процессе подготовки которой отрабатываются умения «сворачивать и разворачивать информацию» в определенных ограничительных условиях. Это задания, в которых требуется работать с графической информацией: извлекать информацию, ориентируясь на слова (подписи под рисунками, названия столбиков диаграммы, название таблиц, схем); понимать язык графика, схемы, диаграммы. Так при изучении в 7 классе темы «Н и НН в причастиях» я предлагаю учащимся составить шпаргалку-схему «Алгоритм определения Н и НН в причастиях и прилагательных», тем самым актуализирую знания, полученные в 6 классе.

«Кластер». Кластер (англ. Cluster — пучок, гроздь) — объединение нескольких однородных элементов, которое может рассматриваться как самостоятельная единица, обладающая определенными свойствами.

1-й этап — посередине чистого листа (классной доски) пишется ключевое слово или словосочетание, которое является «сердцем» идеи, темы. 2-й этап — учащиеся

записывают все то, что вспомнилось им по поводу данной темы. В результате вокруг «разбрасываются» слова или словосочетания, выражающие идеи, факты, образы, подходящие для данной темы. Записывается все, что называют учащиеся, ничего не отсеивается. 3-й этап — осуществляется систематизация. После чтения учебника, объяснения учителя, учащиеся начинают анализировать и систематизировать изученный материал. Хаотичные записи слов-ассоциаций объединяются в группы, в зависимости от того, какую сторону содержания отражает то или иное записанное понятие, факт. Ненужное, ошибочное зачеркивается. 4-й этап — по мере записи появившиеся слова соединяются прямыми линиями с ключевым понятием. У каждого из «спутников» в свою очередь тоже появляются «спутники», устанавливаются новые логические связи. В итоге получается структура, которая графически отображает наши размышления, определяет информационное поле данной темы.

«Инсерт». Дети работают с текстом, маркируя его разными цветами, либо используют пометы- условные обозначения

Пометки могут быть следующие:

V- отмечается в тексте информация, которая уже известна ученику.

+ - отмечается новое знание, новая информация.

- - отмечается то, что идет вразрез с имеющимися у ученика представлениями, о чем он думал иначе.

?- отмечается то, что осталось непонятным и требует дополнительных сведений, вызывает желание узнать подробнее.

Для учащихся наиболее приемлемым вариантом завершения данной работы с текстом является устное обсуждение или заполнение таблицы. Обычно школьники без труда отмечают, что, известное им, встретилось в прочитанном тексте, сообщают, что нового и неожиданного для себя они узнали. При этом важно, чтобы ученики прямо зачитывали текст, ссылались на него.

Вариацией описанного приема является **«Таблица ЗХУ»**. Учащиеся заполняют таблицу «Знаю. Хочу узнать. Узнал.» Чаще всего использую такую таблицу при изучении биографии писателей. Колонку «Знаю» дети заполняют, опираясь на знания, полученные ранее, содержание колонки «Хочу узнать» формулируют в начале урока. В конце изучения темы, опираясь на информацию от учителя, статьи в учебнике, индивидуальные сообщения учащихся, заполняют колонку «Узнал», систематизируя материал. На оставшиеся вопросы второй колонки следует найти ответ дома.

«Мусорная корзина. Мясорубка. Чемодан». Данный прием использую на этапе рефлексии. Детям предлагаю три картинки и три колонки. Под изображением мусорной корзины необходимо написать, какая информация, полученная из текста, не пригодится в жизни. Под изображением мясорубки дети формулируют в виде тезисов, что необходимо осмыслить, переработать. Под рисунком чемодана

учащиеся записывают, что им пригодится в жизни и где они смогут применить, полученную информацию.

Подводя итог вышесказанному, следует отметить, что описанные приемы помогут учащимся научиться работать с разными видами текстов: быстро извлекать необходимую информацию, анализировать, сопоставлять и использовать полученную информацию в социальной жизни, т.е. способствуют формированию читательской грамотности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Асмолов А.Г. Формирование универсальных учебных действий в основной школе: от действия к мысли. Система заданий для учителя. – М.: Просвещение, 2010,- 159 с.

2. Доскарина Г.М. Исследование в действии: Способы и приемы повышения уровня читательской грамотности учащихся / Г.М. Доскарина, А.С. Сабитова // Молодой ученый. – 2016. – №10.4. – С. 19–21.

3. Карпова Н.П. Культура речи, чтение и грамотность как показатели жизненного потенциала нации. -URL:<http://www.rusreadorg.ru/issues/karpova/3.html> (дата обращения 21.12.2020). – Текст: электронный.

4. Кременцов А.П. Теория литературы. Чтение как творчество.- URL: www.litres.ru (дата обращения 28.11.2021). - Текст: электронный.

5. Рик Т.Г. Игры на уроках русского языка: 5 класс. – М.: ВАКО, 2011. – 128 с. – (Мастерская учителя-словесника).

6. К. Д. Ушинский. Родное слово : Кн. для детей и родителей. - Новосибирск : Мангазея : Дет. лит. Сиб. отд-ние, 1999. – 447с.

[1] Ушинский К.Д. Родное слово : Кн. для детей и родителей. - Новосибирск : Мангазея : Дет. лит. Сиб. отд-ние, 1999. – 447с

[2] Рик Т.Г. Игры на уроках русского языка: 5 класс. – М.: ВАКО, 2011. – 128 с

JAMIYATDA GENDER TENGLIK

Xurramova Intizor Ilhom qizi

Ilmiy rahbar

Kulliyeva Sayyora Tilakmurod qizi

1-Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rta guruh tarbiyachisi

Annotatsiya: *Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma'naviy darajasini avvalo shu yurt ayollarining ma'naviy saviyasi belgilaydi.*

Shavkat Mirziyoyev

Kalit so'zlar: *Lider qiz, patriarxal tizim, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA), streotiplar va jamoatchilik fikrlari, sotsiologlar, jinsiy tenglik*

Bugungi zamon taqozosidan kelib chiqib, O'zbekiston jamiyat hayotining barcha sohasida izchillik bilan davom etmoqda ya'ni taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yilmoqda. Har bir yangi bosqichda lider qiz va ayollarni ko'rish yanada shiddat bilan rivojlanayotgan zamonimizga mos, irodali zukko, bilimli va tadbirkor xotin-qizlar davrasi jamiyatni yangi marralarga yetaklamoqda

Har bir sohaga xotin-qizlar kirib kelmoqda. Kasblarda ajralish ya'ni " ayollarga mos kasb, erkaklarga mos kasb" degan tushuncha batamom nihoyasiga yetmoqda. Tenglik tushunchasini tanqid qiluvchilar, umuman tushunchalarning mohiyatini tan olsalar-da, unga yana bir ta'rif berishadi: Gender tengligi -bu ayolning ayol sifatida, erkak esa erkak sifatida rivojlanish imkoniyatidir.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik-bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra gender tengligi-bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anlash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarning fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan ziyod 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har o'n ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Xotin-qizlarning savodxonlik darajasi esa 99,98 % ni, ya'ni dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini tashkil etadi. O'zbekiston bundan faxrlansa arziydi. Biroq, bu to'liq natijaga erishdik degani emas.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44, Qirg'iziston 82, Tojikiston 70-o'rinlarni egallagan, Turkmanistonda esa bu haqda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritilib keladi. Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

Ushbu kontseptsiyani tanqid qiluvchilar asosiy postulatlarini keltirib, tenglik tushunchasi hamma uchun teng imkoniyatlar berishdir, deb ta'kidlaydilar. Gender tengligi kontseptsiyasini tanqid qiluvchilar buni deyarli imkonsiz deb bilishadi, chunki "erkak va ayol bir-biridan farq qiladi va nafaqat fiziologik, balki ruhiy jihatdan ham va shuning uchun "tenglik" haqida gap borganda "hech qanday savol bo'lishi mumkin emas", chunki jamiyat erkaklarni ayollar sevadigan ishlariga majbur qilsa (do'konlarga borish, kiyim-kechak sotib olish, yuzlarini

kosmetika bilan bezash, bolalarga g'amxo'rlik qilish, uyni shinam qilish) ular baxtli bo'lolmaydi. Ayol, o'z navbatida, jamiyat uni faqat erkaklar ishini bajarishga majbur

qilsa : baxtli bo'lmaydi: o'tin kesish, mashinalarni ta'mirlash, buldozer haydash". Biroq, gender tengligi nazariyasining tarafdorlari, bu fikr ko'p avlodlar

davomida patriarxal ta'lim va insonlarning ilmga qarshi nazariyalar, stereotiplar va jamoatchilik fikrlarini idrok etishga katta ta'sirga ega deb ta'kidlaydilar. Ba'zi sotsiologlarning fikriga ko'ra zamonaviy jamiyatda psixika, xulq-atvor motivlari va fikrlash uslubi jinsga bog'liq degan fikr hukmronlik qilmoqda.

O'zbekiston gender tenglikka oid -"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilishga boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha kechikdi. "Bu yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan 15 yildan buyon Oliy Majlisda yotgan ushbu qonun qabul qilindi va bu mamlakat uchun muhim qadam "deydi Demokratiya va inson huquqlari instituti direktori, yuridik fanlari nomzodi, adliya polkovnigi Sayyora Xo'jayeva.

Tenglik tushunchasini tanqid qiluvchilar, umuman tushunchaning mohiyatini tan olsalar-da, unga yana bir ta'rif berishadi: Gender tengligi - bu ayolning ayol sifatida, erkak esa erkak sifatida rivojlanish imkoniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Internet ma'lumotlari asosida;

Tanzila Norboyeva; Oliy Majlis Senati Raisi nutqidan 06.09.2022-yil.

www.arxiv.uz

www.mehnat.uz

USMON NOSIR SHE'RIYATI VA ULARNING TAHLILI.

Nizomova Dildora Toirovna

*Farg'ona tumani 28-sonli o'rta ta'lim
maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Oliy toifa*

Annotatsiya: *maqolada yurtimizning ajoyib shoiri bo'lmish Usmon Nosirning qalb kechinmalari asosida yozilgan she'rlarning tahlilini to'liq yoritib bergan.*

Usmon Nosir she'riyati, avvalo, hayotiyliги, jozibadorligi va isyonkorligi, ayni chog'da, sodda va ravonligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o'rin olgan. Shundan bo'lsa kerak, shoir she'rlari hamon davralarda tez-tez yod aytiladi:

30-yillarda ko'zga ko'ringan va el og'ziga tushgan iste'dodli shoir Usmon Nosir 1912 yil 13 noyabrda Namangan shahrida dunyoga keldi. Yoshligi Qo'qondagi bolalar uyida o'tgan Usmon o'rta maktabni bitirgach, 1931 yildan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Pedagogika akademiyasining til va adabiyot fakul'tetida Amin Umariy, Adham Hamdamlar bilan birgalikda tahsil oldi. Usmon Nosirning ilk she'rlari maktabda o'qib yurgan vaqtlaridayoq matbuotda ko'rina boshlagan edi. Shoirning «Quyosh bilan suhbat» (1932), «Safarbar satrlar» (1932), «Traktorobod» (1934), «Yurak» (1935), «Mehrim» (1936) kabi she'riy to'plamlari, «Norbo'ta» va «Naxshon» dostonlari birin-ketin nashr qilindi. Uning «Norbo'ta» (1932) asarida O'zbekistondagi fuqarolar urushi mavzui, «Naxshon»da qardosh arman xalqi farzandlarining ozodlik uchun intilishlari kuylangan bo'lsa, antik dunyodagi qullar kurashi «Nil va Rim» kabi poetik asarlarida o'z aksini topdi. Usmon Nosirning «Yurak» she'ri shoirning insoniy xarakterini va ijodiy taqdirini o'zida mujassam etgan she'rlar sirasiga kiradi. Shoir Yurak obrazini o'zining ilhomi, ijodiy intilishlari, his-tuyg'ulari, orzu-o'ylarining mujassam timsoli deb biladi. Ya'ni uning Yurakka murojaati, aslida, o'z shaxsiga, ijodiga murojaatidek yangraydi. Va bundan tashqari «Yo'lchi» she'rini o'qirkanmiz, chinakam muxlis ko'ngli bir narsani aniq ilg'aydi. U ham bo'lsa, lirik qahramon — shoir ko'pchilik oddiy odamlar singari yetishish mumkin bo'lgan orzular ko'yida yurgan odam emas. Uning talpingan manzili «murodga qasd qilib yugurish»ni talab qiladi. Bu manzillarga yetmoq hali ne-ne mehnat va g'amni, qanchalar shiddatli bo'ronlarni uning boshiga solajak... yana shunisi aniqkim, Inson bolasi yaralibdiki, qullikka, erksizlikka, mutelikka qarshi kurashib keladi. Tabiatan erk farzandi bo'lgan shoir uchun o'zidan minglab yillar ilgari o'tgan insonlar qismati ham begona emas. U erksizlikning har bir qurbonini o'z tug'ishganiday ko'radi, zolimlardan ularning xunini so'raydi. Mazkur she'r go'yo Usmon Nosirning o'zini kutayotgan og'ir erksizlik, surgun zulmatlariga oldindan ko'targan isyonidek yangraydi! Usmon Nosir ham ijodida ana shu haqiqat formulasini bergani, unga yechimni tarix va bugundan qidirgani kaltak bo'lib boshiga kulfat keltirdi.

Ham o'tmish, ham bugun, ham kelajak uning dilrabo she'rlariga mavzu bo'ldi. U o'tmishda zulm, istibdod iskanjasida ezilgan benavolar, qullarning fojiasini o'z davri tuzumi bilan qiyosladi. Farqni topolmagach, "Qiyinalaman. Tirishaman. Hushim parishon", -deya mahzunlanadi.

Biz oldingi darslarimizda Usmon Nosir va u yashagan davr haqida bahslashgan edik. Ijodkor ruhiyatini ochuvchi, yangi bahslarga sabab bo'lguvchi yana bir ilhom hosilasi borki, usiz biz Usmon Nosir she'riyatini to'la anglay olmaymiz. Bu she'r umr bahorining 23-sida yozilgan bo'lib, u (6 band=har bir band 14 misra=84 satr) "**Nil va Rim**"dir. **Usmon Nosir** nafaqat adabiyotni, balki dunyo tarixi, falsafasi, san'atini ham chanqoqlik bilan o'zlashtirishga, buyuklarga ergashib ijod qilishga oshiqardi. Shu bois uning bitiklarida katta g'oyalar, badiiy tafakkurning erkin parvozlari, fikrning o'tkir yolqinlari yaqqol aks etardi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmon nosir hayoti va ijodi.
2. S. Qambarova "Shoir o'lmaydi"
3. "Tafakkur"

LINGVISTIKADA MATN TUSHUNCHASIGA OID QARASHLAR

Shermatov Akram Abduxakimovich

*Falsafa fanlar nomzodi, dotsent Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi va tarjimonshunoslik Fakulteti Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrası mudiri*

Hamroyev Sardor Akmaljon o'g'li

*Samarqand davlat chet tillar institute Ingliz filologiyasi va tarjimonshunoslik
Fakulteti Magistratura bo'limi 2-bosqich talabasi. Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrası stajyor-o'qituvchisi.*

Annotatsiya: *ushbu maqolada lingvistika, matn tushunchasi, matnga doir qarashlar va uning turlari va ularga berilgan mualliflik tahlillarini yoritib berilgan*

Abstract: *This article covers linguistics, the concept of text, views on text and its types and analysis.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются языкознание, понятие текста, взгляды на текст и его виды и анализ.*

Tayanchtushunchalar: Matn, minimal matn, maksimal matn, hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izohmazmunli matn, didaktik matn, xabar mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn.

Matn nima? Biz eshitadigan va talaffuz qiladigan tovushlar va bo'g'inlardan so'z hosil qilamiz. Ma'no jihatdan bog'langan so'zlar gap hosil qiladi. Gap to'liq fikrni ifodalaydi. Ammo ba'zida shunday bo'ladiki, fikr va his-tuyg'ularni ifodalash uchun bitta jumla yetarli emas. Keyin bir nechta jumalarni ma'no va mazmun jihatidan birikishidan matn tuziladi. Shu o'rinda o'rinli bir savol paydo bo'ladi "Matn nima?"

Bu savolni javobini ikki xil ko'rinishdagi misollar guruhini taqqoslash orqali ko'rib o'tamiz. Keling, ular qanday farq qilishini bilib olaylik.

1. Hasharotlar juda ko'p, ularni hamma joyda uchratasiz. Ba'zi o'simliklar hali ham oktyabr oyida gullaydi. Bir kuni Ahmad va uning otasi baliq tutayotgan edi. Erta bahorda bog'da qayin daraxti gullagan.

Bu gaplar barchasi nima haqida ekanligini ayta olasizmi? -Yo'q.

Birinchi gapda hasharotlar, ikkinchi gapda kuzgi o'simliklar, uchinchi baliq ovlash, to'rtinchisi bahorgi qayinzor haqida. Ushbu yozuvdagi jumlar ma'no jihatdan bog'liq emas, ularning umumiyliги yo'q.

2. Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikka seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig'chday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi. Havoda ananas isi aralash yong'oq xazonlarining o'tkir hidi gurkiradi. (O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi")

Ushbu jumlar guruhi nima deydi? Muallif tabiatdagi kuzgi o'zgarishlar haqida gapiradi. Birinchidan, iqlimning qanday o'zgarishi, tabiatda boladigan mavsumiy o'zgarishlar, keyin kuzning ziqna quyoshi haqida. Ushbu jumlar va sarlavhalarning mavzusini belgilashingiz mumkin, ya'ni. ismni o'ylab toping: "Kuz keldi" yoki "Kuzgi o'zgarishlar".

Matn - bu ma'no jihatdan bog'liq bo'lgan gaplar turkumidir. Matndagi barcha jumlar umumiy mavzu bilan birlashtirilgan.

Ma'lumki, «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atidamatn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan "tekst" so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug'atning 156-betida "tekst" so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.

3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Bu ta'rifda matnning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida matn (tekst) so'zi anglatadigan ma'no yanada ortganligini ko'rishimiz mumkin. Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn kabilar ham iste'molda faollashdi.

Matnning ta'rifiga asoslanib, birinchi guruh jumalari matn emas degan xulosaga kelishimiz mumkin, chunki gaplar ma'no jihatdan bog'lanmaydi va umumiy mavzu bilan birlashtirilmaydi. Ikkinchi guruh jumalari esa matndir, chunki jumlar ma'no jihatdan bog'liq ekanini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Matn tiplari:

Ma'lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan nutqiy butunlik matn deyiladi. Matn tuzilishi 2 xil bo'lib, ular mikro matn va makro matndir.

Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikga ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi **mikro matn** deyiladi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikro matnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga **makro matn** deyiladi.

Matnning turlari ham 2 xil: ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn.

Ma'lumotnoma matnida bo'lib o'tgan voqea hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Ijodiy –tavsifiy matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviriy xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir.

Ilmiy, publitistik va badiiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlaridir.

Tasviriy matnlar(Le textedescriptif - deskriptivmatn). Bunday matn tinglovchiga noma'lum bo'lganbiron kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab berish maqsadidat uzilganbo'ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Ya'ni, tasvirlanayotgan obyektning dastlab, birlamchi xususiyatitilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan so'z yuritiladi.

Masalan:

Yakan degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'l otarchilar pulni «yakan» deyishadi. Aslida esa yakan –qamishzorda o'suvchi o'simlik. Yakanni o'rib olib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, yakan esa, aksincha, pastak o'simlik. Shunday bo'libdiki, bir kuni yakan qamishga qarab:

- O', birodar, ha deb g'o'ddayaverma, salgina egil. Ollohning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik, - debdi.

Qamish unga qaragisi ham kelmadib, javob ham bermay burnini jiyirib qo'ya qolibdi. Vaqti-soati kelib avval qamishni, so'ng yakanni o'ribdilar. Tasodifni qarangki, o'sha qamishdan yasalgan bo'yroni bir uyga to'shabdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to'sinlariga uzumlarni osibdilar, yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o'taveribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, yakanesa tepada ekan. Oyoqosti bo'laverib xorlangan qamish axiyri yakanga qarab zorlanibdi:

- Meni o'rib olib quritdilar, tepkilab qovurg'alarimni sindirdilar,so'ng suvga bo'ktirdilar. So'ng qayirib-bukib mana shu bo'yra holiga keltirdilar. Endi esa tinimsiz, har kuni tepkilaydilar. Bu ham yetmaganday salqayirib, ostimga noslarini tupuradilar. Bu zorlanishni eshitib yakan debdikim:

- Siz bekorga g'o'ddaydingiz. G'o'ddayib o'saverdingiz. Ichingiz g'ovak ekanini unutdingiz. G'ovak bo'lganingiz uchun ham tepkilashdan bo'lak narsaga yaramadingiz. (T.Malik)

Izoh mazmunli matnlar(Le texteargumentatif – argumentli matn). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish izoh mazmunli matn tipining o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o'rtasida mantiqiy bog'liqlikning bo'lishi muhim sanaladi. Bunday matnda chunki, zero, lekin, aslida, shuninguchun,to'g'risini (ochig'ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin.

Didaktik matnlar(Le textee explicatif – eksplikativ matn). Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn didaktik matn deyiladi. Matnda muayyan maqsad

bilan qo'llanilgan maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallar didaktema deyiladi. Didaktemalarning matn ichiga singdirilish tarsi turlicha bo'ladi. Muallif bunday didaktemalarni matnga to'g'ridan to'g'ri olib kiradi va uning qaysi janrga taalluqli ekanligini aytib o'tadi.

Buyruq-istak mazmunli matnlar(Le texteinjonctif – inyunktiv matn). Buyruq- istak yoki maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta'qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq – istak mazmunli matn deyiladi.

Bandasining boshi – Ollohning toshi deyilar. Boshingga ko'rgulik tushsa, noumid bo'lma: buluto'tkinchi, Quyosh esa abadiydir... (O'.Hoshimov)

Hissiy ifoda mazmunli matnlar(Le texteexpressif–ekspressiv matnlar). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalagan matn hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Erta bahor – cheksiz sog'inching ufqi. Muzga aylanishdan bosh tortgan isyonkor tomchilar yomg'ir bo'lib to'kilmoqda. Yomg'irning daraxtga, kurtakning tomchiga aytadigan «shiviri» yig'ilganey-yig'ilgan. Xo'ngrab-xo'ngrab, bo'zlab-bo'zlab dil rozini aytayotgan erta bahor buluti aslida osmon dardidan so'z ochishga botingan asov g'alayon. (Y.Akram)

Tilshunoslik fani bugungi kunga qadar tilning barchasi (fonologik, morfologik, sintaktik) larining har biri bilan bog'liq muammolar tadqiqida jiddiy yutuqlarni qoidaga kiritdi. Matn va uning tabiatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi.

Bugungi kunda matnning maqomi, uning til sistemasidagi o'rni, matnni lingvistik tahlil qilishdanimadan boshlamoq kerak, degan savollarga ham tilshunoslarning berayotgan javoblari bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Masalan, matnning maqomini belgilash masalasida ham ba'zan turli xil fikrlarga duch kelamiz. Matnning belgilar tabiati nimalardan iboratligi, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish kerakmi, degan masalalar xususida ham turlicha nuqtai nazarlarni uchratishimiz mumkin.

Matn tilshunosligi masalalari juda ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jumladan, V.Matezius, F.Danesh, V.Dressler, P.Hartman, I.Kovtunova, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospelov, T.Silman, N.Shvedova, K. Solganik, O.Moskalskaya, K.Abdullayev, N.Navro'zova kabi xorijlik tilshunoslar matn kategoriyasi haqida muhim fikrlarni ilgari surishgan. Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Chex olimi K.Gauzenblas matnni ham nutqiy faoliyat

sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli sifatida ogʻzaki nutqiy jarayon, deb talqin qiladi.

Tilshunos E. Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari oʻzaro zich aloqada boʻlgan va avtor nuqtai nazaridan maʼlum bir maqsadga yoʻnaltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan taʼrifni keltiradi. I. R. Galperin matnning maʼlumot berish, boʻlinuvchanlik, (aloqalar sistemasi), kontinuum (vaqtva makonizchilligi), qismlar avto semantikasi, retro speksiya va prospektsiya, modallik, yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasi mavjudligi haqida maʼlumot beradi. Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli boʻlgan, tugallangan, yozmashaklda mavjud boʻlgan, adabiy shakllangan, super frazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bogʻlangan, aniq maqsadli va pragmatic qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak. Tilshunos I. Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik boʻlib, u fikran va sintaktik jihatdan oʻzaro bogʻliq boʻlgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha toʻliq boʻladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos boʻlgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda.

Rus olimi M. V. Lyapon matn tavsifi quyidagi toʻrt belgiga koʻra asoslanishi mumkinligini koʻrsatadi:

1. Matn – bu jumlamning oʻzaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini oʻrganishda birdan-bir manbadir.
2. Matn bu soʻzlovchning nutqiy qobiliyatini roʻyobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qoʻllanilishini taʼminlovchi makon vazifasini ham bajaradi.
3. Matn bu soʻzlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.
4. Matn bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pogʻonasidir.

M. V. Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim omillaridan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba ekanligini taʼkidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdupattoyev M.T. Oʻzbek matnida super sintaktik butunliklar. –Toshkent, 1998.
2. Boymirzayeva S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. –Toshkent: OʻzME, 2009. -187 b
3. Galperin I.R. Tekst kak obʼekt lingvisticheskogo issledovaniya.
4. Yoʻldoshev B. Matnni oʻrganishning lingvostatistik metodlari. –Samarqand, 2008. -90 b.

5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.
–Toshkent: Fan, 2007. -122 b.

6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 286 b